

BANKIR

Roman

Birinchi bob

Kun oxirida quyosh cho'g'day qizardi. U xuddi alanga olib, o'z olovida yonib ketadiganga o'xshardi. Tezda ufqqa yonboshlab, kahrabo nurlari bilan Long-Aylend-Saund bo'ylab bir-birini quvlayotgan to'lqinlar o'rkachidagi ko'piklarga sanchildi.

— Shamol avjiga chiqayapti, — dedi Palmer keksa yaxtachiga qarab.

— Tashvishlanadigan joyi yo'q, — deya javob berdi qariya. Boshqaruvni Palmerga topshirarkan chaqqonlik bilan arqonni grot-machtaga tortib mahkam bog'ladi.

Palmer qariyaning qaddini rostlab, boshini sal qiyshaytirganicha shamol shishirgan kema old yelkanini kuzatayotganiga qarab turardi. Cholning baquvvat tanasi to'lqinlar tebratayotgan yaxta bilan birga u yoqdan-bu yoqqa borib kelardi.

— O'ngga buring, — dedi u Palmerga. — to'g'ri sohil minorasiga qarab haydang.

Berkxardt unga umuman qaramayotganini unutgan Palmer bosh irg'ab qo'ydi.

«Qariya kun bo'yi meni kuzatayotganini bildirmadi-ya», — deb qo'ydi o'zicha Palmer. Holbuki, Berxardt bunday sayrga yagona maqsad — Palmerni shaxsan sinab ko'rish uchun taklif etgandi.

— Kanalning etagi — Minoradan chapda, — dedi Berxardt.

U qayrilib qaradi va moviy ko'zlari Palmerning yuziga tushdi.

— To'xtash joyiga yuraver, — dedi qariya va yuzini o'girdi. Endi Berxardt kema tumshug'i yelkani soyasida edi, trubkasini olib unga tamaki joylay boshladi. Shu damda uni dunyodagi hech narsa qiziqirmayotgandek edi.

Qirg'oqdan esayotgan shamol esa borgan sari kuchayib borardi. Palmer yaxtaning silkinib, oldinga engashganini his qildi. U shoshganicha rulni aylantiradigan dastakni bo'shatdi, machta asta-sekin tik holiga qaytdi.

Sohilga yetay deganda yaxtani cho'ktirib yuborish ajoyib sayru sayohatning muvaffaqiyatli yakuni bo'lishi mumkin emas, — degan qarorga keldi Palmer. Agar Berxardt suzishni istamasa, mayliga, ixtiyorida ertangi kun bor hali. Harholda, qariya o'zining shanbalik hordig'ini buzmoqchi emas.

— Endi anqayma, ko'zingga qara, — baqirdi Berxardt. — Rulni o'ngga bur va haydayver.

Palmer «xo'p» deganday bosh irg'adi. U sayrning eng nozik pallasi boshlanganini his etgandi. Palmer o'z ishining ahvoli Chikagoda Berxardt idorasi tomonidan jiddiy tekshirib chiqilganiga shubha qilmasdi. Uning oilaviy ahvoli ham qariyaga yaxshi ma'lum edi, missis Berxardt ertalabki nonushta payti yana qandaydir dalillarni aniqlashga urinib ko'rdi. Biroq, aynan hozir, xuddi shu daqiqada, uning shaxsiy fazilatlari o'rganilmoqda.

— To'g'rilab qo'ya qol! — baqirdi Berxardt.

Palmer: «xo'p bo'ladi, ser» demoqchi bo'lib og'iz juftladi-yu, o'ylab ko'rib, indamay qo'ya qoldi. U rumpelni¹ mahkam ushlab, yaxtani to'g'ri portga haydadi. Grot-machtadagi yelkan shamolda shishib, yaxta shiddat bilan olg'a intildi.

Sohil aniq ko'rina boshladi. Palmer kuzatuv minorasidagi qizil kalta ishton kiygan dengizchining qiyofasini aniq ko'ra boshladi. Yaxta shitob bilan sohilga qarab borardi. Palmer ikkita yo'l-yo'l soyabonni va damlama solni ko'rdi, lekin kanal etagiga kirish yo'lini sira ilg'ay olmadi.

— Kanal etagi minoradan o'ngdami? — baqirdi Palmer.

— O'ng bort tomonda! — javob berdi Berkxardt.

Palmer tishlarini g'ijirlatdi. Qariya, shubhasiz, imtihon varag'imga baholar qo'ya boshladi, o'yladi u. Bu baholar, aftidan, uncha muhimmas.

Sohil dahshatli tezlik bilan Palmerni qarab bostirib kela boshladi. Yuragi tashvishli ohangda, gursillab urardi. Minora, bolalar, soyabonlar, cho'milish xonalari, baliqchi qayiqdagi hammasi kaftdagidek ko'rinib turardi. Faqat kanalning etagi ko'rinmasdi. Michigan ko'lida, yakka machtali yelkanli kemasi yoki ota-onasining qirq metrli yaxtasida u o'zini mutlaqo erkin tutardi. U yerda mo'ljal va masofa tanish bo'lganidan, hatto mana shunday shitob ketib borayotgan yaxtani to'xtatish uning uchun odatdagiday tanish, yoqimli ish edi. Bu yerda, notanish suvlarda esa, yaxtani to'xtash joyiga yetkazish azob-uqubat.

— Xuddi shunday boshqaraver! — qichqirdi Berkxardt.

Palmer rumpelni qo'yib yubordi, qayiq ohista burila boshladi, shamoldan shishib turgan yelkanlar shalvirab qoldi. To'satdan cho'kkan sukunatda Palmerning ro'parasida qoyalar to'sib turgan kirish kanalining etagi paydo bo'ldi.

— Yaxtani kanalga olib kir, — dedi Berkxardt.

Lekin qayiq yo'nalishdan chalg'igan edi. Palmer yana yelkanlarni yengilgina tortib, yo'nalishni ohista to'g'rilagan holda qayiqni kanalning toshloq etagi orqali sohilning sokin suvlariga olib kirdi. O'ng tomonda, bir necha yuz yard² masofada Berkxardtning qayiqdagi saroyi — shamollar shiddatida hilpirab turgan qizil vimpelli mo'jazgina inshoot ko'zga tashlanardi. Mazkur saroy nimasi bilandir Keyp Kodning mittigina aksini eslatib turardi. Ehtimol, Berkxardt hozir shu uycha haqida gapirib qolar, deb o'yladi Palmer. Lekin o'sha zahotiyiq qariya yaxtaga oid barcha tashvishlarni uning o'ziga tashlab qo'yib, trubkasini qo'llari bilan shamoldan to'sib o't oldirishga urinayotganini his etdi.

Palmer kutilmagan dadillik bilan yelkanlarni yana shamolga to'g'riladi. Qayiq to'xtash joyiga qarab suzdi. Agar u meni shu tariqa sinab ko'rayotgan bo'lsa, o'yladi alam bilan Palmer, sayrimiz so'ngiga borib yuragi to'xtab qolsa, o'zidan ko'rsin.

Yaxta to'g'ri to'xtash joyiga qarab borar, bandargoh ko'rinishlari yiriklashib va yaqinlashib kelardi. Faqat eng so'nggi daqiqalardagina Palmer rumpelni keskin aylantirdi, qayiq o'ng bortga qarab burildi. Yelkanlari tushirilgan yaxta tezligini pasaytirdi, yo'nalishini sal o'zgartirdi. U harakatdan qariyb to'xtagan ko'yi arqon bog'lanadigan qoziqlarga taqalib bordi.

— Yaxshi eplading, — dedi qariya.

U o'rnidan turdi, arqonni qo'lida ushlaganicha chaqqonlik bilan prichal³ tomon o'tdi-da, arqonni ustunga ildi. — Men ham xuddi shunday qilgan edim. — qo'shib qo'ydi taxta to'shamali prichalga sakrab o'tarkan. — Vudi, qani, menga arqonning uchini tashlab yubor-chi. Keyin shag'al tosh to'kilgan, bosh binoga olib boruvchi uzun yo'lak bo'ylab asta yurib ketdi. U yo'l-yo'lakay sviterini yechib yelkasiga tashlab oldi.

— Kechga borib salqin tushadi, — ming'irladi u.

— Avgustning oxiri, axir, — nima ham qilardik. — Palmer ko'z qiri bilan ulkan emanga nigoh tashladi. Undagi bittagina yaproq ham bandidan uzilib, havoda aylana-aylana yo'lakka, ularning oyoqlari tagiga tushdi.

— Odatda, bayram kunlari shaharga ko'chib o'tamiz. Edis bolalar bilan hali kelganicha yo'q. Bu safar ular men qaytib borgunimcha kutib turishadi.

— Shunday qarorga o'zing keldingmi yoki xotiningmi?

— O'zim.

Ular anchagacha indamay qiyalikdan ko'tarilishdi.

— Bordi-yu, sen Nyu-Yorkda biror hafta ushlanib qolsang-chi? Nima deb o'ylaysan, sening yordamingsiz bu yoqqa ko'chib o'tishni eplarmikin?

— Eplaydi, albatta. — Palmer nafasini rostlab oldi: qiyalik borgan sari tikka ko'tarilib borardi. — Vudi, katta o'g'lim yordam beradi. U o'n besh yoshga to'ldi.

— O'g'illaring ikkita edi, shekilli?

— O'g'illar ikkita, yana qizim Jerri ham bor. — Bularning hammasi Berkxardtga yaxshi ma'lum ekaniga Palmer shubhalanmasdi. Lekin nega endi o'zini bilmaslikka olayotganini tushunib bo'lmasdi. — Hademay u ham o'nbir yoshga to'ladi, — davom etdi Palmer, — u Vudidan keyin, ikkinchi bo'lib dunyoga keldi.

Berkxardt endi indamay borardi, Palmer birdan tushundi, qariya nafas olishga qiynalayotganini yashirishga urinardi. Asta-sekin yo'l tekislandi, ular do'nglikning eng tepasiga ko'tarilishdi. Berkxardtning hashamdor uyi ular oldida namoyon bo'ldi. Botayotgan quyosh nurida uyning zangori qoplamasi yashilroq ko'rinib ketdi.

Qurilish uslubining hashamdorligiga qaramay, uy yaxshi taassurot qoldirarkan deb o'yladi Palmer. Markaziy inshoot ikki qavat hamda bo'y-basti bo'yicha ustunli peshayvonga ega edi. O'ng qanotda, aftidan, istiqomatgohlar, chapda esa xonadondan uy ortidagi boqqa to'g'ri olib chiquvchi yo'lak bilan chegaralangan edi. Imoratning umumiy ko'rinishi, ayniqsa, hayratga solardi...

— Men sendan bu haqda so'ragan edim, — nafasini rostlab olgan Berkxardt uning fikrini bo'ldi. — Bordi-yu, Nyu-Yorkda yana bir necha kun qoladigan bo'lsang, bu sening oilangni qiyin ahvolga solib qo'ymaydimi?

— Ular bunga allaqachon ko'nikib qolishdi.

Berkxardtning kichik-kichik, ammo o'tkir ko'zlari o'sha zahoti u tomonga qadaldi. Lekin Palmer nigohini allaqachon chetga burgandi.

— Otang paytida u yoq-bu yoqqa borib turishga to'g'ri kelmasdi, shekilli?

— Urush boshlangach, vaqt-vaqti bilan borishga to'g'ri kelardi.

— Garovga narsa qo'yish munosabati bilanmi? — qiziqdi qariya.

— Avvaliga bu mol-mulkni baholash bilan bog'liq bir ish edi, — dedi Palmer. — urush tugagandan keyin esa, mana, ikki yildirki, men butunlay boshqa ish bilan bandman. Biz qarz beramiz... — uning ovozi o'chdi, birdaniga bu mayda-chuyda gaplar qariya uchun zerikarli ekanini anglab qoldi.

— Mening bilishimcha, sen bir vaqtlar Kredit boshqarmasida ishlarding.

— Ha, urush oldidan. Juda oz ishlaganman. 1950-1951 yillar oralig'ida, — qo'shimcha qildi Palmer, — men tijorat qarzi bilan bog'liq ishlarda qo'l qabartirganman.

— Sening otang bankir hamma narsani bilishi kerak, deb hisoblarkan, shu rostmi?

Berkxardt birdan to'xtadi, taroshlanmagan toshdan tiklangan devorni suyab turuvchi ustunlardan biriga qarab qoldi.

— Qandaydir yaramas, — dedi u ohista, — chirigan olma otgan ekan. Go'yo kaptarlar yil bo'yi shu yerga o'tirib, mana shu ustunni axlati bilan bejab tashlaganday.

— Olma yuqini suv bilan yuvib ketkizsa bo'lar deb o'ylayman.

— Yo'q, mumkinmas, qurib ketsin! Olma kislotasi kuydiradi, uni ketkazib bo'lmaydi. U toshni oqartiradi, — to'ng'illadi qariya. — Qum bilan ishqalash kerak, shekilli! — Qariya boshini chayqaganicha burildi-da, uyiga qarab yurdi. — Sen, shuningdek, matbuot va reklama masalalari bilan shug'ullanarding-a?

Palmer bu savolmi yoki tasdiqlash ekanini uncha tushunmadi.

— Ha, shunday bo'lgandi, — deya javob berdi u qariyaning so'zi ohangida.

— Bundan o'n besh yil burun, — dedi qariya, — otang reklamani ahamiyatini, matbuot bilan mustahkam aloqa o'rnatish zarurligini yaxshi tushunib yetganiga ishonish qiyin. Ammo, shuni tan olish kerakki, otang seni bu sohaga yaxshi tayyorladi. Hozirgi paytda bank bilan matbuot aloqasini amalga oshirayotgan arboblardan ayrimlarigina bankning amaliy jarayonlariga tushunadi. Bularning aksariyati jurnalistlar, reklama bo'yicha vakillardir. Ular orasida bankirni uchratmaysan.

— Biroq, ularsiz ishning yuritilishi ham qiyin, — dedi Palmer beparvogina. — Agar qo'l ostida shu soha mutaxassislari bo'lmaganida nima ham qila olardim, hech tassavur etolmayman.

— Albatta, ularning xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Endilikda bu yigitlarning oshig'i olchi. — Berkxardt garaj tomonidan uyga olib kiruvchi yon eshikni ochib yubordi. — Ana shunday tajribaga ega seningdek kimsani qidirib topish amri mahol. Qani, kir ichkari.

Qorong'i dahlizga kirgach, pixini yorgan bu qari qirchang'i o'yinning oxirigacha qartalarini ocharmikan, deb so'radi Palmer o'zidan. Hali savdo bitmasdan turib kelishuvdan xursand ekanini kim ham tan olardi?

Uy oldida, qora-tillarang yo'llar bilan bo'yalgan bostirma ostida, og'ir marmar taxtali stol atrofida tartibsiz holda to'qilgan oromkursilar turar, stol ustida esa sigaretlar va kuldonlar tayyorlab qo'yilgan edi.

Palmer hammomga kirib chiqdi, kiyindi va endi oromkursida o'tirganicha chorboqqa qarab huzur qilardi. Osmonda kunbotar shafaqlari so'na boshlagandi. Berkxardt uning yoniga o'tirdi, trubkasini tamaki bilan to'ldirdi-da, cheka boshladi.

Bosh xizmatkor patnis keltirib stolga qo'ydi va devordagi tugmani bosdi. Yongan chiroq yorug'ida Palmer ikki shisha viski, uchta stakan, sifon va muz solingan kumush halqali yog'och chelakchaga ko'zi tushdi.

— Bilasanmi, — dedi Berkxardt, ular o'z oromkursilarida qulayroq joylashib, bir qultumdan viski ichganlaridan so'ng, — odamlar endi har qanday bahonalar bilan to's-to'polon ko'tarmoqdalar. Ehtimol, ko'plar oddiy narsalarni murakkablashtirish uchun nimalar qilayotganini o'zing ham ko'rib turgandirsan.

— Ha, bu yangilik emas, — dedi Palmer qariya nimaga shama qilayotganini tushunishga urinib. — Men shuni aytmochimanki, bizlar avval ham shunga moyil edik, shunday emasmi?

— Bizlar emas, — e'tiroz bildirdi Berkxardt, — ular. Bunday chalkashliklarni chetlab o'tish bankirga qiyin bo'lgani yo'q deb o'ylayman.

— Siz agar mavhum g'oyalarni nazarda tutayotgan bo'lsangiz, — davom etdi Palmer, — u holda bunday g'oyalar oddiy fuqaro uchun juda murakkab ko'rinadi. Ular avom uchun qanchalar murakkab ko'rinishini tasavvur ham qilolmaysiz.

— Men aniq tushunchalar haqida ham gapirayapman. Hamma narsa to'g'risida, — o'ylab gapirdi Berkxardt. — Uylanish. O'lim. Foyda ko'rish. Hokimiyat. Ish. Qimmatchilik. Masala, shimni mahkam ushlab turish uchun kamarmi yoki yelkalar osha tasma taqib yurish ma'qulmi? — mana shunda. Umuman, ming bir mayda-chuyda. Odamlar hamma sohada pixini yorishdi. Bunday boshboshdoqlik orasidan o'tish amri mahol bo'lib qoldi.

Palmer diqqat bilan Berkxardtga nazar soldi. Qariya nimani nazarda tutayapti deb fahmlashga urinardi. Keksa bankirning kalta olingan oppoq sochlari boshini xira yoritayotgan chiroq nurida kumushdan quyilganga o'xshab ko'rindi. Uning o'tkir qirg'iy burni kichik og'zi va to'mtoq iyagi uzra keskin chiqib turardi.

Palmer viskini simirdi. Ko'p yillik bo'lsa kerak, deb o'yladi u o'zicha: shishada yorliq yo'q edi.

— Tushunarli, — ming'irladi Palmer, garchi hech narsa tushunmagan bo'lsa ham va birdan o'zini yomon ahvolga solganini his qildi. Bu ahvoldan chiqib ketish qiyin edi. Ushbu holat unga otasi oldida ham qiyin ahvolga tushib qolgan paytlarini eslatdi. Bundan o'zi ham necha yillar izza bo'lib yurgandi.

U yana bir qultum viski sipqordi-da, o'zi uchun kutilmagan bir taxlitda:

— Yo'q, to'xtang, — deb qoldi. — O'lay agar, aytgan gaplaringizdan biror narsa tushungan bo'lsam! — U kaftlari namiqqanini his qildi. Endi u o'zini tutib turolmaydi, dilidagi gapini ro'yirot aytadi. Axir bir soat oldin o'z jonini xatarga qo'yib bo'lsa ham Berkxardtning yaxtasini prichalga olib kirishdan tap tortmagan edi-ku. O'zi bu qariyada nimadir bor edi va xuddi ana shu narsa Palmerni uning orqasiga boplab tepki tushirishga undardi. Xuddi otasi bilan bo'lgani singari o'zini hamisha iskanjada tutib turish—yo'q, Palmer bunga aslo ko'nmaydi.

Berkxardt kulib yubordi. Shuncha vaqt ichida bu uning birinchi bor kulishi edi.

— Vudi, — dedi u, — oilada kenjatoy bo'lganingni hisobga olib, otang sen bilan jiddiy shug'ullangan deb hisoblayman. Garchi sen, ehtimol, buni qadrlamasang ham. — U qo'lini silkigan edi, stakanidagi muz parchalari shiqirlab ketdi.

— Sen o'zing bizning birinchi bor uchrashganimizni eslaysanmi?

— Chikagodami?

— Uinnetkda, sening otangnikida, — dedi Berkxardt. — Bu turg'unlikdan ikki yil oldin bo'lgandi. Buvang hali tirik edi. O'shanda necha yoshda eding? O'n birdami?

— Ha, shunday.

— O'shanda hammalaring birga yashardingiz. Onang, akang Xenli va sen. Akang Xenli tirik edi. Juda qiziquvchan bola edi-da. Sen bo'lsang, negadir odamlardan o'zingni olib qocharding. Bular hammasi yaxshi esimda. Biz otang bilan moliyaviy tanglikdan keyingina, yigirmanchi yillar oxiri, o'ttizinchi yil boshlarida qayta uchrashdik. Bu paytga kelib u onang bilan ajrashgan edi.

— Ha, to'g'ri.

— Xenli o'shanda necha yoshda edi? O'n beshda, — fikrini ovoz chiqarib aytganday dedi Berkxardt. — U juda e'tiborli va sadoqatli farzand edi. Yozgi ta'til paytlari u bankda ishlay boshlagandi. Sen bo'lsang, meningcha, uning qiziqishlariga moyil emasmiding, to'g'rimi?

Palmer darhol javob bermadi. Berkxardt juda sinchkov edi, biroq kekxa Palmer va uning o'g'illari haqidagi haqiqatni bilishga hech kim muvaffaq bo'lolmagandi.

— Ha, men bu bilan ancha keyinroq qiziqqa boshlagandim, — ming'irladi Palmer.

U qariyaning nima deyishini bilishni istardi. Chol u haqda nimalarni bilarkan? Hozir Berkxardt uning siymosida sodiq va mehribon farzandni, otasining jonkuyar vorisini ko'rishni istardi.

— Seni hamisha boshqa narsalar qiziqtirardi, — ta'kidladi Berkxardt. — Esimda, o'shanda sen bu yerda, sharqiy sohilda qandaydir voqeaga aralashib qolganding. Bu Redklif yoxud Smit kollejidan bir qiz bilan bog'liq edi aftidan?

Palmer cho'zib tirjaydi.

— Bu siz qaysi voqeani nazarda tutayotganingiz bilan bog'liq.

Berkxardt kuldi. Bu uning ikkinchi bor kulishi edi.

— Keyin esa, — davom etdi u, — urush vaqtida sen bir necha bor o'limdan qolding. Maxsus xizmat topshirig'imidi?

— O, unchalik emas! Oddiy harbiy topshiriq edi.

Berkxardt bir necha daqiqa trubkasini so'rganicha jim o'tirdi.

— Balki urushdan keyin, uyingda joylashib, o'z ishning bilan shug'ullana boshlagach, ancha yengil tortgandirsan?

Palmer shoshmasdan viskini ichishda davom etdi. Xavfli damlar o'tib ketdi.

— Ha, albatta, — u yolg'on gapirdi.

— Men bo'lsam, seni hamon o'n bir yoshli, yuvvosh, o'z hayotiy qarashlariga ega bolakay sifatida eslayman.

— Men hali hayotga o'z qarashlari bo'lmagan birorta ham o'n bir yoshli bolakayni uchratganim yo'q.

— Sen o'shanda Xenli yordamida Lindberg samolyotining modelini yasaganding, xuddi hozirgidek esimda: kattakon model, jin ursin, uzunligi qariyb bir metr kelardi. Sen o'z qurilmangda olis-olislarga uchib ketaman deb turib olganding, o'sha joyni esa Ki-ber-Pass deb ataganding.

— Bo'lmasam-chi, — dedi Palmer, — o'sha paytda fantastik sarguzashtlar kitobini ko'p o'qirdim. Kitobni Xenlidan olgandim. O'sha yilni men ham yaxshi eslayman.

— Esingdami, onang seni ko'ndirishga qancha uringandi: «Keragi yo'q, uchib ketma, Vudi, bu juda uzoq-ku. Biz boshqa ko'risha olmaymiz!» derdi onang. Sen bo'lsang: «Hechqisi yo'q. Ertadan keyin uyga qaytib uchib kelaman» derding... Ajoyib, yoshlikda kelajakni tasavvur qilish juda oson! Biroq, ona uchun bu unchalar oson kechmasdi. O'sha paytda men ham bunga ishonolmasdim. Mana, hammasi o'zgardi, go'yo bir kunda yuz bergandek.

— Ha, qariyb hammasi shunday, oradan atigi bir necha o'n yil o'tdi, xolos, — dedi Palmer.

— Xo'sh, nima demoqchiligim senga tushunarlimi? — birdan keskin so'radi Berkxardt. — Odamlar eng oddiy narsalarni murakkablashtirishga moyil. Buning hammasi oddiy narsalar ekanini ko'rish uchun alohida aql tuzilishi kerak.

— Alohida aql tuzilishi... bunga yo bankir, yoki go'dak ega bo'lishi mumkin.

Qariya tag'in kuldi va stakanidagi viskini ichib tugatdi.

— Shu desang, hozirgi paytda odamlar nimalar bilan shug'ullanmaydi, — dedi u nihoyat. — G'arb tamadduni haqida, erkin dunyo to'g'risidagi ulug'vor g'oyalarni aytmaysanmi. Hozir faqat shular haqida eshitasan, xolos.

— Bu tabiiy, chunki odamlar tashvishda... — Palmer jimib qoldi, u keksa bankir fikri rishtasini yo'qotib qo'ydi, deb o'yladi.

— Ularning tashvish tortishiga hojat yo'q. Hamma narsani chalkashtirib yuborishmasa bo'lgani.

Berkxardt biroz oldinga engashdi, shundan gavdasi birdaniga katta ko'rinib ketdi.

— Aytaylik, o'sha «erkin dunyo»ni olaylik, — u stakaniga tikilganicha so'zida davom etdi. — Boshqacha aytganda, bizning yarim sharimiz va butun Yevropani, «temir parda» ortidagi mamlakatlar bundan mustasno, albatta. Axir, biz buni shunday tushunamiz.

— Shunday.

— Shunday ekan, — Berkxardt qaddini rosladi va uning ovozida birdaniga tantanavor ohanglar eshitildi. — «Erkin dunyo» haqida gapirganingda, sen kapitalizmni nazarda tutasan, kapitalizm to'g'risida gapirganingda esa Amerika Qo'shma Shtatlarini o'ylaysan, chunki uni biz boshqaramiz. Qo'shma Shtatlar haqida gapirarkansan, sen banklarni nazarda tutasan, chunki pulni aynan banklar beradi. Shu tariqa: sen banklar deganingda, ular orasidagi eng nufuzlilari, ya'ni «Yunayted benk»ni ko'zda tutasan. Chunki eng yirik bank shu. — Qariyaning kichik-kichik moviy ko'zlari Palmerga juda jiddiy tikildi. — Sen «Yunayted benk» deganingda esa, — uning ovozi kutilmaganda juda past eshitildi, — demak sen men haqimda gapirasan.

Oraga bir necha soniyalik jimlik cho'kdi. Palmer qariya o'tirgan oromkursi g'ijirlaganini eshitdi.

— Men xuddi mana shu haqda gapirayapman, — xulosa qildi qariya. — Hamma narsaga oddiyroq qarash lozim. Menga bankning birinchi vitse-prezidenti kerak. O'z vazifangni bajarishga qachon kirishasan?

Ikkinchi bob

Dushanba kuni Palmer Grand Sentral stantsiyasida yerosti yo'ldan chiqdi-da, ertalabki quyoshning yorqin nuridan ko'zi qamashib, bir zum to'xtab qoldi. U ishga shoshayotgan kishilarga nigoh tashladi, Park-avenyu bo'ylab «Merrey Xill» mahallasi yo'nalishida ketayotgan ayollar poshnalarining taqillashiga quloq soldi.

Pastlab yoyilgan ertalabki tuman o'tkinchilarning tund yuzlaridagi tashvish soyasini ancha yumshatdi. Ular ko'zlarini dadil tikkanlaricha olg'a intildilar. Ayollarning lablari qon tomayotgan yaradek qizil, peshanalariga ajin to'r tashlagandi. Shahar aholisining yuzi dushanbada quyosh nurida rang-barang ko'rinadi.

Palmer bir qo'lidagi sakvoyajini go'yo uning og'irligini chamalayotgandek, ikkinchi qo'lga oldi-da, taksi topish ilinjida Park-avenyuning chap tomoniga o'tdi. Bundan yigirma daqiqa oldin Berkxardtning haydovchisi ikkalasini «flitvud»da Van-Kortlend parkidagi metro bekatiga eltib qo'ygandi. Park ertalabki shudringdan nam edi. Ular yerosti ekspressi vagoniga o'tirib, gazeta o'qishga tutindilar va yo'l bo'yi lom-mim demay o'qishda davom etdilar. Grand Sentral bekatida Palmer metrodan chiqdi.

Puritanlik bema'nilikdan boshqa narsa emas, o'ylardi Palmer. Qolaversa, bu xislat sharqiy sohildagi boshqa bankirlarga ham xosdir. Berkxardt shahar chekkasida o'zining uyi joylashgan Konnektikutdan Nyu-Yorkkacha shaxsiy «flitvud»ida borishi mumkin edi. Biroq, Bronksdagi metro stantsiyasidan nari o'tmasdi. U yerdan esa o'n besh tsentga yerosti yo'li bilan Broud-stritga yetib olardi. Ehtimol, uning puritanlik vijdoni bunga yo'l qo'ymagandir.

Yo'q, degan qarorga keldi Palmer, bu ishga vijdonning umuman aloqasi yo'q: Berkxardt metro uni Nyu-York markazigacha avtomobilga nisbatan ancha tez eltib qo'yishini allaqachon hisoblab chiqqan. Bronksdagi so'nggi stantsiya esa butun yo'l bo'yi vagonda o'tirib borish uchun ancha qulay.

Palmer Park-avenyu bo'ylab janubga qarab jadal yurib ketdi. U qo'lidagi sakvoyajini siltab borardi. Chekib olish uchun to'xtagan edi, orqadan kelib unga tenglashgan ayolning soniga turtib yuborishiga sal qoldi.

Nega endi men muncha qo'l siltab qoldim? — deya o'yladi Palmer, bu balki hayajondir: shuncha vaqt u Berkxardt bilan yurib, yuksak lavozimga tayinlanganini, o'zini qamragan quvonchni oshkor qilmaslikka uringan edi-da.

Yo'lni ochib bergan svetofoarning ishorasiga qarab, Palmer yosh juvon ortidan chaqqon yurib ketdi. U ayolning sonlari harakatidan ko'z uzmay borardi. Ayol o'ttiz to'qqizinchi ko'chaga burildi. Palmer burchakda to'xtab, uni nigohi bilan kuzatib qoldi. Nimadir yuragini qisdi. Ko'zlarini yumib, tomog'ida qotib qolgan havoni zo'rg'a yutdi. Uning boshi aylandi, yuzi qizib ketdi. U shu zahoti ko'zini ochdi. O'zini yiqilib ketayotgandek his etdi. Qulab tushmaslik uchun bir qadam orqaga tisarildi. Juvon esa olomon orasida ko'rinmay ketdi.

Palmer chuqur nafas oldi, ko'chani kesib o'tib, ohista oldinga yurdi, burchakdan burildi-da, «Yunion lig» klubi binosining aylanma eshigini itardi. Mashinalar signali, avtobuslar tormozlarining g'ijirlashi, ayollar poshnalarining taq-tuqi ortda qoldi. Uni xotirjam sukunat qamrab oldi. Palmer yo'lakning chap tomonidagi zina yonida ko'p yillardan beri turgan baland bo'lyi negrga imo qildi.

— Xayrli tong, mister Palmer, ser.

— Xayrli tong, — xuddi ushbu salom-alikni o'z vaqtida ekanmi deya tekshirganday o'z soatiga qaradi va sakvoyajini unga tutqazib, soat to'qqizgacha hali besh daqiqa borligini qayd etdi.

— Xonangizga olib boraymi, ser?

— Ha, albatta, — dedi Palmer. U to'g'ri liftga bormoqchi edi, lekin burildi-da, Dou-Jons indeksli¹ teletaypdan hamda birja yangiliklaridan xabar olish uchun shoshildi.

Birja ochilishiga hali vaqt borligi uchun Palmer aksiyalar narxining so'nggi hafta ma'lumotini shoshilib ko'zdan kechirdi. Keyin u lift xonasiga kirdi va uning yumshoq ko'tarilayotganini his etdi.

Lift to'xtadi. Palmer sakvoyajini xonasiga eltayotgan negr orqasidan yurdi. Xizmatchi qo'lidagi yukni ikki kishilik ulkan karavot yonidagi maxsus stulga qo'yib, derazani ochdi.

— Qanday ko'rsatma bo'ladi, mister Palmer?

Palmer bosh chayqamoqchi edi-yu, birdan fikridan qaytdi:

— Bilasanmi nima, — dedi u, — menga «Chikago tribyun» va «Uoll-strit jornel»dan topib kel...

— Xo'p bo'ladi, ser. Agar sizga tamaddinoma kerak bo'lsa, u yozuv stoli tortmasida, ser.

— Rahmat, nonushta qilganman.

— Ixtiyoringiz, ser.

Xizmatchi ortidan eshik shovqinsiz yopildi.

Palmer karavotga o'tirdi. U katta chamadondan buyumlar olinib, uning uch kun yo'qligi paytida javon tokchalariga taxlab qo'yilganligini sezdi. Ikkita kostyumi dazmollanib, devordagi javonga ilib qo'yilibdi. Palmer u hali Nyu-Yorkda ekanligida yana nimalar qilishi kerakligini eslashga urinib ko'rdi, biroq safarning asosiy maqsadiga erishilgani tufayli, endi nima qilishi kerakligini bilolmasdi.

«Yunayted benk»ning vitse-prezidenti! Palmer yostiqa bosh qo'yib, karavotga ro'y-rost cho'zildi. Keksa moliya korchaloni o'z bankining qudrati haqida gapirganda mubolag'a qilmagandi. Shubhasiz, mamlakatning eng qudratli moliya pishangi uning qo'lida edi. Chunki «Fyorst neshnl siti benk» va «Benk of Amerika» singari yirik banklar unga nisbatan ikkinchi darajali o'rinni egallar edilar.

Qiziq, «Yunayted benk»ning avvalgi vitse-prezidentlari shu lavozimni egallaganlarida necha yoshda bo'lgan ekanlar, deya o'ylardi yotganicha Palmer. Ellik besh yoshdami? Yoki oltmish yoshda? Palmer ko'zlarini yumib o'zicha tasavvur qilmoqchi bo'ldi: bir oydan so'ng moliyaviy xabarlar bo'limida:

«Yunayted benk» 44 yoshli Palmerni vitse-prezident lavozimiga tayinlaydi» degan xabar bosilsa, gazetalar qanday sarlavhalar bilan chiqarkan?

Chikago gazetolari bu e'lonni xushxabarday yoritishi turgan gap:

«Vuds Palmer-kichik «Yunayted benk»ning vitse-prezidenti qilib tayinlandi. Ushbu lavozimda Palmer o'tmishdoshlari ichida eng yoshidir».

Eshik ohista taqilladi.

— Kiring, — dedi Palmer o'rnidan turib o'tirarkan.

Yugurdak negr kirdi.

— «Chikago tribyun», ser, — dedi u. — Yana «Uoll-strit jornel». — u bir pas jim turdi-da, qo'shib qo'ydi: — «Tribyun»ni endigina tushira boshlashdi, «Kommodor Vanderbilt» oteli uchun, ser. Grand Sentralda oshnam bor, har kuni ertalab u menga bittadan gazeta olib keladi.

— Juda soz, — dedi Palmer. U choychaqa uchun shimi cho'ntagiga qo'l solgan edi, negr bola choychaqa kutib o'tirmadi, faqat Palmerga bosh irg'ab, burildi-da, xonadan chiqdi.

Bir o'zi yolg'iz qolgach, Palmer gazetani qo'lga oldi-da, sahifalarni birin-ketin shoshmasdan varaqlay boshladi. Uning e'tiborini avtomobilning yangi modeli reklamasi tortdi. Avtomobil yonida cho'milish kiyimidagi qiz tasvirlangandi. U rasmga qarab, bir zum qotib turdi, so'ng gazetani qo'lidan tashlab yubordi. Gazeta karavotdan sirg'anib, yerga tushdi.

U telefon go'shagini ko'tardi.

— Meni Uotervlit bilan ulang, Viskonsin, raqami besh-besh-o'n, ikki qo'ng'iroq. — Palmer bir-oz kutgach, qaytardi: — Uotervlit. — Keyin go'shakni joyiga qo'ydi. Yuragi bejo ura boshladi, u tinchlanish uchun chuqur nafas oldi. Qiziq, yuragi nega tipirchilab qoldiykin? Ehtimol, Edis bilan bo'ladigan suhbatidan hayajonlanayotgandir, deya javob berdi o'ziga o'zi, ayni paytda buning yolg'on ekanligini ham his etdi.

Yo'q, o'yladi Palmer, Edis bilan bir necha kunga ayriliq, balki u yana haftacha cho'zilar, bunga daxlsiz. Urush davridan buyon uyidan necha bor ayrilishga to'g'ri kelgan, amaliy safarlar bilan mamlakat bo'ylab bir necha haftalab aylanib yurgan. Bularning hammasining na Edisga, na uning bu yerda yolg'iz yashayotganiga, na telefonda bo'lajak suhbatga aloqasi bor.

Biroq unga nima bo'ldi? Balki bunga yangi lavozimga tayinlangani sababdir?

U shiftga tikildi. Nega endi u taxminlarga shunchalik qul bo'ldi? Axir, qalbidan nimalar kechayotganini o'zi yaxshi bilardi-ku. U birdaniga tomog'i quruqshab qolganida, Nyu-York ko'chalarida har bir ayol zotini yutoqib kuzatganida buni yaxshi his qilardi.

Ehtimol, bu bahordayoq boshlangandir. Yoki bir oz keyinroq, yozda, Viskonsindagi dala hovlida yashayotgan xotini va bolalari oldiga har shanba borib turganida boshlangandir. O'sha payt u yerda anavi cho'milish kiyimidagi qizchalar ham bo'lardi. O'sha damlari chidab bo'lmas darajada kechardi. Shaharda esa butun hafta davomida ter to'kib ishlardi.

Faqat Nyu-Yorkka mana shu safaridan bir hafta oldin, avgustning oxirida, o'ziga nimalar bo'layotganini payqab qoldi. Bu kompaniyalar qo'shilishi munosabati bilan reklama va axborot bo'limining majlisida bo'lgan edi. Erkaklar e'tiborini o'ziga jalb qilishga hamisha muvaffaq bo'lib kelgan Xerman xonim chap oyog'ini o'ng oyog'i ustiga, so'ngra o'ng oyog'ini chap oyog'i ustiga shunday ustalik bilan oldiki, Palmer uning oyog'i va sonlarini yaxshiroq ko'rib turish uchun stulning chekkasiga surilib o'tirdi. Va, albatta, bu zaldagilarning diqqatini tortmasdan qolmadi.

— Ha, erkaklik klimaksi¹, — o'yladi Palmer. Xuddi shu payt telefon jiringlab qoldi.

Palmer karavotga o'tirdi. Endi uning yuragi xotirjam tepardi.

— Uotervlitni ulayapman, — dedi telefonchi qiz. Telefon ikki bor tanish qo'ng'irog'ini tinglarkan, u soatiga qarab qo'ydi. Demak, Viskonsinda sakkizu yigirma. Yana ikki bor qo'ng'iroq chaldi. Edis o'rnidan turib, missis Keyj bilan nonushta qilgan bo'lsa kerak. Bolalar hali uxlashayotgandir. Yana qo'ng'iroq. Balki ular barchasi nonushta oldidan cho'milish uchun barvaqtroq turishgandir. Garchi hozir ko'lda suv ancha salqin bo'lsa ham. Yana qo'ng'iroq. Yoki hali hech kim turmaganmikin? Ha, shunday bo'lsa kerak. So'nggi qo'ng'iroq keskin jiringladi.

— Xello?

— Edis? Xayrli tong.

— Voy, assalomu alaykum, adajon, bu menman.

— Jerri? Uyg'otib yubordimmi?

Telefon go'shagiga qizning uzoq esnagani eshitildi.

— Yo'q, — dedi Jerri. — Bizning chordog'imizda ari in qo'yibdi. Ular meni ertalabdan uyg'otadi. Qaerdan gapirayapsiz?

— Nyu-Yorkdan. Qanday yashayapsizlar?

— Juda zo'r.

— Vudi qanday? Tom-chi?

— Juda zo'r.

— Oyingni telefonga chaqir.

— Oyim hozir bu yerda yo'qlar.

— Bo'lmasa uni izlab top, Jerri. Men kutib turaman.

— Men qaerdan qidirishni bilmayman.

Palmer nafasini rosladi, xotirjam bo'lishga urindi.

— Jerri, go'shakni qo'y-da, uni chaqir. Shunday baqirki, u eshitsin. Xo'pmi?

— Bordi-yu, u uyg'onmagan bo'lsa-chi? Agar baqirsam uyg'otib yuboraman-ku.

— Menga quloq sol, — dedi sekingina Palmer. — Fol ochishning hojati yo'q. Men aytganimday qil, Jerri. Axir, men juda olisdan telefon qilayapman-ku.

— E-e... — qat'iyatsizlik bilan cho'zdi qizcha va birdan shunday qichqira boshladiki, otasining qulog'ini teshib yuboray dedi: — Oyi! Oyi! Hoy, Oyi!

— Go'shakkamas, Jerri!

— Oy-yi!

Tashlab yuborilgan go'shak telefon stolining taxtasiga taraqlab urildi. Palmer qizi Jerrining ovozi uzoqlashib borayotganini eshitib turdi. U yana yostiqqa bosh qo'ydi va qizining eski uylari bo'ylab qanday chopayotganini tasavvur qildi. Balki u hozir pijamadadir, ehtimol shortidadir. Jerri Palmerga o'xshardi, bu qiz uchun juda qulay, deb o'ylardi u. U yoshiga nisbatan ancha bo'ychan edi. O'n bir yoshda onasi Edis bilan tenglashib qolgandi. Oyoqlari Palmer oyoqlari singari uzun, yuzi ham otasining yuziga juda o'xshab ketardi. Jerridan zo'r manekenchi chiqishi mumkin-da, o'yladi Palmer va soatiga qaradi. Oradan besh daqiqa o'tibdi. Agar go'shakka baqirsa, Jerri eshitarmikin? Qayoqqa ketdi ekan-a?

Ko'l bo'yidagi uy Palmerning buvasi tomonidan, Mak-Kinli o'ldirilishidan ko'p o'tmay qurilgandi. Uydan ko'lgacha uch yuz metrli taxta yo'lak eltardi. Palmerning xotirasida bolalik chog'lari, ana o'sha uylari bilan bog'liq esdaliklari saqlanib qolgandi.

Palmer yana soatiga qaradi: sakkiz daqiqa o'tibdi. U karavot chetiga o'tirib, yerda sochilib yotgan «Tribyun» sahifalariga qaradi. Reklama sahifasida cho'milish kiyimidagi qiz maftunkorona unga qarab turardi.

Berkxardt bugungi kunni YuBTKning¹ rahbar hodimlari bilan kengashga bag'ishlamoqchi edi. Palmer Berkxardtning ham qo'ng'irog'ini kutayotgandi, u uchrashuv vaqtini aniqlashtirish niyatida edi.

— Dada! — Jerrining ovozi eshitildi.

— Ey, xudo! — telefonni bunchalik band tutib turish mumkin emasligini nahotki tushunmasang?..

— Men oyimni topolmayapman, — uning gapini bo'ldi qizi.

— Mayli, — dedi Palmer jahli chiqqanini bildirmaslikka urinib. — Unga ayt... yo'q, yaxshisi, qalam olib yoz...

— Xo'p bo'ladi.

— Yozib ol, — dedi Palmer ancha xotirjam ovozda. — Birinchi vitse-prezident...

— Yozayapman. — Jimlik. — Vitse-prezident so'zida nechta «e» bor?

— Voy xudoyim-ey, Jerri!

Palmer o'zini sal bosib olish uchun chuqur nafas oldi.

— Yoz: «Yunayted benk end trast kom...»

— Voy-voy. Yunayted, qolgani nima?

Palmer ko'zini yumdi va xotirjam ovozda takrorladi:

— ... benk end trast kompani... Endi marhamat, yozganingni o'qib ber-chi. — U diqqat bilan

tingladi-da, tasdiqlab, bosh irg'ab qo'ydi. — Oyingga ayt, men shu lavozimga tayinlandim...

— Endi biz Nyu-Yorkka ko'chib o'tamizmi? — so'radi Jerri.

— Albatta.

— Dada! — ingrab yubordi Jerri.

— Quloq sol, miss Palmer, sen hech jiddiy kaltak yeganmisan?

— Mayli, mayli, — xo'rsindi qizcha, — men hammasini aytib qo'yaman. Lekin bu xabar birortasini xursand qilarmikin?

— Xayr, Jerri. — Palmer go'shakni qo'yib qo'ydi.

Qiziq, prezident so'zida nechta «e» bor emish! Go'yo bu so'zni boshqacha yozish mumkinday!

Palmer o'zini yostiqaqa tashladi va yuzini qo'llari bilan berkitdi. Quloq sol, azizam, quloq sol, endi men, qirq to'rt yoshimda, mamlakatning eng katta bankining lavozim bo'yicha ikkinchi rahbari bo'ldim. Quloq sol, azizam, endi Chikagoda o'lib-tirilib ishlashimning keragi yo'q. Xello, azizam, xayrli kech!

U o'rnidan turib pardo stolidagi ko'zgu yoniga bordi. Ko'zlari ostida paydo bo'lgan shish-qopchiqlar salqigan va sal qoraygan edi. Berkxardtning uyida yomon uxlagandi. Yaxtani nozik boshqaruvdan so'ng lol qoldirgan g'alaba uni butunlay uyqudan mahrum etgandi.

Palmer Beshinchi avenyuga ochiladigan deraza yoniga keldi va parishon bir holda o'tgan- ketganlarni kuzata boshladi. U nimadir yetishmayotganini his etib, og'ir xo'rsindi. Oradan biroz vaqt o'tgach, olomonga qarab turib, o'tkinchilar orasidan ayol kishini qidirayotganini tushundi. Biroq soat to'qqizdan keyin ularning hammasi ish joylarida edilar. Palmer ulardan qaysidir biri ishga kechikib, uning oldidan nozu karashma bilan o'tib qolar degan umidda ancha turib qoldi.

Tomog'iga allanarsa tiqilib qolganday bo'ldi, Palmer jon holatda uni yutdi-da, derazadan o'girildi. U oyog'idagi paypog'iga nigoh tashlab, yerda yotgan gazetaning reklama sahifasidagi cho'mimlish kiyimida o'zini ko'z-ko'z qilayotgan qizni ko'rdi.

Telefon jiringlab qoldi. Palmer go'shakni ko'tardi.

— Vudi? Biz soat o'n birga yaqin uchrashishimiz mumkin. Xo'pmi? — dedi Berkxardt.

— Juda soz.

— Demak, ko'rishguncha. — Berkxardt go'shakni ildi.

Palmer javon tortmasidan ko'ylagini olib kiymoqchi bo'ldi-yu, missis Keyj uning yoqasida dazmoldan iz qoldirganini ko'rib, hafsalasi pir bo'ldi. U boshqa ko'ylakni olib kiyarkan, xayolan Berkxardt bilan telefondagi suhbatga qaytdi. Bu uchrashuv qanday bo'larkan, deb o'yladi. Ehtimol, uchrashuv norasmiy tusda o'tar. Balki uni tor doiradagi xizmatdoshlariga tanishtirishar. Ularning suhbatida qanaqa masalalar ko'tarilishi mumkin.

Palmerning ustunlik tomoni uning voqeani boshqalardan oldinroq payqash qobiliyati edi. Hozir u buni biladi. Avvallari bu qobiliyatini o'zi payqamasdi ham. Buni birinchi bo'lib payqagan odam otasining vitse-prezidenti Garold edi. Garold iste'foga chiqib ketmoqchi edi, buni anchadan beri o'ylab yurardi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng bank muayyan ko'lamga erishdi. Biroq rahbarlikning mavjud tarkibi bilan bundan keyingi ravnaqini kutish amri mahol edi. Palmerning otasiga qaraganda Garold buni ancha aniq tasavvur qilardi. O'sha paytda u bedavo dardga chalingandi. Bu paytda Garold ham, Palmerning otasi ham saksonni qoralab qolishgandi. Garold o'shanda vitse-prezident kotibi vazifasini bajarib turgan yosh Vuds bankning vitse-prezidenti lavozimiga tayinlanishini qat'iy yoqlab chiqqandi.

— Sizlarga eslatib qo'ymoqchimanki, bu yigit endigina o'ttiz beshdan oshdi! — deya e'tiroz bildirdi Vudsnig otasi.

— Shunday, lekin unda sizning boshingiz bor, — javob berdi Garold. — Buning ustiga, ikkalangiz bir xil fikrlaysizlar. Ikkovi Palmerning nomzodini oshkora muhokama qilardilar, go'yo bu xonada, ular bilan yonma-yon Palmer yo'qday. Aslida esa Palmer va yana bankning uchta vitse-prezidenti ham bor edi. Palmer otasining o'rnini egallashga intilayotganiga hech kim shubha qilmasdi. Bu kundek ravshan edi. Har bir ota o'g'li uchun ish yaratadi, bu quyosh har kuni sharqdan chiqishidek tushunarli. Biroq, agar o'g'il otasining hadyasini qabul qilishni xohlamasa, agar u o'z avlodining omadsiz nasli bo'lsa va

u ushbu kengashda otasi o'lim to'shagida ekani tufayligina qatnashayotgan bo'lsa-chi? Unda bu narsa o'g'ilgagina taalluqli, nafsilamrini aytganda, bu uning vijdoniga bog'liq masaladir.

— U oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega, — dedi Garold o'shanda. — Bunday qobiliyat faqat bankirlardagina bo'ladi. Bu — tabiat in'om etgan chinakam bebaho tuhfadir.

Oraga jimlik cho'kdi. Palmer yo'talib oldi-da, kulimsirab hazillashdi.

— Shu narsa yaxshi ma'lumki, elektron hisoblash mashinalari firmasi yangi uskunalari tayyorlash ustida ish olib boryapti. Ana shu uskunalari bu masalani ancha oson hal qiladi...

Boshqa, toza ko'ylakni kiyarkan, Palmer hammomdagi katta oynada diqqat bilan o'zini ko'zdan kechirdi. Yosh merosxo'r shahzodani o'ttiz besh yoshida kichik taxtga o'tqazish uning otasini ham, Palmerning o'zini ham ilhomlantirmadi. Bu haqda o'zi hatto eshitishni ham xohlamadi. Hozir esa u, anchagina katta qirollik — «Yunayted benk end trast kompani» saltanatining kichik taxtiga xuddi bo'yniga bo'yinturuq solganday, o'tqazib qo'yilgandi. Shu boisdan ham u darhol mamlakatdagi eng yirik bankning ikkinchi rahbari lavozimini egallagandi.

Palmer portfeliga qarab qo'ydi. Bugun bo'ladigan amaliy uchrashuvga yaraydigan biror foydali narsani Meygen qog'ozlari orasiga qo'rganmikan? Shunday qilib, oldindan ko'ra bilishdek bebaho tuyg'u bugun yana asqotdi. U portfelini ochdi, «Nyu-York banklaridagi ahvol» ma'lumotnomasini ohista varaqladi, mashinkada bosilgan qisqa sharhlarni qayta-qayta ko'zdan kechirdi.

Nyu-York moliya dunyosidagi ishlar barqaror edi. Zero, mamlakatdagi barqaror vaziyat shuni taqozo etardi. Chunki Uoll-strit bir vaqtning o'zida Nyu-York bilan aloqada bo'lgan shtatlardagi minglab banklar o'tkazayotgan siyosatni ifoda etardi. Palmer vaziyatni chamalab ko'rib, ahvol tangligini his qildi. Chunki kredit turkumi bo'g'ma ilonga o'xshab o'z-o'zini shu qadar qattiq chirmab olgan ediki, yana biroz harakat qilsa, o'z dumini yutib yuborishi hech gap emasdi.

Xuddi avvalgi singari yangi pul oqimiga, jamg'armaga va naqd mablag'ga, ya'ni yashil banknot¹larga talab juda katta edi. Zero, bunday banknotlar olingan paytda bank kreditlari tarzida yangi mablag'larni vujudga keltirardi va pul muomalasida ulardan keng foydalanish mumkin.

Xususan, kreditlar bilan bo'ladigan barcha muammo mana shundan iborat edi. Butun mamlakat banklarga kredit topishda yordam berishga da'vat etardi. Bulturigi avtomobilni yangi rusumdagi bu yilgi mashinaga almashtirish shart deb hisoblovchi haydovchidan tortib, omborlarida tiqilib yotgan mahsuloti o'rniga po'lat sotib olish uchun pul olishga intilayotgan Detroyt zavodchilarigacha shunga harakat qilardi.

Biroq, o'yladi Palmer vujudga kelgan vaziyatni hisobga olarkan, bu yangi pullar qaerdan paydo bo'ldi? Odamlar qanday qilib pul jamg'arishga muvaffaq bo'ldilar? Oddiy malakali mexanik oyiga 600 dollarga yetar-etmas, ya'ni yiliga 7200 dollar ish haqi olardi. Daromad solig'i chegirib tashlansa, unda 6000 dollardan sal ortiqroq pul qolardi. U yashab turgan uy kamida o'n yildan keyin qulab tushishga mo'ljallab qurilgan edi. Bu esa unga qurilishning sotuv narxidan ikki baravar qimmatga tushardi. Shu tariqa, bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan nasiyaga olingan uy yiliga navbatdagi to'lov va soliqlar tarzida kamida 2000 dollarni yutib ketardi. Natijada hayot kechirish uchun 4000 dollarga yaqin pul qolardi. Shundan 2000 dollari avtomobil va uy buyumlari sotib olish bilan bog'liq to'lovlarga ketardi. Shunday qilib, oddiy amerikalik xotini bilan baxtli va farovon hayot kechirishi va uch farzandini yedirib-ichirib, kiyintirishi-yu o'qishi uchun yiliga 2000 dollar, ya'ni haftasiga taqriban 38 dollar qoladi deb taxmin qilinadi.

Palmer «Nyu-York banklaridagi ahvol» ma'lumotnomasini bir chetga qo'yib, qarz olib, qarz berish hayotining bu havo pufagi, nihoyat, qachon yorilarkan deb bosh qotira boshladi. Umuman, shu pufak yorilishi mumkinmi? Bu halokatning oldini olishning biror chorasi yo'qmikin?

YuBTK yozuvli ma'lumotnomani olib, varaqladi-da, Palmer qariyb yigirmanchi marta «Katta Odam» sarlavhali qiyqimga diqqat bilan tikildi. Maqolaning ikkinchi ustuni Berkxardtning tarjimai holi va martabasi haqida edi. Fotosuratda yigirma metrli yaxta shturvalida kelishgan ammo, jahldor Berkxardt savlat to'kib turardi. Surat ostiga esa: «Leyn Berkxardt «Yunayted benk end trast kompani» jilovdori» degan tagso'z yozilgandi. Ushbu bo'lim Berkxardtga mohir yaxtachi sifatida ta'rif

berish bilan boshlanib, istioralarga to'lib toshgandi:

«O'sha unutilmas yilda, sentyabr oyida, Berkxardt dengiz shamollari oqartirib yuborgan yaxtachi qalpog'ini tashlab, eskirib g'ijiray boshlagan (1798 yilda qurilgan) moliyaviy kema ruliga o'tirdi. Bu kema Nyu-Yorkning Uoll-stritida «Yunayted benk end trast kompani» nomi bilan mashhur edi. Pirl-Xarbordagi 1941 yilgi voqealar paytida kemanding taqdiri ishonchli qo'llarda, Berkxardt nazorati ostida edi.

YuBTK rulini boshqaruvchi yangi kapitan nazoratni shunchalik mahorat bilan qo'lga oldiki, tashvishi elliginchi yillar oson kechdi, so'ngra mamlakatdagi eng yirik moliyaviy bunyodkorlik davri boshlandi. Bu, albatta, qo'shilish yo'li bilan amalga oshirildi. Shunday qilib, Uoll-stritda «Cheyz Manxetten benk» va «Fyorst neshnl siti benk» singari ulkan kemalar qatorida qudratli YuBTK ham suzishga chiqdi. Shu tariqa, ikki pahlavon yoniga uchinchisi qo'shildi. Kaliforniya ahli hamon faxr bilan «Benk of Amerika»ni ulkan deb hisoblardilar. Chunki o'shanda Nyu-Yorkdagi banklar u bilan bellasha olmasdilar.

Shu haftada Leyn Berkxardt va «Xadson trast» vakili Pol Jerati tushlik payti «Yunion lig» klubida uchrashishdi. Tushlik so'ngida Berkxardt «Xadson trast»ni ellikta filiali bilan birgalikda yutib yubordi. Shu tariqa «YuBTK» bir sakrashdayoq shunchalik oldinga o'tib ketdiki, endilikda Nyu-Yorkning ulkan uchligi Bir qo'shuv Ikkiga aylandi. «Yunayted benk» aktividagi 12441 207 353 dollar «Benk of Amerika»ning 11 milliardidan o'zib ketdi.

O'z taxminlarini oshkor qilishni istamagan shum niyatli moliyachilar Berkxardtning yutgan yog'li luqmasini hazm qilishiga shubhanalardilar. «Xadson trast» portfeli elektronika va raketosozlik singari nobarqaror tarmoqlardagi o'ta qaltis sanoat zayomlari bilan to'lib ketgan. Bu zayomlar moliyaviy tanglik uchun jiddiy sharoitni vujudga keltirishi mumkin edi».

Gazetadan olingan bu qiyqimni chetga olib qo'yar ekan, Palmer Berkxardt telefon qilganidan beri uni tashvishga solayotgan masala haqida o'ylab qoldi.

U karavotdan turdi, o'ziga oro berganday bo'ldi, yana ko'zgu oldiga bordi, o'ziga bir nigoh tashladi, bir zumga ko'zlariga tikildi. Shunda uning esiga bir hafta burun Chikagoda telefondagi suhbat tushdi. Issiq va rutubatli kun edi, tund osmon bag'rini chaqmoqlar chaqini tilib tashlardi. U endigina matbuot konferentsiyasidan chiqqan. Konferentsiyada u otasining bankini sotishga qaror qilgani haqida bayonot bergandi. Palmer buni qo'shilish niqobi ostida amalga oshirish niyatida edi.

Uning ilhomi kelib ketdi, go'yo hozirgina dadil harbiy yurishni muvffaqiyatli amalga oshirgandek edi. Lekin baribir, shu ishga kirishar ekan, u ancha ehtiyotkor edi va belgilangan an'analarga amal qilib, otasi vafotidan bir yil o'tishini kutdi. Uning bankdan va u bilan bog'liq barcha narsadan tezroq xalos bo'lishga qanchalar intilganini hech kim fahmlamadi ham.

Aslida bu bankning merosxo'ri akasi Xenli bo'lishi kerak edi. Xenli ukasi Vudsga qaraganda ancha vazmin va ko'ngilchan bo'lib, otasiga uncha tashvish keltirmasdi. Biroq, 1941 yilning boshlarida Xenli otasining izmidan chiqib ketdi. U harbiy katerda Pensakoladan dengizga chiqib ketdi-yu, shu bo'yi qaytib kelmadi...

Palmer ko'zgodan o'girildi-da, xayolan Chikagoga, o'sha unutilmas kunga uchdi. Jurnalistlar matbuot konferentsiyasi o'tgan zalni hozirgina tark etishdi. U bir o'zi qoldi, erkning mastonavor kayfiyatidan anchagina sarxush o'tirdi. Uning yelkalaridan otasi banking og'ir yuki olib tashlandi. Shu yuk bilan birga otasi unda uyg'otgan ezguvchi his-tuyg'u ham yo'qoldi. Umringing yarmi o'tdi, balki undan ko'prog'i o'tib bo'ldi, lekin endi u yana o'ziga o'zi xo'jayin.

Xuddi shu payt telefon jiringlab qoldi. Bu xizmat telefoni emas, shaxsiy telefoni bo'lib, daftarda qayd etilmagandi. Nyu-Yorkdan qo'ng'iroq qilishayotgandi. Go'shakda gapirayotgan Berkxardt edi. Palmerning matbuot konferentsiyasidagi bayonoti unga ma'lum bo'lgandi. Hali matbuotda bosilmasdan oldin unga yetkazishgandi.

- Vudi, — dedi baland ovozda Berkxardt, — oliy toifadagi komandaga o'tish vaqti kelmadimikin?
- Nima, Chikago oliy nufuzdagi komanda emasmi? — e'tiroz bildirdi Palmer.

— So'nggi yillarda matbuotdagi tasodifiy maqolalar biror aniq asosga ega bo'ldimi? — savolga savol bilan javob berdi Berkxardt. — Boshqacha qilib aytganda, o'z kuchini ishga solish uchun faoliyatning kengroq maydonini izlamayapsanmi?

— Foliyatning keng maydoni deganda nimani nazarda tutayotganingizni tushuntirib berolmaysizmi?

— Nima balo, buni senga telefonda bayon qilaman deb o'ylayapsanmi? — dedi Berkxardt.

Palmer bir daqiqa jim qoldi, telefondagi suhbat savollar tarzida o'tdi deb o'yladi Palmer, lekin ularning hech qaysi biri bu savollarga javob ololmadi. Suhbat juda cho'zilib ketdi shekilli, degan o'yda Palmer kulib yubordi:

— Mendek qishloqi oddiy odamga, siz nyu-yorklik bankchilar o'ta ustamonsizlar.

— Bo'lmasa, tezda samolyotga chiq, — dedi o'shanda Berkxardt. — 17.40 da uhasan, men tayinlab qo'yaman, seni Aydluayld aeroportida kutib olishadi...

Hecham-da, shoshilishning keragi yo'q, o'zini tergadi Palmer va javob berdi:

— Hozir-a? Yo'q, Leyn, bu yerda mening biroz ishlarim bor, hatto, shu past toifadagi komandada ham.

— Qanaqa ishlar tag'in? — so'radi Berkxardt. — Shunday birlashishdan so'ng yana qanday ishlaring bo'lishi mumkin? «Kirim» va «Chiqim» jildlarimi? Men chindan ham jiddiy, rostakamiga diqqatga sazovor ishni nazarda tutyapman, jin ursin!

Palmer bir oz jim turdi-da, ehtiyotkorona javob berdi:

— Rostini aytsam, bilmayman. Ehtimol, ushbu arzimas sayohatimiz Edisga quvonch baxsh etar.

— Men uni bag'rimga bosishga hamisha tayyorman, lekin bu safar emas. Xo'sh, ertaga vaqting qanaqa?

— Borolmasam kerag-ov...

— Mayli, — uning so'zini bo'ldi Berkxardt. — Eng kechi bilan jumaga. Mening shahar tashqarisidagi uyimda hordiq chiqarasan. Xo'pmi?

— Xo'p, — rozi bo'ldi Palmer, — Meni qiziqtirib qo'ydingiz.

— O'ylaymanki, senda qiziqishdan ko'ra katta narsa ham uyg'ota olaman, — javob berdi Berkxardt.

— Demak, juma kuni Aydluayld aeroporti, soat 17.40...

U o'zini ko'zguda ko'rди va esladi, Berkxardt bilan suhbatdan so'ng naqadar quvonchli hayajon qamrab olgandi. Palmer qariya unga ancha yuqori, mas'ul lavozim taklif etishini o'shandayoq bildirdi. U o'zida qoniqish hosil qildi.

Uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi yaqin edi. U Chikagodagi idorasida o'tirar va o'zini zo'riqqanday his qilardi. Og'ir, rutubatli havo kislorodsizga o'xshab ko'rinardi. U zo'rg'a nafas olar, havo yetishmayotganga o'xshardi.

Ha, bu zafar, chinakam, to'la g'alaba edi. U bankdan, keksa otasining hukmronligidan ozod bo'ldi va endi shiddatli tezlik bilan Chikagodan xalos bo'layotgandi. Safarini jumagacha qoldirish unga nechun kerak bo'lib qoldi? Haftaning oxirigacha kutish naqadar og'ir? Axir, shu bir necha kundan so'ng uni uzoq kutilgan to'la ozodlik qarshi oladi.

«Yunion lig»dagi o'z xonasida ko'zguga qaray turib, Palmer burun kataklarining ana shu ozodlikning yangi havosini mumkin qadar ko'proq hidlashga intilib, kengaya boshlaganini sezdi.

Xenli uchun belgilangan ro'l — otasining o'ng qo'li ro'lini o'ynashga necha yillarini sarfladi, yelga sovurdi. Ich-ichidan yemirgan kasallikdan asta-sekin o'layotgan otasining o'ng qo'li vazifasini bajarib yurdi.

— Agar bu seni tashvishga solayotgan bo'lsa, — dedi Edis urushdan keyingi dastlabki yillarda, — Xenlining o'rnini bosolmasligingni otangga ayt. Aytib, bu ishdan bo'sha-da, tashvishdan qutul.

— Bunday qilolmayman. Otam kasal, buning ustiga yolg'izlanib qolgan. Bunaqa qilish qo'limdan kelmaydi.

Palmer ko'zgodan nari ketdi va eshikka yo'naldi. U hozir o'zini huv o'sha, urushdagi og'ir damlardagidek his qilardi. Harakat qilish kerak. Shunisi hayratlanarliki, u hali ham harakat qilish qobiliyatini yo'qotgani yo'q. Urushdan keyingi behuda sarflangan yillariga qaramay, u hali dadil

ko'rinardi. Axir o'sha paytlar har bir qarorning qabul qilinishi keksa, mijg'ov va o'jar, ishning orqaga surilishidan zavq oladigan otasiga bog'liq edi.

Palmer eshikni ochib, yo'lakka chiqdi va liftga qarab yurdi. Kutish yillari, aftidan o'tib ketganday bo'ldi. U o'zini taqdirining sohibiday his qildi. Urush paytida ham xuddi shunday bo'lgan edi. Unda o'zi uchun yangi bo'lgan g'ayritabiiy hayotbaxsh tuyg'u paydo bo'ldi. Bu tuyg'u uni yoshligiga qaytarganday bo'ldi. U hayotini yangidan boshlaganday his etdi.

Palmer liftni kutarkan, bunday tuyg'uni so'nggi bor qachon his etganini eslashga urindi. Bu o'n besh yil burun bo'lgan edi. O'shanda Palmer boshchilik qilayotgan bo'linma Rostokdan, bombalardan o'ydin-chuqur bo'lib ketgan ko'chalar bo'ylab mashinalarda Greyfsvalddagi «V-2» bazasiga borishardi. Ular taslim bo'lish hali nimaligini bilmagan aholi hududidan raketasozlik sohasida ish olib borayotgan fashist olimlarini izlab yurishardi. Palmerning bo'linmasi ruslar bu yerlarga kelmasdan burun raketachi olimlarni o'g'irlab ketishlari kerak edi. Ularning tepasida pastlab uchayotgan «fokkevulflar» charx urardi.

— Pastgami, ser?

Liftchi Palmerning nigohidan ko'zini olib qochib, o'zini gilam naqshlarini tomosha qilayotgandek ko'rsatardi. Palmer lift ichiga kirdi, uning eshigi yopilishini kuzatib turdi, yuragi hovriqqani uning pastga tushayotganini his etdi. Qandaydir daqiqalarda u o'zini vaznsizdek, yengil va ozod sezdi. So'nggi o'n besh yil ichida u o'zini bunday his etmagandi.

U chuqur nafas oldi va bo'lgusi voqealarga ich-ichidan tayyorlandi.

Uchinchi bob

Broud-stritda Palmer taksidan tushdi. Har safar Nyu-Yorkka kelarkan hayron bo'lardi: Chikagoga nisbatan bu yerda taksi naqadar arzon. YuBTK idorasining binosini ko'zdan kechirayotgan Palmer bir necha soniya yo'lakda turib qoldi.

Eng yirik banklarning ko'p sonli filiallaridan har biri bosh idoradan ko'ra hashamatli ko'rinardi. Ulkan g'ildiraklarda gardish hamisha o'qdagi tiqinga nisbatan tez aylanadi. Bu yerda esa, Palmerning ro'parasida xuddi o'shanday tiqin mana men deb tururdi.

Bundan o'ttiz yilcha oldin mana shu hashamdor, xunukdan-xunuk bino xuddi yerdan o'sib chiqib, qad rostlagandek bo'ldi. Lekin o'sha paytlarda ham mana shu o'n sakkiz qavatli imorat zamonaviy emasdek, eski uslubda qurilgandek ko'rinardi.

Palmer uning ijodkorlari — bank direktorlarining niyatlarini aniq tasavvur etdi. Mazkur binoni qurish g'oyasi, aftidan, 1921 yilgi mashhur birja vasvasasidan keyin, yigirmanchi yillar shov-shuvi avjiga chiqqan paytda, turg'unlik arafasida vujudga kelgan. Bank idorasiga o'shanda yuzlab shunday loyihalar qalashtirib tashlangan bo'lsa kerak. Binoning qanday bo'lishi to'g'risida bahslashuvlar bo'lgani turgan gap. O'shanda ham hamisha bo'lganidek, Ehtiyotkorlik Beg'amlikka qarshi qo'yilgandir. Ha, umuman bir milliard dollar o'sha davrlarda ham qudratli parvozdan dalolat berolmasdi. Buning ustiga «Yunayted benk» katta dabdabalarga unchalik intilmasdi ham. Ko'pchilik avlodlarga YuBTKning turg'unlik davridagi turli kompaniyalarning qo'shilishidan ancha oldin atrofda g'ilardan mustaqil ravishda rivojlanish huquqiga ega bo'lgan qudratli kompaniya sifatida tasavvur qilinardi...

Birinchi qavatda joylashgan, omma uchun mo'ljallangan zalga faqat bitta aylanma eshikdan kirilardi. Palmer eshik tepasidagi yashil rang marmarga o'rnatilgan, tilla suvi yuritilgan devoriy soatga ko'z tashladi. Berkxardt tomonidan belgilangan uchrashuvga besh daqiqadan oshiq vaqt qolgandi.

U eshikning sayqallangan yog'och romini asta itargan edi, salmoqli oynavand shisha sekin aylandi. Palmer o'zini kattakon zal ichida ko'rdi.

Eshikdan chap tomonda ulkan stol atrofida ikki bank xizmatchisi o'tirardi. Ulardan biri tilla hoshiyali taqvimga qandaydir belgilar qo'yardi. O'ng tomonda oq yo'l-yo'lli yashil marmar devor cho'zilib ketgan

bo'lib, unga o'n ikkita tilla gardishli g'azna darchalari ishlangandi. Darchalar ortida g'aznachilar daftarlari ustiga engashib, o'zlarini ishga jiddiy banddek ko'rsatishardi.

Palmerning oyoqlari ostida oq marmar to'shalgan pol yaltirab turardi. Uch qavatli uy balandligidagi shiftdan yog'ilib turgan zarhal shafaq zalni yoritib yuborgandi. Palmer qoramtir-yashil rangga bo'yalgan shiftga ko'z yugurtirdi. Billur taqinchoqlar osilib, tilla suvi yugurtirilgan qadimiy qandillar go'yo yarim tun osmonida yulduzlardek porlab turardi. Markaziy darvozaning har ikki tomonida yashil charm divanlar qo'yilgan, ular orasidagi nafis tagliklarda tilloyi kuldonlar yaltirardi. Zalning to'rida ikkita lift yonida kichkinagina, sochlari oppoq, ozg'in odamcha turardi. Uning kasbiy kiyimi va yoniga osgan politsiyachi to'pponchasining g'ilofi bo'lmaganida uni rutbali xizmatchi yoki darbon deyish mumkin edi.

Shiftning balandligi uch qavat uy bo'yi keladigan hashamatli zalda sukunat hukm surar, elektron jihozning mayin chiqillagani eshitalardi. Aftidan, xizmat xonalarida hujjatlarni saralayotgan uskunaning ovozigiga o'xshaydi. Palmer bir zum darchalardan kelayotgan tovushga quloq tutdi: zayomlar bo'yicha qarzdorlikni hisoblayotgan bo'lsa kerak.

Uning kelganiga hech kim e'tibor bermagandek ko'rindi: bankka kiraverishda o'tirgan xizmatchilar, darbon va hatto lift yonidagi qorovul ham u tomonga bir bor qayrilib qarashmadi. Tillasi yaltirab turgan marmar to'shama bo'ylab odimlab borarkan, u poshnalaridan taralayotgan bo'g'iqlik tovushni his qilardi, xolos.

Palmer yaqinlashib kelishi bilan qorovul unga bosh egib sassiz salomlashdi va tugmani bosdi, liftning qopqalari ikki yonga surildi.

— Siz o'n sakkizinchi qavatga chiqasiz, mister Palmer, — dedi qorovul.

Palmer bu yerda ko'rsatilayotgan «tomosha» uchun o'zicha istehzoli jilmaydi-da, keskin orqaga burildi. Uni diqqat bilan kuzatib turgan bank xizmatchilari — ma'murlardan tortib g'aznachilargacha — qotib qolishdi. Ularning noqulay ahvolga tushib qolishganini ko'rmaslik uchun Palmer shu zahoti yana orqaga burildi-da, liftga kirdi va tugmani bosdi. Eshiklar yopildi. U soatiga qarab qo'ydi. Bir daqiqasi kam o'n bir. Juda soz.

Lift yuqoriga mayin ko'tarilib borarkan, Palmer yana bank binosining birinchi qavatidagi tarhini kim ishlab chiqqanini o'yladi. Binoning birinchi qavatidagi zalning g'oyasi umrini yashab bo'lgan konservatizm qonunlari asosida paydo bo'lganligi shundoqqina ko'rinib turardi. Axir, bu cheklangan, qari, mijg'ov, sharobxo'r sarmoyadorlar o'z niyatlarida teatr bezaklari naqqoshlari ham amalga oshirilmagan narsalarni ko'ra bilgan va bunyod etgandilar.

Ana shu keksa yapaloqqushlar erishgan yutuqlar o'zining kutilmaganligi va takomilligi bilan hayratga solardi. Birgina zalning ichki ko'rinishdagi tilloyi va yashil ranglar uyg'unligi ham shuni tasdiqlab turibdiki, ular rivojlangan dunyoning ko'pchilik malakatlarida ana shu ikki rang pulni bildirishini ham hisobga olganlar.

Klerklarning¹ an'anaviy ehtirossizligi-chi? Palmer hech bir tomoshada aktyorlarning o'z ro'llarini bunaqa zo'r o'ynaganini hali ko'rmagan edi. Holbuki, ularga hech kim va hech qachon o'zlarini mana shunday tutishlari kerakligini aytgani yo'q. Ularning o'zlarini shu tarzda tutishlari asta-sekin an'anaga aylandi va avloddan-avlodga o'tib kelmoqda.

Palmer shu yerda ishlashi kerakligini sezganidan birdaniga quvonch his etdi. Ammo bu tuyg'u shu lavozimga tayinlanganida his etgan tantana zavqiga sira o'xshamasdi. Palmer jilmayib qo'ydi. Lift eshigi ochilib, u binoning oxirgi qavatidan tashqari chiqqanida ham uning chehrasidan tabassum arimagandi.

Yo'lakdagi kattakon stol yonida o'tirgan qiz paypog'ini to'g'rilash uchun engashdi. Palmer nigohi bilan uning oyoqlari bo'ylab bir suzib o'tdi-da, ko'zini chetga oldi. Biroq atrofida diqqatga sazovor biror narsa uchratmagach, orqasidagi lift eshigi yopilishi bilan yana qizga qaradi.

Savol alomati bilan unga qaragan qiz so'radi:

— Mister Palmermi?

U tasdiqlab bosh irg'adi. Qiz shoshilib o'rnidan turdi-da, yo'lak bo'ylab yurarkan, orqasidan yurishini

taklif etdi: «Bu yoqqa, marhamat». U qizga ergashdi, keng va yashil yo'lak bo'ylab borarkan, uning qaddi-qomatiga qaramaslikka harakat qildi.

Yo'lak uni sayqal berilgan yog'ochdan ishlangan ikki tabaqali katta eshikka olib keldi. Palmer yuqori labining yengil terlaganini his qildi va barmog'i bilan artib qo'ydi. U zo'r berib bostirib kelayotgan noo'rin fikrlardan o'zini chalg'itishga urinardi. Berkxardt o'z bankida ichki kommunikatsiya uchun mexanik uskuna — interkomdan foydalanishni lozim ko'rmagandi, shu bois keluvchilarni uning huzuriga boshlab kirishardi. Bu qariya tizimining tarkibiy qismi bo'lib, Palmer bu yerda u bilan tanishib bo'lgan edi. Qiz eshikni taqillatgach, Palmer bu yerda ham chinakam konservatizmning salmoqli yuki borligini his etdi.

Eshik oldida turgan qiz sezilar-sezilmas harakat bilan butun tanasi og'irligini bir oyog'iga o'tkazdi. Palmerning nigohi sonlari bo'ylab sirg'anib pastga tushdi, u chuqur, sassiz tin oldi-da, boshliqning taklifini kutib, ko'zlarini yumdi.

Og'ir eshik qopqalari ortidan Berkxardtning ovozi eshitildi: «Kiring!»

Qiz eshikni ochib, Palmerni o'tkazib yuborish uchun o'zini chetga oldi.

— Mister Palmer, ser, — dedi qiz va tashrifchining ortidan eshikni yopdi.

Qaerdadir, Palmerning boshidan teparoqda soat zang urdi. Berkxardt zag'cha ko'zlarini qisarkan, o'rnidan turdi.

— Anqlik — bu eng muhimi, — dedi tantanavor Berkxardt. U qo'l berib ko'rishdi-da Palmerni yozuv stolining har ikki tomoniga qo'yilgan yashil charm oromkursilardan biriga taklif qildi.

Palmer e'tiborini tortgan narsa shu bo'ldiki, boshliqning stolida tilloyi qirqmali mo'jazgina yon daftar, yashil tsiferblatli yashil marmardan ishlangan tilla soatlar va yozuv ashyolaridan bo'lak hech narsa yo'q edi. Shu buyumlarni ko'zdan kechirar ekan, Palmer birdan qariya uning gapirishini kutib turganini his qildi.

— Xo'sh, nima ham derdim, — dedi Palmer, — tan olish keark, taassurotlarim mutlaqo beqiyos.

Qariya kulib yubordi.

— Ha, ko'rishga arzigulik narsalar talaygina, to'g'rimi? — U oromkursining suyanchig'iga yastandida, nafasini rostladi. — Bu yerda men haftasiga uch marta, ertalablari bo'laman. Beshinchi avenyudagi idoramizda ham bir xona ish joyim bor. Bu idora esa, o'zing tushunasan, kekxa va doimiy mijozlarimizga mo'ljallangan.

— Tushunarli. Ammo ba'zida uning eshiklari sizning yangi mijozlaringiz uchun ham keng ochiladi.

Berkxardt tasdiqlab bo'q irg'adi:

— Ha, lekin kamdan-kam, shunda ham ularga kim bilan ish olib borishayotganini eslatib qo'yish uchun.

— Men Beshinchi avenyudagi idorani ko'rganman, — qo'shimcha qildi Palmer. — Ya'ni zamonaviy me'morchilik albomida uning suratini ko'rganman. O'ylashimcha, shunday sharoitlarda mijozlarni saralash uchun o'yin olib borish sizga qiyin emas. Siz avvaliga ularni tasodifiy tadbirkorlarga mo'ljallangan Beshinchi avenyudagi idora orqali o'tkazasiz. O'sha joyda ular o'zlaridan sizning bir qadam ham uzoqlashmasligingizga to'la kafolat oladilar. Keyin, oradan bir necha yil o'tgach, agar ular haqiqatan ham tadbirkor bo'lsalar, o'z niyatlariga yetishib, salmoqli ulush olish ilinjida bo'ladilar, shunda siz ularning bosh idoraga — ishonch va xotirjamlik qo'rg'oniga kirishlariga imkon berasiz.

Palmer shu mavzuni davom ettirmoqchi edi, yangi kelgan odamga shu ham yetarli, deb o'yladi. U sezdirmasdan, ayni chog'da suhbat yo'nalishini sezdirmasdan, shu bilan birga dadil o'zgartirdi.

— Aftidan, sizning urushdan keyin qurilgan filiallaringizning aksariyati Beshinchi avenyudagi idora namunasida rasmiylashtirildi.

Berkxardt yelkalarini qisdi:

— Bir jihatdan shunday, har holda tayinlangan joy bilan bog'liq bu. — U o'tirgan stolidan turdi-da, butun devorni egallagan kitob javoniga yaqinlashdi. Biz «Xadson trast»ni qo'lga kiritganimizda elliktaga yaqin baqqollik rastasini eslatuvchi titig'i chiqqan qurilmalarga ham ega bo'lgandik. Biroq, yigitlar ularni ancha epaqayga keltirib oldilar. Sintetika, alyuminiy, yorqin bezaklar va hokazo.

Qariya kitob javonchasidan yashil muqovali katta kitobni oldi-da, yozuv stoliga qo'ydi.

— Mana o'sha filiallar, ikki yuztacha bor, — dedi u. Kitobni Palmerga tomon surib, u qo'shib qo'ydi. — Uni o'zing bilan olib ket. Bo'sh vaqtlaringda ko'zdan kechirarsan. Bu yerda qavatlar bo'yicha rejalar, rangli suratlar, umuman, hamma narsa bor.

Palmer kitobni qo'lga oldi, hatto uni ochib ham ko'rdi. Nimadir ko'ngildagidek emasdi. Berkxardtning hissiz ovozigga quloq solarkan, qandaydir mavhum tuyg'uni his etdi: ularning munosabatlarida ilg'ash qiyin allanarsa bor edi. Berkxardtning so'zlaridan gap nimadaligini payqash qiyin edi. Shubhasiz, nimadir bor edi... Lekin nima? Manfaatsizlikmi? Ichki aloqa o'rnatishga qobiliyatsizlikmi?

Nima bo'lganda ham, ish ko'ngildagidek bo'lmayapti, deb o'yladi Palmer. Albatta, qariya bilan o'zining aloqalari yaxshi bo'lib ketadi deb kutmagandi. Biroq, Berkxardtning o'z manfaatlari uchun kelgusida o'zaro munosabatlari qay tarzda bo'lishini aniqlash maqsadida ushbu uchrashuvning dastlabki daqiqalaridan foydalanib qolishi kerak edi. U buningsiz ham uzoq tushuntirishni, bank ichki tizimini namoyish qilinishini va bu borada o'z ro'lining belgilab berilishini kutmagan edi. Lekin bu yerda, Berkxardt o'zining birinchi o'rinbosari Palmer bilan keyinchalik birgalikda ishlashi uchun jo'shqin rejani belgilab olishi darkor edi.

Palmer birinchi qadamini o'zi qo'yishga qaror qildi. U biroz oldinga intilib, yo'talib oldi-da, na ta'kidlash, na savol alomatida so'radi:

— Sizni nimadir tashvishga solayaptimi?

Berkxardt hayron bo'lib unga qaradi. Keyin burnini burishtirib, Palmerga tag'in ko'z qiri bilan qarab qo'ydi.

— Men hozir o'ylab qoldim, — deya so'z boshladi-yu, birdan nafas olib, jimib qoldi. Biror soniya o'tar-o'tmas, qisqa barmoqlari bilan oppoq sochini silab, davom etdi: — Sening kelishing oldidan men telefonda gaplashgan edim... Men Jo Lumis haqida o'ylayapman. U menda qariyb yigirma yil boshqaruv a'zosi bo'lgan edi, jin ursin.

Palmer tushunaman, deganday bosh irg'adi:

— «Jet-Tex industriz».

— Ha. Hamda «Vakuterm elektroniks».

— Xo'sh, necha... U necha yoshda? — so'radi Palmer. — Yetmishga yaqinmi?

— Yetmish bir. Lekin gap bunda emas. Xudoga yaqin, toki uning yoshiga yetganingda senda ham o'shanday kuch-quvvat bo'lsin. — Berkxardt boshini sarak-sarak qildi. — Yo'q, bu yerda gap butunlay boshqa narsada. U turli sarmoyadorlarga vasiy. Ular esa jami o'n besh million dollar sohibidir. Bundan tashqari u uchta boshqa bank boshqaruvining ham a'zosisdir.

— Uning faqat unvonlarining o'zini sanashdanoq mening boshim aylanib ketdi.

— Ana shu banklardan biri, — sekin davom etdi Berkxardt, — Merrey Xillning omonat bankidir.

Palmer Berkxardt undan qanday javob kutayotganini bilmay, boshini chayqadi. U qariyaning joyidan turib, o'z oromkursisi ortidagi katta deraza yoniga borganini diqqat bilan kuzatdi. Kengligi yigirma fut¹ keladigan ulkan deraza har biri ikki futdan kataklarga bo'linib silliqlangan yog'och muqova bilan qoplangan edi. Berkxardt oyna yonida parishon holda ulardan oftobni to'sib turgan qo'shni osmono'par ikki bino oralig'idagi torgina tosh tirqishni kuzatardi. Uning nigohi yo'nalgan tomonga qarab, Palmer kuz quyoshi nurida yaltirayotgan daryoga ko'zi tushdi. Ayni shu paytda daryoda tanker ohista suzib ketayotgandi.

— Sizda omonat banklari tufayli biror ko'ngilsizlik yuz berdimi? Shunaqami? — so'radi Palmer. Javob bo'lmagach, bir zumga jim qoldi. Aytadigan gapini fikran to'pladi-da, davom etdi: — Baribir, dushman qarorgohida do'stingiz borligini bilish quvonchli...

Berkxardt asta suhbatdoshiga o'girildi.

— «Merrey Xillning omonat banki» buni xuddi shunday baholayapti, — dedi u alam bilan.

Berkxardt so'zini davom ettirmagani uchun Palmer ham o'rnidan turib deraza oldiga bordi.

— Shunday qilib, — dedi u, — Jo Lumis kim tomonida ekanini aniqlash kerak.

— Aftidan, men o'z fikrimni aniq ifodalamadim, shekilli. U mening eski do'stlarimdan biri.

Palmer yuzini burishtirdi:

— Ha, bu og'ir.

— Juda ham.

Uylar ortiga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lgan tanker izidan qararkan, Palmer so'radi:

— Nima qilmoqchisiz?

— Hech nima, — dedi Berkxardt nihoyat. — Bularning hammasini yangi vitse-prezidentim yelkasiga ortmoqchiman.

— Tashakkur.

— Bundan tashqari, — davom etdi qariya kutilmaganda ishonchli ohangda, — mana shu omonat banklari g'alvasini sizga yuklamoqchiman.

— Sizning yo'riqlaringiz?

— Men ularning hammasini yer yuzidan supurib tashlanishini istayman.

Palmer derazadan o'girilib, qariyaga qaradi.

Bor-yo'g'i bir nechtagina so'z shu tongga burilish bag'ishladi, ikkalovi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham shunchalik kutilmagan aniqlik kiritdi.

— Qachon boshlash kerak?

Berkxardt panel qoplangan devorga yaqinlashdi, devordagi javon eshikchalari surildi, qariya u yerdan shlyapasini olib, chaqqongina boshiga qo'ndirdi.

— Nimani kutamiz? — dedi u. — Qani, yur-chi, ularni tugatishda sizga yordam bera oladigan epchil makkor bilan uchrashib ko'raylik.

To'rtinchi bob

Palmer yo'lak bo'ylab qariya orqasidan yurib, kotibalar yonidan o'tib borardi. U hayron bo'lardi: qiziq, bankning mas'ul xodimlaridan nega birortasi ham unga tanishtirilmadi. Albatta, u hali rasman ishga tushgani yo'q. U mehnat kunidan keyinroq ish boshlashi kerak edi. Biroq bu uning YuBTKka birinchi tashrifi bo'lib, odob yuzasidan qaysidir shart-sharoitlarga rioya qilish zarur edi.

Ular kotibalar yonidan o'tishganda lift kutib turardi. Kotiba Berkxardtga portfelni tutqazdi-da, telefonni oldiga tortdi. Liftga kirarkan, Palmer kotibaning Berkxardtga shahar mashinasini chaqirayotganini eshitdi. Qiz bir zumda boshini ko'tardi va ularning nigohlari uchrashdi, lekin shu zahoti lift eshiklari yopildi.

— Yigitlarimizdan ayrimlari bilan tanishtirmaganim uchun uzr, — dedi Berkxardt lift pastga tushayotganda.

— Bu omonat banklari masalasi, aftidan, juda shoshilinchga o'xshaydi?

— Ahmoqona, o'rinsiz narsa, jin ursin! — dedi qariya. — Sira tushunib bo'lmaydigan mujmal masala. Buni boobro' bankchidan kutish ham qiyin. Lekin baribir sen haqsan: bu ish juda shoshilinch.

— Men hali yetarli tanishganimcha yo'q, — dedi Palmer pastki qavatda liftdan chiqar ekan.

Aslida esa, bu ishlardan u yaxshigina xabardor qilingandi. Garchi u Illinoysda omonat banklari bilan to'qnash kelmagan bo'lsa-da, ular tijorat banklariga qanchalik talafot yetkazishi unga ma'lum edi. Biroq, pul mablag'larining asosiy qismi jamlangan Nyu-Yorkda bu nizo alohida keskin tus olardi.

— Bu borada senga nima ma'lum o'zi? — so'radi Berkxardt tilloyi marmar to'shalgan dahlizdan tashqariga chiqish eshigiga yo'nalisharkan. Ularni sochlari oq qorovul kutardi. U eshik dastasini ushlaganicha, har daqiqada uni aylantirishga shay turardi.

— Faqat ular, haligi...

— Bu haqda mashinada gaplashamiz, — uning so'zini bo'ldi Berkxardt va bank xizmatchilaridan biriga bosh irg'adi. U iliq tabassum bilan javob qaytardi. Aslida jahannamga emas, jannatga tushishini

bilgan bandagina shunday tabassum qilishi mumkin, o'yladi Palmer. Yo'lka chetida ularni kulrang «Rolls-Roys» kutib turardi. U bu yerga hozirgina kelganini kim ham o'ylardi deysiz: ko'chaga aynan shu mashina yurishi uchun suv sepilgandek edi. Berkxardt dan so'ng Palmer ham kirib, qoramtir-kulrang charm qoplangan orqa o'rindi qda yonma-yon o'tirdi.

Mashina o'rnidan ravon qo'zg'alib, tekis yo'lga tushib oldi-da, Broud-strit bo'ylab yalpi oqimda sassiz yurib ketdi. Berkxardt ularni haydovchidan ajratib turgan oynani tushirdi-da:

— Beshinchi avenyudagi ofisga, Garri, — dedi.

Palmer oynaning yana ko'tarilganini sezdi, shisha to'siq yonidagi maxsus tokchadagi telefonga ko'zi tushdi. — Endi hammasi joyida, qani, gapir-chi, — amr etdi Berkxardt.

Palmer chimirildi, go'yo nimadir ustida bosh qotirardi. Holbuki, ba'zi narsalardan umumiy xulosa chiqarish unga cho't emasdi.

— Bu yerda hamma masala yangi pullarda, — dedi bamaylixotir. — Omonat banklari katta dividend to'laydilar, shu boisdan yangi-yangi pul qo'yishni jalb qiladilar. Vazifa — ana shu pullarni bizga yo'naltirishga erishishdan iborat.

— Gapning indallosini aytding. Qo'shimcha qilishimning hojati qolmadi.

— Men mamnunman, — dedi Palmer. — Lekin bu borada sizning nima qilganingiz menga qorong'i. Men shuni bilishim lozim.

“Ba'zan aldashga to'g'ri keladi, — o'yladi Palmer, — lekin bu yolg'on yaxshi niyatda to'qiladi. Qariya, axir, o'limigacha hammasini to'kib solgisi kelayapti, shuning uchun ilk imkoniyatga ham yopishib oldi”.

— Nima qildingiz, deyapsanmi? — to'ng'illadi Berkxardt. — Biz bu yerda laqillab, yulduz sanab yurdik, mana nima qildik. Butun o'n besh yil davomida beparvo o'tirib, omonat banklari shundoqqina burnimiz tagidan dollar ketidan dollarni tashib ketayotganini tomosha qilib o'tirdik. Chunki biz o'z vaqtida bunday mayda-chuyda ish bilan shug'ullanishni ep ko'rmadik. Endi bo'lsa, ana o'sha dollarlar bizga kerak bo'lib qolganida, hatto nima qilishniyam bilmayapmiz.

— Xuddi mana shuni men tushunmayapman-da, — yana yolg'on gapirdi Palmer. — Men shuni aytmoqchimanki, o'sha omonat banklari faoliyatida men hech qanaqa sir ko'rmayapman. Ular o'zi qancha? Butun shtat bo'yicha yuz o'ttizta ham chiqmaydi, axir?

— Ha, taxminan shuncha, filiallari bilan birgalikda ikki yuz elliktaga borib qoladi.

— Shundayku-ya, lekin birgina YuBTKning o'zi ularning barcha tizimlarida mavjud bo'lganchalik filialga ega-ku?

Berkxardt bunga javob bermadi. Palmer esa qariya dilida borini to'kib solsin deya so'rab-surishtirishda davom etdi.

— Menga hammadan ko'ra aynan shuni tushunish qiyin bo'layapti, — dedi tag'in Palmer. — Mana, doimiy maosh oladigan odamni olib ko'raylik. Odatda, uning maoshining uchdan ikki qismi qarzlarni to'lashga ketadi. Lekin, baribir, u haftasiga 10 dollardan, aytaylik, hatto 5 dollardan olib qo'yadi. Uning qanchaligi ahamiyatsiz. Savol tug'iladi, u mana shu jamg'armasini qaerga qo'yishi kerak? Hamma joyda, qariyb har bir burchakda YuBTK, «Menyu-fenchererz» yoki «Cheyz Manxetten», «Fyorst neshnl», nihoyat, Kimyo banklarining bo'limlari joylashgan. Boshqacha aytganda, omonat qo'yuvchi o'zi uchun tijorat banki singari qulay bo'lgan jamg'arma banki bo'limini izlab topishga vaqt sarflashi kerak bo'ladi. Shunday emasmi?

Berkxardt yelkasini qisdi.

— Bu nima yuz berganini izohlab berolmaydi, — deya javob berdi u Palmerdan ko'ra o'ziga. — Shuning o'zi omonat qo'yuvchilar pulining uchdan ikki qismi nima uchun aynan jamg'arma banklariga tushib qolganini aytib bermoqda. Holbuki, o'sha pullar bizga havoday zarur.

— Bu qandaydir bema'nilik-ku, axir.

— Yo'q, bu odatdagi amerikacha ahmoqlik, — e'tiroz bildirdi Berkxardt. — Gap shundaki, jamg'arma banklari o'z dividendlari biznikiga nisbatan yarim foizga oshiq deb e'lon qildilar. Qandaydir ayanchli yarim foiz! Nahotki shuni pul qo'yimoqchi bo'lgan har bir omonatchiga harfma-harf

tushuntirish kerak bo'lsa? Oxir-oqibatda hammasi shunga borib taqaladiki, pul qo'ygan odam o'zining bankdagi hisobida bor-yo'g'i besh dollar oshiq sarmoyaga ega bo'ladi. Agar omonat qo'yuvchiga shu tarzda tushuntirilsa, u tentaklik qilayotganini tushunmasdan qolmaydi. Lekin hamma balo shundaki, buni unga hech kim tushuntirmayapti. — Berkxardt jimib qoldi, ammo keyin Palmerga yuz burib, so'radi: — Nima deb o'ylaysan, bu yerda gap nimada?

Palmer yana qoshini chimirdi, javobini o'ylayapti degan qiyofaga kirdi.

— Menimcha, sababi shundaki, — deya boshladi u, yuziga uning javobi jiddiy fikrlashning mevasi degan tus berib, — bankda saqlanayotgan omonat bankning turidan qat'i nazar, juda kam foyda berayotganini tan olishdan hamma qo'rqadi.

— Xuddi shunday. Agar odamlarga shu tarzda tushuntiriladigan bo'lsa, ular bu banklardan o'z pullarini olib, sug'urta kompaniyalari fondlariga topshiradilar yoxud o'zlari birjada o'ynaydilar. Bu sohada ovsarlikning yana boshqa turlari ham bor. Bu — ko'chmas mulk sindikatlariga o'xshash turli birlashmalardir.

«Rolls-Roys» nihoyat Ist Saydda katta yo'lga chiqib oldi va soatiga qirq besh mil¹ tezlikda yumshoq sirpanib, shaharning ishbilarmonlar qismiga yo'naldi.

Palmer ma'lum muddat o'ng tomondagi daryoda suzib ketayotgan tankerlar va yuk katerlariga ko'z yugurtirdi. Yengil tuman qoplagan daryo yaltirab va qariyb harakatsiz turganga o'xshardi. Avgust quyoshi nuri jilvalanib, daryo sathida jimir-jimir qilardi. Mashina O'ttiz to'rtinchi ko'chaga burildi, shundagina Palmer ular anchadan beri gaplashmay kelayotganini sezdi.

Palmer Berkxardtga o'girilib qaradi-yu, hayron bo'ldi. Qariyaning yuzi og'riqdan burishib ketgandi. Uning xira-moviy ko'zlari chimirilgan qoshlari ostiga berkilgan, og'zi burchaklaridan achchiq ajinlar tortilgan, ichida qandaydir og'riq azob berayotganday edi. Palmer biror joyingiz og'riyaptimi, deb so'ramoqchi bo'ldi, lekin qayta o'ylab, indamay qo'ya qoldi. Gapirishga ehtiyoj — faqat bo'shliqni so'z bilan to'ldirish Palmerning o'smirlik odati edi, bu qilg'ini hech tashlay olmasdi.

Gapirib boshiga balo orttirgandan ko'ra jim turish — hayot hikmati. Bu hikmatni unga otasi singdirgandi. Otasi unga o'n ikki yoshidan aytgan bo'lsa ham, juda kech, o'ttizdan oshgandan so'ng tushundi.

Endi bo'lsa, u qirq yoshdan oshgandan so'ng bu haqiqatga shubhalana boshladi. Hozir, shimolga uchib borayotgan «Rolls-Roys»ning o'rindig'i suyanchig'iga yastanganicha jim turmoq chindan ham ko'ngilsizlikdan asrar ekan. Buni bahslashish ortiqcha. Biroq yillar o'tishi bilan Palmer tez-tez ko'ngilsizlik nima degan savol haqida o'ylab qolardi. Rostdan ham ularning mohiyatidan qat'i nazar, ko'ngilsizlikdan qochish kerakmi?

Mashinada Berkxardt bilan yonma-yon o'tirib, ayni damda «ko'ngilsizlik» o'zi bilan hali uzoq yillar unga boshliq bo'ladigan odam o'rtasida aloqalarni mustahkamlashi mumkinligini tushunardi. Yoshligida otasi bergan o'gitni buzib, endi gap boshlayman deganda:

— Jin ursin, qari tentak! — deb xitob qildi Berkxardt.

Palmerning peshonasi tirishdi, Berkxardtni junbushga keltirgan nima bo'ldiykin, deb o'yladi.

— Siz Lumis haqida aytyapsizmi? — so'radi u.

— La'nati chol! Esini yegan tentak! Shayton aqldan ozdirdi, shekilli, ertalab menga telefon qildi!

— Nima kerak ekan?

— Butun sayyoramiz... faqat shu kerak ekan.

— Aftidan, bunga jamg'arma banklar aralashgan. Shundaymi?

— Mana shunisi menga alam qilayapti-da! — to'ng'illadi Berkxardt. — U, xabaring bor, tul bo'lib qoldi. Yiliga bir bor shahrimizga dam olgani keladi. Kamdan-kam birga ovqatlanamiz. Ba'zan klubda uchrashamiz, bir qadahdan otib olamiz. U YuBTK boshqaruvi majlisiga umuman kelmasligi mumkin. Biz u bilan asosan jamoat ko'z o'ngida uchrashamiz. Men undan shaxsiy manfaatlariga mos tushadigan hech narsa so'raganim yo'q. U ham menga nisbatan xuddi shunday yo'l tutardi. Lekin bugun, jin ursin, u birdan to'g'ridan-to'g'ri «Merrey Xill» vasiylari majlisidan telefon qilib qoldi. Ular bu yil shtatning qonun chiqaruvchi yig'ilishiga taqdim etishga tayyorlanayotgan qonun loyihasiga YuBTK

qarshi e'tiroz bilan chiqmasligini so'radi.

— Uncha nozik iltimos emas.

— Lekin mening jahlimni chiqargan bu emas, — to'ng'illadi Berkxardt. — Albatta, u o'sha yerda to'plangan barcha vasiylar oldida bunaqa iltimos bilan murojaat qilishi meni quvontirmaydi. Aslo yo'q. Meni hamma narsadan ko'ra ko'proq g'azablantirgan narsa mening... mening... — u kerakli so'zni qidirib, tutilib qoldi va yordam kutgandek jahl bilan Palmerga qaradi.

Nima demoqchi? Etikami? Vijdonmi? Axloqmi? Turmush tarzimi? Nima ekan? — deya Palmer xotirasini tita boshladi. Lekin birorta so'zni ovoz chiqarib aytmadi. Kutib turishni lozim topdi va qariyaning g'azabli nigohiga bardosh berdi.

— Hammasidan ham meni boshi berk ko'chaga kiritib qo'yishga urinayotgan odamning bema'ni surbetligi g'azablantirayapti. U yo YuBTK manfaatlarini yoxud eski do'stligimiz manfaatlaridan birini tanlashni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Buni kechirib bo'lmaydi! — dedi qariya.

— Unga nima deb javob berdingiz? — so'radi Palmer.

— Javob berdim? Unga nima deya olardim? Javob berishdan bosh tortdim.

— Oxir-oqibat javob berishga to'g'ri keladi-ku, axir.

Berkxardt keskin bosh irg'adi. Uning yuzini qat'iy, qariyb shafqatsiz ifoda egalladi. Ko'zlari katta-katta ochilgan, nigohi haydovchining yelkasiga qadalgandi. Go'yo u yerdan bo'lajak voqealar natijasini uqib olmoqchiday edi.

— Faqat mengina yolg'iz uning do'stiman, deb o'ylama, — qo'shib qo'ydi qariya. — Jo buni mendangina so'ramaydi. Jamg'arma banklarining vasiylarida ham, tijorat banklari boshqaruvi a'zolari orasida ham do'stlari topilishi mumkin. Hozir ular bu haqda butun shahar bo'ylab so'ray boshlaydilar. Lekin bu biz uchun mutlaqo nomaqbuldir. Bu borada menga tazyiq o'tkazishlariga yo'l qo'yolmayman.

— Qaysi qonun loyihasi haqida gap bo'lgandi?

— Mundoq tuzuk esimda ham yo'q, — dedi qariya. Bo'lib o'tgan voqeani tahlil qilarkan, u sal o'ziga kela boshlagandi. Eski do'sti bergan zarbadan u larzaga tushgandi.

— Balki bu filiallar haqidagi son-sanoqsiz qonun loyihalaridan bittasidir?

Berkxardt g'azablendi, keyin ohista Palmerga o'girildi.

— Qiziq, sening bundan qanchalik xabaring bor, Vudi? — so'radi u tutoqib. — Bundan xabaring menikidan kam emasga o'xshaydi.

— Ie, nima deyapsiz! Bundan sal-pal xabarim bor, xolos.

— Cholni mazax qilmoqchi bo'ldingmi-a? — sovuq to'ng'illadi Berkxardt. — Vudi, kel, kelishib olaylik. Sen biror narsani bilmagan bo'lishing mumkin, shunda, albatta, qandaydir xabarga muhtoj bo'lasan. Faqat bilib qo'y, o'zingni go'llikka solib, meni ahmoq qilma. Tushundingmi?

— Lekin men...

— Bilib qo'y, agar oldinga poxol solayotganingni sezsam... — uning gapini bo'ldi Berkxardt. — Agar biliming va qobiliyating haqida menda aniq tasavvur bo'lmasa, ishimizda jiddiy to'siqlar bo'laveradi. Sen kechayu kunduz ishing qay tarzda ketayotganidan boxabar bo'lib turishing lozim. Tushundingmi?

— Tushundim. Uzr, — dedi Palmer.

Berkxardt lablarining burchaklari sal ko'tarildi.

— Bor gap shu, — dedi u, biroz yumshab. — Men buni unutib ham yubordim.

— Men esa eslab qoldim.

— Juda yaxshi.

Oltmish birinchi ko'chada «Rolls-Roys» sezdirmay chap qatorga o'tdi-da, katta yo'ldan burilib, shaharning g'arbiy qismiga qarab yurdi va mashinalarning umumiy oqimiga qo'shildi. Shu yurishda Beshinchi avenyuga yaqinlashgan sari avtoulavlar gavjumlashib borardi.

Ancha davom etgan sukutdan so'ng qariya yana gap boshladi:

— Qonun loyihasi chindan ham jamg'arma banklarning bo'limiga daxldordir. Lekin mohiyati nimadaligi esimda yo'q.

— Ularning miqdorini ko'paytirishmoqchi, albatta.

Berkxardt yelkalarini qisdi.

— Ha, shahar chekkalarida. Hozir shahar chetidagi qasabalarga qo'llari yetmaganidan paytavasiga qurt tushgan ularning.

— Ularning omonatchilari, aftidan, qasabalarga ko'chib o'tishmoqda.

— Umuman shunday, — tasdiqladi Berkxardt. — Ammo jamg'arma banklari o'zlaridan bo'lak hech kimni ayblay olmaydilar. Urush boshlanishi bilan ular ko'plab sarmoyasini garovga qo'ydilar. Bu ularda qarz berishning yagona turidir va, albatta, juda ham yanglishdilar. Ular omonatchilarning shahardan chiqib ketishlariga yordamlashdilar, o'zlari esa ular izidan borolmayaptilar.

— Unda bunchalik tashvishning nima keragi bor? — so'radi Palmer. — Agar o'z qopqonlariga o'zlari tushgan bo'lsalar, azobini o'zlari tortaversinlar.

— Ular o'z qopqonlarida azoblanish niyatida emaslar. Ular katta erkinlik berilishini talab qilayaptilar va bunga erishish uchun hamma narsaga tayyorlar.

Palmer tushunaman, deganday bosh irg'adi:

— Og'ir vaziyat. — U yo'l tirbandligidan to'xtab qolgan mashinalarga qaradi.

Ancha oldinda Uchinchi avenyuda bir binoni buzishayapti, uning oldida yuk mashinalari navbat kutib, turib qolibdi. Ko'cha bo'ylab torgina yo'lak qolgan bo'lib, Berkxardtning mashinasi o'tib ketishi uchun o'z navbatini kutardi. Burchakdagi taxta to'siqlarda yorqin lavhalar ko'zga tashlanardi. Ularda yuzlarida tabassum balqib turgan kishilar g'azna darchasiga shoshilishyapti. Lavhalarga «Endi ko'p kutmaymiz» degan shior yozilgan. Tez orada bu yerda «Merrey Xill» bankining yana bir bo'limi qulaylik tug'diradi. U Nyu-Yorkning tejamkor aholisiga to'rt yarim foizdan to'lashga tayyor.

Palmer istehzoli kulib, qariyaga o'girildi:

— Mana shu burchak yonidan o'tayotganimizda qon bosimingizni nazorat qilib turing, — dedi. — Bu yerda «Merrey Xill»ning yana bir bo'limi ochilayapti.

— Bilaman, — ming'irladi Berkxardt, — har kuni ertalab shu yerdan o'taman.

— Men ularning bankida filiallarga nisbatan muayyan cheklovlar bor, deb o'ylardim.

— Shu yilning bahorida ular boshqa bir jamg'arma banki bilan birlashdilar. Uning esa uchta filiali bor. Bu shulardan bittasi.

Palmer yengil hushtak chalib yubordi:

— Bu jarayonni nima bilan to'xtatish mumkin?

— Hech narsa bilan, — to'ng'illadi Berkxardt. — Ular istaganicha birlashaverishlari mumkin. Banklar faoliyatini boshqarib turuvchi ma'murlarimiz rozilik berar ekan, bu ish davom etaveradi.

Endi ularning har ikkovi ham mashinaning yon oynalaridan ko'chani kuzatishardi. Uchinchi avenyu burchagida maxsus taxtada «Merrey Xill» banki bo'limining qurilayotgan binosining ulkan loyihasi aks ettirilgandi. «Rolls-Roys» tezligini pasaytirib burchakka yaqinlashganda Palmer rasmdagi bo'lajak o'ttiz qavatli binoning tarhini diqqat bilan ko'zdan kechirdi.

— Xizmat binosi uchun juda g'alati joylashgan-ku bu, — ming'irladi u. Lekin shu payt nigohini ko'chani kesib o'tmoqchi bo'layotgan ayol tortdi. U baland bo'yli, to'ladan kelgan, xushbichim oyoqlari go'yo...

— Sen hali ham ko'hna Uchinchi avenyu haqida o'ylayapsan-a? — dedi Berkxardt.

Palmer unga qarab o'girildi-yu, qariya ham boyagi ayolni ko'rganini payqadi.

— Eldagi eski uylar buzib tashlanishi bilan, — davom etdi Berkxardt, — bu yerda «Blumingdeyl» univermagi qad rostladi, u yerda esa ma'muriy binolar tiklana bordi.

— Holbuki pul hozir ancha tanqis.

— Jamg'arma banklarida esa pul bor, jin ursin ularni, bu — yaraga tuz sepganday gap! Ularga pul oqib kelmoqda. Ularning aktivi¹ — naqd pul yoki ularga teng bo'lgan davlat zayomlaridir, buning ustiga yana garov vasiqalari ham bor. Bu axir, bu xuddi... Berkxardt alam bilan tufladi.

— Xuddi bankdagi naqdgina pul, — shipshitdi Palmer istehzo bilan.

Berkxardt unga sovuq qarash qildi.

— Quloq sol, Vudi, men yumor hissini qadrlayman. Bizning hayotimizda baʼzan u judayam asqotadi, aks holda chidab boʻlmaydi. Lekin shunday vaziyatlar boʻladiki, unda kulgi oʻrinsiz.

Oraga uzoq sukut choʻkdi. Mashina Uchinchi avenyuni kesib oʻtdi va sekin yurib borib, Park-avenyudagi svetofor oldida toʻxtadi.

Shu vaqt ichida Palmer uch marta nimadir demoqchi boʻldi-yu, uch bor ham fikridan qaytdi. «Rolls-Roys»ning yumshoqqina charm oʻrindigʻida qulayroq joylashib oldi-da, butun hayoti toʻgʻriligini isbotlagan tamoyilni shubha ostiga olish aqldan emas-ku, axir, — dedi oʻziga-oʻzi. Bu yerda ikki xil fikr boʻlishi mumkin emas: albatta, jim turish oʻrniga gapirib qoʻysang, koʻngilsizlik boʻlishi turgan gap.

Mana, hozir ham, qariya nimani xohlayotganini, hatto nimani kutayotganini, gapirib yuborib, ikkalasi oʻrtasida vujudga kelgan begonalashishga bir necha yarashtiruvchi soʻz bilan barham berishini bilib, Palmer sukut saqlash har qanday soʻzdan koʻra kamroq koʻngilsizlik keltirishini oʻylab, jim turishga qaror qildi.

— Jin ursin uni, — deya toʻngʻilladi Berkxardt mashina Park-avenyudan janub yoʻnalishiga burilganda. — Bular asabimga qanchalar tekkanini koʻrib turibsan-ku, Vudi. Shu telefon qoʻngʻirogʻi bilan u boshimga musht tushirgandek boʻldi...

Palmer ohista, goʻyo istamagandek unga qaradi.

— Sizni bunchalik tashvishga solayotgan nima oʻzi? — soʻradi u. — Jamgʻarma banklaridagi ishkalmi yoxud sizga tazyiq oʻtkazmoqchi boʻlgan Jo Lumismi?

— Ikkoviyam bir goʻr. Mana, necha yildirki, ana shu chalkashliklar ichida yashayapman. Ahvol borgan sari tanglashayapti. Menda ikki yoʻl bor. Bittasi bankimizdagi muomala jarayonini ancha qisqartirishni taqozo etsa, ikkinchisi eski doʻstimni yoʻqotishga olib boradi. Sodda, ammo qoʻpol qilib aytganda, shunday boʻladi.

Palmer Berkxardtning oldida turgan muammo mohiyatini toʻkib soladi deb kutdi. Bu oʻrinda u qabul qilishi kerak boʻlgan bitta qaror borligini koʻrib turardi, shuning uchun ham soʻradi:

— Shu boisdan siz bu ishni menga topshirgan ekansiz-da, shundaymi?

— Faqat qisman, — toʻngʻilladi qariya.

— Yana boshqa sabablari ham bormi?

Berkxardt yelka qisdi:

— Boʻlmasam-chi. Agar, bordi-yu, Jo Lumisni bir yoqli qilishga toʻgʻri kelsa, men buni boshqa biron qilishini istardim. Ammo bu — muammoning bir qismi, xolos. — U chuqur nafas oldi. — Uning ikkinchi qismi — Berns bilan sen tez orada tanishishing mumkin.

Shu asnoda ularning mashinasi yengilgina gʻarbga burildi-da, Ellik beshinchi koʻcha boʻylab yurdi, Medison-avenyuni kesib oʻtdi va Beshinchi avenyuga yetdi.

— U ancha uddaburon yigit, — dedi Palmer. — Chikagoda bir maʼruzasini eshitganman. Yaxshi notiq.

— Yaxshilardan biri. Ishni kino sanoati matbuot vakilidan boshlab, shu martabaga erishdi.

— Hozir u reklama va axborot boʻyicha maslahatchi yoki shunga oʻxshash vazifada, shekilli? Menimcha, Chikagoda mijozlari bor.

Berkxardt xoʻrsindi:

— Demak, Mak Bernsning shuhrati Chikagoga yetib boribdi-da?

— Nima, unga biror eʼtirozingiz bormi?

— Aslo. Afsuski, bizga kerak boʻlgan kimsa aynan oʻsha.

— Biroq bu ishni xuddi oʻshani deb menga yukladingiz, shundaymi?

— Xuddi shunday, — javob berdi Berkxardt.

Ularning «Rolls-Roys»i ohista toʻxtadi, shofyor mashina eshigini ochdi.

— Men greklar yoki suriyaliklarga yoxud oʻsha Bernslarga qarshi emasman, — dedi Berkxardt, mashinadan chiqarkan. — Lekin men aynan oʻshalar bilan chiqisha olmayman. Shu boisdan senga shu Mak Berns bilan hamkorlik qilish imkonini beraman...

Yoʻlakka chiqib olgan qariya Palmerning mashinadan chiqishini kutardi.

— Ha, yana bir narsa, — dedi sekingina Berkxardt ulkan shisha eshik oldida to'xtatib. Bu o'sha zamonaviy bank binosining eshigi edi.

— Xo'sh? — dedi Palmer qariyaga burilib.

— Berns unga qanday munosabatda ekanimni yaxshi biladi. Men buni yashirolmayman. Shuning uchun sen u bilan do'stlashib olishing lozim. Bu muvozanat uchun kerak. Buni uddalay olasanmi?

— Nega uddalab bo'lmas ekan?

— Senga bu odam bilan yelkama-elka va uzoq vaqt ishlashga to'g'ri keladi. Eplay olasanmi?

— Eplayman.

— Bernssiz biz tamom bo'lamiz.

Ular sukut saqlaganicha bir-biriga qarashdi. Palmer jamg'arma banklari bilan bog'liq voqealar tufayli cholning miyasi aynib qolgan, shekilli, deb o'yladi. U qariyadan burildi-da, bank binosini ko'zdan kechira boshladi. To'ppa-to'g'ri uning boshi uzra nozik kumush halqalar o'ralgan shisha minora yuksalib turardi. Palmerning miyasidan, bu bino istalgan paytda putur ketib, yerga qulashi mumkin, degan fikr kechdi.

Beshinchi bob

Liftda odam xizmat qilmasdi, lekin u shu darajada mexanizatsiyalashgan ediki, unda ko'tarilish jarayonini «o'z-o'ziga xizmat» deyish adolatdan bo'lmasdi. Berkxardtning qo'li «yuqoriga» degan yozuv ostidagi tugmachaga tegib, ko'rsatkich taxtadagi yashil doira yongach, lift eshigi ochildi. Palmer sherigi orqasidan liftga kirdi. Eshiklar yopildi, lift xonasining devorlari metall dan to'qilganga o'xshardi. Palmer beixtiyor yoqimsiz tuyg'uni his etdi: agar lift xonasi tepaga ko'tarilish o'rniga pastga, sho'r suvli dengiz oqimiga tushib ketsa bormi, o'yladi u, unda suv darhol metall xonaning qarama-qarshi zaryadli qismlari bilan kimyoviy reaksiyaga kirishib, kuchli elektr zarbasi ularni xona bilan birga chilparchin qilgan bo'lardi.

U ko'rib turibdi: Berkxardt uzun va yo'g'on ko'rsatkich barmog'i bilan boshqa tugmani bosdi. Plastmassali bu tugmada «Yuq» — «Yuqori qavatga» degan yozuv bor edi. Tugma yashil bo'lib yondi. Ko'rsatkich taxta tagidan plastmassa panjaradan mexanik ovoz eshitilib, odam ovozigacha o'xshagan tovushda: «Lift yuqoriga qavatda...(jimlik)... to'xtadi» deb xabar qildi.

Berkxardt Palmerni qaradi, yovuzona tirjayib:

— Buni biz «qishloqlar uchun tuzoq» deb ataymiz, — dedi.

Palmer hech nima demadi, qo'lini cho'zib liftdagi «12» raqamini bosdi. Dinamik radio to'rida nimadir ikki bor «chirq-chirq» etdi-da, yana mexanik ovoz eshitildi: «Lift o'n ikkinchi qavatda...(jimlik)... to'xtadi.» Palmer «bekor qilish» tugmasini bosdi. Haligi ovoz: «Lift yuqoriga qavatda...(jimlik)... to'xtadi» — dedi.

Palmer nafasini rosladi va chetroqqa turib, Berkxardtga murojaat qilib, dedi:

— Shuncha o'ynading, yetar, bas qil.

Eshiklar yana ochilgach, qandaydir soniyada har tomondan bostirib kirgan yorug'lik ko'zlarni qamashtirib yubordi. Lift xonasidan chiqarkan, Palmer ko'zlarini bir yumib oldi-da, so'ng yuqori qavatning baland shiftiga maroq bilan nigoh soldi. Shift alyuminiy qoplamali to'rtburchak jilosiz va shaffof oynalar bilan qoplangan edi.

Keyin ular har tomondan nur tushib turgan, gilam to'shalgan yo'lak bo'ylab yurishdi. Yo'lakning oppoq devorlarini zamonaviy rassomlar asarlari bezab turardi. Yo'lak oxirida kichik siymo ko'zga tashlanardi. Siymoga yaqinlashgan sari u kattalashib bordi va ular ko'z o'ngida yigirma sakkiz yoshlardagi mallasoch bashang ayol qad rosladi. Bo'yi boshliqning bo'yidan qolishmasdi. Xonim har ikkalasi bilan salomlasharkan, maftunkorona tabassum qilib: «Xayrli tong» dedi-da, navbatdagi eshikka qarab yurdi. Anodlangan alyuminiy qoplangan bu eshik dastasi oppoqligi bilan ajralib turardi. Eshikni ochgan ayol ularni oldinga o'tkazib yubordi. Palmerning dimog'iga qimmatbaho atirning hidi

urildi, Rojdestvo bayramida u Edisga xuddi shunday atir sovg'a qilgandi.

Qiziq, Berkxardt bu ayolni ishga uning baland bo'yi yuqorigi qavat shiftining balandligiga uyg'un bo'lgani uchun olganmikin? — o'yladi Palmer. Uni yana shu narsa biroz hayron qoldirdiki, Nyu-York kotibasi o'ziga qimmatbaho atirni ep ko'rishi mumkin, lekin uning ko'z o'ngida Berkxardtning ishchi xonasi butun hashamati ila paydo bo'lishi bilan Palmerning o'y-fikrlari tarqalib ketdi.

Gap xonaning chindan ham bahaybatligida emas, deb o'yladi uni ko'zdan kechirarkan, Palmer. Muhimi shunda ediki, hamma narsa oshkora amalga oshirilgan edi, ishning ko'zini bilib, keng miqyosi bilan hayratga solishni ko'zlab loyihalashtirilgandi.

Xonaning ikki devori oq edi. Qisqaroq bo'lganining uzunligi 30 futga yaqin kelardi, balandligi 12 futga, ya'ni butun yuqorigi qavat balandligiga teng edi. Ikkinchi devorning uzunligi 50 futdan kam emasdi. Uning ustidagi shift esa xuddi ko'kka talpingan chag'alayning qanotiga o'xshab yoppasiga shishadan yasalgan bo'lib, balandligi 20 futcha kelardi. Palmer o'zini ulkan eshitish muguzi ichidagidek his qildi. Miyasida bema'ni bir fikr yarq etdi: agar u turgan yeridan turib baqirsa bormi, qo'ng'iroq shaklidagi xona uning ovozi shu qadar kuchaytirardiki, bu kuchdan kattakon oyna chilchil sinishi hech gap emasdi.

U o'z ovozi kuchini sinab ko'rish niyatidan voz kechdi va buning o'rniga Berkxardt tomonga o'girildi. U esa diqqat bilan Palmerni qarab turardi.

— Ana oyna-yu, mana oyna, — dedi Palmer qo'pol ohangda. — Shunday katta shisha toboqlar yasash mumkinligini bilmas ekanman.

— Odatda, bunaqalarini yasashmaydi ham, — uni ishontirishga shoshildi qariya. — Ammo Korning yigitlari me'mor da'vatiga labbay deb javob berishdi. Bu oynani loyihalagan Korning o'ziniyam lol qoldirdi. Bu shunday shishalarning to'rtinchisi. Avvalgi uchtasi silliqalayotganda sinib ketdi.

— Bunisi sinmaydimi? — Palmer yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, lekin shu savol bilan cheklanib qo'ya qoldi.

— Korning odamlari kafolat berishdi. Maunt Palomar rasadxonasidagi teleskop ko'zgusi ham shunday oynadan yasalgan. Tayyorlash jarayoni o'sha-o'sha — asta-sekin sovtutish. Buning qalinligi bir dyuym¹dan kam emas.

Berkxardt eshik yonidagi tugmani bosgan edi, xona tag'in ham yorishib ketdi.

Palmer shiftga ko'z yugurtirib, jilosiz va shaffof oynadan yasalgan to'rtburchaklar ustida shaxmat tartibida joylashtirilgan taxtalarni ko'rdi. Ular zalga quyosh nuri bilan birga kirib bordilar. Palmerning nigohi yozuv stoliga tushdi. Stolda kimdir o'tirardi. U o'rnidan turib, bularga peshvoz chiqdi.

— Sizni shuncha kuttirib qo'yganimdan afsusdaman, Mak, — dedi unga qarab yurarkan Berkxardt. Lekin u shunday masofada to'xtadiki, ularni kutib olgan kishining qo'li yetmasdi. Berkxardt Palmerni o'girilib, dedi:

— Qani, Vudi, bir sakrab yerga tush-da, Mak Berns bilan tanish. — Ana shunday murakkab harakatdan so'ng Berkxardt stolning narigi tomoniga shu tarzda joylashdiki, unga cho'zilgan qo'lni qisib qo'yishdan ataylab bosh tortdi degan tasavvurga o'rin qoldirmadi. Palmer oldinga yurib, Bernsning qo'lini qisdi.

— Mister Berns, men Vuds Palmerman.

Berns jilmaydi. Uning qoramag'iz og'zida bir tekis mayda oppoq tishlari yaltiradi.

— Mister Berns — mening otam, Vudi, meni esa oddiygina qilib Mak deyishadi, — dedi u.

— Mak, — deya takrorladi Palmer va asta o'rindiqqacha cho'kdi.

Berkxardt ham xuddi shunday o'rindiqqacha o'tirdi-da, bo'shliqqa qarab nimagadir irjayib qo'ydi.

— Vudi — bizning ierarxiyamizda¹ ikkinchi raqamli odam hisoblanadi, — dedi Berkxardt. — Vudi Palmer — mening birinchi vitse-prezidentim... Uni sizga tanishtiraman.

— Leyn... — dedi Berns va mana shu bir bo'g'inli so'z havoda osilib qoldi. Berns ushbu vaziyatga hal etilmagan holda qolish imkonini berdi, o'z oromkursisiga o'tirdi, qoramtir-ko'k shimining qatlamini tizzalari ustidan biroz tortib qo'ydi. U kostyumini ko'zdan kechirib, yengida mavjud bo'lmagan changni qoqib qo'ygandek bo'ldi. Palmer Bernsning kostyumi ajoyib bichimda ekaniga e'tibor berdi. Uning

tikilishi mashhur aka-uka Brukslar buyumlariga o'xshamasdi. Boshqa har qanday rusumdagi mashhur kostyum ham bunga tenglasha olmasdi. Faqat oq ko'ylagigina uncha qovushmay turardi.

— Leyn, — takrorladi Berns, — mijozim meni xabardor qilib turadigan bo'lsa, mening reklama va axborot sohasidagi mutaxassisligim qaerda qoldi? Leyn, axir, siz judayam band odamsiz. Ruxsat eting, Vudi haqida sizga axborot beray.

Oraga qisqa jimlik cho'kdi. Palmer bu ikki odam bir-birini yoqtirmasligini his etdi. Bu odam bilan muomalada bo'lishga majbur ekanligi Berkxardtning g'ashini keltirardi. Berns esa kutdirib qo'yishganidan alamzada edi. Hozirgi paytda Palmer bu ikki odamning bir-birini xush ko'rmasligi qay darajaga yetganini hali aniqlay olmagandi. Ularning har ikkalasi ham bir-biriga nafratini oshkora ifodalaydiganlar toifasidan emasdi.

— Mayli, Mak, — dedi Berkxardt stolga qaraganicha xotirjam, — navbat sizniki, qani, gapiring.

— Vuds Palmer-kenjatoy, — dedi Berns va jilmayib Palmerga qaradi. Bu qarashidan u ushbu vaziyatdan keskin noroziman deganday bo'lardi. U Palmerga diqqat bilan qarab so'zida davom etdi: — Dekabrda u qirq besh yoshga to'ladi. Illinoys shtatidagi Glenko shahrilik Edis Edisonga uylangan. Uning Vuds Palmer-uchinchi degan o'g'li, Jeraldina ismli qizi va to'qqiz yoshli Tom degan o'g'li bor. Ikkinchi jahon urushi paytida unga harbiy havo kuchlari podpolkovnigi unvoni berilgan va u ko'pincha razvedka qilish xarakteridagi topshiriqlarni bajargan. U...

— ... bankir bo'lish uchun haddan tashqari mohir, jin ursin, — Bernsning so'zini ilib ketdi qariya, — ammo, Mak, sizga mos tushishi uchun yetarli darajada ayyor ham.

— Siz mening axborotimni oxirigacha eshitishni istamayapsizmi? — so'radi istehzo bilan Berns. — Mening idoram bunga ancha vaqt sarfladi.

— Bunday ish hammaning ham qo'lidan keladi, — dedi Berkxardt past ovoz bilan. — Biroq hammasidan ko'ra, meni u haqda ma'lumot to'plash uchun nega o'z idorangizga topshiriq berganingiz qiziqtiradi, axir, uning yangi lavozimga tayinlanishi hech kimga ma'lum emasdi-ku.

Berns og'zini beo'xshov qiyshaytirdi, lablari qimtilganday bo'ldi. U yelkalarini qisib, gapira ketdi:

— Leyn, siz meni yollaganingizda, eng yaxshi kadr sifatida tanlab olgandingiz. Sizni men qanday qilib yaxshi bo'lganligim qiziqtirmasdi. Sizga men kerak edim, shuning o'zi kifoya edi.

— Tag'in kasb-korlik sirlarimi? — to'ng'illadi Berkxardt.

— Nima, ko'zboyloqchi o'z nayranglarini qanday amalga oshirishini izohlab o'tiradimi? — so'radi Berns.

— Demak, men nayrang uchun pul to'lar ekanman-da? — dedi Berkxardt sal oldinga intilib.

— Yo'q, albatta, — e'tiroz bildirdi Berns. U oromkursi suyanchig'iga yastanib, o'z boshlig'iga nazokat bilan jilmaydi. — Yo'q, aslo, — siz nayrang uchun to'layotganingiz yo'q, — davom etdi Berns, — ammo Leyn... — va bu so'z ham havoda muallaq turib qoldi... — Siz chindan ham sehrgarni yolladingiz. Faqat sehrgargina siz uchun shunday nayranglar ko'rsata oladi.

Yana jimlik cho'kdi. Palmer bu ikki erkak o'zaro munosabatlarining yangi bosqichiga kirganliklarini tushundi. Ular o'rtasidagi nafrat hashamatdan zaruratga aylandi.

Oltinchi bob

Restoran uncha katta emas, lekin saxiylik bilan bezatilgandi. Uning yagona tor va uzun zaliga rokoko uslubidagi murakkab bezakli oq-pushti rang romlardagi ko'zgular ilib tashlangandi. Zalning xira yorug'ida Palmer oynalar naqshini uncha ilg'ay olmadi. Ko'zini qisgan holda qo'lidagi qadahga nigoh tashlab, uni asta labiga olib bordi va shoshmasdan oxirigacha ichdi.

Uning qarshisidagi stol yonida Mak Berns o'tirar va past ovozda telefon go'shagiga allanimalarni gapirardi. Restoranga ular ikkalasi kelishdi. Burchakdagi stol atrofiga o'tirishlari bilan Mak Bernsga telefon tutqazishdi.

— Yo'q, azizam... — dedi Berns sovuq bir ovozda. — Bilganini qilsin, jo'natvor uni... — Lekin uning

keyingi soʻzlarini anglab boʻlmadi.

Palmer viskidan sipqargancha Bernsni kuzatardi. Aftidan qiladigan ishi shundan iborat edi. Bu tomoshaning hammasi: bank binosidagi uchrashuv sahnasi, unga va oilasiga oid maʼlumotlarni namoyish qilish, nihoyat, bezaklari bilan mijozlarni lol qoldirishga moʻljallangan ushbu restoran — chindan ham yaxshi taassurot qoldirardi. Berns nufuzli odam sifatida jamiyatda muayyan oʻrin tutardi. Palmer buni bilar, lekin oʻz nufuzini tasdiqlatib olish uchun nega bunchalik beʼmani yoʻldan borayotganiga hayron boʻlardi. Aslida Berns unga yopishtirishayotgan kuchga egami? Palmer birdan shubhalar qurshovida qoldi, Bernsning shuhratiga, umuman, ishonish mumkinmi? U ziyrak odamga oʻxshardi, lekin loʻttibozliklari qanchalik oʻrinsiz taassurot qoldirayotganini nahotki sezmasa?

Berns telefon goʻshagini joyiga qoʻydi-da, Palmerga qaradi.

— Vudi, meni yana bir daqiqaga kechirishingizga toʻgʻri keladi, — dedi u va tagʻin goʻshakni koʻtardi. — Doʻndiqcha, meni Venesueladagi Karakas bilan ulang, — uning telefonchi qizga murojaat qilib gapirgani aniq eshitildi. — Raqami San-Martin 00-40, shu davr ichida meni idoram bilan ulashga ham ulgurasiz. Rahmat, qizaloq.

Palmer oʻzini noqulay sezib, Bernsga qaramaslikka urinib, qoʻlidagi shotland viskisi toʻla qadhnning qahrabo rangini tomosha qilardi. Qulogʻiga Bernsning gapi chalindi:

— Vudi, kechirasiz, yana bir daqiqa. — Palmer boshini koʻtarib, Bernsning tagʻin engashib olib telefonga shivirlayotganini koʻrdi. — Bu men, jonginam, telefonga... chaqirib bering... — nima deyayotganini eshitib boʻlmadi.

Palmer oʻrindiqli suyanchigʻiga yastanib koʻzini yumdi. Bunday noqulay vaziyat nihoyat tugar degan umidda edi. Berns sira uyalmayapti-ku, nega endi men buncha bezovta boʻlishim kerak? Palmer koʻzini ochib, Bernsga qarab, uni kuzatishda davom etdi.

U taxminan Palmer bilan tengqur — qariyb qirq besh yoshlarda edi. Bugʻdoy rang. Kalta sochi orqaga qarab silliq taralgandi. Palmer diqqat bilan bu odamning yuzi qanchalik tez oʻzgarib turishini kuzatardi. U bunday bashara yoshlikda ogʻir kun kechirgan odamdagina boʻlishi mumkin degan qarorga keldi. Palmer uni kuzata turib, Berns umuman, oʻziga yarasha maroqli, hatto orasta, lekin gʻalati qiliqli odam ekan, degan xulosaga keldi. Bernsning atayin qilayotgan imolari unga niqob boʻlibgina xizmat qilmasdan, oʻz xarakterining tub mohiyatini oʻzining anglab yetishiga xalaqit berardi. Hatto uning oqish sochlari ham, aftidan, unga niqob boʻlib xizmat qilardi. Lekin, baribir, uning aslida kim ekanini tasavvur qilish qiyin edi. Oʻzining daʼvogʻarligi va shuhratparastligiga qaramay, aslida oʻzi kim ekanligini hisobga olmay, Berns hozirgi mavqeiga erisha olishi amri mahol edi.

Palmer stoldan qadahini qoʻliga olib, uning boʻshligini payqadi. Shu zahoti huzurida ofitsiant paydo boʻldi. U qoshi bilan boʻshagan qadahga imo qilib, Bernsning telefondagi suhbatiga xalaqit berishdan hayiqayotganini bildirib, qisqacha: «Yanami, ser?» dedi.

Palmer ham «quy» deganday imo qildi. Soʻng:

— Shotland viskisi soda bilan, — dedi baland ovozda. Buni kutmagan ofitsiant bir qalqib tushdi.

— ... yakshanbalik chiqish haqida oʻylamang ham... — dedi telefon goʻshagiga Berns.

Buyurtma berib boʻlgach, Palmer diqqat bilan Bernsning ignatugmasini kuzata boshladi. Ularning har biri atom tuzilishi shaklidagi zarhal gardishli boʻlib, uning unsurlari koʻk yoqut va toʻrt dona mayda olmosdan yasalgandi.

Nihoyat, Berns goʻshakni qoʻydi.

— Karakasga ulanib boʻlmayapti, — dedi u beparvogina. — E-ha, sizni qiziqtirgan bumi? Bu mening timsolim. — U ignatugmasini yechib olib, koʻziga yaqinroq olib bordi. — Uglerod boʻlmasa, — dedi u, — yerda hayot boʻlishi mumkin emasdi. Albatta, hayotning oʻzini hisobga olmaganda, uglerod tangrining bebaho inʼomidir.

— Demak, koʻk yoqut — atom yadrosi, olmoslar esa elektronlardir, — dedi Palmer.

Bernsning ogʻzi gapirish uchun ochildi-yu, yana yopildi va yuzini tabassum qopladi: — Leyn haq ekan. Siz bankirlik uchun ancha aqlli koʻrinasiz. Ammo bu narsaning boshqa maʼnosi ham bor. — Shu soʻzlarni aytarkan, Berns qoʻlini shunday qayirdiki, olmoslarga urilib qaytgan nur toʻgʻri Palmerning

ko'ziga tushdi. — Ko'k yoqut — bu odam, o'ziga xoslikdir. Olmoslar unga manguga qadalgan. Bu baxtning to'rt unsuri — sog'liq, boylik, do'stlar va sarmoya demakdir.

— Sog'liq, boylik, do'stlar va sarmoya? — qayta so'radi Palmer. U to'g'ri eshitganiga ishonch yo'q edi.

Berns unga biroz tikilib turdi, uning sarg'ishroq ko'zlari qoraygandek bo'ldi.

— Xuddi shunday, — dedi Berns. Uning lablari bir zumga qisildi. So'ng u so'zida davom etdi: — O'ylashimcha, moliyachiga boylik bilan pul o'rtasidagi farqni tushuntirishning hojati bo'lmasa kerak.

Shu payt ofitsiant Palmerga viski olib keldi. Palmer o'rindiqla suyandi.

Berns qadahiga lab ham tekkizmadi.

— Pul — sen ega bo'lgan sarmoyadir, agar u yetarli miqdorda bo'lsa-yu, uzoq vaqt mobaynida qo'lingda ushlab turolsang, u boylikka aylanadi, — dedi Palmer.

Berns boshini chayqadi.

— Menga sizning moliyaviy maslahatchingiz bo'lishimga ruxsat eting, — dedi u. — Pul bu menda bor narsa. Boylik — bu men o'lganimda bolalarimga qoldiradigan narsadir.

— Yoki, — deya davom etdi birdan xushchaqchaq bo'lib qolgan Palmer, — pul biz sarflayotgan narsadir, boylik esa asraganimiz.

— Yo'q. Pul — o'g'it, xolos. Boylik bo'lsa — yig'ishtirilgan hosil.

Berns stol uzra engashdi, uning ignatugmasidagi olmoslar yaltirab ketdi.

— Ayt-chi, Vudi, nega men Leyn Berkxardt bilan mana shu tarzda gaplasha olmayman? — so'radi u.

Palmer ko'zlarini qisdi, so'ng suhbatdoshining nigohiga tikildi:

— Sizda bu narsa chindan ham qovushmayaptimi?

— Bo'lmasam-chi. Biz hech qachon kelisha olmaganmiz. Buning boisi nimada?

— Buni siz yaxshi bilishingiz kerak, axir, u bilan mendan ko'ra ko'proq ishlagansizlar.

— Siz esa uni bolaligingizdan bilasiz, — dedi Berns. — Xo'sh, javob qanaqa bo'ladi endi?

— Agar bilgan taqdirimda ham meni aytadi, deb o'ylayapsizmi? — savolga savol bilan javob berdi Palmer. — Axir, o'zingiz ham tegishli ma'lumotni to'plashingiz kerak bo'lgan odam aynan shu kimsa ekanini menga hech qachon aytmagan bo'lardingiz. Bu kasb-korlik siriga oid soha.

Berns bir oz jim qoldi.

— Bordi-yu, agar men sizga bor gapni aytib bersam, unda bu haqda hech kim eshitmaydi, deb va'da berishingiz kerak.

— Va'da berolmayman, — dedi Palmer. — O'zingiz tushunasiz-ku.

— Ha, tushunaman, — dedi bazo'r Berns. — Shuningdek, biz Leyn bilan nega chiqisha olmayotganimizni ham bilaman. — U gapidan to'xtab, yelkasini qisdi. Keyin kutilmagan kuch bilan qo'shib qo'ydi: — Lekin, mayli, oramizda boshqa hech qanaqa sir bo'lmasin, Vudi. Men jiddiy gapirayapman.

Yosh bola go'lligi o'rnini bunday shafqatsizlik egallashi Palmerni hayratga soldi. Chunki hozir ular muhokama qilayotgan narsaning bunga sira daxli yo'q edi. Albatta, Bernsning gapirganlarini u boshqa talqin qilmaganda...

— Men bankirman, — javob berdi Palmer. — Men qadriyatning ikki toifasiga egaman, xolos. Men taklif qila oladigan toifa: bu pul va omonatchi sirini saqlay bilish. Sirlarni ko'rgani ko'zim yo'q, lekin umrim bo'yi ikki kishiga bermalol yetib ortadiganidan ham ko'proq sirni saqlashimga to'g'ri keldi.

— Ammo ularni mendan yashirmang, Vudi, — turib oldi Berns. — Biz o'zimizga bunchalik dabdabani ep ko'rolmaymiz, ayniqsa, hozir. — U nafasini rostlab oldi. — Birovning ixtiyori bilan qanday ahvolga tushib qolganingiz haqida hech bo'lmasa sal-pal tasavvurga egamisiz? Yoki hech bo'lmasa vaziyat naqadar tanglashishini sezmayapsizmi?

— Aftidan, vaziyat allaqachon tanglashib bo'ldi. Berkxardtni tashvishga solish uchun shuning o'zi yetarli.

— Bo'lmasam-chi! — cho'rt kesdi Berns. — Berkxardt tashvishlana boshladimi, demak ikki marta

ko'proq tashvishlanishim kerak. Har ikkalamiz ham tashvishlana boshlaganimizda esa, bir necha million kishilarda qayg'urish uchun yetarli asos paydo bo'ladi.

Palmer viski to'ldirilgan ikkinchi qadahni oldi-da, asta-sekin, qultumlab icha boshladi. U Bernsning birinchi qadahini ichib tugatishini kutishga qaror qilganga o'xshardi.

— «Yunayted benk» uchun nima yaxshi bo'lsa, Amerika uchun ham shu yaxshi, — dedi u. — Uning uchun nima yomon bo'lsa...

— Mutlaqo to'g'ri. Sizni, aftidan, yaxshilab xabardor qilishganga o'xshaydi, — dedi u.

— Ushbu ma'lumotlarni olish uchun mening idoram butun tong bo'yi ishladi, — dedi Palmer hazilomuz, boyagina Berns aytgan jumlaning takrorlab.

Berns o'zini orqaroq tashlab, diqqat bilan Palmerga qaradi. Uning o'ziga xos yuzi hozir hech narsani ifodalamas, hatto og'zi ham qimirlamasdi. Keyin u muloyim jilmaydi.

— Vudi, — deb boshladi-yu, to'xtab qoldi. Bu so'zning havoda qanday jaranglashini tinglaganday kutib turdi. So'ng davom etdi: — Vudi, YuBTKdan ketsangiz nima qiladi? Sizday vitse-prezidentga yaxshiroq joy topish mumkin.

— Ketish? I-e, uerda ishlashni endi boshladim, axir, — hayron bo'ldi Palmer.

— Agar sizni o'z tomonimga og'dirib olsam, bilasizmi, Leyn meni nima qilardi? Yaxshisi o'z bo'ynimni uzib tashlaganim ma'qul.

Palmer o'zini juda noqulay sezdi, lekin o'z oldida har hil dahshatlarni to'qib chiqarib, keyin ulardan qo'rqayotgan yosh bolani ko'rgandek jilmayib turdi.

— E-e, judayam oshirib yubormang, — dedi u. — Sizda yana bitta ignatugma qolardi. U bilan yana ancha yillar kun ko'rishingiz mumkin bo'lardi.

U shu zahoti aytgan so'zlaridan afsuslandi. Bu juda andishasizlik bo'ldi. Berns undan xafa bo'lishga haqli edi. Palmer o'zini noqulay sezib, Bernsga razm soldi.

Bernsning ko'zlari olaydi. Lekin og'iz ochmadi. Shu bois endi nima yuz berishi mumkinligini bilolmay qoldi.

— Ayting-chi, bular rostdan ham sizga shunchalik yoqayaptimi? — kutilmaganda so'radi Berns va ko'ylagi yengidan ignatugmalarini ola boshladi.

— Mana, azizim, oling ularni.

— Quloq solsangiz-chi, men...

— Oling, olavering, men mutlaqo jiddiy aytayapman.

— Lekin menga kerakmas...

— Bo'lmagan gap, — tiqilinch qildi Berns ularni Palmerga tiqishtirarkan.

— Ular sizniki, bor gap shu. Bo'ldi, esdan chiqaraylik buni. Men, baribir, Rojdestvo bayramida ularni sizga hadya qilardim. Agar menga avgust oyida bir odam yoqib qolsa, nahotki buni tan olish uchun dekabrgacha kutsam?

Birinchiidan, o'ransiz ahmoqona gap aytganidan, keyin esa noloyiq tarzda shunday mukofotga sazovor bo'lishidan o'z aybini yanada kattaroq his qilib, Palmer «tashakkur»ga o'xshash tushunarsiz nimadir deb to'ng'illadi-da, ignatugmalarni oldi.

Berns barmoqlarini shaqillatdi, shu zahoti uning oldida bosh ofitsiant paydo bo'ldi.

— Aleks, — deya murojaat qildi unga Berns. — Aleks, azizim, mister Palmerning qimmatli tugmasi uchun durustroq g'ilof topsangiz, menga esa shu klubning ramziy ignatugmasidan bir juftini qarab ko'ring-a, xo'pmi?

Aleks bosh irg'adi va shu on g'oyib bo'ldi. Palmer va Berns bir necha soniya bir-biriga qarab qolishdi. Palmer bu qiligidan o'zini pastkashdek his etardi, chunki shu bugun yangi ko'ylak kiygan bo'lib, uning yenglari tugma bilan qadalar edi. Unda durustgina frantsuz ignatugmalari bor edi, agar o'shalar yonida bo'lganda edi, u Bernsning iltifotiga iltifot bilan javob qaytargan bo'lar edi.

— Shunday qilib, — dedi Berns, — Leyn menga hamkorlik qilishim uchun qachon odam berarkan deb rosa kutdim. Lekin uning Chikagodan chaqirilishini hech kutmagandim.

— Xo'sh, hamkorlikni qachon boshlaymiz? — so'radi Palmer.

— Azizim, mana, o'n besh daqiqa bo'layaptiki, biz hamkorlik qilayapmiz.

Palmer kulimsiradi.

— Agar shu ish deb atalsa, demak meni ko'p yillardan beri ahmoq qilib kelishayotgan ekan-da. Hozir biz nima qilayapmiz o'zi?

— O'zimizni sharhlashga imkon berayapmiz, — tushuntirdi Berns. — Birgalikda. Aynan kerak joyda. Aynan kimlarga kerak bo'lsak, o'shalarga. Bu menga Gollivuddagi dastlabki qadamlarimni eslatayapti. Endi esa atrofga alanglamaslikka harakat qiling. Zalning burchagidagi stol yonida bir odam o'tiribdi. U nonushtasini tamaddi qilib bo'ldi. Bir daqiqadan so'ng u o'rnidan turib eshikka qarab yuradi va o'tib ketayotib, siz bilan salomlashish uchun qarshingizda to'xtaydi. Uning ismining ahamiyati yo'q. Lekin u bir necha nufuzli jurnalistlar xizmatidagi ayg'oqchi. Biroq, uni stolimizga bir qadah konyak ichishga taklif qilishga arzimaydi. Uning birdan-bir vazifasi shundan iboratki, siz bilan bir stol tevaragida o'tirib suhbatlashganimizni qayd etib, tegishli joyga yetkazishdir.

— Bizning bu yerda o'tirishimizning nima ahamiyati bor?

— Mak Berns bilan bu yerga tamaddi qilgani kelgan har qanday odam gazeta maqolasi uchun mavzu bo'lishi mumkin. Bu odam reklama doirasining oddiy vakili, arzon shov-shuvlar bilan shug'ullanadi. Bundan yigirma yil muqaddam men ham shunday boshlagan edim. U shahar bo'ylab izg'ib yuradi, qandaydir voqeadan xabar topib, jurnalistlarga yetkazadi.

— Birgalikda jurnalistlarga ko'rinsak, qaytaga yaxshi bo'lmasmidi?

— Unday qilish yaramaydi, — dedi Berns astagina boshini silkib. — Vudi, men, albatta bank sohasida hali ko'p narsani o'rganishim kerak, lekin siz matbuot va reklama masalasida yaxshiroq shug'ullanishingiz lozim. Mavzu va mazmunni jurnalistga tiqishtirish mumkinmas. U o'z-o'zidan bunda bir gap bor deb shubhalanib qoladi. Bu mavzu ularning qulog'iga chalinishi kerak. Shundagina ular oldingizga yugurib kelishadi. Gap nimadaligini o'zlari qidirib, aniqlashlari darkor. Zero, shundagina u o'zini nimanidir sezgandek his qiladi. Shundagina unda bu aynan shunday ekan degan ishonch tug'iladi. Va shundagina u o'zi maqolasini dadil chop ettiradi. — Bernsning qo'li stol ustidan cho'zilib, Palmerning qo'lga tegindi.

— Diqqat. Ana, u o'rnidan turayapti. U yaqinlashganida, o'zingizni uni ko'rmayotganlikka soling.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas ular tomonga bir semiz kishi kela boshladi. Ularning stoliga ro'baro' bo'lgach, to'xtab, sassiz salomlashdi. Berns unga soxta hayrat bilan qaradi va shu zahoti tirjayib, iltifot ko'rsatdi:

— I-e, senmisan? Salom, og'ayni Len.

Haligi kishi ularga yaqinlashdi, gupillab sharob hidi urildi.

— Mekki, qadrdonim, Wie geth's¹?

— Hamon o'sha — eski hammom, eski tos.

— Ko'p tushirayapsanmi?

Berns zaharxanda jilmaydi:

— Senga ko'p bo'lib ko'rinsa kerak.

Len tushunganday kulib, Palmerga o'girildi.

— Len Bennon, — o'zini tanishtirda qo'lini cho'zmoqchi bo'lib.

Palmer uning nigohidan ko'zini olib qochib, bosh irg'adi.

— Bu Vudi Palmer. Tanishlar, — dedi Berns. — Lekin uni bu yerda ko'rganingni unut, Lenni, og'ayni.

Lenning ko'zlari olaydi.

— Nima, jiddiy gapmi?

Berns boshini chayqab, jilmaydi:

— Len, azizim, sen xafa bo'lmagin-u, hamma narsani tushunaverish sening miyador kallangga ham og'irlik qiladi.

— O key, Mekki, mayli sen aytganday bo'lsin. Seid gesund².

Len Bernsga qo'lini cho'zdi, uning qo'lini qisib qo'ydi-da, eshikka shoshildi.

— Mendan Katta Vikka salom deb qo'y, — dedi u chiqib keta turib.

— Mana, bugungi ish ham bitdi. — to'ng'illadi uning orqasidan qarab qolarkan Berns. Keyin Palmerga burildi-da:

— Juda soz, — deb qo'ydi.

— Ha, mayli, u mening chikagolik bankir ekanimni bildi, deb taxmin qilaylik, siz shuni hohlagandingiz. Lekin mening YuBTKda ishlashim unga hali ma'lum emas-ku.

Berns qoshlarini chimirdi:

— Nima balo, matbuotga mo'ljallangan axborotimizni Leyn sizga ko'rsatmadimi? — U pidjagining ichki cho'ntagini kovlashtirib bir varaq buklangan qog'ozni oldi.

— Ushbu axborot bugun kurerimiz bilan gazetalar tahririyatlariga va telegraf agentliklariga yuborildi, — dedi u.

Palmer qog'ozni yoydi. U «Yunayted benk» blanki bo'lib, matn oltin harflar bilan yozilgan edi. Rotoprintda ko'paytirilgan xabarning sarlavhasida «Palmer omonat banklariga qarshi kurashish uchun kompaniyaga ishga o'tdi» deyilardi.

Palmer hayron bo'lib Bernsga qaradi:

— Bu haqda men bilan hech kim kelishib olgani yo'q. Men rasmiy ravishda faqat bir oydan keyin ishga tushaman.

— Vudi, biz bitta qayiqda suzayapmiz, axir. Men ushbu nusxani yuqori qavatdagi eshik oldida o'tirgan baland bo'lyi mallasoch qiz stolidan olganman.

— Lekin siz reklama masalalari bo'yicha YuBTK maslahatchisiz, axir? — qiziqib so'radi Palmer. — Axir, bunday materiallar sizning imzoingizsiz tarqatilmaydi.

— Bu mening vazifamga kirishini hech kim bilmaydi. Xuddi shu boisdan ham Len Bekkon ikkalamizni birgalikda ko'rishi shunchalar muhim edi.

— Unda bu xabarni kim tarqatdi, axir, jin ursin? Reklama bo'limimi? — so'radi Palmer g'azablanib.

— Ha-da, boshqa kim yuborardi!

— Hatto oldindan men bilan kelishmay turib-a? Bu qanday surbetlik, jin ursin.

Berns qo'llarini yoydi, kaftlarini yuqori qaratib ko'targani uchun kuylagining tugmasi solinmagan yenglari qanotlarga o'xshab shalpayib pastga tushdi.

— Nima bu xabarda sizga biror narsa yoqmayaptimi? — so'radi u.

— Bilmayman, — to'ng'illadi Palmer va xabar mazmunini hali o'qib chiqmaganini eslab, unga ko'z yugurtirdi:

«Eng yirik Amerika banki — YuBTK prezidenti va boshqaruv raisi Leyn Berkxardt bugun shuni e'lon qildiki, chikagolik taniqli bankir, Vuds Palmer-kenja, sobiq prezident...».

Berns tirsagi yonidagi telefon yana sekin, ammo qat'iyat bilan jiringladi. Palmer o'qishdan to'xtadi.

— Ehtimol, Karakasdir, — dedi aybdor ovoz bilan Berns. — Allo? — uning ovozi birdan yumshadi. — Sizni chaqirishyapti, — deb go'shakni Palmerga tutqazdi.

— Allo?

— Janob Palmerni, marhamat, — dedi telefonchi qiz.

— Palmer eshitayapti.

— Sizni shaharlararo stantsiya so'rayapti, kutib turing, iltimos.

Palmer kutib turdi. U yoqdan javob bo'lmagach:

— Gapirsangiz-chi, — dedi Palmer.

— Vuds? — Edising hayajonlangan ovozi eshitildi. — Allo, Vuds...

— Edis, qaerdan gapirayapsan?

— Men dala hovlidan sim qoqayapman. Tinimsiz telefon qilishyapti, gazetalar bilishni istaydi, Vuds...

— Ha, ha, men eshitayapman.

— Vuds, shu rostmi?

Uellsli kollejda unga singdirilgan so'zlash ohangi har qanday ichki hayajonini ishonch bilan

yashirishga qodir ekanligiga qaramay, Palmer rafiqasini yetarli darajada yaxshi bilardi, shuning uchun ham Edis o'zi va oilasi tevaragida vujudga keltirgan sun'iy dunyochada nimadir o'zgarganini his qildi. Go'yo kimdir derazaga tosh otgan-u, singan shisha parchalari gilam uzra sochilib ketganday.

— Nima, rostmi, Edis? — so'radi Palmer, uni bir oz qiynash imkoniyati nega quvontirayotganini o'zi ham tushunmay.

— Sening yangi ishing-da, nima bo'lardi. Aytishlaricha... «Chikago tribyun» vakili mendan so'radi, Nyu-Yorkdagi «San-Tayms» byurosidan ham odamlar kelishdi, Vuds?

— Jerri senga aytmadimi?

— Jerri? — Edisning ovozi xafalik ohangini yo'qotdi va o'z tovushi bo'lib eshitildi. Bolalar — endi uning tashvishi. Gaplashganda bolalarni ham eslatib o'tdi. — Bularning hammasiga Jerrining nima aloqasi bor?

— Edis, bugun ertalab men qo'ng'iroq qildim, axir.

— Qo'ng'iroq qilding? Bu yoqqa, bizlargami?

— Ha-da. Sen yo'q ekansan, Jerridan iltimos qildim...

— Bugun ertalab men yo'qmidim? Qaysi payt edi? — so'radi Edis.

— Ertalab sakkizda yoki bizning vaqt bilan sakkiz yarimda.

— Bo'lmagan gap, — e'tiroz bildirdi Edis, yana o'zini dadil tutib. — Soat o'ngacha men uyda edim.

— Men Jerridan seni qidirib topishni so'radim. U o'z odati bo'yicha qayoqqadir yo'q bo'lib ketdi-da, keyin kelib seni topolmaganini aytdi.

— E, azizim, uning yoshidagi qizchadan buni kutsa bo'ladi. — Edisning ovozida odatdagi ishonch ohangi jarangladi.

— Hozir unda turli o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu tabiiy.

— Xo'p, mayli, — dedi Palmer. — Yaxshisi ayt, sizlarda ahvol qanaqa?

— Yaxshi, yashasa bo'ladi.

Palmer xotini otdan tushsa ham, egardan tushgisi kelmayotganini tushundi.

— Matbuot vakillariga nima deb aytay, azizim?

— Ayt, Nyu-Yorkka telefon qilishsin. O'sha xabar mening roziligimsiz matbuotga vaqtdan ilgari berib yuborilgan ekan. Bundan rosa jahlim chiqdi.

— Nima, bu noto'g'rimi?

— Yo'q, umuman hammasi to'g'ri.

— Yaxshi, men... — Birdan uning ovozi o'chdi, chunki yuzini telefondan burib, yonida turgan kimdir bilan gaplashdi. — Mayli, azizim, omon bo'l, — dedi u yana go'shakka.

— Sen meni bu yerdan qanday topding?

— O, albatta, — dedi xonim kimgadir telefon simining u tomonida, — so'zsiz... Azizim, Nyu-Yorkda issiqmi?

— Edis, meni bu yerdan qanday qilib topding, deb so'rayapman? — takrorladi Palmer jahli chiqib.

— Men «Yunion lig» klubiga sim qoqdim. U yerda menga bankning telefon raqamini berishdi. Bankdagi qiz esa meni shu telefonga uladi. Bizda ancha sovuq tushib qoldi.

— Men esa bu yerda nafas ololmayapman, — dedi istehzo bilan Palmer. — Men senga kechqurun yoki ertalab telefon qilaman. Yaxshi qol...

— ... taxminan yarim funt, missis Keyj... — so'ng yana baland ovozda: — Nima deding, azizim?

— Yaxshi qol, dedim.

— Yaxshi qol, azizim.

Suhbat tugadi. Palmer go'shakni qo'ydi va qadahni bir ko'tarishda bo'shatdi. Bernsga qaraganda esa uning lablarida yengil ishshayishni fahmladi. Uning bu tabassumi juda sirli bo'lib ko'rindi.

— Xo'sh, bu yog'i nima? — g'azab bilan so'radi Palmer.

— Matbuot uchun xabarni oxirigacha o'qing.

— Qo'ying o'sha xabarni.

Berns hech nima demadi. So'ngra, tabassumsiz, o'z qadahini ko'tardi-da, Palmer bilan

cho'qishtirish uchun stol osha cho'zildi.

— Endi qadah so'zi aytaylik, — dedi u, og'zining burchaklarida nimadir titraganday bo'ldi. — Men sog'liq, boylik, do'stlar yoki pul uchun qadah ko'tarishni taklif qilolmayman. Bularning barchasi sizda bor.

— Qadah so'zi aytmasdan ham ichish mumkin, — dedi Palmer, haligacha Berkxardt va Edisga jahlidan tushmasdan.

— Do'sting bilan birinchi marta ichayotgan bo'lsang, qadah so'zi aytmasdan bo'lmaydi, — turib oldi Berns. — Shunday qilib, nima uchun ichamiz? Biz ushbu ishimizni boshlab yuborgach, bunaqa bemalol ovqatlanish imkoniyati bo'lishi dargumon.

— Unda, keling, sizning ignatugmangizga yana bitta olmos qo'shaylik, — dedi Palmer, achitib uzib olmoqdan o'zini tiyolmay. — Donolik uchun icha qolmaymizmi?

— Pul va do'stlar bo'lgan taqdirda donolikning nima keragi bor? — so'radi Berns va o'zi javob qildi. — Yo'q.

Bernsning qisqa javobi havoda bir necha soniya turdi, keyin Bernsning sarg'ish ko'zlari suzildi.

— Kel, yaxshisi, haligi... muhabbat uchun ichaylik.

Ular bir-birlarini ehtiyotkorlik bilan kuzatib, o'z qadahlarini asta-sekin, qultum-baqultum bo'shatdilar.

Yettinchi bob

Bernsdan ajralib ketish unchalik oson emasdi. To'g'ri, Palmer tamaddini ikki yarimga tugallashga muvaffaq bo'ldi. Lekin Berns Palmerdan u bilan reklama agentligiga borishni so'radi. U shu agentlikda jamoatchilik bilan aloqalar bo'limini boshqarardi. Palmer bu taklifga chap berishga erishdi, lekin buning o'rniga Berns undan kechqurun birga ovqatlanish va'dasini oldi.

Berns uni taksida olib borishni taklif etdi, lekin Palmer piyoda yurgisi kelayotganini aytdi va nihoyat u bilan xayrlashdi. Palmerning eng avval qilgan ishi shu bo'ldiki, avtomatdan Berkxardtga telefon qildi. Unga Berkxardt Beshinchi avenyudagi idoradan ketganini aytishdi. U bankning Bruklin va Kuinsdagi filiallarida ish qanday borayotgani bilan tanishmoqchi ekan. Palmerga Berkxardt bilan bog'lanishning imkoni yo'qligini aytishdi. Soat besh yarimlarda qaytib kelishi kutilmoqda ekan.

— Sizni bu yerda qachon kutsa bo'ladi? — so'radi telefonda gapirayotgan qiz. — Gap shundaki, interer bo'yicha bizning bezakchimiz sizni ko'rmoqchi emish.

— Qanaqa bezakchi? — hayron bo'ldi Palmer, lekin uning avtomatdagi vaqti tugadi va u cho'ntagini titib chaqa qidira boshladi. — Nima dedingiz? — deb so'radi u nihoyat.

— Janob Berkxardt siz biror tuzatish kiritasizmi, deb o'ylovdilar. Bu sizning ishlaydigan xonangiz xususida. Shuning uchun biz bezakchi rassomni chaqirtirdik. U sizning ko'rsatmalaringizni kutmoqda. Rassom kunning ikkinchi yarmida istagan paytingizda siz bilan uchrashishga tayyor.

Palmer soatiga qaradi:

— Hozir soat uch. Unga ayting, soat to'rtga kirsin. Chorak kam to'rtta esa bizning reklama va matbuot bilan aloqa bo'yicha vakilimizni ko'rmoqchiman.

— Miss Kleri, — dedi telefondagi qiz.

— Kechirasiz, nima dedingiz?

— Miss Kleri bizda reklama va axborot masalalari bilan shug'ullanadi. Miss Virjiniya Kleri.

Palmer xo'rsindi:

— Yaxshi. O'sha Virjiniya Kleri chorak kam to'rtta huzurimga kirsin.

— Tashakkur, mister Palmer. Bor gap shumi?

— Ha, bor gap shu.

— Unda yaxshi qoling, mister Palmer.

— Yaxshi qoling. Voy, to'xtang! Allo?... Biroq ularni uzib qo'yishgandi. Palmer o'zining xonasi qaerda joylashganini bilolmay qoldi. Ehtimol, Beshinchi avenyudagi bank bo'limlarining bittasida joylashgandir, deb o'yladi Palmer. U telefon hujrasidan chiqdi-da Leksington-avenyu tomonga burildi. Burchakka yetgach, yurishni sekinlatdi, avgust oftobidan ko'zlari qamashib, yonidan g'u villab o'tib ketayotgan shovqinga quloq solarkan, uning o'y-xayollari Mak Berns bilan band edi.

Bu odam o'sha o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lishiga qaramay, uning asosiy belgilarini hozir, tanishuvning dastlabki bosqichidayoq aniqlash mumkin edi. Palmerda yetarli dalillar yetishmasdi, lekin u shunga amin ediki, Berns «romantiklar» toifasidagi eng past turlar vakilidir. Uning fitnalarga moyilligi, Karakas bilan telefonda sirli suhbatlari, oddiy voqealarga ham izquvarlarcha yondashuvi, sirni saqlashga oid qasamyodlari, nihoyat o'zini haddan tashqari saxovatli qilib ko'rsatishi, bu sifatlarning hammasi romantik avanturachi portretini tasvirlash imkonini berardi. Shu bois YuBTKgagina emas, boshqa har qanday bankka ham bu odamga biror narsani ishonish mumkin emasdi.

Palmer shularni o'ylagancha Leksington-avenyu bo'ylab, janubiy yo'nalishda, birorta ham uy goldirmay buzib tashlangan mahalla yoqalab ketib borardi.

Qurilish maydonining zangori rangga bo'yalgan baland taxta to'sig'i orqasidan ekskavatorlarning shovqin-suroni, og'ir yuk mashinalarining guvillashi eshitalardi. Palmer darvoza oldida to'xtab, «Mak-Kormik» firmasining bahaybat yuk ag'darma mashinasi tuproqda chuqur iz qoldirib, buzilgan uy poydevorining parchalangan betonlarini ortganча Leksington-avenyu bo'ylab qayoqqadir olib ketayotganini kuzatib qoldi. Nyu-Yorkning mana shunday o'ziga xos belgisi — betinim buzish va bunyod etish jarayoniga ko'nikishimga to'g'ri keladi, deb o'yladi. Zero og'riqli bu jarayon boshqa shaharlarga ham tez yoyilmoqda.

Bu g'oya aslida sog'lom g'oya edi, lekin mamlakat iqtisodiyoti barqaror va rivojlanayotgan taqdirda keraksiz xizmat binolarini buzib tashlab, shu yo'l bilan soliqlar pasayishiga erishish, keyin qimmat turuvchi yangi imoratlar qurish mumkin bo'lardi. Bu binolarning narxi ustamonlik bilan to'qilgan qonunlar doirasida soliqqa tortilgan, qiymatlardan olib tashlanar va shu tariqa yuqori mansabdorlar orasida hozir keng qo'llanilayotgan ko'chmas mulk borasidagi katta ko'zbo'yamachiliklarda rosa qo'l kelardi.

Palmer hali ham darvoza oldida turardi. Qurilish maydonidan chiqib kelayotgan navbatdagi ag'darma mashina uni changga belab o'tib ketdi. Umuman, bunday qurilish uchun zarur bo'lgan iqtisodiyotning bu tarzda qulay rivojlanishi faqat taxmin qilinardi va u xudoning in'omi bilan osmondan tushganday o'z-o'zidan barpo bo'ladi deb kutib o'tirmasdan, uni bunyod qilish kerak, o'y lardi Palmer. Hatto Vinni Estor ham shu atrof dagi binolarni buzishga kirishganda bunga ishonch hosil qildi. Ishga sarflanayotgan pullar tugab borar, erkin mablag' topish qiyinlashardi. Shunda Estor bu g'oyani uddalay oladigan omonatchilaridan biri «Fyorst neshnl siti benk» zimmasiga yukladi. Ammo u ham bu qurilishni mablag' bilan ta'minlashga qodir emasdi. Bir vaqtlar dabdabali «Estor Plaza» nomi bilan yuritilgan sarmoya maskani endi «Fyorst neshnl siti benk» deb ataladi.

Palmer yana Leksington-avenyu bo'ylab yura boshladi. Ellik uchinchi ko'cha muyulishiga yetgach, qurilish maydonchalari orasida omon qolgan bitta binoni ko'rib qoldi. Bu eski imoratni buzishga hali ulgurishmagandi. Yalpi vayronalar sahnida yolg'iz va o'rinsiz turgan bu bino mehmonlar o'zlariga mo'ljallangan tort kesimlarini tinchitishgach, taqsimchada qolgan so'nggi bo'lakchani eslatardi. Qiziq, deb o'yladi Palmer, shu imoratning egasi qanaqa narx so'ragan ekan? Balki bu narxga Estorning kuchi yetmagandir, lekin «Fyorst neshnl siti benk» ma'qul haq to'lashni taklif qilishga qodir. Harholda buni vaqt ko'rsatadi.

Palmer jilmayganicha janubiy yo'nalishda Leksington-avenyu yoqalab yurib boraverdi. Buzib kunpayakun qilib tashlangan, xarobaga aylangan maydon o'rtasida yakka-yolg'iz so'ppayib turgan ana shu so'nggi qo'rg'onni tomosha qilish uni ancha tinchlantirganday bo'ldi. Gap, albatta, uy sohibi haddan tashqari katta narx so'raganida emas. U yaxshi buyum egasi bo'lgani uchun undan durustroq foydalandi, xolos. Lekin o'z yo'lida duch kelgan hamma narsani buzib, yanchib borayotgan Buyuk

taraqqiyot ko'chkisiga qarshi turgan mana shu yolg'iz qo'rg'on Palmerni anchayin zavq bag'ishladi.

Albatta, agar YuBTK oldida shunday muammo paydo bo'lsa, o'ylardi u, shunda mana shu yolg'iz qo'rg'onni o'z ixtiyorida bor bo'lgan barcha vositalar yordamida yakson qilish Palmerning majburiyatiga kirardi. Lekin hozir bu haqda «Fyorst neshnl» qayg'urishi kerak bo'lgani uchun mazkur manzarani tomosha qilish unga juda yoqardi.

Ellik ikkinchi ko'chaniing muayyosholishida Palmer yo'ldan o'tish uchun svetoforni kutarkan, Berkxardt bilan uchrashganda unga nima deyishi kerakligini o'ylardi.

Yangi vazifaga tayinlashi haqidagi xabarni uning o'z roziligini olmasdan turib matbuotga berib yuborish, shubhasiz, o'rnatilgan tartibni jiddiy buzishdan boshqa narsa emas. Berkxardt bilan buni gaplashish uchun uning oldiga kirishdan oldin miss Kleridan to'liq ma'lumotlarni olish lozim. Lekin u nihoyatda qat'iyatli bo'lishi kerak. Bu voqeaga befarq qaraydigan bo'lsa, avval- boshdanoq o'z mavqeini bo'shashtiradi. Bu esa uning Berkxardt va bank bo'lajak munosabatlariga soya solishi mukin edi. Palmer bunga yo'l qo'yolmasdi. Shu bugunoq qarshi hujumga o'tishi va o'z so'zida qat'iy turib olishi kerak bo'lardi.

Bu masalani Berkxardt oldiga qo'yarkan, Berns shaxsiga doir to'xtalishga ham to'g'ri kelishini Palmer yaxshi tushunardi. Umuman, bu odamning YuBTKga nima daxli bor? Bankning ahvoli qachon bunchalik darz ketdiki, Bernsga o'xshash kimsalardan yordam so'rashga majbur bo'lindi?

Berns o'zicha zarar yetkaza olmasdi, lekin u faqat salobatli bank bilan bog'liq bo'lmagan paytgacha davom etadi, degan qarorga keldi Palmer. Unga o'xshagan odamlar biznesning boshqa ko'pgina tarmoqlarida o'z ishining ustasi bo'lib, bunday sohalarda tashqi ko'rinish hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Lekin bank, garchi u dunyodagi barcha banklar singari o'zining tashqi qiyofasiga ega bo'lsa-da, mohiyatiga ko'ra ancha murakkab hodisadir. Uning asosini eng aniq qiymat — pul tashkil qiladi. Bu sarmoya va xizmatdan tashkil topgan murakkab qurilmaning poydevoridir. Bank jamiyat bilan o'zaro munosabatlarida ushbu tamoyilni e'tibordan qoldirsa bormi, — shunday hollar yuz bergandi — darhol inqiroz jarayoni harakatga keladi, mijozlar ko'z o'ngida obro' va ishonchga putur yetadi. Bu halokatga eltuvchi jarayondir.

Mak Berns kim? — so'radi o'z-o'zidan Palmer. Berkxardt u bilan qanday bog'lanib qoldi? Balki Berns rahbarlik qilgan reklama agentligi tufaylidir. Nima uchun Berkxardt zo'r berib Berns bilan shaxsiy muomala qilmaslikka urinadi-yu, ayni paytda Palmerni u bilan munosabatlarni tiklashga undaydi? Nima sababdan Berkxardt bilan Berns o'rtasidagi munosabatlar sir tutib kelindi? Mak Bernsdan YuBTKga nima kerak edi? Berkxardt uning xizmatidan foydalanar ekan, u obro'siga dog' tushirishga qanchalar tayyor?

Palmer turgan yo'lkadan Ellik birinchi ko'chaga tushish uchun endi qadam bosgan ham ediki, birdan uning shundoqqina oldida, sal bo'lmasa urib yuboray deb yetti o'rinli katta qora «kadiillak» burchakka burildi. Palmer ortga tisarildi. U haligi narsalar haqida o'ylarga shu qadar berilib, qayoqqa ketayotganiga e'tibor bermaganiga o'zi ham hayron qoldi. Jin ursin, o'sha Bernsni, u bilan birga qo'shib Leyn Berkxardtni ham.

Shu payt Palmer birdan haligi semiz kishi restoranda Berns bilan xayrlasha turib qandaydir ismni aytganini esladi. Burchakda turganicha, Palmer o'sha ismni xotirlashga urindi. Bepravolik bilan aytilgan bu nom uning qulog'i yonidan o'tib ketgan bo'lsa-da, Palmer ongining chuqur puchmoqlarida iz qoldirishga ulgurgan edi. Uni, albatta, eslashi kerak, derdi Palmer.

Palmer xotirasini tiklashga chiranib ko'zlarini yumdi. Kimdir uni turtib yubordi, u katta yo'lga chiqib qolganini sezib ko'zlarini ochdi.

Katta Vik!

Palmer yengil tortib, shoshganicha ko'chani kesib o'tdi-da Leksington-avenyu yoqalab yurdi. Katta Vik Kalxeyn. Palmer kutubxona binosi yonidan o'tib ketishiga sal qoldi. Lekin darhol orqasiga qaytib, sokin, g'ira-shira dahlizga kirdi. «Nimadan boshlasam ekan?». "Who's who"¹ dan emas, albatta. Buning o'rniga u kutubxonachidan uchuvchilar uchun davriy nashrlar ma'lumotnomasini so'rab oldi-

da, «K» harfi izohlarini ko'zdan kechira boshladi. «Nyu-York tayms megezin» yanvar sonida Viktor S. Kalxeyn xaqida maqola bosilgan edi. «Atlantik Maneli»ning may sonida «Katta Vikka — katta pirog» degan ocherk berilibdi. Iyun oyida «Nyus-uik» va «Nyu-Yorker» jurnallari ham u haqda maqolalar yoritibdi. Palmer soatiga qaradi: o'z idorasida xizmatdoshlari bilan uchrashuvga atigi yarim soat qolibdi.

Yigirma daqiqa ichida o'ziga kerakli hamma narsani ko'zdan kechirib chiqdi. Kalxeynga oid materiallar uncha qoniqtirmadi. Otasi irland, onasi italiyalik ekan. Ota-onasining istagiga ko'ra Vik kashish, ya'ni ruhoni bo'lishi kerak edi. Buning o'rniga u mahalliy siyosiy arboblarning kurashiga aralashib qolgan edi. Ularning bazasi esa shaharning sharqiy qismidagi Yuz oltinchi ko'chada joylashgandi. Keyin, turg'unlik yillarida Kalxeyn Markantonio tashkilotiga qarshi kurash olib boradi, siyosiy harakatlarning yollanma tashkilotchisiga aylanadi va Ed Flinn inqirozi davrida shuhrat cho'qqisiga ko'tariladi. Endi esa Palmerning tengquri Kalxeyn, hammaning tan olishicha, Nyu-York siyosiy mashinasining kattagina qismini o'z qo'liga kiritdi. Palmer uchun bu yangilik emasdi. Uning diqqatini jalb qilgan narsa faqat shu bo'ldiki, Kalxeyn Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrdagi martabasiga oid barcha maqolalarda hamisha Mak Bernsning nomi uchraydi. «Tayms» uni «ijtimoiy aloqalar va reklama masalalari bo'yicha Kalxeynning maslahatchisi deb ataydi. «Atlantik» uning nomini ikki bor eslatadi: bir marta Kalxeyn va Karmin de Sapio o'rtasida qizib ketgan shafqatsiz kurash munosabati bilan, ikkinchi marta Bernsni «daho» deb atab, Katta Vikning shuhrat cho'qqisiga ko'tarilishida jonbozlik ko'rsatganini ta'kidlaydi. «Nyus-uik» Bernsni «Kalxeyn tirnoqlarini o'tkir qilgan odam» sifatida tavsiflaydi. «Nyu-Yorker» bo'lsa unga anchagina o'rin bag'ishlaydi. Unda shunday deyiladi:

«Kalxeyn eng yaqin safdoshlaridan biri bilan uchrashuvda shunday dedi: «Mak Berns! Bu mening eng yaqin do'stim, men uni behad hurmat qilaman. Har tomonlama juda ajoyib yigit-da, jin ursin!» Reklama ishlari bo'yicha dono maslahatchi Berns uning uchun shaxsiy siyosiy «aql trest» bo'lib xizmat qilayotgan va uning ma'ruzalari uchun matn yozib berayotgan qabilidagi uydirmalarni Kalxeyn qat'iy rad etdi. O'zining bu raddiyasini Vikka xos bo'lgan xususiyat — keskin qo'l siltash bilan ifodalab: «Berns sezgir qobiliyat sohibi» deb ta'kidladi. Keyin lirik chekinishga berilib, qo'shib qo'ydi: «Berns bilan ishlayotgan firmalar birinchi darajali miyalardan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqdalar». Bu o'rinda Kalxeyn vaqt-vaqti bilan Berns xizmatidan bahramand bo'layotgan bir qator ancha salmoqli moliyaviy muassasalarni nazarda tutgan edi. Berns ko'rayotgan tadbirlarni ma'lum sabablarga ko'ra, uning raqiblaridan biri shunday tasvirlangandi: «Agar sizga Kalxeyn kerak bo'lsa, avvalo sizni Mekki Noj qo'llab-quvvatlashining g'amini yeng. Bu hali kafolat emas, lekin Kalxeyn sari qo'yilgan dastlabki qadamdir. Oxir-oqibatda, agar sarmoyangiz yetadigan bo'lsa, o'z maqsadingizga erishuvingiz mumkin. Berns o'ta band odam, u bilan faqat telefon orqaligina bog'lansa bo'ladi. Unga telefon qilib zo'r-bazo'r bog'langan mijozlardan biriga Berns keskin ovozda uning vatani — Bayrut muazzinining yig'loqi tovushida dedi: «Bunday miqyosdagi jamoat arboblari — derazangiz oldidagi daraxtda pishib yetilayotgan olmalar emas. Kalxeyn sotsial mas'uliyatni hamda siyosiy realizmning qattiq panjasini o'zida aniq va tiniq mujassamlashtirgan shaxsdir». Berns lo'nda qilib javob berdi: «Xudo bizlarga hayotda faqat ozgina qimmatli rishtalarni ato etdi, shulardan bittasi do'stlikdir. Mening faxr tuyg'ulari bilan to'lib-toshganimning boisi shundaki, eng yaqin do'stlarimdan biri Viktor S. Kalxeyndir».

Kutubxonadan chiqar ekan, Palmer Katta Vik Kalxeyn bilan omonat banklariga qarshi kurash o'rtasida qanday aloqa bor ekan, deb bosh qotira boshladi. Kutubxonani tark etgach, u g'arbgga burildi va Beshinchi avenyuni kesib o'tuvchi ko'cha bo'ylab yurdi. U Kalxeynning qudrati qanday ekan, Nyu-York shtati qonun organlariga qancha ovozni ta'minlay oladi, nihoyat Mak Berns Kalxeynni qo'llab-quvvatlashga kafolat bera olarmikan deb bosh qotirib borardi. Oyna va alyuminiydan tiklangan bank boshqarmasining ulkan binosiga ro'baro' bo'lgach, Palmer Nyu-Yorkning, shtat va shaharning siyosiy hayotini juda yomon bilarkanman, deb tan oldi va o'zi qo'ygan savollarga javob berolmasligini tushundi.

Kunning ayni shu paytida bank omma uchun yopilgan edi, shu boisdan u yon tomondagi eshikni taqillatib, ichkaridagi qorovullardan biriga qo'l siltadi. U peshonasini tirishtirib qovog'ini uygancha eshikka yaqin keldi, hayron bo'lib Palmerga tikildi — shu zahoti uning yuzini tabassum qopladi.

— Mister Palmer, shunaqami, ser?

Palmer tasdiqlab bosh irg'adi, birdan «gup» etib miyasiga urildi: uning suratini xuddi qidirilayotgan jinoyatchiga o'xshab YuBTK tizimidagi barcha xizmatchilarga tarqatishgan bo'lishsa-chi?!

— Janob, sizga, albatta, kalit berishlari kerak, — uqtirdi qorovul. Palmerni tanish liftga kuzatib qo'yar ekan. — Kalit haqida eslatib qo'ying, ser, — dedi u xayrlashayotib.

Mana shu «mister» va «ser» degan ehtiromlarga to'la so'zlarni qachon to'xtatib bo'larkin, deb o'ylab borayotgan Palmer shunday xulosaga keldi: u mahalliy axloq qoidalarini buzishga erishguncha hali ko'p yillar o'tsa kerak; o'sha paytga qadar bu narsalarga shunchalik o'rganib ketar, ehtimol, bundan o'zi ham zavq oladigan bo'lib qolar. Liftda o'ta sezgir «YuQ» tugmasiga o'girilib, Palmer chiroqcha yonishini kutdi. Keyin mexanik ovoz lift qaerda to'xtashini xabar qildi. Palmerni birdan tashvish qamradi. Uning yangi lavozimi va xushomadgo'ylik, siyosat, Bernsga o'xshagan odamlar, matbuot uchun tayyorlangan haligi xabar voqeasi — bularning hammasi ma'lum muddatda uni sarosimaga soldi va uning bu hissiyotga har qancha qarshilik ko'rsatishiga qaramay, u tanlagan yo'lning to'g'riligiga shubha uyg'otdi.

Lift eshigi ochildi va bir lahzaga Palmerning ko'zi oynavand shiftdan tushgan yorqin quyosh nurlaridan qamashdi.

U Misrning toju taxt zallariga eltuvchi ulug'vor yo'laklarni eslatuvchi uzun va keng yo'lak bo'ylab yurdi. Faqat Misr xudolari Ra va Oziris tasviri o'rniga bu yerda moliya xudolari: jamg'arma timsoli — chumoli, qadr-qimmat timsolida — pingvin, keyin barqarorlik ramzida fil-ma'bud, yana qandaydir yiliga olti foizli zayomni ifodalovchi siymo ilib qo'yilgan bo'lishi kerak edi.

Baland bo'yli mallasoch kotibaga yaqinlashganda Palmer fikr-o'ylarini yig'ishtirib oldi. Qiz unga salom berish uchun o'rnidan turdi:

— Xayrli kun, mister Palmer, — kotiba besh yoki oltita kalitdan iborat bog'lamni unga uzatdi. — Kechirasiz, ertalab ularni sizga berishga ulgurmadim, — qo'shib qo'ydi u.

Palmerning miyasidan ikki fikr bir paytning o'zida yalt etib o'tdi. — Qorovul kalitlar haqida muncha tez telefon qilib ulgurdi ekan; keyin unga qorovulning «ser» va qizning «mister» deb murojaat qilishi ularning ijtimoiy ahvolidagi farqni tavsiflaydi. Har holda, sarg'ish qiz, shubhasiz, ancha yoqimtoy ekan.

Palmer birdan shuni his etdiki, u qiz qo'lida uzatayotgan kalitlarga emas, balki ro'moli yelkasidan sirg'alib tushib, sal-pal berkitayotgan bo'liq ko'kragiga qarab turardi. Uning nigohidan hech narsa yashira olmasdi bu do'mboq... ni. Palmer qizning yuziga qarab, qizarib ketayotganini ko'rdi.

— Mening xonam qaerdaligini ko'rsatib berolmaysizmi, men... — Lekin u fikrini tugata olmadi. Kotiba qiz Berkxardt xonasining tilloyi eshigiga qarab yurdi. — Janob Berkxardt qaytib keldimi? — so'radi Palmer.

— Hali kelganicha yo'q, mister Palmer, — dedi qiz eshikni ocharkan, so'ng qo'shib qo'ydi. — Mister Berkxardt ushbu xonani sizga berishimizni tayinladilar.

Bu xabardan hayron bo'lgan Palmer qizning ketidan o'ziga tanish ulkan zalga kirib bordi. Bir necha soniyadan so'ng u stol ortida o'tirar, qiz esa uning yonida turib ko'rsatkich barmog'ining chaqqon harakatlari bilan tekis silliqlangan stol ustidagi kalitlarni saralardi. Palmer yana tanish atir isini his etdi: u Edisga bayramda xuddi shunaqasini hadya etgandi.

— Mana bu kalit asosiy eshikniki, mana bunisi esa yon eshikni ochadi, — tushuntirdi qiz. U qolgan beshta kalitga diqqat bilan qararkan, bir zumga o'ylab qoldi. Keyin ularni yaxshiroq ko'rish uchun sal oldinga engashdi. Shunda uning ko'kragi Palmerning yelkasiga tegib ketdi.

— Mana bu ehtiyot qism, — dedi qiz. — uning yonidagisi... haligi liftniki. Soat oltidan so'ng liftni yopishadi. Mana bu kalit sizning xonangizniki. Mana eng kattasi — bosh idoraniki bo'lsa kerak. — U katta kalitni qo'lga olib unga diqqat bilan qaradi-da, ishonch bilan dedi: — Ha, shunaqa.

Stoldagi belgi qo'yadigan qalamni olayotib, qiz bu safar ko'kragi bilan uning yelkasiga ancha sezilarli tarzda tegib ketdi. Keyin u kalitlar uzra jiddiy engashdi-da, ularning har birini hafsala bilan belgilab chiqdi.

— Siz o'rganib olganingizdan keyin bu belgilarni o'chirib tashlashingiz mumkin, — dedi qiz. — «Besh» raqam bilan belgilangan kalitda Beshinchi avenyu, birinchi qavatdagi eshik ochiladi. «L» harfli kalit liftniki. «K» harfligi sizning xonangizniki. «B» esa bankning bosh idorasini.

Palmer bilinmas harakat bilan qizdan o'zini tortdi. U qariyb nafas olmaslikka harakat qilardi, atir hididan o'zini tortardi. Bu qiz bilan Edis o'rtasida atirdan bo'lak hech qanaqa mushtaraklik yo'q edi. Edis xushbichim, ozg'in ayol edi. U tennis o'ynar, umuman, o'ziga qarab yurardi. Bu qiz esa anchagina to'ladan kelgan, aftidan, u qaddi-qomati to'g'risida sira o'ylamaydiganga o'xshardi.

Palmer uning stolni aylanib o'tib, o'z qarshisida turganini kuzatdi.

— Miss Kleri sizning xohishingizga qarab kirishga tayyor turibdi, — dedi qiz.

— Biroz keyinroq, — javob qildi Palmer.

U ketarkan, orqasidan qarab qolgan Palmer qiz tanasining yengil harakati o'zini hayajonga solayotganini angladi. Bu Edis atirining isi tufayli emasmikin, o'yladi Palmer. U xonaga bir ko'z yugurtirib chiqib, devordagi rasmlar olib tashlanganini sezdi. Yozuv stolining ortiga ikkita kitob javoni qo'yilibdi. Endi stol ustida kattagina tilla kuldon, qalamlar uchun quticha, interkomning kichik mikrofon, oltin bilan sayqal berilgan 12 tugmachali tekis qopqoq turardi.

Tugmachalarni ko'zdan kechirayotib ko'rdiki, ulardan bittasi yashil chiroq bo'lib yondi. Yaxshi billur tovushini eslatuvchi ovoz uni olti harfli «kotiba» so'ziga jalb qildi. Palmer tugmachaga qo'l tekkizdi, chiroq o'chib, mikrofon tilga kirdi:

— Miss Kleri sizni kutayapti, janob Palmer.

— Yaxshi, keyinroq.

Mikrofon yana jim qoldi. Palmer shoshmasdan xonasini ko'zdan kechira boshladi. Unda xususiy mulkchilik tuyg'usi uyg'onayotgan edi. Devorlarni bezash uchun bir nechta rasm tanlash kerak bo'ladi. Tokchalarga foydali kitoblardan joylash lozim. Bu yerga bir-ikki oromkursi ortiqchalik qilmaydi. Bu xonani og'ir mebel bilan jihozlash o'rinsiz. Muhimi, xona keng, maydon bo'shroq, havo ko'proq bo'lgani ma'qul

Shiftning balandligi 20 fut osmonga ko'tarilgan zalning olis qismidagi yaxlit shishadan ishlangan oynaning katta o'lchamlariga qarab turib, Palmer yaqinda Berkxardt aytgan iborani esladi. Bu shishaning sifati Maunt Palomar rasadxonasi oynasidan ekanligini ta'kidlagandi qariya.

— Eh, keksa firibgar, — o'yladi Palmer. O'z xonasini bo'shatib berish bilan u, albatta, oldimga poxol solmoqchi bo'lgan. Mening tayinlanishim haqidagi xabar masalasida ham o'zim bilan kelishmagan holda ko'zimni shamg'alat qilmoqchi edi-da.

O'zining qarshisidagi bo'sh devorga qarab turib, yo'lakda ilig'liq Brak rasmlaridan bittasini bu yoqqa o'rnatsak ayni muddao bo'lardi, deya xayolidan o'tkazdi Palmer.

Sakkizinchi bob

Bezakchi-rassom hozirgina chiqib ketdi... Palmer soatiga qaradi: soat olti bo'layapti. Bugunga unda yana nima belgilangan ekan?

U o'rniga o'tirib, stoldan to katta derazagacha bo'lgan masofani chamalab chiqdi. Shunda birdan shu derazadan turib butun manzarani tomosha qilmaganini esladi. Palmer o'rnidan oraliq masofani odimlab o'lchay boshladi: besh... olti... yetti... sakkiz... to'qqiz. Voy-bo'y, qancha ekan? Taxminan qirq futdan oshiqroq? Aql bovar qilmaydi!

Palmer Beshinchi avenyu bo'ylab shimolga nigoh tashlaganicha, deraza oldida ancha turdi. Bu yerdan bir necha mahalla naridagi «Plaza» mehmonxonasi va uning favvorolari to'g'ri ketgan bir xil binolarning chizig'ini buzganday edi. Yo'lakda quyosh tig'idan boshlarini egib izvoshga qo'shilgan otlar

turardi. Undan nariroqda Sentral-parkning yam-yashil daraxtzorga burkangan otxona, poni otchalari va mashinada yurish uchun yo'l ko'zga tashlanardi. Oltmishinchi ko'chadan parkka shu yo'l orqali kirilardi. Undan ham narida qalin daraxtlar orasida ko'l sathi miltirab turardi.

Palmer parkni hoshiyadek o'rab turgan notekis tomlar qatoriga ko'z yugurtirdi. Qiziq, shimolga qarab qancha cho'zilgan ekan bu qator? Tomlar ortidagi yer bir oz baland bo'lib, botayotgan quyoshning zarrin nurlarida kichkinagina, Gudzon ustidan Nyu-Jersiga o'tkazilgan xuddi o'yinchoqdek ko'prikk ko'zga chalinardi. Nima deb atalardi bu ko'prikk?

Orqada yana interkomning signali yangradi. Palmer burilib shoshgancha stol yoniga keldi-da, «kotiba» deb yozilgan tugmachani bosdi.

— Ha? — deb so'radi u mikrofoniga qarab.

— Miss Kleri haliyam sizni kutib o'tiribdi, — javob berdi kotiba.

— Voy, xudoyim-ey! Tez kiritib yuboring.

— Mister Palmer?

— Ha?

— Bugunga yana biror topshiriq bo'ladimi?

Palmer soatiga qaradi. Chorak kam olti.

— Yo'q, bugunga yetarli. Siz bo'shsiz. Tashakkur. — Palmer mikrofonni o'chirib, oromkursiga yaxshiroq joylashdi-da, fikrini jamlashga urindi. U tushlik paytida qo'zigan g'azabini bosish unchalik oson emasligini tushundi. Ayrim kishilar jahli chiqqanini kun bo'yigina emas, balki yillab, hatto umr bo'yi yashira oladilar. Biroq ularni tennis kortidek keladigan xona, derazadan ko'rinadigan ajoyib manzara bilan sotib olishgani yo'q. Bu uni konteynerga joylab, muhr bosib, sotib yuborishga arziydi.

— Mister Palmer?

Ostonada eshikning kattaligidan kichkina bo'lib ko'ringan, xushqomat ayol ko'rindi.

— Kiravering, miss Kleri, — dedi qo'pollik bilan yuziga ham qaramasdan.

Ayol ichkari kirdi, eshikni berkitmadi ham. Biror so'z aytmay uning yoniga bordi. Stol yonida to'xtab, Palmer ko'rsatgan oromkursiga o'tirdi. Baribir, juda kichkina ekan, o'yladi Palmer. U indamasdan kuzatdi. Ayol o'tirgach, bir oyog'ini ikkinchisining ustiga oldi. Tizzalarini bekitish uchun yubkasini tortishga muvaffaqiyatsiz urinib ko'rdi. Biroq ayol nigohini oyoqlaridan olib unga qaratganda, Palmer ko'zini olib qochib, stoldagi narsalarga qarashga ulgurdi.

— Demak, siz bizda reklama va axborot masalalari bilan shug'ullanuvchi shaxs ekansiz-da, — dedi u nihoyat. — O'zingiz tushungandirsiz, men «shaxs» deb ataganim tasodif emas, — qo'shib qo'ydi u jilmayib.

Xonim unga diqqat bilan qaradi, shunda uning qalin lablarini tabassum egalladi.

— Tasodif emas, — deya takrorladi xonim.

Palmer bir oz hayron qoldi. Uning erkin vaziyatni vujudga keltirishga birinchi urinishi amalga oshmadi. Lekin xonimning oromkursida juda g'alati, qaddini notabiiy rostlab, qo'llarini tizzalari ustida qisganicha o'tirganini ko'rib, uni ko'ngilsizlik kutayotganini tushundi, buning ustiga sho'rlikni maktab o'quvchisi singari ish kuni tugaganidan so'ng shunchalar uzoq kutishga majbur qilishdi.

Palmer unga tik qaragan edi, ko'zlar to'qnashdi. Uzoqdan uning qora ko'zlari yanada katta ko'rinib ketdi. Miss Kleri uning nigohiga bardosh berolmay ko'zini olib qochdi.

— Men sizga shuni aytmoqchi edimki, — deb boshladi-yu, Palmer to'xtab qoldi. Miss Kleri unga qaradi-yu, yana ko'zini chetga oldi. Uning tikilib turganidan qo'rqdi, shekilli.

— Haligi, sizni nima uchun chaqirganimni hozir tushuntirib beraman, — dedi Palmer muloyimlik bilan. U o'z so'zlariga nazokat tusini bermoqchi bo'lib. — Bu matbuot uchun berilgan xabarga taalluqli, — dedi u. — Shu boisdan bir daqiqaga kirib o'tishingizni so'ragan edim.

— Matbuot uchun qanaqa xabar? — so'radi miss Kleri.

— Meni tayinlash yuzasidan...

— Ha, siz bu haqdami? — u bosh iring'adi va qora kokili sirg'alib peshonasiga tushdi.

— Men, xususan... — Palmer yana jim bo'lib qoldi. Bu nima degan gap. Albata, miss ko'ngilsizlikni

kutgan edi, lekin bu yerda dovdிரagan tentakni uchrataman deb xayoliga keltirmagandir...

— Mister Berkxardt yakshanba kuni uyimga sim qoqdi, — deya boshladi miss Kleri. — U menga matbuot uchun xabar tayyorlashimni buyurdi. — U Palmer nima der ekan deb biroz to'xtatmoqchi bo'ldi-yu, lekin tez va past ovozda davom etdi. — Men o'sha xabarni tayyorlab, bugun ertalab telefonda o'qib berdim. U xabarni ma'qulladi va material o'sha zahoti kurer bilan gazetalar tahririyatlariga jo'natildi. Chunki darhol bosib chiqarilishi mo'ljallangan edi.

— Boshqacha aytganda, siz bu xabar matbuotga jo'natilgunga qadar u haqda faqat siz va Berkxardt bilardi, demoqchisiz, shundaymi?

— Ha, yana uni rotoprintda ko'paytirgan Freddi bilardi.

— Yana uni rotoprintda ko'paytirgan Freddi? — to'satdan so'radi Palmer.

Ikkovi ham birdaniga jim bo'lib qoldi. Palmer tag'in uning tashqi ko'rinishini o'rgana boshladi. Miss Kleri aftidan, o'ttiz besh yoshlarda bo'lsa kerak. Boshqa, ancha osoyishta sharoitlarda u shubhasiz, yanada istarali ko'ringan bo'lardi. Hozir bo'lsa u juda tang ahvolda edi.

— Maxfiy hujjatlarni uning ko'rishga huquqi bormi? — so'radi Palmer.

— Kim, Freddimi? — miss Kleri katta ko'zlari bilan unga tikildi.

— Menimcha, matbuot uchun tayyorlangan bu xabar maxfiy edi, uni oddiy xizmatchi ko'rish kerak emasdi. Bundan sizning hamda Berkxardtning xabari borligidan xursandman. Shuningdek, Freddining ham.

Yana og'ir jimlik cho'kdi. Palmer shuni tushundiki, uning achchiq kinoyasi, garchi u yengil va hazil shaklida bo'lsa ham, bu ayolning rangi oqarib, muzdek qotib qolgan holatidan eritib ololmaydi. U bu xonim haqida hech narsa bilmasdi. Faqat shuni bilardiki, «Yunayted benk» singari birorta ulkan bank reklama va axborot bo'limi rahbarligi lavozimiga ayol kishini hech qachon olmagandi. Aftidan, miss Kleri nufuzli doiralar bilan yaqin aloqaga ega, buning ustiga o'zi ajoyib xodim. Biroq ayni paytda Palmer bunday dalillarga ega emasdi.

— Biror narsa desangiz-chi, axir? — murojaat qildi miss Kleriga tabassum bilan.

Miss boshini ko'tarib unga qaradi va birdan xira chehrasi yorishib ketdi: lablarida muloyim jilmayish paydo bo'ldi.

— Biror narsa? — takrorladi miss Kleri.

— O'jarlik qilmang, biror narsa deng, axir, — ta'kidladi Palmer. — Bu unchalik qiyin emas-ku. Yana biror narsa deng.

— Yana biror narsa, — takrorladi miss.

— Mana bu — boshqa gap. Endi men bilan takrorlang: Men boshqa hech qachon, oldindan o'zining roziligini olmasdan matbuot uchun Vuds Palmer haqida xabar yubormayman.

— Men boshqa hech qachon, — takrorladi ayol, — oldindan o'zining roziligini olmasdan matbuot uchun Vuds Palmer haqida xabar yubormayman, yaxshimi?

— Yaxshi. Savollar bormi?

— Bitta savol bor, — dedi miss Kleri.

— Xo'sh, qani, so'rang-chi?

— Meni qaysi kundan bo'shatasiz?

Palmer qo'llarini stolga qo'ydi.

— Nima, siz bankchilarni bilmaysizmi? — savolga savol bilan javob berdi. — Agar stsenariyda nazarda tutilmagan bo'lsa, biz hech qachon zarba bermaymiz. Siz o'yin qoidasiga amal qilsangiz, faqat nafaqaga chiqqaningizdan so'ng ishdan bo'shatamiz. — O'z so'zlarini tasdiqlash uchun Palmer bosh irg'ab qo'ydi. — Bu bizga nafaqaga to'lash uchun mo'ljallangan pulni to'lash imkonini beradi. Tushunarlimi?

Bir oz muddat xonim unga sinovchan nazar bilan qarab turdi-da:

— Sumkamni qoldirib kelibman, — dedi, — mabodo, sizda sigareta yo'qmi?

— Qaerdadir bor edi. — U cho'ntaklarini titdi, so'ng stol ustida turgan qutichani ochdi va ikki dona sigareta oldi. — Mening markam, — dedi u kutilmaganda tushkun ovozda. Nimadandir ko'ngli g'ashga

o'xshardi. — Nyu-Yorkda men haqimda hamma biladi. Hatto men chekayotgan sigareta markasini ham. Mening hayotim hamma uchun ochiq kitobday. — Palmer chaqmoqni yoqib, uning sigaretasini o't oldirdi-da, so'zida davom etdi:

— Marhamat qilib ayting-chi, YuBTKning razvedka tizimi yaxshi ishlaydimi?

— Juda yaxshi, — javob berdi xonim.

— Men amaliy xabarlarni nazarda tutayapman, — aniqlik kiritdi Palmer.

Xonim uning sigareta chekishiga qarab turdi.

— Sizning nimani nazarda tutayotganingizni tushunaman, — dedi u ko'zini Palmerning yozuv stoliga qaratib. — Sizning razvedka sohasida yangi odam emasligingiz menga yaxshi ma'lum.

— Ha, o'n besh yil burun bu ishga aloqam bo'lgan, — deb javob berdi Palmer va birdan to'xtab qoldi. — Hujjatlarimda sanalar aniq ko'rsatilgan.

Xonim tasdiqlaganday bosh irg'adi va so'radi:

— Ko'rishni xohlaysizmi?

Palmer orqasiga suyandi, bir oz yengil tortganday bo'ldi.

— Boshqa vaqt ko'rarman, — dedi u. — Qandaydir yomg'irli oqshomlarda, qiladigan boshqa ish qolmagach.

— Eng dastlabki yozuv 1945 yilga taalluqli, — xabar qildi miss Kleri.

— Aftidan, siz bu hujjatga yaqinda ko'z tashlaganga o'xshaysiz, — dedi Palmer.

— Bugungi tongni men shundan boshladim.

— Ayting-chi, kim oldin telefon qildi? Sizmi yoki Mak Bernsmi?

Xonim yengil jilmaydi. Palmer u jilmayganda og'zi chiroyli bo'lib ketishini sezdi.

— Mening YuBTKda ishlayotganimga bir yildan sal oshdi, axir. Meni shu darajada ishdan chiqarishlariga bu yetarli bo'lmasa kerak. U menga sim qoqdi.

— Siz uning savollariga javob berdingizmi?

— Albatta, — dedi xonim va sigareta kulini tilloyi kuldonga qoqdi. — Axir u bizlarga ishlayapti.

— Biroq bu hammaga ham ma'lum emas.

— Kinga-kimga-yu, lekin buni men bilishim kerak, shunday emasmi? Men bilmasam, qanday ma'nisi bor...

— Ayting-chi, — uning gapini bo'ldi Palmer, yanada ko'proq bilish maqsadida. — Siz YuBTKga ishga kirgunga qadar biror gazetada ishlaganmidingiz?

— Ha, «Star»da ishlaganman.

— Moliyaviy masalalar bilan shug'ullanganmisiz?

— Aniqrog'i bank ishlari bilan.

— Ungacha nima ish qilardingiz?

— «Tayms»da ishlardim, axborot bo'limida.

Palmer chimirildi.

— Odatda, kishilar xizmat pog'onasi bo'ylab teskari tartibda, qanday aytsam ekan, yuqorilash tartibida ko'tariladilar. Siz bo'lsangiz. «Tayms»dan «Star»ga o'tibsiz.

— Hammada ham shunday bo'lavermaydi, — qayd qildi xonim ehtiyotkorona. — «Star»da men ko'proq pul olardim. — U bir oz jim qoldi, so'ng chuqurroq nafas olishga urinayotganday so'radi: — Mening ishim haqida tavsiyalar va fikr-mulohazalarni ko'rib qo'yishni istamaysizmi?

Yana jimlik cho'kdi. Go'yo Palmerning ulkan xonasida bepoyon bo'shliq mana shu notabiiy sukunat bilan to'lib ketganday edi. Nihoyat Palmer jilmaydi va jimlikni buzdi.

— Men yana kerak bo'lmagan gapni aytdim, to'g'rimi?

Bu safar xonim uning tabassumiga javob qaytarmadi.

— Yo'q, sizda hammasi yaxshi bo'layapti, — dedi miss Kleri, — Holbuki, siz hech qachon jurnalist bo'lmagansiz. Lekin savolni qanday berishni juda yaxshi bilasiz. Ba'zilar bunga erishish uchun yillar sarflaydilar.

— Bu menda urush davridan qolgan odat, — tushuntirdi u quruq qilib va qo'shib qo'ydi. — Bayonot

berishga ruxsat etasizmi?

Miss Kleri «marhamat» deganday qo'llarini keng yoydi. Palmer uning barmog'ida uzuk yo'qligini, barmoqlari ingichka va uzunligini payqashga ulgurdi.

— Bu yerda siz xo'jayinsiz, — javob qildi xonim.

— Ma'lum ma'noda men afsusdaman, — dedi Palmer, — chunki men bilishim kerak bo'lgan narsani so'rab o'tiribman. Lekin sizga murojaat qilarkanman, men mantiqqa amal qildim, xolos. Bularning hammasi hech qanday shaxsiy xususiyat ma'nosida emas. — U xonimga savol alomati bilan qaradi.

— Ha, — dedi miss Kleri.

— Men oldin ham bankda ishlayotgan ayolni uchratgandim, — deya sekin gap boshladi u, agar kerak bo'lsa, ayolga aytadigan gapiga tuzatish kiritishni ham o'ylab. Endi men shunga amin bo'ldimki, bankka ishga qabul qilinishlari uchun ayollar, xuddi shunday lavozimni egallab turgan erkak hamkasblariga nisbatan ancha yuqori malakaga ega bo'lishlari darkor. Lekin, baribir, o'zingiz bilganingizday, ayollar shu lavozimga tegishli miqdorda maosh olmaydilar.

— Ha, buni bilaman, — tasdiqladi miss Kleri.

— Lekin men hali hech qachon bankda reklama va axborot masalalari bilan shug'ullanayotgan ayollarni uchratmagandim. Bu masalalarni biz o'ylagandan ko'ra yaxshiroq hal qilolasiz, deb o'ylayman. — U nafasini rostlab oldi-da, — Sizga aytmoqchi bo'lgan gaplarim mana shu, — dedi.

Miss Kleri o'rnidan turdi, sonlarida buklanib qolgan tor qora yubkasini to'g'riladi. Palmer birinchi marta e'tibor berdi: bo'yi past bo'lishiga qaramay, juda xushqomat ekan. Bu unda quvonchli ishtiyoq uyg'otdi. Zamonaviy ayollarga o'xshamagan kichkinagina ayolni ko'rish qanday yoqimli.

— Siz bilan barobar ish vaqti belgilasam bo'ladimi? — so'radi xonim.

— Bemalol.

— Juda afsusdaman, — dedi xonim Palmerning ko'ziga tik qarab. — Buni qanday qilib yaxshiroq tushuntirsam ekan. Haligi, o'sha matbuot uchun xabarni oldindan siz bilan kelishib olish imkoniga ega emasdim. Umid qilamanki, sizning kelishingiz bilan ish uslubimiz ancha o'zgaradi. Lekin men yaxshi tushunaman, buning uchun vaqt kerak va bu ertagayoq ro'y bermaydi. Aftidan, men yetarli tarzda oshkora aytdim, shundaymi?

— Ha, tushunib turibman.

— Mak Bernsga kelganda esa, shuni aytishim mumkinki, men uni ko'pdan beri bilaman. Biz u bilan hamisha til topishib ketamiz, chunki jurnalistlar bilan til topishish uning vazifasidir. Boshqa qo'shadigan hech gap yo'q.

— Roziman.

— Bor gap shu, — dedi miss Kleri so'zining oxirida.

— Juda yaxshi aytdingiz, — dedi Palmer. — Bir yoki ikki kundan keyin men ketaman. Ammo bayramdan so'ng men qaytib kelgach, ko'pgina ishlar haqida meni yaxshilab xabardor qilishingizga to'g'ri keladi.

— Juda soz.

— Rahmat sizga, — dedi Palmer.

Miss Kleri eshikka qarab burildi. Qandaydir soniyalarda uning lablari sal ochildi va yana yopildi. Go'yo u nimadir demoqchi bo'ldi-yu, voz kechdi. Palmerga qarab jilmaydi-da:

— Arzimaydi, — deb eshikka qarab yurdi.

To'qqizinchi bob

Bu yil Mehnat kuni ikkinchi sentyabrga to'g'ri keladi va Jerri donolarcha qayd qilganidek, uydagi yugur-yugurni yana avj oldiradi.

Missis Keyj shahardagi uyda mavjud buyumlarni yig'ishtirib taxlashga bosh-qosh bo'lish uchun Evanstonda qoldi. Viskonsindagi shahar tashqarisidagi uyni Edising o'zi tartibga keltirdi va qulflab

qo'ydi. Hozircha bu uyni hech bo'lmaganda bir yil mobaynida sotish niyatida bo'lmaganliklari uchun bu yerda hech qanday muammo tug'ilmadi. To'g'ri, bir yildan so'ng shu masala yana ko'tariladi, lekin hozir Palmer bu ishni bir oz orqaga surganidan xursand edi. Edis ikkalasi shahar atrofidan o'zlariga maqbul uy qidirib, ikki dam olish kunini sarflagan bo'lishlariga qaramay, Beshinchi avenyudan uncha uzoq bo'lmagan Yetmishinchi ko'chadagi qo'ng'ir qumtoshdan tiklangan dang'illama uyni olishga qaror qilishdi. Bunday uying narxi yuz ming dollardan oshiq turardi, lekin Palmerning uni yarim bahosiga sotib olish imkoni bor edi.

Dang'illama uyni ko'zdan kechirish paytida uning bu qadar arzon tushishi o'z ma'nosini yo'qotdi, chunki uni ta'mirlash va qayta qurish uchun sotib olish narxichalik pul ketishi Palmerga ma'lum bo'lib qoldi. Biroq u, baribir, shu uyni sotib olishga qaror qildi va oilasi bilan o'sha dang'illama uy yaqinidagi mo'jazgina bir mehmonxonaga ko'chib o'tdi. Edis shu yerdan qayta qurishning borishini kuzata olardi. Palmer bolalarni Bentli maktabiga joyladi. Bundan u o'zini chinakam baxtli hisoblardi. Zero, shunday jiddiy masala qiyinchiliklarsiz hal bo'lgan edi.

— Har holda, bu borada ancha omadimiz keldi, — dedi u Edisga, bir kuni ertalab bolalar maktabga ketishgach. — Qolgan hamma narsa faqat tashvish va ko'ngilsizliklar keltirmoqda.

Edisning rangsiz tus olgan kichik-kichik ko'zlari, zo'rg'a sezilayotgan kipriklari bilan u allanarsalar yozayotgan yondaftardan asta ko'tarildi. Uning nigohi bir muddat yondaftar bilan u qo'lida ushlab turgan qahvali finjon o'rtasida daydib yurdi-da, keyin Palmerning yuzida to'xtadi. Palmer stol ortida, uning qarshisida o'tirgandi.

— Men ulardan qahvani bunchalik achchiq damlamasliklarini so'ragandim, — dedi Edis kutilmaganda. — To'g'ri, biz ikkalamiz ham qaymoqsiz qora qahvani yaxshi ko'ramiz, lekin mana bu quyuyq siyohga o'xshaydi! — Keyin hech qanday mantiqsiz bir tarzda so'radi:

— Qanaqa ko'ngilsizliklar to'g'risida gapirding, azizim?

— Katta ko'ngilsizliklar haqida, albatta. Haddan tashqari achchiq qahva va shu kabilar haqida.

Xonim uncha qattiq bo'lmasa ham, lekin eshitsu bo'ladigan tarzda finjonni likopchaga urdi.

— Xo'sh, men yana qanaqa gunoh qildim? — so'radi Edis.

— Qanaqa gunoh qildim? — dedi Palmer ataylab befarq ohangda. — Hech qanaqa.

— Ertalabdan jahling chiqishiga biror sabab bo'lgandir-ku, axir.

Nima uchun ertalabdan ko'z-qoshini bo'yash uchun vaqt ajratishmaydi. U uydan chiqib ketishi bilan kipriklarini, qovog'ini bo'yashga tushadi. Shundan keyingina ko'zlari ancha jozibador bo'lib ko'rinadi. Agar Edis buni ularning uyini ta'mirlayotgan ustalar va ishchilar deb, mehmonxona darboni va xizmatchilari, kunduzlari uchratayotgan kishilari uchun qilayotgan bo'lsa, kamdan-kam ko'rayotgan eri uchun nega qilmaydi buni?

— Peshanamga biror narsa tegmabdimi, nega unga buncha qarab qolding, azizim? — so'radi Edis.

— Yo'q. Kechirasan, xayol olib qochibdi, — javob berdi eri va shoshib qahvasini oxirigacha ichdi. — Uydagi duradgorlik ishlarining ketishi yaxshimi?

— Taxta yetkazib berish ikki haftaga kechikyapti, deyishmoqda. Old devor panjarasi uchun hali ruxsat olingani yo'q. Bu borada qurilish qonunlarida qandaydir noaniqliklar bor, — javob berdi Edis.

— Me'mor nima deyapti?

— Uning ta'kidlashicha, Detroyt va Klivlendda buni qilishga izn bor emish.

— Ha, bunisi ancha yengil, — dedi Palmer stol ortidan turarkan. — Men yana Fistga, «Empayr pleyvud»ga telefon qilaman. Ular bank amaliyotlarini biz orqali amalga oshiradilar. Mak Berns o'zining keng tarmoqli aloqalari bilan bu ishda, ehtimol, foyda berib qolar.

Edis o'zining finjoniga qora qahvadan yana biroz quyib oldi-da, mayda qultumlar bilan icha boshladi.

— Qiziq, dunyoda Mak Berns uddalay olmaydigan biror ish bormikin?

Palmer ketayotgandi, lekin to'xtadi va Edisga o'girildi. Edisning orqasidagi derazadan tushib turgan ertalabki quyosh nuri boshi atrofida ingichka tillarang sochlaridan chamber hosil qilgandi.

— Men uchun, azizam, u hamma narsani qiladi. Lekin hamma masala shundaki, jin ursin, shu

paytgacha u YuBTK uchun nima qilib berdi?

— Har holda bolalarimizni Bentli maktabiga olishlariga erishdi. Axir, bu maktabga qabul qilish to'xtatilgan edi, — e'tiroz bildirdi Edis.

— Bu Berns uchun juda oddiy ish. Afsuski, YuBTK uni iltifot yuzasidangina ushlab turgani yo'q.

— Biroq ushbu iltifotlarning qadriga yetmaslik ham insofdan emas, — dedi Edis. — Birinchi vitse-prezidentning bolalari yaxshi ma'lumot olishlaridan bank ham manfaatdor, axir.

— Ha, lekin bunaqa iltifotlar bankka ancha qimmatga tushib ketmayaptimi? Bilishimcha, u yiliga qariyb ellik ming dollar oladi, — to'ng'illadi Palmer.

— Unga to'layotgan bor-yo'q maoshlaring shumi?

— Ha. Tag'in unga vakillik xarakatlari ham to'lanadi.

— Ammo, azizim, bu juda kam-ku. Axir u topib bergan pudratchi bir oyda butun ishni bajarib qo'ydi...

Palmer soatiga qaradi: sakkiz yarim. U deraza oldiga borib, ko'chaga qaradi. Bankning oltmishta mashinasidan bittasi — maxsus buyurtma bilan tayyorlangani — mehmonxona oldidagi yo'lakda, avtomobillarning safida ikkinchi bo'lib o'z yo'lovchisini kutib turardi.

— Edis, — dedi Palmer chiqib ketayotib, — ba'zan senda ham yumor hissi paydo bo'lib turishini istardim.

— Mening yumor hissiyotim juda yaxshi! — baqirib qoldi Edis uning orqasidan.

— Bunday narsalarni gapirayotganda sal-pal jilmaysang bo'lmaydimi?

— Men ba'zan jilmayib qo'yaman, — dedi Edis, qo'lida qahvasi ichib tugatilmagan finjon bilan uning orqasidan ergashib.

Bo'sh qo'li bilan Edis erining bo'yinbog'ini to'g'rilab qo'ydi. Mashinaga o'tirgach, o'zim qaytadan to'g'rilab qo'yaman, o'yladi Palmer. Chikagoda bunga beparvo qaralardi, lekin bu yerda, Nyu-Yorkda bunday pala-partishlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Palmer xotini yonog'idan qattiq o'parkan, so'radi: — Bugun kechqurungi rejalarimiz qanday?

— Kechqurun Osborn pesasini ko'rgani boramiz.

— Kechki ovqatga mehmonga boramizmi?

— Ha, hozir shunaqasi ma'qul, — pinagini buzmay javob berdi Edis.

— Men ushlanib qolaman, bolalarga «xayrli tun»ni ham telefonda aytsam kerak.

— Qo'rqamanki, aynan shunday bo'ladi, azizim, — dedi Edis. — Yaxshi boring.

— Hozircha...

Liftda pastga tusharkan, Palmer ko'z oldiga keltirdi: Edis oyna oldida o'tirib kipriklarini, ayniqsa qovog'i ustini astoydil bo'yamoqda. U balki Edisga nisbatan adolatsizlik qilayotgandir. Lekin, baribir, u haq. Nihoyat, shunday xulosaga kelgan Palmer, mashinaning orqa o'rindig'iga o'tirdi. Darbon mashina eshigini chaqqonlik bilan yopdi.

— Xayrli tong, ser, — dedi shofyor.

— Xayrli tong, Jimmi.

Bulutlardan tozalangan osmonda oktyabr quyoshi toza nur sochardi. Tong chindan ham ajoyib, xayrli ko'rinib ketdi Palmerning ko'ziga. Bu tong unga ilhom baxsh etganday bo'ldi.

Bizning kayfiyatimiz, deya ishontirmoqchi bo'ldi u o'zini, oddiy yovuzlikdan boshqa hech narsa emas. Bunday kayfiyat undan qutulishimiz uchungina kerak. Aks holda jiddiy ishlar bilan shug'ullanish mutlaqo mumkin bo'lmay qoladi. Kayfiyatga bo'ysunish uning uchun hamisha o'zgarmas haqiqat bo'lib kelgan. Bu hodisa moddiylik toifasidan emas, shuning uchun ham u irratsionaldir. Hayot esa o'z mohiyatiga ko'ra hamisha umidsiz moddiydir va agar uning ratsional mag'izi doimo aniq vujudga kelmasa-da, hech bo'lmaganda u mantiq qonunlariga bo'ysunadi.

Uning otasining eng qat'iy e'tiqodlaridan biri ham aynan shunga asoslanardi. Endi bu narsa uning ham e'tiqodiga aylandi va chuqur ildiz otgan tamoyillar, masalan, respublikachilar firqasi nomzodlariga ovoz berish, asosiy sarmoyaga teginmaslik, oq ko'ylak kiyib yurish va hokazolarda o'z ifodasini topadi. Ushbu tamoyillarning hammasi, deb o'ylardi u mashina Beshinchi avenyuga

burilayotgan paytda, qat'iy ratsional mag'izga egadir. U shofyor oynasidan o'ziga yaxshilab qarab olish uchun o'rindiqdan sal siljib o'tirdi. Ko'ylak yoqasining oppoqligiga gap yo'q. Edisning qo'li bilan sal chetga surilgan bo'yinbog'ini to'g'rilab qo'ydi. So'ng o'rindiq suyanchig'iga yastanganicha mashina oynasiga nazar soldi. Keyin o'rindiqdan «Tayms» gazetasining bugungi sonini olib sarlavhalariga ko'z yugurtirib chiqdi-da, uni yana o'z joyiga qo'ydi. Bularning hammasi jonga tegdi, o'yladi u. Mak Berns bilan birgalikda bajariladigan ishdan tortib, bolalari yonida bo'lolmasligigacha unga alam qilardi. Nihoyat, Edisning o'zi, aniqrog'i, o'rtalarida vujudga kelgan munosabatlar, qo'ying-chi, bari bosh og'rig'i.

Hammasi o'z ma'nosini yo'qotdi, derdi u o'ziga-o'zi, ichki aloqalardan mahrum bo'ldi, hammasidan yomoni, juda tezlik bilan chidab bo'lmas mutaassiblikka aylanib borayotibdi. Lekin bu jarayon chindan ham endigina boshlandimi? Ehtimol u hozir his etgan narsa yillar davomida Chikagoda yashagan paytdayoq va endi Nyu-Yorkka ko'chib o'tishi mobaynida to'plangandir. Yangi turmush tarzi va o'rgangan davrasidan ajralishi uning hayotida aslida nimalar yuz berayotganini ko'rish uchun ko'zlarini kattaroq ochgandir?

Nyu-Yorkkacha bo'lgan davrda hammasi juda oddiy edi. Uydagi vaziyat, ertalablari Evanstoundan Chikagoga qatnash, oilalik hayotining o'n sakkiz yili mobaynida ishga borib kelish... Uylanishidan oldin ham Palmer shu yo'ldan qatnardi. Urush payti armiyada xizmat qilgan yillari bundan mustasno, albatta...

Palmer entikib nafas oldi-da, yana gazetaga qaradi. So'ng uni qo'lga olib, sarlavhalariga ko'z yugurtirdi. Ularni birinchi bor ko'rayotgandek diqqat bilan o'qidi. Aftidan, Yaqin Sharqdagi tanglik xavfli bosqichidan o'tib o'z yechimiga yaqinlashganga o'xshaydi.

Shu munosabat bilan birjada yugur-yugur, aktsiyalarni sotish boshlansa kerak, deb o'yladi Palmer. Kunning ikkinchi yarmida esa ularning narxi tusha boshlaydi. Keyin yana aktsiyalarni sotib olish talvasasi davom etadi. Bugun YuBTKda qimmatli qog'ozlar bilan shug'ullanuvchi Kliff Mergendalning kuni og'ir kechadi.

Mashina «Plaza» mehmonxonasi oldida to'xtadi. Ko'cha harakatida tiqin hosil bo'lib, mashinalar yurolmay qolgandi. Palmer gazetani o'rindiqqa uloqtirdi. Shofyor uning bezovtaligini ko'rib turardi.

— Ser, sizga biror narsa kerakmi? — deb so'rardi.

Palmer tashvishlanib:

— Nima bo'ldi? — deb so'radi.

— Siz nimadir dedingizmi, ser?

— Rostdanmi? — hayron bo'ldi Palmer. Nahotki hayotimni ovoz chiqarib la'natlagan bo'lsam? — o'yladi u. Nima, men hayotimni la'natlagan bo'lishim mumkinmi? Balki o'z-o'zimnidir? Lekin faqat o'zimmikin?

Tiqin bo'shashdi, chunki burchakda turgan politsiyachi ko'ndalang ko'chalardan keluvchi mashinalarni o'tkazib yubordi-da, Beshinchi avenyu bo'ylab harakatga yo'l ochib berdi. Palmer ketayotgan «Kadillak» quyon sakrashiga o'xshab o'rnidan otilib yurib ketdi. Bu harakat Palmerni o'rindiq orqasiga qapishtirib tashladi.

— Kechirasiz, ser.

— Tashvish qilma, Jimmi. Hayda tezroq.

Shofyor muloyim kuldi. Palmer uyalib ketdi. U kayfiyatiga berilib ketganidan o'zini noqulay sezib, buklab tashlangan gazetani qayta qo'lga oldi.

Mashina shitob bilan bankka yaqinlashib borayotgan paytda Palmer o'zicha tasavvur qildi: Kun tushlikka yaqinlashgan sayin quyosh nuri tik tushib, bankning yuqori qavatidagi oynavand xonani qizdirib yuborgandir. Hatto shiftga osilgan ulkan pardalar ham quyoshning o'tkir nurlarini to'sib qololmasa kerak.

Eh, agar ushbu tashvishlar faqat oddiy bosh og'rig'idan iborat bo'lganda edi, o'yladi Palmer, unda bu tongdan nafratlanish uchun menda qonuniy va tushunarli sabablarim bo'lishi mumkin edi. Va ikki dona aspirin xapdorisi hamma narsani joy-joyiga tushirgan bo'lur edi.

Lekin hozir unga chinakam azob berayotgan kasallikka qarshi dorini qaerdan olish mumkin? U ana shu mavhum jumboq bilan bankning markaziy darvozasiga yetib keldi. Mashinadan chiqarkan, shofyorga minnatdorlik bildirib, o'z kaliti bilan bankka olib kiruvchi yon eshikni ochdi.

O'ninchi bob

Palmer yo'l-yo'lakay bosh irg'ab kotiba bilan salomlashib, o'z xonasiga kirib, yozuv stoli tomon yurganida soat besh daqiqasi kam to'qqiz edi. Stol yonida bir oz turgach, signal tugmachalariga ko'z yugurtirdi. Saf tortib turgan tugmachalardagi belgilar faqat undosh harflardan iborat edi. «Brkxrdt» degan yozuvli tugmacha deyarli hech qachon qariya bilan bog'lanish imkonini bermasdi. Lekin Palmer shuni yaxshi bilardiki, barcha interkom chiroqli signallarning deyarli yarmi Berkxardt tugmachalari bilan bog'liq edi. «Mrchndl» yozuvi YuBTK vitse-prezidenti va mas'ul kotibi Kliff Merchendal ismini bildirardi. U birinchi galda qimmatli qog'ozlar masalasi bilan shug'ullanar, bundan tashqari eng puldor mijozlar ishini olib borardi. Shu bilan birga u yana qimmatli qog'ozlar hamda ishonchnomalar bo'yicha boshqariladigan mol-mulk bo'limi faoliyatiga rahbarlik qilardi. «Skrtr» tugmasi esa o'z sohibiga ega emasdi, chunki Palmer kotiba vazifasini bajaradigan biror qizni tanlashga sira vaqt ajrata olmasdi. O'ng tomondagi tugmachalarda bo'lsa boshqa ikki birinchi vitse-prezidentlar: Garri Elder va Fipps Kars (ayni paytda g'aznachi ham) ismlari yozilgandi.

Palmer yozuv stoli tagidagi yashirin tugmachani bosdi. O'sha zahoti uning orqasidagi devor ilondek vishillab ochildi. Ichkarida javon ko'rindi. Palmer unga palto va shlyapasini ildi va devorni yana bekitdi.

Devor javonida sirli bo'linma mo'jazgina bar shaklida yasalgandi. Unda ikkita shisha, beshtacha qadah va muz solingan chelakcha bor edi. Maxfiy ravishda telefonga ulash uchun mo'ljallangan kichkinagina magnitofon ham o'sha yerda saqlanardi. Bundan ikki yil avval, jamg'arma banklari bilan olishuv paytida uni chindan ham ulashmoqchi edi. Garri Elderning ta'kidlashicha, yuqori qavatda va barcha filiallarda maxfiylik tartibi o'rnatilgandi. Ish kuni yakunida Berkxardt o'z kotibalarini savatchalardagi barcha qog'ozlarni yig'ishtirib yoqib yuborishga majbur etardi. O'sha olishuvda Berkxardt g'olib chiqdi va keyin telefonlar maxfiy mikrofonlarga ulanmay qoldi. Aftidan, o'ylagan ishidan voz kechdi, shekilli.

Darvoqe, bu ishni bu yil qilsa ham bo'ladi, o'yladi Palmer. U o'z o'rniga o'tirdi va ertalabki pochtani ko'rishdan oldin, xonasiga ko'z yugurtirdi. Stol qarshisidagi devorda yo'lakdan olib kelingan Bark ishlagan rasm ilib qo'yilgandi.

Xonaning olis devoridagi ulkan derazasi yonida endi qora haykal turardi. U bundan yetti yil oldin quyilgan bo'lib, ularning Chikagodagi hayoti davriga taalluqli edi, o'shanda Edis uchala bolasini haykalda aks ettirish g'oyasi bilan chiqqandi. Haykal ishlangan paytda katta o'g'illari yetti, kenjasi ikki, Jerri esa hali to'rt yoshga ham to'lmagandi.

O'sha paytda Edis bolalarining yoshligini e'tiborga olib, ularni yalang'och tasvirlashga e'tiroz bildirmagandi. Palmer haykaltaroshni hozir esladi, o'sha xonimni Xanna Kerd deb atashardi. Uning haykallarida Xanna nimani tasvirlamoqchi ekanini tushunish mumkin edi. U keksa ayolmi, boyo'g'limi yo qo'zichoqmi, xullas, nima bo'lmasin, silliqanmagan toshdan yasardi.

Mana endi, oradan yetti yil o'tganidan so'ng, bu haykal Palmerga yoqa boshladi. Xanna Kerd o'z ishini tugallaganda, Edis shodligining cheki yo'q edi. Biroq oradan bir yil o'tgach, haykalni chordoqqa chiqarib tashlashdi. Uni qandaydir ko'rgazmaga vaqtinchalik berib turish uchun ba'zi-ba'zida chordoqdan olib turishardi. O'g'illarning to'ng'ichi Vudi, katta bo'lgani sari haykaldan kamchiliklar topardi, lekin kenjatoy Tommiga u juda yoqib qolgandi. Garchi bu asar «Uch farzand» degan nomga ega bo'lsa-da, Jerri uni «Dengiz tipratikonlari bazmi» deb atagandi.

Hozir haykalga qarab turib, Palmer unda tasvirlangan bolalarning qiyofalarida raqs alomati borligini sezdi. Bundan to'rt yil muqaddam Chikagodagi tasviriy san'at instituti Kerdning haykalini oliygohga

hadya qilish kerakligiga ishontirish uchun ko'p urindi. Bultur Nyu-Yorkdagi galereyalardan biri shu haykal uchun Palmerga o'n ming dollar taklif qildi. Bu haykalni yasatish uchun ketgan puldan ikki barobar oshiq edi. Biroq Xanna Kerdning ogohlantirishicha, Palmer tushundiki, hozir bu buyumning narxi ancha baland turadi. Haykal Yevropadagi tasviriy san'at ko'rgazmasida ham namoyish etildi. Italyan va frantsuz tanqidchilari bu asar ustidan goh kulishar, goh ko'klarga ko'tarib maqtashardi. Ushbu haykal tevaragida matbuotda ko'tarilgan shov-shuv uning narxini o'n besh ming dollargacha ko'tarib yubordi.

Palmer bolalarining haykal portretini o'zining xizmat xonasiga qo'ymoqchi ekanini Edisga aytgan paytida ular o'rtasida janjal chiqdi. Ularning birgalikdagi hayotlarida, ayniqsa so'nggi yillarda bunday janjallar tez-tez bo'lib turardi. Ular garchi ataylab chiqarilmasa ham, baribir, mantiqiy asossiz kelib chiqaverardi. Edis, «bahslashuvlar» deb atagan bunday mojarolar bir necha hafta davom etdi. Nihoyat Palmer Edisdan yashirin suratda haykalni San-Frantsiskodan (u yoqqa ko'rgazma uchun vaqtincha olib ketilgandi) olib kelib Nyu-Yorkdagi o'z xonasiga o'rnatdi.

Buni hamma — Berkxardt, Xanna Kerdt, Zamonaviy sa'nat muzeyi, ayniqsa Mak Berns ma'qulladi. Bu borada Mak Berns ocherk yozib «Tayms»da e'lon qildi. Haykalning rasmini «Luk» jurnalida bostirdi. Bundan Edisdan bo'lak hamma mamnun edi. Palmer o'zi bilan Edis orasiga sovuqlik tushishiga shu narsa sabab bo'ldi deb ayta olmaydi. Oxir-oqibat so'nggi paytlarda ular yashayotgan vaziyatni yanada chigallashtirish mumkin emasdi.

Shu haqda o'ylar ekan, Palmer ertalabki pochta jildini olib, undagi xatlarni ko'zdan kechira boshladi. Lekin mashinada ertalabki sayri paytidagi ko'ngilsizliklarni eslab, kayfiyati buzildi.

Haykalga qarab, u haqda o'ylash unga hamisha qandaydir quvonch baxsh etardi. Eng avvalo u Palmerga bolalarni eslatardi. Bundan tashqari, haykalga qarab ruhiy madad olardi. Palmer bolalarining haykal tasviriga qaragan chog'ida undagi barcha ko'ngilsizliklar tarqab ketardi. Hozir u aynan shuni his qilayotgandi.

U stolidagi xatlar uyumi ustidan bittasini olib, o'qib ko'rди. Xatda Long-Aylenddagi ishbilarmonlardan bir guruhi undan o'zlari huzuriga borib, jamg'arma va tijorat banklari o'rtasida avj olib ketgan kurash haqida gapirib berishni so'rashgan ekan. Keyingi xatda Palmer Kolumbiya universiteti binolari birining poydevorini qo'yish marosimida qatnashishga taklif qilishgandi. Uchinchi xatga gazetalar reportyorlari uchun har yili uyushtiriladigan ziyofatga ikkita chipta tirkab qo'yilgan ekan. Chiptalarda «joy prezidiumda» degan yozuv bor edi, demak unga so'z berilishi mumkin.

Stoldagi xatlar uyumiga qarab, bu Palmer shaxsi tevaragida Nyu-York ommasi uchun tegishli reklama shov-shuvi vujudga keltirish niyatida Mak Berns sa'y-harakatining mevasi ekanini tushunish qiyin emasdi.

Interkomning qo'ng'irog'i jiringladi. Palmer tugmachalarga qarab, Berkxardt chaqirayotganini tushundi-da, go'shakni ko'tardi.

— Xayrli tong, Leyn.

— Biror yaxshi gap bormi, Vudi? — qariyaning ovozi ancha tetik eshitildi. Bundan kechani ancha tinch o'tkazganini bilsa bo'lardi.

— Kayfiyatingiz yaxshiga o'xshaydi, — dedi Palmer. — Men esa bu yerda o'tirib xatlar uyumini titib, turli-tuman yig'ilishlarga takliflarni ko'zdan kechirayapman. Qarang, Mak Berns mening haqimda qanday qayg'urayapti.

— Biror foyda chiqarmikan?

— Long-Aylendda ma'ruza aytishga taklif etishyapti. Lekin u yerdagi omma bizga befoyda.

— U tomonlarda ommaning har qanaqasi yaxshi, — e'tiroz bildirdi qariya. — Bu judayam zarur, Vudi. Jamg'arma banklari zo'r berib o'sha yerga intilmoqdalar.

— Unda men boshqa odamlar oldida gapirganim maqbul emasmi?, — dedi Palmer. — Mak Berns u yerda ishbilarmonlarni to'playapti. Ular shundoq ham bizlar tomonda-ku.

Berkxardt mag'rurona to'ng'illadi:

— Ha, jin ursin, bizdan yuz o'girib ko'rishsin-chi...

— Men bo'lsam bizlarga zayom, qarz va boshqa har xil majburiyatlar orqali bog'liq bo'lmaganlar bilan gaplashib ko'rishni afzal bilardim, — dedi Palmer. — Boshqacha, aytganda bizdan mustaqil bo'lgan odamlar bilan...

— Buni Bernsga ayt. — Qariya bir oz jim qoldi, keyin so'radi: — U bilan yaxshi chiqishyapsanmi?

— U men uchun o'zini o'tga ham, suvga ham urishga tayyor. O'zi shunday deb ishontirdi.

— Tez-tez ko'rishib turasanmi?

— Shu hafta menga telefon qilolmasin deb oldini olib qo'yganman. Haddan tashqari tashabbuskor. Xizmatdoshlarning do'stligi o'z yo'liga, u bo'lsa, birodarlikning qarindoshlik rishtalarimi-ey...

— Faqat ehtiyot bo'l, uning g'ashiga tegma, Vudi, — sarosimaga tushdi qariya. — Xudo ko'rsatmasin, agar unga qanday munosabatda ekaningni bilib qolsa bormi... Bu greklar qanaqaligini o'zing yaxshi bilasan.

— U grek emas, livanlik, — e'tiroz bildir Palmer. — Agar uni sal bosib qo'ymasam, cho'ntagimga tushishdan ham toymaydi, uya qurib olib, xo'jayinlik qila boshlaydi. Uning qilmishlari bo'g'zimga keldi. Ketma-ket nonushtalar, tushlik, ziyofatlar, tungi klublar. Agar u bilan uchrashuvlardan bosh tortmaganimda, biror kecha to'yib uxlay olmasdim.

— Senga ayollar ham taklif qildimi?

— Bo'lmasam-chi, bir necha bor.

— Xo'sh?

— Nima, xo'sh? — keskin gapirdi Palmer. — Bu odamning qanaqaligini o'zingiz bilasiz-ku, axir, Leyn? Uning miyasi qanday tuzilganini bilasizmi? Hozirgi zamon siyosatidan saboqlar, ustiga ustak, Fillips Oppengeym uslubida pornografiya. Bunaqa shovvoz yashirincha suratlarga tushirib, qora kunga deb asrab qo'yishdan ham toymaydi.

— Shu boisdan ayollarni rad etayapsan, shundaymi? — dedi Berkxardt.

Palmer g'azablandi:

— Quloq soling, hali erta tong, siz bilan shu qadar nozik tomonlarga o'tish shartmi, Leyn.

— Gapimni qaytarib olaman, — dedi Berkxardt va jimib qoldi. — Vudi, g'ashingga tegmoqchi emasman, lekin tushun, o'zingni undan olib qochayotganingni sezmasligi kerak.

— Yo'q, albatta. U buni sezmaydi.

— Ishonching komilmi?

— Yo'q, albatta, yo'q! — g'azablandi Palmer. — Quloq soling, mendan juda ko'p narsa talab qilayotganingizni sezmayapsizmi?

— Tushunaman, — shoshib rozi bo'ldi Berkxardt. — Siz Kalxeyn bilan uchrashdingizmi?

— Yo'q hali. Siz bu savolni kecha kechqurun ham bergandingiz.

— Biroq bugun juda serzarda bo'lib qoldikmi, Vudi!

— Ha, adashmadingiz. — Palmer bir oz jim qoldi. — Siz bilan mutlaqo ochiqchasiga gaplashmoqchiman, Leyn. — Davom etdi u jimlikdan so'ng. — Men, albatta, yaxshi tushunaman, YuBTK singari yirik bankning faoliyat doirasiga juda murakkab jarayonlar kiradi. Bu borada muayyan yo'nalishdagi ishlar tegishli mutaxassislar tomonidan olib boriladi. Bu shunday bo'lishi kerak. Lekin birinchi vitse-prezidentning ishi faqat Bern yetaklasa ergashib, son-sanoqsiz ziyofat va yig'ilishlarda nutq so'zlashdan iborat emas, deb o'ylashga asosim bor.

Har ikkalasi ham bir muddat jim qolishdi. Ertalabdan Berkxardtning ahmoqona savollari bilan buzilgan kayfiyat Palmerga ehtiyotkorlikni unutishga olib keldi. Buni o'zi ham tushunardi, lekin boshlig'ining nima deyishini kutib, baribir yaxshi natijaga erishib bo'lmasiligiga ko'zi yetdi-da, jim turishning xojati yo'q, degan qarorga keldi. Qanday bo'lmasin, qari qarchig'ayga zarba berish kerak. Uning hozir shu qadar keskin tarzda aytganlari esa endi ahamiyatsiz.

— Ertalab nonushtani kim bilan qilayapsan? — so'radi Berkxard.

— Berns bilan, albatta, yana kim bilan bo'lardi, — dedi alam bilan Palmer. — O'tgan hafta men unga uch marta rad etdim. Mening yana shunday qilishimni xohlaysizmi?

— Yo'q-yo'q, — javob qildi Berkxardt.

— Albatta, yo'q.

— Unda men senga to'g'risini aytaman, Vudi. Buni men kerak deb hisoblayman. Gap ikki narsa haqida. Birinchisi o'zingga ma'lum. Garchi o'tgan vaqt ichida buning naqadar muhimligini unutgan bo'lsang-da. Men jamg'arma banklari bilan bog'liq janjalli voqealarni nazarda tutayapman. Buning biz uchun naqadar katta ahamiyatga ega ekanini aslo unutmaslik kerak. Ochig'ini aytganda, buning hammasi senga bog'liq.

— Men unga rozimasman.

— Ko'rinib turibdi.

Palmer boshlig'ining ovozida keskin ohangni his etdi.

— Unda senga sodda shaklda tushuntirishga ruxsat ber. Bizlar, ya'ni tijorat banklari bu olishuvda yutib chiqishimiz kerak, aks holda ular bilan raqobat qilishimizga to'g'ri keladi. Bu esa bizni xonavayron qiladi. Jamg'arma banklari bizlar uchun o'tmishda ham xavf tug'dirardi. Lekin hozirgidek tahdidli emasdi. Bu yil ular g'olib kelish uchun butun imkoniyatlarini ishga solyaptilar. Odamlar, pul, rejalashtirish hammasi shunga qaratilgan. Barcha tijorat banklari bu kurashga bizning bankimiz boshchilik qilishini kutayotir. Va biz sendan dadil sa'y-harakatlarni kutmoqdamiz. Sen nima qilgan taqdiringda ham, qanchadan-qancha hujjatlarga qo'l qo'yganingda ham biz uchun senga topshirilgan asosiy ish mana shu, allaqanday o'tkinchi ishlar emas!

— Har holda bu narsa bank ishlariga bevosita daxldor emas.

— Yo'q, albatta, — rozi bo'ldi Berkxardt. — Sen uni qanday atasang: reklama, siyosatdonlik, hatto izquvarlik debmi-ey, ixtiyor o'zingda. Faqat shuni unutmaki, sen bank vakilisan, yana qanday bank va buni ko'ngildagidek amalga oshirish uchun chinakam bankir bo'lish kerak.

— Buni hamisha esda tutish unchalik oson emas. Berns bilan tungi klublarda vaqt o'tkazish bilan ovora bo'lish va u tiqishtirgan mallasochlardan qochib qutulishning o'zi bo'lmaydi.

— Xuddi ana shu meni suhbatimizning ikkinchi moddasiga o'tishga majbur qiladi, — ehtiyotkorona davom etdi Berkxardt. — Bizning bankimizda o'z axloq kodeksimiz mavjud. U har bir ilg'or korxonada bo'ladi. Bu kodeks, masalan, harbiy dengiz flotidagi singari qattiqqo'l yoki yakshanbalik maktabidagidek zararsiz emas. Lekin baribir u mavjud. Biz o'z xodimlarimizdan muayyan xatti-harakat belgilarini talab qilamiz va bunday masalalarda ularga ishonamiz.

Berkxardt jim bo'ldi, Palmer qoshlarini chimirib o'z oromkursisida oldinga siljidi. Qariya nega jimib qoldi? Balki fikridan chalg'ib ketgandir? Palmer jim o'tirib, kutdi.

— Eng muhim talablarimizdan biri shundaki, xizmatchilarimizning shaxsiy muammolari ularning uyida qolsin va ishga xalaqit bermasin, — yana gapga kirdi Berkxardt.

— Shundaymi? — so'radi Palmer gap nimadalgini hali tushunmay turib.

— Biz, albatta, bunga hamisha ham muvaffaq bo'lolmasligini bilamiz, lekin shunga ishonamizki, hamma shu tartibga amal qiladi. Ishonch bilan ayta olamanki, bu borada kamdan-kam yanglishamiz.

— Shunaqami? — takrorladi Palmer.

— Menga xushomadni bas qil, jin ursin! Nima haqida gapirayotganimni tushunib turibsan-ku, axir.

— Yo'q, tushunmayapman, — dedi qat'iy Palmer va keskin so'radi: — Sen ish vaqtida shaxsiy ishing bilan shug'ullanayapsan, demoqchisiz, shundaymi?

Unga javob berish o'rniga Berkxardt birdan gapni boshqa yoqqa burdi.

— Bilasanmi, bir vaqtlar ushbu muassasa ancha kichik, maoshlar ham juda kam bo'lgan paytlarda bizlar ham butunlay boshqacha ohangda gaplashgan bo'lardik. Masalan, men aytgan bo'lardim: «Quloq sol, Bill, bu narsaning menga mutlaqo daxli yo'q, men unga aralashishga urinmayman ham, lekin...» yoki shunga o'xshash biror narsa. Afsuski, Vudi biz juda katta ishni boshlab qo'yganmiz, maoshlar ham shunga yarasha bo'ladi.

— Nimalar deyapsiz? — dedi hayron bo'lib Palmer.

— Ko'rayapsan-ku, bularning hammasi menda ham aks etadi, shuning uchun aralashishga majburman. Aralashmasdan ilojim yo'q. O'tmishda esa... Lekin biz o'tmishda yashayotganimiz yo'q va sening ishing biz uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

— Leyn, xudo haqi, aytsang-chi, o'zi nima gap?

— Edis, — dedi qariya va uzoq jim qoldi.

— Edis? — so'raganday qaytardi Palmer.

— Aniqrog'i, sen Edis bilan, — javob berdi Berkxardt. Yana jimlik cho'kdi. Palmer uning og'ir nafas olayotganini eshitdi. — Bunaqasi ketmaydi, Vudi, bu telefonda aytadigan gap emas. Yaxshisi klubda gaplasha qolaylik. Aytaylik, soat beshu o'ttizda...

— E-e, yo'q, bunaqasi ketmaydi, — dedi Palmer. — Men sizni hoziroq ko'rishim kerak. Osongina qutulib ketaman deb o'ylamang.

— Demak, beshu o'ttiz.

— Leyn, men... — telefonni uzishdi.

Palmer g'azab bilan «Brkxrdt» yozuvli tugmachani bosdi. Barmog'i og'riguncha shu tarzda bosib turdi. Nihoyat, Berkxardt kotibasining ovozi eshitildi.

— Eshitaman, mister Palmer.

— Meni mister Berkxardt bilan bog'lang.

— Urinib ko'raman, ehtimol unga liftida yetib olarman.

— Urinib ko'ring! — qizga baqirib yubormaslik uchun u tishlarini qisdi, so'ng xotirjam ohangda: — Umuman, keragi yo'q, — dedi.

Palmer telefon go'shagini joyiga qo'ydi, o'rnidan turib deraza yoniga keldi. So'ng bolalari tasvirlangan haykalga qaradi. Har tarfdan yog'ilib turgan nurda farzandlarining yuzlari juda g'alati ko'rinaridi.

O'n birinchi bob

Palmer bankni Berns bilan uchrashuvga yigirma daqiqa kechikishni mo'ljallab tark etdi. U Beshinchi avenyu bo'ylab dadil odimlar bilan yurib borardi. Kuz quyoshining yengil nurlari siyraklashgan kashtan barglari orasidan o'tib yerga yoyilardi. Kun kutilmaganda iliq keldi. Palmer paltosi bilan shlyapasini ish stoli ortidagi maxfiy javonda qoldirdi. U erkalovchi yengil havodan chuqur nafas olib borardi.

Yo'l bo'ylab unga duch kelayotgan barcha qizlar unga xushro'y bo'lib ko'rinar, ularning yengil odim tashlashlari ko'zni quvnatib, dilni yayratardi. Do'konlarning ko'rgazma oynalarida hafsala bilan joylashtirilgan bashang buyumlar o'zlarini ko'z-ko'z qilardi. Palmer odatdagidan tezroq yurib Ellik birinchi ko'chaga burildi-da, ko'zi bilan Nyu-Yorkning mashhur restorani «Yigirma bir»ning lavhasini qidira boshladi. U Oltinchi avenyuga yaqinlashganda birdan restoran Ellik ikkinchi ko'chada joylashganini esladi. U to'xtab o'yladi, bu xato — o'ziga xos ogohlantirish bo'lsa kerak, Palmer qo'pol xatoga yo'l qo'yayotganga o'xshaydi.

Oltinchi avenyu muyulishida turib, o'tgan-ketganlarga qararkan, Palmer bu ko'chadagi ayollar bir mahalla narida ko'rgan xonimlardan qanchalik farq qilishi haqida o'yladi. Lekin kayfiyati nega birdaniga o'zgarib qolganiga tushunmasdi.

Uning kayfiyati tez-tez o'zgarib turishi avvaldan ma'lum edi. Uning asosiy kamchiliklaridan biri shu edi. Bundan qutulish kerak deb otasi ham ta'kidlagandi.

Palmer endi Oltinchi avenyu bo'ylab sekin, shoshmasdan yurib borardi. Bu yerdagi do'konlarning uniqqan ko'rgazma oynalarida turib qolgan buyumlar ko'zga tashlanardi. Devorlarda: «Shoshilinch, arzon sotiladi» degan yozuvlar ko'zga tashlanadi.

Otasining cheklanganligi Palmerning hamisha g'ashiga tegsa-da, oxir-oqibat u shunday xulosaga keldiki, otasiga uni o'rab turgan dunyo bilan tabiiy muomala usuli bo'lib xizmat qilayotgan muhrlar to'plami yordamida haqiqatni tiklash chindan ham ancha oson bo'larkan.

Ellik ikkinchi ko'cha muyulishida Palmer qadamini sekinlatdi va atrofga alangladi. Bu yerdagi mo'jazgina do'koncha vaqtincha saylov mavsumi idorasiga aylantirilgan edi. Unda shahar mahkamalariga navbatdagi saylovga tayyorgarlik boshlab yuborilgandi. Do'konning devorlariga

bittagina tashviqot varag'ining nusxalari yopishtirib tashlangandi. Bu suratlardan qirqta bir nusxadagi odam Palmerga tikilib turardi. Nomzod o'rta yoshlardagi bir kishi edi. «Siyosat bu sizning ishingiz!» — deya uqtirardi Palmerga shiorlar.

Palmer Ellik ikkinchi ko'cha bo'ylab horg'in holda yo'lini sharq yo'nalishida davom ettirardi. U yo'l boshidayoq o'zini qamrab olgan quvnoq kayfiyatning sababini aniqlashga urinardi. Tabiiyki, bu kayfiyatning Mak Berns bilan navbatdagi uchrashuvga hech qanday aloqasi yo'q edi. Ha, Berkxardtning ertalabki valaqlashining ham bunga daxli yo'q. U Palmerning «Yunayted benk» ishlaridagi hal qiluvchi roli haqida gapirdimi-ey. Va birdan Palmer tushundi, bu kayfiyat Berkxardtning Edis bilan munosabatlari masalasiga to'xtalib o'tgani tufayli edi.

U ko'chani narigi tomoniga, cho'yan panjaralariga qarab to'xtab qoldi. Panjara «Yigirma bir» restoranining old tomonini bezab turardi. Ularga arg'umoqlarni uchirib borayotgan poygachi chavandozlar tasviri o'rnatilgan edi. Gap bu yoqda ekan-da. Palmer ko'chani kesib o'tish uchun yo'lga chiqmoqchi edi-yu, g'izillab kelayotgan mashinalar oqimini o'tkazib yuborish maqsadida yo'l kaga qaytdi. Albatta, Berkxardt gapining ohangi nimanidir anglatib turar, u ham yozg'irish, ham tanbeh sifatida yangradi. Qariya na faqat Palmerning Edis bilan oilaviy munosabatlarida, ayni chog'da uning bankdagi ishga munosabatida ham tartib o'rnatishga urinardi. «Bir paytning o'zida ikki ayol bilan qanday yashash mumkinligi masalasi xususida,» — kulimsiradi o'zicha Palmer.

— Mister Bernsning stoli qaysi? — so'radi u restoranga kirgach.

— Marhamat, mister e...? — bosh ofitsiant parolni kutib qoldi.

— Palmer.

— Bu yoqqa marhamat, bu yoqqa, mister Palmer. — Bosh ofitsiant ta'zim qildi-da, Palmerni ergashtirib borarkan, mister Berns bir daqiqaga chiqib ketdi, hozir qaytib keladi, dedi.

— Qaytib keladi, deyapsizmi? — so'radi Palmer oromkursiga cho'karkan. — Menga limon po'stlog'i va toza martini olib kelishsin, — dedi.

Xuddi yerni yorib chiqqanday Berns paydo bo'ldi, Palmerning yoniga o'tirdi-da, qo'lini uning yelkasiga qo'ydi.

— Xello, Vudi, — dedi u do'stona. — Sizni kutdirib qo'yganim uchun kechirasiz. — Tepada bir mijoz bilan uchrashuvim bor edi.

— Men hozirgina kelib turibman, — dedi Palmer, uning yolg'oniga pand berish uchun.

— Juda soz. Nima ichasiz?

— Men buyurtma berib qo'ydim.

Berns bosh ofitsiantning nomini aytib chaqirdi.

— Menga o'shandan bering.

— Xo'p bo'ladi, mister Berns.

— Taomnomani ham bering.

— Xo'p bo'ladi, ser.

— Bir quti «Gold fleyks» ham.

— Yaxshi, ser.

— Telefonniyam.

— Hozir, ser.

— Tezroq.

— Hozir olib kelaman, mister Berns.

— Yaxshi.

Palmer ularni qiziqish bilan kuzatib turdi.

— Ser, sizga biror narsa kerakmasmi? — so'radi bosh ofitsiant.

Yomon zarba, qayd qildi o'zicha Palmer, chunki u shu zahoti qaytariladi.

— Yo'q, tashakkur, boshqa hech narsa kerakmas, — dedi «koptokni ko'tarib berib» Berns.

— Ixtiyoringiz, ser. — Bosh ofitsiant «koptokni to'r yonida urib tushirdi». Bu halokatli zarba edi. Koptok to'g'ri uchib borib raqib oyoqlari ostiga urildi. Berns qaqshatqich zarbaga uchradi: u koptokni

qaytarishga emas, hatto raketkani ko'tarishga ham ulgurmadi. Bosh ofitsiant tantanavor jo'navordi. Bernsning sarg'ish ko'zlarida esa yovuzlik barq urdi. U Palmerga o'girildi, yovuz chaqin esa nigohida uzoq vaqt yonib turdi.

— O'ylashimcha, Long-Aylend ishbilarmonlari huzurida so'zlashga taklif etilganim, — dedi keskin ohangda Palmer, — u yerda ko'plab odam to'planishini ta'minlamaydi.

Berns unga tashvish bilan qarab, so'radi:

— Nega unday deyapsiz?

Ofitsiant ularga martini olib keldi, qadahlarni stolga qo'yib, orqasiga qaytdi.

— O'sha odamlar shundoq ham bizlar tomonda, — javob berdi Palmer. — Bizga esa hali ishontirishimiz lozim bo'lgan kishilar kerak.

— Ishbilarmon doiralar vakillari siz tomonda ekanini qayoqdan bila qoldingiz?

Yana bir ofitsiant paydo bo'ldi va taomnomani berib ketdi.

— Chunki tijorat banklari o'sha ishbilarmonlarni bizning cho'ntagimizga o'zlari solib qo'ydilar, — tushuntirdi unga Palmer. — Ular o'zlarining bank amaliyotlarini biz orqali amalga oshirmoqdalar. Ular yana qaerda bank hisobi ochishlari mumkin? Bizlardan esa ular o'zlariga zarur bo'lgan zayomlarni oladilar. Demak, ular bizlarsiz yashay olmaydilar.

— Biroq ularning kun ko'rayotgan garov qo'yilgan pullari jamg'arma banklarida saqlanadi, — e'tiroz bildirdi Berns.

Shu payt uchinchi ofitsiant paydo bo'ldi, u «Gold fleyks» sigaretsi olib kelgandi. Berns na ofitsiantga, na sigaretsiga e'tibor qildi.

— Lekin bu masalani hal qilmaydi, — dedi Palmer. — Garovga pul qo'yish uzoq muddatli bitim, uni o'zboshimchalik bilan o'zgartirish mumkin emas. Jamg'arma banklari istagan odamning boshiga tushirish uchun ulardan foydalana olmaydi.

— Lekin bordi-yu, ularda garov pullardan ur to'qmoq sifatida foydalanish imkoni paydo bo'lsa, uni shu yildayoq ishga soladilar, dedi Berns.

To'rtinchi ofitsiant keldi, uning qo'lida telefon bor edi. U telefonni Palmerning tepasidagi uyaga uladi. Berns xo'mrayib telefonga qaradi.

— Nahotki biz hozir aynan ish haqida gaplashsak? — so'radi u.

— Ha, biz ko'p narsani muhokama qilishimiz kerak, — javob berdi Palmer.

— Vudi, bir necha daqiqaga bo'lsa ham qo'yib tur o'sha ishingni. Kel, avvaliga ichaylik. Bugun judayam bo'g'ilib ketdim.

— Nima, ertalab qiyin bo'ldimi?

— Ertalab emas, butun tunni uyqusiz o'tkazdim. Ertalab soat oltida yotdim, ikki soatgina mizg'ib oldim. Keyin Vik Kalxeyn bilan nonushta qilgani yugurdim.

— Ha-ya, Katta Vik bilan uchrashuvda siz xo'rozqandday bo'lishingiz kerak.

Berns qoshlarini chimirdi.

— Iltimos, uni bunday atama. Mana besh yildirki ommaning bu laqabni unutishiga urinayapman.

— Nima, eshitalishi yomonmi?

— Yo'q, laqab u haqda yomon tasavvur beradi. U ko'proq katta shaharning siyosiy korchalonlariga mos keladi.

— Nega endi, u chindan ham katta, ismi ham Vik, shubhasiz, u haqiqiy siyosiy xo'jayin.

— Hamma balo shundaki, u bunaqa emas, — dedi Berns.

— Bo'lmagan gapni qo'ying!

— Siyosiy xo'jayinlar endi umuman yo'q. Bunday zotlar Ikkinchi jahon urushida qirilib ketdi, — ta'kidladi Berns.

— Jiddiy gapirayapsizmi?

— Albatta. Ayting-chi, hozir kim Tvid, Pendergast va Krouner singari kishilar bilan tenglasha oladi? Unaqalarni hozir uchratib bo'psiz!

— Baribir, unaqalar bor hozir ham.

— Kim axir? Chikagolik Jek Arveyimi? I-e, uning obro'sini bir paytlar mashhur bo'lgan Ed Kelli yoki Bill Tompson obro'si bilan solishtirib bo'ladimi? Yoxud Nyu-York korchaloni Karmin de Sapiomi? Uning guruhi Tammani urug'i bilan amerikaliklarning demokratik harakat uchun tashkiloti o'rtasida adoyi tamom bo'layapti. Bu de Sapiro uchun halokat bilan tugaydi.

— Shunga qaramay, — so'zida turib oldi Palmer. — Agar biron narsaga erishmoqchi bo'lsangiz, aynan Vik singari odamga murojaat qiling. Faqat o'shagina sizga kerak bo'lgan narsani muhayyo qilish imkoniga egadir.

Berns yelkalarini qisdi-da martini to'latilgan qadahni ko'tardi.

— Sizning sog'ligingiz uchun, — dedi u.

— Salomat bo'ling, — dedi Palmer.

Bir muncha muddat indamay ichishdi.

— O'ylashimcha, — deya so'z boshlagan Berns to'xtab, sharobdan bir qultum ichdi-da, davom etdi, — o'ylashimcha, hozir sizning siyosiy ma'lumot olishingizning ayni payti, Vudi.

— Nahotki men siyosatni shunchalik yomon bilsam?

— Yo'q, albatta. Siz siyosat — bu hukumat o'z harakatida amal qiladigan narsadir, deydi holatda emassiz.

— Axir, bu shunday emasmi?

— Yo'q. Aslo bunaqa emas. — Berns ingliz sigaretasini ochdi, quti ichidan bir donasini oldi, unga o'ylanib qarab turdi-da, dedi:

— Siyosat pul undirish usulidir, nufuzli shaxs bo'lish yo'lidir.

— Lekin ayni paytda hukumat o'z sa'y-harakatlarida siyosatdan foydalanadi.

— Bunday sa'y-harakatlar — siyosatning faqat qo'shimcha mahsulotidir, — dedi Berns. — Uning haqiqiy ishi esa pul topishdir.

— O'ta surbetlik.

— Nima qilibdi, — ishshaydi Berns. — Agar surbetlik menga har bir narsani ularni haqiqiy rangida ko'rish imkonini bersa, men e'tiroz qilmayman.

U sigaretani tutatib olish uchun engashdi va o't oldirgichdan chaqnagan olov uning ignatugmasidagi qimmatbaho tosh qirralarida yarqirab ketdi.

— Har qanday biznesda bo'lgani singari, — Berns og'zidan chiqargan tutunni qo'li bilan haydadi, — siyosat kelishuvning harakatlantiruvchi kuchidir. Faqat siyosatda uni kontrakt deyishadi. Aslida bu so'z boshqa amaliy sohalarida unga berilayotgan ahamiyatga uncha mos kelmaydi. Kelishuv... Bitim... U jim qoldi va xira yoritilgan zalga ko'z yugurtirdi: — Vik bilan nonushtaga tayyorlanayotib, men uchta ana shunday bitim tayyorladim. Mening sobiq okrugim Bronksda yosh yigit ishga muhtoj. Bu bitta bitim. Kelgusi oyda shtatda yo'rg'a otlar sinovi o'tkaziladi. Vikdan ana shu sinovda faxriy mehmon sifatida qatnashishni so'rashayapti. Bu ikkinchi bitim. Mening bir oshnamning do'sti do'kon ochmoqchi bo'layapti, u iloji boricha tezroq litsenziya olmoqchi. Bu uchinchi bitim.

— Bularning hammasi uncha murakkab emasga o'xshaydi, — dedi Palmer.

— Albatta, yo'q. Endi bu yog'ini eshiting. O'z navbatida Vik ham menga ikkita ahdnoma tayyorladi. U yangi katolik kollejarining binolaridan biri uning otasining nomi bilan atalishini xohlayapti. Bu uning birinchi bitimi. Nimani aytayotganimni tushunayapsizmi?

— Bo'lmasam-chi.

— Shunday qilib, fikrimga e'tibor bering. Ish murakkablashib borayapti. Hozirgina beshta bitim haqida gapirib o'tdik. Keling, shulardan bittasini tahlil qilib ko'raylik. Masalan, birja aksiyalari bilan bog'liq bitimni olaylik. Vikdan topshiriq olgach, men o'z dallolimga sim qoqaman. Aksiyalar narxi haqida nima bilishini so'rayman. Shu tariqa, u endi men bilan bitim tuzadi. Tasavvur qilingki, u bitim tufayli yuzaga kelgan majburiyatlarini bajara olmaydi. Lekin men o'z majburiyatlarimni bajarishim kerak va men yangicha yo'l tutaman — bizni aksiyasi qiziqtirayotgan kompaniyaning vitse-prezidentiga telefon qilib, ziyofatda uchrashaylik deb kelishib olaman. Bu mazkur bitimning ikkinchi bosqichi deylik. Undan aniq javob olish uchun men o'z navbatimda uning bir xizmatini o'rniga

qo'yishim lozim. Biroq nima bilan? Hozircha hech qanday tasavvurga ega emasman. Ziyofatni faqat bir narsani aniqlash uchun uyushtiraman, uning ko'nglini nima bilan ovlash mumkin? Balki unga mashinasi uchun qandaydir maxsus oyna kerakdir? Yoki u qaysidir faxriy lavozimni egallash niyatidadir? Ehtimol, poygaga ruxsatnoma olish ilinjidadir yoki biror mallasoch malak bilan tanishishni istar? Biroq shunday bo'lishi ham mumkinki, u mening asosiy savolimga javob berish uchun imkoni bo'lmas. Bu savolni unga hali berganimcha yo'q. Shuning uchun bir yo'la gazetalardan birining birja yangiliklari bo'limi muharririga telefon qilaman. Axir u ko'p narsani eshitadi va biladi. Lekin undan kerakli axborotni olish uchun, uning o'rniga o'sha muharririga qandaydir boshqa masala bo'yicha xabar izlab topish lozim. Bu nimani bildirishini tushunasizmi? Vik bilan bitta ana shunday kelishuvning o'zi yana uchta qo'shimcha bitimga yo'l ochadi.

— Ha, bu yerda hammasi ayyorona uyg'unlashib ketyapti, — dedi Palmer.

— E-e, bu hali oddiy narsalar. Endi o'z do'koni uchun litsenziya olishga harakat qilayotgan odamning taqdiriga daxldor bitimni olib ko'raylik.

— Bu Kalxeyn uchun uncha murakkab emas.

— Siz buni murakkab emas, deb hisoblaysizmi? Keling, tahlil qilamiz. Eng avvalo Kalxeyn shu maqsadga erishish uchun biror kuch-g'ayrat sarflashi kerakmi, deb o'ylab ko'rish kerak. Men unga faqat kelishuv do'stimning oshnasi uchun zarur ekanini aytdim, biroq undan bu bitim men uchun qanchalik zarurligini ataylab yashirdim. Buning sababi juda oddiy. Bu mening do'stimga — yirik va nufuzli mijozimga kerak! Litsenziyaga muhtoj bo'lgan odam esa, do'stimning xotiniga amakivachcha bo'ladi. Agar amakivachcha litsenziyani olsa, bu mening mijozim uchun jiddiy yengillik tug'diradi va bu uchun mendan cheksiz xursand bo'ladi. Hammadan muhimi shundaki, u mening firmam bilan kelgusi oy uchun kontrakti yangidan tuzadi. Bu, bilsangiz, ellik ming daromad keltiruvchi mijozdir. Lekin agar Vik mening qanchalik manfaatdor ekanimni bilsa, u mening iltimosimni yirik bitimlar sirasiga kiritadi. Unda men u bilan kattaroq hisob-kitob qilishimga to'g'ri keladi.

— Men shubha ham qilmagandimki, siz...

— Vudi, men hali asosiysini aytganimcha yo'q. Bularning hammasi shu qadar aralash-quralash bo'lib ketganki... litsenziya masalasida bunchalik jon kuydirish shartmikin, buni Vikning o'zi hal qilishi kerak. Mening iltimosim unga qanchaga tushishini hali aniqlash lozim. Men uning eski, qadrdon do'stiman. Ko'p jihatdan bir-birimizga bog'liqmiz. Shu boisdan u, balki biror narsa qilishga urinib ko'rar.

— Shunday bo'lishi ham mumkinki, siz bu litsenziyani ololmaysiz, shundaymi? — so'radi Palmer.

— Ehtimol. Men aynan shunday bo'ladi deyayotganim yo'q. Lekin shunday bo'lishi ham mumkin, deb o'ylayapman. Bu o'rinda men tavakkal qilaman. Ayni shu paytda men Vikka majbur bo'lmaslikni afzal ko'raman.

— Nega endi ayni shu paytda? — so'radi Palmer.

— Bu haqda keyin aytaman, — va'da berdi Berns. — Endi Vik mening iltimosimni bajarishga halol urinib ko'radi deb faraz qilaylik. Ehtimol, Vik...

— To'xtang-chi, — uning gapini bo'ldi Palmer, — boshim gangib qoldi.

— Mayli. Bu litsenziyani o'tkazish uchun Vikning turli-tuman usullari bor. Xo'p, siyosat masalalari bo'yicha birinchi saboqqa shuning o'zi yetarli.

— Demak, bugun ertalab sizlar beshta kelishuvni muhokama qildingiz, a?

— Ha, beshta. Lekin ular bajarilguncha yana o'n beshta qo'shimcha bitim paydo bo'ladi...

— I-e, bu geometrik progressiya-ku! Uning oxiri bormi?

— Ular sira tugamaydi, — javob berdi Berns. — Siyosiy bitimlar tug'iladi va ko'payaveradi, ularning har biri o'z navbatida ikkita yoki uchta yangisini vujudga keltiradi. Shu tariqa, har kuni o'nta bitim tuzishimga to'g'ri keladi. Bir hafta davomida u oltmishtaga yetadi. Ular o'z navbatida yuz elliktaga yaqin yangi ahdlashuvlarni vujudga keltiradi... lekin unutmangki, buning hammasini bir o'zim qilaman. Bir so'z bilan aytganda, men katta tomoshada markaziy siymoman...

— Naqadar ta'sirli, — ming'irladi Palmer sharobni simirarkan. — Bu shahar puchmoqlarida shunday

narsalar yuz bermoqdaki, bularni inson ongi qamrab olishga qodir emas!

— Ha, anchagina jo'shqin joy, — rozi bo'ldi Berns. — Men o'z umrimning o'n yilini Gollivud deb ataluvchi yanada quvnoqroq shaharga sarfladim, lekin hozir dadil aytishim mumkinki, ular hozir qilinayotganlarga nisbatan bolalar o'yinchoqlari edi. — Berns o'girilib qaradi, barmog'ini shaqillatib, boshini irg'ab, yonidan o'tayotgan ofitsiantga dedi:

— Biror yaxshi narsa bormi, Genri?

— Qaynatilgan ajoyib mol go'shti bor, mister Berns!

— Juda soz. Faqat yerqalampir qaylasi bilan. Siz-chi, nima xohlaysiz, Vudi?

— Yasmiq sho'rva, — dedi Palmer. — yana haligi, nima edi...

— Rostbifli sendvich, — dedi Berns.

— Ha, shu yaxshi bo'lardi.

— Javdar nonli sendvich, Genri, — buyurtma berdi Berns ofitsiantga. — martinidan yana olib keling.

Berns istagan narsasi — hokimiyat, pul, xotinlar bilan maqtanishi mumkin edi. Hayotda bulardan boshqa yana biror narsa bormidi o'zi? E, ha, aytmoqchi, xudo ham bor edi.

Kutilmaganda Palmer Bernsdan so'rab qoldi:

— Ayting-chi, hayotdagi barcha quvonchlar uchun hali hisob-kitob qilinishiga ishonasizmi?

Berns o'girilib, Palmerga tik qaradi. Uning ko'zlari ehtiyotkorlik bilan Palmerga nazar soldi.

— Hisob-kitob qilish? — qayta so'radi u. — Nima demoqchisiz, men uncha tushunmayapman.

— E, shunchaki, bir gap kelib qoldi-da.

— O'ylaganingizni ayting, endi!

O'ylamasdan aytgan gaplari uchun Palmerning o'zidan jahli chiqib, qo'lini siltab qo'ya qoldi.

— Oddiy gap. Agar hayotda biror yaxshi narsaga erishsang, buning uchun odatda, keyin tovon to'lashingga to'g'ri keladi, deb o'yladim.

— Meni kechirasiz-u, Vudi, — dedi Berns qo'lini Palmerga tekkizib, — lekin hozir siz mening otamga o'xshab gapirayapsiz...

— Qiziq. Mening otam ham nuqul shuni uqtirardilar.

— Mohiyati jihatidan bu musulmonlar tamoyili: Olloh — Qahrli ilohdir.

— Kalvinchilar xudosi ham shunday.

Berns g'alati ishshshaydi, go'yo ular ikkalasi ham hozir bir-biri haqida ko'ngilsiz biror narsani bilib olganday bo'ldilar.

— Aftidan, xudo ikkalamizda ham bittaga o'xshaydi, — dedi u kulimsirab.

— Biroq siz mening savolinga javob bermadingiz? — eslatdi Palmer.

— Men unga qanday javob berishni bilmayman. Siyosatda ish qandayligini yaxshi bilaman. U yerda olayotgan har bir narsang uchun to'lashing kerak, Vudi. Bu katta bozorga o'xshaydi. Unda hamma savdo qiladi va ayirboshlaydi. Biror narsa olmoqchimisiz? Boshqasi istayotgan narsani unga topib ber.

Palmer Bernsning ingliz sigaretasini olib, darhol gugurt chaqdi, Bernsga o'z chaqmoq toshini yoqishga imkon bermadi.

— Agar bu shunday bo'lsa, men tushunmay turibman, nima uchun siz hozir Vik Kalxeynga tazyiq o'tkazmayapsiz, toki u buni yirik kelishuv deb baholasin. — Palmer sigaretani zo'r berib so'rди va muncha bo'sh bo'lmasa bu, deb o'yladi, xuddi ichingga qizitilgan havoni tortayotganga o'xshaysan.

— Men bu kelishuvni asrayapman, do'stim.

— Nima uchun?

— Siz uchun, azizim, — javob berdi Berns va uning lablari alam bilan qisildi. — Faqat siz uchun.

Palmer «Yigirma bir» restoranidan Ist Rivergacha piyoda yurdi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti binosidan shimolroqdagi mo`jazgina sayribog`da bir oz o'tirib dam oldi. Shundagina u oyoqlari og'riyotganini his qildi.

Uning Mak Berns bilan tushlik qilishi hali boshlanmasdan turib, to'satdan uzilib qoldi. Ofitsiant buyurilgan ovqatlarni keltirib, endi likopchalarga qo'yayotganda telefon jiringlab qoldi. Bernsni qaergadir shoshilinch chaqirib qolishdi. U Palmerga taassuf bildirdi-da, kechirim so`rab jo'nab qoldi.

— Yarim soatdan oshmay qaytaman, — deya ishontirdi u Palmerni.

Yigirma daqiqa davomida Palmer dasturxonga tortilgan ovqatlarni tanovul qildi, keyin restorandan chiqib, daryogacha sayr qilib, olti mahallani kesib o'tdi. Kuz bo'lishiga qaramay, havo iliqqina edi, shaharni qoplab turgan bulut quyosh nurini ancha yumshatgandi. Esayotgan yengil shamol daryo yuzasini jimirlatardi. Shatakchi kema ko'pikli iz qoldirib suzib o'tdi. Palmer uni nigohi bilan kuzatib qoldi.

Toza shamol uning chekkasidagi sochlarini silab o'tdi. U birdan o'zini yengil, erkin his qildi. U o'ng'ayroq o'tirib olib, BMT Kotibiyati binosi sahnida bir-birini suratga olayotgan sayyohlarni tomosha qila boshladi.

Oilasi Nyu-Yorkka ko'chib kelganidan beri u birinchi marta o'zi xohlagan narsani qildi. Odatda, uning ish kuni kimdir tomonidan belgilangan bitmas-tuganmas konferentsiyalar, tushliklar, ziyofatlar, turli qo'mitalarning majlislari, amaliy strategiya masalalari bo'yicha uchrashuvlar, ma'ruzalar, reportyorlar bilan muloqotlar, qo'l qisib ko'rishishlar va suhbatlardan iborat bo'lardi. Bunday suhbatlar uning hiqildog'iga kelgandi.

Uning ishdan tashqarigi hayoti ertalablari oilasi davrasida nonushta qilayotib, teatrlarga borish, dam olish kunlarini Edising qarindoshi Jeyning Roklendkountidagi uyida qanday o'tkazishi haqida borardi. Qolgan vaqti turli-tuman marosim tadbirlarida o'tardi. Ana shunday tadbirlarni, turli ko'ngilochar o'yinlarda bolalari, xotini bilan o'tgan shirin onlarini eslab ketdi...

Palmer Ozodlik haykalini miriqib tomosha qilish, Fulton baliq bozorida aylanish, Empayr steyt bilding tomiga chiqib atrofni kuzatish ham xalaqit bermasdi, degan qarorga keldi. Lekin gap bunda emasdi. Uning o'zi uchun yangi bo'lgan bu shaharda aylangisi kelardi...

— ... bir marhamat qilolmaysizmi? — jarangladi uning tepasida ayol ovozi.

Palmer seskanib, boshini ko'tardi-da, ko'zlarini tepasida nimalardir deyayotgan ayolga tikdi.

— Kechirasiz, nima dedingiz? — so'radi Palmer.

— E-e, bu juda oson. Siz mana bu yerga qaraysiz, keyin mana bu tugmachani bosasiz, — dedi ayol.

U o'zidan nima istashayotganini nihoyat tushunib, asta o'rnidan turdi. Oldida turgan ayol undan eri va qizchasi bilan birga suratga tushirishni so'rayotgandi. Palmer «mayli» deganday bosh irg'ab, uning qo'lidan fotoapparatni oldi.

— Biz suratda BMT binosi ham ko'rinib turishini xohlaymiz, — dedi ayol va sochlarini to'g'rilaganicha eri bilan qizi yoniga shoshildi.

Palmer fotoapparatni to'g'rilab, endi tugmachani bosaman deganda:

— To'xtang, — deb baqirdi ayol va qizchasining yelkasiga turtdi. — Jilmayib tur, qaddingni rostla va jilmayib tur.

Palmer kutib turdi. U bu narsa qizchanning joniga tekkanini payqadi. Otasi uyalingirab turardi. O'zini tutishidan, «meni tajovuzkor xotininga o'xshatma» degani sezilib turardi. Qizcha nihoyat o'zini bosib oldi, tabassum qildi va Palmer «shirq» etib tugmachani bosdi.

— Tashakkur! — qichqirdi ayol. Qizchasini qo'lga ko'tarib olgan eri yuzini xotining orqasiga yashirib, minnatdorchilik bildirdi. Ayol fotoapparatni olarkan, Palmerga shunday iliq tabassum hadya etdiki, u o'zini juda noqulay sezdi.

— Arzimaydi, marhamat, — dedi ming'irlab va o'zini yengil his etib o'rindiqqa cho'kdi.

Palmer ularning Birinchi avenyu tomon yurishayotganini ko'rib turardi, lekin ayol zo'r berib chapga,

BMT binosi tomon intilardi. Erkak qo'li bilan o'ng tomonni ko'rsatib, o'jarlik bilan o'sha yoqqa yurardi.

«Mana oilaviy qalblar mushtarakligi», — o'ylardi Palmer ular ketidan qarab. Ular o'zaro bahslashib va imo-ishora qilganча ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Faqat qizchaniq qichqiriqlarigina ancha vaqt eshitilib turdi. Ular sayyohlar to'dasiga aralashib, butunlay ko'rinmay ketdilar...

Palmer o'girildi-da, nigohini daryoga qaratdi. Shatakchi kemandiq ko'pikli izi hanuz tarqalmagan va daryo yuzida qalqib turardi.

Manfaatlar mushtarakligi, birdamlik, o'yladi yana Palmer. Oddiy hayvoniy hirs, arziyas unsurdan biror arziqulik narsa yaratishga intilish. Bizni o'rab turgan hamma narsa ikkinchi darajali unsurga aylanadi, kundan-kunga yomonlashib boradi. Bu qanchalik tez yuz berayotganini hech kim sezmaydi ham, o'ylardi Palmer. Mahsulotlar sifati tushib ketyapti, arzonroq bo'lsa bo'lgani, tezroq sotilsa bas. Ajablanarlisi shundaki, bundan hech kim shikoyat qilmaydi. Buni hech kim sezmayotganga o'xshaydi.

Odamlar televizorlarini qanday sozlashlarini kuzatishning o'zi kifoya, fikr yuritardi Palmer. Televizordagi ko'plab quloqlar nimaga xizmat qilishini hech kim o'ylab ko'rmaydi. Shuning uchun ham televizor ekranidagi tasvirlar qing'ir-qiyshiq, goh yorug', goh qorong'i ko'rinadi. Ana shu quloqlar yordamida biror narsa qilish mumkin, lekin sozlay boshlasang, haligi yomon va xira tasvirlar ham o'chib qo'ya qoladi. Yaxshisi, unga tegmagan, qulog'ini buramagan ma'qul. Baribir, bir yildan so'ng televizorning yangi rusumdagilari chiqadi, yangi, «aqli» antennalar paydo bo'ladi. Tashvishlanish shartmi?

Palmer cho'ntagidan sigareta olib, maza qilib chekdi, uni o'rab turgan toza havoga tamaki tutunini purkadi. Biroq yengil shabada shu zahotiyuq uni tarqatib yubordi.

Kayfiyatni sozlab olish kerak, o'yladi Palmer. Kayfiyatga berilib ketsa bo'lmaydi. U o'rnidan turdi, sigaretani yerga tashladi, poshnasi bilan bosib o'chirdi-da, Birinchi avenyu bo'ylab shaharning ishbilarmonlar mahallasiga qarab yurdi. Berkxardt bilan uchrashuvgacha hali ikki soatcha bor edi. Bemalol shaharni sayr qilib, istagan narsasini ko'rishga vaqt yetarli.

Shunday qilish o'rniga, Palmer BMT binosiga borib, avtomat telefondan bankka sim qoqdi.

— Mister Palmer, biz anchadan beri sizni izlayapmiz, — javob berdi mallasoch kotiba. Uning ovozida ehtirom bilan birga g'azablanish ohangi ham bor edi.

Uni eshita turib, Palmer o'ziga shaxsiy kotiba yollash kerak, degan qarorga keldi. Qandaydir ellik yoshlardagi oilali ayol bo'lgani ma'qul. U mening manfaatlarimni himoya qilishi mumkin.

— Men bo'limlarimiz ishini tekshirgani borgandim, — javob berdi Palmer va shu zahotiyuq aldashinga hojat bormidi o'zi, deb hayron bo'ldi.

— Shunaqami, kechirasiz, — dedi kotiba qiz. Uning javobi ohangidan Palmer shuni tushundiki, uning yo'qligiga zarur sabab borligidan kotiba xursand bo'ldi. — Janob Berns besh marta telefon qildi, — davom etdi kotiba, «besh» so'ziga urg'u berib.

— Uning o'zi telefon qildimi?

— Ha, shaxsan o'zi besh marta telefon qildi, — dedi kotiba qiz.

— Agar u yana telefon qilsa, unga tushuntiringlar, men hozir bandman. Yo'l-yo'lakay u bilan bog'lanaman. Soat beshlarda yoki yaxshisi beshu o'n beshlarda meni «Yunion lig» klubidan topishlari mumkin.

— Mister Berkxardt bilan birgami, — qo'shimcha qildi kotiba, — Sizga mashinangiz kerak bo'lmaydimi?

— Yo'q, yana qanaqa gaplar?

— Kunduzgi ikkinchi va uchinchi pochtalar olindi.

— Jiddiy gap bormi?

— Men pochtani ochganim yo'q, mister Palmer.

— Mayli. Yana nima?

— Qandaydir mister Lumis qo'ng'iroq qildi.

— Jozef Lumismi?

— Uning kotibi. U keyinroq yana telefon qilaman, dedi.

— Unga ham klubdaligimizni ayting. Bori shumi?

— Tag'in mister Merchendaldan memorandum olindi.

Palmer ko'zini yumib, «uf»ladi, jahli chiqqanini bildirmaslikka urindi. Kotiba qizdan g'azablanishi uchun hech qanday asos yo'q edi. U o'z majburiyatini sidqidildan bajarayotgandi.

— Rahmat sizga, — dedi u. — Men boshqa telefon qilmayman. Agar biror shoshilinch narsa bo'lsa meni «Yunion lig» klubidan topasiz.

Palmer go'shakni ildi, avtomatga yana tanga tashladi-da, uy telefoni raqamini terdi. Go'shakdan ayol ovozi eshitildi.

— Edis? — so'radi Palmer.

— Salom, dada.

— Jerri, oying qanilar?

— Yangi uyimizda, ishchilarga nima qilish kerakligini tushuntirayaptilar.

— A-a, shunaqami? Jerri, Bentlida seni nimalarga o'rgatishayapti o'zi?

— Nimagayam o'rgatishardi, o'lguday zerikarli!

— Unda oddiy maktabda o'qiganing ma'qul emasmi? Qaytaga ancha arzonga tushardi. Seni o'sha yoqqa o'tkazib qo'yaymi?

— Rostdanmi? Jiddiy aytayapsizmi, dada? — xitob qildi Jerri. — Juda zo'r-ku! Esini yegan morfiychilar va cho'ntagida pichoq olib yuruvchi bezorilar bilan bir maktabga borish! Qanday yaxshi! Unda men o'sha yerda o'qishni boshlayman.

— Oyingga berib qo'yish uchun yozib ol: Men bugun bir oz kech qolaman. Berkxardt bilan klubda uchrashuvim bor ...

— Dada? — go'shakdan katta o'g'lining ovozi eshitildi. — Marhamat qilib ayting-chi, «Yunayted benk» hisobidagi pulning miqdori «Benk of Amerika»nikidan qancha oshiq.

Kutilmagan bunday savoldan Palmerning g'azabi qaynab ketdi.

— Senga nima bo'ldi? Banklardan birini yoki ikkalasini ham qo'lga kiritmoqchimisan?

— Bu menga maktab uchun kerak. Men iqtisodiy mavzuda insho yozmoqchiman.

— Insho «Men bilgan banklar» degan mavzuda bo'ladi, dada, — gapga aralashdi Jerri.

— Men hozir senga bankdagi vaziyatni aniq aytolmayman, — javob berdi Palmer o'g'liga. — Lekin manzara taxminan shunday: «Benk of Amerika»ning hozir to'qqiz milliard besh yuz million miqdorida puli bor, bizda esa, taxminan, o'n bir milliardga yaqin. Men faqat qo'yilgan pullarni nazarda tutayapman. Aktivlar bilan sarmoyamiz miqdori o'n ikki milliarddan oshadi.

— «Cheyz Manxetten»da-chi?

— Yetti milliardga yaqin.

— «Fyorst neshnl siti benk»da-chi?

— Bundan sal kamroq.

— Sen kecha mendan olgan o'n tsentni qaytarib berganing yo'q, — eslatdi akasiga Jerri.

— «Menyufekchers benk», va «Kemikl benk»larda ahvol qanaqa?

— Ularning har biri uch milliarddan ancha kamroq mablag'ga ega. Nega endi sen singlingdan qarzga pul olayapsan.

— Yana qarzni qaytarib bermayapsan, — dedi Jerri.

— Chunki men inqirozga uchradim, — tushuntirdi Vudi.

— Vudi chindan ham lapashangga aylanib borayapti, — akasining gapini bo'ldi Jerri. — Uyga qachon kelasiz, dada?

— Bugun sal kechroq boraman, — dedi Palmer.

— Mening soat to'qqizda yotishimni bilasiz. Uxlab qolmasimdan yetib keling.

— Albatta, vaqtliroq boraman.

— Qanday yaxshi, — qichqirdi Jerri, — hozircha, dada! — Shu zahoti Vudining ovozi yangradi: — Dada, men hazillashayotganim yo'q...

— Qaytib borganimda gaplashamiz. Xayr, — o'g'lining gapini bo'ldi Palmer. Telefon hujrasidan

chiqarkan, yonidan o'tib ketayotgan odamlar oqimini kuzatib turib qoldi. Ularning harakati tinmasdi. Qaerdadir shu bino yonida va unga tutash uyda katta maosh oladigan amaldorlar ham kurrai zaminda tinchlikni asrab qolish uchun qandaydir harakat qilayotirlar. Ular o'zlarining kichik tomoshalarini mo'jazgina idoralarda va kattagina tomoshagohlarda ko'rsatib, asta-sekin urush boshlangan tomonga siljib borayaptilar, lekin qandaydir yo'l bilan tinchlikni saqlab turibdilar.

Bu chindan ham hayratlanarli edi. Yana shu narsa battar hayron qoldirardiki, sayyohlardan tashkil topgan bu ulkan ochofat yuhoni BMT binosida hech narsa qiziqtirmasdi. Ular uchun bu yerda duch kelgan biror mashhur shaxsga ko'z suzish, mayda-chuyda sovg'a-salomlar olish, hashamatli bino sahnida suratga tushish bo'lsa bas.

BMT binosidan keyin Palmer general Grant qabriga duch keldi. Nihoyat u klubga yetib kelganida soat hali besh bo'lmagandi. Charchaganidan oyoqlari chinakam og'rib qoldi. Palmer darhol yumshoqqina charm divanga cho'kdi-da, viski buyurdi va Berkxardtni kuta boshladi.

Palmer bu klub a'zoliciga urushdan oldin qabul qilingan edi, undagi xizmat sifatining yuqoriligiga bir necha bor iqror bo'lgandi. Shularni o'ylab o'tirganida yoniga bir xizmatchi keldi-da, qo'lga beshta xabarnoma tutqazdi.

— Ser, ushbu nomalar siz uchun qoldirilgan.

Palmer unga minnatdorlik bildirib, nomaga ko'z yugurtirdi. Ularning beshtasidan to'rttasida Mak Berns telefon qilgani yozilgandi. U soat 4.40 dan 4.55 gacha telefon qilibdi. Demak, Palmerning klubga kelishidan bir daqiqa oldin ham sim qoqqan ekan-da. Keyingi xatda Berkxardt belgilangan vaqtdan oldinroq kelishi yozilgandi. Chunki uning keyingi uchrashuv soat oltiga belgilangan emish.

Hamisha mana shunaqa bo'ladi, dedi o'ziga Palmer, g'ijimlanagan xatlarni cho'ntagiga solarkan. Ular endi egar ustida mahkam o'tirishibdi.

U asta o'rnidan turib, telefon hujrasiga qarab yurdi. Uni Berns idorasi bilan bog'lashdi.

— Vudi, azizim, nima bo'ldi?

— Men sizdan so'ramoqchiman: nima bo'ldi? — deb.

— Ya'ni nima uchun aynan «nima bo'ldi?» — hayron bo'lib so'radi Berns.

— Axir, siz meni izlabsiz-ku, shunday emasmi?

— Ha-a, gap bu yoqda deng, — ming'irladi Berns, keyin ehtiyotsizlik bilan qo'shib qo'ydi: — E-e, hech gap yo'q. Men faqat xafa bo'ldingiz deb o'yladim.

— Nima uchun?

— Uchrashuvimiz barbod bo'lgani uchun-da. Men qaytib borsam, siz ketib qolibsiz.

— Siz aytdingiz-ku, yarim soatdan so'ng qaytib kelaman deb, — eslatdi unga Palmer.

— Ha-ya, rost. Rojdestvo bayramiga menga yangi soat sovg'a qilishingiz mumkin. — Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Palmer birdan tushundiki, Berns barbod bo'lgan uchrashuv uchun aybni unga to'nkashi hech gap emas. Palmerni qoldirib ketgani uchun o'zini aybdor hisoblagan Berns eng avvalo uning qanchalik ranjiganini tekshirib ko'rmoqchi edi, keyin esa yuz bergan ko'ngilsizlikning hammasi uchun mas'uliyatni unga yuklamoqchi bo'ldi.

— Sizga ketishga to'g'ri kelganidan juda afsusdaman, — dedi Palmer bir oz sukutdan so'ng. — Sizni juda yaxshi tushunib turibman va aslo ranjiganim yo'q. — Yana jimlik cho'kdi. Palmer Berns hozir hammasini bosdi-bosdi qiladi va nizo barham topadi deb kutgan edi.

— Juda bema'ni ish bo'ldi-da, — bo'sh kelmasdi Berns. — Gap shundaki, men siz bilan ikkita o'ta muhim masalani muhokama qilmoqchi edim. Endi bo'lsa, qachon uchrashishimni ham bilmayman, jin ursin.

— Ha, juda bema'ni ish, — tasdiqladi Palmer, adashganini tushunib. — Bu haqda tashvish tortmang, Mak, men hecham xafa emasman.

— Nima qilishni o'zim ham bilmayman, azizim, — dedi Berns, bir oz jimlikdan so'ng. — Biz siz bilan ancha jiddiy ahvolga tushib qoldik.

— Mak, — dedi Palmer. Baribir bugun hech narsa qila olmasdik.

— Mayli, — dedi Berns. — Bugun kechqurun uchrashuvim bor. Soat 11. 30 da biznikiga boringlar.

— Bugunmi?

— Ha, bugun, — tasdiqladi Berns. — Bugun kechqurun. Aks holda uchrashuvimiz bir hafta orqaga suriladi.

— Bilmadim, bora olarmikanman. Men keyinroq xabar qilaman. Qaerga sim qoqay?

— Soat nechada?

— Sakkiz bilan to'qqiz orasida.

— «Shambor» oteliga.

— Men telefon qilaman, ko'rishguncha. — Palmer javobini kutib o'tirmay go'shakni ildi. U Bernsdan, o'zidan va shu ahmoqona arzimas o'yinda qatnashishga majbur ekanidan juda g'azabda edi.

U yana divanga o'tirdi va qolgan viskini qultumlab icha boshladi. Palmer uzil-kesil shunga ishonch hosil qildiki, barcha qiyinchiliklar avval-boshdanoq vakolat muammosi tufayli ekan. Berkxardt bankda unga ikkinchi shaxs darajasini bergan, lekin bu hokimiyatdan qay taxlitda foydalanish vakolatini belgilamagan edi. Berns buni tushunib, ikkovidan qaysi biri rahbarlik qilishi kerakligini aniqlashtirishga urinmoqda. Uning doirasidagi erkaklar umr bo'yi shu o'yin bilan band edilar. Ular teng vaziyatda bo'la turib ham xotirjam bo'lmasdilar va kim past, kim baland ekanini aniqlashga urinardilar.

Palmer avvallari bu o'yinda qatnashmasdi — otasi ishining vorisi ekanligi unga ustunlik berardi. Bu faqat ko'rinishdangina shunaqa edi. U birdan ertalab Jo Lumis telefon qilganini eslab qoldi. Bu qo'ng'iroq haqida qariyaga aytish kerakmikin?

Qiziq, o'yladi Palmer, biz, axir, Lumis bilan tanish ham emasmiz. Ehtimol, qachonlardir otamni ko'rgandir. Jamg'arma banklariga qarshi kurash bilan bog'liq biror muammo Jo Lumisni menga telefon qilishga majbur qilgandir. Nima bu — yarashish yo'lini qidirishmi? Ehtiyotkorlikmi? Yo sotib olishga urinishmi?

— Vudi! — baland ovozda chaqirdi uni Berkxardt.

Palmer cho'chib tushdi va qariyaga o'girildi. Berkxardt uning yoniga, divanga kelib o'tirib ulgurgandi.

— Xatimni senga berib ulgurishganidan juda xursandman. Men tezda qaytib ketaman. Nima ichayapsan, jin ursin? Nahotki suv?

— Qariyb shunaqa, — javob berdi Palmer.

— Eski shotland viskisidan olib keling, — dedi u yetib kelgan ofitsiantga. — So'ng Palmerga o'girilib, uning tizzasiga shapatiladi-da: — Xo'sh, Berns bilan tushlik qanday o'tdi? — deb so'radi.

Palmer kuldi:

— Bu tushlikning eng qisqa turi bo'ldi: ovqatni olib kelishganda, Bernsni qayoqqadir «yarim soatga» chaqirib qolishdi. Men bir o'zim ovqatlandim va jo'navordim.

— Shunday, turding-u, jo'navordingmi? — dedi Berkxardt g'azab bilan.

— U so'raganiday, «yarim soat» kutib turdim.

— Nima, u kelmadimi?

— Kelib, kechirim so'ramadimi demoqchimisiz? — uning gapini bo'ldi Palmer. Har holda u o'zini aybdor his etdi.

— Men umuman buni nazarda tutganim yo'q. U o'zi xafa bo'lmadimi, shuni bilmoqchiydim. O'zing bilasan-ku, bu greklarni..

Palmer chuqur ho'rsindi, g'azabini zo'rg'a jilovladi.

— Birinchidan, u livanlik. Keyin esa, quloq soling, — u sekin, bosiq ovozda boshladi. — Bu odamning tana terisi «sherman» tankining zirhiga o'xshaydi. Uncha-munchaga teshib bo'lmaydi. Hozir masala ko'ndalang turibdi: yo siz menga unga o'zim xohlaganimdek muomala qilish imkonini berasiz, yoxud bank tomonidan sarflanayotgan kattagina puldan berasiz, toki men o'z joyimda yoki, aniqrog'i, sizning ajoyib xonangizda o'tiray, axir u bo'm-bo'sh turibdi.

— Men senga to'la ishona...

— Agar shunday bo'lsa, qani buni isbotlashga bir urinib ko'ring-chi, — dedi uning so'zini qo'pollik

bilan bo'lib Palmer. Keyin jim qoldi va yelkalarini qisdi. — Juda afsusdaman, lekin menda ta'qib qilish belgilari paydo bo'layotir. Bu Berns menga shunday ta'sir qilayotganidan dalolat, — qo'shib qo'ydi u.

Berkxardt javob bermadi. Jimlik yanada cho'zildi, chunki ofitsiant viski olib kelgandi. Qadahdagi muz parchalarini aralashtirarkan, Berkxardt hamon jim o'tirardi. Palmer qariya meni kechirim so'rashga majbur etmoqchi shekilli, deb sukut saqlar va bu yog'i nima bo'lishini kutardi.

Viski quyilgan qadahni labiga tekkizib, Berkxardt Palmerga o'girilib so'radi:

— Bugun tushdan keyin qaerlarda qolib ketding?

Palmerning javob berishga shoshilmayotganini ko'rib, Berkxardt qo'shimcha qilishga shoshildi:

— Men qamchi bilan savalash uchun so'rayotganim yo'q. Mening rostdan ham buni bilgim kelayapti.

— Sayr qildim. Vaqtni o'tkazish uchun sayribog'dagi kursida o'tirdim.

Berkxardt o'zicha nimadir deb to'ng'illadi-da, viskidan bir qultum ichib, boshini quyi soldi.

— Demak, — dedi u, — men bu masalani o'z vaqtida ko'targan ekanman-da?

— Qanaqa masalani?

— Sening Edis bilan munosabating masalasini, — tishini g'ichirlatdi Berkxardt. — Ayni o'z vaqtida, keragidan bir daqiqqa ham oldinroq emas, — takrorladi u tantavor ohangda.

— Demak, ertalab telefonda siz shu haqda gapirgan ekansiz-da? — so'radi Palmer. — Avvallari buning sizga aloqasi yo'q edi. Endi esa, vaziyat o'zgargach, bu sizning ishingiz bo'lib qolibdi-da?

— Mutlaqo to'g'ri, — rozi bo'ldi Berkxardt.

— Edis bilan mening oramda nimalar bo'layotganini ehtimol siz tushuntirib berarsiz?

— Yo'q, albatta, — dedi Berkxardt.

— Kimdir ayta oladimi?

— Faqat sening o'zing. Yoki Edis. — Berkxardt darhol qo'shib qo'ydi: — Men, tabiiyki, Edisga biror narsa demoqchi emasman.

Palmer g'azabi so'na boshlaganini his etdi. Uning Berkxardtga rahmi kelib ketdi. Qariya hazilakam tashvish tortib, qayg'uqa botmagandi, axir?!

— Bu chetdan qaraganda qanday ko'rinadi? — so'radi Palmer do'stona ohangda. — Juda yomonmi?

— Yo'q, aslo yo'q, — dedi qariya, qo'lidagi qadahdan ko'z uzmay. — Bu sen uchun, Vudi, juda qaltis mavzu ekanini tushunib turibman. Men otangni juda yaxshi bilardim. Otangchalik bo'lmasa-da, onangni ham bilardim... U so'zini davom ettirgisi kelmadi.

O'n uchinchi bob

Klubning ichimliklar taklif qilinadigan pastki zali qariyb bo'shab qoldi. Berkxardtning ketganiga ham ikki soatcha bo'ldi. Palmer g'amgin, xayollari parishon, miyasida turli fikrlar g'ujg'on o'ynardi. Boshlig'i tomonidan o'ylangan dilkash suhbat butunlay barbod bo'ldi. Bechora Berkxardt. Bechora Edis. Bechora «Yunayted benk».

Palmer viskisini oxirigacha icharkan, eslashga urindi, bu ikkinchi, uchinchi yoki to'rtinchi qadahmidi... so'ng o'rnidan turdi, zalga ko'z yugurtirdi va yana o'tirdi. U hali yana nimalar bo'lishini o'ylab dahshatga tushdi. Albatta, u tanlab olishi mumkin edi. Hozir yuz berayotgan narsa, hatto ko'p yillar mobaynida bo'lib o'tgan voqealar unga qandaydir yovuz kuch tomonidan tiqishtirilgani yo'q edi. Har holda unda hali tanlash huquqi bor edi. Mana, bugungi kechani olib ko'raylik. Palmer uyga, xotining oldiga borishi va u bilan biror joyga; chaqirilgan ziyofatga, teatr tomoshasiga yoki qandaydir yig'ilishga tashrif buyurishi mumkin edi. Biroq unda boshqa imkon ham bor edi — Berns bilan uchrashishi mumkin edi.

— Ha, bunday tanlovning havas qiladigan joyi yo'q, — dedi o'ziga-o'zi Palmer, har ikki yovuzlikdan

qaysi biri kamroq ekanini aniqlash ham qiyin.

U ofitsiantga yana bir qadah viski keltirishini buyurdi va xayolan Berkxardt bilan bo'lib o'tgan suhbatga qaytdi. Uning birinchi vitse-prezidenti xotini bilan ajrashmoqchi yoki uni tashlab ketmoqchi ekanidan ham xavfsirayotgan qariyani xotirjam qilishga erishdimi yoki yo'qmi, shuni aniqlashga urinib ko'rdi. Berkxardt Palmerning oilaviy kelishmovchiliklari bankdagi ishiga ta'sir qilishidan qo'rqardi. Boshlig'ining ta'nalari ahamiyat berishga arziydimi o'zi, deya o'zidan so'rardi Palmer. Qariyaga bergan javoblari yetarli darajada ishonchli chiqdimikin? Qari qirchang'ini ishontira oldimi? Ehtimol.

Ofitsiant unga viski tutdi. Palmer maydalab ichishga kirishdi. Xayolan yana tanlov muammosiga qaytdi. Holbuki, tanlaydigan narsaning o'zi tayinsiz edi va u nimani tanlashni ham bilmasdi.

Hal qilinmagan muammolar, umuman olganda mayda-chuyda narsalar edi. Biroq hozir nimadir qilish kerak. U o'rnidan turdi va qo'lida qadah bilan telefonga qarab yurdi.

U telefonchi qizga uy telefoni raqamini aytib, uni ulab berishga buyurdi. Ichganidan so'ng fikri tiniqlashib, u hozir nima qilmoqchi bo'layotganin yaxshi anglab turibdi. Palmer ichgan paytida ongida nimadir oydinlashganday bo'lardi. Bu, odatda, uchinchi qadah bilan to'rtinchi qadah o'rtasida yuz berardi. Shunda u xolisonilla mulohaza yuritardi. Ayni shunday damlarda u o'z qobig'idan ajralib chiqib, bir chekkaga borib, yuz berayotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turganini his qilardi. Telefonchi qiz uyini ulab berishini kutarkan, hozir faqat bir chekkadagina emas, hatto o'zimdand ham balandroqda turibman degan qarorga keldi.

Shunday ajoyib daqiqalarda barcha ziddiyatli harakatlarida va eng murakkab vaziyatlarda ham masalani to'g'ri hal qilishga qodir edi. Masalan, uning hozirgi vaziyatda o'zini tutishini olaylik. U telefon orqali uyi bilan bog'lanib, qat'iy qarorga kelishi lozim bo'lgan odam rolini o'ynayapti. U dadil odam. Qarorning yechimi yetilayapti.

Yo'q. Bularning hammasi mug'ambirlik, xolos.

U qo'ng'iroqni eshitdi: uning uyida telefon jiringladi. Palmer — chetdan kuzatuvchi — ushbu qo'ng'iroqning haqiqiy maqsadini mutlaqo aniq ko'rib turibdi. Go'shakni qo'lida ushlab turgan Palmerga bahona kerak, u butun mas'uliyatni xotiniga ag'darish uchun shunday qilayapti. Xotini esa bundan hatto shubha ham qilmayotir. Biroq tanlovni aynan u, faqat xotining o'zi hal qilishi lozim.

— Allo?

— Jerri, oyingni telefonga chaqir.

— O'sha oyining o'zi menman. Nima gap, azizim?

— Iy-e, bu senmisan, Edis? — Palmer bir zumga jimib qoldi va tili bilan lablarini yaladi. — Men klubdan telefon qilayapman.

— Bilaman, u yerda Leyn bilan birgasizlar.

— Qaerdan sim qoqayapsan? Voy, ha. Xo'p, mayli.

— Ishlar cho'zilib ketdimi?

— Battar bo'ldi, — javob berdi Palmer, yolg'on gapirmaslik uchun javobdan qochib. — Men keyinroq Berns bilan yana uchrashuvim kerak.

— Keyinroq degani qachon?

— Qachonligini hali aniq bilmayman, — dedi yana yolg'on gapirishdan qochib, lekin haqiqatni gapirishni ham ep ko'rmay. — Bugun bizda biror ish belgilanganmidi?

— Biror rejamiz yo'q edi.

— Nahotki hech narsa?

— Men faqat bolalarni ertaroq ovqatlantirmoqchi edim, keyin ikkalamiz bemalol ovqatlanardik.

— Hech qanaqa kechalarga, tomoshalarga takliflar-chi? Hech qanaqa qabullar yo'qmi? — so'radi u.

— Yo'q.

Edising bir bo'g'inli javobi juda keskin eshitildi. Gapning ohangidan Palmer uning dilini og'ritganini tushundi.

— Ey, xudo, juda afsusdaman, — ingradi Palmer. — Shuncha vaqt mobaynida ikkalamiz birga o'tkazadigan yagona oqshom. Shuni ham men buzsam-a!

— Men ham juda afsusdaman, azizim, — endi ancha yumshoq javob berdi Edis. — Mayli, hechqisi yo'q. Boshqa safar o'zimiz uchun ana shunday biror kecha toparmiz yana, — qo'shib qo'ydi xonim. Uning odatdagi ohangda gapira boshlagani Palmerda shubha uyg'otdi: uning uyda o'rnatgan qat'iy kun tartibi erining kelishi bilan o'zgarishi dargumon.

— Men issiqqina hammomga tushaman-da, ertaroq yotib uxlayman, — dedi Edis.

— Ha, sen haqsan, — rozi bo'ldi Palmer. — Men uyga soat nechada qaytishimni aniq ayta olmayman.

— Vaqtini yaxshi o'tkazishga harakat qil, azizim.

— Rahmat. Demak, meni kutmasdan yotib uxlayver.

— Yaxshi. Xayrli kech, — dedi Edis.

Suhbat tugadi. Palmer go'shakni ildi. U qo'lida qadah bilan divanga qaytarkan, bolalariga xayrli kech tilashni judayam istaganini eslab qoldi.

Palmer o'tirgach, qo'lidagi qadahni uning olidida turgan pastqam jurnal stolchasining eng o'rtasiga qo'ydi. Bir chekkada turib ushbu sahnani kuzatayotgan boshqa Palmer esa so'radi: stolcha yonida o'tirgan Palmer bolalariga xayrli kech tilashni shunchalar xohlagandimi? Hozir telefonga qaytib borib yana sim qoqish uchun uning istagi yetarli darajada kuchlimikan? Lekin shu zumda uning o'zini anglash qobiliyati so'ndi. Palmer nimadir deb to'ng'illadi, balki uni ziyraklik bilan kuzatib turgan o'zining ikkinchi shaxsini cho'chitib yuborgandir. Palmerning ikki shaxsi yagona butunlikka birlashib, shaxsiy qalbini tutib turishdan hech qanday ma'ni yo'q deb o'zini ishontira boshladi.

Nima bo'lganda ham u bir narsaga erishdi: bugungi oqshom xususida Palmer uchun qarorni Edis qabul qildi. U oilasi xotirjamligi uchun Bernsning ahamiyatini hisobga olib, hech qanday tashvishga o'rin qoldirmadi va shu bilan qismatini tanlaganini o'zi ham bilmay qoldi. Shu tariqa Edis sog'lom fikrli va tushunadigan rafiqa ekanini namoyon qildi.

Kutilmaganda paydo bo'lgan taqdir hazilidan gangigan Palmer hali lab tekkizilmagan qadahga e'tibor ham bermay o'rnidan turdi. Asta-sekin lift tomonga yurarkan, Berns bilan uchrashuvgacha qolgan bir necha soatlik vaqtini qanday o'tkazsam ekan deb o'ylab borardi. Buning ustiga uyga bormaslikka qaror berganidan o'zi ham hayron edi.

U shu yerda, klubda qolishi, ovqatlanishi, keyin jurnallarni ko'zdan kechirishi yoki belgilangan vaqtgacha mizg'ib olishi ham mumkin edi. Liftning eshigi ochilib, Palmer ichkari kirdi.

— Mister Palmer, siz pastgami?

— Ha, — dedi u.

Ko'cha hali yorug', lekin ancha sovuq tushgandi. Palmer Park-avenyu bo'ylab bir necha mahalla yurdi. Grand Sentral-Terminal vokzaliga qirqinchi ko'cha bilan yurib, mashinalarning tinimsiz harakatini kuzatdi. Qirq ikkinchi ko'chaga yetgach, u g'arbga burildi va Beshinchi avenyuga chiqdi. Kutubxona oldida to'xtab, kursida birpas o'tirsam deb o'yladi. Havo sovuq bo'lgani uchun bu fikridan qaytdi. Nihoyat, bank binosiga yetib keldi.

U tepaga ko'tarilib, o'z xonasiga borishga va bolalari aks etgan haykalni ko'rgisi keldi. Bu — uning uyiga bormagani va bolalariga xayrli kech tilamagani uchun tazarru bo'ladi, deb o'yladi.

Shu payt hujrada qorovulning qorasi ko'rindi.

— Mister Palmer, ser, yana ishlamoqchisiz, shekilli? — hazillashdi u.

— Yarim kun bu yerda, yarim kun u yerda, — ming'irladi javoban Palmer hazil ohangida.

U lift tugmasini bosdi, eshiklar ochildi. Ichkari kimgach, «YuQ» tugmasini bosdi.

— Tag'in, haligi... — eshitildi orqadan qorovulning ovozi.

— Nima dedingiz? — qayta so'radi Palmer. Lekin liftning eshigi yopilib, qorovulning ovozi o'rniga, «siz yuqori qavatga chiqayapsiz» degan so'zlar yangradi.

Palmer liftidan chiqib birpas kechki osmon ufqiga zavq bilan qarab turdi. Keyin yo'lak bo'ylab o'z xonasiga qarab yurdi. Elektr tugmasini bosgan edi, xona kunduzgidek yorug' nur bilan to'ldi. Palmer haykal yoniga keldi. So'ng ish stoliga qarab yurdi. Stolga o'rnatilgan tugmani bosgan edi orqadagi devor javon ochildi. Javon tokchasining olis burchagida «Old Fittsjerald» viskisining shishasi turardi.

Shishaga qarab turgan Palmerni birdan ayol kulgisi eshitildi. U keskin orqaga o'girildi, xonada hech kim yo'q edi. Qiziq, qayoqdan keldi bu ayol kulgisi?

Palmer eshik oldiga keldi va ostonada to'xtadi. Yo'lakning narigi tomonidan qandaydir ovozlar kelardi. Palmer yumshoq gilam ustida ohista yurib eshikkacha keldi. Bu reklama va axborot bo'limining eshigi edi. U xona ichkarisiga mo'raladi. Yorug' nurdan uning ko'zlari qamashib ketdi. Bu bo'lim xonasi ham Palmerning xonasi singari oddiygina ekan. Unda sakkiz kishi ishlardi. Xonaning yarmi to'sib qo'yilgan edi. Bu yerda bankning reklama va axborot masalalari bilan shug'ullanuvchi vitse-prezident o'tirishi kerak edi. Biroq bankda bu lavozimda hech kim yo'q edi: Berkxardt uni ortiqcha deb hisoblardi. Bunda u Palmerning tajribasini e'tiborga olib shunday o'ylardi. Mazkur bo'lim mudiri vazifasini miss Kleri bajarardi. Bo'limda bundan tashqari yana ikkita xodim, ikkita texnik kotiba va yugurdak hamda ekspeditor vazifasini bajaruvchi rotatorchi¹ ishlardi.

Virjiniya Kleri stolning bir chekkasida o'tirib, qizlardan bittasi gapirib bergan narsa xususida kulayotgan edi. Palmer bu qizning familiyasini doimo chalkashtirib yurardi. Palmerning liftda tepaga ko'tarilganini bu yerdagilarning hech qaysi biri eshitmagandi.

— Xuddi o'sha narsa menda ham yuz berdi, — dedi miss Kleri. — Faqat shotland viskisi o'rniga allaqanday aralashma ekan.

U o'rnidan turib, qo'llari bilan sonlarini silab qo'ydi, qora yubkasini to'g'riladi. Keyin, yozuv mashinkasida ishlayotgan qizga engashdi:

— Shoshilsang-chi, kech qolib yurma tag'in...

Palmer yarim ochiq eshik oldida turib, ularni kuzatardi. Bu yerdan unga orqa o'girib turgan qizning faqat yelkasi ko'rinardi, lekin u Virjiniya Klerini, uning qaddi qomatini yaqqol ko'rib turardi.

Virjiniya Kleri Nyu-Yorkdagi bank ishlari va barcha ishbilarmon doiralar bilan bog'liq hamma gazeta va jurnallarning reporter va muharrirlarini bilardi. Shuning uchun ham bank boshqarmasi unga yiliga o'n bir ming dollar maosh to'lashni lozim topdi. Lekin har qanday vaziyatda ham Kleri kotib yordamchisidan yuqori lavozimga ko'tarila olmasdi. Ammo hozir unda bu lavozim ham yo'q edi. Bunga erishguncha hali ko'p suvlar oqib o'tishi lozim. Agar uning o'rnida erkak kishi ishlaganida boshqa gap edi.

— Bo'пти, — dedi Kleri, — endi bularning hammasini ovoz chiqarib o'qi. Men boshliq uchun uning nusxasini solishtirib chiqaman. Keyin uyga ketishing mumkin.

— «Yunayted benk end trast kompani» xabari, — deya o'qiy boshladi qiz. — Nyu-York Siti. Ushbu ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan 4108 telefoni orqali Virjiniya Kleriga murojaat qilinsin. 7 oktyabr, chorshanba kuni ertalabki gazetelarda bosib chiqarilishi mo'ljallanmoqda...»

— Yo'q, — uning so'zini bo'ldi Virjiniya Kleri. — Kelinglar, «ertalabki gazetelarda» so'zini o'chiramiz. Oddiy axborot matnini bunchalik bo'rttirish kerakmas. Menga sarlavhasini qaytarib o'qi-chi...

— «Jamg'arma banklari sotsializmning maxfiy ravishda kirib kelishiga ko'maklashmoqda, — dedi Palmer Long-Aylend ishbilarmon doiralarning vakillariga».

— Davomini o'qi.

— «Kecha kechqurun «Yunayted benk»ning birinchi vitse-prezidenti Vuds Palmer-kenjatoy Nassau-Saffolk tumani ishbilarmonlar doirasi rahbarlarining yig'ilishida jamg'arma banklarini sotsializmning kirib kelishiga yordam berayotganlikda aybladi, — deb o'qidi qiz, — bu narsa xususiy tashabbus hisobiga amalga oshirilmogda.

U Long-Aylend ishbilarmon doiralarning vakillariga Qo'shma Shtatlarning rivojlanishi va gullab yashnashi aynan xususiy tashabbusga asoslangan ekanini eslatib o'tadi. Xususiy tashabbus hamisha ularning amaliy muvafaqqiyatiga xizmat qilib kelgan. Ammo jamg'arma banklari, deb uqtirdi u, o'z sohibiga ega emaslar. Ularda aktsiyalarning egalari ham, sof sarmoya ham yo'q. Buning o'rniga banklarda o'zboshimcha to'dalar hukmronlik qilmoqdalar, ularga hech narsa qarshilik qilmaypti. Ular qishloq joylariga kirib borib, mog'or bog'lamoqdalar, tevarak atrofdagi mavjud barcha erkin pullarni yutib yubormoqdalar va ularni cheklangan sohalarga sarflamoqdalar. Bundan esa hayotning barcha sohalari zarar ko'rmoqda... quyida Palmerning uchrashuvda so'zlagan nutqining matni to'la

berilayotir».

Virjiniya Kleri bir oz jim turdi-da, keyin dedi:

— Birlashmaga nisbatan qaysi soʻz keskin jaranglaydi? «Olomon»mi? Yoʻq... «Beqiyofa gazanda». Mana! Bizga aynan mana shu kerak. Juda zoʻr.

— «Gazanda» bilan «Xavfli maraz» bitta jumlada-ya? — shubhalanib soʻradi qiz.

— Nima qilibdi?

— Bilmadim, — javob berdi qiz, matnga tuzatish kirita turib. — Menimcha, juda qoʻpolga oʻxshaydi.

— Sen haqsan, — rozi boʻldi Virjiniya Kleri. — Jamgʻarma banklari millionlab pul qoʻyuvchi mijozlarga ega, ularning jahllari chiqishi mumkin, agar... — U gapini toʻxtatib, oʻylanib qoldi. — Ammo buning nimasi yomon? — soʻradi u — Qolaversa, ularning jahllari chiqdi ham deylik. Xoʻsh, nima qilibdi? Ular kimdan gʻazablanadilar? Palmerdanmi? Ular uchun Palmer kim oʻzi? Ular kim bilan bogʻliq boʻlsalar, oʻshalardan — jamgʻarma banklaridan jahllari chiqadi. Keyingi safar, ular joriy hisobdan pul olishayotganida yoki qoʻyayotganda, albatta, yoqimsiz savollar bera boshlaydilar. Bularning hammasi mantiqan toʻgʻri.

— Sen oʻzing bilan gaplashayapsan, — dedi qiz va oʻrnidan turib kerishdi. — Men uchun bularning hammasi quruq gap.

— Ha-a, — dedi choʻzib Virjiniya Kleri, qoʻli bilan sochini silab qoʻyarkan. — banklar oʻrtasida avj olib ketgan kurash bilan kimnidir qiziqtirish unchalik oson ish emas. Koʻpchilik uchun bu juda zerikarli ermak. Ular hatto bir toifadagi bankni boshqasidan ajrata olmaydilar. Toʻgʻri, ularga sotsializm toʻgʻrisidagi baʼzi narsalar maʼlum. Ular buning nima ekanligini bilmaydilar. Lekin ularning tasavvurlarida sotsializm qandaydir maxluqqa oʻxshaydi.

Qiz kulib yubordi va sumkasini oldi.

— E, sening raqibing boʻlishni istamasdim, tutgan joyingni uzib olasan, — deganicha eshikka qarab yurdi. Palmer yashirinishga ulgurmasligini tushundi. U dadil eshikni ochib ichkari kirdi.

— Bir yarim maoshga ishlayapsizlarmi? — dedi u jilmayib.

Qizlardan biri (Frouli, Roulins yoki ismi boshqachamidi) kutilmagan bu holdan chinqirib yubordi, qoʻllari bilan koʻksini changalladi, ammo Palmerni tanib, yengil nafas oldi.

— Shunaqayam qoʻrqitasizmi, mister Palmer, — dedi shikoyatomuz va jilmayishga urindi. — Xayr, — deb qoʻshib qoʻydi liftga qarab yurarkan.

Palmer Virjiniya Klerini kuzatib turdi. U boshligʻi kirib kelganidan beri qimir etmay oʻtirardi. Tashqarida liftning ochilib, yopilgani eshitildi.

Virjiniya tili bilan lablarini yalab qoʻydi. Lablari ancha qalin ekan, oʻyladi Palmer.

— Kechki amaliyotlarimizda sizni juda kam koʻramiz, — dedi nihoyat Virjiniya.

— Men yoʻlaklar boʻylab, oyoq uchida yurib xodimlarni kuzatishni yaxshi koʻraman.

— Menga jamgʻarma banklari yuborgan josusga oʻxshab koʻrindingiz. Hatto tsianli kaliy ichmoqchi ham boʻldim.

— Iy-e, qiziq tomosha boʻlarkan-da.

— Keyin mundoq qarasam, sizda uzun va patak soqol yoʻq ekan. Shuning uchun ham oʻzimiznikilardan boʻlsa kerak deb oʻyladim.

— Keyingi paytlarda men buni tekshirib koʻrganim yoʻq, lekin shu yerda ishlayotgan boʻlsam kerak deb oʻylayman. — U miss Kleri ushlab turgan mumqogʻozni oʻz qoʻliga oldi, soʻng stol ustiga, joyiga qoʻydi-da, Virjiniyaga tikilib qaradi. Unga yaqin turgani uchun uski qovogʻiga yupqa qilib zangori surma surilganini, koʻzlarining chekka burchagiga qora chiziq tortilganini koʻrdi. Palmer unga hech qachon bunchalik yaqin turmagan edi. Xonasining kattaligi bunga imkon bermasdi.

— Nutqlarni siz yozasizmi? — soʻradi Palmer. — Men bu ishlar Mak Bernsga topshiriladi deb oʻylardim.

— Maʼruzalar loyihasini hamisha men tayyorlayman, — deb javob berdi Virjiniya.

— Qiziq, bu haqda u hech narsa demagandi, — jilmaydi Palmer. — Menimcha, sizning va uning bank haqidagi bilimlaringiz zigʻircha ham kelmaydi.

— Shunday ham deylik. Lekin, Mikelanjelomi yoki boshqa birov aytganiday mushukning suratini chizish uchun mushuk bo'lish shart emas.

— Negadir Mikelanjeloga o'xshamaydi, — dedi Palmer va stolning chekkasiga o'tirib, gazeta qirqimlari yopishtirilgan taxtaga nazar soldi. — Bordi-yu, bizlar boshqa sohada ishlaganimizda-chi? Siz bo'lsangiz, Mak Berns bilan Mikelanjelo tamoyili bo'yicha harakat qilib, amaliy xatoga, aytaylik, narx va tahlil xarakteridagi xatoga yo'l qo'yadinglar. Bu holda esa, ehtimol, kimdir zarar ko'rardi.

Virjiniya darhol javob qaytarmadi. Uni kuzatarkan, Palmer Virjiniyaning sochlari juda chiroyli qilib turmaklanganini angladi.

— Demak, biz hammamiz dorishunoslikdan yiroq yurish baxtiga muyassar bo'lgan ekanmiz-da, — dedi u nihoyat.

— Bilasizmi, menda siz bank ishining ahamiyatiga yetarli baho bermayapsiz degan taassurot tug'dirayapsiz, — ta'kidladi Palmer.

— Siz meni buxgalteriya xisob-kitoblari va boshqa narsalarda zavq-shavqni ko'rmaydi demoqchimisiz? — so'radi miss Kleri. — Lekin o'z-o'zimizni aldashning nima keragi bor: bank ishi pulni qarzga berishdan boshqa narsa emas. Bu qarzlar — ipoteka¹, tijorat krediti², qimmatli qog'ozlar, mol-mulkni boshqarish singari har qanday shaklga ega bo'lmasin, bu oxir-oqibatda pulni qarzga berish demakdir. Buning bor siri shundaki, avvalo pulga ega bo'lish kerak, keyin esa uni ko'proq foiz talab qilib, pulning qaytib kelishini ta'minlash lozim.

— Mutlaqo to'g'ri. — Palmer o'rnidan turib gazeta qirqimlari yopishtirilgan taxta tomon yurdi. Gazeta yozuvlarini ko'zdan kechirgan bo'ldi. — Mutlaqo to'g'ri, pulni qarzga berish, — takrorladi u. — Biroq bu «oddiygina» pulni qarzga berish emas.

— Albatta, bunchalik qadimgi kasb-kor ilohiyat bilan sug'orilgan bo'lishi keark.

— Siz juda zaharxanda ekansiz-ku!

— Sal-pal, — dedi Virjiniya va soatiga qarab qo'ydi.

— Kechirasiz, sizni ushlab qolmayapmanmi? — so'radi Palmer.

— Hecham-da.

— Biroq soatingizga qarab qo'ydingiz-ku?

— Bu asabdan, — dedi Virjiniya, — Menga siz ta'sir qilayapsiz. Shuning uchun zaharxandalik qilayapman. Bundan tashqari, mana bu xabarlarni matbuotga tarqatib ulgurishim kerak.

— Nima, bu Freddining vazifasiga kirmaydimi?

— Bularning hammasi bugun pochtaga topshirilishi kerak. Siz Freddiga nisbatan menga uch barobar ko'p haq to'layapsiz, shuning uchun ham mendan ko'proq ish talab qilasiz deb o'ylayman.

Palmer qo'llarini yoydi.

— Sizning o'z majburiyatlaringiz haqidagi tasavvuringizni, — dedi Palmer kulimsirab, uni xafa qilmaslikka urinib, — faqat bank ishidagi bilimingizning keng qamrovi bilan taqqoslash mumkin.

— Agar siz meni to'pponcha bilan yakkama-yakka qoldirsangiz, or-nomus burchi buyurgandek yo'l tutaman, — dedi miss Kleri.

Palmer aftini burishtirdi.

— Bu hech qanaqa daromad keltirmasdi. Biz, sudxo'rlar, o'zimizning kamtarona foydamizni hammadan siqib suzib olishni yaxshi ko'ramiz.

— Unda yarashishni taklif qilaman.

— Kechqurunga Berns bilan uchrashuvim belgilangan. Hozir esa rostini aytsam, kechqurungacha qolgan vaqtimni o'tkazish bilan ovoraman. U bilan ma'ruzamga doir masalalarni muhokama qilsak demoqchiydim.

— Siz meni u bilan urishtirishga urinayapsiz, shekilli? — so'radi Virjiniya. — Bundan hech narsa chiqmaydi. Men hech kim emasman, u esa katta siymo. Bundan tashqari sotsializm haqidagi g'oya uniki edi.

— Xo'sh, nima qilibdi, bunaqa g'oya bank ishini mensimaydigan yoki bu haqda hech narsa bilmaydigan har qanday odamning miyasiga kelishi mumkin.

Virjiniya boshini bir tomonga egdi-da, unga diqqat bilan qaradi.

— Sizing judayam jahlingiz chiqibdi, — dedi Virjiniya, — rosa g'azablangan bo'lsangiz ham o'zingizni nazokatli va bosiq tutishga urinayapsiz.

Palmer bosh chayqadi.

— Undaymas. Axir, hali hech narsa yuz bergani yo'q-ku. Siz hali xabarni jo'natib ulgurganingiz yo'q, ertaga ertalab uni o'qib ko'rgach, yo'q qilib tashlashim kerak edi.

— Iy-e, hali shunaqami? — dedi Virjiniya cho'zib. — Menga endi yetib bordi, boshqa xabar kerak deng. — U bo'sh stolga o'tirdi va mashinkaga qog'oz qo'ydi. — Marhamat, ayting.

— Sizlar uchun xabarni men tayyorlamayman. Siz birdaniga uch kishining majburiyatini chalkashtirib yubordingiz.

— Uch kishining?

— Ha. Men Palmerman. Va men matbuot uchun xabar yozmayman. Bu sizning ishingiz. Sizing ismingiz Virjiniya. Lekin siz rotatorida ishlamaysiz. Bu Freddining ishi. Siz buni bilib olsangiz, ular menga shuncha pul to'lashmayapti, sizga bundan kamroq, Freddiga bo'lsa haftasiga bor-yo'g'i yetmish dollar berishyapti.

Virjiniya unga birpas qarab turdi-da, so'ng kulib yubordi.

— Chekishni istamaysizmi? — so'radi Virjiniya, so'ng stolning oldiga borib, qog'ozlar orasidan sigareta qutisini topdi.

— Tashakkur, — dedi Palmer zajigalkasini miss Kleri sigaretasiga tutib, keyin o'zi ham cho'ntakdagi qutisidan sigareta olib chekdi.

— Endi men majburiyatlarni taqsimlash borasida hammasini bilib oldim. Bank ishi yuzasidan ham gapirib bering.

— Bank ishi — bu qarzga pul berishdir. Meningcha, buni o'zingiz ham yaxshi bilasiz.

— Faqat qarzga pul berish, bor-yo'g'i shumi?

— Yo'q, bor-yo'g'i shundan iborat emas. Mana shu yerda siz adashayapsiz, — davom etdi Palmer. — Biz faqat nafas olamiz yoki faqat yeb-ichamiz, deb bo'lmaydi. Pul — hayotimizning zarur tarkibiy qismidir. Hozirgi zamon kishisi havosiz, ovqatsiz va suvsiz yashay olmagandek, pulsiz ham yashay olmaydi.

— Shunaqami! Men lol qoldim.

— Lekin amin bo'lmadingiz.

— Yo'q, sizning shunchalik amin ekaningizga lol qoldim.

— Boshlanishi yomon emas.

U ko'zi bilan kuldonni qidirdi, uni miss Klerining stoli ustida qog'ozlar orasida, telefon yonida topdi. U yerda uchta surat ham bor edi. Sarg'aygan fotosuratdan birida oltmish yoshli ayol aks etgandi. Uning ko'zlari Virjiniyaning ko'zlaridan ham katta edi. Uning yonida yigirma besh yoshlardagi yigitning tasviri. U Ikkinchi jahon urushi davrining harbiy havo kuchlari kiyimida. Uchinchi suratda esa o'g'ilmi, qizmi, yosh bola tasvirlangandi.

— Oyijoningizmi?

— Ha.

— Bunisi... akangizmi?

— Erim. — U bir oz jim qoldi, so'ng qo'shib qo'ydi. — Va qizim. — Yana jimlik. — Faqat onam tirik. Palmer qaddini rostladi, qo'lidagi shisha kuldonni Virjiniyaga tutdi, u sigareta kulini qoqdi.

— Bu urush paytida yuz berdi. Biz mashinada Labbok (Texas shtati) dan Tonakaga kelayotgandik. Tinch okeani sohilidagi juda xushmanzara joy. Mashinamizga bir yuk mashinasi katta tezlikda kelib urildi. Men tushunaman, — shoshilib gapirdi Virjiniya, — men doimo o'zimga so'z beraman, bu suratni uydagi biror qutiga yashirib qo'yaman deb. — Men hammasini bilaman. — U Palmerning qo'lidan kuldonni oldi va bir chekkaga bordi. — Endi bo'lsa, bank ishi haqida menga batafsil gapirib bering...

Palmer sigaretasining kuli tagida qizarayotgan cho'g'iga qaradi-da:

— Agar men eplay olsaydim, — dedi.

Miss Kleri soatiga qaradi.

— Yetti yarim, — dedi. — Sizing Mak Bernsga uchrashuvingiz qachonga belgilanganini bilmayman, balki men bilan ovqatlanishga ulgurarsiz.

Palmerga otasi: — Barcha ko'ngilsizliklar ko'p gapirishdan kelib chiqadi, hayotda sukut saqlash ma'qulroq, — deb ta'kidlardi.

— Umuman, birga ovqatlanishni boshqa paytga qoldirsak ham bo'lardi, — dedi miss Kleri, Palmerga imkon berish uchun. — Men anchadan beri nodonlikda yashab kelayapman, yana bir oz chidashim mumkin.

Palmer «yo'q» deganday bosh chayqadi:

— Afsuski, bu ishni boshqa paytga qoldirib bo'lmaydi.

O'n to'rtinchi bob

Palmer umrida birinchi marta «Shrafft» restoranida ovqatlandi. U tamaddi qilib bo'lgach, oromkursiga yastanib o'yg'a toldi. Millionlab kishilar har kuni shunday tamaddi bilan kun kechiradilar, deb qo'ydi. U miss Kleri taklifiga rozi bo'lib, shu restoranda ovqatlanishga ko'ndi. Bu yerda tanishlardan birortasi uchrab qolishi ham amri mahol edi. Bu ajoyib kelishuvli qaror edi. Bu yerda ikkovi birga ovqatlanayotganiga ahamiyat bermay, qornini to'ydirsa bo'lardi.

— Yuzingizdagi ifodani bir ko'rsangiz edi, — dedi miss Kleri, ofitsiant stolni yig'ishtirib ketgach. — Axir, men sizni ogohlantirgandim: yaxshisi kurka go'shti buyuring deb.

— Ananas va yong'oqdan tayyorlangan qayla bilanmi? — so'radi hazil bilan Palmer. — Otam menga Shukronalik kunigacha va Rojdestvodan keyin kurka go'shti yeyilmaydi, deb uqtirardi. Afsuski, u kishida parranda go'shti yuzasidan hech qanaqa tavsifnoma bo'lmagandi.

Miss Kleri jilmaydi va shoshilmasdan stakandagi suvdan ho'pladi. Restoranning pushtirang xira yorug'i uning ko'zlari ostidagi chuqur soyalarni sezdirmasdi.

Uni go'zal deb bo'lmaydi, o'yladi o'zicha Palmer. Lekin u xushro'y, juda xushro'y. Qaddi-qomati rosa kelishgan, yuzi silliq, ko'zlari katta-katta.

— Siz uchinchi marta otangizga ta'na qilayapsiz, — dedi Virjiniya.

— O'z vaqtida otam turli-tuman iboralarni o'ylab chiqarishni yaxshi ko'rardi. Ehtimol, bu sizga zerikarli tuyular, men kechirim so'rashim kerakdir?

— Yo'q, bu bir oz eskicha, lekin maroqli, — javob qildi Virjiniya. — Nyu-Yorkda o'z ota-onasidan nafratlanishni hali o'rganmagan kishi kam uchraydi.

— Sizning stolingizda esa onangizning surati turibdi.

— U men bilan yashaydi. Yoki aniqrog'i, aksincha. Aytish qiyin. Lekin bu bir-birimizni jondan yaxshi ko'ramiz degani emas. Asrdan ortda qolib bo'lmaydi.

— Ha, albatta.

— Bizning munosabatlarimiz qurolli yarashuvga o'xshaydi. Onam mening bankka kirib ishlayotganim uchun sira kechira olmaydilar.

— Bunchalik qat'iyatning sababi nima?

— Ming to'qqiz yuz o'ttiz birinchi yili Xollisdagi uyimizni bank o'z hisobiga o'tkazgan edi.

— Shuni haliyam kechira olmayaptimi?

— Agar uyingiz ota-onamga aziz bo'lgandek sizga qadrlil bo'lganida edi, o'zingiz ham kechira olmasdingiz. Hayotimizning ko'p qismini — biz Yorkvillda o'tkazganmiz. Xollisda hashamatli uyimiz uchun otam birinchi badalni to'laganda xonadonimizda baxtiyorlik qo'shig'i yangragandi, oradan uch yil o'tib esa... — Shu yerga kelganda miss Klerining ovozi bo'g'ildi. — Lekin, — deya davom etdi o'zini qo'lga olib, — Ming to'qqiz yuz o'ttiz birinchi yili ko'pchilik shu ahvolga tushib qolgan edi. Qo'shnilarimizga tegishli bo'lgan barcha uylar ham muhrlab ketildi.

— Ha, bu og'ir yil bo'lgan edi, — dedi Palmer.

— O'sha yili sizlarda nima bo'lgan edi? — so'radi miss Kleri.

Palmer yelkalarini qisdi.

— E, hech narsa bo'lgani yo'q. O'shanda mening kollejda o'qiyotganimning birinchi yili edi. Umuman, men tashqi dunyodan yaxshi himoyalangandim.

— Kollejni 1934 yili bitirdingizmi?

— Ha, juda ajoyib yil edi.

— Men ham Bernard kollejini 1934 yilda tugatganman, — dedi miss Kleri.

Hayron bo'lgan Palmerning qoshlari chimirildi, keyin ohista o'ziga keldi. U hayron bo'lganimni sezdimikin, deb o'yladi. Keyin, albatta, sezgandir. Umuman buni yashirishning nima keragi bor? — degan to'xtamga keldi.

— Hecham bunaqa o'ylamasdim, — dedi u, — siz ancha yosh ko'rinasiz.

— Harholda, men sizdan ancha yoshman. Peddi Kalxeyn tufayli men Bernard kollejini bitirishga muvaffaq bo'ldim.

Palmer sal oldinga engashdi:

— Bu nom menga ham tanishga o'xshaydi.

— U bir vaqtlar bizning Garlemda politsiya kapitani bo'lgandi.

— Vik Kalxeynga qarindosh emasmi, mabodo?

Miss Kleri hayron bo'lib unga qaradi:

— Ha. Uning otasi edi, — dedi.

— Siz o'zingiz Vik Kalxeyn bilan tanishmisiz?

— Bo'lmasam-chi. U ham Xouli Naym maktabida, bolalar bo'limida o'qigandi.

— O'shandan beri uni hech ko'rdingizmi?

— Ha, bir necha bor. Mening gazetada ishlaganimni bilasiz-ku. Sizga bu yoqmaydimi?

Palmer boshini chayqadi.

— Yo'q, nima deyapsiz? Aksincha.

Miss Kleri unga uzoq vaqt qarab turdi, keyin oromkursiga yastanib, qo'llarni tizzalariga qo'ydi.

— Nima bo'lganida ham, Virjiniya Klerining bor tarixi shu bilan tugaydi. Yana shuni qo'shimcha qilishim mumkinki, butun bo'sh vaqtimni onamning bankka nisbatan ko'r-ko'rona nafratdan davolashga bag'ishlayapaman.

— Siz bankda ishlayotganingizni onangizdan yashirishingiz mumkin edi.

— Bu haqda o'ylab ko'rgandim, — dedi Virjiniya, — U holda onam meni har kuni ertalab ibodatga borishga majbur qilardi. Hozir ancha yaxshi.

Shu payt ofitsiant kelib stolga taomnomani qo'ydi.

— Nima ichasizlar?

— Faqat qahva, — dedi Virjiniya.

— Menga ham, — qo'shib qo'ydi Palmer.

— Axir, shirin ichimlik, sharbatlar ovqat narxiga qo'shiladi-ku, — eslatdi ofitsiant.

— Bilaman, — dedi Palmer. — Faqat qahva bering.

— Xo'p bo'ladi, ser.

Ofitsiant qiz shu yerda o'ralashib turganda ular jim o'tirishdi. Xizmatchi ketishi bilan Palmer so'radi.

— Bu yerda tez-tez bo'lib turasizmi?

— Deyarli har kuni, — dedi Virjiniya. — Bu yer yaqin. Tez xizmat ko'rsatishadi. Har holda ishxonada, quruq buterbroddan ko'ra yaxshi-da.

— Esimda, bu borada otamning bir hikmati bor edi.

— Ha, otangizning hayotning har bir hodisasiga doir hikmatli so'zlari bor edi. Men sizning ikkinchi avlod bankiri ekaningizni o'zimga hamisha eslatib turaman.

— Ikkinchi emas, uchinchi avlod, bankni buvam tashkil etgan.

— Nega sizni tanlashganini bu yerda hech kim tushunmaydi. Nyu-Yorkdagi bank xodimlaridan birortasini tanlashsa ham bo'lardi-ku. Ular bu yerdagi vaziyatni yaxshi tushunishardi. Nega sizni

tayinlashganini men endi tushunib yetdim.

— Odatda, — dedi Palmer, — bu lavozimga huquqshunoslik firmasidagi bank manfaatini ifoda qiluvchi katta sherikni tayinlaydilar. Sayyoramizning kelajagi huquqshunoslarnikidir.

— Tanlov an'analarga zid ravishda amalga oshirilgan deb hisoblaysizmi? — Virjiniya bir zum jim qoldi, so'ng davom ettirdi: — Shubham bor. Meningcha, ularga bank ishiga tug'ma mayli bor odam kerak bo'lgan.

— Ehtimol bu gaplaringizni xushomad deb qabul qilishim kerakdir, — xo'rsindi Palmer. — Bilasizmi, mening «Yunayted benk»ka tayinlanishim munosabati bilan juda ko'p savollar tug'ilgan edi, ular xususida hali o'zim ham qoniqarli javob ololganim yo'q.

— Aynan qanday savollarga?

Palmer astagina yelkalarini qisib qo'ydi. — Bu savollar asosan texnik xarakterdadir, — istamaygina javob berdi u, muhokamaga kirishmoqni istamagan holda. U Virjiniya Kleriga qarab qo'ydi. Bu borada u uncha sir boy bermayotir. Aftidan, buning uchun u ancha aqlli ko'rinadi.

— Agar siz... — deya boshlamoqchi bo'ldi miss Kleri.

— Darvoqe, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, — uning gapini bo'ldi Palmer, bu mavzuga qaytmaslikka qat'iy qaror qilib, — biz bank ishi borasida tushunchamizdagi bo'shliqni to'ldirish uchun hali biror qadam qo'yganimizcha yo'q.

Miss Kleri taassuflanganday ko'zlarini kattaroq ochdi.

— Men o'zimni firma uchun oshiqcha yuk his qila boshladim.

— Bu sohada uncha-muncha narsani bilishingiz sizga dalda bo'lishi kerak. Bankimizda ishlayotganlarning ko'pchiligi o'z ishini sizchalik tushunmaydi, axir.

— Men foizlar, xususiy qarzarlar, amortizatsiyalash hamda Federal zaxira tizimi bilan bog'liq masalalarning farqiga boraman, — bidirlab ketdi Virjiniya. — Unda nimani bilmayman o'zi?

— Sizda umumiy tizim haqida aniq tasavvur yetishmaydi.

Ofitsiant qiz qahva olib keldi. Palmer Virjiniyaning o'z finjoniga sut qo'shib, shakar solib aralashtirganini kuzatib turdi.

— Men hali eslatib o'tdim, — davom etdi Palmer, — hozirgi zamon kishisi hayotida pul shunaqa ahamiyat kasb etadiki, u havo va ovqat misoli zarur bo'lib qoladi. Bu siz yaxshi o'zlashtirib olishingiz lozim bo'lgan sohadir.

— Pulning qanday ahamiyatga ega ekanligini menga tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. Ishonavering.

Palmer miss Kleriga o'qrayib qaradi:

— Siz, aftidan, yana gapni hazilga olib, mavzuga chap berib ketmoqchiga o'xshaysiz.

— Kechirasiz, bu odat menga onamdan yuqqan. Yo'q, men chindan ham nima haqida gapirayotganingizni tushunishni istayman.

— Juda soz. — dedi Palmer, qahvadan ichib. — Shunday qilib, jamiyat tashkilotning takomillashuviga qarab, pul borgan sari hal qiluvchi omilga aylana boradi... Xullasi kalom, inson pulsiz munosib ravishda na yashay oladi, na o'la oladi.

— Sizningcha, shunaqa bo'lishi kerakmi?

— Ehtimol, yo'q, — javob berdi Palmer. — Lekin biz faylasuflar emas, bankchilarmiz. Biz eng qimmatli mulk — pulni ta'minlash, asrash, nazorat qilishni tashkil etamiz.

— Siz eng qimmatli narsa pul deb hisoblaysizmi?

— Sizningcha, eng qimmatli nima?

— Sog'liq-chi?

— Sog'liqni pul yordamida saqlaydilar va tiklaydilar.

— Tushunarli. Aytaylik, hm-m, sevgi, nafrat ham pulga olinadimi?

— O'zingiz bir o'ylab ko'ring. Hozir biz ikkalamiz falsafiy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotganimiz yo'q. Sevgi-muhabbatsiz va nafratsiz ham yashash mumkin. Lekin inson pulsiz yashay olmaydi.

— Ammo bu hayotning bir sohasi, xolos.

— Ha. Lekin bu hayot yo mamotni hal qiladigan soha.

— Mayli, shunday bo'la qolsin. Ammo shuni ta'kidlaymanki, ushbu suhbat bayonnomasida pul faqat moddiy sohada eng muhim omil ekani qayd qilinsin.

— Roziman, — dedi Palmer.

Miss Kleri diqqat bilan unga qaradi:

— Siz faqat men aytganlarimgagina iltifot qilayapsiz. O'zingiz hayotda moddiy ehtiyojdan boshqa sohalar ham bo'lishi mumkin, deb o'ylaysizmi?

— Har holda ular suhbatimiz maqsadi bo'lib xizmat qilmaydi.

Miss Kleri alam bilan boshini chayqadi.

— Sizni so'zda yengib bo'lmaydi. Men gazeta uchun muloqotingizni yozib olmagan bo'lardim. — Biroq u Palmerga yana bir qarab qo'ydi-da, taslim bo'ldi: — Xo'p, mayli, — dedi u, — biz bankchilarmiz. Bizni faqat moddiy jihati qiziqtiradi. Davom eting, marhamat.

U o'z qahvasidan bir ho'pladi-da oromkursiga suyanibroq o'tirdi.

— Bankdagi pullar qay ahvolda? Biz ularni maxsus seyflarda saqlaymiz, u yerdan o'g'irlash mumkin emas. Keyin ularni sarmoyaga — qimmatli qog'ozlar, aktsiyalar, korxonalar va ayrim shaxslar uchun zayomlarga aylantiramiz... Xullasi kalom, pul yordamida qilinadigan ishlarni ayni biz belgilaymiz. Oxir-oqibatda, shuni aytish mumkinki, pulning ijodkorlari bizmiz.

— Pul ijodkorlari? Buning uchun biz nima qilamiz? Pulni bosib chiqaramizmi?

— Deyarli shunday, — javob qildi u.

— Nima, bu qonuniymi?

— Mutlaqo qonuniy, — ishontirdi uni Palmer. — Federal zaxira banki sifatida, biz olayotgan har to'rt dollar hisobiga toza havodan bitta yangi dollar hosil qilamiz.

— Shu yaxshimi?

Bunga javoban Palmer qo'lini qarsillatib oromkursi qirrasiga urdi.

— Falsafiy savollar berishni bas qiling. Ehtimol, AQShda yuz berishi mumkin bo'lgan ishlarning eng yomoni mana shudir va bizning evaralarimiz buning uchun juda qimmat haq to'lashar. Lekin hozirgi bosqichda bizni aynan pul qutqaradi.

— Boshqacha aytganda, biz zarur ta'minot bo'lmagani holda pul bosib chiqarish mas'uliyatini olganmiz, — dedi miss Kleri.

— Boshqa so'zlar bilan ifodalaydigan bo'lsak, biz inflyatsiyaga, pulning qadrsizlanishiga yo'l ochib beraypmiz, — javob berdi Palmer. — Biroq amerikaliklarning o'zlari inflyatsiyaga intilayaptilar.

— Aytayotgan gaplaringizga o'zingiz ham ishonmaysiz, — e'tiroz bildirdi Virjiniya.

— Bu yerda ishonchning nima daxli bor? Axir, turmush taqozosi shunga aniq dalil-ku. Odamlarning o'zi turli-tuman ajabtovur narsalar — 21 dyuym ekranli televizor, ikki qopqali sovutgich, katta quvvatli avtomashina sohibi bo'lishni istaydilar. Ular zarur miqdordagi pul jamg'arishga kutishni istamayptilar. Bir so'z bilan aytganda, ular yosh bolalarga o'xshaydilar, ular hamma narsani darhol olishni istaydilar. Har bir avtomobil yoki televizor ortida odam turibdi, u o'z molini darhol sotish niyatida. Lekin u sotgan molining pulini o'ttiz olti oy kutolmaydi. U molini sotar ekan, pulini darhol to'lashlarini istaydi. Mundoq qarasangiz, qandaydir moliyaviy kompaniya, korporatsiya yoxud vakil uning xizmatiga hoziru nozir bo'lib turibdi. Ular xaridorga pul to'laydilar, o'zlarining xizmat haqi esa molni olayotgan iste'molchi hisobidan to'lanadi. Biroq bu kompaniyalar ham shoshilinch ravishda qaerdandir pul topishlari zarur. Biroq ular pulni qaerdan oladilar? Ular bankka murojaat qiladilar. Bank ularni pul bilan ta'minlashga tayyor turadi. Pul nihoyat tugaydi. Xo'sh, pul qaerdan olinadi, tugagan zaxira qaerdan to'ldiriladi? Qaerdan olinishini o'zingiz yaxshi bilasiz. Bu pullar bosish dastgohlari turgan tsexdan olinadi.

Palmer gapdan to'xtadi, to'satdan ovozi ko'tarilib ketganini, uning so'zlari ulardan ikki stol narida o'tirgan kishi e'tiborini tortganini his qildi. Oraga cho'kkan jimlik payti u sigaretasini kuldonga bosdi, nega buncha hayajonlanayapsan, deb o'z-o'ziga savol berdi.

— Siz faylasuflarday gapga tushib ketdingiz, — dedi Virjiniya Kleri.

— Ha, pul xususida mening o'z falsafam bor, — rozi bo'ldi Palmer. — bu falsafa juda arxaik bo'lib,

agar uni hayotga tatbiq qilaman desangiz, ehtimol, bir necha hafta ichida butun mamlakatni xonavayron qilardi. Bank ishining ko'p asrlig tarixiga asoslangan bankchining pulga nisbatan nuqtai nazari ana shunaqa.

Miss Kleri sal bosh egdi-da, unga sinovchan nazar soldi:

— Xonavayron qilish falsafangizni menga izohlab bering-chi...

Palmer kulib yubordi, kulgisi g'alati chiqdi.

— Bor narsangni sarflashga shoshilma, — dedi u. — Bu juda aniq, lekin juda qiyin, bajarish og'ir masala. Biror chiroyli narsani ko'rsang, o'zingda paydo bo'lgan uni sotib olish istagini yengishga harakat qil. Uning uchun avval pul yig', keyin xarid qil. Ehtimol bu orada uni sotib olish istaging so'nib qolar.

Miss Kleri keng qoshlarini chimirdi.

— Oh, bunaqa cheklangan turmush tarzi naqadar dahshat, — to'ng'illadi Virjiniya.

Palmer yelka qisdi

— Ha, agar cheklangan degan so'zni intizom ma'nosida aytayotgan bo'lsangiz.

— Intizom? — Nahotki bu so'z, sal-pal yaxshiroq jaranglasa? Miss Kleri bosh chayqadi. — Yo'q, bunaqa hayot mahzun, rangsiz, sovuq. Hodisalarsiz, hayajonlarsiz.

— Zero, hal qilib bo'lmas muammolarsiz, tangliklarsiz.

— Mana, ko'rdingizmi? Bu, umuman, hayot emas, faqat muqaddimasi-ku.

— Safsata.

— Hayotning o'zi nima? Muammolar, qiyinchiliklar va birdan o'z yo'lingda ajoyib narsa uchraydi-yu, uni o'zingniki qilib olishni istaysan. Sen o'z istagingni bajarasan, pulini esa keyin to'laysan.

— Hozir kimning hayoti haqida gapirayapsiz o'zi? — qiziqdi Palmer.

Virjiniya yana qoshlarini chimirdi.

— Ha-a. siz haqsiz. Hamma ham shunday yashashni hohlaydi, deb bo'lmaydi. Men buni esdan chiqarib qo'yibman.

Ikkalasi ham jim qoldi. So'ng yana Palmer gap boshladi.

— Harholda, bu yerdan biz kimning hayotini muhokama qilishimizdan qat'i nazar, falsafa, baribir, meniki.

— Meni kechirasiz-u, bu siz aytganingiz puldan kamchiligi bo'lmagan odamning falsafasi, — dedi Virjiniya.

Palmer bir necha lahza qimirlamay o'tirdi, so'ng qo'llarini stoldan olib tizzalari ustiga qo'ydi.

— Balki, siz haqdirsiz, — javob berdi loqaydlik bilan Palmer. — O'z istagini tiya bilish haqida fikr, bunday qilish zarurati bo'lmaganlar miyasiga tez keladi.

Miss Kleri stolda Palmerning qo'llari turgan joyga qaradi.

— Lekin bu bilan men, — deya asta gap boshladi Virjiniya, — kimda pul bor bo'lsa, har qanday istagini o'z-o'zidan qondiraveradi, demoqchi emasman. Pulga sotilmaydigan buyum yo'q. Balki hamma narsa sotilar. Ammo sotib olgan hamma narsadan ham qoniqish hosil qilinavermaydi.

— Meni kechirasiz-u, — dedi kinoya bilan Palmer, — bu endi ilohiy olam puchmoqlarida adashib yurgan odamning falsafasi.

— Ha, — rozi bo'ldi miss Kleri. — Men axir, keltlar toifasidanman, avrashni bilaman, qarta bilan fol ochaman. Hatto jodugar ham bo'la olaman.

— Qiziq. Unda sizga ikki maosh belgilashimizga to'g'ri keladi, biz tomonda qolganingiz uchun, albatta.

— «Biz tomonda» deb nimani aytayapsiz?

— Sigareta chekasizmi? — taklif qildi Palmer. Xonim «ha» deya bosh irg'adi. — bu bor-yo'g'i obrazli ifoda, xolos.

— Yo'q, bu oddiy obrazli ifodadan kattaroq, — dedi Virjiniya xonim, u tutgan chaqmoqtoshdan sigaretasini yondirib. — Mister Berkxardt «Biz tomonda» degan ifodaga go'yo biz kim bilandir urush holatida turganimizday ma'no beradi.

— Agar siz jamg'arma banklarini nazarda tutayotgan bo'lsangiz, bu aslida shunday.

— Biroq, xo'p deyavering-u, bu bema'ni gap. Axir, ular ham, baribir, bank-ku! Jamg'arma banklaridan ayrimlarining rahbarlari bizning direksiya tarkibida, va aksincha, jamg'arma banklari bizning bankimiz xizmatidan foydalanadi. Biz ularga garov ashyolarini sotamiz. Ular ham, biz ham, umuman, bank amaliyoti bilan shug'ullanamiz. Bu, qarang-ki, ularning ham, bizning ham o'z «tomon»larimiz bor ekan. Nega shunday bo'ldi?

— Tijorat banki bilan jamg'arma banki o'rtasida qanday farq bor, bilasizmi o'zi?

Miss Kleri bosh irg'adi, og'zidan halqa-halqa qilib tutun chiqardi.

— Ular tijorat kompaniyalariga kredit berolmaydilar.

— Bu boshqa jiddiy farqning bilvosita natijasidir.

— Aynan qanaqa farqning?

— Buning uchun uzoq o'tmishga sayohat qilishga to'g'ri keladi. Bu o'n ikkinchi asrning birinchi o'n yilligida boshlangan edi. O'sha paytlarda kambag'allarda faqat ikkitagina imkoniyat bor edi: ular o'z jamg'armalarini yostiqlari tagiga yashirishlari yoxud sarflashlari kerak edi. Birinchisi unchalik ishonchli bo'lmagani uchun, ular o'zlarining sariq chaqalarini qashshoqliklarini unutish uchun viski olib ichishga sarflar edilar.

— Ex, bu tuyg'uni men yaxshi bilaman!

— Kambag'allarga vasiylik qiluvchi avliyo otalar bundan dahshatga tushdilar: chunki yoppasiga ichkilikbozlik boshlangan edi, — davom etdi Palmer. Shunda shotland maktablari o'qituvchilarida paydo bo'lgan g'oyadan foydalanishga qaror qildilar. O'qituvchilar, avliyolar, targ'ibotchilar va islohatchilar shu g'oyaga binoan jamg'arma banklari tashkil etishga kirishdilar. Mazkur banklar kambag'allarning har qanday omonat pullarini saqlash uchun qabul qila boshladilar.

— Qanday makkorlik!

— Chinakam dahshat. O'sha davr banklari yirik korxonalar omonatlari yoki badavlat kishilarning ko'chmas mulklari bilan muomala qilardilar. Jamg'arma banklari esa, haftasiga arziyas chaqa olishdan ham hazar qilmasdan kambag'al o'z maoshidan qo'yishi mumkin bo'lgan har qanday miqdordagi mablag'ni qabul qilardilar. Lekin eng makkorlik tomoni shunda ediki, qashshoqlardan omonatga olingan sariq chaqalar muomalaga kiritilar, omonatchilarga esa, rag'bat tariqasida arziyas foizlar to'lanardi.

— Jinoyat!

— Hali shoshmang, eng dahshatlisi oldinda.

— Iy-e, bundan yomoni ham bo'lishi mumkinmi?

— Mana, qarang: jamg'arma banklari o'zaro qarz berish jamiyatiga aylandi. Aktsiya sohiblariga yo'l bekildi. Banklar omonatchilarning mulki bo'lib qoldi. Muomaladan tushadigan barcha foyda bevosita bankka o'z chaqasini qo'yadigan omonatchilarga tegadigan bo'ldi.

— Ana xolos, bu deyarli sotsializm-ku!

— Xuddi shunday, — tasdiqladi Palmer. — Lekin hamma gap shundaki, shotland avliyosining miyasiga ana shu fikr kelganda, Karl Marks endigina sakkiz yoshga to'lgandi.

— O-o!

— Harholda, jamg'arma bank tizimidagi bank arboblari o'ta izchillik bilan harakat qilardilar. Odatda, ular o'z mijozlarining omonatlarini davlat aktsiyalariga joylardilar. O'ta vatanparvarlik va o'ta ishonch bilan joylardilar. Bu banklarning deyarli barchasi xonavayron bo'lishdan qutulib qoldilar. Boshqalari esa inqirozga yuz tutdilar.

— Yuz yil mobaynida shunday davom etdi, deng?

— Yuz yildan ham ko'proq. Keyin yollanib ishlovchilar bo'yicha har xil yangiliklar: kasabalar uyushmasi, kasallik va qarilik hodisasini sug'urta qilish, hayotni sug'urtalash, ishsizlik bo'yicha yordam puli, nafaqa va shu kabilar paydo bo'ldi. Bu borada tijorat banklari chiranishni yig'ishtirdilar. Ular ishchilarning har qanday jamg'armalarini qabul qilishga qaror berdilar. Ishchi endi ishlaydimi, yo'qmi, sog'mi yoki kasalmi ekanidan qat'i nazar bankning qadrli mehmoni bo'lib qoldi. Agar o'lib qolsa, uning

oilasi ham bank xizmatidan bahramand bo'lardi.

— Ammo buning jamg'arma banklariga nima daxli bor?

— Hech qanaqa daxli yo'q. Jamg'arma banklari umrini yashab bo'ldi. Endi ular hech kimga kerakmas.

— Voy, muncha ayanchli, — dedi kinoya bilan miss Kleri. — Nahotki shunaqa bo'lsa?

— Ha, juda jiddiy. Chunki ular mijozlarga hech narsa berolmaydilar.

— Axir, bu juda qayg'uli-ku! Avliyo otalar va marhamatli zotlar endi nima qiladilar?

— Agar bunaqaga yo'yaverishingizni bilganimda, buni sizga gapirib o'tirmasdim.

— Yo'q, yo'q, men boshqa unaqa qilmayman, — dedi Virjiniya. — Ayting-chi, bu haqda jamg'arma banklari vakillari bilan hech kim gaplashib ko'rdimi? Axir, ular haliyam foydali ish qilayapmiz deb o'ylashayapti-ku.

Palmer iljaydi.

— Hamma balo shunda-da.

— Demak, ular bilan hech kim jiddiy gaplashmagan, shundaymi?

— Endi nima bo'lganiga quloq soling, — dedi Palmer. — O'sha avliyo otalar yerga urug' qadadilar. Urug'dan katta daraxt o'sib chiqdi. Hozir u hech kimga kerak bo'lmasa-da, o'sishda davom etmoqda. Jamg'arma banklari o'n minglab xizmatchilarini ish bilan ta'minlamoqda. Qudratli byurokratik apparat jamg'arma banklari mavjud bo'lishi va gurkirab rivojlanishidan manfaatdor.

— Ularni tinch qo'ysa bo'lmaydimi? Axir ko'pchilik kishilar o'z pullarini jamg'arma banklarida saqlashni ma'qul ko'rishayapti-ku, — ta'kidladi miss Kleri.

— Nimaga shundayligini men sizga tushuntiraman, — dedi Palmer. — O'sha daraxt o'sayapti va baquvvat bo'lib borayapti, chuqur ildiz otayapti. Bu ildiz har tomon yoyilmoqda va tuproqning to'yimli sharbatini simirmoqda. Biz esa ana shu tuproq ustida ko'karmog'imiz lozim. Endi tushunarlimi?

— Ha. Hammasi oydin bo'ldi-qo'ydi, — javob berdi miss Kleri. U o'z sigaretasini o'chirdi-da oromkursi orqasiga suyandi. Keyin uzun kipriklari orasidan suhbatdoshiga horg'in qarab, so'radi: — Xo'sh, siz endi o'sha daraxtni nima qilish niyatidasiz?

Palmer stolga qaragancha javob berdi:

— Ildizi bilan qo'porib tashlamoqchiman...

Virjiniya Kleri chap qo'lining yengini biroz qayirdi-da, soatiga qaradi. Keyin juda xotirjam, nazokatli ohangda gapirdi:

— Hozir Mak Bernsga telefon qilmaysizmi?

Palmer hayron bo'lib peshanasini tirishtirdi:

— Menmi... Shunaqa kech bo'ldimi? — soatiga qaradi, o'n bo'layapti: — Ha, siz haqsiz.

Ular bir-biriga qarab yana biroz o'tirdilar. Qaysi gapimdan bunchalik sovudiykin, o'yladi Palmer. Vaqt o'tayapti, u hali Bernsni ko'rishi kerak. Innankeyin, oxir-oqibat Virjiniya Kleri izohlarini qanday qabul qilishi bilan uning nima ishi bor?

O'n beshinchi bob

Edis Palmer chap qo'lining uzun va keng yengini qayirib soatiga qaradi. Uning harakatida nimadir Vuds Palmerning diqqatini tortdi. Qahvali finjonni qo'yib, u ertalabki oftob nuri jilvasini tomosha qilardi. Nur jilvasi Edisning qo'lidagi mayda tolalarni tillarang qilib ko'rsatardi. Lekin birdan xotining bu harakati nega uning diqqatini tortganini tushunib, Palmer yo'talib, so'radi:

— Sakkiz yarim bo'ldimi?

— Ha, deyarli. Menga qara, Vuds, iltimos, men uchun besh-o'n daqiqa ajrat.

— Mashina kutayaptimi?

— Kutayapti, albatta. Besh yoki o'n daqiqa kechiksang hech narsa qilmaydi. — U eriga ijirg'anish bilan qaradi. — Yoki, hech bo'lmasa shofyorga aytarsan «tezroq hayda» deb.

Palmer qahvasini ichib, lablarini qog'oz sochiq bilan artib qo'ydi.

— Tezlikni oshirganimiz uchun bizga jarima solishsa-chi? — dedi u, — Mak Berns men uchun hammasini bosdi-bosdi qiladi.

Edis qoshini chimirdi.

— Bor-yo'g'i besh yoki o'n daqiqa, — takrorladi Edis.

— Mayli.

Edis o'rnidan turib, erini kutubxonasigami yoki ish xonasigami-ey yetaklab kirdi. Mehmonxona ma'muriyati bu xonani ular uchun maxsus ajratib bergandi. Hozir mazkur xonaga o'ralgan rasmlar, yog'och qutilar taxlab tashlangandi. Ularda otasi to'plagan nodir kitoblar bor edi. Hamishagidek Palmer ular vaqtinchalik turgan boshpanani eslatuvchi tartibsizlikdan chimirildi.

— Xo'sh, nima deysan?

— Mana, ko'rib qo'y. — Edis yozuv stolining yoniga bordi. Stol deraza oldida turardi. Edis chizmalar o'ramini yecha boshladi. — Sen bilan uchinchi qavatning loyahasini muhokama qilishim lozim.

— Nimasini muhokama qilasan? Men uni ma'qullayman.

Edis bir zumga ko'zlarini yumdi.

— Vuds, iltimos, ertalabdan hazilga balo bormi?!

Uning uzun ko'rsatkich barmog'ining silliqlangan pushti tirnog'i chizmaning «xona» deb yozilgan joyiga qadaldi. Edis eriga qaradi.

— Bu xona sen uchun, — dedi Edis. — Men yozuv stolini qaerga qo'yishingni bilishim lozim.

— Men bu yerda nima qilaman?

Edis yelkasini qisdi.

— Bu borada hech qanaqa tasavvurga ega emasman, azizim. Faqat shuni yaxshi bilamanki, Chikagoda uyda o'tirib ishlaydigan xonang bor edi, demak Nyu-Yorkda ham bo'ladi.

— Bu yerda men qanday rol ni bajarishim kerak, Edis? Oilasi davrasidagi ko'ngilchan keksa bankirnimi? Yoki serg'ayrat yosh moliya korchaloninimi?

— Hamma balo shunda-da, — so'zini bo'ldi Edis. — Bunaqasi qo'ysak, quyosh to'g'ri ko'zingga tushadi.

— Edis, — keskin e'tiroz bildirdi Palmer. — Buning nima ahamiyati bor? Bu yerda o'tirib ishlaydigan xonaning nima keragi bor o'zi? Agar bordi-yu, o'tirsam ham faqat kechqurunlari o'tiraman-ku.

— Ha, to'g'ri, — dedi Edis va unga o'girildi, — Ha, bo'lmasam-chi?

— Sen yana mendan so'rayapsanmi? Axir, savolni men berdim-ku!

U bir necha soniya erini indamay kuzatib turdi. Edis o'ziga xos qarash bilan boqarkan, go'yo shu damda Palmer nima haqida o'ylayotganini, umuman, olamda nimalar bo'layotganidan xabardor ekanday tutardi o'zini.

— Albatta, — deya so'zini davom ettirdi Edis nihoyat, — bolalar ham vaqt-vaqti bilan bu xonadan foydalanib turadilar. Chunki barcha ma'lumotnomalar shu yerda bo'ladi.

— Mana, endi biz bir qadam olg'a bosdik. Bu mening xonam, lekin bolalar ham vaqti-vaqti bilan undan foydalanib turadilar.

— Balki har kuni foydalanib turishar. Shuni unutmaki, bu yerda qomuslar, lug'atlar, iqtisod va bank ishiga doir barcha kitoblar bo'ladi. — Edis jim qolib eriga qaradi. — Sen bu yerga yana nimani qo'ygan bo'larding? Poulk ma'lumotnomasinimi? Har xil mavzudagi ma'ruzalardan ko'chirmalar? Yoxud Bartlettnimi?

Palmer chizmadan changni qoqib tashlab, stolning bir chekkasiga o'tirdi.

— Voy xudoyim-ey, Bartlett menga birdan nima uchun kerak bo'lib qoldi? — so'radi u.

— Sening ma'ruzalaring uchun. Axir ma'ruzalar uchun tayyorlanasan-ku.

— Ularni men o'zim tayyorlamayman.

Edis ko'zlarini parket to'shamasiga qadagancha jimib qoldi. Keyin boshini asta ko'tarib, Palmerga qaradi. Bu safar uning nigohi har narsani biladigan emas, hayratlangan edi.

— Nima, ularni o'zing yozmaysanmi?

— Ma'ruzalarni butun bir guruh tayyorlaydi.

— Kimlar? — hayron bo'ldi Edis.

— Kimlar? — xuddi aks-sadoday qaytardi Palmer. — Bank xizmatchilari, Bernsning xodimlari, ularning ko'pini o'zim ham bilmayman.

O'zining bunday tan olishi yaxshilikka olib bormasligini his etgan Palmer o'rnidan turib, eshikka qarab yurarkan:

— Sening besh yoki o'n daqiqang tugadi, Edis. — dedi.

— Ha, bilaman. — U eridan ko'z uzmasdi. — Vuds!

— Ha!

— Menga ayt-chi, nutqingni o'zing yozmasang, bankda kun bo'yi nima qilasan?

Xotining hujumga o'tishini sezib, Palmer birinchi bo'lib zarba berishga shaylandi.

— Iy-e, namuncha ahmoqona savol? — to'ng'illadi u.

— Ha, albatta. Axir o'zing hech narsa gapirmay meni noqulay ahvolga solayapsan.

— Seni shunga majbur qildimmi?

— Mana bu ishlaydigan xonang singari, — dedi Edis. — Juda ahmoqona ish bo'ldi, shundaymasmi? Agar mening o'rnimda me'mor yoki bezakchi bo'lganida, ularga hammasini tushuntirishni o'z burching deb bilarding. Ehtimol, uyni qayta qurish bilan bog'liq ishlarga men aralashmasam-u, buni mutaxassislar qilsalar senga yaxshiroq bo'lar? Balki ular uchun vaqt toparsan, axir menga vaqt ajratolmayapsan, mutaxassislarga ko'rsatmalar berarsan. Keyin men ulardan so'rab olarman. Hech bo'lmasa men shu tariqa bilardimki, sen... — Edis birdan to'xtab qoldi, yana qandaydir so'zlarni aytib yubormaslik uchun pastki labini tishladi...

So'ng yana chizmalar ustiga engashdi.

— Pastda seni mashina kutayapti, — dedi Edis, muloyim ohangda. — Coat yigirmata kam to'qqiz bo'ldi.

— Ha-ya, — dedi o'rnidan jilib Palmer, — Menga qara, afsuski, seni xafa qilib qo'ydim. Lekin savoling ham juda bema'ni edi-da, jin ursin.

— Qaysi savolim?

— Mening kun bo'yi ishda bandligim haqidagi-da...

— Sening juda ko'p ishlayotganingga shubha qilmayman, — dedi Edis yana o'sha muloyim tovush bilan. — Men bunday qilmasligim kerak edi, bu adolatdanmas.

— Yo'g'e, nima deyapsan, juda adolatdan-da, — dedi u alamli tovushda va eshikka burildi. — Men tushlikdan so'ng senga sim qoqib, men uchun bugunga nimalar belgilanganidan xabardor qilaman.

— Esingdan chiqmasin, bugun biz Gremlarnikida ovqatlanamiz, — eslatdi Edis, eri xonadan chiqayotganda.

— Yaxshi.

— Vuds! — chaqirdi Edis uni orqasidan.

— Nima? — u ostonada to'xtadi.

— Yaxshilab o'ylab olgach, bankda nima ish qilayotganingni menga tushuntirib berarsan.

Palmer eshikni qarsillatib yopdi. U bunchalik qattiq yopishni istamagandi. Mehmonxona xizmatchilari e'tiborini tortmaslik uchun, albatta. Lekin shu darajada qattiqki, Edis tushunib olsin, bu safar qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarishiga sal qoldi.

O'n oltinchi bob

Palmer o'z xonasining ulkan oynasi oldida turib, Sentral-parkdagi daraxtlarning qo'ng'ir va qizil barglarini tomosha qilardi. O'zgarish eng so'nggi kunlarda yuz berdi. Yaqindagina quyosh nurlari ostida yashnab turgan yashil yaproqlar bir kechaning o'zida so'ldi.

Interkomning bo'g'iq ovozi jiringladi va Palmer kattakon xonaning qarshi burchagida turgan stolga

o'girildi. U oyna oldidan istamaygina stol yoniga bordi, «kotiba» deb yozilgan yashil chiroqli tugmani bosdi.

— Ha?

— Miss Kleri sizni ko'rmoqchi ekan, mister Palmer.

— Yaxshi. Mayli kirsin.

Palmer stol chetiga o'tirdi. Miss Kleri uning xonasi bo'sag'asidan o'tdi va odatdagidek eshigini qiya ochiq qoldirdi. Bugun u to'qqizil yumshoq jersidan tikilgan ko'ylakda edi. Bu ko'ylakda uning ingichka beli va do'mboq sonlari yaqqol sezilib turardi.

— Siz so'ragan materialni olib keldim, — dedi miss Kleri. Uning yuzi Palmerning sinovchan nigohi ostida qotib qolganday edi. U ayolga hamon diqqat bilan qarab turardi.

— Xayrli tong, — dedi u, gap nima haqidaligini darhol eslolmay. — Qanaqa material? Ha-ya.

Palmer o'rnidan turib, eshik oldiga bordi-da, uni yopib qo'ydi.

— Siz buni hech kimga bildirmay tayyorladingizmi? — so'radi u stol yoniga qaytib borib, oromkursiga o'tirarkan.

— Albatta. Bu materialni topishda menga «Star» tahririyatidagi eski bir tanishim yordam berdi.

Miss Kleri qo'lidagi jildni Palmerni uzatdi, keyin o'rindiqa cho'kib, bir oyog'ini ikkinchisi ustiga olmoqchi edi, lekin fikridan qaytib, ikki oyog'ini juftlab o'tirdi. Palmer jildagi qog'ozlarni varaqlab chiqdi. Bu Jo Lumis hayoti va faoliyati haqidagi qoramalar edi.

— Siz o'zingiz bularni ko'rib chiqdingizmi? — so'radi Palmer

— Men ularning tadrijiy izchilligini tekshirib chiqdim, — javob berdi ayol.

Palmer qoshini chimirdi. Miss Kleri bugun o'zini o'ta rasmiy tutardi. Go'yo ularning kechagi norasmiy tushligi uchun o'z aybini yuvmoqchi bo'layotganga o'xshaydi.

— Bundan biror narsani o'qidingizmi? — yana so'radi Palmer.

— Faqat uning amaliy aloqalariga doir materiallarini o'qidim. So'ng ularni umumlashtirib, jildga qistirib qo'ydim.

— Juda soz.

— Yulduzchalar bilan belgilab qo'yilgan kompaniyalar — Lumis boshqa qiziqmay qo'ygan korxonalar va inqirozga uchragan firmalardir.

— Juda yaxshi, — dedi Palmer.

— Agar siz ushbu varaqni ko'zdan kechirsangiz, hozirgi paytda Lumisning juda sustligiga ishonch hosil qilasiz. Unda hozir bor-yo'g'i o'ntacha majburiyat bor, xolos.

— Majburiyatlarning bajarilishida u faol ishtirok etmayaptimi? — so'radi Palmer.

Miss Kleri «yo'q» deganday bosh chayqadi.

— Mening tanishimga yaxshi ma'lum va men o'zim buni boshqa manbalardan tekshirib ko'rdim, mister Lumis o'z diqqat e'tiborini «Jet-Tex interneshnl» faoliyatiga qaratgan.

Palmer tushunarli deganday bosh irg'ab qo'ydi:

— O'zini «Jet-Tex»ga baxsh etish — bu sakkizoyoq bilan qo'l to'pi o'ynash deganday gap.

Virjiniya Kleri Palmer oldida turgan qog'ozlarga ishora qilganday iyagini sal ko'tardi.

— Agar siz ikkinchi varaqni ko'zdan kechirsangiz, unda barcha filiallarning to'la ro'yxatini topasiz.

Palmer jildni stol ustiga — o'z oldiga qo'ydi-da, Virjiniya Kleriga tikilib qaradi.

— Tan olishim kerakki, layoqatli so'zining asl ma'nosini chinakamiga endi tushunib yetdim.

— Tashkkur, — dedi qisqa qilib miss Kleri.

— Bu oxir-oqibat bizning bevosita majburiyatimizga kirmaydi, — davom etdi Palmer, — men siz tayyorlagan materialni nazarda tutayapman. Men uni bizning kreditlar bo'limimiz orqali talab qilishim kerak edi.

— Agar siz unga bir yarim oy sarflashni lozim topsangiz, albatta, — ta'kidladi miss Kleri.

Ertalabdan beri endi bir-biriga jilmayib qo'yishdi.

— Lekin men Lumisga bir yarim oydan keyin emas, bugun telefon qilmoqchiman, — dedi Palmer va firmalar ro'yxatini ko'zdan kechira boshladi.

— Ulardan ayrimlari menga butunlay noma'lum.

— Men ham barchasini bilmayman, lekin...

Palmer ichida firmalarning nomini o'qiy boshladi.

— Uillington korporatsiyasi «Jet-Tex industriz» — bu ularning markazimi?

— Mening bilishimcha, ha.

— Binobarin, «Jet-Tex interneshnl» shohobcha bo'lib, butunlay uning tasarrufidadir, — fikr qildi Palmer. — Demak, u raketa dvigatellarini tayyorlovchi «Xay trast menyufekchering» korporatsiyasini ham nazorat qiladi. «Konsolideyted enerji» kompaniyasi-chi? Ular nima tayyorlashadi?

— Yuksak faoliyatli qorishma, — tushuntirdi miss Kleri. — Qattiq yoqilg'i, suyuq kislorod, batareyalar. Keng iste'molchilarga mo'ljallangan mahsulotlar ham tayyorlaydi, jumladan, qo'l fonarlari uchun batareykalar va avtomobil akkumulyatorlari.

— Uyg'unlikni qarang, — dedi Palmer, — «Konsolideyted» kompaniyasi «Xay trast» raketalariga yoqilg'i beradi. Shu yerda mikrorele tayyorlovchi yana bir shohobcha paydo bo'ladi. Tag'in nima ishlab chiqarishadi?

— Tranzistorlar, diodlar, kondensatorlar va hokazo...

Palmer ro'yxatni ko'zdan kechirishda davom etdi.

— Mana bu filial esa, — dedi u, — yozuv va hisoblash mashinalari ishlab chiqaradi. Ular Germaniya va Italiyaning elektron-hisoblash apparatlari ishlab chiqaruvchi firmalari bilan ham hamkorlik qilishadi.

— Atom reaktorlari uchun avtomat uskunalar ishlab chiqaruvchi kompaniya aksiyalarining qirq besh foizi ularga tegishli.

— Mana, nihoyat, faqat atom ishlari bilan shug'ullanuvchi firmaga ham yetib keldik, — gapni ilib ketdi Palmer. — Mazkur firmaning faoliyatiga bevosita Uillingtondan rahbarlik qilishadi. Ayting-chi, hozir ular Ouk Rijda biror narsa qilishyaptimi?

— Yo'q, u yerda «Yunion karbayd» firmasi ishlayapti.

— Demak, ular hozir Vashingtonda yoki Nyu-Meksikoda nimadir qilishyapti. Yana qanaqa firmalar bor? Raketalar va yer usti tayanch nuqtalari uchun uskunalar. Mana, alyuminiy ishlab chiqaruvchi korxonalar. Bu korxonalar Chili va Peruda rux va mis tarmoqlari aksiyalariga egalik qiluvchi kompaniyaga qaraydi. Karib dengizi mintaqasida boksit, uran, neft qidiruv ishlari ham uning tasarrufida. Luizianada oltingugurt ishlab chiqarish. Alkuppada asbobsozlik zavodi. Kantonda kauchuk. Byornbankda tranzistor jihozlari zavodi, Takomda yog'och tayyorlash... Iy-e, bunisi nima? Nahotki velosipedlar?

— Nega hayron bo'layapsiz?

— Velosipedlar, — dedi u o'ylab. — Biroq, «Koordineyted uestern end yunayted kompani» nomi ostida nima yashirinib yotibdi, jin ursin?

Miss Kleri o'ylanib qoldi.

— O'ylashimcha, — dedi u, — ular g'arbiy shtatlar uchun mo'ljallangan turli mollar ishlab chiqarishni uyg'unlashtirishga urinayaptilar.

Palmer mamnun holda jilmayib hujjatlar jildini yopdi.

— Juda yaxshi, miss Kleri, — dedi u, — tan berishga tayyorsiz degan umiddaman.

— Ta'rifga so'z yo'q...

— Buni tayyorlash uchun qancha vaqt ketdi?

Miss Kleri yelka qisdi:

— Bular hammasi urushdan so'nggi yillar mahsuli. Aniqrog'i 1952 yil mahsuli. O'shanda Lumis guruhi yashirin olib borilgan kurashdan keyin hokimiyatni qo'lga oldilar...

— Siz yana 1952 yilgi voqealardan ayrimlarini esdan chiqarayapsiz, — dedi Palmer. — Koreyadagi urush va Eyzenxauerning prezident bo'lib saylanishi singari arzimmas voqealar... — Palmer tag'in jildni ochib, mashinkada ko'chirilgan xabarni ko'zdan kechira boshladi. — Men bilishni istayman, — dedi u, — ushbu saltanatning qanday qismi faqat qog'ozdagina mavjud. Ushbu birlashmalardan ayrimlari faqat soliq to'lashdan qutulib qolish maqsadida tuzilmaganmikin? Balki ularni ishga tushirib yuborishgandir. Umuman «Jet-Tex industriz» mavjudmikin?

— Ha, qaniydi mavjud bo'lsa, — dedi Virjiniya Kleri. — Bizda shu kompaniyaning aksiyalari shu qadar ko'pki, ulardan Marsgacha yo'l solsa bo'ladi.

— Rostdan ham shunaqami? — o'ylab qoldi Palmer. — Biz «Xadson trast» bilan birlashganimizda bu aksiyalarni meros qilib olmadikmi, ishqilib?

— Men buni aniq bilmayman, — javob berdi miss Kleri. Faqat shuni aytishim mumkinki, birgina «Jet-Tex» firmasining qog'ozlari bilan bosh boshqarmada vitse-prezident yordamchisi va ikki xodim shug'ullanmoqda.

— Ehtimol, siz bank ishiga uncha yaxshi tushunmassiz, — dedi Palmer, Virjiniyaning bamaylixotir o'tirganini ko'rib, — lekin muhim qismlar tafsilotiga jiddiy e'tibor berarkansiz.

— Men oldin aytganimday, uni yaxshi tasvirlash uchun mushuk bo'lish shart emas, — takrorladi miss Kleri.

Palmerga bu ayolning uning nigohidan ko'zini olib qochishini tomosha qilish yoqardi. Uning yirik ko'zlari Virjiniyaning yubkasi etagini diqqat bilan kuzatar, keyin sekin sirg'alib pastga, tizzalariga tushardi. Palmer uning ingichka to'piqlariga tekis tutashib ketuvchi dumaloq boldirli xushbichim oyoqlariga ehtiros bilan bilan qaradi. Tizzalarini mahkam jipslashtirib turibdi. Palmer uning poshnasi gilamga botib turganigacha e'tibordan qochirmadi.

Virjiniya Kleri o'rnidan turdi. Uning bo'yi sal o'sinqiraganday ko'rindi. Palmer ham qalqdi, nega shunday qilganini o'zi ham tushunmay, nazokat yuzasidanmi yoki uning bo'yini o'zining bo'yi bilan solishtirish uchunmi.

— Harholda, sidqidildan qilgan ishingiz uchun sizdan minnatdorman, — dedi Palmer.

— Bu muammolaringizni yechishga yordam beradi deb umid qilaman. — Ularning nigohlari to'qnashdi. — Endi Jo Lumisga telefon qilsangiz bo'laveradi.

— Ha, albatta.

— Balki yana biror narsa kerakdir?..

— Yo'q. Rahmat sizga.

— Mayli, — dedi Virjiniya, — unday bo'lsa men o'z xonamga ketdim.

— Yana bir bor katta rahmat sizga, — dedi Palmer va chakkalariga qon quyilayotganini his etdi.

U lablarini mahkam qisib, oldinroq yurib bordi-da, miss Kleriga eshikni ochib berdi. So'ng unga qaramaslikka harakat qilib, sal engashdi. Bugun qarab olgani yetar.

Virjiniya yonidan o'tib, tashqariga chiqdi, undan yengilgina ifor hidi qoldi, Palmer uning qanday atir ekanligini ham ilg'ay olmadi. Miss Kleri dahlizdan o'tib, burchakka burildi-da g'oyib bo'ldi. Palmer esa eshikni yopib stoli yoniga qaytdi va o'rniga o'tirdi. So'ng interkomga qaradi va «Elder» yozuvli tugmachani bosdi. Yashil chiroq yonib, mikrofondan ovoz eshitildi:

— Labbay?

— Garri, Palmerman! Bo'sh vaqtingiz bormi?

— Ha. Aytavering, — dedi Garrison Elder do'rildoq ovozda.

— «Jet-Tex» haqida nima deya olasiz?

— Yigirma beshta so'zdami yoki undan ham qisqaroq bo'lsinmi? — dedi Elder kulib.

— Ularning biz bilan aloqasini qanday baholaysiz?! — qat'iy so'radi Palmer.

— Buni hozir aytish qiyin. Odatda Pol Jerati ular bilan ishni o'zi olib boradi. O'shanda hisob-kitob «Xadson trast» orqali qilinardi. Gunohlarini tangri o'zi kechirsin.

— O'sha gunohlari qancha edi? — so'radi Palmer.

— Ularga o'z ishlarini turli korporatsiyalar nomi bilan amalga oshirishga imkon berishardi. Bu korporatsiyalar ularning ro'yxatida bor.

— Shunaqami? Buning evaziga kaltakni kim yeydi, bizmi?

— O'sha kaltaklar bizga foyda keltiradi, — e'tiroz bildirdi Elder. — Men bu ishga hech qachon aralashgan emasman. Zarurati bo'lmagan. Agar xohlasangiz, yigitlarimdan bittasini bu ishga jalb qilaman. Bir haftada uddalaydi.

— Sizning shaxsiy bilimmi fikringiz qanday?

Elder yana kuldi:

— Hozir kim ham o'zini bilimli deb hisoblay oladi, jin ursin? Mayli, keling, tahlil qilamiz. Asosiy kompaniya bank jarayonlarini Delaverda amalga oshiradi. «Jet-TEX interneshnl» o'z korxonalarini takomillashtirish uchun bizdan kreditlar oldi. Bundan tashqari, biz sho'ba kompaniyalar bilan hisob-kitoblarda vositachi sifatida qatnashamiz. Va, albatta, barcha aktsiya muomalalarida biz vakil sifatida qatnashamiz...

— Garri, men ba'zi narsalarni aniqlashtirmoqchiman. Bizning ular bilan muomalamizdagi jarayonlarning umumiy miqdori...

— Biz «Kontinental ekuipment» bo'yicha ularning qarzini uzdik, — dedi Elder. — Umuman, biz ularga sakkiz yuz million o'tkazdik...

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Elderning so'nggi so'zlari ulkan xonani to'ldirib yuborganday bo'ldi.

— Vuds! — baqirdi Elder. — Allo, Vuds!

— Rahmat, Garri.

— Bu faqat taqribiy raqam.

— Tushunaman.

— Balki men uni yigirma besh foizga oshirib yuborgandirman.

— Biroq umumiy manzara menga tushunarli, — dedi Palmer. — Hatto siz yigirma besh foizga oshirib yuborgan bo'lsangiz ham. Har holda «Jet-TEX» bizning barcha amaliy muomalalarimizning kamida besh foizini tashkil etadi. Agar siz kam tomonga adashgan bo'lsangiz ham ularning ulushi bu jarayonlarning o'n foizini qoplaydi, shundaymi?

— Ha. Ular bilan amaliyotimizning hajmi taxminan shunday, — rozi bo'ldi Elder.

— Boshqacha aytganda, ular bizning eng yirik mijozlarimiz.

— Ha, albatta.

— Yana bir bor tashakkur, Garri.

— Foydam tekkanidan xursandman.

Palmer bir muddat interkom tugmachalariga qarab, qimir etmay o'tirdi. Keyin stol ustidan cho'zilib, kechagi kun belgilari qo'yilgan varaqlarni oldi, ulardan birida qayd qilingan Lumis telefoni raqamini topdi. So'ng telefon go'shagini ko'tardi-da, ko'rsatilgan raqamlarini terdi.

— Mister Lumis? — dedi Palmer. — Vuds Palmer gapirayapti.

Go'shakda keksa kishining ovozi eshitildi:

— Afsuski, mister Lumis shaharda yo'qlar. U dushanba kuni qaytib keladi. Men uning kotibiman, janob Palmer. Mister Lumis uchun biror xabar qoldirasizmi?

— Mister Lumisga men telefon qilganimni ayting.

— Xo'p bo'ladi.

Palmer go'shakni qo'ydi. U kaftlari namiqqanini his qildi. O'zini bosishga urindi. Ayni paytda shunday bo'lganidan o'zida qandaydir yengillik sezdi. Aslida, hozir keksa Lumisga nima deyishini o'zi ham bilmasdi.

Palmer o'rnidan turib, oyna oldiga bordi. U bugun eshitgan ma'lumotlar ustida bosh qotirishga urindi. Bu yerda nimadir qovushmayapti, o'yladi u. Lumis o'z puli saqlanayotgan o'sha bankka nisbatan sodiq bo'lishi kerak edi. Moddiy jihatdan manfaatdor bo'lmagan jamg'arma bankiga esa xolis bo'lishi dargumon.

Palmer deraza oldida turib «Plaza» mehmonxonasi yonidagi aylana arg'imchoqqa qaradi. Doira aylanib, bir oz oldinga siljidi. Yosh yigit va qiz kelib arg'imchoqlarning birinchisiga o'tirgach, u yurib ketdi.

Qizning kiyimi qizil, sochlari qora edi. Bu Virjiniya Kleri bo'lsa-chi, o'yladi Palmer. Lekin shu zahoti bu fikridan qaytdi.

O'n yettinchi bob

Keksa ofitsiant tushlikdan so'ng stoldan idish-tovoqni yig'ishtirib oldi. Oromkursiga yastanib, Palmer qariyaning yuviladigan idishlarni aravachada olib ketayotganini kuzatdi. Nega bunaqa ko'ch ko'tarib yurish xotinidan ko'ra o'zining g'ashiga ko'proq tegayotgani haqida o'ylashi birinchi bor emas. U sigareta chekdi, uning olovi va tutuni panasida qahva quyayotgan Edisga nazar soldi.

U hamishagidek ishchan ko'rinishda. Turmaklangan sochini har bir tolasi silliq taralgan. Bugun ko'zlarini odatdagidan ko'proq bo'yagan, ular katta va ifodali ko'rinayapti. Yuzining terisi jilosiz va mayin. Hozir Edisni kuzata turib esiga tushdi, ertalab unga qo'pol muomalada bo'ldi.

Gap nimada? — o'yladi Palmer. Nega u xotinidan hamisha norozi? Edis nima qilmasin ko'ngildagidek bo'lmaydi, nega? Yo u xotinini yaxshi bilib oldi, endi uni qiziqtirmay qo'ydimi?

Edis eri uni kuzatayotganini sezdi, boshini ko'tardi, ko'zlari to'qnashdi.

— Senga qahvami? — so'radi Edis va yaxshilab to'ldirilgan finjonni uzatdi. — Hozir nima haqda o'ylading?

— Hech, o'zim shunday.

— Men esam, o'sha «hech» deganing bunchalik teran bo'ladi, deb tasavvur ham qilmagandim, — dedi Edis.

— Men, bilsang, — dedi Palmer hech bo'lmasa sal-pal rostgo'y bo'lishga intilib, — bugun ko'rinishing juda chiroyli, deb o'yladim.

Edisning qo'y ko'zlari katta-katta ochildi. Xonaning sun'iy yorug'ida ular kulrang ko'rinib ketdi.

— Faqat to'qima, azizim, — dedi Edis. — Sen mening «rasmiiy» ko'rinishimga baho berding, shundaymasmi?

— Yo'q, — javob berdi Palmer.

— Unda sen, balki uydagi shuncha tashvishlardan vaqt topib, o'ziga qarashga qanday ulgurgan ekan, deb hayron bo'layotgandirsan?

— Bu ham xayolimga kelgani yo'q.

— Mayli, agar bilishni istasang, bilib qo'y: bugun biz birgalikda uyda o'tkazayotgan birinchi kecha. Butun hafta mobaynida birinchi marta, shekilli? Shuning uchun harakat qildim.

— Juda xursandman, — dedi Palmer, bu yolg'onni ham qabul qilarmikin, deya o'zicha fol ochib.

— Mayli qo'yaver, qahvangni ich, — Edis bir oz jim qoldi, keyin sekingina aytdi: — Bugun ertalab ko'z o'ngimda juda dahshatli voqea yuz berdi. Ishchilarimizdan biri havozadan yiqilib tushdi.

— Qattiq lat yedimi?

— Singan joyi yo'q, lekin usta uni uyiga jo'natib yubordi. Men tabib ko'rsin, deb turib oldim, usta o'zim g'amxo'rlik qilaman deb va'da berdi. Lekin men buni qanday qilib tekshiraman?

— Axir, u sug'urta qilingan

— Men buni aytayotganim yo'q, Vuds, — e'tiroz bildirdi Edis. — Avvallari men bunday hodisalar faqat katta qurilishlarda, osmono'par binolarni tiklashda yuz berishi mumkin deb o'ylardim. Lekin bu narsa shundoqqina o'z uyingda yuz bersa, odam o'zini yo'qotib qo'yarkan.

— Baxtsiz hodisalar istagan yerda yuz berishi mumkin.

Edis xo'rsindi va qo'lini Palmerning sigaretasiga cho'zdi.

— Gap bundamas, azizim, — dedi u. — Lekin men haliyam o'zimga kelolmayapman.

Palmer gugurtni yoqib, Edisning sigaretasiga tutdi.

— Yuragingga yaqin olaverma. Ertami, kechmi, hammamiz shunga ko'nikib ketamiz. Axir, senga o'sha havozadan yiqilib tushgan ishchichalik yoki mashina bosib ketgan bolachalik yoxud Sentral-parkda yigitlar zo'rlagan qizchalik og'riqli emas-ku.

Edis peshanasini tirishtirdi va sigaretasining so'nib borayotgan cho'g'iga qaradi.

— Bilasanmi, mening shunday yashagim keladi, toki atrofimda shunday qo'pol zo'ravonlikni ko'rmasam deymen. Bu yerda, Nyu-Yorkda har qadamda shundaylarga duch kelasan.

— Sen o'zga shaharlarda butunlay boshqacha deb o'ylaysanmi?

Edis uning fikrini rad etganday, qo'lini siltadi.

— Faqat o'z haqimda gapirayotganim yo'q, buning bolalarga qanday ta'sir qilishi meni tashvishga solayapti.

— Ular har qanday o'zgarishlarga moslashib ketishadi, — dedi Palmer yengil kinoya bilan. — Sen bo'lsang, hecham o'rganolmayapsan.

Edis erining gapini tasdiqlab bosh irg'ab, uni hayron qoldirdi.

— Ha, hali ko'nikkanimcha yo'q. Vaqti bilan hammasi o'tib ketadi, lekin tan olaman, bu meni sira quvontirmaydi. Men Jerriga o'xshab o'n bir yoshda emasman, qirqni urib qo'ydim. Bu yoshda kutilmagan o'zgarishlarga ko'nikish juda qiyin.

— Baxtimizga senga o'ttiz uchdan oshiq berish qiyin, shundaymasmi?

— Bugun ertalab menga qarashingdan aslo unaqaga o'xshamaydi.

— Birovning o'yini o'zgacha talqin qilish istagi tug'lsa, bu boshqa gap, men...

— Nima bo'lganda ham, — uning so'zini bo'ldi Edis. — Eng yomoni shundaki, biz Nyu-Yorkda hech kimni bilmaymiz. Yangi tanishlar orttirish istiqboli esa meni qiziqtirmaydi.

— Biroq biz juda ko'plab har xil odamlar bilan uchrashamiz, hatto haddan tashqari ko'p, deyish mumkin.

— Bu rasmiy tashriflar, xolos, — javob berdi Edis. — Bizni turli sabablarga ko'ra taklif qiladilar. Ko'proq qandaydir umumiy tanishlar orqali, albatta. Uyimiz tayyor bo'lmagani uchun hozir biz taklif qilolmayapmiz. Hali biz ham da'vat qilamiz, albatta.

— Bu yerning odamlari bizning chikagolik do'stlarimizdan farq qilmaydi.

Edis nafasini rostdab oldi:

— Do'stlar — baribir, do'stlar-da. Birinchi uchrashayotgan odamlarimiz esa hali do'st bo'lolmaydilar. Harholda men shunday deb o'ylayman.

Palmer o'zining hali ichilmagan qahvasiga qarab, stoldan turdi:

— Men qahvani o'zim bilan olib ketaman. Lekin hayronman, Nyu-Yorkka nisbatan qanaqa xusumating bor?

Edis indamasdan chog'roq xonaga yo'l oldi. Bu xonani mehmonxona ma'muriyati kutubxona deb atardi. Ikkita oromkursining changini qoqib tashlab, ularni stolga yaqin surdi, stol ustidagi kitoblarni olib tashlab, chizmalarni yoydi.

— Nahotki, biz yana uyning tayanch devorlari haqidagi masalani muhokama qilamiz? Xo'sh, men o'zimning yangi xonamda nima qilaman? — so'radi Palmer. — Agar shunday bo'lsa unda men...

— Bu masalani men bugun hal qildim. Soat ikkida hammasi hal qilingan edi, — keskin bo'ldi uning so'zini Edis. — Ertaga sening xonangni suvoq qilishadi.

— Yaxshi. Xo'sh, bugun kechqurungi kun tartibi qanaqa?

Edis stollardan biriga ohista o'tirib, chizmalarni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. G'amgin bir narsani ko'rganday lablari burishdi.

— Vuds, — dedi Edis, — bu yoqqa o'tir-chi.

U o'tirdi va finjonni likopchasi bilan chizmaning ustiga qo'ydi.

— Men kulgili siymo emasman, — dedi u, — va menga bunday muomala qilishlarini istamayman.

— Nega endi sen?..

— Men kulgi bo'lish qanaqaligini yaxshi bilaman, — davom etdi u Palmerning so'zini bo'lib. — Hali o'smirligimdayoq buni boshimdan o'tkazganman. Men o'z tengqurlarim orasida uzunoyoq naynov edim. Lekin jamoatchilik orasida paydo bo'lganimning birinchi yiliyoq mening ustimdan kulmay qo'yishdi. Va men o'zimga bunday muomala qilishlariga qat'iy qarshiman.

— Men umuman seni kulgili deb hisoblamayman, — ishontirdi uni Palmer.

— Sening kun tartibi to'g'risidagi zaharxanda tanbehing-chi? Meni tushunmadi deb o'ylama. Tashkiliy ishlarim senga yoqmayotganini men yaxshi tushunib turibman. Lekin buni men qilmasam, o'zing shug'ullanishingga to'g'ri keladi va bu senga yoqmasligi turgan gap. Men sen uchun biror narsa qilayapmanmi, bari senga ma'qul emas, to'g'rimi?

— Ha, quvnoq emas, faqat bir shart bilan: agar men chindan ham seni shunday ahvolga qo'ygan

bo'lsam. Lekin gap shundaki, bunaqa narsaning o'zi yo'q.

— Shunday hovriqmaydigan vazminlig-u, birdan mana bunday g'ayrioddiy ichki ziddiyatlar majmui, juda qiziq-a, to'g'ri emasmi?

— Men suhbatimizni jon-jon deb davom ettiraman, faqat nimani nazarda tutayotganingni tushuntirib bersang bas, — sovuq javob qildi Palmer.

Edis qahvali finjonni nariroq surdi-da, bir muddat uyning tomi chizmasi bilan andarmon bo'ldi.

— Sen Xaina Kerd ishlagan haykalni o'z xonangda qoldirish niyatidamisan? — so'radi Edis. — Agar goldirmasang, men uni anavi burchakka joylashtiraman. — Edis Palmerni o'girildi va kulib qo'ydi: — Men yana bahs boshlash uchun so'rayotganim yo'q, faqat men shiftni o'ydirishim uchun aytayapman. Axir, keyingi hafta elektr simini o'tkaza boshlashadi.

— Men bu haykalni o'z xonamda qoldirsam degandim.

Edis yana chizmalar ustiga engashdi.

— Mana bu devor bo'ylab zamondosh rassomlarning tasvirlarini ilishimiz mumkin, natyurmortlardan tashqari, rozimisan?

Palmer ko'zlarini qisib, chizmalarga diqqat bilan tikildi.

— Mana bu nima, dahlizmi? — so'radi u.

— Dahlizning bir qismi, — javob berdi Edis. — Mana bu, dahlizni bo'lib turadigan devor. Qarshi emasmisan?

— Yo'q.

— Konstebel chizgan rasm, onamning sovg'asi, mana bu yerda osig'liq turadi, — davom etdi Edis. — Engr esa narigi devorda. Shu rasmlar tevaragida kenggina bo'sh joy hosil bo'ladi. Binobarin, ularga hech narsa xalaqit bermaydi. Men Ernstning polotnosini boshqa barcha modernchi rassomlar asarlari yoniga ilishni istardim. Uni mana bu yerga ilib qo'ysak-chi?

— Juda soz.

— Natyurmortlar oshxonaga ilinadi. Maylimi?

— Mayli.

— Gravyuralar boshqa xonalarga mo'ljallanapti. Fraskoni bilan Pirsni mehmonlar xonasiga ilsak bo'lar, a?

— «Baliq ovi» gravyurasidan boshqasini. Uni men o'z xonamga qo'ymoqchiydim, — qayd etdi Palmer.

Edis yana unga o'girildi:

— Yana nima gunoh qilib qo'ydim? Nima bilan izzat-nafsingga tegib ketdim? Shu paytgacha menda: bularning hammasi sening joningga tegib ketdi, zerikarli bo'lib qoldi, degan tasavvurda edim.

Palmer o'rnidan turdi:

— Edis, bularning hammasi nimani anglatishini men bilmayman, lekin shuni ayta olamanki, hammasi jonimga tegdi. Yetar endi.

Edis xonaning qorong'i burchagiga tikilganicha jim qoldi. U o'ychan bosh chayqadi:

— Ha, sen haqsan, Vuds. — U Palmerning boshidan oyog'igacha qarab chiqdi-da, qo'shib qo'ydi: — Vuds, bularning zamirida nima yotganini men ham bilmayman. Kel, men bilan bir oz o'tir; menga bir oz yordam ber, maylimi? Men boshqa bunday qilmayman.

Palmer tag'in o'tirib, qahva icha boshladi. Ularning tepasida osilib turgan elektr chirog'i stolga va to'shamaga doira shaklida dog' tushirib turardi. Qahvali finjonda kichkinagina sariq uchqun o'ynardi, Edisning malla soch uyumi esa, uning yuziga soya solib turardi.

— Mening ichki ziddiyatlarim majmui haqida gapirganda nimani nazarda tutding? — so'radi Palmer, bosiq gapirishga urinib.

Edis sezilar-sezilmas yelka qisdi.

— Menda shunday taassurot vujudga keldiki, — javob berdi Edis ham o'sha ohangda, — sen aslida juda murakkabsan. Men esa o'sha oddiymen. Sen odam ko'zini shamg'alat qilishga ustasi farangsan, men esa bunday qilolmayman.

— Nimalar deyapsan o'zi? — qat'iy so'radi Palmer.

— Biz nikohdan o'tganimizda sen butunlay boshqacha ko'ringanding, — dedi Edis sekin ovozda. Shunda Palmerning miyasiga u gapimni eshitmasin degan fikr keldi. U o'tirgan joyida sal oldinga engashdi. — Sen men bilgan o'smirlardan ancha farq qilarding. O'zingni erkin tutarding, maqtanchoqlik qilmasding. Sen boshqalar kalaka qilmaganlar ustidan kularding. Uchta kollejni almashtirganing bilan shuhrat qozonganding. Sharqiy sohilda yashagan paytingda bir qiz bilan oralaringda bo'lgan voqealar haqida gapirishardi.

Edis jim qoldi. U xuddi ko'zboyloqchi singari qo'lini goh u yoqqa, goh bu yoqqa ag'darardi, yengining ignatugmasidagi tosh yaltirab ketardi.

— Lekin, shularga qaramay, sen baribir menga murakkab shaxs bo'lib ko'rinmaganding, — yana gap boshladi Edis. — Sen o'shanda murakkab emasding... Keyin Xenli halok bo'ldi.

Palmer bosh irg'adi:

— Sen bu hodisaning ahamiyatini to'g'ri his qilding.

— Lekin o'shanda o'zgarish birdaniga yuz bergani yo'q. Hatto armiyada, ta'til va safarga kelganingda ham ko'p jihatdan hamon oldingiday eding. Yevropada qancha vaqt bo'lding? Ikki yilmi?

— Bir yarim yil.

— O'sha Yevropadan qaytib kelganingda, senda o'zgarish yuz berganini sezdim. — Edis eriga qaradi. — Bankda Xenlining o'rnini egallashga seni hech narsa majbur qilgani yo'q. Otang ham bu haqda so'ramagan edi.

— Unda buning uchun zarurat yo'q edi.

— Demak, birinchi ziddiyat, — dedi Edis. — Birinchi, shundan keyin ko'plab boshqalari sodir bo'la boshladi. Vuds, senda butunlay alohida bir narsa bor. Men faqat endigina tushuna boshladim. Qanchalik farq qilishingni...

Palmer jumlaning tugashini kutmay, uni o'zi tamomlashga shoshildi:

— Boshqa oddiy odamlardanmi?

Edis g'alati iljaydi:

— Men faqat savolingga javob berishga harakat qilayapman. Bu unchalik oson emas, ayniqsa, unga hojat bo'lmay turganda.

— Unda javob berish shart emasdi, — taklif qildi Palmer.

Edis bosh chayqadi:

— Mana shu ziddiyatlar bu yil keskin kuchaydi. Otang o'lganidan so'ng bankni sotding. Shundan keyin bunaqa bo'lishi turgan gap edi. Men buni bilishim kerak edi. Lekin men o'shanda sening yangi lavozimga ko'tarilishingni oldindan bilolmasdim. Sen xuddi o'z otangni tiriltirayotganga o'xshaysan, hammasini yangidan boshlayapsan, bu safar Nyu-Yorkda qilayapsan bu ishni.

Palmer oromkursiga suyandi, javob bermaslikka urindi. Shaxsiy ishlari haqida xotirjam, oqilona gaplashishsa ham bo'lardi. Lekin Edis shaxsiy xayrli oqilona suhbat niqobi ostida unga shafqatsiz hujum boshlar ekan, endi bu butunlay boshqa narsa.

— Edis, seni tushunolmayapman.

— Bilasanmi, sen o'zaro munosabatlarning yana o'sha doirasiga tushib qolayapsan, — dedi Edis, — Berxardt ham xuddi otang singari hukmron va mustabid axloqqa ega. Bu yerda, Nyu-Yorkda, sen xuddi Chikagodagidek yana baxtsizsan.

Palmer yana o'zini tutdi.

— Nega meni bu yerda baxtsiz deb o'ylayapsan? — so'radi u beparvo ohangda.

— Buni men o'zingni tutishingga qarab aytayapman. — Edis unga qarab, barmog'ining sovuq uchini Palmerning chakkasiga tekkizdi. — Jahling chiqmasin, azizim, men axir... Edis uning yuzidan ko'zidan olib qochdi. — Lekin sen o'ylayotgandirsan... — Uning ovozi asabiy va bo'g'iq jarangladi. — Sen o'ylaysanki, buni men sening g'ashingga tegish uchun, battolligimdan qildim, — U jim qoldi, uning javobini kutardi. — Shunday-ku, axir?

Palmer tili bilan qurib qolgan lablarini yaladi, o'zini qisuvga olgan tanglikdan bo'shashga urindi.

— Sen hech o'ylab ko'rmadingmi, odam ishga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra ham baxtsiz bo'lishi mumkin-ku? — so'radi u xotinidan xotirjam ohangda.

— O'ylab ko'rdim, — javob berdi Edis, qahvali finjonini qo'lga oldi-da, bir-ikki ho'pladi. — Ehtimol, biz yashayotgan mana bu bema'ni otel bunga sababdir. Balki ushbu shahar boisdir. Yoki noqulayliklar. Ko'rib turibsan-ku, sabablar son-sanoqsiz.

— Biroq, shu sabablardan ham eng olislarini va freydchalarini sanading, — dedi Palmer.

— Sen aftidan bu so'zlarni sinonimlar deb hisoblayotganga o'xshaysan? — javob qaytardi Edis.

— Yo'q, sen qandaydir aylana yo'llar bilan fikrlaysan va hammasini Freydchasiga talqin qilasan. Ehtimol, bu mening murakkabligim tufaylidir, — deya qo'shimcha qildi Palmer.

— Sen soddadillik niqobi ostiga berkinmayapsanmi, ishqilib? — so'radi Edis.

— Men urinib ko'rayapman, — deya boshlamoqchi edi Palmer, birdan bahslashuvlarining ahmoqona ekanini tushunib qoldi. — Iltimos, meni to'g'ri tushun, men xotim ko'z o'ngida o'z obro'-e'tiborimni qanday bo'lmasin saqlab qolishga intilayapman. Chunki xotim shundoqqina ko'z o'ngimda psixoanalitikka aylanib borayapti.

Edis qahvani mayda qultumlab ichishda davom etdi.

— Mayli, sen aytgancha bo'la qolsin, — dedi Edis nihoyat. — Lekin bitta savolimga javob ber. Bu men shuni bilish huquqiga egaligim tufayli emas, yo'q. Ammo muqaddas ruhlar haqqi ayt: bu ish senga nima uchun kerak bo'lib qoldi?

Palmer javob berishga shoshilmadi. Edisga yetarli darajada tushunarli bo'lishi uchun yaxshilab o'ylab, talqin qilishga tayyorlandi. Lekin bu dalillar rostdan ham shundaymi? U asta nafas oldi.

— Rostini aytsam, besh yil mobaynida sezdirmasdan Berkxardt men bilan qiziqib qolishiga yo'l qidirdim. Otam o'lishini bilardim. Erkin bo'lishim bilan mustaqil harakat qilish uchun tayyor bo'lishim kerak edi. Natijasi o'zingga ma'lum.

— O, albatta.

— Endi teskari yo'nalishda harakat qilib, urushdan keyingi yillarga qaytaylik. O'shanda hali otam tirik ekan, men bankda ishlashga qaror qildim. Yana bir oz orqaga qaytsak, bu harbiy xizmat vaqti bo'ladi. Bu paytga kelib, menga shu narsa aniq bo'ldiki, men otam hukmi ostidan ozod bo'lgach, o'zimga yanada ko'proq yoqa boshladim. Sen bundagi uyg'unlikni ko'rayapsanmi?

Edis tasdiqlab, bosh irg'adi. Lekin qo'lidagi finjon qilt etmadi.

— Agar senga shu narsa tushunarli bo'lsa, demak, Berkxardtning taklifini nega qabul qilganim ham tushunarli bo'lishi kerak.

— Yo'q, buni men tushunmayman, — dedi Edis.

Palmer u hali ham qo'lida ushlab turgan finjonga qaradi. Finjondagi qahva qilt etmasdi.

— Sen buni faqat qanday qilganingni tushuntirding, lekin u senga nega kerak bo'lganini aytmading.

Palmerning qo'li xuddi sassiz chaqiriqdagi misol unga talpindi. Nahotki, odam o'z qilmishlarini boshqa bir odamga tushuntirolmaydi? Nahotki, odamlar o'rtasidagi muomala shunaqa qiyin kechadi?

— Xo'p mayli,— dedi u. — Kel, boshqachasiga tushuntiray: men otamning nusxasi bo'lishni istamayman va hech qachon shunday bo'lishga intilmaganman. Otam dunyoqarashi tor, cheklangan odam edi. Agar uning hayotda qandaydir shiori bo'lgan bo'lsa, bu, shubhasiz, «yo'q» deyishi edi. U butun kun davomida birgina shu so'z bilan kun ko'rish mumkin deb hisoblardi. Bu so'zni u xotiniga, bolalariga, do'stlikka, va hatto hayotning o'ziga ham aytardi. Otadan nafratlanish mumkin emasdi, chunki nafrat hissiyot edi. Undan faqat ko'proq yashash mumkin edi. Tag'in boshqa chorasi ham bor edi, buning uchun o'sha odamda shunday choraga shunday moyillik bo'lishi kerak edi. Xenli shunday yo'lni tanlagan edi, samolyoti bilan qaytib kelmagandi. Menda bunday choraga moyillik yo'q edi. Tushunayapsanmi, nima deyayotganimni?

Edis zo'rg'a yo'talib qo'ydi.

— Ha.

— Otamdan ko'proq yashash uchun qandaydir kuchli rag'batga ega bo'lish lozim edi. Bu rag'bat

odamga hamisha madad berib turmog'i, salbiy xususiyatga emas, ijobiy xususiyatga ega bo'lishi darkor edi. Urushga qadar menda bunday maqsad bo'lmagan. Men uning o'g'li edim. Urush paytida shunga amin bo'ldimki, men mustaqil shaxs bo'la olaman va buning uchun zarur bo'lgan qobiliyatga egaman.

Palmer jim qoldi, aytgan so'zlarining ta'sirini tekshirib ko'rmoqchi bo'ldi. Shu paytgacha qahvali finjonga qadalib turgan Edisning nigohi birdan Palmerga qaratildi.

— Qanaqa maqsad edi u? — so'radi Edis.

— Foydali bo'lish, odamlarga foyda keltirish, — dedi Palmer.

Edisning ingichka, rangpar qoshlari chimirildi.

— Endi men seni tushunayapman, — tan oldi Edis.

— Otam o'lgach, davom etdi Palmer, — uning hamkasblari bo'lgan yuzlab bankchilar, siyosatchilar va ishbiarmonlar uni an'anaviy ehtimom bilan dafn etdilar. U o'z hayotini burchiga sadoqat bilan xizmat qilishga bag'ishladi. U o'z ishiga o'ta sadoqatli va namunali fuqaro timsoli edi. Sen bularni eshitgansan. Lekin hech o'ylab ko'rdingmi, qanchadan-qancha mayda muttaham qalloblar otamni nega buncha ko'klarga ko'tarib maqtaydilar? Bema'ni odamlarning maqtovi har qanday haqoratdan ham yomon.

— Lekin u foyda keltirardi-ku, axir? — e'tiroz bildirdi Edis.

— Sen u pul berardi demoqchisan-da? — e'tiroz qildi Palmer.

— Muhtojlarga pul berish — foydali bo'lish demakdir...

— Pul berish — og'izni moylab qutulishning arzon usulidir, — uning gapini bo'ldi Palmer. Bunda odam emas — uning chek qog'ozi ishtirok etadi.

— Endi men hech narsa tushunmayapman, azizim.

— Otam faqat pul berardi, — Palmer sekinroq gapirishga harakat qildi. — odamlarga foyda keltirish uchun, chek qog'ozini emas, o'z shaxsining bir qismini berish lozim.

— Demak, sen o'z shaxsingning bir qismini berishni istaysan?

— Men nima to'g'ri deb o'ylasam, shuni qilaman, — dedi u. — Men alohida shaxsman, faqat pul sarflaydigan bankirning o'g'li emasman. Men foyda keltirish haqida gapirganimda shuni nazarda tutgan edim. Mana, gap nimada.

Oraga jimlik cho'kdi. Ularning hech biri sukunatni buzmedi. Edisning yuzi his-tuyg'ularini aks ettirmasdi.

— Sen meni tushunayapsanmi? — dedi Palmer, — Masalan, sen uyga, qurilishga sarflayotgan mehnating. Sen buni uddalayapsan, foyda keltirayapsan, unga o'z shaxsingning bir qismini qo'shayapsan.

Edis uning yuziga qaradi.

— Vuds, — dedi u sekin. — Men... — U o'ylanib qoldi. — Nimagadir sen haqsan, albatta. Darhaqiqat, bu yerda foyda borligi ko'rinib turibdi. Ana shu menga zavq beradi. Lekin gap bunda emas. Zavq — bu natija. Sababi esa shunda-ki, bu g'anim va ikkiyuzlamachi shaharda men qiladigan ish yo'q.

— Edis!

— Men bu yerda hech kimni bilmayman, — davom etdi Edis bo'g'i q ovozda. — Hech kimni bilishni ham istamayman. Men ular uchun hech narsaman. Chikagoda o'z obro'yim, salobatim bor edi. Bu yerda esa...

Palmer jimib qoldi. Edis qahvali finjonni unga qarab surdi.

— Harholda, — dedi u, — bu vaqtinchalik qiyinchiliklar, ularni yengishga harakat qilaman. Biz uyimizda do'stlarni kutib ola boshlasak, hammasi iziga tushib ketadi. — Edis jim qolib, uning javobini kuta boshladi.

Lekin Palmer indamay turardi, shunda Edis yana gapirdi:

— Lekin, afsuski, azizim, sen bilan yuz berayotgan narsa, vaqtinchalikka o'xshamayapti.

Palmer aftini burishtirdi:

— Bu bilan nima demoqchisan?

Ikkalasi indamasdan bir-biriga tikildi. Qandilning yuqoridan tushayotgan nuri faqat uning kipriklari uchlarinigina yoritib turardi, shuning uchun Palmer xotining ko'zlariga qaray olmadi. Bunday qiyin ahvolda o'zini juda noqulay sezdi. Palmerning dilidan nimalar kechayotgani esa Edisga yaxshiroq sezilib turardi.

O'n sakkizinchi bob

Undan o'ng yoqda turgan odam butun ovqatlanish vaqtida churq etmadi va Palmer buning uchun undan minnatdor bo'ldi. Ofitsiant Palmerning oldiga tavoze bilan muzqaymoqli idishni qo'yar ekan, u uxlab qolmadimi ishqilib, degandek qiziqsinib indamas qo'shniga asta burilib qarab qo'ydi. Palmer bundan hayratlanmasa ham bo'ladi — tushlik haddan tashqari zerikarli kechdi.

Bu yerda, Nyu-Yorkda ishchan uchrashuvlar bilan to'lgan qisqa vaqt ichida Palmer kam deganda mana shunaqa tushliklardan o'ntachasida bo'lishiga to'g'ri keladi. Ularni ikki-uch toifaga bo'lish mumkin. Siyosiy tushliklar deb ataladiganlari mablag' yig'ish uchun, shuningdek, o'z hissasini qo'shganlarga e'tiborni jalb etish uchun uyushtiriladi. Bunday ziyofatlarda shaxsan ishtiroklari bilan bu odamlar o'zlarining moyilliklarini namoyish qilar edilar. Biroq respublikachilar partiyasining dasturxonlarida, ayrim istisnodan tashqari, demokratlar partiyasi ziyofatlaridagi o'sha ishbilarmonlar ishtirok etar edilar. Tantanavor to'y ziyofatlariga kelsak, ularda, o'z-o'zidan ma'lum, biron-bir ko'zga ko'ringan shaxs faoliyati sharaflanar va alqanardi, biroq Palmerning tez orada shunga ishonchi komil bo'ldiki, ular odatda qandaydir boshqa maqsadda, aksar hollarda pul yig'ish niyatida tashkil etilardi. Baribir xayriya ziyofatlari ham muqarrar ravishda qandaydir boshqa, odatda diniy maqsad bilan, ammo protestant emas, balki katolik dini maqsadi bilan chatishib ketar edi. Protestantlar ham allaqerda ularga zarur mablag' to'playotganlari aniq, ammo Nyu-Yorkda diniy ma'nodagi barcha xayriya faoliyatlar asosan katolik cherkovlariga yoki yahudiy diniy tashkilotlariga yordam uchun goho birona jamg'arma tashkil etishga mo'ljallangan bo'lardi.

Bugungi ziyofat ham xayriya ziyofati edi. Palmer xayol surib o'tirarkan, oldida turgan muzqaymoqli idishga qarab qo'yardi. O'z tajribasidan u shu narsaga amin bo'lgan ediki, rangiga qarab muzqaymoqning qaymoqlimi, qahvalimi yo mevalimi ekanligini aniqlash mumkin emas. Darvoqe, hozir bu haqda o'ylayotgani yo'q, Nyu-York bazmu ziyofatlarida qanchalik ko'p bo'lgan sayin ularning qaysi toifaga mansubligini aniqlash nega shunchalik qiyinlashib bormoqda?

Loaqal mana bu ziyofatni oling. Rasman u Ist Saydning eng sharti ketib, parti qolgan mahallalaridan biridagi cherkovga qarashli maktab foydasiga mablag' to'plash uchun tashkil etilgan. Maktabni allaqanday tariqatdagi rohiblar ta'minlab turardi, aynan qaysi tariqat — bu haqda Palmer zig'ircha tasavvurga ega emas. Mak Berns unga, garchi Vik Kalxeyn o'zi hech qachon bu maktabda o'qimagan bo'lsa-da, maktab uning hududida joylashganini va u maktabga homiylik qilishi ma'lum ekanligi haqida aytgandi. Shundan keyin Palmer maktabni diniy-xayriya muassasasi sirasiga kiritishga urinishlariga qaramay, bu barcha sa'y-harakatlardan siyosiy ruh anqib turishini anglab yetgandi. Garchand ziyofatning faxrli mehmoni bir vaqtlar shu maktabda o'qigan, keyinchalik esa ko'chalarni asfaltlash pudratiga durustgina pul to'plab olgan bir kimsa bo'lsa-da, ziyofat boshdan-oyoq, darhaqiqat, xayriya tadbiridan ko'ra ko'proq ushbu faxrli mehmon sharafiga uyushtirilgan marosimni eslatardi.

Palmer kalavanning uchini topib, qaysi rishta bu chigallik markaziga olib borishini aniqlashga harakat qilar ekan, zarrin uqali, bashang libosdagi ofitsiant uning boshi uzra chuqur ta'zim bajo keltirdi va allaqachon eriy boshlagan muzqaymoq ustidan ko'rinishi ishtahani bo'g'uvchi to'q jigarrang tusli siropdan naq bir qoshig'ini quyib yubordi. Bu safar Palmer aldovga uchmadi. To'q jigarrang shokolad rangli siropning shokoladli ekanidan zinhor dalolat bermas edi: bu shaharda har qanaqangi qalloblikni kutish mumkin edi. Bu qahva quyqasi yoki dolchin, muskat yong'og'i va boshqa ziravorlar qaynatmasi

ham bo'lishi mumkin edi, go'yo bo'yoq yordamida bu odatdagi qaynatish o'limdan qiyin bo'lgan bo'tqa ekanligini xaspo'slash mumkinday.

Palmer ziyofat oxiriga kelib uning uskunasi yonidagi bir gala kumush idishlar ichidan saqlanib qolgan yagona buyum — to'rt shirinlik qoshiqchalaridan bittasini tanladi va o'zini kuch bilan zo'rlab ustida bir tomchi sirop qotib qolgan muzqaymoqdan o'yib oldi. Tatib ko'rgach, bosh iring'ab, xuddi o'ylaganidek ekanini tasdiqladi. Shundoq bo'lib chiqdi — ananasli muzqaymoq va yong'oq siropi. U idishni nari surib qo'ydi-da, sigareta tutatdi.

Otelning hayhotday ziyofatlar tanobiysiga har biri o'n kishilik katta-katta dumaloq stollar qo'yilgan. Baland taqasimon balkon tanobiyning har uchala devorini qurshab turadi. U yerga ham stollar qo'yilgan, faqat biroz kichikroqlari — to'rt kishiligidan. Uzoq burchakdagi uncha katta bo'lmagan supachalarda besh cholg'uchidan iborat orkestr ovqatlanayotgan xo'rاندalar boshlari uzra kamida ikki yil oldingi ommabop kuylardan iborat aralash-quralash qorishmani usti-ustiga to'kkani-to'kkan. Ofitsiantlar asosiy taom — chala qovurilgan biqin go'shtli qovurdoqni torta boshlaganlarida orkestr "Nazokatli bo'l" qo'shig'idan bir necha bandni ijro etdi, buni, ochig'i, an'anaviy hazil deb baholash joiz bo'lardi. Taklifnomada rasmiy qismdan keyin raqslar boshlanadi va uncha katta bo'lmagan estrada sahna tomoshasi namoyish etiladi deb aytilgandi. Konferanse vazifasini shu paytgacha nomi sira Palmerning qulog'iga chalinmagan, ammo Virjiniya Klerining so'zlariga qaraganda, bir vaqtlar "Tog'lar"da ancha mashhur bo'lgan bir qiziqchi bajarishi kerak edi. "Tog'lar"da? — Palmer hayron bo'lib qoshlarini chimirganda Virjiniya Ketskillz yozgi kurorti "Tog'lar" deb atalishini tushuntirgandi. U yerga odatda yoz oylarida taniqli qiziqchi aktyorlar va estrada artistlarini taklif etishardi, "o'lik" mavsum vaqtida esa ish yo'qligidan bugungiga o'xshagan ziyofatlarda tomoshalar ko'rsatishga majbur bo'lishardi.

Virjiniya oltinchi raqamli stolda Garri Elder va bir necha gazeta sharhlovchilari bilan birga o'tirishi kerak edi.

Palmer stol raqamlarini qarab chiqishga harakat qildi, biroq hay'atdagi joyidan projektorlarning charog'on nuri ostida nimqorong'i tanobiyda deyarli hech narsani ko'rib bo'lmasdi. Ziyofatdagi odam u Virjiniya bilan juvonning o'z stoliga qancha kerak bo'lsa, o'shancha viski buyurtma qilishiga kelishib oldi. Palmer ko'zlarini qisib, ustiga kamida besh-oltita bo'sh shisha turishi kerak bo'lgan stolni qidirib topish niyatida tanobiyni qarab chiqdi, biroq ko'p o'tmay qariyb har bir stol uzra butun bir batareya osilib turganiga amin bo'ldi.

Boshqa faxrli mehmonlar qatorida Palmerning avval-boshdanoq o'zgacharoq, ancha shovqinli va aftidan, ziyofat ishtirokchilarining ancha baxtiyor oilasidan ajratib qo'yishgan edi, ularni alohida xonaga o'tqazishgandi, u yerda ular spirtli ichimliklarga qo'l urmay, o'zlarining hay'atdagi stoldan joy olishlari kerak bo'lgan daqiqani kutib o'tirishardi. Ba'zi mulohazalardan keyin Palmer shunday xulosaga keldiki, bu tahammulga sabab ko'p sonli diniy nazorat vakillari, siyosiy rahbarlar va boshqa hurmatli shaxslar kelishi bilan bog'liq emas ekan. Yo'q, ularning barchasi ko'zlariga urib turgan ayovsiz projektorlar nuri ostida kamida ikki-uch soat o'tirishlariga to'g'ri kelishini juda yaxshi bilardi. Xohlasha-xohlashmasa ichmasdan o'tirishga majbur edilar.

Ular hay'at stoli tomon gurs-gurs bosib yo'l olganlarida har birlarining miyasidan uncha taskin bermaydigan birgina fikr kechdi: tanobiyda o'tirganlarning ulardan boshqa deyarli barchasi g'irt shirakayf. Milliy madhiya ovozi ostida boshqalar bilan bir safga borib turarkan, Palmer maktab ruhoniysi qiroat qilgan qisqagina duoning tugashini kutganicha o'ziga viski buyurgani nigohi bilan metrdotel¹ ni qidirar edi. Qidirishi behuda ketdi: Palmer bu o'taketgan og'ir va uzoq jarayon so'ngigacha ortiq bir qultum ham icholmadi. Oddiy mehmonlar esa xohlaganicha miriqdilar, biroq hay'atda tiniq va tik boquvchi ko'zlarini xiralashtirmagan rahnamolar qadlarini to'g'ri tutib, namoyishkorona o'tirishlari shart edi.

Palmer xuddi ilma-teshik sharga o'xshash idish tagiga tobora cho'kib borayotgan muzqaymoqqa qarab qo'ydi va hay'atni qurshab olgan nimqorong'ilikka ko'zini o'rgatib olishga harakat qilganicha nigohini boshqa yoqqa oldi. Mehmonlardan allakimlar stollaridan turib ketishgandi, buni u payqashga

muvaqqat bo'ldi. Odamlar stollar oralig'idagi tor yo'llardan asta-asta u yoqdan-bu yoqqa yura boshlashdi, qo'l berib ko'rishish va yelkadan qoqib qo'yish uchun dam-badam egilar edilar, goho bir necha lahzaga to'xtab olardilar-da, shivirlab qandaydir luqmalar tashlab qo'yardilar, so'ng yangi tanishlar bilan qo'l berib ko'rishish va shivirlab luqma tashlash uchun bamisoli qisqichbaqaday bir yonlari bilan asta boshqa stol tomon sirpanar edilar.

Kimdir notiq minbari oldida turgan mikrofon chetiga chertib qo'ydi va tanobiyning barcha burchaklarida keskin temir ovozi bo'g'iq sado berdi. Mikrofon oldida turgan kishi yo'talib oldi va yozuvli qog'ozlarning butun bir dastasini shatir-shutir qilib varaqlay boshladi.

— Xonimlar va... — Shu zahoti u tutilib qoldi va kerakli so'zni qidirib topmoqchiday shoshib-pishib varaqlarni titkilay boshladi. Nihoyat, o'sha so'zni topib, raislik qiluvchi Gork ismi-sharifli kaltabaqay, to'ladan kelgan bu odam yana tomoq qirdi.

— Xonimlar va jan... — Mikrofondan yetib kelib, tanobiyda o'rnatilgan kuchaytirgichlardan ikki baravar kuch bilan yangragan uzluksiz qattiq kulgi ovozlari uning so'zlarini bosib ketdi. Gork yana qog'ozlarni shaldiratdi va o'ng tomonida o'tirgan qo'shnisiga oshkora jahl bilan qarab qo'ydi. Bu Vik Kalxeyn bo'lib, o'tirganiga qaramay, boshi yonginasida turgan Gorkning qariyb qog' miyasidan kelib turardi.

— Do'stlar! — yana tilga kirdi Gork. Bu so'z bamisoli ulkan qog'oz yumalog'idek g'ira-shira tanobiydagi stollar oralig'idan dumalab keldi. — Yetuk va faxrli mehmonlarimizdan ayrimlariga so'z berishimdan avval, aminmanki, barcha hozir bo'lganlar ularning chiqishlarini intiqlik bilan kutmoqdalar, — shu narsani aytmog'chimanki, sizlarga rabbi Ben Xeym Feylbaumni tanishtirishdek sharaflil vazifani bajarayotganimdan baxtiyorman, u sizlarga qisqacha kirish so'zi bilan murojaat etmoqchi.

Tanobiyda o'tirganlar bu xabarni eshitib, guvillab qo'ydi, stollar surilib, yo'tal tovushlari quloqqa chalindi. Stollar oralig'ida suyanib tik turgan mehmonlar o'z joylariga qaytishdi. Mas'uliyat hissini saqlab qolganlar esa o'zlarining anchayin sertashvish qo'shnilarini jim bo'lishga unday boshlashdi.

Ko'zni oluvchi nur to'satdan rabbi Feylbaumning yuzini yoritdi, bir qarashda Palmer uni hali o'n sakkizdan oshmagan o'smir deb taxmin qildi. O'z dini qonunlariga ko'ra u soqolini olmagandi, biroq yuzidan endigina sabza urgan mo'ylari elas-elas ko'zga chalinardi. Lekin uning och qirmizi tusli mayin jingalak chakka soqoliga razm solib qararkan, Palmer darhol avvalgi tusmoliga yana yetti yosh qo'shdi.

— Mehribon do'stlarim, — deb so'zini boshladi Feylbaum.

Palmer o'z bahosiga zudlik bilan yana bitta tuzatish kiritdi, notiqning o'ttizdan oshgan kishi ekaniga shubhasi qolmadi. "Mehribonlar" so'zini bunday maftunkor tavoze bilan irod etishi uchun ruhoniyl odam faqat mana shu yoshga kelibgina oilaviyl nutqlarda yetarli tajriba to'play oladi. Palmer Chikagodagi avliyo Pavel cherkovining keksa ruhoniysini eslaydi, u "marhamat" so'zini shunday talaffuz etar ediki, bir unli o'rniga halqumidan sal yuqoriroqda azbaroyi mayin qulqillab ovoz berganidan Palmerga har doim nuroniyl chol tomog'ida xamir uzmasi tiqilib qolganday tuyulardi.

— Do'stlarim, sizlar qaysi dinga sig'inmang, — davom etdi Feylbaum, — bugun bu yerga parvardigorning ko'zga ko'rinmas nigohi ostida jonlarimiz, so'zlarimiz va a'mollarimiz, ha, muhabbat va ezgulikka to'liq, abadiyl qardoshlik tuyg'usidan kelib chiqqan a'mollarimiz bir-biriga yo'g'rilib ketishi uchun, ruhiyl birdamligimizda, o'zaro ixlosimizda va so'ngsiz itoatkorligimizda barchamiz qalblarimizning eng teran joyigacha sodiq bo'lgan muqaddas ishni bayram qilish va sharaflash uchun to'plandik; bu ish tafakkurimizda hukmronlik qiladi va o'lmas jonlarimizda shu qadar chuqur va mustahkam o'rin olgan, dunyoviyl hayotimizning ayrilmas qismi bo'lib qolgan, parvardigorning beaded marhamati tufayli uning muborak va oliyl maqsadlariga rioya qilgan holda shu hayotga sodiq bo'lib qolgaymiz.

Palmer kimdir oyoq uchida notiqning orqasidan yurib o'tganini, Katta Vikning qulog'iga egilganini va o'z fikrlarini ma'nodor qo'l harakatlari bilan tasdiqlaganicha u bilan uzoq shivirlashib gaplashganini ko'rdi. Palmer boshi uzra joylashgan proyektor nuri yuzini yoritmaydigan darajada xiyol oldinga

engashdi va ayni daqiqada hammaning e'tibori Feytlbaumga jam bo'lganiga ishonch hosil qilib, bir zum ko'zlarini yumdi. U xotirasida notiqlar ro'yxatini tiklashga harakat qildi va ulardan har biri so'zlashi uchun qancha vaqt ketishini xomcho't qilib chiqdi. Nutqlarga kamida bir soat ketardi. Palmer xo'rsinib o'zini o'rindiq suyanchig'iga tashladi va go'yo hamon yumuq ko'zlarini panalamoqchi bo'lganday, sigareta tutgan qo'lini ko'tardi.

— ... So'nmas nuring bilan hozirgi va istiqboldagi ishlarimizni o'zing munavvar et, — gapirishda davom etardi Feytlbaum. — Sening muruvvating va ilhoming ila bajarishimiz lozim bo'lgan a'mollarimiz baroridan kelgay.

Palmer ko'zlarini ochdi va notiqqa o'girildi. U Kalxeynga engashib, qulog'iga allanimalarni shivirlagan kishining och sariq quyuq sochiga e'tibor qildi. Faqat birgina odamda mana shu rangdagi soch bo'lishi mumkin edi — u ham bo'lsa Berns.

— ... aynan meni, — davom etdi Feytlbaum, — qadimgi din xizmatkorini mana shunday buyuk ishni deb yelkama-elka turib o'z burchini ado etish uchun bugun bu yerga chorlaganimiz nechog'li joiz va haqqoniy bo'lsa, bizning a'mollarimiz ham shunchalik joiz va haqqoniydir.

Ravvinning boshidagi karjsiz qora taqyasi uning nutqiga monand bir tekisda chayqalib, Bernsning boshini goh to'sar, goh ochar edi. Kalxeynning o'zi xotirjam tusda sukunat saqlardi. U ko'zlarini bir nuqtaga qadab, qimir etmay o'tirardi, Berns esa hamon gapni qalashtirib, nutqini davom ettirardi. Shunga qaramay, Kalxeyn kabi uning ham lablari deyarli qimirlamayotgandi.

Ravvin nutqini tugatishiga Bernsning toqati chidamasa, u yog'i qandoq bo'ladi, deb o'zidan-o'zi so'rardi Palmer. Biroq yalt etib miyasiga bir fikr keldi. U Bernsni haddan tashqari yaxshi bilardi. Bunday vaziyatda har qanday mayda yangi g'iybatlar ham nishonga urishi hech gap emasdi. Bernsning nimalar deyayotganining ahamiyati yo'q, dalilning o'zi muhim: u necha minglab tomoshabinlar ko'zi oldida va mana bunday dabdabayu as'asali bir damda Katta Vik bilan suhbatlashayapti.

Tashqi ta'sirotlar — bu siyosatdagi buyuk ish, o'yladi Palmer. Busiz ham Berns Kalxeynning ishongan odami ekani besh qo'lday ma'lum. Biroq Kalxeynning unga yaqin bo'lgan boshqa odamlari ham bor edi. Shu bois Berns boshqa birov emas, aynan u Katta Vikning ana shunday ishonchini qozongan odam ekanini ahamiyatli deb bilganlarga muttasil eslatib turishi kerak bo'lardi. Berns boshqa yig'inlarda ham shunday tomoshalar ko'rsatganini Palmer ilgari ham ko'rgandi. Manzara har doim bir xil bo'lar edi — nigohini zalga tikkancha haykalday qotib o'tirgan Kalxeyn. Uning orqasida — Berns. Uning bir qo'li Kalxeynning yelkasini qisadi, ikkinchi qo'li bilan ishoralar qiladi: goh allaqayoqnidir ko'rsatadi, bir nimani tekislaganday bo'ladi, goh sochib, o'zidan nari itarsa, goh o'zi tomon chorlaydi. Balerina tanasi kabi hayot va hissiyotga to'la bu qo'l notiqdan diqqatni chalg'itib, butun zalning nigohini muqarrar ravishda o'ziga jalb etib oladi-da, natijada o'z maqsadiga erishadi — hammani bu uncha katta bo'lmagan, ammo jo'shqinlikka to'la sahnani kiprik qoqmay kuzatishga majbur qilardi.

— ... bizlar beaded ravishda ishonamiz, ey parvardigor, — der edi bu orada Feytlbaum, — sening qo'llaring qudratli va bizlarni taqvo yo'lga boshlovchi hikmating barhaqdir.

Zaldagi odamlardan bir nechtasi ravvinning ortidan qadimgi yahudiy tilida qiroat etilgan yakunlovchi duo so'zlarini takrorladi, biroq zalda ko'tarilgan shovqin ularning ovozini bosib ketdi: mehmonlar yo'tala boshladi, stullar surila boshladi, suhbat-guruhlar yangilandi.

— Tashakkur sizga, rabbi Ben Heym Feytlbaum, — dedi Grork. U boshini mikrofoniga juda chuqur egib oldi va ovozi mikrofondan shovqin va qasirlash keltirib chiqardi. U o'sha zahoti bir necha qadam ortga tisarildi. — Chet tilida siz o'qigan duo uchun ham tashakkurimizni qabul aylang, — qo'shib qo'ydi u tanobiydagilarga ko'z qisib qo'yarkan.

Kulgi tinishini kutib Grork maktabning moliyaviy ahvoli haqidagi rasmiy hisobotlarga o'tdi, uning yigirma besh yil avvalgi salmoqsizgina byudjetini shu maktabning gullab-yashnashida guvohlik beruvchi hozirgisi bilan taqqosladi. Bu orada Palmer endigina Kalxeyn bilan suhbatini tugatgan Bernsni kuzatardi. Aslida bu suhbat ham emasdi, balki Bernsning monologi edi. Bu odamning hatto

eng qiyin vaziyatlarda ham ichki sezgisi va aniq hisob-kitob bilan ish tutishiga Palmer tan bermay iloji yoʻq edi. Ravvin gapini toʻxtatgan bir vaqtda u ham Kalxeyn bilan suhbatini uzgudek boʻlsa, tomoshabinlar bunda qandaydir pinhoni haqoratni anglagan va hatto Bernsni ruhoniya nisbatan hurmatsizlik qilishda ayblagan boʻlar edilar. Biroq Berns Feytbaumni ham, Grorkni ham birday yomon koʻrardi va shu bilan uning qilmishining shaxsiy yoʻnalishi va uni dinga nisbatan haqoratomuz xatti-harakatlarda ayblash imkoni istisno boʻlar edi.

Kalxeyn tashvishlangannamo ikki bor bosh irgʻib qoʻydi va Berns qaddini gʻoz tutib, sherigiga kuyib-pishib gap uqtirayotgan Grorkning yonidan oʻtdi-da, endi tanobiyga yoʻl olaman deganda yoʻl-yoʻlakay Palmerning yonida toʻxtadi va unga egildi. Palmer uning uzunchoq, torgina burun kataklari oshkora tantana bilan titrayotganini koʻrdi.

— Tanobiyda igna tashlasang yerga tushmaydi, Vudi, — shivirladi Berns, — yana oʻn beshtacha stol olib kirishga toʻgʻri keladi. Zoʻr, shunday emasmi?

Palmer uning yuzlari yal-yal yonganini his etdi. Oʻzining katta hayotiy tajribasiga qaramay, u bolalikdagi unga singdirib kelingan odob yuziga oyoq bosa olmasdi. Ayni damda u oʻzini gʻoyat noqulay his etmoqda edi. Nima uchun Berns bunday qilayotganini va unga, Palmerni ayni vaqtda qanday xizmat koʻrsatayotganini aʻlo darajada tushunib turardi. Berns goʻyo ularni kuzatib turgan omma oʻngida uni Kalxeyn bilan koʻrinmas rishta ila bogʻlab qoʻygandi. Baribir Palmer oʻzining bemaʼni ruh va notiqlarga nisbatan hurmatsizlik namoyish etilgan tomosha ishtirokchisi ekanini his qilib, xijolatdan chiqolmayotgandi. Buning ustiga koʻpsonli tomoshabinlarning diqqat markazida boʻlib qolishi unga sira yoqmayotgandi.

— Hoy birodar, endi ovqatlanib olsang ham boʻlardi! — Berns Palmerning yelkasiga qoqib qoʻydi va goʻyo turishiga yordam bermoqchiday uning qoʻltigʻidan oldi.

— Avval quloq solsangiz-chi, — soʻz boshlamoqchi boʻldi Palmer.

Shu lahzada goʻyo unga qandaydir gʻoyat muhim va ishonchli bir narsani shipshitib qoʻymoqchiday Bernsning yupqa lablari tez-tez qimtildi. Qoʻli tanobiyning toʻrdagi uzoq burchagini koʻrsatganicha Palmerning boshi uzra aylandi. U bir necha bor tez-tez, qariyb gʻazab bilan boshini saraklatdi va sargʻish koʻzlari chaqnadi. Bu barcha alomatlardan uni kuzatib turgan har qanday odam Palmerni muhim ish bilan shoshilinch chaqirishayotganini anglab olishi tayin edi. Bernsning yordamida u oʻrnidan koʻtarildi va u bilan izma-iz hayʼat supachalaridan tushib, qop-qorongʻi katta tanobiyga kirib ketdi.

Ular qiyinchilik bilan behisob stollar oralab yon eshikkacha yetib borishdi-da, tanobiyini tark etishdi. Bu yer salqin edi. Ortlaridan eshik yopilishi bilan Grorkning ovozi birdan tindi va quloqqa elas-elas chalinuvchi bidirlashga aylandi.

— Ana, doʻstim, seni qutqarganim uchun menga rahmat ayt, — dedi Berns miyigʻida kulib.

— Oʻzi nima gap? — soʻradi Palmer. — Bu yerda mening boʻlishim nima uchun bu qadar shoshilinch kerak boʻlib qoldi?

Berns iljayib qoʻydi:

— Grork dahanaki ichketar dardiga yoʻliqqan. Juftakni rostlab qolish uchun bu uzrli sabab boʻlmay nima?

Palmer kulimsiraganicha boshini chayqab qoʻydi:

— Sizning avval Kalxeyn bilan gaplashganingizni, undan keyin mening oldimga kelganingizni odamlar koʻrmadi deb oʻylaysizmi?

Bernsning koʻzlari bir lahza qisildi, biroq oʻsha zahoti katta-katta ochildi-da, qah-qah urib kulib yubordi.

— Nima ham derdim, zehningizga qoyil qolmay iloj yoʻq, mister Palmer, — dedi u. — Hozirgina qilgan ishimiz sharofati bilan tanobiyda oʻtirgan oʻn-oʻn besh nafar omonat banklar rahbarlari ramaqdajon boʻlib yotishibdi.

— Baribir ham Olbanida respublikachilar partiyasi koʻpchilik ovozga ega boʻlishiga qaramay, — oʻychan holda dedi Palmer. — Kalxeyn singari shunday zalvorga ega boʻlib turib ham demokratik

partiya arbobi hisobdon do'stlarimizdan birontasi uchun uyqusiz tun sababchisi bo'lishiga ko'zim yetmaydi.

Bernsning ko'zlari atrofga olazarak qarardi va Palmerning ko'nglidan g'alati fikr kechdi: u tashlagan luqma Bernsga qattiq tegib, go'yo yengil zarbalarni kutayotganday, endi tez-tez yon-veriga alanglamogda edi.

— Jonim, — dedi Berns, — respublikachilar partiyasi omonat banklar egalari uchun bir jon-bir tan bo'lib kurashayapti deb sizga kim va qaerda aytdi? Ehtimol, men uxlab qolgandirman, ehtimol Muso tog'dan tushib ketib, o'n birinchi surani yozgandir? — U dimog'idan qulqillashga o'xshagan ovoz chiqarib bosiq hingirlab qo'ydi va Palmer uning g'irt mast ekanligini angladi.

— Buni hamma biladi, — javob berdi Palmer. — Siz boshqacha fikrdamisiz?

Berns ma'nodor yelka uchirib qo'ydi va shu asnoda Palmerning qo'lga shap etib urdi.

— Mening aytarli fikrim yo'q, — dedi u to'satdan ovoziga o'zgacha ma'noli tus berib. — Bordi-yu, do'stinga aytadigan gapim bo'lganida, o'ylab-netib o'tirmay shartta aytardim-qo'yardim.

— Unda ayting, — Bernsning nyu-yorkcha lahjasiga hamohang ravishda dedi Palmer, miyig'ida kulib.

— Bular bari Olbanidagi it axlati, — tushuntira boshladi Berns. — Partiyalar kurashiga qilcha aloqasi yo'q. Bu nimani anglatishini bilasanmi?

— Bu shuni anglatadiki, yuqoridan hali ko'rsatmalar berishgani yo'q.

— Qanday surbetlik, — dedi Berns lablarini burib. — Yo'q, qarog'im, yanglishasan. Bu nafsilambrini aytganda shu narsani anglatadiki, bankirlar o'zaro jiqqamusht bo'lishda qonun chiqaruvchi hokimiyat vakillari dimog'iga pul hidi kelib uriladi.

— Gap nima haqida ketayotganini anglay boshlaganimdan qo'rqib ketayapman, — dedi Palmer.

Berns to'g'ri deganday bosh irg'adi.

— Buni u yoki bu partiya dasturining bir qismi deb qaramaslikka qaror qilib, Olbanidagi qonun chiqaruvchi yig'ilishning chaqqon yigitlari vaziyatdan so'nggi tsentgacha sog'ib olishni yaxshi bilishadi. Ha, ular hamma narsani shunday tashkil etishganki, natijada cho'ntaklarini qappaytirib ketishadi, axir ular cho'talxo'rlikka mazaxo'rak bo'lib qolgan emasmi?

— Boshqacha aytganda, — dedi Palmer shunday taomlarga xos o'xshatishni davom etdirish kerakmasligini tushunib; ammo o'zini tutib turolmadi, — ular besh panjani baravar og'izlariga tiqadilar.

Berns Palmerga jim tikilib qoldi, uning so'zlaridagi kinoyani his qilgan bo'lsa-da, biroq ma'nosini tushunmadi.

— Menga qara, — dedi u ishonch bilan, so'zlarini salmoqlab-salmoqlab, — mana bu mashmasha tugagandan keyin, menikida ma'qul yigitlardan uch-to'rttasi to'planadi. Bir kirib o't. Ozgina tomiringga qon quyib olsang, zarari yo'q.

— Soat nechada?

— O'n birlarda, — dedi Berns. — Bu senga ertalik qilmaydimi?

— Erta? — qayta so'radi Palmer. — O'n birgacha qanday yetib olishimni o'ylab, boshim qotib turibdi-ku.

Bernsning tillarang qoshlari bir yuqoriga ko'tarildi-yu, biroq darhol yana tushdi. U tushundim deganday ko'z qisib qo'ydi:

— Ha, endi soat o'nlarda borsak ham bo'laverar, a?

Tanobiyda gulduros qarsaklar yangradi.

O'n to'qqizinchi bob

Bar peshtaxtasi oldida yarim soatcha ivirsib, Palmer katta Vik Kalxeyn o'zining mufassal nutqini tugatib turgan bir pallada tanobiyga qaytdi.

— ...So'ngsiz karvon singari yo'qlik qa'riga abadiy ketayotgan o'tgan asrlarda bo'lganidek, hozir ham, — asl nyu-yorklikning xiyol ping'i ovozida u guldirab gapirardi, — o'zimiz haddan tashqari minnatdor bo'lganlar xotirasini yodga olamiz va bosh egamiz, — davom etdi Kalxeyn har bir jumlaning chertib-chertib, odatdagidek vazmin ohangda. — Biz kelajakka dadil boqayapmiz, uning ko'lamlari bizni cho'chitilmaydi, biz jasorat bilan hujum qilamiz va bir qadam ham ortga chekinmaymiz. Biz boshqalarni qoralamaymiz, zero o'zimizni ham aybdor qilib qo'ymaymiz, yosh avlodimizni yo'ldan urayotganlarning, milliy nomusimizni qoralayotganlarning va shon-shavkatimizni yo'qqa chiqarayotganlarning xatolarini ko'rsatmoqchi emasmiz. Dunyoqarashi tor, yana vatanimizni suvtekinga sotayotgan mayda, kaltabin, past odamlarni qoralashni tarixning o'ziga qo'yib beraylik. Ammo tarix sahifalarida oramizda, bu yerda hozir bo'lganlar orasida, ushbu tanobiyda men bilan birga halol va sofdil odamlar borligi, buyuk vazifani mardonavor va qat'iyat bilan hal etadigan odamlar borligi abadiy muhrlanib qolsin...

Palmer bildirmaygina qop-qorong'i tanobiyga o'tdi-da, nigohi bilan olti raqamli stolni qidira boshladi. U yana hay'atga ko'tarilib, o'z joyini egallashga jur'at qilolmayotgandi.

— ... quyosh ostidan o'rin olsin! — guldirab gapirardi Kalxeyn. — Har kimning erki o'z qo'lida...

Quyosh ostida men uchun ham joy topildi, deb o'yladi Palmer nihoyat olti raqamli stolni qidirib topgach. U stolga yoni bilan yurib bordi va Virjiniya Kleri yonidagi bo'sh o'ringa yengil nafas olib cho'kdi.

Juvon uning paydo bo'lganini payqamadi. Uning ikki ko'zi Kalxeynda edi. Palmer uni yon tomonlamagina ko'rib turardi. Shu paytgacha u hech qachon unga bu qadar bevosita yaqin bo'lmagandi — nari borsa yigirma-o'ttiz santimetr kelardi oralari. Dumaloq yuzi va do'rdoq lablari yonoqlarining chiqiqiligini sezdirmasdi. Juvonning ingichka va uchi to'mtoqroq, cho'zinchoq burnining kataklari biroz kerilgan. Agar Virjiniyaga shunaqa yonlamasigina qaralsa, uning chindan ham go'zal ekanini Palmer endi angladi. Bordi-yu, juvon unga tomon yuzlanib qarasa, uni shunchaki ko'hlikkina ekan deb aytish mumkin bo'lardi. Virjiniya qaddini tik tutib o'tirardi. G'oyat kalta bog'ichli, o'mizi chuqur oq ko'ylagi uning bo'rtiq siynasini xiyol yashirib turardi. Palmer o'tirgan joyidan biroz orqaroq va yuqoriroqdan juvonning naq o'mizi uzra uchburchak soya tashlab turgan dum-dumaloq siynasini aniq-taniq ko'ra olardi.

Palmer yuzlari lovillab yonganini his etdi va o'zini o'rindiq suyanchig'iga tashladi. U hay'at tomonga qaradi. Bir lahza o'rindiq chayqalib ketgandek tuyulib ketdi unga. U ko'zlarini yumdi va tomog'ida uni bo'g'ib turgan narsaning yo'qolishini kuta boshladi.

— ...bu xatti-harakatlar ularning qaysarligi, mag'lubiyati va ochko'zligi ruhidan kelib chiqadi! — guldirashda davom etdi Kalxeyn. — Ammo sizlarni zeriktirib qo'ymaslik uchun ularning barcha xususiyatlarini bir-bir sanab o'tirmayman. Faqat shuni aytmoqchimanki...

Ko'zlarini ochgach, Palmer birdan o'zining "Yunayted benk"dagi muovini Garri Elder nigohiga to'qnash keldi. Palmer ko'zlarini qisib qaradi, Garri esa javoban im qoqib qo'ydi, keyin nigohi bilan oldida turgan bahaybat shotland viskisi shishasini ko'rsatdi va savol nigohi bilan Palmerni boqdi. Palmer xo'p degandek bosh irg'adi va keksa yoshdagi hamkasbi ichiga bir nechta muz bo'lagi tashlangan qadahni qanday qo'lga olganini, uni deyarli limmo-lim to'latganini va Palmerni ishora qilib, uni qo'shnisiga tutganini kuzatib turdi. "Tayms"danmi yo "Nyus"danmi bo'lgan reportyor qo'shnisi o'z navbatida indamay qadahni boshqa qo'shniga uzatdi.

Ushbu marosim Virjiniyani butunlay o'ziga mahliyo qilib qo'ygandi. Juvon o'girildi, Palmerni ko'rди va lablariga xiyol tabassum yugurdi. U reportyordan qadahni olib, Palmerni uzatarkan, shivirlab dedi:

— Dushmanlarni yer yutsin. — So'ng yana yuzini to'g'riga burib, notiqning gaplariga diqqat bilan quloq sola boshladi. Ko'ylagi o'mizida siynasi avvalgidan ham yaqqolroq ko'zga tashlandi.

Palmer viskidan ho'plarkan, hisob bo'yicha bu nechanchisi — uchinchisi yo to'rtinchisi ekanini eslashga behuda urinardi, biroq oxiri viskini Garri Elder suzayotganida qancha ichilganini hisobga olishning hojati qolmaydi degan qarorga keldi.

— ...va kuch emas, faqat haqiqatgina adolat tantanasiga olib kelishini bilib, bizlar xotirjammiz, — yakun yasadi Kalxeyn. — E'tiboringiz uchun rahmat.

Ulkan tanobiy gulduros qarsaklardan larzaga keldi. Kalxeyn yuzlari yal-yal yonib olqish ma'nosida qo'lini ko'tardi, so'ng joyiga borib o'tirdi-da, yana qo'shnisi Karmin de Sapio tomon o'girilib, u bilan uzoq gaplashib qoldi. Raislik qiluvchi Gork o'rnidan turdi va garchi qarsaklar hali tinmagan bo'lsa-da, qo'l ishorasi bilan tinchlik o'rnatishga harakat qildi, biroq shu bilan birga, Palmerning nazarida, bu ishora bir vaqtning o'zida yig'ilganlarning yangi kuch bilan yana gulduros qarsaklar chalishiga umidni ham ifoda etar edi.

Biroz o'zini orqaga olib, Palmer o'rindiqda o'rnashibroq o'tirdi. Shu holatda u Virjiniya Klerining jingalak qora sochlari qoplagan ensasini, bo'ynini va ikkala kurak oralig'idan ko'ylagi ichiga kirib yashiringan nafis yelkasinigina ko'ra olar edi.

U o'rindiqda o'tirarkan, ahyon-ahyondagina notiqnlarning so'zlari uzuq-yuluq shuuriga yetib kelardi. Notiqnlarning ro'yxati oxirlab qolgandi va nihoyat duo kalimalari yangradi. Palmer minbardagi sodirliklarni shu qadar oz kuzatar ediki, avvaliga unga duoni anglikan¹ cherkovi ruhoniysi qiroat qilayotgandek bo'lib ko'rindi, g'ira-shirada uning ridosini ilg'ab bo'lmadi. Faqat lotincha katolik duolaridan xotima oyatlari quloqqa chalingandagina Palmer xato qilganini angladi. U yelka qisib qo'ydi-da, qadahidan mayda-mayda ho'play ketdi.

Yig'ilish dasturi bir marta tugal ishlab chiqilgan reja bo'yicha o'tkazilardi. Estrada tomoshasini ochib bergan kulgi aktyori o'zining bor mahoratini tomoshabinlarga namoyish etishga harakat qilardi. Har bir kosa tagida nimkosa hazildan keyin u jimib qolar, yasama qo'rquv ichida og'zini kafti bilan berkitar va diniy nazorat vakillariga xavotir bilan ko'z yugurtirib qo'yardi.

— ... Shunday qilib, vaqtni zoe ketkazmasdan, xonimlar va janoblar, men suyuqli zarrinsochimni sizlarning ixtiyoringizga havola qilaman, garchi mish-mishlarga qaraganda, agar tagigacha kavlab yetilsa, u hecham zarrinsoch bo'lmasa-da. U ajoyib xonanda, xonimlar va janoblar, hozir uning qo'shiqlarini tinglaysiz, — bu "Pijamadagi oqshom" operettasidagi chinakam oqshom yulduzi. Shunday qiling, xonimlar va janoblar, tinglang, tomosha qiling: e'tiboringizga maftunkor Kittini havola etaman. Kitti Keyn! Qani, uni bir yaxshi qarsaklar bilan kutib olaylik!

Lablarida ko'zidagi ayanchli ifodaga aslo mos kelmaydigan tabassum qotib qolgan yo'g'ondan-yo'g'on xunuk zarrinsoch xonanda qiz butun oqshom davomida orkestr chalgan ko'hna ohanglardek ulug' yoshdagi bir qancha romanslarni ijro etdi.

Shundan keyin balet juftligi "Vasvasa"ning biri bosiq bolero maromidagi, ikkinchisi esa sho'x stakkato maromidagi ikki versiyasini ijro etdi. Juftlikdagi erkak o'ziga sherik ayoldan juda bo'lmaganda o'n yosh kichik bo'lsa-da, mungli nigohiyu botirona gavda holatlari bilan yoshdagi farqni aslo bildirmayotgandi. Orkestrning bir necha maqomidan ilgariroq ular raqsni nihoyasiga yetkazdilar, mashshoqlar esa cho'zib chalishlariga qaramay baribir oxirigacha yetmasdan kuyni uzib qo'yishdi. Faqat akkordionchigina bir o'zi qolganini his etgunga qadar yana bir necha soniya chalib turaverdi.

Baland bo'yli va xushqomat tenor "Roz-Mari"dan birinchi bandni tugatmasidanoq mashhur qiziqchi uni bo'lib qo'ydi. Tenor bilan birgalikda u qandaydir chalkash intermediyani o'ynay boshladi, kuy davomida qo'shiqchining mardona shavkati xira tortib qoldi va uning siyqa tendentsiyalari rang-barangligiga ishora qilinganiga qaramay qiziqchi tenorni o'z holatiga qaytarishga behuda urinardi. Palmer avvaliga raqsning qanday davom etishini kuzatishga harakat qildi, biroq baribir oxirigacha toqat qilolmadi va zo'raki tabassum bilan Virjiniya tomon o'girildi.

— Yevropa bo'ylab qilingan tantanavor sayohatdan yaqinda qaytib kelgan! — e'lon qildi u.

— Shohona zotlar huzurida tomosha ko'rsatgandir-da, shundaymi?

— Shirakayf zotlar huzurida, — g'udrandi Palmer. — Darvoqe, o'n birgacha hali uzoqmi? Ie, hali ham o'n bir bo'lmadimi?

— Endi o'n yarim bo'ldi.

— Men esa o'n birda ketishim kerak.

— Ketishingiz kerakmi yo ketsangiz bo'laveradimi? — surishtirdi juvon.

— Kerak ham, bo'laveradi ham.
— Xuddi tipratikondek tikonlarga qoplanib olgansiz.
— Qoplanib emas, yashirinib olganman, — e'tiroz bildirdi Palmer.
— O'n birdan keyin nima bo'ladi? — so'radi Virjiniya.
— Sizni to'ydirib ichirishibdi, — dedi Palmer. — Men buni darrov sezdim.
— "Ser, meni yaralamadilar, meni o'ldirdilar!" Soqiylik vazifasini bajarganda mister Garrison Elderning qanaqa bo'lib ketishini siz tasavvur ham qilolmaysiz.
— Kechirib qo'yasiz, men ham qo'shilganman, — e'tiroz bildirdi Palmer va bo'sh qadahini ko'tardi. U qadahga diqqat bilan razm soldi, keyin esa xo'mrayib so'radi: — Kalxeynga nutqni Berns yozib bergan bo'lsa kerak?
— Shak-shubha yo'q.
— Nima uchun u har doim bunaqa tumtaroqli qilib yozadi?
— Kalxeynning nuqtai nazarida, — dedi juvon, — qancha noaniq bo'lsa, shuncha yaxshi.
— Agar ular ikkovini bir joyga qo'ysa, — dedi Palmer, — dunyoni zulmat bosardi. — U xo'rsinib qo'ydi.

Nihoyat "Vasvasa" tovushlari ostida g'ayrioddiy sheva bilan romans ijro etmoqchi bo'lgan tenorga joy bo'shatib, qiziqchi chetlashdi. Tenor omma ham bu kuydan to'liq zavqlanib ulgurmagan deb xayol qilgandi, biroq qarasaki, uning o'zi qabih niyat qurboni bo'lib o'tiribdi, chunki "Vasvasa"dan bir necha maqom chalib, orkestr birdan fokstrotning quloqni qomatga keltiruvchi jo'rligida o'ynoqi kuyga o'tib ketgandi. Yakunida "Besa me mucho" yangrab, tomoshabinlar qarsak bilan qarshi oldilar. Shundan keyin qiziqchi raqslar boshlanganini e'lon qildi.

Tanobiyda charaqlab yongan chiroqlardan ko'zlarini qisib odamlar u yon-bu yonlariga qaragancha stoldan turishdi. Hay'at stoli birdan qorong'ilik ichida qoldi va fayzini yo'qotdi. Eng avval ruhoniylar o'tirgan o'rindiqlar bo'shadi.

Garri Elder ham o'rnidan turdi va ohista qornini silab qo'ydi. Paytdan foydalanib bir nechta reportyor Kalxeyn tomon otildi. Elder Virjiniya Kleriga iliq jilmayib qo'ydi.

— Nachora, u bo'lmasa, mana, men sizni taklif qilaman, — dedi u o'zining baland xirildoq ovozi.
Avvaliga Palmer nima gapligini tushunmadi, so'ngra fahmlab olgach, u o'rnidan turdi va Virjiniya oldida boshini xiyol egdi.

— Mister Elder bilan bu safar raqs tushishga rozilik bildirib, unga marhamat ko'rsatmaysizmi?
— Jonim bilan.

Palmer ularni ko'zdan qochirmaganicha qayta joyiga borib o'tirdi va Elder bilan xonim raqs tushuvchi juftliklarga allaqachon to'lib bo'lgan maydoncha tomon ketdi. Palmer juvonnini, uning harakatlarini, oppoq libosdagi sarvdek qomatini kuzata boshladi. Keyin, kim bilsin, nechanchi marta yana soatiga qaradi va Berns bilan uchrashuviga hali ancha borligidan afsuslanib qo'ydi. Katta to'rtburchak shishaga qo'l cho'zib, u muzlari erib bo'layozgan qadahiga viski quydi. U "ketar jafosi"ga va o'n birgacha qancha vaqt qolganidan qat'i nazar, bulardan juftakni rostlash uchun ichishga ahd qildi. Juda bo'lmaganda u mana bu tanobiyda ivirsib yurgandan ko'ra Bernsning uyiga piyoda borsa ham bo'lardi-ku. Ora-chora raqs tushayotganlar orasidan lip-lip ko'zga tashlanib turgan oq libosga qarab-qarab, viskini shoshmay oxirigacha ichdi. Elder bilan Virjiniya kula-kula Palmer o'tirgan stolga qaytib kelishardi. Palmer o'rnidan turdi va juvonga o'rindiqni surdi.

— Keyingi navbat seniki, Vudi, — nafasini bazo'r rostlab dedi Elder. — Bu telba kuy menga to'g'ri kelmas ekan.

Bir necha soniya uchovlon nima qilishni bilmay turib qolishdi. So'ng Virjiniya Palmerning qo'lidan tutdi-da, uni raqs maydonchasiga olib ketdi. Juvon maydoncha chetida to'xtadi va unga o'girildi.

— Buning nimasi telba kuy ekan? — dedi Virjiniya. — Eng oddiy lotin amerikasi kuyi-ku. — Palmer uni o'ziga qaratdi-da, garchi orkestr qandaydir boshqa kuyni chalayotgan bo'lsa ham "pa rumba" maqomida maydoncha chekkasi bo'ylab asta yurib ketdi. Palmer o'zini juvondan ancha balandman, deb o'ylagandi, biroq raqs tusha boshlashgani hamon Virjiniyaning birdaniga bo'yi cho'zilib ketganday

bo'ldi. Qoidaga rioya qilib, orada masofa saqlagancha u juvonne boshlab ketdi, bu masofani faqat ayolgina qisqartirishga haqli edi. Musiqa Irvinning eski kuyi "slou-faks"ga o'tdi. Palmer uni talabalik davridan yaxshi eslardi, faqat o'sha vaqtlarda u ancha sho'xchan ijro etilardi.

Yoningdaman, dadil bo'l, qo'rqma,
Axir emasman-ku yosh bola, jonim.
Yoningdaman, jo'shdir ehtirosingni ...

Ikkalovi ham asta kulib yubordi va raqs tushishda davom etdi.

— Xotirangiz yaxshi ekan, — dedi juvon.

— O'sha eski zamonlarda raqs tushishni o'rganganman.

— Ko'p qo'shiqlar esingizda qolganmi?

— To'g'risini aytsam, bu so'zlarni eslashimga shubha qilmagandim. Ular o'zi kelib qoldi, birdaniga.

— Davomini ham eslaysizmi?

— Boshqa hech nima esimda yo'q.

Ular raqs tushishda davom etishdi, biroq boshda ikkovlarini ajratib turgan masofa g'oyib bo'lganday edi. Yigit juvonning har bir harakatini his etib turardi. Odatdagi qoidaga rioya qilib Palmer ortga chekinmoqchi bo'lgan edi, biroq bu fikridan qaytdi.

Orkestr qo'shiq kuyini satrma-satr takrorlar edi. Palmer juvonning asta xirgoyi qilayotganini eshitdi.

U Virjiniyaning yuziga nazar tashlashga harakat qildi, lekin juvon chehrasini uning yelkasiga qo'yib olgandi. Palmer juvonning unga yaqinroq kelib olganini his etdi. Buni u bilib turib qilayaptimikan, deb o'zidan-o'zi so'radi Palmer. Xotinidan boshqa ayol bilan raqs tushganida bunday savol ko'p martalab ko'ngliga kelar edi, bunga biron ahamiyat berish joizmikan yoki bu ixtiyordan tashqari bir holatmikan? Har gal bo'lganidek, bu safar ham Palmer ayollar kamdan-kam ixtiyordan tashqari harakatlar qiladi degan to'xtamga keldi.

Asta-sekin tanobiyini yana g'ira-shira qorong'ilik chulg'adi. Raqslar esa davom etardi. Ofitsiantlar stollarni yig'ishtirishga tushishgandi, soat o'n birdan oshib ketgan, ammo Palmer endi vaqt qancha bo'lganiga qiziqmay qo'ygandi.

Yigirmanchi bob

Sayr shuncha cho'ziladi deb kutmagandi u. Mehmonxona Tayms Skuer tumanida edi, Bernsning shahar kvartirasi esa Elliginchi ko'chalarning birida joylashgan. Virjiniyaning uyi Berns uyi yo'lida yoki, ehtimol, buning aksi bo'lgani uchun Palmer uzoq o'ylab o'tirmadi, — ular yo'lning bir qismini birgalikda bosib o'tishga qaror qilishdi.

Ushbu kech pallada Manxettenning markaziy tumanlari, odatdagidek, odamlar bilan gavjum edi; odamlar oqib kelar, mashinadan tushar, tungi klublarga, barlarga, turar joylarga kirar yoki ulardan chiqar edilar. Shahar teatrlarida tomoshalar tugab bo'lgandi va tevarak-atrofdan yashovchi tomoshabinlar va ularning nyu-yorklik do'stlari bu yerga intilardi. Palmer va Virjiniya mashinalar oqimi o'tib ketishini poylab, Park-avenyu va Ellik ikkinchi ko'cha chorrahasida to'xtashdi va birdan ko'rinishidan olti yoshdan ortiq bo'lmagan ikki puertorikalik bolaning o'qday uchib borib qarshidan kelayotgan qora "flitfud"ga tashlanganini ko'rib qolishdi. Ular restoran yo'lagiga burilib, hali yurib borayotgan avtomashinaning eshigini ochishga harakat qilib, qo'lchalari bilan dastakka mahkam yopishib olishdi. Bolalardan biri turtinib ketdi-da, bir oyog'i mashina ostida bo'lib qoldi. — Suidado!¹

— To'xtang, mister! To'xtang!

Mashinaning orqa g'ildiraklari bolakay oyog'iga tekkan mahalda o'rtog'i uni mashina tagidan shiddat bilan tortib oldi. Restoranga kiraverishda turgan shveytsar supacha tomonga otildi va har ikkala bolani ariq tomonga irg'itib yubordi, so'ng darhol qaddini rostlab, "flitfud"ning orqa eshigini

ochish uchun mashinaga o'z vaqtida yetib bordi. Palmer hatto uzoqdan turib shveytsarning mehmonni sermulozamatlik bilan jilmayib qarshi olganini ko'rib turardi.

— Ana qahramonlig-u, gap yo'q, — deb qo'ydi Virjiniya.

— Ularga nima! — dedi Palmer. — Anavi yoqqa qarang!

Har ikkala bolakay ariq bo'yida yotib olib, ovozlarning boricha xoxolab kular edi.

Virjiniya ularga diqqat bilan razm soldi.

— Yig'lamaslik uchun kulishayapti, — deb qo'ydi juvon.

Yashil chiroq yonib, ular ko'chani narigi tomoniga o'ta boshlashdi. Virjiniya oldinda, uning ortidan esa Palmer borardi. Ular "Sigrem" binosining mungli osmoniga tik ko'tarilgan ustunlari yonidan jim o'tib ketishdi. Oynavand devor orqali ichkaridan chiqib turgan sarg'ish nur butun devorni yoritib turardi.

— Zo'ravonlik shahri, — dedi Virjiniya. — Vahshiy xulq-atvorlar. Bu yerda dahshatli ishlar amalga oshiriladi. Uchchiga chiqqan qarama-qarshiliklar.

— Demak, siz ham ko'chadagi juldirvoqilarga ko'z yoshi to'kadiganlardan ekansiz-da? — Palmer xo'rsindi.

— E, yo'q, — e'tiroz bildirdi juvon. — Men o'zim ham ko'cha qizi edim. Lekin u vaqtlarda bizga bunday nafrat bilan muomala qilishmasdi. Endi esa bu ko'plab odamlar boshiga tushgan ayanchli holatning ko'plab alomatlaridan bittasi.

Palmer biroz sukut saqlab turdi-da, keyin dedi:

— Lekin men, to'g'risi, bu bolakaylarda ayanchli alomatlarini ko'rmadim.

— Endi ko'rasiz, — dedi Virjiniya.

— Nimani "endi ko'rasiz"? — Men eshitishga tayyorman, — dedi Palmer. — Hali oldingizda oxiri yo'q uzun yo'l turgandan keyin...

— Men aytadigan narsa sizga yoqmaydi.

— Ehtimol. Baribir ham, iltimos, gapiring, men tinglayman.

— Eng avvalo bu ikki bola hayotda nimalarga to'qnash kelishini, qanday holatlarda ularga esh bo'ladi-yu, qandaylari qarshilik ko'rsatadi, shularni tushuntirishga harakat qiling, — gap boshladi juvon. — Yaxshi tumanni olib, ularning omadi kelgan. Bu yerda haddan tashqari qimmat restoran, ikki tungi klub joylashgan, bularga eng mashhur kinoyulduzlar va turli taniqli odamlar kirib turishardi. Buning ustiga mehmonxona ham yonginasida. Mana shu butun mahalla — ularniki. Agar boshqa mahalla bolasi bu yerga kelib qolgudek bo'lsa, uni burda-burda qilib tashlashadi.

— Kimlar, bu bolakaylar?

— Agar daromadli bo'lsa, o'z tumanini saqlab qolish uchun ular hech narsadan qaytishmaydi. To ulardan zo'rroq bittasi bu serunum joydan qancha foyda tushishini anglab, ularni quvib yuborib, o'rniga o'zi o'rnashib olmaguncha shunday bo'laveradi. Axir bir tunda ularning har biri manavi yerda besh dollardan ishlashi mumkin-da.

— Quruq eshikni ochib, pul ishlash?

— Bugina emas. Ular shu qadar bechorahol bo'lib ko'rinishadiki, ularni haydab yuborishga birovning ko'ngli bo'lmaydi. Bu mahalla restorani va tungi klublar mijozlari odamlar ko'ziga mushtdekkina juldirvoqilarni tepishga jur'at qilolmaydilar. Ulardan qutulish uchun chorak dollarlik chaqani irg'itish kifoya.

— Shveytsarlar-chi? — so'radi Palmer. — Ular bu bolalarni haydab yuborishmaydimi?

— Haydab yuborishadi, faqat ularni kimdir zimdan kuzatib turganda yoki bolalar haddan tashqari surbetlik qilgan vaqtlarda haydashadi. Aslida esa bu yerda bir qonun bor: o'zing ham yasha, boshqalarni ham yashagani qo'y. Bolakaylar boy mijozlardan birontasining ko'nglini chog' qilishlari mumkin, ana shundaylardan bir alamini olib qo'yishi mumkin. Umuman, ular nonini topib yeyishadi. Siz ularning shveytsar bilan o'rtalaridagi munosabatni payqagandirsiz, hoynahoy? Ikki xil hayotda kun ko'rish shakllaridan bittasi.

— Siz shunga aminmisiz?

— Bo'lmasa-chi, — davom etdi Virjiniya, — ularga o'zlarining g'ururi yordam beradi: "anglos"¹ lar kelganda ular hech qachon yig'lamaydilar. Mana gap qaerda. Barcha tuyg'ularni ular kulgi bilan ifoda etadilar.

Palmer lablarini qimtib olgan Virjiniyaning yuziga yon tomonidan ko'zining qiri bilan razm soldi.

— Tuyg'ularni ifoda etishning bu g'oyatda cheklangan vositasi, — dedi u.

— Qo'shilaman. Ammo ularga qarshi ko'plab omillar kurashgandi. Birinchidan, vaqt. Ular balog'atga yetganida, shveytsarlar toqat qilolmaydilar va o'shanda ularni qaytmas qilib haydab yuboradilar. Mahallada izg'ib yuruvchi bunday o'smir puertorikaliklar kimni tashvishga solmaydi? Qachon qaramang, pichoqbozlik qilishga shay turishadi. Shu bois kulib turib pul topish, taqdir zarbalariga bardosh berish mumkin bo'lgan ular bolaligining oltin davri uzoq cho'ziladi.

— Ikkinchidan, — deb davom etdi juvon, — ishlab topgan pullari ham ularning o'zlariga qarshi bo'lib qoladi. Albatta, agar ular barcha topgan pullarini uyga olib kelishsa-ku, olam guliston. Lekin loaqal bir necha dollar pulni tugib qo'yish qo'lidan keladigan bironta bolani topib bera olasizmi? Bu la'nati dollarlar ularning boshiga ozmuncha kulfat keltirmaydi deysizmi! Bisotidagini tortib olish uchun bola sho'rlikni o'lasi qilib kaltaklashlari yo o'ldirishlari ham mumkin, yoki u giyohvandchilarga qo'shilib ketadi, yo ichkilikboz bo'lib ketadi. U hatto to'pponcha sotib olish uchun ham pul yig'ishi mumkin.

— Yoki, — uning gapini bo'ldi Palmer, — u o'ziga kostyum sotib olishi, kinoga tushishi, to'yib ovqatlanishi mumkin. Nima uchun siz uni pullarini faqat halokatga eltish uchun sarflaydi deb o'ylaysiz?

Juvon to'xtadi va unga yuzlanib turib oldi. Uning qo'li Palmerning bilagidan sirg'alib tushdi.

— Aytmovidimmi, gaplarim sizga yoqmaydi deb, xushaxloq do'stingnam.

— Men boshqa imkoniyatlarga shama qilmoqchi edim.

— Bolaligingiz tajribasidan kelib chiqqan imkoniyatlar haqidami? — dedi Virjiniya. Chet el avtomashinalari bor vitrinadan tushgan charaqlagan nur ostida diqqat bilan Palmerning yuziga qarayotgan ko'zlari yana kattalashgandek, yanada qoraygandek tuyuldi. — Yo'q, siz shunchaki Nyu-Yorkdagi ko'cha bolalari hayotini tushunishga qodir emassiz.

— Harakat qilayapman-ku.

— Yoki pul ular uchun nima ekanini tushunishingiz kerak. Bir kuni menga o'zingizning pulga bo'lgan barcha qarashlaringizni bayon etgandingiz. Esladingizmi? Siz pul — hayotingizdagi asosiy omil degandingiz. Shunday emasmi?

— Ha.

— Mana bu bolalar uchun, — dedi unga Virjiniya, — pul — bu xaloskorlik to'lovi. Ular pullarini pala-partish va tez sarflab yuborishlari sababi shunda, ularni barbod etuvchi hayotdan silitib chiqishiga bo'lgan yengilmas ehtiyoj yelkalaridan bosib turadi, bu hayotda ular o'zlarini mayda, ko'zga ilinmaydigan jondorlar deb biladilar. Pul esa ularga darhol kuch va ma'no baxsh etadi. Pul — bu to'pponcha, u ularga o'zlarini atrofda gilardan bir kalla baland deb his etish imkonini beradi. Yoki bu bir shisha achchiq va arzon vino. Yoki nasha. Ammo bu zinhor qorin to'ydirmaydi, bir stakan koka-kola yoki varaqi somsa emas.

— Oh, o'ylasang badaning jimirlab ketadi, — dedi Palmer juvonning ko'zlariga qarashga harakat qilib. — Bu bolalarning yoshi nechada ekan-a? Oltimi, yettimi?...

— Yo'q. — Juvon e'tiroz ila boshini chayqadi: — Ulardan bittasi nari borsa o'nda. Boshqasi o'n birda yoki o'n ikkida ham bo'lsa kerak.

— Unda men chamalay olmas....

— Ha, bu shunday, — uning so'zini bo'ldi juvon. — Men bu ikkala bolani bilmayman, ammo ularning yoshidagi bolalar odatda hamma narsani bilib olgan bo'ladilar. Hatto ayollar bilan jinsiy aloqa ham qiladilar.

— O'n yoshda-ya? — Shu asnoda usti ochiq va o'rindiqlarga yaltiroq charm qoplangan oq "mercedes" ularni quvib o'tdi. Haydovchi yonida o'tirgan baland bo'yli zarrinsoch juvon Palmerning gapiga ta'nali o'girilib qarab qo'ydi.

— O'n yoshda-ya? — qayta so'radi u bu safar xotirjam ohangda.

Juvonning lablari g'amgin tabassumdan egildi.

— Oxiri lol qoldirdimmi sizni?

— Lol qolganim yo'q, — e'tiroz bildirdi Palmer. — Hafsalam pir bo'lib ketdi.

— Bo'lmasam-chi, ayniqsa bular hammasini sizning bolalik yillaringiz bilan taqqoslaganda, — dedi juvon va yana ilgarilab ketdi. — Bo'pti, taqqoslamaganingiz yaxshi. Nazarimda, hayotning jinsiy jihatlari bilan biz ikkovimiz ancha kech tanishganga o'xshaymiz.

— Menda bu narsa o'n sakkiz yoshimda sodir bo'lgandi, undan erta emas.

— Menda esa o'n sakkiz ancha erta hisoblangan, — dedi Virjiniya.

— Demak men rosa sakkiz yilni boy beribman-da? — miyig'ida kuldi Palmer. — Garchi bu narsa nima ekanini bilmasam-da, ayni kuch-quvvatga to'lgan sakkiz yil-a?

Ular o'ngga burilishdi va Ist-River tomon yo'l olishdi, Leksington avenyuni kesib o'tishdi va Uchinchi avenyu muyulishida to'xtashdi.

— Shu yerda ajrashamiz, — dedi juvon. — To'g'ri boraverasiz va oxiri o'ng tomonda yangigina baland oq binoga duch kelasiz. — Palmer undan Berns uyi joylashgan joyni bu qadar nechuk aniq bilasiz deb so'rashdan o'zini zo'rg'a tiyib turardi. Politsiya sirenasining tobora kuchayib borayotgan ovozi quloqqa chalindi. Yonlaridan politsiya avtomashinasi va ortidan politsiya departamentiga qarashli kattakon "tez yordam" yashil avtomashinasi o'tib ketganini bazo'r ilg'adi.

— Kimnidir qaerdadir, — asta dedi Virjiniya, — "flitvid" g'ildiraklari ostidan vaqtida tortib chiqarishga ulgurmagalar.

Ular tik turgancha "tez yordam" avtomashinasi tomidagi lip-lip qilayotgan chiroqni indamay kuzatib qolishdi. Uchinchi avenyuning oxiri ko'rinmas bir puchmog'iga kirib, ko'p o'tmay "tez yordam" ko'zdan g'oyib bo'ldi. Shu asnoda o'ylashga ham ulgurmay Palmer o'z ovozi eshitdi:

— Sizni kuzatib qo'ysam maylimi?

Juvon asta boshini chayqadi:

— Minnatdorman, bugungiday havo yaxshi kunlari oyimning kechqurunlari oynadan boshini chiqarib toza havodan nafas oladigan odati bor. Keyin unga rosa tushuntirishimga to'g'ri keladi. Kechqurun qizimni kuzatib qo'yar ekanmi, bu odamga ishonib bo'lmaydi, odatlari yomon ekan deb o'ylay boshlaydi. Ana undan keyin qutulib bo'psiz oyimdan.

— Qanaqa yomon odatlarni nazarda tutayapsiz?

— Eh, qaysi birini aytay? Siz — mening boshlig'imsiz, uylangansiz. Oxiri borib-borib sizning hatto katolik ekaningizni tan olishimga majbur qiladi.

— Agar bunaqa ziyofatlarga tez-tez kelib turadigan bo'lsam, kim bilsin, oxiri katolik cherkovining ashaddiy kurashchisiga aylanib qolarman? Ungacha siz biron narsa o'ylab toparsiz?

— Bir gal shunday qilishga ham urinib ko'rdim, ammo chiqmadi. Oyim meni darhol fosh qilib tashladi.

— Yigit katolik emasmi? — so'radi Palmer.

— U bo'ydoq emasdi. Xayrli tun.

Oraga noqulay sukunat cho'kdi.

— Buni qarang-a, — dedi birozdand so'ng Palmer. — Oyingiz sizdagi bu e'tirofni qanday qilib ilg'ab oldiykin?

— Bu hech narsa emas, — dedi juvon, — xotini o'sha yigitdagi e'tirofni ilg'ab olgani oldida bu holva-ku. Yo'q, yaxshisi, xayrli tun, yaxshi boring.

U juvonga tikilganicha joyida turaverdi va ayol ham joyidan qimir etmayotgandi.

— Menda shunday tasavvur paydo bo'ldiki, siz har qanday sirni saqlay olasiz, — dedi Palmer.

— Oyim esa sizda har qanday sirning tagiga yeta oladigan odamdek taassurot qoldirishi mumkin. Palmer yana o'ylab olishga ulgurmay shartta dilidagini aytdi-qo'ydi:

— Men bilan birga borsangiz qalay bo'larkin?

— Bugun Bernsnikida mehmon bo'lishdan ko'ra noqulayroq joyni topish ancha qiyin bo'lsa kerak.

- Nega endi? Axir biz birga ishlaymiz va bitta ishni bajaramiz-ku.
- Men boshqa qizlarga xalaqit berishim mumkin, — dedi Virjiniya. Palmer qovog'ini uydi:
- Unikida allaqanday qizlar bo'lishini birinchi marta eshitayapman.
- Sizga bu haqda hech kim ma'lumot berishi shart emas.
- Menga u yerda sof ish yuzasidan suhbat bo'ladi deb aytishgan. Bunday bo'lmasligiga ishonchingiz komilmi?
- Komil emas-u, ammo taklif yo'sini baribir mening haqligimdan darak berib turibdi.
- Berns "ma'qul yigitlar" bilan suhbat bo'ladi degandi. U kimlarni nazarda tutgan bo'lmasa?
- Tashvishlanmang. U yerda nima talab etilgan bo'lsa, hammasi bo'ladi. Livan chakkibosari tajribasiga tayaning. Siz uchun bu oqshom behuda ketmaydi.
- Palmer toqatsizlik bilan aftini burishtirdi:
- Siz jiddiyroq bo'lsangiz-chi. Men erkaklar haqida gapirayapman, axir.
- O, hammasi joyida bo'ladi. Xuddi eng yaxshi xonadonlardagidek, — jilmaydi juvon unga javoban. — Xo'sh, nima bo'ladi? Siz, aftidan, rostdanam tashvishlanayapsiz, chog'i? Nahotki, Berns sizni o'z oqshomlaridan bittasiga birinchi marta taklif qilayotgan bo'lsa?
- Palmer quruqqina jilmaydi:
- Agar gap shunday oqshomlar ustida ketayotgan bo'lsa va shubhalingiz haqqoniy bo'lsa, unda bunday takliflarning kamida o'n-o'n beshtasini rad etishdan sizni xabardor qilib qo'yishim kerak.
- Nega endi?
- Bu masala uning oldida ochib bergan ayqash-uyqash imkoniyatlarni xayolan bir tartibga solishga urinib, u juvonga jim qarab qoldi. Oxiri juvonning qarshiligini qabul qilmaslikka jazm etib, boshini chayqadi.
- Xo'sh, nega? — Juvonning savolini o'ziga qaytardi Palmer.
- Bu safar Virjiniya aftiga kinoyali tus berdi.
- Siz suhbatini olinayotganning vazifasini uddalay olmadingiz, — dedi u. — Siz mendan bir-ikki jumla ilgari lab ketyapsiz. Bu haqda so'raganim uchun kechiring. Bunday savollar berishim aqldan emasdi.
- Zinhor unday emas. — Palmer yana o'ylab olishga ulgurmay so'z qotdi. U tishlarini bir-biriga bosdi, biroq yuzidagi eng kichik o'zgarishni ham juvon sezib turganini fahmlab, o'z xatosini yengil jilmayish bilan suvab yuborishga harakat qildi.
- Nima bo'lganda ham bu har doim ma'nosiz emas.
- Agar bu sizga daxl qiladigan bo'lsa, umuman har doim emasmi yo shunchaki har doim emasmi?
- Palmer chuqur xo'rsindi, so'ng tantanavor ohangda nido soldi:
- Men shunga asosan bu savolga javob bermaymanki, mening javobim aybimga iqrar sifatida, aybning bilvosita dalili sifatida yoki shuni ko'rib chiqish holatiga bog'liq ravishda ishga daxldor bo'lmagan arznoma sifatida foydalanilishi mumkin.
- Ammo siz prokuror bilan emas, do'st bilan gaplashyapsiz-ku, — dedi Virjiniya. Juvon biroz jim bo'ldi. — Konstitutsiyaga kiritilgan Beshinchi tuzatish ortiga yashirinishga hojat yo'q.
- Yigit bunga hech narsa deb javob bermadi.
- Agar yonimizdagi haqiqat ham do'st bo'lsa, — qo'shib qo'ydi juvon va quruqshagan lablaridan tilini aylantirdi.
- Haddan tashqari ko'p ichib qo'rganini Palmer endigina angladi. U har bir so'zdagi pinhoni ma'nodan cho'chib qolgandi. O'zi yo'q xatarlardan xavfsiramoqda, haddan tashqari ehtiyotkorlik qilmoqda edi, chunki u rosmama hushyor odamga xos sog'lom aqlga tayanadigan ahvolda emasdi-da. Bu shaharda uning do'stlari qatoriga qo'shadigan bironta odam bo'lsa, u ham Virjiniya-ku. Biroq bu haqda uning o'ziga aytish o'rniga u yana o'z ovozi eshitdi:
- Rostdanam shundaymikan?
- Juvon javob berishga shoshilmayotgandi. Endi Palmerning o'zi ko'rib turibdiki, bergan savoli aslida g'irt haqoratdan boshqa narsa emas. U bir umr qanday ish tutib kelgan bo'lsa, ko'ra-bila turib yana

shunday ish tutganini tushundi: atrofidagilarni o'zidan ma'lum masofada saqlab turardi. Ammo, nahotki, u hozir ham shunday qilayotgan bo'lsa? Nahotki, masofani o'zining Virjiniya bilan munosabatlarida ham saqlamoqchi bo'layotgan bo'lsa?

— Bunday savol javob berishga arzimaydi deb o'ylayman, — dedi Virjiniya. U go'yo politsiya mashinasining lip-lip qilgan qizil chirog'ini yana ko'rishni xohlayotgandek Uchinchi avenyuga indamay ko'z yugurtirmoqda edi.

— Do'stlik uchun kamida ikki jihat talab etiladi, u bir jihatli bo'lishi mumkin emas, — dedi juvon asta va o'ychan holda. Biroq u yigitga o'girilganda, Palmerning nigohidagi nimadir uni qo'shimcha qilishga majbur etdi: — Harholda men o'zimni sizga nisbatan do'st tutishga harakat qilaman.

Palmer bosh irg'adi:

— Bilaman.

— Bu munosabat... — Juvon taraddudlandi, biroq baribir gapini oxiriga yetkazishga ahd qildi. — Bu munosabat ortida qandaydir shaxsiy majburiyatlar yashirinmaydi. Siz to'g'ri aytgansiz: bizlar barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib bitta ishni qilamiz. Nega endi bizlar do'st bo'lmasligimiz kerak? Tamom, vassalom.

— Bilaman, — dedi yana Palmer, — men j... j... — U birgina sirni aytishga to'satdan qiynalib qolganidan xijolat tortib, ko'zlarini pirlpiratdi. U chuqur nafas oldi. — Men juda sizdan minnatdorman buning uchun. Rahmat.

Juvon asta qo'lini ko'tardi, uning uzun va ingichka barmog'i bir lahza yigitning yuziga to'qindi. Bu barmoqning qanaqadir issiq tuyulib ketganidan u lol qoldi.

— Bu gapni aytish uchun siz ozmuncha kuch sarflamadingiz. To'g'rimi? — Juvon jilmaydi.

Palmer ikki bor "ha" degandek bosh irg'adi, uning gapirishga majoli qolmagandi.

— Mayli, hechqisi yo'q, — past ovozda dedi juvon. U katta-katta ko'zlari bilan yigitning yuziga diqqat ila, shoshilmay razm solib chiqdi. — Agar kerakli so'zlarni topish sizga shunchalik qiyin bo'layotgan bo'lsa, buni men eng yaxshi lutf deb qabul qilaman. Xayrli tun.

Juvon orqasiga burildi-da, Uchinchi avenyu bo'ylab yuqoriga qarab ketdi.

Yigirma birinchi bob

Mak Berns shaharda kvartira olgan uy Ist River qirg'og'idagi eng zamonaviy bino edi. Uning butun old qismini balkonlar safi qoplagan. Balkonlar shunday joylashganki, har bir kvartira yashovchisi daryoni tomosha qilib zavqlana olardi. O'n sakkiz qavatli bu bino shaharning eng serqatnov avtoyo'llaridan birida qad ko'targan edi. Munitsipial mulk hisoblanuvchi tomorqalar ustidagi bohavo joylarni xususiy odamlarga sotish ancha serdaromad bo'lib, shahar xazinasini to'ldirishning ishonchli usuli edi. Bu g'oya shahar boshqarmasi vakillaridan biri, o'tmishdoshidan ko'ra ishbilarmonroq bir odamga tegishli edi va aynan u havo savdosida pinhon yotgan cheklovsiz va ancha daromadli imkoniyatlarni hisobga olgandi.

Palmer panjara oldida turar va boshini orqaga tashlab, bu muhtasham binoni tomosha qilar, bamisoli osmonda parvoz qilayotgan bu kenglik uy egasiga qanchaga tushishini o'zicha xomcho't qilishga urinardi. Qiziq, aynan shu tumandagi havo qancha turarkin, shaharning boshqa qismlaridagidan bu yerda qimmatroqmikin? Shahar hokimiyatidagilar xaridorga rasamaddagidek qilib topshirishdan oldin bu havoni tozalash, uydan qurum va zaharli gazlarni yo'qotish g'amini yeganmikanlar? Tijorat uchun foydali bu havo qatlamlari shahar uzra qancha balandlikkacha yastlangan?

Agar, xudo ko'rsatmasin, bu qimmatli havoning bir qismi Atlantika okeani uzra uchib tushib, sharqqa qarab, suvdan o'n ikki millik sarhaddan chetroqqa suzib ketsa-chi? Undan ham yomoni: u g'arbgga tomon, Vihouken shahrining qovoqmiya otalari uni kimoshdi savdosida pullab yuborishga qaror qiladigan Nyu-Jersi tomon surib ketishi ham mumkin-ku!

Asil Manxetten havosidan olib qoling! Narxi ko'ngildagidek!

Palmer binoga diqqat bilan razm sola boshladi. U dahshatli ko'rinardi. Tikka bukilgan mudhish balkonlar dev qo'lidagi ulkan cho'qmorga o'xshaydi. Qiziq, o'yladi u, bu havo qasrida qanaqa odamlar yasharkin-a?

Bu yerda ijaraga olingan yoki muddatli to'lovga sotib olingan kvartira qanchaga tushishini u xayolan bermalol xomcho't qila olar edi. YuBTXda mana shunaqa turdagi binolarga ko'plab bay pullari qo'yilgan. Har bir ijara haqi kam deganda yiliga ming dollar turadi. Shunday qilib, besh xonasi, derazalari qo'shni uyga tiralib turuvchi odmigina kvartira ijaradorga kam deganda atigi to'rt yuz dollarga tushsa kerak. Biroq ko'pchilik kvartiralarning balkonlari ham bo'lganidan ularning narxi ancha oshar edi.

Palmer darvozaga olib boruvchi yo'lakdan asta yurib ketdi, o'zicha avtomashinalarning tosh yo'ldan to'g'ri oynavand bostirma ostidagi keng markaziy eshikka kelib turishini hisobga oldi. To'rt yuz dollarli ijaradorlar bu hashamli eshikdan kirib-chiqishda foydalanishlari mumkinmikan? — o'yladi Palmer. — Darvoqe, bu mahallalarda yashovchi bechorahollarning taksida yurishlariga yo'l bo'lsin.

Ko'chadan oynavand devor bilan ajratib qo'yilgan vestibyl ichkarisida ikki shveytsar pashsha qo'rib o'tirardi. Bittasi harbiycha shinel va furajkada. Ikkinchisi — livrelda. Ular liboslarining sarg'ish-qizil rangli frantsuz chet el legioni polkovnigi mundirini eslatardi. Shinel va furajkadagi shveytsar Palmerning yaqinlashib kelayotganini ma'yus va diqqat bilan kuzatib turardi. Livreldagi uning hamkasbi telefon kommutatori qopqog'iga erinib yonboshlagancha Palmer tomonga loaqal qiya boqib ham qo'ymadi.

Eshigini ochish uchun Palmerning o'zi qo'lini cho'zgandagina shineldagi shveytsar oshkora norozilik bilan uni lang ochdi.

— Xayrli kech, — dedi u savol bergan ohangda, go'yo ob-havoga qiziqqanday.

— Kimga keldingiz? — dag'algina g'udrandi livreldagi shveytsar.

— Ya'ni, sizga kim kerak edi, demoqchisiz-da? — to'g'riladi uni Palmer.

Shveytsar yalt etib unga qaradi-da, keyin gavdasini to'g'rilab turib oldi:

— Meni ma'zur tutgaysiz.

— Durust, — javob berdi Palmer.

— Men so'ramoqchi edimki, kelganingizdan kimni voqif etaylik?

— Mister Bernsni.

Shveytsarlarning ko'zlari katta-katta ochildi. Palmer peshtaxta oldida g'oz turib oldi.

— Eh, mister Bernsmi? Bir daqiqa, ser. — U shartta o'girildi-da, kommutator shnuridan tutdi.

Azbaroyi chiranganidan lablari uchib, u bir necha lahza kerakli raqamlarni terdi, so'ng kuch bilan poynakni uyachaga tiqdi.

— UZR, ser. Siz xususingizda nima deb aytay?

— Vudi, — dedi Palmer yengil tabassum bilan.

— Ha, ser Vudi. Bir daqiqa, ser, hozir aytaman. — U telefon go'shagini qulog'iga qattiq tirab javobni kuta boshladi. — Mister Berns? Bu sizmisiz, ser? Ser, sizni mister Vudi ko'rmoq istaydir. — U peshonasini tirishtirib quloq soldi. — Lekin u kishi mister Vudi dedilar, ser... — Keyin shveytsarning yuzi tabassumdan yorishib ketdi va u shodon boshini saraklatdi. — Ha-ha, ser, albatta, mister Berns, ko'nglingiz to'q bo'lsin, hoziroq bajo bo'ladi, ser. — U Palmerga burildi: — Marhamat, mister Vudi, marhamat, ser, mana bu yerga marhamat qiling.

Shveytsarga ergashib lift tomon borar ekan, Palmer shunday mulohaza qilardi: bu toifadagi qulchilik birgina "bayram" munosabati bilan mo'may choychaqa olish istagidan paydo bo'lmaydi: rojdestvogacha hali uzoq, buning ustiga bironta ham o'z qadrini bilgan odam manfaat yuzasidangina adovatli nafratdan oshkora tarzda oyoqni o'pishga tayyor yaltoqlikka o'tishi mumkin emas. Yo'q, qat'iy tusda o'yladi Palmer. Ko'rinib turibdiki, gap faqat bu yerda Bernsga nisbatan saxiy va boy ijarador sifatida munosabatda bo'lmayotir. Undan qo'rqishadi. Odamni o'lguday qo'rqitib olibgina uni mana shunday yetti bukilib qulluq qilishga majbur etish mumkin.

U hozir kesib o'tgan vestibulning oxiri yo'qqa o'xshardi. Har bir qadam tashlashda Palmerning oyoqlari uzun patli gilamga shunaqangi chuqur botardiki, tuflisining uchlari yupqa chang qatlami bilan qoplendi. Devorlarga osilgan, girdi nafis naqshlar bilan qurshalgan toshoynalar vestibulni duchandon mahobatli ko'rsatar, unda odam o'zini mitti jonzodday his qila boshlardi. Bu mahobat ham kamlik qilganday, Palmerning yo'lida eni kamida ellik futlik hovuz paydo bo'ldi. Palmer uni aylanib o'tishiga to'g'ri keldi. Eng o'rtada badani haddan tashqari silliq ayol qiyofasini aks ettiruvchi ulkan hajmdagi haykal savlat to'kib turardi. Uning siymosi mutlaqo yassi va sochi yergacha tushgan. Haykal shiddat bilan deyarli qoq yarmigacha orqaga egilgan, qo'li bir quchoq sochlari orasiga kirib ketgandi. U qo'lini bo'shatib olmoqchimi yoki qaddini rostlamoqchimi, bilib bo'lmasdi. Faqat bir narsa aniq edi — sho'rqismat xilqat behad og'ir ahvolga tushib qolgan. Uch joydan tizillab otilgan suv uning sochlari orasidan o'tib yuqoriga intilardi va bir lahza soyabon shaklida muallaq turib, tropik jasasiga xos shiddat bilan haykalning yon tomoniga kelib urilardi. Suv tomchilari uning brinch siynasi va boshini nog'ora qilib chalar, keyin esa bir joyga to'planib badan bo'ylab pastga oqib tushardi. Turgan-bitgani mo'jiza-ku, ko'nglidan o'tkazdi Palmer. Haykalning bel va sonlari yo ehtirosdan, yo qattiq sovqotganidan pir-pir uchar edi.

Shveytsar tavoze bilan Palmerni avtomat liftga olib keldi va shirinsuxanlik bilan oq yo'l tilab: — O'n sakkizinchi qavat, shimoliy qanot, ser, — dedi-da, boshini egib qo'ydi.

Palmer javoban bosh irg'adi, "18" raqamli tugmachani bosdi va tezyurur liftdan orqada qolib, yuragi pastga tushib ketayotganday his qildi.

Ichidan Berns qo'li bilan imlab chaqirib turgan ochiq eshikkacha yetib olishdan avval u ma'yus kulrang tusdagi yo'lakda bir necha daqiqa adashib yurdi. Tirnoqlariga obdon oro berilgan va tilla tugma yaltirab turgan bu barmoqlarni hatto bir necha metr uzoqdan ham bexato tanib olsa bo'lardi.

— Shveytsarning aytishicha, meni Vudi ko'rmoqchi ekan, — dedi Berns kinoyali jilmayib. — Demak, siz laqab ostida yashirinmoqchi bo'libsiz-da?

— Kechikkanim uchun uzr, — dedi Palmer tashabbusni qo'lga olib.

Berns eshikka naridan-beri suyanib tik turardi. Xuddi uzoq masofani hozirgina chopib o'tgan odamday, uning qoracha yuzi yal-yal yonardi.

— Siz kutganimdan ham oldin keldingiz, bo'tam, — Palmerni ishontirib dedi u. — Qani, bo'lmasa daryo bo'yidagi kulbai vayronamizga marhamat qilsinlar.

— Nahotki birinchi bo'lib men kelgan bo'lsam? — so'radi Palmer, uning yonidan asta xona ichiga o'tar ekan.

— Ha, endi juda birinchi bo'lmasangiz ham, — betakalluf ravishda hirlingladi Berns, — ammo eng azizisiz.

Palmerning yuzi tirishdi:

— Men bo'lsam shoshmay shuncha yo'lni yayov yurib kelibman.

— Bo'tam, sen yayov yurmasliging kerak edi, — dimog'idan ming'irlab gapirdi Berns. U, aftidan, g'irt mast edi va odatdagi burro-burro talaffuzlari o'rniga bu safar so'zlarini chala-chulpa qilib, bir-biriga qo'shib gapirmoqda edi.

— Ulfatlar bilan jinday sayr qilib qoldim, — Palmer o'z aksini o'yma naqsh solingan qizil daraxt ramkasidagi toshoynada ko'rib qoldi. Dahlizdagi hamma buyumlar eski edi. Xona ichidan nimanidir qizg'in muhokama qilayotgan odamlarning bosiq ovozlari kelib turardi.

— Eh ofatijon miss Kleri! — Berns astagina dimog'ida kulib qo'ydi. — Virjiniya, gazeta ma'budasi bo'lgan ulfatchilikda, — dona-dona qilib dedi u. — Chaqilmas tosh yong'oq.

Palmer yelkasini sovuq uchirib qo'ydi.

— U g'oyat aqlli yosh xonimday taassurot paydo qiladi.

— Aqlli? — Berns jim bo'lib qoldi. — E-ha, aqlli! — U qattiq bosh irg'adi: — Ha, shubhasiz. Lekin bilasanmi, u nimaga o'xshaydi, xo'sh? Telefon stantsiyasiga o'xshaydi. — U barmog'i bilan Palmer pidjagining hoshiyasiga chertib qo'ydi. — Bilasanmi nima uchun? Xuddi telefon stantsiyasidek, unda

barcha raqamlar band bo'ladi! — O'zicha juda topib aytdim deb u butunlay hayajonlanib ketdi va mamnun holda hiringlab kuldi.

— Uni birga yura qol degan edim, — qo'shimcha qildi Palmer, — lekin u ko'nmadi.

Berns bir necha lahza o'y surib qoldi.

— Baraka topgur yaxshi qizlarimizdan u, — oxiri dedi u.

— Tushunmadim.

Berns yelka qisib qo'ydi:

— Hozir ko'ngilxushlik qilish mavridi emas, jonginam. U gap nimadaligini biladi. Demak, yaxshi qiz, baraka topsin.

Palmer tishlarini qisdi.

— Men uni bu yerga u maqsadda taklif etmagandim.

Berns yana hiringladi.

— E-ha, bunaqa dilxushlik uchun sizning boshqa pakkangiz bormi? Ha? Menga qara, Vudi, menga tegishli bo'lgan hamma narsa, bilginki, seniki ham. Butun mana shu kvartira sening ixtiyoringda, bundan boshqa xilvat joy topolmaysan ham. Men mutlaqo jiddiy aytayapman. Sen o'zingni bu yerda xo'jayin deb bil va bir narsani hisobga ol: sening mendan biron narsa so'rashingga hojat yo'q, sen faqat oldindan ogohlantirib qo'ysang bo'lgani, toki men bemavrid kirib qolmay, tamom-vassalom.

Palmer unga bir achchiq-tiziq gap qilmoqchi bo'ldi, biroq endi gapirishga og'iz juftlagan ham ediki, Berns uning qo'lidan tutdi-da, tezgina mehmonxona yo'lagiga olib kirib ketdi.

Zamonaviy shvedcha uslubga da'vogarlik; o'zicha o'yladi Palmer. Bu yerda ochiq ranglar ustunlik qilardi: tik daraxti va oq yog'ochdan yasalgan mebel, qoplamalarda oq, kulrang va qora to'rtburchak shakllar. Qandil va torsherlar chirmovuuq va poxol ko'rinishidagi murakkab o'rimlar bilan birlashtirilgan yoki ajratilgan qandaydir g'alati shisha buyumlardan yasalgan. Kengbar chorsi xonaning qoq o'rtasida antiqa shakldagi uzun patli ulkan oq gilam to'shalgan. Gilamning o'rtasida pastak, qariyb ikki enlik qalinlikdagi oyna qoplangan kokteyl stolida ichida qirmizi ichimligi va suzib yurgan muzlari bor baqaloq, zalvorli qadahlar yaltirardi. Qadahlarning yarmigacha ichilgandi.

— Gilamga qara, — g'udrandi Berns sherigining qulog'iga. — Matrasga o'xshab, u paralonli. Shu bois, bo'talog'im, stolni olsang bo'ldi, qarshingda butun shahardagi eng katta, eng ulug'vor, eng qulay karavot muhayyo. To'rt tomonga qarab dumalayver so'ng. Xo'sh, yetib borgandir?

Palmer atrofiga alangladi, salomlashdi. Ha, bu odamlar unga tanish edi. To'rdagi burchakda, zanglamaydigan po'latdan yasalgan kamin oldida Katta Vik Kalxeyn o'tirardi. Pastak keng o'rindiqa, qariyb cho'kib ketganiga qaramay, uning barvasta zilday gavdasi o'zining chorpahilligi bilan unga ko'zi tushgan har qanday odamni shoshirib qo'yardi. Oldinga cho'zib olgan baquvvat oyoqlari ham keng daryo ustidan qurilgan ko'prikdiray mustahkam ko'rinardi. Uning qoyaday ko'ksi va yelkasi yana ham haybatli edi, chunki pidjagi oxirigacha qappayib turardi. O'rta dengiz odami bo'lgan Kalxeynning nisbatan uncha katta bo'lmagan, to'g'ri shakldagi boshi va qoracha yuzi, bejirimgina irlandcha burnini yana uning siyosiy faoliyatining yana bir unsuri — ikkinchi jahon urushidan buyon saqlab kelgan soldatcha kalta qilib olingan soqoli to'ldirib turardi. Shularni kuzatar ekan, Palmer bu odamning jismoniy qudratiga boz mahliyo bo'lib qoldi, hatto dam olish daqiqalarida ham tog'day barvastaligi va mustahkamligi bilan aqlni lol qoldirardi. Uning yashiltob moviy ko'zlari uzun kipriklari orasidan Palmerga yalt etib qaradi. Kalxeyn unga salom bergandek tantanavor ko'z qisib qo'ydi, keyin esa ko'zining qiri bilan u bilan yonma-yon o'tirgan Ougi Prinsga qarab qo'ydi.

Garchi Prins u qadar ushoq gavdali odam bo'lmasa-da, Kalxeynning yonida u liliputga o'xshab ketardi. Odatdagidek, u did bilan kiyingan edi: ixcham tikilgan shim, so'nggi modadagi a'lo pidjak, och jigarrang tusli ko'ylak, unga bilinar-bilinmas gul tikilgan, bir-biriga zid ranglardan ola-bula galstuk. Prinsga qaysi tomondan turib qarama, uning tanasi tig'day ensiz ko'rinardi, lekin, — dilidan o'tkazdi Palmer — bu ensizlik nafislik yoki xushqomatlik kabi sifatlar bilan hech qanday umumiylikka ega emasdi.

Prins xiyol oldinga egilib, oyoqlarini bir-biriga mindirib o'tirar va Kalxeynga aftidan ikkovi ham tish qayrab turgan radio sharhlovchisi haqidagi voqeani gapirib bermoqda edi. Prinsning o'zi siyosiy reporter bo'lib, har doim goh Olbaniga, goh Vashingtonga ish safari bilan borib turardi.

Prinsning ortida Berns birmuncha so'nggi, eng urf bo'lgan kitoblar terib qo'yilgan javoniga suyanib El Konn tik turardi. Bir qarashda u Palmerning taxminlari ichida eng o'rtamiyona va ko'rimsizdek taassurot tug'dirardi: burni o'rtacha, sochi xira qo'ng'ir-kulrang tusli, agar ikkala ko'zini aytmasa, yuzida hech bir diqqatni tortadigan alomat ko'rinmasdi. Ammo ana shu ko'zlar uning kimligini yaqqol aytib turardi.

Palmer ularni kuzatib turgan vaqtda Konning irg'ib chiqqan, salqi qovoqlari ostidagi bu g'ayrioddiy ko'zlari u qo'lida ushlab turgan kitob sahifalari bo'ylab tez-tez yugurar edi. Palmer Konning qalqonsimon bez kasalligi bilan og'risa kerak va shu bois busiz ham katta-katta, xiyol bo'rtiq ko'zlari ana-mana kosasidan irg'ib chiqib ketadigandek tuyulsa kerak, degan to'xtamga keldi. Bu ko'zlarda hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan ochlik bor edi. Ular yo'lida uchragan hamma narsani yeb-yutadi. Undan tashqari Konn, odatda go'yo ko'zlaridagi ochko'zlik chet nigohlardan yashirinmoqchi bo'lgandek, keng gardishli katta ko'zoynak taqardi. Biroq do'stlari orasida u aksar hollarda ko'zoynaksiz bemalol o'tiraverardi. Ha, fikr yuritardi Palmer, Konning do'stlari ko'p. Tag'in turli sohalarda.

Konn qurilish firmasining boshlig'i sifatida keng tarqalgan, qurilish bo'yicha pudratda yaxshi ishlab topadigan kompaniyalardan birining aktsiyalari egasi. U yana ko'chmas mulk oldi-sotdisi bilan shug'ullanadigan bir qancha kompaniyalarda ham ishtirok etardi, buning ustiga, xususiy avtobus kompaniyalari va taksi parklarining sheriklikdagi egalaridan biri, metall konstruksiyalar ishlab chiqarish bo'yicha kontsern direktori, shaharlararo avtoullov bilan bog'liq bir qancha firmalar va sug'urta kompaniyalar direktorlaridan biri edi. Ayni vaqtda, hech ham tasodif emas, Konn demokratik partiya mahalliy qo'mitasi uchun mablag'larni eng jadal yig'uvchilardan biri sifatida tanilgan. Saylov kompaniyalari vaqtida uning bir o'zi qolgan barcha to'plovchilarni birgalikda olinganidan ham ko'proq pul to'plagandi. Uning behisob do'stlari u bilan suhbatda do'stona betakalluflik bilan uni El deb atar edilar, ko'zlari uchun esa goho "chiydan tashqari mer" yoki "Konn janobi oliylari" deb chaqirishardi.

— ... O'tgan hafta radiostudiyada mana bunday ish bo'ldi, — hikoya qilardi Ougi Prins. — Biz bu radiog'iybatchini bir umr esdan chiqmaydigan qilib tuzlashga qaror qildik. Xo'pmi? Yarim tunda qizaloqni studiyaga olib keldik, xuddi o'sha... — Palmer Konnga imo qildi va Bernsni xona burchagidagi barga olib o'tishga loqaydlik bilan izn berdi, u yerda qo'lini keng yoyib, eng qimmatbaho vinolardan butun bir dunyosini ko'rsatdi.

— Nima ichasan, Vudi?

Palmer yo'q deganday boshini chayqadi:

— Do'stlar mening stolimda rosa kuchanishdi. Endi men — taslim.

— Bir qultumgina o'tar tomog'ingdan? Balki sodalisi ketar?

— Yaxshisi, zanjabilli pivo bera qol.

— ... shu desangiz biz so'nggi axborotning o'n daqiqalik eshittirishi vaqti kelishi uchun kutib turgan edik. Xo'pmi? — davom etdi Prins. — U yangiliklar ma'lumotini o'qiyotganida, uni, albatta, bo'lib bo'lmaydi. Shu desangiz, biz paytdan foydalanib qoldik: u mikrofonni ulab, eshittirishni boshlashi hamon biz uning jemperi yoqasining yarmigacha cho'zib tortdik-da, stulga mahkam bog'lab qo'ydik. U esa bu vaqt davomida mikrofoniga gapiraverdi va eshittirish efirga ketaverdi. Bidingiz? Keyin biz uning shimini yechib oldik va bilasizmi — shimsiz o'tiribdi-da, so'nggi voqealar haqidagi nimalarnidir aljirayapti. Ovozi esa haligidaqa — ana-mana uv tortib yuboradigan. Zap bo'ldi-da! Shu joyda biz haligi qizaloqni studiyaga sudrab keldik. U ishga tushib ketdi. Yigitchaga esa eshittirish oxirigacha yana sakkiz daqiqacha qolgan...

Konn Ougi Prins tomon xiyol o'girildi. Uning yeb qo'ygudek qaraydigan ko'zlari u varaqlab turgan kitob sahifalarini bir daqiqacha o'z holiga qo'ydi va latifani yeb yutish uchun Prins tomon qadaldi. Bu ochko'z nigohning og'irligini o'zida his qilgan Kalxeyn o'girildi-da, Konnga ko'z qisib qo'ydi.

Berns Palmerning qo'liga zalvorli qadahni zo'r berib ushlatmoqchi bo'lardi:

— Menga qara, men hali ichishdan bosh tortadigan bankirni ko'rmaganman.

— Ehtimol, — ma'qulladi Palmer.

— ... va ko'radiganini ko'rdi qizgina, — davom etdi Ougi Prins. — Hammasi miridan-sirigacha hisob-kitob qilib qo'yilgandi. O'qishga unga 40 soniya vaqt qolgandi, shunda... Uh! Byulletenning so'nggi satrlarini u qanday o'qiganini bir eshitganingda bormi. To'g'ridan-to'g'ri efirga! Azbaroyi kishnaganimizdan eshittirish tugaganini bilmay qolayozibmiz. Shunda biz qizaloqni olib oldik-da, keyingi reportaj boshlanishidan oldin ko'z ochib-yumguncha studiyadan chiqib ketdik... Kulaverib ichagimiz uzildi! — Kulgidan Kalxeynning o'pkasi uning bosqonday ko'ksini badtar shishirib yubordi. Biroq arslon o'kirigi o'rniga Palmer, vo ajabo, nima desa bo'ladi, mushukning miyovlashiga o'xshagan ingichka ovozni eshitdi, xolos.

— Menga qara, Ougi, — dedi Kalxeyn, — balki banket vaqtida notiqlarning birontasi bilan shunaqa bir tomosha ko'rsatsam bo'lar?

Prinsning quloqtashar qag'illashi Palmerning eshitishiga yo'l qo'ymadi.

— Bilasanmi, men bunga tavakkal qilolmasdim, Vik, — javob berdi u, yelpinib. — Yigitcha men bilan shunaqangi o'chakishib qolganki, bir haftadan beri undan qochib yuribman.

— Nima, u sening ta'ziringni berib qo'ymoqchimi?

— He-yo'q, u haligi qizning ismini bilmoqchi, xolos, — dedi Prins, — men esa unga aytmayman.

Palmer devorlarni zirillatib yuborgan qah-qah kulgi ovozidan yuzini burishtirdi. Uning yonida turgan Berns zavqlanganidan nuqul "qoyil-qoyil" derdi. Konning keskin va chiyilloq kulgilari mittigina, ammo gajir laychanning akillashini eslatardi va Prinsning hayajonli chiyillashini panalab turardi. Kalxeynning ko's nog'ora gumburini eslatuvchi bir maromdagi qahqahasi ushbu ilhombaxsh ansambl uchun tagzamin bo'lib xizmat qilardi.

— Ougi, — deb gap boshladi El Konn, — agar sen faqat...

— He-yo'q, sen ham, do'stim, uning nomini bilmaysan! — asta qichqirdi Prins.

Palmer yangi qahqahalarning bir daqiqalik to'lqinidan foydalanib, xonani kesib o'tdi va to'g'ri Kalxeynning ro'parasidagi o'rindiqqa borib cho'kdi. Xonaga bamisoli voiz yoki bo'lmasa shu yerda hozir bo'lganlardan birontasining xotini kirib kelganday bo'ldi. Oraga chuqur sukunat cho'kdi va birdan Palmerning miyasiga senga uncha tanish bo'lmagan tor davraga tushib qolganingda ma'lum qulaylikka ega bo'lasan va qarshi ovoz berishga o'xshagan huquqni qo'lga kiritasan degan gap kelib qoldi.

To'rttalari xavotir bilan Palmerni tikilib qolishdi. Ularning durustgina tajribasiga qaramay, yuzaga kelgan keskinlikni qanday yumshatish yo'lini darrov topa olishadi. Nihoyat Konn yana kulib yubordi, faqat bu gal boshqacha, go'yo zavqli, ammo Palmerning jirkanch voqeaga hech qanday aloqasi bo'lmagan voqeani eslagandek kuldi.

— Bilasizmi, nima demoqchiman, — nasihatimiz gapirdi u, — modomiki biz hali kuchli qobiliyatimizdan mahrum bo'lmagan ekanmiz, bu yorug' dunyoda yashasa bo'larkan! Endi uyning egasi sifatida Berns tomoshaning birdan keskin rivojlanishiga rahbarlik qilish tashabbusini o'z qo'liga oldi va bu spektaklning ikkinchi ko'rinishiga o'tdi.

— Shunday qilib, sho'x bolalar, — dedi u, — shuni sizlarga eslatib qo'yayki, Olbanida qonun chiqaruvchi yig'ilishning navbatdagi sessiyasi ochilishigacha rosa bir yarim oy qoldi.

— Voy-voy, o'ldik! — oh tortdi Kalxeyn, kulgili tarzdagi nochorlik bilan o'zining shotiday qo'llarini osmonga ko'tarib.

— Mak haq, — teran ma'noli qilib dedi Konn. — Olishuv bo'lishi muqarrar, bir balo qilib bu tugunni yechmasa bo'lmaydi: yo ostidan, yo ustidan!

Palmer ko'zlari ochko'z bu odamga qiziqish bilan qarab qo'ydi. Bir jumlada bir emas, bir necha ma'no anglatadigan tashbeh ishlatish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

— Menga ma'lum bo'lishicha, — gap boshladi Palmer, — birinchidan...

— Ougi, azizim, — uning soʻzini boʻldi Berns, Prins tomonga burilib, — nazarimda, sen qayoqqadir shoshib turuvding-ku, shundaymi?

Prins dik etib oʻrnidan turdi. Uning bu harakati Palmerning taxminini tasdiqladi: reportyor shu ishorani kutib turgan edi, xolos.

— Ha, ha, bugun payshanba-ku, Makki, — shoshib dedi Prins, eshik tomon yoʻnalarkan, — ishim esa boshimdan oshib yotibdi u yoqda, men ketdim.

— Boʻpti, — Berns reportyorni tirsagidan tutdi va ikkalasi vestibulga chiqib ketdi. Koʻp oʻtmay Palmer ularning ancha baland ovozda gaplashishayotganini eshitdi, ular janjallashib qolishmagandi-ku, biroq aftidan, bir nimada kelisholmayotishgandi. Palmer, turdi-da, bar oldiga bordi, qadahlarga yana muzdan solmoqchidek qilib koʻrsatdi oʻzini. Bu yerdan qoʻllarini tez-tez siltab gapirayotgan Berns aniq koʻrinib turardi; uning qoʻlida katta qora hamyon bor edi. Oxiri Berns yelka qisdi, assignatsiyani sugʻurdi va uni Prinsga berdi, Prins pulni darhol xuddi Bernsnikiga oʻxshagan hamyoniga solib qoʻydi. Palmer qadahiga yana bir chaqmoq muz tashladi-da, joyiga qaytdi.

— Mening oʻylashimcha, — yana gap boshladi u, — biz qiladigan birinchi ish...

Kalxeyn asta boshini chayqadi, Palmerga jilmaydi va baroq qoshlarini bir necha marta koʻtarib-tushirdi.

Dahliz eshigi yopildi va Berns hamyonini ichki choʻntagiga yashirib, mehmonxona boʻlmasiga qaytib keldi.

— Hammasi bir goʻr, — gʻudrandi u Palmerning yoniga kelib oʻtirarkan. — Ularga ishonib boʻlmaydi.

— Ular sizning qaramogʻingizda boʻlishsa hammi? — soʻradi undan Palmer.

Sukunatni Konning akillashga oʻxshagan kulgisi buzdi.

— Sendan javob kutayapmiz, Mekkijon, — dedi u.

Berns yasama soddadillik va oʻshanday yasama achinish bilan miyigʻida kulib qoʻydi. Uning ensiz burun kataklari kerildi.

— Men uchun, — choʻzib gapirdi u, — gazetachi kasbidan iflos kasb dunyoda yoʻq. Ular orasida, balki uch-toʻrtta halol odam topilib qolar. Ammo bilinglarki, qaroqlarim, sizlar siyosatchilar, politsiyachilar yoki biznesmenlar haqida ikki ogʻiz gap aytishga ulgurmayoq gazetachilar allaqachon butun bir kitobni tayyor qilib qoʻyishadi.

— Reklama va matbuot bilan shugʻullanadigan odamdan bu gapni eshitish gʻalati boʻlarkan, — dedi Palmer. — Siz ularning koʻpchiligi sotqin boʻladi demoqchimisiz? Yoki siz oʻzingiz ularning koʻpchiligini sotib olganmisiz?

— Bu yogʻi endi kasb siri, — javob berdi Berns.

— Men bankir sifatida bunga qiziqayotibman, — eʼtiroz bildirdi Palmer. — Sizga qancha toʻlashlarini men bilaman va bunday hisobga yetib boʻlmaydigan xarajatlarda hech qanaqa pul bakor kelmaydi deb qoʻrqaman.

— Bernsdan tashvish qilmang, — nido soldi Konn, — bu yigit mushukning oʻzi: yiqilsa ham toʻrttala oyogʻi bilan tushadi.

— Toʻqqiz umr haqida ham unutmang, — maʼyus qoʻshib qoʻydi Kalxeyn.

— Baribir men uchun bir narsa qiziq tuyuladi, — oʻzini bir enlik ham yuqori olmay, doʻstona tarzda gapirishga harakat qilib, uqirdi Palmer. — Matbuotga nega yoppasiga tashlanib qoldingiz? Nahotki, ularning bari pulga sotiladigan odamlar boʻlsa? Agar shunday boʻlsa, buni izohlab bera olasizmi?

Berns avval boshini gʻamgin chayqab qoʻydi, shundan keyin gapira boshladi:

— Ehtimol, siz ular orasida hech narsa bilan sotib boʻlmaydiganlarni uchratarsiz. Ammo undaylar barmoq bilan sanarli. Nima uchun? — U oʻrnidan turdi va xona boʻylab salmoq bilan u yoqdan-bu yoqqa odimlay boshladi. — Bu yigitlar haftasiga qanchadan olishlarini bilasizlarmi? Hatto shartnoma bilan-a?

— Maoshi kichik odamlar juda koʻp, — eʼtiroz bildirdi Palmer, — lekin bu ularning har birini sotib olish mumkin degan gap emas-ku.

— Bu to'g'ri, lekin ularning barchasi ham gazetachilarday katta imkoniyatga ega emas-da — mana shu narsa buzadi, ha, shu narsa, — tushuntirdi Berns. — Pulga muhtojlikning emas, balki uning o'rnini bosadigan biron narsaga imkon tug'dirish ham. Politsiyachilar ham ma'lum hokimiyatga egalari. Ammo politsiyachilar — ular asosan o'rtadan yuqori bo'lmagan ma'lumotga ega yigitlar. Bizning zamonda gazetalarda kollejni bitirgan odamlarni tez-tez ko'rasan, ayrimlarida esa hatto ikkitadan ilmiy darajasi bor. Politsiyachi arzimagan poraga ko'nib qo'ya qoladi va o'g'riday shu bilan gumdon bo'ladi, gazetadagi yigitlar-chi — dimog'lariga xoda yetmaydi. Unga biron tozarog'ini topib berishim kerak. Uni faqat pulga har doim ham sotib olib bo'lmaydi. Uning joniga kushanda bo'ladigan uchta vasvasa bor: pul, hokimiyat va kibr. Shulardan uning boshiga tezroq yetadigani — kibr. Agar bundoq do'ppini yerga qo'yib o'ylab ko'rganda, gazetachi o'zi nima? U haddan tashqari ko'p filmlarni ko'rgan, haddan tashqari ko'p voqealar haqidagi kitoblarni o'qigan va dunyodagi eng jirkanch bir kasbga ishqiy tushib qolgan. Toki u shu kasbni jonidan ortiq sevarkan, u hech qachon yuqoriga tirmashib chiqa olmaydi. U boshqa yigitlarni, hokimiyat, shon-shuhrat, boylikka erishgan o'z tengqurlarini ko'rdi. U bo'lsa haftasiga arzimagan bir necha dollar beradigan ishga mixlanib qolgan. Bu qanaqa ish o'zi? U birovlarning iflos ichki kiyimlarini titkilashiga, birovlarning tupugidan reportajlar pishirishiga to'g'ri keladi. Unga arzimaydigan material kelib tushganda esa — u buni boplab chiqarolmaydi. Buni u o'zi biladi ham. Uning ustida turganlar, agar u bu materialni e'lon qilgudek bo'lsa, o'zini quritib yuboradilar. Xullas, uning qiyofasi shu: achib-bijigan yoshlikdagi orzular, boy berilgan umidlar, uni hasad yeb bitiradi, jamiyatda o'z o'rnini topish uchun tinmay kurash olib borish uning o'ziga ziyon keltiradi — agar u pulga sotiladigan gazetachiga aylanadigan bo'lsa, buning nimasiga ajablanish mumkin?

Jimlik cho'kdi. Kalxeyn eshitar-eshitilmas kulib qo'ydi.

— Qayoqdagi gaplarni gapirasana-da, Mak, — dedi u, — sen aytgan narsani yer yuzidagi har qanday odam haqida aytsa bo'ladi.

Yigirma ikkinchi bob

Ko'p o'tmay yarim tundan keyin Konn bunday ko'ngilxushliklar uchun keksalik qilishini bahona qilib u yerdan ketdi, holbuki sheriklarining har biridan u unchalik katta emasdi.

— Buning ustiga, — dedi u o'zining och ko'zlari bilan hammaga bir-bir qarab, — men qancha kam narsa bilsam, keyinchalik o'zimni shuncha oz anglashimga to'g'ri keladi.

U ketgandan keyin taxminan soat bir yarimgacha Berns bilan Kalxeyn ichishda davom etishdi. Nihoyat Palmer ham yana shotland viskisiga ruju qo'ydi, chunki u o'zini yolg'iz his qila boshlagandi — bu davrada nisbatan hushyor uning o'zi qolgandi. Suhbat Olbanidagi turli qo'mitalar va odamlar haqida bordi, suhbat shunaqangi chalkash tus oldiki, bu yerda gap nima haqida ketayotganini faqat qilni qirq yorgan odamgina anglay olardi. Oxirida tili zo'rg'a aylanayotgan Kalxeynning og'zidan, Palmerning fikricha, ularning bahslariga yakun yasovchi g'oyatda jo'yali bir gap otilib chiqdi:

— Bu ishni bank doirasidan chiqarib olamiz-da, ringga haydab kiramiz, Berns bilan Jim u yerda bir-birini bo'rsiqning bolasiday do'pposlasin. Bu orada qari taka ularning qonun loyihasini ishtonining ichiga yashirib olsin.

— Faqat Xem esining borida etagini yopsa yaxshi bo'lardi, — dedi Berns.

Tungi soat ikkida boshqa muammolarni unutishdi, ularni anglash Palmerga uncha qiyin bo'lmadi.

— Eshitishimcha, — dedi Berns so'zlarni yamlab-yamlab, — "Merrey Xill" Garrining uyi va yana uning ikkita fermasiga bay pulini ushlab turganmish. — U asta Palmerga burildi. — To'g'rimi gapim?

— Agar gap men nazarda tutgan Garri haqida ketayotgan bo'lsa, — dudmalroq qilib javob berdi Palmer, — bu haqda hech qanday tasavvurga ega emasman. Bilganim shuki, unga tumandagi yirik tijorat banki huquq maslahatchisi sifatida uning xizmatlaridan foydalanadi.

— Unda, sizningcha, buni ohanrabodday tortayotgan narsa nima? — o'smoqchiladi Kalxeyn. — Uy va fermalarmi yo advokatning issiqqina o'rnimi?

Berns yelka qisdi:

— "Merrey Xill" uning uy va fermalarini musodara qilolmaydi. Garrining bo'ynida hech qanday qarz, hech qanday majburiyat yo'q. — Berns yana Palmerga mo'ltayib qaradi: — To'g'ri aytayapsanmi?

— Bundan xabarim yo'q. U haqida kredit boshqarmasida u-bu narsani bilib olsa bo'ladi.

— Garri haqida u yerda ko'p narsa bilolmaysan, — dedi Kalxeyn. — U to'lovlarni to'lashga qodir.

— Buyuk ish — joriy hisob, — xayol surib dedi Berns, — agar kimdadir bor bo'lsa, bu shubhasiz Garri bo'ladi. To'g'ri aytyapmanmi, Vudi?

— Nimani nazarda tutayapsiz, o'zi? — so'radi Palmer.

— Men nazarda tutmayapman, — tushuntirib dedi Berns, — ya'ni shuni nazarda tutamanki, Garri na faqat xo'jako'rsinga (chunki viskiga ham, taksiga ham u to'laydi), balki chinakamiga to'lovlarni to'lashga qodir, to'g'rimi?

— Joriy hisoblar turlicha bo'ladi, — og'zidan eshilib chiqayotgan so'zlarga erinibgina quloq solib g'udrandi Palmer, — ba'zilar viski qultumidek o'zlari oqib keladi, ba'zilar esa...

Kalxeyn hamdardlik bilan bosh irg'adi.

— Siz anavindan juda oshirib yuboribsiz, — xabar qildi u Palmerga.

— Yo'g'-e? — suyunib hayron bo'ldi Palmer.

Berns nimanidir miyasida pishitardi.

— Xo'sh, hammasini gaplashib oldilaringmi? Yo gaplashmagan biron narsa qoldimi?

— Yo'q, — ishontirdi uni Kalxeyn.

— Unda, demak, qizlarni chaqiramizmi? — taklif qildi Berns.

— Menga kerak emas, — dedi Kalxeyn. — Aytdim-ku, ruhoniy bo'lishga tayyorgarlik ko'ryapman deb. Ikkita narsaga ont ichganman — bokiralikka va hirsni o'ldirishga.

— Qasamlaringga sodiqsan, — ming'irladi Berns. — Xushaxloq bolakay. — U yana Palmerga burilib qaradi. — Xo'sh, qizlarga qalaysan, Vudi?

— Unga ham hech kim kerak emas, — e'lon qildi Kalxeyn.

— Ikkita ont ichganman, — tushuntirdi Palmer, o'ng qo'lini ko'tarib, — haqiqatni gapirishga tantanavor ont ichganman.

— Konstitutsiyaga kiritilgan Beshinchi tuzatishdan foydalanib qoling, — maslahat berdi unga Kalxeyn.

— Aldamayman, — davom etdi Palmer. — Sadoqatga sodiqman, besoqolbozlik kabi narsalarga qarshiman...

Berns oq telefonni o'zi tomon surdi-da, raqam terdi.

— Shaftolimisan? — so'radi u. — Bu Mak. Seni uyg'otib yubordimmi?

— Shaftolini olmang, — ogohlantirdi Kalxeyn Palmerni, san'atkorona shivirlab. — U haddan tashqari besaranjom.

— ... Biz ixchamgina ulfatbozlik qilgan edik, — derdi Berns go'shakka, — ikki-uchta yigitchadan iborat.

— Sizga uning tanlaganlari yoqmaydi, — dedi Kalxeyn, — ular orasida bitta ham jajji qizaloq yo'q. Hammasi allaqayoqdagi ro'dapolar. Umuman, arzimaydigan ish.

— ... O'zing bilan biron ta portlovchi xotinni olvol, Shaftoli, — dedi Berns.

— Unga aynan shunaqalar yoqadi, — davom etdi Kalxeyn, — meni ham shundaylar bilan ta'minlashga o'rgangan, chunki mening gavdamga ular mos keladi-da. Uning o'zi esa Gollivuddalik vaqtidayoq shunaqalarga mazaxo'rak bo'lib qolgan, uni kelbatlari tortadi. Qaerlardan qidirib toparkin-a ularni? Qidirsang, kunduz chiroq yoqib topolmaysan. Birontasi G'arbiy sohildan shaharga tushib qolgudek bo'lsa, darhol bunga qo'ng'iroq qiladi. — Kalxeyn kuchanib o'rnidan turdi, Bernsning oldiga bordi va undan go'shakni yulqib oldi.

— Shaftoli, — bo'kirdi u go'shakka, — agar bunaqa kech yotadigan bo'lsang, sening hayratomuz taraqqiyotida tanazzul boshlanadi. Xayrli tun, do'ndiqcha! — U go'shakni osdi.

— Seni qara-yu, Vik, — dedi norozi ohangda cho'zib Berns, — men uni endi chog'lab bo'luvdim-a...

— Ertaga bizda katta ishlar bor, — gumburlab dedi Kalxeyn, salobati bilan ularni bosib. — Men, og'ayni, ketmasam bo'lmaydi. Tushlik nima bo'ladi?

Berns bu devqomat nusxa oldida oz bo'lsa ham savlatli ko'rinishga behuda harakat qilib gavdasini cho'zdi.

— Bo'пти, bor, xotiningning peshonasidan o'pib qo'y.

U Kalxeynning kutilmagan chaqqonlik bilan eshik tomon yo'nalganini kuzatib turardi.

— Tushlikda ko'rishguncha! — uning izidan qichqirdi Berns.

— Bo'пти.

Kalxeyn Palmerga o'girildi:

— Siz ham ketsangiz bo'lardi, Vudi. Uning o'n tonnalik tansiq taomlaridan tatib ko'rishni ko'nglingiz tusamay qo'ya qolsin. Sog' bo'ling. — Eshik shovqinsiz yopildi.

Berns ikki-o'n birni terdi.

— Dispetcherni chaqiring, iltimos. — U kutib turdi, so'ng dispetcherga qandaydir raqamni aytdi va tirnoqlariga diqqat bilan razm solganча yana kutib turdi: — Tommimisan? U tushyapti, mashinani o't oldir. Xayrli tun.

— Kalxeynning haydovchisimi? — so'radi Palmer.

Berns bosh irg'adi.

— Semiz xonimchalar didingga yoqadimi? — so'radi u. — Yoki sinab ko'rmaganmisan?

— Anchadan beri ular bilan ishim yo'q, — javob berdi Palmer.

— Rosa maza qilasan, og'ayni. Bilasanmi, silasang qo'ling to'ladi.

— Ehtimol, — dedi Palmer. Tizzalarida sanchiqli og'riqdan yuzi burishib, u sekin o'rnidan turdi. —

Hozir taksi tutib bo'lmasa kerakdir?

— Qanaqa taksi yana? — hayron bo'ldi Berns. — Mening haydovchim olib borib qo'yadi seni.

Palmer soatiga qaradi:

— Uni shunday bemahalda bezovta qilishning hojati yo'q, u allaqachon uxlab qolgan.

— Mening haydovchim men bilan bir vaqtda yotib uxlaydi, — dedi Berns va yarmi ichilgan qadahlarga qarab ma'nosiz hiringladi. U gurs etib o'zini o'rindiqqa tashlarkan, "hih" deb qo'ydi va Palmerning galstugiga tikilganicha birmuncha muddat o'tirib qoldi. So'ng nigohini uning yuziga oldi.

— Hoy og'ayni! — dedi u nihoyat.

— Siz ham, haydovchingiz ham endi yotib uxlanglar, — dedi Palmer. Berns asta boshini chayqadi.

— Ayt-chi, pandavaqi, tongotarda uyga qaytib borsang, xotining nima deb o'ylaydi?

Savolga javob beraymikan yo yaxshisi, uyga jo'navoraymikan deb Palmer nima qilishini bilmay birmuncha muddat turib qoldi. O'zi ham kutmagan holda o'z javobini eshitdi:

— Bilmay qoldim. Men kelganimda u uxlab yotgan bo'ladi.

— Seni hech qachon kutmaydimi?

— Yo'q. Agar ertaroq qaytaman deb xabar qilsam boshqa gap.

Berns kinoyali jilmaydi.

— Ertalab tergayverib joningni egovlamaydimi?

— Yo'q.

— Nahotki biron marta qaerda yuribsan tong otguncha, deb so'ramagan bo'lsa?

— Yo'q, bunaqa bo'lganini hech eslolmayman.

Berns xo'rsindi.

— Oh, gavharim, — so'zlarni dimog'idan chiqarib, xirgoyi qilib dedi u. — Shunday oson va qulay o'rnashib olgansan.

— O'rnashib olgansan deganing nimasi? — Palmer o'zini yana o'rindiqda o'tirganini ko'rib hayron bo'ldi.

— Xotining hech nimadan shubhalanmas ekan-da, tag'in yaxshi o'rnashibsan deganing nimasi deb so'raganingga o'laymi?

— U mening ishimdagi alohida sharoitlarga ko'nikkan, shu xolos, — tushuntirdi Palmer. — Menda ish yuzasidan ko'plab uchrashuvlar bo'lib turadi.

— Vudi Palmer kichik, — xirgoyi qilib dedi Berns. — Nahotki, siz rostdan ham hozir ataylab qilayotganingizdek sodda-bayov bo'lsangiz?

Palmer birmuncha muddat jim o'tirib qoldi.

— Agar men sizni to'g'ri tushungan bo'lsam, — asta gapirdi u, — ammo siz juda aniq qilib aytdingiz, siz meni mana shunday qulay sharoitlardan foydalanib qolishim kerak deb hisoblaysiz.

— Aynan shunday, — tasdiqladi Berns. — Keyin yopig'liq qozon yopig'liq qolaveradi. Shahrimizda bironta ham shunday uylangan odam topilmaydiki, u mana shunday boqibeg'am xotinni orzu qilmagan bo'lsin. Ayt-chi, qarog'im, bunday imkoniyatdan foydalanmay qolganing qanday yuz berdi? Biron marta ham zino qilmaganmisan?

O'zini o'rindi q suyanchig'iga tashlab, Palmer xiyol kulib qo'ydi. "Xayrli tun" deb juftakni rostlash uchun qulay payt. Ayniqsa, hozir.

— Aytishim mumkin, — u o'zining ovozini eshitdi, — bunaqa fikr miyamga kelmagan ham.

— O'lsam ham ishonmayman.

— Nimadan boshlashni ham bilmasdim.

— Boshimni qotirma ko'p.

— Bo'pti, bas qilaylik, — dedi Palmer o'rnidan turarkan.

— Menga qara, bu barcha mayda gaplar kambag'allarning foydasiga, — dedi Berns. — Vudi, qarshingda amakijoning Mak turibdi, uning bilmagan balosi yo'q. Ko'zlaringdan hamma narsani ko'rib turibman, meni aldayolmaysan. Qizlarning boshidan-oyog'igacha qanday suqlanib boqishingni ko'rganman. Bilmayman, nega bo'yingga olmaysan, garov o'ynayman, nimadan boshlashni a'lo darajada bilasan.

Palmer yana o'tirdi, duch kelgan, yarmi ichilgan qadahni oldi va shoshmay ho'play boshladi. U o'ziga tasalli berardi: birinchidan, Bernsning shamasi tavakkal qilib otilgan va nishonga tasodifan kelib tekkan o'q. Bernsda bunday merganlikdan aslida nom-nishon yo'q. Merganlikning unga keragi ham yo'q. Biroq shu topda u o'zida yashiradigan narsaning o'zi mavjud emasligini anglab qoldi. Sukut — mana uning yagona quroli. To'g'ri, u har doim ham o'qdan foydalana bilmasdi. Sukut qurollarning xo'rozi edi.

— Tag'in nima dey? — biroz tahammuldan so'ng so'radi Berns. — Boshqa gapga hojat ham yo'q. — U xo'rsindi, so'ng tomoq qirib, Palmerga cho'zildi-da, uning tizzasidan shapatilab qo'ydi. — Men bilaman, Vudi, hammasini bilaman, — dedi u. — Ammo, bo'talog'im, bular seni mutlaqo xafa qilmasligi kerak. Bunda yomon narsaning o'zi yo'q. Bu sizning tirik odam ekaningiz alomati, xolos, tamom-vassalom. Eng yaxshi alomat.

Palmer xiyol junjikdi. U lablarining unsiz qimirlayotganini his etdi. Og'zini bir qultum viski bilan ho'lladi.

— Ishlarim joyida, — dedi sekin va juda past ovozda. — Shundan o'zimni qo'lga olganman. — Bu so'zlar uning boshida yana uzoq, u jim bo'lib qolgandan keyin jaranglab turdi. U hushi yarimlashib qola boshlaganini angladi — bo'kib ichganlikning odatdagi oqibati. U o'zini yana tashqaridan o'rindi qda o'tirganini ko'ra olayapti, o'zining gapini o'zi eshita olayapti — xuddi shunga iqror bo'lganidan o'zi noqulay ahvolga tushib qoldi. Biroq ayni vaqtda hammasiga baravar "tuf" deb voz kechib qo'ya qolishi kerak edi.

— Juda qiziq, — g'udrandi u.

— Bilasanmi, saqllovchi klapanni yopganda nima bo'ladi? Qozon portlaydi, mana, nima bo'ladi. Men, albatta, tan beramanki, o'zini qo'lga olish buyuk narsa, biroq haddan tashqari ko'pi ham zararli. Xo'sh? — dedi Berns.

— Menga hech narsa qilgani yo`q, — qulog`iga chalindi Palmerning — u yana avvalgi so`zlarini takrorlagandi. — O`zimni nazorat qilib turgunimga qadar hammasi joyida bo`ladi. Tamom!

Berns boshini qattiq-qattiq chayqadi:

— Siz, bankirlar, sizlar O`rta G`arbnning aholisisizlar. Sababi nimadaligini bilmadim-u, ammo sizlarning barchangizda seks masalasi chatoq. Uni sizlar ishlashga majbur qilish o`rniga u sizlarni istagan maqomiga solib o`ynatadi.

Palmer qo`lini ko`tarishga harakat qildi, biroq buning uddasidan chiqolmasligini sezdi. Ayni vaqtda allaqaysi uzoq burchakdan turib o`zini kuzatar ekan, u bu harakatning barcha nochorligini ko`rdi va to`satdan o`zi tasavvur qilganidan kuchliroq mast bo`lib qolganini angladi.

— Nazorat, — dedi u, — hamma balo mana shunda.

— Harakatlar erkinligi, — mana hamma balo nimada, — e`tiroz bildirdi Berns. — Odamzod o`zini biron-bir nazorat ostida tutib turish uchun yaratilmagan, — qo`shib qo`ydi u va o`rindiqla asabiy chig`andi. — Sening er-xotinlik hayoting — sening shaxsiy ishing, Vudi. Edis — ketvorgan ayol. Men aytgan gaplar esa bevosita senga yoki unga daxl qilmaydi. Gap bu haqda emas. Men umumiy mulohazalarimni bayon qilayapman, xolos.

Palmer yana qo`lini ko`tarishga harakat qilib ko`rdi, bu safar u yelkasini o`rindiqla suyanchig`idan uzishga muvaffaq bo`ldi.

— Yetar, — ming`irladi u.

— Aytdim-ku senga, bu shaxsan senga daxl qilmaydi deb, — ayovsiz eslatdi unga Berns. — Erkaklar ayollardan farq qiladi. Ayollarda bolalar bo`ladi va ular bolalar uchun oshyon quradilar. Ularning hammasi shunaqa. Faoliyatsizlik — mana ayollardagi alohida xususiyat nima. Men, albatta, o`zboshimcha xotinlar yoki fohishalarni nazarda tutmayapman. Odatdagi pokdoman ayollarni nazarda tutayapman. Bunday ayol seks bilan faqat bir marta ro`baro` bo`ladi, o`z uyida. Ammo erkaklar boshqacha yaratilgan. Ular bir umr sarguzasht shaydolari. Ularning tabiati o`zi shunaqa, Vudi. Bir qaragin-a, erkaklar qanday tuzilganu ayollar qanday tuzilgan, shunda senga hammasi kunday ravshan bo`ladi: ayol faolsizligicha qolaveradi, erkakka esa lallayib turmasdan harakat qilishni xudoning o`zi buyurgan. Odamlar biron-bir narsani o`zgartirishga kuchi yetmaydi. Ular shunaqa yaratilgan — mana, gap qayoqda. Bin... bin... binobarin... — Berns qoshini chimirdi va jim bo`lib qoldi. — Bin... bin... — U qo`lini qulochkashlab olib kelib, ingichka lablariga surtdi. — Binobarin, — nihoyat gapini to`g`riladi u, — hech qanaqa ahamiyat kasb etmaydi: uyda hamma narsa har qancha go`zal bo`lmasin, erkak doim bir nima qidiradi. Unda hammasi joyida bo`lmasa-chi, u unda "nima uchun?" deb so`ramaydi. U o`zi bu savolga javobni uydan tashqarida qidira boshlaydi. Ayrimlarda uyda ham hammasi yaxshi va oiladan tashqarida ham. Bunday hollarda hech kim gunohkor emas — na ular, na ularning xotinlari. Shunchaki erkaklar buni uddalay olmaydilar. Bizlarning tabiatimiz o`zi shunaqa. Bor gap shu.

Palmer ancha vaqtgacha qimir etmay o`tirdi. U o`zini erkin his etmoqda edi, Bernsning ko`z o`ngida uxlab qolishi hech gap emasdi. Ammo shu bilan bir vaqtda o`zini chetdan kuzatar ekan, vujudini mana bunday achinarli va beo`xshov bir qiyofada ko`rdi. Bor kuchini to`plab, u o`rindiqla qaddini rosladi-da, dedi:

— Hammasi bir chaqaga qimmat.

Berns qah-qah urib kulib yubordi.

— Men aytgan haqiqatni, azizim, qanchalik tez anglasang, yashash shunchalik sening o`zingga oson bo`ladi. — Shunday deb u yana telefonga cho`zildi. — Shaftoliga qo`ng`iroq qilib ko`raylik-a?

Palmer ko`zlarini yumdi.

— Hech qanaqa Shaftoli, hech qanaqa Bo`g`irsoq kerak emas. — U ko`zlarini ochdi va asta o`zini o`rindiqla siltab chiqardi, oyoqqa turganida esa mushaklari qotib qolganini sezdi.

— Nahotki buning zarari tegsa? — qistalang qilardi Berns. — Tuppa-tuzuk xonimcha, kunduzi aerodromda kassir bo`lib ishlaydi. Ixtiyori o`zida bo`lmagan ayol tuzuk ayol bo`ladi-da, yo gapim noto`g`rimi?

- Hozir bu yerda taksi tutsa bo'ladimi? — qiziqsindi Palmer eshik tomon odimlab.
- Qayoqqa shoshasan, Vudi? Odamlarga qo'shilsang-chi. Sal yozilsang-chi. Ozroq jinnilik qilsang qilibsang-da, qiziq, nimadan qo'rqasan?
- Palmer Bernsning turib, qoqila-suqila uning izidan kelayotganini eshitdi.
- ...
- Nima?
- ... , — dedi Palmer eshikni ocharkan.
- Rosa yetilibsang, Vudi, — ogohlantirdi uni Berns. — Kel, men o'zimning mashinamni chaqirtiray.
- U yo'lak bo'ylab Palmerning ortidan ergashdi.
- Bombsvil, AQSh, — dedi Palmer, barmog'i bilan chaqiruv tugmachasini ikki marta bosib, shundan keyin lift harakatga keldi.
- Ko'rib turibman, o'zingni o'zing eplayolmaysan. — Bernsning ovozi tashvishli edi va ayni vaqtda asabiylashayotgandi ham. — Sen bilan tushib, taksi tutib beraman.
- Hech qanaqa taksi kerakmas, Mak Mekki Noj¹ — javob berdi Palmer. Lift eshiklari ikki tomonga surildi.
- Sen bilan birga tushaman. — Berns Palmer bilan lift xonasiga kirdi va pastki tugmachani bosdi.
- "Mekking qo'lqopi kaprondan, — past ovozda xirgoyi qildi Palmer, — undan ham qon tezgina ketadi..."
- Menga qara, — ma'yus dedi Berns, ular tushib borisharkan, — liftdan chiqqanimizda o'zingni to'g'ri tut. Shveytsarlarga choychaqa berishdan og'rinmayman, ammo ular yer tagida ilon qimirlasa biladi.
- "Ammo Makki biladi ko'p narsalarni, — shivirladi Palmer. — Bizning bola qal'aning tagiga keldi"...
- Menikiga kelgunlaringcha qancha otgan edilaring? — so'radi Berns.
- K-ko'p, — javob berdi Palmer. — Ist nixts gut² , Mekki Noj?
- Sen shprex e bissel doytch?³ — hayron bo'ldi Berns.
- Xizmat bahonasida o'rgangan edim. — To'xtash oldidan lift xonasi qattiq tormoz berdi va Palmer chayqalib ketdi. — Men nemis raketachi olimlarni ovlaydiganlardan edim. Ana shunaqa. Bu olte Kris⁴ , tsvey⁵ jahon urushi edi. — U chuqur xo'rsindi va lift xonasidan chiqdi.
- Hammasi joyidami?
- Qo'lingni ol!
- Men senga yordam bermoqchi edim, xolos.
- Xonimchalarangiz bilan qo'shmozor bo'ling.
- O'zingni bos, o'rtoqjon, — shivirladi Berns. Uning sarg'ish ko'zlari yo'lbarsga o'xshab g'azab bilan qisildi.
- Ular katta eshik tomon yo'l olishdi. Navbatdagi shveytsar o'rnidan turdi va ehtirom bilan ta'zim qildi. Palmer qaddini rostladi, javoban sovuqqina bosh iring'ab qo'ydi va uning yonidan yurib o'tib, to'g'ri ko'chaga, tungi muzdek havoga chiqdi. Yo'lakdan biroz uzoqlashgach, u ovozini baralla qo'yib, bo'm-bo'sh ko'chaga murojaat qildi: "Ustozlar va metrdotellar hammasi sarosimaga tushib qolishdi, hamma menga xushomad qilardi va to mening ko'zim ochilmaguncha hayot zerikarli edi!"
- Bu yoqqa, — dedi Berns Satton Pley tomon ketadigan yo'lni ko'rsatib. — Ko'rayapsanmi, hov ana, "Elderado" oldidagi daraxt tagini.
- Qo'lingizni oling!
- O, qanchalik mag'urimiz-a!
- Kerak emas menga mashinangiz, — oyoq tirab oldi Palmer, — kerak emas menga ayollaringiz. Bekorga ovora bo'lasiz. Tushundingizmi?
- Ayollarni qo'yaver, ammo mashinaga yo'q demaysan.
- "... Yengil shirin hayot botqoqday meni tortib ketdi..." — Palmer qo'lini Bernsdan siltab tortib oldi va pastak uzun qora "kadillac" yonidan o'tib, ko'cha yoqalab chopib ketdi. Keyin u muyulishga

burildi-da, g'arb tomonga yo'l oldi va oxiri Birinchi avenyuga yetdi. U yerda nafasi ichiga tushib, to'xtadi, orqasi bilan g'adir-budur g'ishtin devorga yopishdi. — Bundan keyin odamga o'xshab yashay boshlayman, — bazo'r gapirdi u og'zi bilan havoni yutoqib ichiga tortarkan. U peshonasidan ter chiqqanini sezdi. Bo'shashib, ro'molchani qidirib cho'ntagini kavlaganicha pastga sirg'alib tushdi. To'satdan ayol kishining qadam tovushlari qulog'iga chalindi. Yuzini artib, muyulishda paydo bo'lgan bir ayol va bir erkakning ko'rdi. Ular Palmerning shundoq yonidan o'tib ketishdi va unga hatto qiyo boqib qo'yishmadi ham. Yana bitta sharobxo'r-da, tag'in bashang kostyum kiyib olgani-chi.

Ular qorong'ilik qo'yniga g'oyib bo'lguncha u uzoqlashib borayotgan ayol qorasi ortidan qarab qoldi. Ko'zlarini yarim yumdi, yana ochdi va Birinchi avenyudan asta o'tib ketayotgan taksini ko'rdi. Qoqilasquila u qo'lini silkib, ko'cha yoqalab taksi ortidan chopdi, shu chopganicha kuchining boricha chopib ketaverdi, ketaverdi, ketaverdi.

Yigirma uchinchi bob

Kun omadsiz boshlandi. Har doimgidek Edis bolalarni maktabga kuzatib qo'yish uchun soat oltida turdi. Palmer esa uyg'onib, qimirlashga ham ulgurmay, boshi zirqirab og'riyotganini his etdi. Og'riqdan afti burishib, u karavot yonidagi tumbochka ustida turgan soatga cho'zildi. Allaqachon sakkiz bo'libdi. Karavotda o'tirarkan, u darhol o'ziga keldi va bolalari bilan ko'risholmasligini angladi, bankka kech qoladi, hammadan ham mana bu chidab bo'lmas bosh og'rig'ini aytmaysizmi!

Nonushta ham hech qanday yengillik bermadi. Ikki dona aspirin hozircha ta'sirini bildirgani yo'q, u va Edis o'rtasida yuzaga kelgan keskin vaziyat — u buni his qilib turardi — dard ustiga chipqon edi, xolos. Harholda unga shunday ko'rindi. U ko'z tagidan xotinini kuzatar, u ham shu narsani his qilayotibdimi, yo'qmi shuni bilishga harakat qilardi, yoki uning o'z kayfiyati shunaqa keskin vaziyat yaratayotibdimi?

— "Tayms"dagi dasturxonning uncha fayzi bo'lmagan, shekilli, — dedi Edis. — Balki u yoqqa bormaganingda durust bo'larmidi?

— Birontasi ham borishga arzimaydi, — ming'irlab dedi Palmer.

— Unda nega...

— Maqsadlarim bor edi, — xotining gapini bo'lib dedi u. — Reportaj uchun mavzu qidirib, uni topolmagan "Tayms" reportyorlari maqsadidan sal bo'lakcha. Meni ko'rib qo'yishlari uchun borgan edim u yerga va niyatimga yetdim.

— O'z burchimni bajardim, — quruqqina qilib javob qaytargan bo'ldi Edis.

— Mutlaqo to'g'ri.

Xotini indamay gazetaga ko'z yugurtira boshladi, biroq Palmer oralarida go'yo qandaydir izhor etilmagan fikrlar havoda mualliq osilib turgandek his etmoqda edi. Ko'rinib turganidek, xotining ziyofat haqidagi suhbatni davom ettirishga moyilligi yo'q emasdi, ammo nimadir uni tutib turardi. Nahotki, hamma gap faqat shundagina iborat bo'lsa? U qahvani oxirigacha ichib qo'ydi.

— O'z-o'zidan ma'lum, men butun oqshom u yerda o'tirganim yo'q, — gap qotdi Palmer, ataylab chala qolgan suhbatga qaytarkan.

— Men ham shunday o'ylagandim.

— Kerakli odamlarni ko'rib olish uchun meni Berns taklif qilgandi.

Edis bosh irg'ab qo'ydi va mutlaqada davom etdi. Qahvani ichib bo'lib, Palmer qahva choynagiga qo'l cho'zgan edi, biroq Edis gazetadan ko'zini olmay undan ilgariroq yetib bordi va choynak jo'mragining quloqli piyolaga urilgani eshitildi.

— Sekinroq, — ohista ogohlantirdi er.

Edisning nigohi yuqoriga ko'tarildi, biroq quloqli piyolaga emas, to'g'ri Palmerning yuziga qadaldi.

— To'kib qo'ydimmi?

— Men unday... — Palmer xo'rsindi-da, gapini tugatmadi.

Edis piyolani limmo-lim qilib to'ldirib quydi.

— Bugun sal asabiy ko'rinayapsan, jonim?

— Kecha Bernsni kida bo'kib ichibman.

Edis yana gazetaga sho'ng'idi.

— Mehmonlar ko'pmidi?

— Yo'q. Oxirida Berns bilan Kalxeyn va men qoldik.

— Shirin ulfatlar.

Palmer xotining qochirim ma'nosini chaqishga harakat qilmay qo'ya qoldi.

— Keyin Kalxeyn ham ketdi.

— Berns seni olib qolishga urindimi?

— Ha, sen buni qayoqdan bilasan?

Edis bilinar-bilinmas yelka uchirdi:

— Basharasi uzoq yolg'iz qolishdan qo'rqadigan odamga o'xshaydi, ayniqsa tunda. — Xotin tumshaydi. Keyin gazetani tekis qilib taxladi-da, o'zidan nari surdi. — Yana basharasi shuni aytib turadiki, vaqtini ayol bilan xilvatda o'tkazishni yaxshi ko'radi, sen bilan emas.

Palmer bosh irg'adi va jilmayishga urindi.

— Xulosa yasashga tayyorliging shundoq ko'rinib turibdi.

Edis quloqli piyolani o'zi tomon surdi va birmuncha muddat xayolga cho'mgan qahva quyqasiga qarab qoldi. Palmer uning xira nigohi qop-qora suyuqlikni qanday o'rganayotganini kuzatib turdi. Uells kollejining bashoratchisi.

— Odamda jinday andisha ham bo'lishi kerak, — so'zladi Edis, — ammo u ayollarga o'lguday ishqiboz, to'g'rimi?

— Ha. Bu yerda kimdan, nimadan andisha qilish kerak, qiziq?

— Boshqa odamdan deb aytmoqchi edim.

— Tushunmadim.

— Masalan, senga o'xshagan odamdan, — aniqlik kiritdi xotini.

— E-ha?!

— U sendan o'z maqsadlari uchun foydalanishga urinmayotganmikin? — dedi Edis. Xotining so'zlarida biroz savol ma'nosi ham yo'q emas edi, shu bilan birga ular qariyb hukmday jaranglardir. — Bu uning qo'lidan keladi. Menda shunday taassurot tug'dirgandi u. Jeynning ikkinchi eri nimasi bilandir unga o'xshab ketadi. U ham doim ko'ngilxushlik qilish maqsadida shunaqa kichik-kichik o'tirishlar qilib turardi. — Edis ko'zlarini ko'tarib, eriga qaradi va asta kulib qo'ydi. — Mister Berns ga o'xshab u ham sharqdan. Sharq odamlari shunaqaga moyilliklari bilan ajralib turadilar.

— Lekin Berns G'arbiy sohildan kelgan-ku, — dedi Palmer. — Unda bunday moyillik qayoqdan paydo bo'ldiykin?

— Berns qachondan beri G'arbiy sohilga tushib qolibdi? Jinsiy aloqaga haddan ortiq ruju qo'yish — ularni O'rta G'arb aholisidan ajratib turadigan narsa shu.

— Bu menga kecha kechqurun Berns aytgan narsani eslatib yubordi. — Bu e'tirof Edisga qanday ta'sir qilishini ko'rish istagida Palmer qahvadan usti-ustiga bir necha bor ho'pladi.

— Bechora seni tushunmaydi, xolos, azizim, — dedi Edis.

— Mak Berns tushunmaydigan hodisalar haqida sen butun bir kitob yozsang bo'ladi.

— Sen haqingda, masalan.

— Umuman bunday hodisalardan ko'pi yo'q, — dedi Palmer, gapining ohangi ravon chiqishi uchun bir qadar salmoq bilan.

Keyinroq mashinada o'tirib, bankka yo'l olganida Palmer xotini bilan o'zi o'rtasidagi suhbatni xayolan tikladi va munosabatlaridagi bu pinhoni keskinlikning nimadan kelib chiqqanini anglashga urindi. Avvaliga u baribir o'zini qo'lga olishga harakat qilgan bir mening o'zimman degan to'xtamga keldi. Xotini esa o'zini butunlay bemalol his qilayapti. Biroq u xayolidan butun suhbatni tiklaganida yuragida shunday bir tashvishli hissiyot paydo bo'ldiki, uning har bir so'zi zamirida boshqa, tilga

olinmagan ma'no yashiringan bo'lardi. Xonasida o'tirib, "kelib tushgan hujjatlar"dagi bir chaqaga qimmat qog'ozlarni asabiy o'chirar ekan, Palmer shu mulohazalardan birvarakay qutulishga harakat qildi. Bu uning boshini ikki baravar og'ritishdan boshqa hech narsaga olib kelmadi. Soat 10 da Virjiniya Kleri kelganida u avvaliga juvonning kelganidan xursand bo'ldi, biroq ko'p o'tmay u ham jahlini chiqara boshladi.

— ... mehribon Berns bilan oqshomlaring behuda o'tmagandir, — dedi juvon dabdurustdan

— Zerikarli, fayzsiz va hech qanday hudasiz, — bidirlab javob qaytardi Palmer. — Bu oqshomga borishdan bosh tortib, aqlli ish qilgan ekansiz.

— Ayollarga har doim Berns bilan yaxshi munosabatda bo'lish tavsiya etiladi.

Qovog'ini uyib, Palmer juvon keltirgan qog'ozlardan ko'zini oldi.

— Bu bilan nima demoqchisiz? — keskin ohangda so'radi yigit.

— Hech nima.

Qovog'i uyilgan holda Palmer juvonga, uning silliq yonog'iga va xotirjam katta-katta ko'zlariga diqqat bilan razm soldi. Juvonning a'lo kayfiyatiyu gul-gul yashnab turishi nima uchun uning g'ashini keltirayotganini o'zi ham tushunmayotgandi.

— Balki uning mavqei haqida siz baribir aniqroq bir gap aytarsiz? — qaysarlik bilan so'radi Palmer.

— Ayollarga aloqadorligi haqidami? — javob berdi savolga savol bilan Virjiniya.

— Ha, — horg'in dedi Palmer, — hech bo'lmaganda ayollarga aloqadorligi haqida.

— Boxabar odamlarning aytishicha, u o'n-o'n besh nafar kino qahramonlari bilan dovlasha olar ekan.

— Jin ursin! — toqati toq bo'ldi Palmerning. — Endi bu bilan qatq yalashmagan bir Berkxardt qoluvdi... — Cholni uning xizmatkori borligida yomonlashi yaxshi emasligini juda kech anglab, u to'xtadi. — Bo'пти, hechqisi yo'q, — so'zini tugatdi u horg'in. — Bu gaplarni qo'yaylik.

Birmuncha muddat juvon unga jim qarab qoldi, so'ng boshini quyi soldi. Chidab bo'lmas bosh og'rig'iga qaramay Palmer juvon endi uning qarshisida tik qotib ilgariyidek hurkib turmaganini payqadi. Virjiniya o'zini erkin his etardi, bu esa yaxshi edi. Kim bilsin, balki yaxshi emasdir ham? Bunday erkin qo'yib qo'yishi durustmikan? Palmer miyasidagi fikrlardan xalos bo'lishga harakat qilganday boshini aylantirib qo'ydi, biroq qaytanga boshi yana ham qattiqroq og'ridi.

— Men juda achinaman, — qulog'iga chalindi uning.

— Nimaga achinasiz? — O'zining ovozi bamisoli uning qulog'ini teshgudek keskin eshitildi.

— O'zingizni shunday yomon his qilayotganingizga achinayapman.

— E-ha... — Shundan so'ng u yana nigohini haligi qog'ozlarga qadadi. U suhbatni davom ettiradigan ahvolda emas edi. Virjiniyaning turganini ko'rishdan ko'ra ko'proq eshitdi.

— Sizga bir iltimosim bor edi, — dedi juvon. — Kecha men sizga meni o'zingizga do'st deb biling degan edim. Agar siz buni xohlamayotgan bo'lsangiz, iltimos, to'g'risini aytib qo'ya qoling.

Palmer unga qaradi.

— Yo'q, men do'stlar bo'lib qolishimizni xohlagan bo'lar edim, — javob berdi u ovozini boshqa keskin yoki asabiy chiqarmaslikka harakat qilib. — Men, aftidan, kecha bu haqida aytuvdim, shekilli?

Juvon bosh irg'adi:

— Lekin odamlar goho fikrlarini o'zgartiradilar.

— Odamlar, — takrorladi yigit, jilmayishga behuda urinib. Yonoqlari qaqshayotganini his qilib u ertalabdan beri birinchi marta jag'larini bemalol qimirlatayotganini angladi. — Odamlar, ammo men emas, — qo'shib qo'ydi u oxiri jilmayishga muvaffaq bo'lganidan keyin.

— Nahotki umringizda bir marta ham shunday bo'lmagan bo'lsa?

— Yo'q, hech qachon.

Juvon yana o'tirdi va Palmerga diqqat bilan qaradi. Keyin jilmaydi.

— "Pinafor" kapitani shubhalaridan bexabar odam sharafiga uch karra ura! — tabassum bilan iqtibos qildi Virjiniya.

— Bekor gap, men bor-yo'g'i kapitan yordamchisiman. — Oxir-oqibatda juvon bilan Berkhardt haqida baribir gaplashishga to'g'ri kelishini tushunib, u xo'rsindi.

— Kapitan esa, — dedi Palmer, — ishga Bernsdek shunday bir baloi azimni oldi-da, bu bolani oq yuvib-oq tara deb menga tashlab qo'ydi. — U afsuslangandek boshini chayqadi. — Bu dahmazani saqlashga uni nima majbur qilayotuvdi o'zi?

— Yetar, — dedi juvon. — Tan oling, Berns zimdan sizga yoqadi hatto.

— Nega endi u menga yoqishi kerak ekan?

— Hech bo'lmaganda u ham o'zicha bir qiziq odam bo'lgani uchun. Yana shuning uchunki, u foydali bo'lishi ham mumkin. Nihoyat, u sizga shaxsan shunchaki kerakli odam. Mana sizga uchta sabab, — dedi juvon. — Yana aytaymi?

— Nega siz uni qiziq odam deyapsiz? — so'radi Palmer.

— Lekin bu o'zi aslida shunday, — so'zini bermadi juvon. — Hatto uning dovdirligi, uning quruq savlati, uning ahmoqona qiliqlari, uning ajoyib surbetligi, ammo odamlardagi eng tuban raqobatlardan tashqari biron-bir narsani tushunib yetishga mutlaqo qobiliyatsizligi. Uning aft-angori-chi, sochlari-chi! Nihoyat, uning odamlarni laqillatishga ustaligini oling!

Palmer uni tinmay kuzatib turdi va juvonning ilgarigiday o'zini uning nigohidan olib qochmayotgani unga yoqmoqda edi.

— Siz Bernsni yomon o'rganmaganga o'xshaysiz, — dedi Palmer.

— Ayollar uchun u aytarli jumboq emas.

— Ha, sezgan edim. — Palmer o'zini orqaga tashladi va bir lahza ko'zini yumdi. — Bu yerda aspirindan ko'ra achchiqroq biron nima bormi?

— Achchiqroq deysizmi?

— Biron kuchli ta'sir ko'rsatuvchi dorimi?

— Asabni tinchlantiruvchi biron narsa ichib olmadingizmi?

Palmer ko'zini xiyol ochdi:

— Bosh og'rig'ini bosadiganidanmi?

Juvon yengil jilmayib qaradi:

— Tibbiyotdan hech narsa bilmasligimni bu qadar nazokat bilan anglatib qo'yayotganingizdan hayratga tushmoqdaman.

— Men boshim og'riyotganidan noliyotgan edim, — tushuntirdi Palmer. — Tinchlantiruvchi dorilar esa asabiy zo'riqishni yo'qotadi. Meni biroz xumor qiynayapti, xolos.

— Qarang-chi, stolimda kodein bormikan?

— Minnatdorman sizdan. — Palmer o'rindiqda burildi, zo'riqish asta-sekin qayta boshladi. Nahotki juvonning uch-to'rt og'iz gapi shu qadar tez ta'sir qilgan bo'lsa? Balki ularning har ikkovi ham bir-biri bilan mana shunday erkin gaplashishlari ham yordam bergandir?

— Endi yaxshiman, — dedi yigit. — Nima qildingiz o'zi meni?

— Mening jodugarligimni bilmaysizmi, hali? — dedi juvon. — Garchi siz o'rgangan jodugarlar lo'li xotinlar bo'lsa ham. Lekin birinchi darajali jodugarlikni faqat keltlarda uchratish mumkin. Bu ishda ularning oldiga tushadigani yo'q.

Interpolning yengil qo'ng'irog'i yangradi.

— Kechirasiz, — Palmer tugmachani bosdi.

— Lumis degan odam siz bilan gaplashmoqchi, mister Palmer.

— Meni u bilan ulang. — Palmer qaddini rostladi va hayron bo'lib qoshini chimirdi. — Lumis degan odam! — u Virjiniya Kleriga yuzlandi. — Go'yo yana boshqa ham Lumis degan odam borday! — U telefon go'shagini oldi.

— Palmermi? — keksa, ammo juda dadil ovoz taraldi.

— Mister Lumis, — javob berdi Palmer, — o'tgan hafta siz bilan bog'lana olmaganimdan juda afsusdaman. Qo'ng'iroq qilganingizdan g'oyat minnatdorman.

— ... ular yana bir band qulab tushmagunlariga qadar, — Palmerning qulog'iga simning narigi uchida cholning kimgadir gapirgani chalindi. — Hello, Palmer! Bugun lenchda band emasmisiz?

— Bugunmi?

— Sizga mashinamni yuborishdan mamnun bo'lardim. Klubda lench ustida ko'risha olamizmi?

Fikrini to'plash uchun Palmer ko'zini yumdi. Lumisning shahar ishbilarmonlar bo'limidan turib qo'ng'iroq qilayotganiga shubhalanmadi.

— Kelolsam kerak deb o'ylayman, — dedi u. — Qachon?

— Men erta ovqatlanishga o'rganganman, — xabar qildi Lumis. — Oldingizga yigirma daqiqasi kam o'n ikkida yetib borishadi, agar bu sizga to'g'ri kelsa. Siz bu yerda taxminan tushgacha bo'lasiz va sizni bir yarimda olib borib qo'yishadi.

— Juda yaxshi. — Palmer kutib turdi. — Biron narsa... — deb gap boshladi-yu, so'z qidirib, yana jimib qoldi. — O'zim bilan biron narsa olib olaymi?.. — Gapini tugatmasidanoq Palmer savoli ahmoqona chiqqanini angladi.

— Yo'q, shunchaki gaplashamiz. O'n biru qirqda.

— Yaxshi. Men... — Biroq Lumis go'shakni ilib qo'ydi.

Qari ro'dapo. Palmer ham go'shakni qo'ydi va shu zahoti qansharida og'riq his qildi, miyasini bir narsa nayzaday teshib o'tgandek bo'ldi. U Virjiniyaga qaradi.

— Kodein, — dedi u, — iltimos.

Juvon chiqib ketishi hamon o'rindiqda o'tirgancha Palmer ensasini uqalay boshladi. Qiziq, agar buni uning uchun boshqa birov bajarganida u o'zini qanday his qilgan bo'lardi? Birovga bog'liq bo'lib qolishdan yomon narsa yo'q. Darvoqe, bu shunchalik yomonmi?

Ensasini titrab-qaqshab changallaganicha u yana ko'zlarini yumdi va Virjiniya Klerining qaytishini kutgan, og'riqqa bardosh bergan holda qimir etmay o'tirishga harakat qildi.

Yigirma to'rtinchi bob

Uncha katta bo'lmagan "oldsmobil"dan tushar ekan, Palmer ishbilarmonlar tumanidagi lench-klublardan ayrimlarigina mana bunga o'xshagan faxrli yoshdaligi bilan maqtana olishlari mumkin, deb o'yladi. Bu tumanga odamlar daryoday oqib kela boshlashi munosabati bilan urushdan keyin bu yerda ko'plab shunaqa klublar paydo bo'lgandi. Vaqtinchalik inqirozdan so'ng birjadagi urushdan keyingi savdo-sotiqalar o'n minglab yangi asalarilarni eski asalari mumiga jalb qila boshladi. Eski firmalar g'ovlab ketdi, yangilari esa axlatxonadagi qurtlarday urchiy boshladi. Barcha restoran va qahvaxonalar, shu jumladan, yaqinda ochilganlari ham to'da-to'da bostirib kelayotgan mijozlarni eplayolmay qoldilar, kunduzlari hamma joy liq to'lgan bo'lardi va firmalar o'z xodimlarini lenchga navbatma-navbat chiqarishlariga to'g'ri kelari.

Ammo bu eski klub undan ancha oldin, birja uy bekalari va garajlarning mexaniklari ish-a'mollari maydoni bo'lib qolgan vaqtda tashkil etilgan edi. Ancha oldin, Amerika mablag'iga asos soluvchilar doirasiga "puldani boshqa yo'qotadigan hech nimasi yo'q odamlar" bostirib kurgunga qadar ro'y bergandi bu hol. Vatanparvarlik tuyg'usi ochko'zlik tuyg'usi bilan ajoyib tarzda chiqishib ketgan birja sharhlovchilari yuqoridagidek ta'rif berganlar.

Firmaning kichik sheriklari, birja ishbilarmonlari va maslahatchilar ro'paralarida hoziru nozir klerklar va gumashtalarni ko'rmay, tinchgina ovqatlanib olishlari mumkin bo'lgan yangi lench-klublardan farqli o'laroq, bu klub mijozlar ixtiyoriga yana barni ham, billiardxonani va qartabozlik xonasini ham taqdim etgandi. Gould va Morgan kabi Filkening o'zi ham bir vaqtlar shu klubning a'zosi bo'lgan edi. Ammo Barux kabi ham, Otto kabi ham emasdi. Mana shunaqa bo'lgan edi bu klub. O'z vaqtida u klub ro'yxatiga dunyoga endigina kelgan to'ng'ich o'g'li Xenlini ham bir qadar taraddud bilan kiritib qo'ygandi. Ammo ro'yxatga ikkinchi o'g'li Vudsni kiritishga hech shoshmayotgandi.

Palmer ichida klub joylashgan eski bino vestibuliga kirib keldi va liftning kashtasimon temir panjarasi oldiga kelib to'xtadi. Bunday eski uy allaqachon buzib tashlanishi kerak edi. O'ttizinchi yillarda uning o'rnida to'ybop tortga o'xshagan didsiz naqshli, granitdan tiklangan hapqat bir inshoot yoki quruq temir-beton quticha yuzaga kelgan bo'lardi. Keyingi besh yil davomida esa bu yerda zamonaviy shisha akvarium-uy barpo etishlari mumkin edi, deb mushohada yuritardi Palmer, erinchoqlik bilan pastga sho'ng'iyotgan lift shovqiniga quloq solgancha; butun bino, aftidan, klubga kirardi, boshqacha bo'lishi mumkin emasdi. Faqat klub a'zolarining urinib-chirinishlari tufayligina bu uy taraqqiyotning qaqshatqich hujumlariga qarshi turib bera olardi. Hozir ham o'z umrini yashab bo'lgan davrda o'ziga xos bir yodgorlikka aylangandi.

Daqqiyunusdan qolgan qulf bilan birmuncha olishuvdan keyin kamida yetmishni urib qo'ygan liftchi chol nihoyat lift eshigini ochdi va Palmer xonachaga kirdi.

— Klubga, iltimos.

Palmer liftchining oppoq ko'rkam soqoliga razm soldi. Eshik yopildi va lift qandaydir jangir-jungur va qulq-qulq qilgan ovozlarga jo'r bo'lib tepaga ko'tarila boshladi. Palmer qoshini chimirdi: nahotki, bu bino shu qadar eski bo'lsaki, undagi lift hali ham suv bosqoni bilan ishlasa?

— Qulqullayotgan nima? — so'radi u liftchi choldan.

Chol asta burilib, unga qulog'ini tutdi:

— Kechirasiz, bir nima dedingizmi?

— Yo'q, hech nima.

Ular tantanavor sukut saqlab asta ko'tarilib borar edilar, go'yo lojada filarmoniya joylashgan-u, ular lift shovqinini emas, simfonik kuy tinglayotganday.

O'n ikkinchi qavatda liftchi liftni vaqtdan oldin to'xtatdi, keyin ular kerakli holatdan tepaga o'tib ketishdi va chol bir qancha shunaqangi murakkab va shovqinli urinishlar qilishiga to'g'ri keldiki, butun kabina silkinib ketib, Palmerning hatto biroz kayfi ham uchdi.

— Mijozlar o'zlarining kelganlarini metrdotelga xabar qiladilar, — g'udrandi liftchi chol nihoyat lift eshigini ocharkan.

Metrdotel joyida yo'q edi va Palmer baland .stolda turgan qo'ng'iroqchani chaldi. U bong ovoziday bo'g'iq va cho'ziq sado berdi. Vaqt o'tib borardi. Palmer u yoq-bu yoqqa qaradi. Ha, hozir bunaqa qilib qurishmaydi. Shiftlarning balandligi kamida o'n besh fut kelardi. Devorlari mum surtib yaltiratilgan dub baget qoplamasi va usti yashil shishasimon yuqorigi qismi kulrang tusda. Devor yoniga qo'yilgan o'rindiqlar oq dubdan yasalgan bo'lib, yon suyanchiqlari g'oyat zalvorli. Suyanchig'i va o'tirg'ich qismlariga qora charm qoplangan. Palmer o'rindiqlardan birini ko'tarib ko'rdi: u manavi yerda ellik funt kelardi. Qiziq, bu buyumlar qachon yasalgan bo'lsa? Yarim asr oldinmi yo yetmish yilmi? Bundaylarga o'xshaganini yasattirish uchun hozirgi narxlarda odamning aqli bovar qilmaydi. Darvoqe, bunday o'rindiqlar sinmaydi ham, shu bois ular hech qachon ta'mir ham talab etmaydi.

— Ser?

U o'girilib qaradi va och ko'krang shim va qora sarg'ish pidjakdagi yoshi katta kishini ko'rdi.

— Vude Palmer. Mister Lumis huzuriga.

— Ha, mister Palmer. Mister Lumis sizga muntazirlar. Bu yoqqa marhamat etsinlar.

Palmer xiyla ensiz va haddan tashqari uzun yo'lakdan unga ergashdi: deyarli uyning yarmini yurib o'tishga to'g'ri keldi, nihoyat ular ichiga taxminan yigirmatacha dumaloq stol terib qo'yilgan keng tanobiy xona eshigi oldida paydo bo'lishdi. Kun yorug'i bu yerga ko'chaga ochiluvchi ko'tarma derazalardan tushar edi. Bir vaqtlar derazalardan daryo manzarasi ko'rinib turardi, ammo hozir ko'chaning narigi tomonida oyna va alyumindan tiklangan ko'p qavatli binolar bo'y cho'zib, daryoni deyarli butunlay to'sib qo'ygandi. Uning bostirib kelganini bu yerda qanchalik yoqtirmay qarshi olishlarini tasavvur qilib, Palmer bilinar-bilinmas jilmayib qo'ydi.

Palmer tanobiyning to'riga, boshqalardan sal narida turgan bir dumaloq stol oldiga borib to'xtadi va stolda o'tirgan qotmagina keksa odamga odob bilan ta'zim qildi.

— Mister Lumismisiz?

— O'tiring, Palmer. Shoshmang, Genri, hozir aytamiz.

Palmer soatiga qaradi: roppa-rosa o'n ikki, ularning tanobiyda tanho o'zlari qolgani sababi bu yoqda ekan-da. Palmer zimdan Lumisni kuzata boshladi. Xuddi binoning o'ziga o'xshab ko'hnalikning mana bunday hilvirab va dildirab qolgan mumtoz namunasini yaqindan turib ko'rish har doim ham nasib etavermaydi.

Jozef Lumis hosil qilgan dastlabki taassurot, odatda, yaqindan tanishganda ham o'zgarmas edi. U, ehtimol, umrining keyingi o'ttiz yilida ham shunday ko'rinardi va uning fotoportreti moliya olamidagi voqealarni kuzatib borgan barcha odamlarga yaxshi tanish edi. Qanshari tomon kengayib va iyagi tomon torayib borgan yuzi cho'zinchoq, siyrak sochi oppoq va did bilan tarab bir tomonga tashlab qo'yilgan. Ko'zlari Virjiniya Klerinikiday deyarli katta-katta, ammo ingichka va yengil ajinlar o'rimi bilan qurshalgan bo'lib, bamisoli jimjimador gardishga qadalgan bir juft qimmatbaho toshga o'xshardi. Yankilarga xos burun — faqat fotosuratlardagina uchli bo'lib ko'rinadi. Darvoqe burnining yuqori qismi pichoq tig'ini eslatardi, ammo uchi biroz to'mtoqlashib, ensiz katta og'zi uzra xiyol osilib turardi.

Bir tekis terilgan sun'iy tishlarini ko'rsatib, Lumis unga xotirjam kulib qo'ydi.

— Sizni ko'rganimdan xursandman, — dedi u.

Uncha katta bo'lmagan jilddagi ko'chirib yozilgan va obdon to'g'rilangan taomnomani ko'tarib ofitsiant keldi. Palmer noma'lum xattotning mahoratiga ofarin deb qo'ydi ichida. Chiziqlar goh bosib yo'g'on, goh qalam uchida qilday ingichka qilib yozilgan edi. Yaxshiroq ko'rish uchun Palmer taomnomani yoruqqa tutdi: ha, u darhaqiqat, qo'lda va harholda hattoki g'oz patida yozilgan edi.

— Biqin go'shti qovurdog'i oling, — maslahat soldi Lumis, — jo'ja — emince faqat menga o'xshagan qari boboilar uchun pishiriladi.

Parijchasiga emince so'zining dimog'dan kuchli talaffuz etilishiga e'tibor qilib, Palmer odob bilan jilmayib qo'ydi.

— Yanglishmasam, bu yerdagi bosh oshpaz naturel sousni quling o'rgilsin qilib tayyorlaydi, — dedi u Lumisga o'z navbatida naturel so'zini frantsuzcha talaffuz qilib. Keyin ofitsiantga murojaat qilarkan, dedi: — Bugungi qovurdoq o'sha sousdanmi?

— Har doimgidek, — javob berdi uning uchun Lumis. — Menimcha, shu yetarli bo'lsa kerak, Genri?

— Xo'p bo'ladi, mister Lumis, — javob berdi ofitsiant.

— Nima ichasiz, Palmer?

— Hech narsa.

— Demak, tamom, Genri, — takrorladi Lumis, ofitsiant ancha nariga ketgach dedi: — Oshxonamiz sizga yoqqanidan xursandman. Bu yerda oxirgi marta qachon bo'lgansiz?.. — Uning qisilib turgan ko'zlari serajin gardish orasidan Palmerga diqqat bilan qarab turardi. — Uch yil oldinmi? Siz o'shanda otangiz bilan kelgan edingiz. Uning o'lib ketganidan afsusdaman, uni tez-tez eslab turaman. Aytishlaricha, saratondan o'lgan ekan, shundaymi? — Lumisning tim-qora ko'zlari katta ochildi. Palmer uning tik boqishlariga chidadi.

— Mutlaqo to'g'ri.

— Buni u bilarmidi?

— Yo'q, u...

— Buni undan yashirishganmidi?

— Imkoni boricha.

— Baribir u bunga ishonmagan bo'lar edi. — Lumis boshini chayqab qo'ydi va o'zining barmoqlari uzun-uzun qo'llariga qaradi. Ingichka tomirlari qorayib turgan teri uzra keksalik nishonlari — mayda jigarrang dog'lar tartibsiz sochilgan. — Hech kim ishonmaydi, — qo'shib qo'ydi u birmuncha muddatdan keyin.

Go'yo ajalning o'zi yaltiroq soch o'ramiday ular oralig'idan sirg'alib o'tib ketgan kabi ikkalasi o'rtasiga g'alati bir sokinlik cho'kdi. Palmer yelkasidan chumoli o'rmalagandek his qildi va u, agar o'lmasa, Lumisning yoshida bu haqda qanday gapirish lozimligini o'yladi.

Biroq o'sha zahoti, keksalar bunday fikrlardan to'yib ketgan, o'zlarining puturi ketgan badanlariga tiriklay dafn etilganday bo'lib, har kuni ertalab kiyinayotganlarida kechqurun uyga qaytib kelamanmi, yo'qmi deb o'zlaridan so'rab qo'yadilar, dedi o'ziga-o'zi. U hali baquvvat va qomati tarang Berkxardt qarshisida o'tirgan choldan atigi o'n yoshgina kichik. Uning mushaklari kuchi va chayirligini qachon yo'qotadi? Teshib yuborgudek boquvchi moviy ko'zlari qachon nursizlanadi-yu, qachon o'tkirligidan mahrum bo'ladi?

Bir lahza u Lumisning ko'zlariga qaradi, biroq ularda o'zi kutgan bo'm-bo'sh, maqsadsiz ifodani topmadi. Go'yo o'z taqdirini bilmoqchi bo'lgandek chol qo'llarini hamon diqqat bilan o'rganardi. So'ng u ohista xo'rsindi, bu xo'rsiniq, aftidan, Palmerning eshitishi uchun mo'ljallanmagandi.

— Berkxardt siz bilan qanday muomala qiladi? — biroz jimlikdan keyin so'radi Lumis.

— Odatda u meni o'ziga o'zi tanishtiradi.

— Hah. — Bu bir bo'g'inli tovush kulgi emasdi, bu so'z edi. — Leyn hech kimni o'ziga tanishtirmaydi. Uning meni sizga qanday tavsiya etganini tasavvur qilaman — renegat deganmi? A?

— U bunday so'zni aytmagandi.

— O'lguday bo'shang, a? Xoin-a? Sotqin-a?

— U menga, aftidan, ko'pchilik biladigan narsa haqidagina gapirgandi, — sizning "Merrey Xill" omonat bankiga nisbatan moyilligingiz haqida.

— To'g'ri, gap nimadaligini tushunmagandim, — dedi Lumis miyig'ida kulib. — Leyn korporatsiyalar tuzilmasi va hokazolarning ma'nosini biladi, ammo odamlarni bilishga kelganda — g'irt. Ular bilan qanday muomala qilishga sira aqli yetmaydi. To'g'rirog'i, buning uchun boshini qotirishni istamaydi.

— To'g'risini aytsam, buni payqamagan ekanman.

— U sizga juda sinchkovdek bo'lib ko'rinadimi, a? — so'radi Lumis.

— Ha, — javob berdi Palmer.

— Sizni shuning uchun ham ishga taklif etganmi? — Lumis yana jilmaydi: — Chakki tanlamagan, shunday emasmi? — Chol bosh irg'ab qo'ydi: — Bo'пти, shundoq bo'la qolsin. Ammo shu bilan bir vaqtda u Bernsni ham yolladi. A?

— Nima bo'пти? — Qayirib tashladi Palmer.

— Hah. — Lumis taomnomani qarsillatib shapatiladi-da, uni o'zidan nari surib qo'ydi. — Siz ham otangizga o'xshab juda kamgapga o'xshaysiz. Uning yana bir o'g'li bor deb eshitgandimmi?

— Xenli. Mendan ikki yosh katta. U urushda o'lgan.

Lumis yana qo'llariga qaradi. Bu gal u kaftlarini o'rgandi. Qizg'ish va go'shtdor kaftlar suyakdor, keksalik sepkilari qoplagan orqa tomonidan alohida o'zi mavjuddek.

— Sizlar Chikago Palmerlarining so'nggisimisizlar, a?

— Unchalik emas, — javob berdi Palmer. — Mening bolalarim, yana qanaqadir qarindosh-urug'larim ham bor. Darvoqe, Chikagoda biz hech qanday qarindoshlik rishtamiz bo'lmagan yana bir Palmerlar sulolasi bor.

— Unday holda siz bankir Palmerlar ichida eng so'nggisi ekansiz-da?

— Shunday bo'lsa kerak, hoynahoy.

— Ammo sizning ikkita o'g'lingiz bor-ku?

— Va qizim ham, — qo'shimcha qildi Palmer.

— Ularni bankir qilmoqchimisiz? — Lumisning oppoq qoshlari bir narsani tushungandek yuqoriga o'rladi.

Palmer miyig'ida kuldi.

— Agar bu menga bog'liq bo'lsa, ikki dunyoda ham unday qilmayman. — U jim bo'lib qoldi, so'ng yo'taldi va dedi: — Xo'sh, endi "Merrey Xill" omonat bankiga kelsak...

— Xo'sh, xo'sh, mayli, gapiring.

— Omonat banklari bilan bog'liq barcha gaplar haqiqatdan xam shunaqa jiddiy tus olib ketganmi?

— "Shunaqa" — kimga? — quruqqina so'radi Lumis. — Leyn Berkxardtgame yoki boshqa bittasigami?

— Siz meni kechiring, — dedi Palmer, — men baribir qishloqilimga boraman va bu narsalarga tuzuk-quruq aqlim yetavermaydi.

— Palmer, — uning soʻzini boʻldi chol, — har gal kim menga oʻzini qishloqi qilib koʻrsatib, shaharcha nozik narsalarga aqlim yetmaydi deb aytganda, men oqibatda hamyonsiz qolaman. Ana shunaqa. Xoʻp, mayli. Ochiqchasiga gaplashaylik. Sizga qanday topshiriq berilganini men bilaman. Undan koʻra siz omonat banklari bilan jangni goʻyoki muqaddas salib yurishi hisoblab, ochiqchasiga va aylantirmay javob berganingiz yaxshi emasmidi?

Palmer kuldi:

— Mana bu endi yoqimli kutilmagan narsa.

— Shunaqami? — Lumis unga diqqat bilan qaradi. Keyin uning javob aytishdan qochishni doʻndirishiga qoyil qoldi. Uning katta-katta koʻzlari Palmerdan chetlab oʻtib, tanobiyning toʻriga diqqat bilan tikildi. — Hammamiz shu yerdamiz, — biroz jimlikdan soʻng dedi u, — bilamiz: bu naqd pullar uchun bor-yoʻgʻi mushtlashuv, xolos. Hozirgi vaqtda naqd pullarning katta qismi omonat banklari ixtiyorida turibdi, tijorat banklari esa puldan oʻmarib qolmoqchi boʻldi. Bunday ahvolda hech kim yutolmaydi.

— Ommadan boshqa hech kim, — qoʻshib qoʻydi Palmer.

— Mutlaqo toʻgʻri, — Lumis yana bir necha bor boshini irgʻadi. — Omma har doim sal boʻlmasa oshkora ichiqoralik bilan mushtlashuvni kuzatib turadi. Masalan, chakana narxlar atrofidagi mushtlashuvni. Ommaga esa kim yengilishining mutlaqo farqi yoʻq. U eng arzon narxda hamma narsani sotib olsa boʻladigan paytni kutib turadi, xolos. Maqola uchun aʼlo sarlavha: "Bankirlar bir-birining goʻshtini gʻajishga tayyor". Omma bunday narsalarni koʻziga surtadi. Bankirlar mushtlashib yotganda oʻz mablagʻiga yiliga chorak foiz qoʻshimcha qidirib, mablagʻ qoʻyuvchilarning tit-pitini chiqaradilar, goʻyo bu ularni Qorunga aylantiradigandek. Kim yutib chiqadi? Omma; lekin biz emas. Shu joyda fikrimiz bir joydan chiqar?

— Mutlaqo.

— Sizday tajribasi bor odamga, — tezgina davom etdi Lumis, — boshqa odamlardan farqli oʻlaroq, bankirlar ularning axlatni kulbadan olib chiqishdek dabdabaga yoʻl qoʻya olmasliklarini tushuntirib oʻtirishning aslo hojati boʻlmasa kerak. Gapim toʻgʻrimi, xoʻsh, nima deysiz?

— Ha, ha, siz haqsiz.

— Boshqalar uchun, biz uchun ozuqa boʻladigan narsa zahardir, shunday emasmi? — qoʻshib qoʻydi Lumis.

— Toʻgʻri.

Bunday tuturuqsizlikdan zavqlanib, Palmer oʻzini oʻrindiqqa tashladi. "Qorunga oʻxshagan boy" — kinoyali kuldi u, — "kulbadan chiqqan axlat", "zahar". Bunday eski gʻoyalar yordamida Jo Lumis qanday qilib yuksakliklarga yetib olardi? Yuraverib tekislangan temir iz baribir mustahkam boʻlarkan-da.

— ... agar taʼbir joiz boʻlsa, bu voqeani silliqqina yuzdan sidirib tashlash kerak, — davom etdi chol, — to u Olbanigacha yetib borguncha. Qonun bunga qoʻl urishi hamon biz hammamiz mushkil ahvolda qolamiz.

Palmer ehtiroimli bosh irgʻab qoʻydi, payt poylab turdi, iloji boricha koʻproq samimiy gapirishga harakat qilib dedi:

— Buni siz filiallar haqidagi qonun loyihangizni qaytarib olishga tayyorsiz degan maʼnoda tushunishimiz joizmi?

Lumis oʻrindiqqa ogʻir choʻkdi va bir nafas Palmerni u nishonga urgandek tuyuldi. Uning tub sababini bilgandan keyin endi bu qiziq oʻyinday boʻlib qoldi. Biroq Lumisning chekingandek boʻlib koʻrinishi bor-yoʻgʻi ofitsiantning stolga yaqinlashib kelishi tufayli ekan. Ofitsiant yashin tezligida narsalarni joy-joyiga qoʻydi-da, yashin tezligida gʻoyib boʻldi. Palmer cholning oʻz joʻjasini sanchqi bilan aylantirayotganini kuzatib turardi.

— Siz buni hecham bu ma'noda tushunganingiz yo'q, — nihoyat sukunatni buzdi Lumis. U Palmerga qarab qo'ydi. — Meni ogohlantirishlaricha, siz g'oyat qobiliyatli emishsiz, — xotirjam qo'shib qo'ydi u va yana jo'jani titkilay ketdi.

— Men faqat bir narsani aytmoqchi edim, — davom etdi Palmer, — toki omonat banklari filiallar to'g'risidagi o'z qonun loyihalarida qattiq turar ekanlar, bu ishni yo'lga qo'yish qiyin bo'ladi.

— Biz bunga erisholmasak-chi? — Lumisning ko'zlari likobchadan uzilib, Palmerga qadaldi.

— Unda biz hech narsa uchun jang qilmaymiz.

— Bu sizning fikringizmi yo Leynnikimi?

Palmer yelka uchirib qo'ydi-da, o'z qovurdog'idan bir bo'lak go'sht uzdi.

— Menimcha, bunday nuqtai nazar har birimizga ham ma'qul kelsa kerak.

U qovurdoqdan tatib ko'rdi va qayla u klubga dastavval kelganidagidan zarracha kam emasligiga iqrar bo'ldi.

— Filliallar haqidagi qonun loyihasi bo'lmasa, ular uchun jang ham bo'lmaydi.

Lumis bosh irg'adi:

— Murosasizlik borasida sizning tasavvuringiz g'oyatda ajib ekanmi? Bor-yo'g'i so'zsiz taslim-ku! — U og'ziga jo'ja go'shtidan bir bo'lak soldi-da, uni uzoq chaynadi. — To'g'risini aytganda, Leyn sizni ishga taklif qilmaganida yaxshi bo'lardi deb o'ylayman, yigitcha. Siz ham unga o'xshab kamgap ekansiz.

— Juda unchalik emas.

— O'zingiz aytgandek, bu masalada siz hali yangi ekanligingizni hatto undan ko'ra ko'proq e'tiborga olishingiz mumkindir. Yangi odam avval u yoq-bu yog'iga qarab olishi va kutib turishi kerak bo'ladi.

— Aynan kutib turish — mening fikrim shunday, — dedi Palmer.

— Sizga Leyn Berkxardt haqida ba'zi narsalarni ma'lum qilishimga ijozat bersangiz, — gap boshladi Lumis. — U o'ziga xuddi rahnamoday qaraydi, u aslida ham rahnamodir. Unda yuksak parvozdagi rahbar uchun hamma narsa bor: u o'zining qadrini yaxshi saqlaydi, hamma narsani did bilan qiladi, uning qad-qomati shamshodday, o'z uslubi, jilvasi bor, ya'ni barcha zaruriy tashqi fazilatlar muhayyo. Go'yo u safarga buyruq berib turish uchungina dunyoga kelganday. YuBTK boshlig'i sifatida u o'zining tug'ma fazilatlariga yana qandaydir jiddiy narsalarni qo'shdi — bu ulkan moliyaviy qudrat. Mana shu barchasidan kelib chiqib, uni hamma tijorat banklarining rahnamosi deb o'ylashi mumkinmi yoki yo'qmi, xo'sh? Ammo bu unday emas. Zero, hech kim rahnamo bo'la olmaydi. Har bir bankning taqdiri o'zgacha; bular barchasi o'taversin-u, xuddi omonat banklari singari ular bir-birlari bilan raqobatlashadilar. "Yunayted benk" uchun yaxshi bo'lgan narsa unga qarindosh bo'lgan tijorat banklari uchun har doim ma'qul kelavermaydi. Bordi-yu, YuBTK uchun biron narsa noma'qul bo'lsa, Leynning rahnamo sifatidagi barcha yetuk fazilatlariga unga u bilan raqobatlashayotgan banklarni ular ham shunday aziyat chekayotganlariga ishonтира olmaydi. Albatta, bunaqasi ham uchrab turadi, har holda. Bordi-yu, Leynni rahnamo deb tan olishsa, ular yana-da ko'proq aziyat chekadilar, chunki bunday holda ularning qisman o'z mustaqilligi bilan ish tutishlariga to'g'ri keladi. Sinchiklab qarab chiqqanda shunday xulosaga kelasizki, barcha tijorat banklari nomidan ish yurituvchi boshliq har doim uncha katta bo'lmagan, iloji boricha allaqayoqdagi chekka joylardan chiqqan odam bo'lishi kerak, u haqiqatan ham ulkanlar ichida mittivoy bo'lib ko'ringani tufayli ularning umumiy manfaatlarini namoyon etish uchun saylanadi. Ulkanlar uni qo'llab-quvvatlaydilar, chunki bu ular uchun hech narsaga arzimaydi. Biroq sahnaga Leyn chiqib kelganida, ular uning ortidan ergashadilar va chekinadilar. Leyn ham saflardan shu qadar oldinga uzoqlab ketadiki, endi musiqa uning qulog'iga chalinmay ham qoladi.

Fikrning o'zidan emas, Lumisning o'z fikrlarini hech bir qiynalmaydigan siyqalikdan xoli qilib bayon eta olishidan Palmer jilmayib qo'ydi.

— O'ylashimcha, temir kaltak bilan oldinda mag'rur ketib borayotgan va butunlay o'zi bilan o'zi andarmon bo'lgan odam, — dedi Palmer, — bu Berkxardt emas. Bu mening o'zimman.

Ular ko'rishganlaridan buyon birinchi marta Lumisning og'zi jilmaygandan uzun cho'zildi.

— Mana buni endi haqiqiy suhbat desa bo'ladi, — mamnuniyat bilan dedi u. — Leyn sizni qanday ahvolga solishini tushunasizmi, yo'qmi, meni shu narsa qiziqtirayotgandi.

— Ammo men hozir aytmoqchi bo'lgan gap sizga yoqmaydi, — dedi Palmer. — Ko'rayapsizmi, menga ajratilgan rol, nima desam ekan, birovlarning jatiga qolgan odam, menimcha, shu to'g'ri keladi...

— Ishoning, xuddi shuning o'zginasi, ha, — tasdiqladi chol.

— Lekin bu meni tashvishlantirmaydi ham...

Palmer birmuncha muddat qotib qolgandek tuyulgan Lumisni kuzatib turdi. Keyin Lumis ikki bor boshini irg'adi.

— Hammasi ravshan, — dedi u, — xuddi shundan cho'chib turgan edim.

Yigirma beshinchi bob

Lumisning aybi bilan lench ham rasvo bo'ldi, shoshayotganini yashirishga ham harakat qilmadi, dedi o'zicha Palmer bankka yo'l olar ekan.

Xayrlashuv chog'ida Lumis:

— Shaharga qirq daqiqalarda tushaman, meni kutmasangiz kerak? — deya tashlagan luqmasida va Palmerning:

— Ha, albatta, — degan javobida bu ayniqsa yaqqol sado berdi.

Endi Ist River shohrohidagi mashinalar oqimi ichida chap berib kelayotgan taksida o'tirarkan, Palmer Lumis bilan suhbatidan olgan g'arib ma'lumotlar ichidan eng muhimlarini tanlashga harakat qilardi.

Lumis, albatta, haq edi: Palmer haddan tashqari murosasiz nuqtai nazarni band etgandi. Ammo Palmerning boshqa narsa ham ravshan edi: boshqa har qanday yondoshuv zaiflik deb baholanishi mumkin. Hatto agar Berxardt biron narsani oshirib yuborgan taqdirda ham baribir Lumis uning qarshisida o'zini bu qadar zaif qilib ko'rsatishi mumkin bo'lgan odam emasdi.

Garchi Lumisdek muvaffaqiyat qozonmagan bo'lsa-da, otasi o'sha toifadagi odamlar sirasiga kirardi. Xoh tennis kortida bo'lsin, xoh biznesda, ularni birgina xohish — yengish xohishi telba qilib qo'ygandi, bu esa raqib uchun o'yinni har qanday zavqdan mahrum etar edi. Ularning sharti bitta — qanday o'ynashmasin, yutishsa bo'lgani. Darvoqe, ular haq bo'lishlari ham mumkin. Palmer boshini chayqadi.

Chap tomonda Belvyu binolari ko'zga tashlandi — temir va shisha qutichalar bilan qurshalgan ko'hna, iflos gospital. Bu uchrashuv unga biron narsa berdimi?

Yo'l-yo'lakay Berns haqida eslash Palmerning diqqatidan qochib qutulmadi. Lumis hatto ko'rinishdan bu bilan maxsus axborotga ega ekanini ham bilib oldi, shuningdek, undan jiddiyroq ma'lumotlarga ega ekanini-da tushuntirib qo'ydi.

Palmerning qanday topshiriq berilganini aniq bilishga Lumis shama qildi. Bu sinov soqqasimi yoki dalilni ro'kach qilishmi — har ikkala holda ham bunga alohida ahamiyat berishga arzimadi.

Lumisning Berxardtga qarshi irod etgan ayblov nutqi Palmerning nazarida ikki maqsadni ko'zda tutardi: uning shefga bo'lgan ishonchini darz ketkazish va ayni vaqtda tijorat banklari o'rtasida mavjud kelishmovchilar xavfini ko'rsatib qo'yish. Unisi ham, bunisi ham hozirgi pallada Palmerni tashvishga solmasdi. Nima uchunligini uning o'zi ham aniq chamalay olmasdi, ammo bu masalani ham hal etishga ulguraman deb ahd qildi.

Biroq Palmer Berxardt uni qiyin ahvolga solib qo'rganini tan olgandan keyin ularning suhbatida burilish ro'y berishi g'oyat qaltis ekanini sezgan edi va suvdan quruq chiqish uchun chol barcha choralarni ko'rib qo'rganini uning o'ziga bildirdi.

Haydovchi to'satdan shartta o'ngga burdi va Palmer charm tutqichdan ushlab qoldi. Qirq ikkinchi ko'chaga chiqaverishda turib qolmaslik uchun mashina boshqa yengil avtomashinalar safiga qo'shilib oldi. Bir lahza Palmerning ko'z oldida Birlashgan Millatlar binosi namoyon bo'ldi, so'ng mashina uning tagidagi yo'lakka sho'ng'idi. Palmer kamarni qo'yib yubordi-da, o'rindiqqa qulayroq joylashib oldi. Bordi-yu, agar keksa Berkxardt uni takadan sut olishga o'rgatganida ham, oxir-oqibatda unga baribir emasmi? Nima uchun Lumis bu uning uchun shunchalik ahamiyat kasb etishi kerak deb hisoblaydi? Axir Palmer bank aksiyalarining yangi asosiy tutib turuvchilaridan biri emas, balki bor-yo'g'i ombor xodimi edi-ku. Uning moliyaviy ahvolini, shubhasiz, Lumis yaxshi bilardi.

O'rtacha Chikago banki aksiyalarining katta miqdorini sotgandan keyin kishida albatta u kundalik xarajatlariga ishlatganidan ancha ko'proq pul qiladi. Palmer maosh uchun emas, balki bu ishdan oladigan zavq uchun ishlayotganini Lumis, shubhasiz, bilardi.

Palmerning bu nuqtai nazaridagi qaltislik ishni uning uchun yana-da maroqliroq qiladigan tavakkal bilan bog'liqligini nahotki Lumis tushunmadi?

Mashina shohrohga burilib, ular shaharga kirib kelganlarida Palmer hammasini joy-joyiga qo'yib olganidan mamnun holda bosh irg'ab qo'ydi. Birinchi marta u buning uddasidan chiqib turibdi. Axir u Edisga hech narsani tushuntira olmas edi-da. Endi esa hamma narsa mantiqiy ma'noga ega bo'ldi. Xotiniga o'z fikrini qanday anglata olishini u tasavvur qilishga urinib ko'rdi.

Palmer. Bilasan-ku, men pul uchun ishlamayman. Faqat o'zim eng yaxshi bilgan ish bilan mashg'ul bo'lish imkoniyatiga duch kelib qolganman. Buning ustiga menga to'la mustaqillik berib qo'yilgan.

Edis. Chikagoda otang o'lganda ham shunday imkoniyatga ega eding.

Palmer. Lekin u yerda men otam arvohtarining butun bir lashkari qurshovida qolib ketgan bo'lardim. Bu yerda esa men bamisoli ilg'or safda, qattiq jangning eng qizg'in o'chog'idaman. Chikagoda men hech qachon bunday imkoniyatga ega bo'lmasdim. Yo'q, faqat bu yerdagina bor bunday imkoniyat.

Edis. Bu yerda-ya? Berkxardtning oyog'i ostida-ya?

Palmer. Yo'q, uning hokimiyatidan ancha olisda. U istagan paytda aralashishga juda uzoq joyda. Garchi uning shunday niyati yo'q emasligiga ishonchim komil bo'lsa-da.

Edis. Azizim, ehtiyotkor cholginam.

Palmer. Berkxardtning esdan chiqaraylik. Asosiysi — bu men. Men yoshman, ishga, hokimiyatga, yaratishga chanqoqman.

Edis. Qirq besh — bunda yoshlik qolibdimi?

Palmer. Dekabrdagina qirq beshga kiraman.

Edis. Sug'urta daftarchasida seni qirq beshga kirgan deb yozib qo'yilgan.

Palmer ko'zlarini qattiq qisdi va titroq qovoqlari ostidan, ko'zlarining milkidan hatto yosh chiqib ketdi. Nima uchun Edis unga doim shunaqa zaharli rolda namoyon bo'ladi? Nima uchun uning haqidagi fikr nafratdan boshqa hech qanaqa tuyg'u uyg'otmaydi? Axir unda ijobiy jihatlar ham bor-ku.

Mashina yurishini sekinlatdi-da, yo'lkaning naq chetiga kelib to'xtadi.

Ko'zlarini ochib, Palmer o'zining bankini ko'rdi, uning shakl-shamoyili bir lahza notekisdek va xira ko'rinib ketdi. Palmer yoshni sidirib tashladi, haydovchi bilan hisob-kitob qildi va bankka kirdi.

Shveytsarning salomiga bosh irg'ab javob qilib, Palmer u yoq-bu yoqqa qarab o'tirmay, lift tomonga o'tdi. Yuqori qavatda u shift yog'dusida yo'lak bo'ylab, devorlarda osig'liq suratlar yonidan odimlab ketdi, zarrin tusli to'q yashil gilamga bir lahza qarab qoldi, borib sochi oppoq, siynalari g'o'ch kotibasi yonida to'xtadi.

— Hammalari xonangizda...

Xonasiga kirgach, Palmer juvonning nima demoqchi bo'lganini shunda angladi. Xona haddan tashqari keng-kovul bo'lishiga qaramay, u odamlarga to'la edi. Garri Elder Palmerning yozuv stoli qirrasiga qo'ngan, uning siyrak oppoq sochlari oynavand shiftdan tushayotgan nurdan yiltirardi. Stol qarshisidagi o'rindiqlardan birida Virjiniya o'tirardi. Aftidan Palmerni birgina u kutmoqda edi. Mak Berns katta deraza oldida Palmerning notanish bo'lgan bir kishiga pastdagi Beshinchi avenyudan

allanimani ko'rsatardi. "Rolli" fotoaparati va yelkasiga osib olgan yorituvchi apparat bilan qurollangan boshqa bir notanish odam Xanni Kerd haykalini ko'zdan kechirardi.

— Vu-u-di-i, — cho'zib dedi Mak Berns. Bu so'z uning san'ati uchun oz joy qoldirganday bo'lib ko'rinishiga qaramay, u baribir unga alohida jarang kasb etmoqchi bo'ldi va so'z yana birmuncha muddat havoda aks sado berib turdi.

— Vudi, "Star" tahririyatidan kelgan Jim Stekkert bilan tanish, bu esa — mister Kessler, uning fotoapparatlari. Jentlmenlar, tanishinglar — Vuds Palmer-kichik.

Palmer oldinga bir necha qadam qo'ydi, kelganlar bilan birma-bir qo'l berib ko'risha boshladi. Stekkert ozg'in, kasalvand chehrali va horg'in ko'zli odam edi, go'yo lablari tashqi ta'sir, rele yordamida tabassumdan harakatga keladiganday. Ichimdan top odam, bundaylardan ko'p narsani ololmaysan, o'yladi Palmer. Fotograf Kessler, ko'p o'tmay, o'zi sezgandek, butunlay boshqa tabiatli odam edi.

— Bu sizning ishingizmi? — qiziqsindi fotograf haykalga barmog'ini qo'yib.

— Bu Xanni Kerdning ishi.

— Unda nima ifoda etilgan?

— Bolalarimning portreti.

— U-u! Sizni boplab shilishganga o'xshaydi.

— Xato qilmadingiz, — jiddiy javob berdi Palmer.

Haykalni tomosha qilar ekan, Kessler orqasi bilan Palmerga o'girilib oldi.

— Yechib bo'lmas rebus. AQShda tayyorlangan, — ming'illab qo'ydi u.

— Mak, — gap qotdi Palmer, — meni ham mana bu yig'ilish maqsadidan voqif qilish vaqti kelmadimikan? Yoki men o'zim o'ylab topaymi?

— Nahotki siz... — Berns to'xtadi, qovog'ini uydi, pastki labini tishladi va xayolga cho'mgancha uni chaynab qo'ydi. — Bu qanaqasi, men hayron qolayapman, — davom etdi u ovozi pasaytirib, — men o'ylovdimki, siz... O'ylovdimki, men... Jim Strekkert "Star"da moliya bo'limida ishlaydi, Vudi. U...

— Faraz qilaylikki, men bu shaharda yangi odamman, — uning gapini bo'ldi Palmer, — ammo mister Stekkert nima bilan shug'ullanishi menga kunday ayon. — U Virjiniya Kleri va Garri Elder tomon o'girildi. — Balki sizlardan birontangiz menga tushuntirib berarsiz?...

— Bernsga murojaat qilavering, — javob berdi Virjiniya jilmaygancha. — Bizning o'zimiz ham unchalik yaxshi bilmaymiz...

— Bo'ldi, tushunarli, — birdaniga dedi Mak Berns va hamma unga burilib qarashi bilan davom etdi: — mister Palmer bugun qanaqangi shonli kun ekanini esdan chiqargan, buni qarang-a, atigi o'n besh yil o'tibdi-yu, u bo'lsa esdan chiqarib o'tiribdi...

— O'n besh yil? Nimani aytayapsizlar? — so'radi Palmer.

— Hoy Vudi, nima qilasiz o'zingizni hech narsa bilmaganga solib, jin ursin, — uning gapini bo'ldi Berns va "Star" reportyori tomon burilib dedi: — Hech shunaqasini ko'rmaganmisiz?

— Bo'lmasa-chi, — qo'pol ohangda dedi Stekkert. — Har gal mijozlaringiz o'z vaqtida ogohlantirib qo'ymaganida shunaqa bo'ladi. — U Palmerga burildi va yuzida zo'raki jilmayish paydo bo'ldi.

— Agar mana bu nusxaga ishonadigan bo'lsak, — Stekkert boshmaldog'i bilan Berns tomonni ko'rsatdi, — bugun Penemyundening o'n besh yilligi.

Uning yuzidagi tabassum sun'iy ravishda g'oyib bo'ldi.

Palmer qovog'ini uydi:

— Nahotki? Jin ursin, rostdanam shunaqaga o'xshaydi. — U stolga kelib o'tirdi va takrorladi: — O'n besh yil.

— Demak, Berns o'ylab topmagan-a? Shu to'g'rimi?

— O'n besh yil deganingizga qo'shilishim mumkin, — javob berdi Palmer, — ammo aniq sanasini ayta olmayman.

— Yo'q, shuning o'zi yetarli. — Shunday deb Stekkert Palmerning ro'parasiga kelib joylashdi. Cho'ntagidan katta, ikki buklangan va kirlangan yon daftarcha va yo'g'on, uchi to'mtoq qalam oldi-da, yozishga chog'landi.

Palmer unga qarab qo'ydi va o'yladi: nahotki endi hammasi o'shanday siyqa yo'l bilan bo'lsa? Yoki u shunchaki qitmirlik qilayaptimi? Tomoshani oxiriga yetkazish uchun Stekkertning hozir shlyapasini boshi orqasiga surib qo'yishigina qolgandi, xolos. Biroq "Star"da ishlovchi reportyorlarning uyga kirayotganida baribir shlyapalarini oladigan odatlari bor ekan.

— Shunday qilib, nimadan boshlaymiz, mister Palmer? — unga murojaat qildi Stekkert.

— Endi boshidan boshlasa bo'laveradi.

— Juda yaxshi, marhamat.

— Penemyunde qaerdaligini bilasizmi siz?

— Germaniyada. Allaqaerda, dengiz bo'yida.

— To'g'ri. Germaniyaning eng sharqiy qismida. Polsha bilan chegarada. Bu Boltiq dengizidagi orol bo'lib, Pene daryosi o'zaniga yaqin, u dengizga quyiladigan joyda joylashgan. Undan shimoli-g'arbda Fin qo'ltig'i bor, qit'ada esa — Greyfsvald shahri. Janubi-sharq tomonda Shchetsin shahri va Svinouyste deb ataladigan polyak shaharchasi joylashgan. Tushunarlimi?

— Tushunarli.

Stekkertning yuzidagi so'nggi shubha ifodalari g'oyib bo'layotganini kuzatarkan, Palmer kulib yuborishidan o'zini arang tutib turardi. Reportyorning qalami sariq yon daftarida allaqachon qandaydir qaydlar qilardi. Dalillarni qop-qop keltirib qo'yishi har qanaqangi shubhani bartaraf etishning eng yaxshi usuli. Palmer fotograf ham haykaltarosh san'atini suratga olishni bir chetga qo'yib, diqqat bilan quloq solayotganini ko'rdi. Hatto Virjiniya Kleri va Garri Elder ham unga diqqat bilan quloq solardi. Mark Berns deraza oldida turar va tashqaridagi manzarani tomosha qilardi. Biroq Palmer uning ingichka lablarida bilinar-bilinmas tabassum o'ynatganini payqadi.

— Bizning TF guruhimiz ikki "jip"dan iborat edi: komandir borayotgan bronevik va piyoda askarlar vzvodi o'tirgan yuk mashinasi, — dedi Palmer. — Yigitlarda pulemyotlar, ko'zdan yosh oqizuvchi o'qlar bilan o'qlangan bir nechta miltiq va bazukalar bor edi. Men unda mayor unvonida edim va men bilan yana bir leytenant va serjant bor edi. Qolgan unter zobitlar bizning tezkor guruhimizga kirmasdi.

— Iltimos, aytib bering-chi, tezkor...

— Ha, ha, — uning gapini bo'ldi Palmer, — bu uncha katta bo'lmagan, faqat maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan g'oyatda harakatchan guruh. U dushman qismlari bilan to'qnashmaslikka harakat qiladi, fuqaro mudofaasiga daxl qilmaydi va odatda, josuslik ma'lumotlari to'plash bilan shug'ullanadi. Bizning guruhimizga kelsak, u o'zida orqamizdan 12 soat farq bilan kelayotgan asosan ko'psonli qo'shilmalardan iborat avangardni o'zida namoyon etardi. Mening komandirim Eddi Xeygen edi. General Edvard X.Xeygen: ruslarning katta qo'shilmasi taxminan Penemyunde yonida turardi, bizdan ko'ra ancha yaqinroqda edi. Keyin bizdan ilgarilab ketib, u yerga birinchi bo'lib kirib borishlariga ishonardi. Ammo biz agar ular ilgarilab olishga hali jazm etmagan bo'lishsa, bizning birona tezyurar qo'shin qismlarimizdan biri ulardan oldinroq yetib borishiga umid qilardik.

— Xo'sh, nima bo'ldi?

— Unchalik emas, — dedi Palmer, — nemis razvedkachi olimlardan bir qanchalari rus qo'shinlari turgan joyga yo'l olib bo'lgandi. Boshqalari Amerika qo'shinlariga peshvoz chiqqani ketishdi va albatta, ularni topib olguningizcha ko'p ham kutishga to'g'ri kelmadi. Biz Penemyundega bir kun oldin yetib borishimiz ham mumkin edi, biroq yo'lda bir necha marta otishmalarga uchradik va bizda yaralangan asirlar bor edi — leytenant — mening mashinam haydovchisi va uch piyoda askar. Biz ularni komandir bronevigida olib borardik, chunki uning resorlari mustahkam edi-da. Yaradorlarni gospitalga yuboraversa bo'lardi, lekin biz bunday qilolmasdik, chunki Xeygen buyrug'iga bo'ysunardik. Biz Gamburgdan sharqqa, Rostokka qarab bormoqda edik va bu taxminan bir yuz yigirma mil masofani tashkil etardi. Greyfsvaldgacha oltmish mildan oshiqroq yurishimiz kerak edi. Shunda baribir bronevikni qalin daraxtlar orasiga yashirib qoldirishimizga to'g'ri keldi: yaradorlar tez yurgandagi

silkinishlarga bardosh berolmas edilar. Greyfsvaldan Volgastgacha yigirma mil edi, u yerdan Penemyundegacha esa besh mil ham chiqmasdi.

— Qancha nemisni asir ola oldilaringiz?

— Deyarli bitta ham. Bilasizmi, buni qo'shin qismlarini asirga olish bilan shug'ullanish deb aytib bo'lmasdi. Biz ularga qo'riqchilik qilardigu, durustroq qo'riqlash imkoniyatiga ega emas edik, chunki son jihatidan ular bizdan ko'plik qilar edilar. Biz bu ishni ular bizga o'zlarini quolsizlantirishga qo'yib berishlari uchun bajarar edik.

— Taniqli nemis olimlarining ishi qanday edi? Ular nimani mo'ljallar edilar? Nimalar deyishdi? Palmer yelka qisdi.

— Olimlar o'zlari ancha mag'rur turar edilar, ayniqsa taniqlilari. Darajalari quyiroqlari esa, ayniqsa siyosiy josuslar, picha ayanchli ko'rinar edilar. Biz ularni tutib olganimizdan keyin, ya'ni bu voqea sodir bo'lgandan bir hafta so'ng bir qancha juda taniqli olimlarni qo'ldan boy berganimiz ma'lum bo'ldi. To'g'ri, bizda fon Braun, Erike va Gausslar bor edi, bu esa chakki narsa emasdi.

— Gaussmi? — qayta so'radi Stekkert.

— Geynts Gauss. Portlashlar bo'yicha ekspert.

— Keyin u nima bo'ldi?

— Gauss shu yerda, Qo'shma Shtatlarda, — tushuntirdi Palmer, — u boshqalarga qo'shib ketgan. U... Men, to'g'risi, bilmayman, u, aftidan, bironta aviatsiya — raketa firmasida ishlayapti. Bir necha oy muqaddam u haqda gazetalarda bir nimalar yozishdi, agar yanglishmasam, bu "Star" edi.

— Jim ayni shu haqda yozadi, — miyig'ida kulib ming'irladi Berns, — buning uchun u gazetani o'qib o'tirmaydi.

— U haqda nima munosabati bilan yozishgan edi? — surishtirishda davom etdi Stekkert.

— Hozir yaxshi esimda qolmagan, — javob berdi Palmer, — bu qanaqadir dvigatel bilan bog'liq edi, u yangi yonilg'ida ishlardi, sinov chog'ida portlab ketgan. Qolganini o'zingiz bilib olaverasiz.

— Siz qachon bo'lsa ham o'zlaringiz asir olgan odamlar bilan hech uchrashganmisiz?

— Biz ularni asir olmaganmiz, — uning gapini tuzatdi Palmer, — bizning vazifamiz shundan iborat ediki, ruslardan oldin bu odamlarni topish. Biz o'zimiz bilan olib olgan odamlar esa o'zlari taslim bo'lishga ahd qilishgan.

— Siz ular bilan hech qanaqangi aloqa o'rnatganmisiz?

— Mutlaqo. Xeygen bilan, o'z-o'zidan ma'lumki, oldingiday do'stona ko'rishib turamiz. — Bernsga qarab qo'yib va keyin Stekkerga jilmayib, Palmer gapida davom etdi: — Sizlar nemislarning o'zlari bilan yoki Eddi Xeygen bilan gaplashsalarigiz, ko'proq qiziq bo'lishiga aminman. U hozir fuqarolik xizmatida va yirik kompaniyalardan birida ishlayapti.

— Lekin bu siz aytishingiz mumkin bo'lgan hamma narsa emas, — gapga aralashdi Berns, Palmerning stoli tomon yo'nalar va ayni vaqtda reportyorga qarab qo'yar ekan.

— Men endi bir narsani so'ramoqchi bo'lib turuvdim, — dedi Stekker, — shunday faoliyat bilan bog'liq sizday bir odam qanday qilib bank ishiga tushib qoldingiz?

— Bu mening asosiy kasbim.

— Yaxshi. Unda, ayting-chi, bunday faoliyat bilan qay tariqa shug'ullangansiz? — so'radi reportyor.

— Bu siz aytganchalik darajada emas... — deb Palmer gap boshlamoqchi bo'luvdi hamki, Berns baland ovozda gapini bo'lib dedi:

— Vatanga har xil yo'l bilan xizmat qilsa bo'ladi. Xalqning qornini to'ydirish uchun ba'zilar bug'doy yetishtiradi. Mister Palmer boshqa sohada ixtisoslashgan. U bankir, bu esa u milliy mablag'ni himoya qiladi degani va ... — Berns gapdan to'xtadi-da, labini yalab qo'ydi.

— Va milliy sanoatni moliya bilan ta'minlaydi, — qo'shib qo'ydi ta'kidlagannamo asta Virjiniya Kleri Stekkertning yon daftarini nigohlari bilan kuzatar ekan. — Bunda u milliy an'analar doirasida turib amal qiladi, bular erkin ishbilarmonlik va xususiylik. Sizlarning pullaringizni saqlab beradigan muassasalar ozmuncha emas. Biroq faqat tijorat bankigina tashkilotga foyda keltiruvchi sof amerika xususiy mulkini o'zida namoyon etadi. Boshqa tashkilotlar boshqa g'oyalar — jamoatchilik mulki,

moddiy manfaatdorlik ahamiyatini rad etish g'oyalari asosida tashkil etilgan. Bu hol, masalan, Rossiyada kuzatiladi, bu yerda...

— ... bu yerda Penemyundening qolgan nemis olimlari turibdi, — uning gapini bo'ldi Berns. — Bu yerda qanday aloqa borligini endi ko'rib turgandirsan, Jim? Bankir bu mintaqada Palmer o'ynagan rolni o'z zimmasiga olgani hech ham ajablanarli hol emas. Biri ikkinchisi bilan uzviy bog'liq, unisi ham, bunisi ham mutlaqo amerika g'oyalari muhofazasini ta'minlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Qog'ozda tez-tez sirpanayotgan Stekkertning qalami o'z tezligini pasaytirdi. Stekkert Palmerga qaradi-da, birdan so'radi:

— Demak, siz o'z faoliyatingizni aynan shu jihatda ko'rasiz, shundaymi?

— Yo'q, albatta, yo'q!

Reportyorning qo'lidagi qalam qotib qolgandi, u hayron bo'lib, ko'zlarini katta-katta ochdi:

— Bu qanaqasi?

— Mister Berns va miss Kleri aytgan gaplar men Penemyundeda bajargan buyruqlar bilan hech qanaqa umumiylikka ega emas. Urush bo'lib turganda, haqiqiy holat bilan yashaysan. Nima qilish kerak bo'lsa, shuni qilasan. Bu nimaga kerak, degan o'yni xayolingga keltirmaysan. Shunchaki kerak, vassalom...

— U aytmoqchiki, — shoshib gapga aralashdi Berns, — atrofda snaryadlar portlab turganda, o'ylashga vaqt qolmaydi...

— Bekor gap, — uning so'zini bo'ldi Palmer, — urush vaqtida necha martalab kutishga ham to'g'ri kelgan. Sizning yoshingizga qarab hukm chiqaradigan bo'lsak, mister Stekkert, siz buni eslashingiz kerak. Shunaqasi ham bo'lardiki, uzoq-uzoq kutardig-u, ammo juda oz o'ylar edik, jin ursin!

— Ha, esimda, — javob berdi reportyor, — to'g'ri, biz Remagendan nariga o'tmaganmiz, lekin men hammasini eslayman. — Stekkertning lablari bilinar-bilanmas egildi, ko'zlarida g'alati uchqun chaqnadi. U ko'zining qiri bilan Bernsga qarab qo'ydi, keyin esa Palmerga tikka boqib jilmaydi. Birinchi marta uning jilmayishi samimiy chiqdi.

Palmer ko'zlarini pastga oldi. Ha, voqea qaltis tus olmoqda edi. Reklama bo'limidagi uning odamlari reportyorning bejamoqchi bo'lgan jirkanch qalloblik uni barbod etishi hech gap emasdi. "Star" gazetasi muharriri tugul har qanday muharrir bunaqa dag'al uydirmanni rad etgan bo'lardi. Endi esa, uning raddiyasi xatga olinganda, Stekkert loaqal uning raddiyasini tushuntirib berish uchungina bu jirkanch uydirmalarning bir qismini biron-bir joyga tiqishtirsa bo'ladi.

(... "Mister Palmer urush davridagi uning faoliyati va hozirgi vaqtdagi tijorat banki vitse-direktori sifatidagi ishi o'rtasida mavjud har qanaqangi munosabatni sipolik bilan inkor etdi. Bu vazifalarning ba'zi umumiyliklarini e'tirof etish mumkin deb bilasizmi, degan savolga u rad etib turib aytdiki...").

— Iltimos, sal bundayroq qarab, — Palmerning qulog'iga fotosuratchining tovushi chalindi.

— Faqat haykalga yaqin bo'lib qolmasin, — ogohlantirdi Palmer.

— Bu yoqqa keling, — dedi Berns yana deraza oldiga kelib turib. — Bu yerdan shahar va ayniqsa park juda go'zal ko'rinib turibdi.

Shiftdan xonaga tushib turgan yorqin nurdan foydalanib, Kessler o'n-o'n beshtacha suvrat oldi. To Stekkert qoniqish hosil qilib bosh irg'amaguncha Palmer uning savollariga javob berib turdi. Xona eshigi tagiga yetganida Kessler yana bir qur haykallarga razm soldi.

— Yana bir marta kelib, bu narsalarni ko'rishimga monelik qilmaysizmi? — so'radi u Palmerdan.

— Marhamat, istagan vaqtda kelavering, — taklif qildi Palmer.

— Bilasizmi, bu haykalda nimadir bor-u, sira tushunolmayman. U mening ham g'ashimni keltiradi, ham undan ko'zimni uzolmayman.

— Ommadagi uning muvaffaqiyati siri ham shunda bo'lsa-chi, nima deysiz?

— Sizga nima deyishimni ham bilmayman, — tan olib dedi Kessler va Palmerning qo'lini qattiq qisdi. — Faqat bir narsaga aminmanki, unga har kuni sakkiz soat davomida tikilib turgan odam mardonalikka ega bo'ladi. — Virjiniya Kleri tomon burilib, u dedi: — Xo'p, hozircha xayr, Jinni. — So'ng Stekkert bilan izma-iz xonadan chiqib ketdi.

Ular ketgandan keyin hukm surgan skunat ichida Garri Elder eshikni yopdi va oh tortganga o'xshash qattiq xo'rsiniq bilan o'zini Virjiniya yonidagi o'rindiqqa tashladi.

— Qo'shilaman, — dedi Virjiniya.

— Eh, sizlar, ijtimoiy fikr ijodchilari, — alam bilan dedi Palmer o'z stoliga kelib o'tirarkan, — nahotki biron-bir odam bunaqa narsaga jiddiy tus beradi deb o'ylasangiz?

— Vudi, — ohangdor cho'zib dedi Berns, — Vudi, siz bu hujumni boplab qaytardingiz.

— Sizga shuning uchun pul to'lashar ekan-da, shundaymi? — so'radi Palmer. — Ya'ni, menga hujum qilganlarga siz yo'l ochib berganingiz uchun?

— Hazillashayapsiz deb umid qilsam bo'ladimi? — Kalovlandi Berns. — Nahotki men hujum qiluvchilarga yo'l ochib bergan bo'lsam? Bu barcha voqealar sizning ularni rad etishingizga mo'ljallab to'qilgan. Stekkert sizning har bir gapingizni qovurilgan yong'oqdek yutib turdi, — shunday deya Berns asta pishqirib qo'ydi. — Katta matbuot buni balandparvoz so'zlar bilan ta'riflashi hech gap emas: "Insoniylikning oliy zuhuri! Mutlaqo yangi jihat! Ohorlangan ko'ylak tagidagi jonli, qaynoq qalb!" Ko'rdingizmi? Palmer deganlari — bu xuddi menga o'xshagan oddiy va halol yigit! Reportaj "Star"da paydo bo'lganida hammaning og'zi ochilib qoldi.

— Siz ustamonlik bilan suvdan quruq chiqdingiz, — dedi Palmer. — Sizni bilgan odam bunga qobilligingizni yetti uxlab tushida ko'rmagan bo'lardi.

— Siz meni bepichoq so'ydingiz, — shikoyatomuz dedi Berns. — Jinni, qanday bo'lganini bunga o'zing ayt.

Virjiniya Kleri bosh irg'adi:

— Ha, Berns to'g'ri aytyapti, bu intervyuni u haqiqatan ham shu tariqa o'ylab qo'ygandi.

Palmer Garri Elderga yuzlandi:

— Siz ham bir narsa desangiz-chi, xudo xayringizni bersin!

Elder yana xo'rsindi:

— Bu to'g'ri.

Palmer har uchoviga sinchiklab nazar soldi. Ko'rib turibsizlar-ku, axir, ularga xayolan murojaat etdi u, kishi faoliyat ko'rsatish, nimadir yaratish, o'z kuchini omma farovonligiga sarf etish ishtiyoqida yonayapti. Nahotki ko'ngilchan bo'lganim uchungina boshqalar har doim mendan o'z maqsadlari yo'lida, o'zlarining qanaqadir ikir-chikir ishlari yo'lida foydalanadilar?

U ko'zini o'z stoliga oldi, nima uchun u go'yo uni chinakamiga faqat birgina Virjiniya sotgandek his qilishini tushunolmayotgandi.

Yigirma oltinchi bob

— Yo'q, — dedi Palmer Bernsning katta-katta qo'lbola qadahlariga kokteylning ikkinchi ulushini tayyorlarkan, — to anovi g'addor livanlik kelguncha kutib turishingizga to'g'ri keladi. Men nasihatnomani ikki bor o'qimoqchi emasman.

U burildi-da, qadahlarni shakli g'ayrioddiy gilam to'shalgan Bernsning mehmonxona bo'lmasidan ko'tarib ketdi. Yo'l-yo'lakay gilamning qalin pati uning botinkalarini so'rayotganday his qildi. Palmer Virjiniyaga uning qadahini tutqazdi-da, qarshisiga cho'kdi.

— Suhbatimiz haqida bitta-yarimtaning bilib qolishini istamayman va bu uni kabinetiga tayinlamaganimning yagona sababidir, — davom etdi u. — Boshladim deguncha ovozim ko'tarilib ketadimi deb qo'rqaman.

Virjiniya o'z qadahiga tikilib o'tirardi. Yuqoridan tushayotgan nur kokteylida, undan juvonning katta-katta qora ko'zlarida aks etardi. O'ynoqi nurlar ichida u lo'li qizlarga haddan tashqari o'xshab ketardi.

— Sizning hammadan ko'p nimadan jahlingiz chiqadi? — so'radi Virjiniya oxiri. — Umuman, bo'lib o'tgan narsami yoki men sizni oldindan ogohlantirmagan narsami?

— Men har ikkovingizga g'oyat...

— Chunki, — davom etdi juvon, — o'z majburiyatlariga qanchalik xushlamay munosabatda bo'lganini juda yaxshi bilaman. Mak lenchdan keyinroq "star"lik anovi guruh bilan birga hujum qilgan zahoti men qanday qilib bo'lmasin, sizga qo'ng'iroq qilishim kerak edi.

— Siz meni topolmadingiz. Men mashinada edim.

— Men sizni bank vestibulida tutib olgan bo'lardim, — e'tiroz bildirdi juvon.

Palmer o'zini kulishdan tiyib qoldi. U juvonning afsus qilganini biror marta ham ko'rmagandi. O'zining astoydil ta'kidlashicha, faqat ayrim odamlargina bunday iltifotga sazovor etgan.

— Tutib olgan bo'lardingiz, — qandaydir quruq ohangda dedi yigit.

— Lekin oldindan siz bilan kelishib olmay turib, Berns shunday qila olishi mening xayolimga kelgan bo'lsa, o'lay agar.

— Aslida unga men o'zim aytgan edim bu haqda, — iqrор bo'ldi yigit.

— Men o'ylabmanki...

— Shunday suhbat bugun tunda, to'g'rirog'i, soat ikkidandan keyin, ikkalamiz ham bo'kib ichib olganimizda bo'lgan edi, — tushuntirdi Palmer. — Men shunchaki Penemyunde haqida eslatgan edim, xolos. Endi ko'rib turibman, Berns bilan juda ehtiyot bo'lib muomala qilishim kerak ekan. Bitta ortiqcha so'z aytib qo'ysam, Nyu-Yorkning "Star"i boshida tegirmon toshi yurgizar ekan.

— Agar u o'z g'oyasini siz bilan baham ko'rmoqchi bo'lsa, siz uni bundan qaytarib qolishingiz mumkinligi haqida o'ylamaganmisiz? — so'radi Virjiniya hamon kokteyldan ko'z uzmay, bitta-bitta ho'play boshlab.

— O'ylaganman.

— Unda omadingiz bor ekan, siz... — Juvon jimib qoldi va qadahini o'rindiq yonidagi stolchaga qo'yib, Palmerga qaradi. Nur tushmaganda uning ko'zlari yanada qora va teran ko'rinar edi. Go'yo juvon ularning har ikkovini ikkita g'ordan turib kuzatganday. — Menimcha, — deb gapini o'nqlab oldi Virjiniya, — men avval sizlardan so'rab olishim kerak edi, xo'sh, sizningcha "Star"dagi maqolaning ishga nafi tegadimi, yo'qmi deb. Nazarimda, siz bunga aytarli e'tibor bermaysiz.

— Shaxsiy reklama omonat banklari bilan kurashda yordam berolmaydi, urush vaqtida men Penemyuneda bo'ldimi yo Timbuktudami, nima farqi bor, la'natini?

— Bu timsol yaratishga yordam beradi.

Palmer aftini burushtirdi:

— Sal tushunarliroq qilib aytsangiz-chi!

— Biz gazetchilarning o'z lahjamiz bo'ladi, — dedi juvon, yana qadahni olib. — Ammo timsol yaratish — bu baribir nimanidir anglatadi. Ommada siz haqingizda bir tasavvur paydo bo'lgan, ya'ni jamoadagi sizning borligingizni biladiganlar ichida. Maqola "Star"da paydo bo'lgandan keyin siz mashhur bo'lib ketasiz, siz haqingizdagi tasavvur yanada mufassal bo'ladi, mufassallik esa ijobiy bo'ladi: omilkor, aqlli, irodali, oyog'ida mahkam turadigan odam.

— Bunday timsolni siz to'g'ri deb bilasizmi? — Savolni berishga berdi-yu, Palmer uni qaytarib olish va abadiy yerga ko'mish mumkin emasligini anglab, "attang" deb qo'ydi ichida.

Uning Virjiniya Kleri bilan munosabatlarida nimadir o'zgarganini va ehtimol abadiy o'zgarganini u anglay boshlagandi. Bu hol ziyofatda, ular raqs tushishganida va keyin, uyga qaytishganida sodir bo'lgandi. Bu o'zgarish, Palmer hozir anglaganidek, juvonda sodir bo'lgandi.

Oraga cho'kkan bir oz sukunat ichida Virjiniyaning yuziga qarashga qo'rqib, Palmer birdan yaqqol va aniq angladiki, ular har doim bir-birlariga qiziqib kelishgan. Bu, nafsilamrini aytganda, mutlaqo tabiiy edi, chunki juvon bevosita uning qo'l ostida ishlaydi. Shu bilan birga ular Shraftnikida ziyofatda bo'lgan oqshomda Palmer ziyofat oxiriga kelib Virjiniyaning unga nisbatan qiziqishi sovuganini yaqqol his etgandi. Faqat xizmat yuzasidan munosabatlarga qolgandi, lekin bu juda iliq munosabatlar edi. Kechagi tundan keyin bu sovuqlik erib ketdi. Endi o'zini hech nimani bilmaganday qilib ko'rsatish qiyin. Bu odamlarcha munosabatlardagi eng yomon jihat, o'yladi u. Bu taxlitdagi manfaatdorlikni uzoq vaqt mensimaslik va ishchan vazminlikni saqlab turishning imkoni yo'q. Iliq munosabatga javob

qaytarsang bo'lgandi, o'sha zahoti tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'yganini bilasan-qo'yasan. Masalan, timsolning sadoqati haqida savol berish unga shunchalik zarur kelganmidi?

— Bu sadoqatli timsol, — nihoyat Virjiniya shunchalik jiddiy ohangda javob berdiki, Palmer unga qarashga majbur bo'ldi. Juvon xiyol o'zini orqaga tashlab o'tirar, ko'zlari chuqur g'orlar ichidan uni ortiq kuzatmas edi. Shiftdan tushayotgan nur uning bo'rtiq yonoqlarini tekislaganday edi.

— Bu sadoqatli timsol, — takrorladi juvon, — Vudi-Palmer-kichik ismli men ko'rgan odam timsoli.

— Mister Palmer telbalik timsolimi?

Juvon bosh chayqadi:

— Murakkab mister Palmerning timsoli. — Virjiniya xo'rsinib qo'ydi va o'z qadahidan ozgina ichdi.

— Juda achchiq ekan, — dedi u. Keyin yana ichdi. — Juda yaxshi viski ekan.

— Bo'lmasa-chi!

— Biz Makka to'laydigan pullarni nazarda tutganda, — dedi juvon, — u o'ziga eng yaxshisini sotib olishdan qaytmaydi.

Palmer o'rnidan turdi.

— U beshu o'ttizda kelishi kerak edi. — Telefon qidirib, Palmer atrofga alangladi, uni topdi-da, raqam terdi.

— Aytmoqchi, — dedi Virjiniya, — nazarimda, Mak shu markaning importchisi bo'ladi va hoynahoy, viskini bepul oladi.

Palmerning qulog'iga telefonchi qizning ovozi chalindi:

— Mister Berns o'zidami? — so'radi Palmer. — Bu mister Palmer. — U tinglab turdi, tashakkur bildirdi va go'shakni qo'ydi. — Kommutatordagi qizlar aldashni do'ndirishadi deb o'ylagandim.

— U muhim majlisga ketgan ekanmi? — taxmin qildi Virjiniya.

— Qo'ng'iroq qilganda telefonchi qiz unga mening telefonogrammani uzatadi, — gapini tugatdi Palmer, — qiz tushmagar qaysi telefonogramma ekanini bilmaydi-ku.

— Juda ham uzoq gapmidi?

— Bir necha harf, xolos.

Juvon miyig'ida kulib qo'ydi-da, ozgina viski ho'pladi.

— O'ylashimcha, siz u bilan juda apoq-chapoqsiz. Siz bilan uning fe'lini e'tiborga olinadigan bo'lsa, bu g'oyat noyob hodisa.

— Bizning hamma ishimiz joyida.

— Shunaqa deng? Hammasi joyidami?

— Bundan ortiq qanaqasi kerak?

U qo'lini cho'zib qadahni ko'tardi va aftidan, qadahga jilmayib qo'ydi. Missisipidan sharqqa tomon barcha shakarguftorlar ichidan eng ayyori sifatida bironta mukofotga arziysiz. Siz haqingizda o'ylaganimni eshitmasligingiz uchun birpasning o'zida ikki marta suvdan quruq chiqdingiz-a.

— Tinglashim kerakmidi?

— Nega endi "yo'q" ekan?

— Nega endi "ha"?

— Birinchi bo'lib men so'radim. — Juvon yana viskidan ho'pladi. — Gap shundaki, men tabiatan bitta aytganida turib oladiganlardanman. Agar e'tiborimni tortgan narsa baholarimga qiziqish bildirmasa, bu menga xuddi benzina yoqilgan gugurtday ta'sir qiladi. Men o'z fikrlarimni bayon etish istagida yonaman. Chidab turolmayman.

Palmer o'z o'rindig'ida xijolatomuz qimirlab qo'ydi.

— Nima bo'lganida ham men jentlmenman, sizga jabr qilishim haqida o'ylashga ham toqatim yo'q. Baribir bir narsani bilmoqchiman, bu sizga nima uchun shunchalik zarur?

— Mening nazarimda, — dedi juvon go'yo ovoz chiqarib o'ylayotganday, — fikrlaringizni bayon etishni yoqtirmasligingiz sababiga o'xshagan sabab tufayli.

— Nima, men rad etyapmanmi?

— Siz tutqich bermayapsiz.

— Bu qaysidir ma'noda to'g'ri ham.

— Har bir odamga mening unga nisbatan munosabatim mutlaqo ayonligini ma'lum qilmagunimcha oyoq-qo'lim bog'liqday sezaveraman.

— Har bir odamga?

— Mening uchun ahamiyatga molik bo'lgan har bir odamga.

Palmer bosh irg'ab qo'ydi-da, viskidan og'zini to'ldirib ho'pladi. Bir soniyadan so'ng juvonning so'zlarida paydo bo'lgan g'alati bosh aylanishini yo'qotishga muvaffaq bo'ldi. Pirovardida, dedi u o'zicha, ko'plar uning uchun ahamiyatga molik. Men, masalan, uning boshlig'iman. Bunda hech qanday aytarli gap yo'q.

U yana bir qultum yutdi, qadahni qo'ydi va balkonga ochiluvchi eshik tomon yaqinlashdi. Balkon shu binodagi barcha balkonlar singari binoga qiyalatib qurilgan edi, ularning har biridan daryo manzarasi ko'rinib turishi uchun shunday qilingandi. Palmer bu oqshom tez qorayib ketayotgan suvga qaradi, unda Kuinsboro ko'prigining chiroqlari bamisoli abadiyat qa'riga kirib ketayotgandek jim-jim aks etib turardi. Orqadan muz parchasining shishaga urilgan ovozi chalindi. Bir soniya o'tib, Palmer juvonning qadahni qo'yganini eshitdi. Mana, juvon deraza oldida u bilan yonma-yon.

— Bu manzarani yanada go'zalroq qilsa bo'ladi, — dedi Virjiniya.

— Qanday qilib?

— Hozir ko'rsataman.

Juvon nari ketdi va bir lahzadan so'ng xona chirog'i o'chdi, juvon esa deraza yonida u bilan yonma-yon turardi.

— Chiroq yorug'i xalaqit bermaganda ko'ring, — dedi juvon, — hamma narsa yorqinroq bo'ldi. Bir pasdan keyin so'nggi quyosh nuri ham so'nadi va osmonda faqat kechki shafaq qoladi. Agar omadimiz chopsa, daryoda kemani ham ko'ramiz. Haqiqiy kemani, yukchi yoki shatakchi kemani emas. Agar havo sal iliq bo'lganida biz ularni balkoning o'zidan tomosha qilgan bo'lardik.

O'zining azaliy kunjkovlik odati bo'yicha (darvoqe uning yaxshi bankir bo'lib yetishuviga shu yordam bergan edi) Palmer shunday fikrga keldi: Mak Berns derazasidan ko'rinuvchi bu manzarani u qayoqdan bu qadar yaxshi biladi? O'zi ham kutmagan holda quyidagi savolni berganini eshitdi:

— Bu yerda oldin ko'p bo'lganmisiz?

— Ko'p emas. Bir gal bo'lgan edim.

— YuBTKga ishga kirishingizga qadar Bernsni shaxsan bilarsiz deb xayolimga keltirmagandim.

— Bilardim. Ko'plab gazetchilar biladi uni.

— Ishonsam bo'ladi.

— U bu yerda Vik Kalxeyn uchun shaxsiy yo'riqlari yig'inlarini o'tkazadi. Bu an'anaga aylanib qolgan. Barcha yig'ilishlar norasmiy bo'lib, hech qaerda e'lon qilinmaydi.

— Tushunaman.

Palmerga qarab olish uchun juvon unga tomon o'girildi.

— Tushunasiz?

— Albatta.

— O'z-o'zidan ma'lum, — davom etdi juvon Palmerning oxirigacha aytilmagan savoliga javob qaytararkan, — bunday hollarda men daryodan uzoq zavq ololmas edim. Lekin mening uch-to'rt do'stlarim uylarining derazalari daryoga qaragan. Buning ustiga men o'zim ham atigi bir mahalla narida turaman. Kechqurunlari bu yerda aylanish yoqimli. Bu manzaradan men yil bo'yi zavq olaman.

— Bu... ha-ha... yaxshi.

— Qiziq, — birdan dedi juvon, — men ko'pincha tushunmayman — siz mening javobimdan qoniqasizmi yoki o'lguday zerikarlimi sizga. Bu qanaqa chehra!

— Sokin va toshday.

— Bankirga... yoki o'yinchiga xos oliy darajadagi chehra.

Palmer bosh irg'adi. So'ng so'radi:

— E xudoyim, Berns qaerda o'zi?

— U hozir kelib qoladi.

— Ho-o... hali bu tomoshani birga tuzganmiz deng? — so'radi Palmer. — Rang-barang manzara, bossning tomog'ini moylab, hayfsanni yumshatish maqsadida achchiq ichimlikmi?

— Ichimliklarni siz tayyorlagandek bo'lib ko'rindi menga.

— Ha, to'g'ri. Esimdan chiqibdi.

— Mening tag'in ichgim bor. Sizga ham zarar qilmas, balki.

Palmer bar tomonga yo'l oldi. Ko'chadan tushib turgan g'ira-shira yorug'likda zo'rg'a narsalarni ajratoldi.

U aniqlik kiritdi:

— Menga ortiq kerak emas, lekin shunday bo'lsa-da, yana ichaman.

— Xonimning bir o'zi ichishiga janob yo'l qo'ymagani uchun.

— Men janob va siz xonim bo'lmaganingiz uchun, — dedi Palmer, yangi kokteyl tayyorlar ekan. — Men bankirman, siz esa jamoatchilik bilan munosabatlar bo'yicha mening yordamchimsiz. — U juvonga qadahni tutdi-da, telefon tomonga ketdi. — Xudo xayringizni bersin, chiroqni yoqib qo'ying. Men diskni mutlaqo ko'rmayapman.

— Makka yana bir telefonogramma yuborishga hozirlanayapsizmi?

— Yo'q, — u go'shakni joyiga qo'ydi, — harholda, yo'q. — Palmer deraza oldiga qaytib keldi. — Qarang, kema! — dedi u.

— Bu nima, yukchi kemami? Qarang, juda bahaybat-ku!

Telefon jiringladi. Virjiniya darhol go'shakni oldi.

— Mister Bernsning kvartirasi, — dedi juvon. — Hoy pastkash nusxa, qayoqqa tushib qolding?

— Menga bering-chi, — iltimos qildi Palmer. Juvon uning ko'ksiga qo'lini qo'yib, uni to'xtatib qoldi. — Uoldorfda? Mak, bu qanaqasi? Sen bu yerda bir soat oldin bo'lishing kerak edi-ku? — Quloq solib turarkan, juvon qo'lini Palmer pidjagining jiyagiga tekizdi-da, bir nimani qoqib tashladi.

— To'qqiz yarimda! — dedi Virjiniya. — Xo'sh, seningcha biz bu yerda nima qilishimiz kerak ungacha? O'tirib olib, bank ishlarini muhokama qilaylikmi?

— Go'shakni bering, — dedi Palmer.

Juvon boshini qattiq-qattiq chayqadi.

— Mening ham odamlarday jahlim chiqsa kerakdir, — dedi u go'shakka, — garchi bu mister Palmer g'azabiga nisbatan hech nima bo'lmasa ham. — Uning qo'li Palmer ko'ksini yumshoq bosib turardi. — Bu qanaqa bema'nilik, — dedi juvon go'shakka. — Biz asta uyga jo'navoramiz. Lekin u sening ertaga ertalab to'qqizda huzurida bo'lishingni talab etayapti, hatto uning huzurida o'z vaqtida bo'lishing uchun yotib uxlashingga to'g'ri kelmasa ham.

Palmer uning qo'lidan tutib, o'zidan narilatdi va uni Virjiniyaning soni yonida tutganicha telefonga uzaldi.

— Bir daqiqa, — u sen bilan gaplashmoqchi, — dedi Virjiniya.

— Nega hayallab qolding? — so'radi Palmer bor kuchi bilan o'zini ushlab.

— Vudi, azizim, — gap boshladi Berns yig'loqi ohangda. — Ko'kragim osti shunaqangi zirqirayaptiki, nima qilishimni bilmayman. Bu yerda uch nafar yigit turibdi, mening eng muhim savdom shularga bog'liq. Ayrim eng muhim narxlarning o'zgarishi xususidagi masala bo'yicha vijdonan mutlaqo yopiq majlis o'tkazayapmiz. Sizlarga qo'ng'iroq qilgani boshqa xonaga chiqishga majbur bo'ldim. Rost, Vudi, men kechi bilan 9.30 da kelaman.

— Menga ertaga 9 da kelsang bo'lgani, — sovuq ohangda dedi Palmer. — O'shanda gaplashamiz. (Virjiniyaga) Menga tushuntirib berasiz, "Yunayted benk" ishidan ko'ra qaysi bitim muhim? — U go'shakni ilgakka asta solib qo'ydi.

— Telefon simida 20⁰ nuldin quyi, — bidirladi Virjiniya.

— Jin ursin uni! Ammo hamma gap shundaki, men unga ishonmayman. Shu nimaga kerak ekan-a?

— Chunki Mak aldamasa turolmaydi. Hozir balki aldayotgani yo'qdir. Ammo shubhalanib to'g'ri qilasiz.

Ular o'ygaga tolqancha birpas turib qolishdi. Birdan Palmer juvonna qo'lidan tutib turganini payqadi. U barmoqlarini yoymoqchi bo'lgan edi, biroq harakati haddan tashqari aniqligidan qo'rqib ketdi.

— Mayli, — uning qulog'iga kirdi, — qo'limni qo'yib yuboravering.

— Nima?

Yigitni quyuqlashib kelayotgan qorong'ilikda yaxshiroq ko'rish uchun Virjiniya o'girilib oldi.

— Hechqisi yo'q, — dedi u deraza tomonga odim tashlab va shu bilan birga qo'lini bo'shatib. — Hechqisi yo'q.

Palmer oqshom osmoni uzra juvon qiyofasining xira shaklini kuzatardi. Zaif nurdan jimir-jimir qilib turgan oqshom ko'lkasi Virjiniyani uning yonida turganidagidan ko'ra balandroq qilib ko'rsatardi. Yigit uning yoniga bordi.

— Siz bir narsani bilib qo'yganingiz yaxshi, — dedi Palmer juvonga emas, balki derazaga qarab, — chikagoliklarga dunyoviy sayqallik yetishmaydi.

— Mening nazarimda, ularda ko'p narsa yetishmaydi.

— Masalan?...

Palmer uning bosiq xo'rsinganini eshitdi.

— Yurak, — oxiri dedi juvon.

— Bizlarga qancha buyurgan bo'lsa, shuncha berilgan.

— Undan ortiq emas. Lekin sizlarning ba'zingiz, aftidan, shuni ham his etmaysiz.

— Mening Berns bilan sovuq muomala qilganim uchun shunday dedingizmi?

— Zinhor yo'q. — Juvon oldinga egildi, uning do'ng peshonasi deraza oynasiga tiraldi. — Ba'zida o'ylab qolaman, Nyu-Yorkda muvaffaqiyat qozonish uchun sizlar shunday bo'lishingiz kerakdir ham.

— Endi men mutlaqo hech narsa tushunmayapman.

— Daryoga bir qarang, — dedi juvon. — Bir zaylda yaltirab turadi. Qop-qora, tez, yashirin oqimlar, g'ayur suvosti toshlari va ular oralig'idagi noma'lum ilonizi yo'llar. Har zamon-har zamonda menga shunday tuyuladiki, faqat muzdek zirhli yurakka ega bo'libgina bu shaharda omadli bo'la olasizlar.

— Mening o'z rentgen suvratlarini ko'rmaganimga ancha bo'ldi, biroq...

Ikkovi anchagacha jim qoldi.

— Ammo men ko'rib turibman, — oxiri dedi juvon. — Ichingizda turli odamlarning qandaydir qorishmasi bor. Qo'shaloq ko'rgazma buyumiga o'xshash bir nima kelib chiqadi. U yerda qaynoq odam va muzdek odam bor.

— Har kimda shunaqa.

— Rostdanmi?

— Menimcha, ha. — Palmer xiyol u tomonga burildi va juvonning uni zimdan kuzatayotganini ko'rib ajablandi.

— Qaynoq odam seni musibatga giriftor qiladi. Sovuq odam undan chiqib olishga yordam beradi.

— Musibatga?

Yigit noaniq qo'l silkitib qo'ydi:

— Asoratlar. Ziddiyatlar. Qiyinchiliklar.

— Bu musibat emas, — yumshoq ohangda e'tiroz bildirdi juvon, — bu shunchaki hayot.

— Bordi-yu, siz ham bo'lsangiz, unda hayot — ming karra iflos narsa.

— Shundoq ham.

— Tartibsiz hayot, — qo'shib qo'ydi Palmer.

— Juda.

— G'oyatda mungli.

— Har doim.

— Ishongim kelmaydi, — dedi yigit. — Bu... bu... — U yana noaniqlik bilan qo'l silkiib qo'ydi va qorong'ida juvonning qo'lga tegib ketganini sezdi. So'ng juvonning barmoqlari uning qo'lidan tutganini his etdi.

— Sarosimaga solib qo'yuvchi hayot, — dedi yigit.

“Qo‘lini tutib tursammikan yo qo‘yib yuborsammikan? Xuddi qaynoq kartoshkaday birdan qo‘yib yuboraymi yo asta-sekinmi? Haligi ikkalasi xususida miyamga hech narsa kelmayapti, ammo eng qizig‘i shundaki, bu yerda aql bir pul”, — o‘yladi Palmer.

— Bunga ham ishonish qiyin, — dedi u ovozini chiqarib.

— Siz osonlikcha qizishmaysiz, shunday emasmi?

— Hech qachon qizishib ketmayman, — juvonning gapini to‘g‘riladi yigit.

— Nahotki hech qachon qizishmasangiz?

Palmer asta kulib quydi:

— Men shunday narsa boshimdan kechgan kamdan-kam hollarda juda afsus qilaman.

— Bu endi dahshat.

Hatto qorong‘ilikdan ham u juvonning burilganini va uning yuziga tik boqib turganini ko‘rdi. Deraza ortidagi ko‘prik chiroqlari uning ko‘zlarida mayda uchqunlar yoqdi.

— Ehtimol. Ammo bu haqiqat.

— Bunday halokatli e‘tirofni men umrimda eshitmaganman.

— Meni umuman har qanday vaqtda quvnoq deb atash qiyin. Hozir esa, ehtimol, o‘zimni eng yomon his qilib turgan vaqtim bo‘lsa kerak. Ustimda kimdir turganini hecham yoqtirmayman, ayniqsa Mak Bernsni.

— Nimani yoqtirasiz, xo‘sh? — Kutilmaganda so‘radi juvon.

— Tinchlik va xotirjamlikni. Tartibni.

Juvon bosh irg‘adi: “Qanday zo‘r, qabrda tinch va osuda, ammo unda kim senga ochadi og‘ush?” — o‘zicha iqtibos keltirdi u.

Palmer xo‘rsinib qo‘ydi.

— Bugun kun bo‘yi muhrlar bilan jonimni sug‘urib olishgandi. Endi siz Marveldan iqtibos keltirayapsiz.

— Men uchun bu hech qachon muhr bo‘lmagandi. — Unga juvonning odatdagi past ovozi yana pastroq eshitilganday bo‘ldi va u o‘zining shafqatsiz bo‘lib ketganini angladi.

— Men istamagandim...

— Bilaman, — tasalli berdi unga juvon. — Biroq Marvel nimani nazarda tutgan bo‘lsa, men aynan shunday deb o‘ylagandim, — Juvon chuqur xo‘rsindi. — Men buni o‘zimga emas, sizga nasihat tarzda iqtibos keltirgandim.

U juvonning qo‘li xiyol titraganini sezdi.

— Lekin mening ishim nasihatlar o‘qish. G‘oya bo‘yicha men ularga quloq solishim kerak, shunday emasmi?

— Ertaga. Soat to‘qqizda. — Yigit uning qo‘lini asta siqib qo‘ydi. — Siz u yerda husn bo‘lib turasiz. Men haqiqatan ham nasihat o‘qiydigan bo‘lsam, bu Bernsga o‘qiganim bo‘ladi.

— Rahmat. — Juvon bir daqiqa taraddudlandi. — Siz odamlar bilan muomalada shunaqa har doim rasmiyatchimisiz? Xuddi shaxmat taxtachasidagi har bir yurishni biladigan birinchi darajali shaxmatchiday.

— Har doim emas.

— Qizishib ketishdan o‘zimizni tiya olganingizdami? — so‘radi juvon, jo‘rttaga g‘ashiga tegmoqchiday.

Yigit deyarli uning qo‘lini o‘zidan itarib tashladi.

— Bo‘ldi, — keskin ohangda dedi u. — Siz o‘zingizni ayollik jozibangizdan foydalanishga harakat qilayapsiz.

— Ha.

— Bir necha daqiqadan buyon.

— Kechirasiz. — Juvon undan o‘zini chetga tortdi. — Kech bo‘ldi. Uy-uyimizga boraylik.

Xona ichi qorong'i edi, deraza ortidagi shahar esa juda uzoq ko'rinardi. Yigitni yolg'izlikning achchiq tuyg'usi qamrab oldi. Juvon uning faqat qo'ldan ushlab turgan edi, biroq o'zini tortgach, o'zini mutlaqo tashlandiq his etdi. Endi bo'lsa ular ketishayapti.

— Yo'q, — dedi yigit. — Kechiring meni. Buni sovuq odam aytgan edi.

Juvon kiprik qoqmay, joyidan qimir etmay turardi.

— Qaynoq odam nima deydi bo'lmasa?

— U... — Palmer tomog'i g'alati tarzda bo'g'ilganini his etdi. — U... — U yo'taldi, biroq tomog'idagi achchiq narsa ketmadi. — U he-hech nima demaydi, — qulog'iga chalindi uning va o'z ovozi bazo'r tanidi. U mashaqqat bilan tutilib aytgan bu so'zlar nazarida uning tomog'ini yanada qattiqroq bo'g'di. U bir lahzada ko'zini yumdi-da, fikrini jamlab oldi. — U hech nima demaydi. — Zo'rg'a takrorladi u.

— Hech qachonmi?

— Aftidan, u... — Palmer jimib qoldi va og'ir xo'rsindi. Tomog'idagi zo'riqish go'yo o'pkasiga ham yoyilganday bo'ldi: u qiyinchilik bilan kerakli havoni yuta oldi. U asta ko'zini ochdi, xuddi o'zini rostlab olmoqchiday qaddini tikladi, yana bir marta yutoqib nafas oldi-da, tez qo'shib qo'ydi:

— Af-aftidan u o'-o'lgan.

— Ho-o!

— Ancha oldin, — so'zini tugatdi Palmer. So'zlar uning og'zidan qiyinchilik bilan, xuddi ingraganday chiqdi. Tomog'iga yana bir narsa kelib tiqilishini sezib, Palmer shosha-pisha juvonga intildi. U juvonning qo'llaridan tutdi va muzdek barmoqlari uning issiq badanini his etdi. Palmer uni o'zi tomon tortdi va atirning zaif dudli hidi bamisoli uni yutib yubordi. Juvonning yumshoq lablari xiyol ochildi va yigit viskingning kuyindi hidini tuydi. Juvonning qo'llari uning yon-veridan chirmab oldi. Palmer avvaliga asta-sekin, keyin esa tobora tezroq g'arq bo'la boshladi.

Yigirma yettinchi bob

Mak Berns, aftidan, shoyi choyshabda uxlar ekan — voqelikning birinchi tetik va aniq sezgisini Palmer mana shu ajabtovur kayfiyat bilan tuydi. U bir yoniga yonboshladi-da, choyshabga qaradi. Qorong'ida uning joyimi yoki yo'qligini aniqlash qiyin edi. Chap tomondan yotoqxona bo'lmasining derazasiga zaif yog'du tushib turardi. Yog'du manbai yo'lning narigi yog'idagi bir necha qavat pastdagi kvartirada edi va shu bois yog'du uning boshi uzra shiftda to'rtburchak shaklda ko'rinardi. Palmer choyshabni silab qo'ydi, barmoqlari ostida asl matoni sezdi, so'ng xo'rsindi-da, yana o'zini chalqancha tashladi. Uning boshi g'ijimlangan yostiqa. U o'z badaniga qaradi. Mana, ko'p yildirki, Palmer bo'sh vaqtida unga razm solmaydi va hozir oyoqlarim haddan tashqari ingichka degan xulosaga keldi. To'g'rironi, agar xolisona aytadigan bo'lsa, u umuman keyingi vaqtda to'lishdi, oyoqlari esa yoshligida qanday bo'lsa, o'shandayligicha qolaverdi, — ortiq qiyofasiga mos kelmay qo'ydi. Palmer qorniga, to'q-mallarang tuklariga, oyoqlariga qaradi, oyoq barmoqlarini asta qisirlatib qo'ydi. Jin ursin o'sha Bernsni! Axir shoyi choyshabdan bunaqa sharqona hashamga o'rgansa bo'larkan-ku.

Juvonning oyoqlari ko'rinmasdi. U Palmerdan o'ngda qorni bilan yuztuban yotar va bir tekis nafas olardi, uning uxlayotganiga Palmer amin edi. G'ira-shira yog'duda uning ikkala dumbasi xuddi oq-pushtirang shirinlik paxtaday do'mpayib turar, shunaqasi beliga o'tib ketar edi. Uning nigohi yuqoriga o'rmalagan sari do'ngliklar oralig'idagi botiqlik sayozlashib borardi. Beldan yuqorida daryo o'zaniga o'xshash yana bir pastqamlik paydo bo'ldi va yelka mushaklariga yetmaguncha chuqurlashib boraverdi, u yerda yuqoriga qarab ketuvchi yana bir soylik bo'lib, u to'zib yotgan jingalak sochlar tagiga kirib ketardi.

Palmer tirsagiga suyandi-da, Virjiniyaga boshqa burchakdan qarash uchun keng ko'rpaga o'tirib oldi.

— M-m-m, — ming'irladi juvon boshini ko'tarmasdan. — Soat necha bo'ldi?

Palmer qo'liga qaradi va soatini olib qo'rganini ko'rib, hayron bo'ldi. Berns karavoti yonida turgan safar budilnigining tsiferblatiga tikilib qaradi.

— Sakkiz yarim, — javob berdi u. Uning ovozi go'yo uzoq tanaffusdan so'ng to'satdan bor kuchi bilan yurgizib yuborilgan eski uskunaga o'xshab g'oyat bo'g'iq va titroq chiqdi. Juvon xo'rsindi va boshini burib, unga qaradi. — U yarim soatda shu yerda bo'ladi.

— Hm.

— Jin ursin! — Juvon qo'lini cho'zdi va kafti bilan uning ko'ksini artdi. Palmer tuklarining yengil shitirini eshitdi.

— Ha, topdim, — dedi juvon, endi butunlay uyg'onib.

U Palmerning ko'ndalang yotib oldi-da, karavot yonida turgan telefon go'shagiga cho'zildi. Uning siynalari Palmerning ko'ksi ustidan asta sirg'alib o'tdi. Juvon go'shakni oldi.

— Eldorado 5-3110 ni ter.

Raqamni terar ekan, yigit Virjiniyaning go'shakni uning qulog'iga qo'rganini, o'zi esa boshini uning boshiga yopishtirib olganini sezdi. Go'shak ikkovining o'rtasida bo'lib qoldi. — Uoldorf Tauers, — telefonchi qizning ovozini eshitdi Palmer.

— Mister...m-m... mister Karmodi, — iltimos qildi Virjiniya.

Biroz jimlikdan keyin telefonchi qiz javob berdi:

— Mister Karmodi bir oyga bir joyga ketgan.

— Unda menga... m-m... mister Dreshlarni bering.

— Bir daqiqa.

Go'shakni olgunlaricha talay vaqt o'tdi.

— Ha, — erkak kishining ovozi keldi.

— Mister Berns shu yerdami?

— Bilmadim, kim so'rayapti?

— "Yunayted benk"dan miss Kleri.

— Birpas sabr qiling.

Ular yonma-yon yotgan kuta boshlashdi. To Bernsning ovozini eshitgunlaricha yana ancha vaqt o'tdi.

— Panja, meni bu yerdan qanday qilib topding?

— Sen hali ham Uoldorfda ekansan-ku. Uyga 9.30 da kelaman deb laqillatishingga balo bormidi?

— Sizlar hali ham o'sha yerdamisizlar?

— Men bir soatdan beri uydaman, endi butun oqshomga chiqib ketayapman. Faqat odamni ahmoq qilganingni do'stona aytib qo'ygani telefon qilayotuvdim, xolos.

— Palmerning rosa jahli chiqqandir-a?

— Muzday sovuq. Uning qo'li tekkan narsa muzga aylanib qolayapti. Ertasiga ertalab uning oldiga kelganingda issiq palto kiyib ol.

— Shu qadar sovuqmi?

— Sibir. — Juvonning qo'li Palmerning ko'kragi bo'ylab pastga harakat qildi va kindikkacha yetdi.

— O'lguday sovuq nusxa. — U Palmerning qornini siypalay boshladi.

— Hech ilojini topolmadim, izladim, — o'zini oqladi Berns. — Buning ustiga men unga kerak bo'lganimdan u menga ko'proq kerak.

— Sen nohaqsan. Uning o'zi qoyil qiladi. — Juvon Palmerning qornini bosdi, biroq erkak og'riqni sezgunicha qo'yib yubordi. — Nima bo'lganda ham kelasi safar butun tunni boshqa mijoz bilan o'tkazishdan oldin ikki marta o'ylab ol.

— Kim o'tkazar ekan butun tunni?

— Sen. Palmer seni kutmay qo'ygandan keyin.

— To'g'risini aytsam, men baribir 9.30 ga ulgurmas edim. Uning uchrashuvni bekor qilganidan boshi osmonga yetdi. Biz bu yerda soat 6 dan beri o'tiribmiz va endi ishning yarmini qiloldik.

— Menga sening pullaring bo'lsa bo'lgani, Mak.

- Menga sening jamoling bo'lsa bo'lgani, qizaloq.
- O'zingga o'zing xizmat ko'rsataver, — dedi juvon. — Ertaga vaqtida kelgin-da, nohaqligingni bo'yningga ol. Bu hammamizning ahvolimiz yengillashuviga ancha yordam beradi.
- Sen do'stim, do'stginam.
- Yaxshi, ko'rishguncha.
- Virjiniya go'shakni endi joyiga qo'yimoqchi bo'lganida Bernsning zaif ovozi eshitildi.
- Ha, Mak?
- Ikkovingiz mening kvartiramda vaqtni qanday o'tkazdingiz deb so'rayapman.
- Virjiniya barmog'i bilan Palmerning chap ko'kragiga bosdi. — Men senga uning aniq ta'rifini berdim, — javob berdi juvon. — Sibir.
- Juda yomon.
- Kimga?
- Kimga bo'lardi? — Berns kuldi. — Palmer mo'maygina luqmani boy berdi, panja.
- Bu haqda sen nimani ham bilarding, kallavaram?
- Aqlim yetadi. Ertaga rosa to'qqizda ko'rishguncha.
- Xayr.
- Juvon Palmerning ustidan cho'zilib, go'shakni joyiga qo'ydi. Yuzlari yuzlariga to'g'ri kelganda esa Virjiniya uning pastki labidan asta tishlab qo'ydi.
- Ixtiyorimizda endi yana ko'p vaqt bor, — shivirladi juvon. — U nima deganini eshitdingmi?
- Palmer bosh irg'adi:
- Bunaqa suhbatlarda qachon ishtirok etishimga to'g'ri kelganini eslay olmayman.
- Bunda aytarlik hech gap bo'lgani yo'q, — unga qo'shildi Virjiniya. Bo'salardan uning ovozi yarmigacha bo'g'ilib qoldi. Juvon o'tirib oldi-da, unga diqqat bilan razm soldi.
- Charchaganga o'xshaysan.
- Ammo baxtliman.
- Ammo charchagansan.
- Qo'ysang-chi, — javob berdi yigit. — Judayam ishdan chiqib qolgan darajada emasdirman. Lekin men maxsus mashqdan o'tmagan edim.
- Bordi-yu, meni uyaltirib qo'yishga harakat qilganingda ham baribir hech narsa chiqmaydi.
- Ayollar — boshqa gap.
- Sen kuzatuvchansan. — Juvon qo'lini uning badani bo'ylab yurgizdi. — Ha, butunlay qo'lidan ish kelmaydigan darajadasan deb bo'lmaydi. — Uning qo'li quloqqacha yetdi. — Mana shu yerda eng yaxshi joylar boshlanadi.
- Hammasi yaxshi ovqatlanishdan.
- Qo'l ohista pastga harakat qildi.
- Oliy nav, — dedi Virjiniya bir soniya o'tgach. Birmuncha vaqt ular jimib qolishdi. Juvon qo'lini oldi va uning tomonidagi karavot yonida turgan stolchada yotgan sigaretalarga cho'zildi.
- Beraymi?
- Ber.
- Juvon har ikkala sigaretani tutatdi, o'zinikidan tutunni ichiga tortdi va uni shiftdagi to'rtburchak yog'duga qarab pufladi.
- Men hech bir odam ko'zi bilan ko'rolmaydigan narsani ko'ra olaman, — dedi juvon.
- Palmer bor bo'yicha karavotga cho'zilib, qulayroq yotib oldi. U oyoqlarida yengil, yoqimli og'riq va qorin mushaklarida charchoq his etdi.
- Aytib ber-chi.
- Bu sen uchun butunlay yangilik ekanini ko'rib turibman.
- "Bu" deganingni to'laroq ta'riflab bera olasanmi?
- Bu... vaziyat. Bu... munosabatlar.
- Yangilik emas, — javob berdi Palmer. — G'ayriodatiy.

- Qanaqasiga g'ayriodatiy bo'larkan? Qachondan buyon?
- Axir sen g'oyibdan ko'ruvchisan-ku, — eslatdi Palmer.
- Afsun zarralari xiralashgan. Ammo shakl yaqqolroq ko'rinayapti. Sana hali juda ham xira. Ammo bu uylanishdan ancha oldin ro'y bergan.
- Yigit teskari o'girildi-da, soatning yashiltob raqamlariga qaradi. So'ng ko'zlarini yumdi.
- Kechir meni.
- Nima uchun?
- Sening hafsalangni pir qilganim uchun.
- Qaydan bilding?
- O'zim bilmayman, — g'amgin xo'rsindi juvon va sigaretani o'chirdi. — Bunday narsalarda men uncha kuchli emasman, — dedi u. — Na tajribam bor, na mashqim. — U cho'zilib sigaretani oldi va kalta tortib qo'ydi.
- Mening tilim achchiq va tik holatda topqirman, ammo to'shakda zarur chaqqonlikka erishmoq uchun bu bilan ko'p shug'ullanmaganman.
- Ana xolos, — dedi yigit unga qarash uchun burilib yotarkan, — bizning uyatli sirlarimiz endi xatga tushgan.
- Qanaqa uyatli sirlarimiz?
- Qanaqa deysanmi? Bu mening birinchi xiyonatim, bu ushbu masalalarda sening ham yirik mutaxassis emasliging.
- Juvon labini burib qo'ydi-da, unga sigaretani qaytardi.
- Siz bankirlar doim yakun yasashga shoshasizlar.
- Albatta.
- Lekin biz ikkovimiz o'z vazifamizni a'lo darajada bajarganimizga iqror bo'lishing kerak, — o'ychan dedi juvon. — Endi-chi? — U jim qoldi va nimanidir o'ylab, qoshini chimirdi.
- Palmer tutunni oyog'iga pufladi.
- Men hali ham nutq qilish ishtiyoqidaman, — dedi u. — Buning uchun so'z topolmayman, ammo ko'nglimdagini aytish zarurligini his etib turibman.
- Qanaqa nutq ekan?
- Bo'lib o'tgan gaplar haqida.
- Menga nutqning hojati yo'q.
- Lekin menga hojati bor, — so'zida turib oldi Palmer. — Sen kutib tura olasanmi?
- Istaganingcha.
- Yaxshi. — U sigaretani o'chirdi va chalqancha yotgancha pastga surildi, uning boshi matrasga tushib qoldi.
- Iltimos, uxlab qolma, — dedi juvon.
- Uxlamayman.
- Hozir uxlab qoladiganga o'xshayapsan. Hozir shunaqa bo'shang, yalqov va landovursanki.
- Men emas, mening eng yaxshi bo'lagim.
- O'lguday kulgili!
- Men o'ylayapman va u tap-tayyor bo'ladi, — ishontirdi u juvonni.
- Tarki odat — amri mahol, — Virjiniya uni kuzatish uchun bir yoniga burildi. — Sen o'ylamayapsan, — dedi u, — qiynalayapsan.
- Unchalik emas.
- Gunohkorlik hissi yashirin senda.
- Hali paydo bo'lgani yo'q.
- Hozir paydo bo'ladi.
- Shunaqaga o'xshaydi, — uning fikriga qo'shildi Palmer. — Bu har doim shunaqa bo'ladimi?
- Ha.
- Nega sen o'zingni gunohkor deb bilishing kerak ekan? — so'radi Palmer.

— Bunga sabab ko'p.

U juvonga qaradi va haddan tashqari ichkari yotganidan Virjiniyaning boshi uning boshidan baland bo'lib qolibdi. U juvonning bir ko'tarilib, bir tushayotgan siynasiga qaradi. Jigarrang-pushti tusli mammachalari bilinar-bilinmas titradi. U asta qo'lini cho'zdi va mammachalardan birini ushladi. Mammacha shishib, uning qo'liga qadaldi.

— Biz har doim xayol surishni keyinga tashlab qo'yaversak bo'ladi, — dedi juvon.

Yigit keskin harakat bilan kaftini uning siynalariga bosdi va ularning yoqimli ilig'ini avval kaftlarida, so'ng barmoqlarida his etdi. Juvon unga tomon surildi.

— Sovuq odam o'lgan, issiq odam emas, — erkakning qulog'iga shivirladi u.

Palmerning qo'llari juvon badani bo'ylab sirg'aldi va og'zi bilan yutoqib nafas oldi, so'ng u yana juvon badanining huzurbaxsh ummoniga g'arq bo'la boshladi.

Yigirma sakkizinchi bob

Palmer uyg'onganida soatning yaltiroq millari 9.30 ni ko'rsatib turardi. U Virjiniyani ushlamoqchi bo'lib o'girildi, biroq yonida hech kim yo'q edi.

To'shakda o'tirib olib, u qop-qorong'i xonaga ko'z yugurtirdi. Shu payt uying allaqaeridan dushning ochilgan ovozi qulog'iga chalindi; bir daqiqadan keyin surilma eshik qattiq sharaqladi; sharaqlagan ovoziga qaraganda, bu dushxona eshigi edi. U oyoqlarini karavot qirrasidan oshirib otdi-da, o'rnidan turdi. Biroq o'sha zahoti yana o'tirib oldi.

Miyig'ida kulib, u yana ko'tarila boshladi, bu safar ancha sekin, son va yelka mushaklarini yengil, uzoq og'riq qamrab olganini his qilib turardi. Ishtonini qidirib, u u yoq-bu yoqqa qaradi, qarasa u qora kombinatsiyasi ichida ekan, kiyib oldi. So'ng oyoq yalang mehmonxona bo'lmasidan yurib o'tdi-da, hammomxonani qidirib topib, eshikni chertdi.

— Yaxshi holatdamisan?

— Har doimgiday.

Palmer eshikni ochdi va artinayotgan juvonning badaniga mahliyo bo'lgancha to'xtadi. Yotoqxona bo'lmasidan tushib turgan g'ira-shira yorug'da u g'oyatda nafis va yumshoq ko'rinar — ravon qaddi-qomat, maftunkor siyna va sonlar. Bu yerdagi kunduz chiroqlari yog'dusida juvonning ingichka qobirg'a izlari, yelka va boldir mushaklari alohida nafasat ila ko'zga tashlanardi.

— Nigohingni shisha ichiga yashirib qo'ymoqchi edim, — dedi juvon bir lahza artinishdan to'xtab.

— Men bu shishani menga ma'naviy ko'mak kerak bo'lgan hollardagina ochishni istar edim.

— Mening ko'nglimda hech qanday ma'naviylik yo'k.

— Hamma gap shunda. — Juvon oyoqlarini artib bo'ldi-da, qaddini rostladi. — So'ragani biroz kech qoldim-u, — davom etdi u, — ammo men senga yoqaman, shekilli.

— Ha.

Juvonning ko'zlari katta-katta ochildi:

— Tap tortmay aytayapsanmi?

Palmer xo'mraydi:

— Zaharxandalikni qo'y. Busiz ham bugun sen menga juda ko'p narsa qilding.

Go'yo yigitning gaplarini yaxshilab eshitib olmoqchiday juvon boshini xiyol egdi.

— Men esa seni doim men uchun qilasan deb o'ylab yurardim.

— Ha, bilasanmi, — gap boshladi Palmer, — sening hayotingda dastlabki qulay payt topildi deguncha o'zini oyog'ingga tashlashga tayyor o'n-o'n beshtasi uchrasa ehtimol...

— Men haqimda shuncha narsani qayoqdan bilasan? — Uning gapini bo'ldi juvon, — hayotimda o'n-o'n beshtasi uchrashini?

— Men bilmayman, ammo sen ajoyibsan.

— Rahmat. — Juvon oynaga o'girildi va barmoqlari bilan sochlarini savalay boshladi. Oynada ularning ko'zlari to'qnashdi. — Men seni hayratga solmoqchiman, — dedi juvon.

— Yanami?

— Bilasanmi, — davom etdi Virjiniya, — men... seni nima deb chaqiray? Ishda o'zim bilaman, lekin bu yerda-chi?

— Uzoq vaqtgacha meni Palmer-kichik deb kelishdi, — javob berdi Palmer. — Hech qachon bunday qilishga urinma.

— Ko'rdingmi... Vuds, — dedi juvon. — Vudimi?

— Qani, qani. Bir qiynal-chi.

Juvon o'girildi-da, unga jilmayib qaradi.

— Vuds, men senga hayratomuz e'tirof qilmoqchiman. Nima bo'lganda ham men uchun u hayratomuz. Cho'milayotib, hisob qilib chiqdim. Menda bunaqa narsa bo'lmaganiga qariyb ikki yil bo'libdi.

— Sen haqsan, bu taajjub.

— Rostdanmi? Bu shuning uchunki, buni o'zim xohlamagan edim — bir necha marta.

— Nyu-yorklik erkaklarga rahmim keladi.

Juvon bosh irg'adi.

— Men senga bir vaqtlar uchrashishimizga to'g'ri kelgan nyu-yorklik erkaklar haqida so'zlab beraman. — Juvon yaqin bordi-da, qo'lini yigitning yelkasiga qo'ydi. Juvonning badani muzday va g'oyat tarang edi. — Lekin hozir emas. Biz xonani bo'shatib qo'yishimiz vaqti kelganini sezayapman.

— Navbati bilan.

— Qat'iy ravishda, — rozi bo'ldi juvon. — Men birinchi chiqib ketaman. Lekin ketishdan oldin men bu yerni biroz sarishtalayman.

— Yo'q, buni o'zim qilaman, — turib oldi Palmer. — Buni qanday uddalashni men ancha yaxshi bilaman.

Juvon bir lahza unga hayron bo'lib qaradi, so'ng:

— E-ha! Sobiq josuslik zobiti. Nahotki u yerda olgan barcha saboqlarni shundoq esda saqlab qolgan bo'lsang? — dedi.

— Bular saboqlar emasdi, miyani yuvish edi. Bunaqasini unutib bo'lmaydi.

Virjiniyaning barmoqlari uning yelkasini qisdi.

— Bitta bo'sa, mana shunday holatda, — dedi u. — Kiyingandan keyin u qadar bo'lmaydi.

Kirib kelgandagi emas, boshqa eshikdan chiqishni aytib, Virjiniya ketgach, Palmer o'zi his etayotgan qandaydir g'alati tuyg'uning tagiga yetishga harakat qilgach, mehmonxona bo'lmasi o'rtasida bir lahza turib qoldi. Birozdan so'ng u anglab yetdi: yengillashgan ekan.

Visol uchun qulay sharoitga qaramay unda yaqqol notinchlik hukm surmoqda edi. Berns qaytib kelib qolishi va ularni birga ko'rib qolishi mumkin. Xavf o'tib ketgani uchun emas, balki hech bo'lmaganda Virjiniya ketishi bilan tartib o'rnatishning birinchi bosqichi nihoyasiga yetdi.

Palmer qadahlarni, muzli chelakni ko'zdan kechirdi va ular hech qanaqangi sirni oshkor qilmaydi degan qarorga keldi. U yotoqxona bo'lmasiga kirdi va chiroqni yoqdi. Karavotning ahvolini ko'rib, uning kayfi uchib ketdi. U o'z narsalarini hammomxonaga olib borib qo'ydi, qaytib keldi va karavotdagi matratsdan boshqa hamma narsani olib tashladi. So'ng matratsga to'shalgan, qattiq g'ijimlanib ketgan choyshab o'rniga boshqa silliqrog'ini yoyib qo'ydi. Bunda yotadigan navbatdagi odamga matratsdagi choyshabni ko'rib olish qiyin bo'lmasligi uchun shunday qildi, oldingisi esa adyol tagidan deyarli ko'zga tashlanmas edi. Palmer yostiq jildlarining teskarisini ag'dardi, yostiqlarni do'pposladi va yopqi choyshabni qo'li bilan tekisladi. Ikkala kuldonna mehmonxona bo'lмага olib bordi, ichidagilarni o'sha yerda turgan katta kuldonga to'kdi, kichkinalarini ho'l qog'oz salfetka bilan tozalab artirdi va qog'ozni unitazdan oqizib yubordi. Qaytib kelib, kuldonna karavot yonidagi stolchaga qo'yish uchun u yana bir marta xonaga ko'z yugurtirib chiqdi va hatto tizzasida cho'kib, karavot tagiga ko'z soldi — tag'in bitta-yarimta sirg'asi tushib qolmaganmikin?

Josuslarni "musaffo uy" degan bir san'atga o'rgatar edilar. Bu shulardan iborat bo'lardi: barcha xonalardan yashirin tinglaydigan apparatlar, telefonlar, simlarni olib tashlash, oynadan kuzatish imkoniyatini yo'qotish. Bu har qanday holatda majburiy narsalar bo'lardi — josus uyni bir soatga, bir haftaga yoki butunlayga tark etadimi, farqi yo'q. Odatdagi turmushdan ajratib turuvchi biron-bir narsaning borligini bildiradigan hech narsa qolmasligi kerak. Va nihoyat bu san'at yana g'anim josus uyiga kirib borish texnikasini ham o'z ichiga olardi, uyni o'rganish va undan chiqishda maxfiy tintuv izlari qolmasligi kerak. Benuqson avtomatizm san'ati. Palmer shu narsani jonidan ardoqlar edi, chunki u o'ylash zaruratidan xalos qilardi.

U yotoqxonaga bo'lmasidagi chiroqni o'chirdi va eslashga harakat qilib bir daqiqacha eshik oldida turib qoldi — bu oqshom boshida u ochiqmide yoki yopiqmide? Hammasi yashin tezligida sodir bo'ldi. Ular divanda emas, qachon yotoqxonaga bo'lmasida paydo bo'lib qolishganini hatto eslolmasdi ham, biroq endi unga go'yo u yopiqday tuyulmoqda edi. Demak, kel, shundoq bo'la qolsin.

U hammomxonaga kirdi va Virjiniya artingan sochiqni ushlab ko'rdi. Sochiq u qadar ho'l emasdi. Demak, Berns yarim tunda qaytib kelganida, u qurib qolgan bo'ladi. Lekin bundan tashqari, bu shuni bildirardiki, agar sochiq quruq qolgan desa, Palmer cho'milmay qo'ya qolishi kerak. U shosha-pisha o'ziga suv sepdi-da, "klineks" yozuvli qog'oz salftkalar bilan artindi. Qog'ozning mayda parchalari badaniga yopishib qoldi. U o'zini shulardan tozaladi-da, tezda kiyindi.

Shoshish zarurligini his etib u yanada tezroq harakat qilishga majbur bo'ldi. U bilardi: Berns bundan erta qayta olmasdi. Lekin bilib bo'ladimi... To'satdan Palmer o'zini va nimalar qilayotganini go'yo tashqaridan ko'rdi. Josuslik xizmatining mushohadalardan xalos etuvchi qoidalarga teskari o'laroq bu qiyofa daqiqa sayin yaqqolroq ko'zga tashlanmoqda edi.

Faqat endi, unitaz ustida o'tirib, botinka bog'ini bog'lay turib, bugun oqshomgi barcha voqealar nechog'li mo'jizakor ekanini angladi. Josuslikda orttirgan malakasi bir ajoyib kunda unga nafaqat bir chaqaga olmaydigan, balki Palmerni shunday qilishga undagan odam bilan noqonuniy visoli alomatlarini yashirishga yordam berganini ham angladi. Bu haqda obdon o'ylab ko'rganida Palmerning ko'z o'ngida bu holat o'zining butun bema'niligi bilan namoyon bo'ldi.

Sochiqni tekislar ekan, u umuman urinib-chirinishga arziydimi o'zi, degan xayol miyasiga keldi. So'ng bu xayolni miyasidan chiqarib tashladi.

U hammomxonadan chiqib, to'satdan yana qaytib kirdi. Yuzini burishtirib, u yana bir necha salftka oldi, surma oyna eshikni qunt bilan artdi, sovun surdi va qo'lidan kelganicha poldagi halqobchalarni artib chiqdi. Ho'l qog'ozni unitazga tashlab, suvni qo'yib yubordi.

"Klineks" salftkalari. Palmer vannaxonadagi chiroqni o'chirdi, eshikni yopib qo'ydi, (Shundaymide? Shunday edi) va mehmonxona bo'lmasining o'rtasida, oq gilam ustida bir daqiqacha turib qoldi.

U shu holda turar ekan, fikrlashdan o'zini tiyib turolmadi, albatta.

Shu ishni qilish shartmide o'zi?

Palmer otasining axloqiy qoidalari bo'yicha o'zini uchchiga chiqqan ahmoqdek tutayotganini bilib turardi. Agar otasiga ta'sir qilganida, bunday hol yuz bermas edi, chunki otasi o'z xizmatkoriga tanbeh bermoqchi bo'lsa, u buni iloji boricha alayna-oshkor qilar edi. Maxfiy, shaxsiy uchrashuv tayinlash haqidagi fikrining o'zi otamga oliy darajadagi qo'rqqoqlik bo'lib ko'rinardi. Biroq keyin Palmer otasining hech qachon Mak Bernsga o'xshagan unga tobe odami bo'lmaganini o'yladi.

Palmerning nigohi kokteyl stolchasida turgan ikki qadahga tushdi. Ulardan birining gardishida labbo'yoqning yoy shaklidagi cho'g'dek dog'i bor edi. U dog'ni o'chirib tashlash niyatida stakanga cho'zildi. "Klineks". "Klineks". Palmerning qo'li havoda muallaq qoldi. U Virjiniyaning bu yerda bo'lish (bu haqda Mak Berns biladi-ku!) izlarini yo'qotishga urinishida vahima alomatini ko'rdi. Modomiki vahima bor ekan, demak uning sababi ham bo'lishi kerak-ku?

Palmer o'tirdi va qo'lga Virjiniyaning qadahini oldi. U yuragida allaqanday bezovtalik his etdi — go'yo achchiq, suvo'tlar qoplagan, sariq po'rtanal xufiya gunoh daryosi tashqariga otilib chiqib, yuragini suv bosib bormoqda edi.

Bo'lmagan gap, o'yladi u. Nafsilamrini aytganda, men boshqa odamman. Virjiniya nohaq. Sovuq odam o'lmagan. Hammasini boshqa qaynoq odam qildi, ammo o'sha qaynoq odam aslida men emas. U labbo'yoq dog'i qanday paydo bo'lib, qanday yo'qolayotganini kuzatar ekan, qo'lida qadahni asta aylantirdi.

“Seni nima deb chaqiray? — so'radi u. — Ishda-ku o'zim bilaman. Ammo bu yerda nima dey?”

Bu yerda nima deydi? Ularning bu yerga yana kelishlari mumkinligini o'ylashga nima izn berdi? Sovuq odam nima qilishi mumkinligini juvon tasavvur ham qilolmaydi. Har narsa qila oladi. Ishdan hayday oladi. Har narsa qila oladi. Undan qutulish, bo'lgan gaplarni xotiradan o'chirish unga qiyin emas. Tasodifiy hodisadan, sof jismoniy aloqadan, shunchaki bilib-bilmay qilingan yaqinlikdan tashqari, pirovardida, bu nima bo'lishi mumkin?

Qadahni aylantirar ekan, Palmer yorqin izning qayta-qayta paydo bo'layotganini kuzatdi. Qadahni biroz ko'tarib va sinchiklab o'rganarkan, u g'oyatda zaif xushbo'y hidni, juvon atirining, uning labbo'yog'ining qorishiq iforini tuydi. U qadahni burniga olib keldi-da, havoni asta va chuqur ichiga tortdi. Birdan o'zi kutmagan holda qadahning qirrasini tili bilan yalayotganini his etdi. U ko'zlarini yumdi-da, o'zini o'rindi suyanchig'iga tashladi.

U endigina yorqin eslagan iliqlik, ha, iliqlik uning vujudini yayratmoqda edi. Tilidagi juvon labbo'yog'ining ta'mi tomog'ini ehtirosli ishtiyoq ila kuydira boshlagandi. Uzoqdan avtomashina tezligining almashgandagi ovozi qulog'iga chalindi. U istamaygina ko'zlarini ochdi-da, qadahni stolga qo'ydi. Uydan shoshib chiqar ekan, u tilining uchini tanglayiga qattiq surdi.

Palmer liftidan eng pastki qavatga tushdi va bir-biriga ulanib ketgan yo'laklarni oralab o'tib xizmatchi eshikka yetib keldi.

Yana ko'p martalab foydalanishni bilib, u qaysi yo'laklardan o'tib kelganini esida saqlab qolishga harakat qildi.

Yigirma to'qqizinchi bob

Palmer o'z mehmonxonasi yonida taksidan tushdi va shveytsarga e'tibor bermasdan tezgina mo'jaz vestibuldan lift tomonga o'tdi. O'zlarining bu muvaqqat oshiyonlariga ko'chib o'tgan dastlabki kundanoq u Palmerga yoqmagandi, Lift oldida eshik ustidagi so'nggi qavatning yoyi bo'ylab asta harakat qilayotgan milni kuzatib turar ekan, u bu la'nati mehmonxonaga nisbatan yuragida nafrat hissini tuydi. Bu o'zining ko'hnaligi, boshqalardan ajralib qolganligini, hayotdagidan ko'ra bu yerda ko'proq bo'lgan mungli jigarrang tusi bilan bosib turuvchi tangu tor xona edi.

Hozir ham bu yaramas liftning yuqoriga ahmoqona qatnovini nihoyasiga yetkazishini betoqat kutar ekan, uni yashashga majbur etishgan bu didsiz, kulgili, beso'naqay binoga nisbatan alohida adovat hissini sezib turardi. U bu yerda istiqomat qiluvchi chollarni yomon ko'rardi va xizmat qiluvchi xodimlarning malaylarcha surbetliklariga nisbatan ko'nglida chuqur nafrat tuyadi. U qariyb shu narsaga amin ediki, yo'lka chekkasiga kelib to'xtagan taksini ko'rib, shveytsar o'sha zahoti keraksiz topshiriq bilan liftchini yuqoriga jo'natib yuborgan.

Qavatlarni ko'rsatguvchi mil yuqorigi “12” raqamiga yetganini, chayqalganini va ehtimol, butunlay to'xtaganini Palmer kuzatib turardi va bu uning jonini chiqarmay qo'ymasdi. To'g'ri, boshqa lift ham bor edi, biroq, odatda, u vestibul qavatda ochiq, bo'm-bo'sh va qop-qorong'i bo'lib turaverardi.

Palmer liftidan teskari o'girildi-da, yuzaga kelgan vaziyatga mutlaqo beparvodek ko'rinishga harakat qildi, chunki xizmatchilarning barchasi bundan maza qilish niyatida ko'zlarini uzmay qarab turishardi. Soatiga qarab yubormaslik uchun u sigareta olishga qo'lini cho'ntagiga suqdi, biroq bitta ham sigareta qolmabdi. Ko'zining qiri bilan qarab, u mil yana qimirlaganini va yoy bo'ylab yana iziga qaytayotganini ko'rdi.

Demak, qulay payt keldi, birdan fikri yorishdi Palmerning. Tutilib qolganidan minnatdor bo'lish o'rniga u uning yaqinlashib kelishiga intiq edi. Endi esa, bu narsa sodir bo'lay-bo'lay deb turgandi,

uning yuragi shuvillay boshladi.

U Virjiniyaning deyarli haq ekani haqida o'yladi. O'zining butun oilaviy umri davomida bunaqasi bo'lmagandi, ya'ni hech bo'lmaganda shunga o'xshaganrog'i bo'lmagandi, o'zining gapini o'zi to'g'riladi Palmer. To'g'ri, o'n yilcha muqaddam Los-Anjelesda bir voqea sodir bo'lgandi, o'shanda Eddi Xeyin tungi soat uchda bo'kib ichib olgandan keyin Palmerning xonasiga ikki nafar uchiga chiqqan fohishani olib kirishdi. Hatto o'shandan keyin ham Palmer nima bo'lganini aniq-tiniq eslay olmagandi. Shu oqshomning klinik, deyarli muolajalik muhitini u juda yaxshi eslaydi: go'yoki u me'daning kuchli ifloslanishidan aziyat chekayapti; shunda qiz tantanavor tusda uning oshqozonini yaxshilab yuvgandi. Endi Palmerning eslashicha, o'sha qiz juda ham chiroyli edi. "Bu yerda dunyodagi eng go'zal fohishalar ishlashadi," — deb uni ishontirgandi Xeygen. Bundan tashqari qiz sabr-bardoshli va oqko'ngil edi. Shungacha bironta ham ayol zoti uning uchun, to'g'rirog'i, unga bu qadar g'amxo'rlik ko'rsatmagandi. Avvaliga bu Palmerga qandaydir taajjubli bo'lib tuyulgandi. Ketar chog'da Xeygenning qizlarga yuz-yuz dollardan tutqazganini ko'rgach, uning taajjubi biroz susaygandi. Ilgarigi bilan hozirgisining o'rtasidagi farq shundan iboratki, deb o'yladi Palmer, erinibgina kelayotgan liftning qaysidir qavatda to'xtagan ovoziga quloq solarkan, Los-Anjelesda u jismoniy lazzat olmagandi — hammasi deyarli uning ishtirokisiz sodir bo'lgandi. U bilan qiz o'rtasida faqat mutaxassis tabib va bemorning halol munosabatlarigina bor edi, xolos va nihoyat, Chikagoga qaytib kelishidan avval butun bir hafta o'tgandi, bu hafta davomida g'ira-shira xotiralar go'yo g'ilof tagiga yashirib tashlangandi. U Edisni bokira, dilbar va vafodor bir holatda uchratishga muvaffaq bo'lgandi.

Bugungi ish boshqacha edi.

Lift eshigi ochildi va undan iljaygan liftchidan boshqa hech kim chiqmadi:

— Ha, mister Palmer, ser.

Bugungi ish boshqacha edi, mushohada qildi Palmer lift xonasi yuqorilab borar ekan. Hislarini tartibga solib olishi uchun esa uning vaqti yo'q edi.

Ular kerakli qavatga juda tez yetib borishdi.

— Marhamat, ser.

Palmer o'z kvartirasiga qarab ketdi. Eshikka yaqinlashganda qadamlarini sekinlatishga sira odatlanmagan edi, bu gal ham shunday bo'ldi. Biroq uning fikrlari go'yo eng quyi tezlikka tushirib qo'yilganday edi. Bog'lamdan kerakli kalitni topguniga qadar Palmerning fikrlari vazmin va jiddiy tus oldi. Bu hol quyi tezlikka solayotib "jip" haydovchisi loyga botgan mashinani chiqarib olish uchun g'ildiraklarning aylanishiga zo'r berganiga o'xshab ketardi.

— Kim u?

— Xayrli kech, Edis, — dedi u eshikni ichkaridan zichlab yoparkan.

— Men Edismas, Jerriman.

Palmer orqasi bilan eshikka suyandi-da, bir lahza ko'zlarini yumdi.

— Oying qani?

— Ular sizni rosa kutdilar, — dedi qizi yo'lakdan unga tomon yurib kelarkan. U yalang oyoqlarning har doimgiday polga og'ir-og'ir shapillab urilganini eshitib turardi. — Keyin ketdilar.

Palmer ko'zini ochdi-da, qiziga qaradi. Endi 11 yoshga kirsa ham yalang oyog'i bilan bo'yi 167 smga yetgandi. Dahlizdagi g'ira-shira yorug'da uning yaltiroq sochlari odatdagidan ko'ra qoraroq bo'lib ko'rinardi. Tikka farq qoq ikkiga bo'lib turgan sochlari rafaelcha usulda yelkasiga tushib turardi, so'nggi vaqtda yoshlar orasida bu ancha keng urf bo'lgandi. Modomiki, 11 yoshga to'libdimi, o'yladi Palmer, Jerri o'zini bo'y yetgan qiz deb hisoblasa bo'laveradi. Uning oqish chehrasi onasiga tortgan, yoz paytlarda yengil sepkil qoplaydi. Biroq yuz tuzilishi esa Palmerning o'zi — cho'zinchoq, ensiz va yonoqlari chiqiq. Ko'zlarining, o'zicha dedi Palmer, ilgari ham bir necha marta payqaganimdek, bir-biridan uzoqligi mening o'zimday, tiniq va tim-qoralikni esa Edisdan olganday, biroq yuqorigi ko'z milkining g'alati tarzda salqi tortib turishi uning chehrasiga sharqona tus berib turadi.

— Soat 10 dan oshib ketibdi-ku, — dedi u.

Jerri terlagan burni uchini otasining iyagiga surtib oldi, ingichka qo'llari bilan belidan quchoqladi va

uni shunaqangi qisdiki, Palmer nafas ololmay qoldi.

— Vudi hali ham uxlagani yo`q, — dedi qiz bo`g`iq ovozda.

— Top-chi?

— Uxlayapti.

— Baxtiyor Jerri esa uyqusirab yuribdi-yu, uxlamayapti.

— Hecham uyqusiraganim yo`q-da, — e`tiroz bildirdi Jerri, otasiga qarash uchun orqasiga tisarilib.

— Galstugingizga nima bo`ldi?

Palmer boshini egib qaradi — galstugi bir tomonga og`ib ketibdi. U to`g`nog`ich qadashni esidan chiqargandi. Ko`ngilsiz bir sezgi bilan u darhol galstuk to`g`nog`ichi Berns uyining allaqaerida qolganini esladi. Biroq shu zahoti anglab yetdiki, hatto Berns uni topib olganida ham bu unga hech narsani fosh etmaydi: bor-yo`g`i bitta to`g`nog`ich-da — tikuv ignasidan biroz uzunroq, mittigina oq dumaloq boshchasi bor. Berns uni Palmerda hech qachon ko`rmagan, chunki uni doim ko`ylak ichkarisidan to`g`nab olardi, shunda galstukning qadab qo`yilgani sezilmaydi. Bunday to`g`nog`ichlar idora buyumlari sotiladigan har qanday do`konda qutilab yotadi.

— To`g`nog`ich tushib qolgan bo`lsa kerak, — izoh berdi Palmer.

— Boshqasini to`g`nang-da, jo`nang. Berkxardtnikida bir soat burun bo`lishingiz kerak edi, — dedi Jerri.

— Nima?

— Menga qichqirmang.

— Ey xudoyim! — Dahlizda turgan toshoynaga o`zini solish uchun Palmer o`girildi. Unda yuzidagi ifodani anglab bo`lmas bir ozg`in odamni ko`rdi. Kostyumi joyidaligiga e`tibor qildi. Pidgeoni uloqtirdi-da, u yotoqxona bo`lmasiga otilib kirdi, yo`l-yo`lakay galstugi va ko`ylagini yechdi.

— Voy dadajon-ey! — yozg`urdi Jerri uning izidan chopib. — Hech yetib bo`lmaydi-ya sizga!

Yangi ko`ylagini kiyar ekan, Palmer uni yana kimdir kuzatayotgandek his qildi. U qayrilib yotoqxona bo`lmasi eshigiga qaradi va ostonada o`ychan va sarosima bir holda turgan to`ng`ich o`g`li Vudini ko`rdi.

— Dadamning hech bunaqa o`zlarini urganlarini ko`rganmisan? — qichqirdi Jerri ukasiga.

— Dada, — gap qotdi o`g`li, — tijorat gazetasi nima degani?

Palmer qoshini chimirdi.

— Juda paytini topib gapiradigan ma`sum qobiliyating bor-da, — dedi u tugmani yangi, epaqaga kelmagan ilmoqdan o`tkazishga chiranar ekan. — Balki hafta oxirigacha kutib turarsan?

— Hm-m? — hayron bo`lib ovoz chiqarib qo`ydi Vudi.

— Avval tushuntirib bering-chi, "ma`sum" nima degani o`zi? — taklif kiritdi Jerri.

— Vaqtim yo`q. — Palmer galstuklar osig`liq turadigan ilg`ichga qaradi, biroq shu zahoti Berkxardtnikiga kunduzgi galstugimda borganim ma`qul degan xayolga bordi. Bu ancha tabiiy ko`rinadi. Ikkiyoqlama hayotning boshlanishi.

— Ma`sum, — derdi bu orada Jerri, — gunohlardan xoli degani.

Palmer qiziga ko`z tashladi va uning ukasiga qarab turganini ko`rdi. U galstukni taqdi-da, bugunning o`zida uchinchi marta bog`layotganini esladi. Qani endi, o`g`illarimdan loaqal bittasi shu Jerriday aqli bo`lsaydi, degan xayol dilidan o`tdi. Bu ularga juda zarur edi. Qizning o`ziga bir vaqt kelib o`tkir aqli halaqit berishi ham mumkin. O`g`illariga uning ziyrakligidan ozgina yuqqanida edi. Bu fazilat ham qizida keragidan ortiq darajada kuchli. Kim bilsin, balki bunday xatarli alomatlar haddan ortiq bo`rtib qolmasligi uchun qizi yaxshi tarbiya olib voyaga yetar. Chiroy oldida hammasi kechiriladi.

Palmer galstugini taqdi, uning ingichka uchini ko`ylak ostiga tiqdi va yana pidjakni kiydi.

— Janjal bo`lmasligi uchun, — dedi u eshikka yo`nalarkan, — men Jerriga yana yarim soat uxlamay turishga ruxsat beraman, seni esa, Vudi, shu yarim soatdan mahrum etaman. Boshqacha aytganda, siz ikkovingiz karavotingizga rosa 10.30 da yo`l olishingiz kerak. Tushundingizmi?

— Angladim, — dedi javoban Jerri.

— Men esa yo`k, — qaysarlik bilan dedi o`g`il.

— Jiddiy aytayapman, — dedi Palmer.

— Ishlar qalay, mister Jiddiy? — gap qotdi Jerri. — Sizga mister Shubhani tanishtirishga ruxsat bering, Mister Shubha, mister Jiddiy bilan tanishing. Mister Jiddiy, tanishing...

— Bas qil-e, — uning gapini bo'ldi Vudi. — Senga kechroq yotishga ruxsat tegdi, men esa bundan qiynalishim kerak. — U Palmerga norozi qiyofada qarab qo'ydi. — Bu adolatdan emas, dada. Siz doim uning tarafini olasiz.

Palmer o'g'liga qaradi; bo'yi deyarli uning bo'yi bilan teng — 180 sm. Agar bryunet bo'lganida, allaqachon qalinlashib qolgan murtlarini qirdirgan bo'lardi; ovozi ham otasidek bosiq, salmoqdor bo'lib qolgandi. Qiziq, agar peshonasiga yozilgan bo'lsa, Vudining kap-katta odam bo'lishi uchun qancha vaqt kerak bo'larkan? Shu zahoti u yana noto'g'ri yo'ldan borayotganini anglab qoldi: Jerri aqlli, jasur, dangalchi edi, Palmer esa o'g'lining undan qolishmasligini istaydi, chunki u opasidan uch yosh katta edi-da. Palmer yana bir karra, o'g'lim bilan qizimga bir andazadan qaramasligim kerak, deb eslatib qo'ydi.

U o'g'liga jilmaydi-da, uning qo'lidan siladi.

— Men singlingga yarim soat berayotganim sababi shundaki, u baribir bermaganimga qo'ymaydi.

— Bilaman, — rozi bo'ldi Vudi. — Nega yangi ko'ylak kiyib oldingiz?

— Bossnikiga mehmonga ketayapman.

— Anovisi ham top-toza edi-ku?

— Uh, — dedi Jerri, — bunaqa gaplarni eshitgandan ko'ra borib yotganim afzal.

Bolalari uni eshikkacha kuzatib qo'yishdi. U yerda Jerri otasini yana bir marta quchoqladi va o'pish uchun qoq miyasini tutdi. So'nggi yillardagidek, Palmer bir tunga Vudini o'pishga jur'at qilmadi. Ehtimol, u o'smirdagi izhor etib bo'lmas hadikni his qilgani uchundir — birdan u bir kun kelib parishonxotirlik tufayli uni yosh boladay o'pib qo'ysa-chi? Ular qizning boshi osha bir-biriga bosh irg'ab qo'yidilar va Palmer umuman qo'lidan kelgan darajada o'zini nosamimiy his qilib, o'g'liga ko'z qisib qo'ydi. Bu tuyg'u o'rnini qoplash maqsadida u Jerrini yana bir bor mahkam bag'riga bosdi.

Qiz o'zini orqaga oldi-da, jilmaydi.

— Bugun sal g'alatiroqmisiz, — dedi Jerri. — Nima gap? Nima bo'ldi?

Lift tomon yo'l olarkan, u soatiga qaradi. Berkxardtnikiga rosa bir soat kechikayapti. Taksida Palmer baribir omadi kelganini angladi. U o'zining yangi, bevafo er holatiga ko'nikishi uchun ortiqcha vaqtga ega bo'lgandi. Shuncha ziyrak bo'lganiga qaramay, Edis bu borada qizi bilan tenglasha olmasdi. Ziyofat oxiriga kelib, dedi o'ziga-o'zi Palmer, Jerri payqagan bu g'alati ko'rinishim, hech shubhasiz, beiz yo'qoladi.

O'ttizinchi bob

Berkxardtning Sentral-parkdan janubda joylashgan shahar qarorgohi ichki zinapoyali ikki qavatli odmigina uydan iborat edi. Bino eski va ancha tor edi; unda bir vaqtlar rassomlar va mashshoqlar studiyasi bo'lar edi. Bank bu uyni 1939 yillarda, uning sohibi bay puli sotib olish huquqidan mahrum etilganda olgan edi. Butun qavatni egallagan uzun-uzun xonalar kichik-kichik bo'laklarga bo'linib, qayta ta'mir qilingandi — faqat eng yuqorigi, ikki qavat balandlikdagi, parkka qarab ochiladigan egik derazalari bo'lgan xonagina bundan mustasno edi. Avtomatik liftda Palmer pastak, ozg'in, qorachadan kelgan 55-57 yoshlardagi bir odam bilan ro'para bo'lib qoldi — u qandaydir tanishdek ko'rindi. Tashqi ko'rinishiga qaraganda, bu sochi haddan tashqari qora, egnidagi pidjagi rangi jiletiga sira mos kelmagan odamning kim bo'lishidan qat'i nazar, ammo bankir emasligi aniq ko'rinish turardi: suvratfurushmi, impressoriomi-ey... Ikkovlari ham yuqorigi qavatdagi xonaga borishayotgani ma'lum bo'lgach, ular bir-birlariga bosh irg'ab qo'yishdi.

— Mister Palmersiz, shunday emasmi? — so'radi haligi kishi past ovozda kuchli britan lahjasida. Uning katta-katta qora ko'zlari Palmerga odatdan tashqari tikilib qarar edi.

- Ha, — qo'lini uzatdi Palmer. — Mister...
- Nikos. — Ular qo'l siqishib qo'yishdi.
- Endi esladim, — dedi Palmer. — Besh yilcha burun, ha?
- Chikagoda... — to'ldirdi Nikos.
- Garris Trast bilan bo'lgan uchrashuvda, — davom etdi Palmer.

Demak, o'sha ekan, o'yladi u, Archibald Nikos, ikki aka-ukaning kichigi, ular "Lionel Nikos va o'g'illari" nomli haddan tashqari murakkab investitsion bank rahbarlari bo'lgan, ular besh yil muqaddam Chikagodagi Garris Trast va bir qancha mahalliy banklar bilan bitim tuzishgan, sanoatga yirik zayom taqdim etish maqsadida Palmer otasining bankini ham o'z ichiga olgan edi. Shu bitim yana nima bilandir bog'liq edi. Bu narsaning nima ekanini Palmer eslashga harakat qildi-yu, biroq lift to'xtab, uning fikrini bo'lib qo'ydi.

Uning Nikos bilan birgalikda kelishi, Palmerning payqashicha, ayni vaqtdagi kechikishini oqlayotgandek bo'ldi. Bundan tashqari, bu Edisning ular ikkalasi birgina ish bilan mashg'ul ekan degan fikrga kelishiga yordam berardi. Nima bo'lganda ham Edisning salomlashuvi Palmerni ancha samimiy bo'lib ko'rindi. U xotini yoniga borib turdi va kelganlarning har biriga navbati bilan bosh irg'ab chiqdi. Palmer ularning barchasini bilar va ular ham Palmerni bilar edilar — harholda unga shunday tuyuldi.

Shifti juda ham baland bu xonaning eng to'rida, burchakka surib qo'yilgan o'rindiq bilan yonma-yon bir-biriga taqalgan ikkita javon baqamti turgan joyda Garri Elder o'tirardi. Garrining oldida YuBTKning uchinchi odami, qandaydir uzun suhbatga kirishib ketgan Kliff Mergendal turardi. Uning ixtisosi mablag' jamg'arish edi. Palmer Nikosning to'g'ri Kliff Margendal tomon yo'l olganini ko'rди.

Qarshidagi burchakda, baland egma deraza tagida frantsuzcha usuldagi uzun kat bo'lib, chekkalari kashtali yopqisi qat-qatlanib yerga tushib turardi. Katda qalin malla sochli, eridan o'n besh yoshlar kichik missis Mergendal o'tirardi. U baland bo'yli Uintrop Skipuort bilan gap sotardi, daroz bo'yli bu odamning ikki o'ziga xos fazilati bor edi: u shahardagi eng eski va eng kichik banklardan birining direktori va Palmerning barcha tanishlari ichida Vinni va Skippi deb erkalab chiqariladigan yagona kishi edi. Har ikkala nom ham qandaydir salbiy ma'no kasb etardi, ammo bundan Skipuort zarracha xafa bo'lmasdi. Edisning yonida Greys Berkxardtning o'zi o'tirardi; uning yorug' olamga chiqishi munosabati bilan Palmer bir kuni ramzli qilib ifodalaganidek, bugun uning "xalqqa ko'rinish"laridan biri edi.

Palmer Missis Berkxardtning Edis va u bilan olib borayotgan yengil suhbatini rishtasini uzmaganda holda uy sohibasiga zimdan razm sola boshladi. Greys Berkxardt haqidagi ma'lumotlar g'oyat g'aribona edi. Borlari ham g'iybatdan xoli edi. Qariyb barcha vaqtini, hatto eng yomon yoz oylarini ham u Konnektikut shtatidagi o'z uyida o'tkazardi; shaharga esa ko'p deganda yiliga olti martagina chiqardi. Olamga namoyon bo'lish uchun uning aynan nega bugunni tanlagani sababini Palmer ayta olmasdi.

Greys Berkxardt eri bilan deyarli bir xil — 65-66 yoshdagi jikkakkina, qotma ayol edi. Chehrasidan qon tomib turuvchi eridan farqli o'laroq, uning yuzi kasalvand va rangpar ko'rinar edi. Palmer uning sochini xiyol bo'yaganini payqadi, bu ayol kutganchalik natija bermagandi: oppoq sochi deyarli uning yuzi rangi bilan bir xil bo'lib qolgandi. Aftidan, Greys Berkxardt qandaydir kasalga chalingan, o'yladi Palmer, yo'qsa bu qadar zahillashib ketarmidi? Keyin baribir bu zahillik daf'atan qaraganda uncha sezilmaydi-ku, degan to'xtamga keldi. Harholda Greysning zahilligi uning kasalvandligini bildirmasdi. U dadil va yengil, jag'i-jag'iga tegmay gapirar, bir qarasang bolalar tarbiyasiga oid goh u, goh bu muammolarni tilga olar, yana bir qarasang so'nggi kiyim modalari, do'stlari boshiga tushgan musibatlar va erining sog'lig'idan so'z ochar edi.

- ...uning yoshidagi erkaklar uchun bu g'alati-ku, — dedi u.
- Har qanday yoshdagi erkaklar uchun ham, — quvvatladi Palmer; so'ng bu xushomadni u nechog'li notabiiy yengillik bilan aytganini payqab, hushyor tortdi.
- Juda to'g'ri aytdingiz, — uni ma'qulladi Greys Berkxardt. — Sizlarning tilingizda nima deydi

o'shani, zo'r berishmi, nimaydi? Uning zo'r berganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Yo'q, u buni ortda qolmaslik deb atagandi. Ha, nazarimda shunaqaydi, ortda qolmaslik. U o'zidan naq 20 yosh kichik erkakka baravar kelaman deydi-da, lekin o'sha yosh odam ham Leyn charchashidan ancha oldinroq halloslab qoldi.

— Men ko'pincha Vuds ham atletika klubiga borib tursa yaxshi bo'lardi deb o'ylardim, — dedi Edis. — Chikagoda u yugurish desa balodan qochganday qochardi. Loaqal bir necha kilogrammga to'lishganida ham men uni ko'ndirardim. Lekin...

Har ikkala ayol burilib, Palmerning boshidan oyog'iga razm solib qaradi.

— Judayam ozg'in, — qat'iy ohangda dedi Berkxardt. — Qiltiriq va och erkaklar haqida nima deyilardi bu? Bunday erkaklar xavfli bo'ladi. — Qoshini chimirib, ayol Palmerni qarab qo'ydi. — Lekin shunday bo'lsa ham uning yuzi ajabtovar — havas qilsa arziydi, — qo'shib qo'ydi u jilmayib.

— Xonim, — so'z qotdi Palmer, — meni juda maqtab yubordingiz. — U xiyol egilib qo'ydi-da, ulug' yoshdagi, smoking kiygan va galstuk taqqan negr yumshoq oq sochiq bilan stakanlarni artib turgan barga yo'naldi.

— Nima ichadilar, mister Palmer?

— Viski. Muz bilan, faqat maydalab soling, iltimos.

— "Skotch mist"mi? — so'radi barmen.

— Zo'r.

— Limonli bo'lsinmi?

— Zo'r.

Hayot murakkabliklaridan paydo bo'lgan g'azabini bildirmaslik uchun Palmer nafasini ichiga yutishga urindi. Barmenga qilgan jo'ngina buyurtmasi sal bo'lmasa katta tomoshaga aylanib ketayozdi. Ish yuzasidan chaqirilgan yig'ilish xotinlar bilan to'ldirilgan dunyoviy ziyofatga aylantirib yuborilgandi. Bu yerda o'ynalayotgan o'yin boshdan-oyoq soxta edi. Palmer stakanni oldi-da, aslida nima bo'layotganini anglashga harakat qilganicha bar oldida birpas turdi.

Oldilariga Nikos yurib kelganidan keyin Garri Elder va Kliff Mergendal yana birmuncha vaqt suhbatni davom etdirishdi; qandaydir ichki quvvat bilan ta'minlanganday, suhbat cho'zilgandan cho'zildi va uni to'xtatish qiyin edi. Biroq YuBTK vakillari oxiri Nikos ularning oldiga bekorga kelmaganini fahmlashgach, ular o'sha zahoti jimib qolishdi va go'yo o'zlarini uning ixtiyoriga topshirgan bo'lishdi. Shu asnoda Berkxardtning nigohi shu guruhda to'xtadi va u garchi o'zi xona o'rtasida, ko'rinmas chiroqning ko'zni oluvchi nuri ostida o'tirgan bo'lsa-da, ularni bir lahza ham ko'zdan qochirmayotgan edi. O'zini Archer ismli, Palmerning yoshidagi, YuBTKning deyarli barcha ishlarini yurituvchi yuridik firma sohiblaridan biri bilan gaplashayotgandek qilib ko'rsatmoqda edi.

Archer ko'p jihatdan Palmerni o'xshab ketardi. Ikkovi ham qirqdan sal oshgan, ikkovi ham xiyla novcha va qotmadan kelgan, yuzlaridan o'qimishliliklari ko'rinib turgan va sochlari kalta qilib olingan odamlar edi. Archerning otasi asr boshida yuridik firmaga asos solganda, Archer sherik bo'lgandi, bu ham uni Palmer bilan yaqinlashtirgan edi. O'xshashlik shu yerda tugardi. Archerning rangi judayam qoracha, deyarli zaytun tusida edi, qora sochidan ham ko'kish rang aks berib turardi. Bu odamni kuzatar ekan, Palmer uning chehrasidagi ziyolilik faqat yuzaki ko'rinish, xolos, deb o'yladi. Archerning zehni yuridik fakultetni bir amallab bitirib olish va advokatlikka imtihon topshirishgagina yetardi. Uning qudrati oilaviy va ish munosabatlaridagina namoyon bo'lar edi.

Men ham, deb dilidan kechirardi Palmer, Berkxardtning nog'orasiga o'ynaydigan maymundan u qadar farq qilmayman.

Viskidan og'zini to'ldirib ho'pladi-da, Palmer jo'rttaga Berkxardtning yonidan yurib o'tdi va xona to'rida gaplashib turgan uchala kishi tomon yo'l olayotib boshliq uni to'xtatib qolishi mumkinligini ko'ngli sezdi.

— Vudi, — dedi Berkxardt xiyol xirillagan, bo'g'iq ovozda, — Jimmi Archer esingdami? — Uning katta-katta bo'g'imdir barmoqlari Palmerning qo'lini tirsagi yuqorirog'idan qisib turardi.

— Jimmi, ko'rinishing chakki emas.

— Hozirgina Buenos-Ayresdan keldim.

— Qoyil — dedi Palmer. U o'z boshlig'iga qaradi. — Ko'rinishingiz hayron qolarli darajada yaxshi. Turnikda chaqqon harakatlar qilishingiz bilan yigitlarni dog'da qoldirishingizni xotiningiz so'zlab bergandi.

— Yo'q, bu ilgari shunday edi, — guldirab dedi Berkxardt. — Bir lahza u Palmerning qo'lini qattiqroq qisdi. — Endi oldingi valdirashlarim yo'q, Vudi. O'lguday jonimga tekkan.

Palmer uning chap yonidan ko'ksini ushlab qo'ydi:

— Soatday haliyam bir tekis urib turibdimi, axir?

— Hah. Mana bu yog'idan xavotir olmasam bo'ladi. — Berkxardtning mitti oqish ko'zlari suzildi. Aftidan, u ko'zlarini o'tkir oftob nuridan qisgandi. U Palmerning qo'lini qo'yib yubordi, mushtumini tugdi-da, uning ko'kragi ustidan turtib qo'ydi. Harakat qisqa bo'ldi va aftidan, Berkxardt unga hech qanday kuch sarflamagan edi. Shunday bo'lsa ham yaxshigina og'riq berdi.

— Sekinroq-da, — g'udrandi Palmer. — O'rdamchilarga yomon muomala qilib bo'lmaydi.

Berkxardt Palmerni yuzma-yuz tursa-da, ko'zlarini Archerdan uzmasdi.

— Sezdingizmi, — so'radi u, — ikki raqamli shaxs har doim sizning sog'lig'ingiz g'amida yuradi?

— Men vaqtni isrof qilishning eng yaxshi usulini o'ylab topishim mumkin, — dedi Palmer, — bu sizning ajalni kutganingizdan ko'ra durustroq.

— Bu qo'lingizdan keladi, — ma'qulladi Berkxardt haddan tashqari lutf bilan; harholda Palmerni shunday tuyuldi. — Buni qanday uddalashni ham bilasiz.

— Nechta vitse-prezidentni dafn etdingiz, Leyn?

— Shunga munosib bo'lganlarnigina.

Palmer yumshoq kulib qo'ydi.

— Touche¹. — U burchakdagi uchala erkak tomonga bosh irg'ab qo'ydi. — Borib bank ishlarimiz haqida gaplashay.

Berkxardtning kuchli barmoqlari ayni boya musht tushgan joyda yana tugildi. Palmerning qo'li zirqiraganday bo'ldi.

— Biz sen bilan qanaqa gaplashar edik, esingdami o'zi? — so'radi Berkxardt.

— Bir narsa esimda qolgan bo'lsa o'lay agar, — javob berdi Palmer, — sizni bankda juda kam ko'rganimdan siz bilan qanday gaplashish ham esimdan chiqib ketibdi.

— Mening sening ortingda turishim senga aslo kerak emas, Vudi. Tushunishimcha, sen o'zing qoyilmaqom qilib eplaysan.

— Kim aytdi buni sizga?

— Mening tonggi gazetalarim. Sen ularda har uch kunda bir, goho undan ko'proq chiqib turasan.

— Agar siz har rasmiy ziyofatda prezidiumda pashsha qo'rib o'tirishlarim haqidagi xabarlarini nazarda tutayotgan bo'lsangiz, unda siz haqsiz.

— Faqat shugina sening tez-tez chiqishingga sabab bo'lmayotgandir?

— Sirakuzada kelasi haftada ma'ruzam bor. O'ylaymanki, prezidiumda pashsha qo'rib o'tirganimga nisbatan bu olg'a siljish bo'ladi.

— Yana qaerda nutq so'zlaysan?

Palmer peshonasini tirishtirdi:

— Bir haftadan keyin Buffaloda. Keyin o'n kun davomida Bruklinda, Utikda va Rochesterda. — Palmer boshliqning o'z qo'lini qo'yib yuborishini kutardi.

— Jimmi, hech mening nutqlarimni eshitganmisan? — so'radi u.

— Bu nima deganing, Vudi?

— Bank vakili sifatidagi nutqlarimni eshitganmisan?

— Aytolmayman.

— Bu kichikkina, g'oyatda g'alati tomosha, — tushuntirdi Palmer. — Debocha sifatida, haliginday, olamning paydo bo'lishidan boshlab banklar tarixining maroqli manzarasini qoralayapman. Bobil don omborlari. Misr tijorat birlashmalari. Barcha asrlar osha. Bunga, hazil qilib aytganda, rosa besh daqiqa

vaqt ketadi. Qarabsizki, men o'z davrimizda paydo bo'lib qolibman — qand po'stlog'li achchiq hapdori va biz omonat banklariga shafqatsizlarcha hujum boshlab yuboramiz. Eshitib qulog'ingizga ishonmaysiz.

— Sening ma'ruzalar yozishingni bilmas edim, Vudi.

— Men hecham yozmayman. Ularni yozib berishadi... — To'satdan Berkxardt uning qo'lini juda qattiq qisib yubordi. Palmerning yuzi bujmayib, qo'lini bo'shatish uchun bir chetga chekildi. — Shaharda nutq so'zlaydigan bo'lsam senga xabar qilaman, Jimmi. Bu zo'r bo'ladi, sen nutqimni bir eshitib qo'yishing kerak.

— Tushunishimcha, — dedi Berkxardt salmoq bilan, — bank ishbilarmonlari oldida nutq so'zlashdan oldin sen o'z tomoshangni obdon pishitib olar ekansan.

— Juda topib aytingiz.

— Lekin oldindan maqtanishga arzimaydi, — deb gapni tugalladi Berkxardt Archerga kulib qo'yarkan.

Palmer bossning mitti ko'zlari yana xona burchagida turgan uchala kishiga qadalganini payqadi. UZR so'rab o'tirmay Palmer Berkxardtning oldidan ketdi va o'sha guruhga yaqinlashganda Archibald Nikosning so'zlari qulog'iga chalindi:

— ... bugungi iqtisodiyotning ayni mohiyati.

— Siz haqsiz, albatta, — dedi Kliff Mergendal, — biroq bozorning hozirgi holatida bunday past foizli, bunday hajmdagi ta'minlanmagan zayom bir oqshomda hal qilish mumkin bo'lgan masala hisoblanmaydi.

— Bundan tashqari ham, — gap qo'shdi Garri Elder, — zayomni to'lashga berilgan mutlaqo uzoq muddatni hisobga olganda, amalga oshishi qiyin reja kelib chiqadi.

Bahsga tortmoqchi bo'lganday Nikos o'sha iljaygancha Palmerga o'girildi.

— Bo'lmasa-chi, — dedi u, — bunday bitimning jamoatchilikka ta'siri qaysidir darajada o'zidan-o'zi qo'shimcha ta'minot bo'lib hisoblanadi.

— Bu qanaqa bitim bo'lishi kerak? — so'radi Palmer.

— Bu... — Nikos tilini tishladi. Uning chaqchaygan ko'zlarida besaranjomlik paydo bo'ldi.

— Vudi zayom muammolari bilan shug'ullanmaydi, — dedi Garri Elder o'zining baland xirildoq ovozida. — Bular bank ishlarini muhokama qilgan qisqa maslahatlashuvlarimizga vaqt topishi uchun u omonat banklarining mana bu mashmashalari bilan qattiq band.

— Tushunaman, — javob berdi Nikos. U bir daqiqa jimib qoldi, keyin jilmaydi... — Judayam maftunkor xotiningiz bor-da, mister Palmer.

Suhbatning bu yo'sinda o'zgarishi uning chakkasiga tarsaki tortganday bo'ldi. Palmer javob tariqasida lablarini tikkasiga cho'zib jilmaydi.

— Rahmat. Hech shunga e'tibor qilmagan ekanman, — dedi u suhbatning avvalgi mavzusiga qaytar ekan, — lekin men tafsilotlarni hozir eshitganlarim bilan taqqoslab ko'rishga harakat qilaman. Mening aqlim yetmay turgan yagona narsa — bu hajm haqidagi gap edi.

— Yarim milliard, — dedi Mergendal, go'yo pulning haddan tashqari kattaligi uni tashvishga solgandek, biroz asabiy holda.

— Qanaqa foiz me'yori bo'yicha? — astoydil so'radi Palmer. — Oltimi? Beshmi?

Garri Elder chiyillab kuldi va Nikosga ko'z qisib qo'ydi.

— U har birimizning joyimizni solib qo'yadi, Archi.

— Besh yarim, — javob berdi Mergendal taklifning oshkora bema'niligidan shikoyat qilgan ohangda. — Bu me'yor faxriylar uchun imtiyozli bay puli, jin ursin.

— Tag'in yigirma yildan ko'proq muddatga, — taxmin qilib dedi Palmer.

— Roppa-rosa yigirma yilga, — uning gapini to'g'riladi Mergendal. — Sizga hech qanday yo'riqnomaning hojati yo'q.

Palmer yelka uchirdi va Nikosga murojaat qildi:

— Siz bir narsada haqsiz. Gazetalarning birinchi sahifalariga tushish uchun bu hiyla g'ayriodatiy

hol. Lekin men YuBTKning reklamani qo'shimcha ta'minot sifatida baholashiga ishonmayman.

— Bu omadsiz mubolag'adan boshqa narsa emas, — shoshib gap qotdi Nikos. — Aslida bunday holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy munosabat gazetalar uchun shov-shuvli gap emas. U bor-yo'g'i o'ziga xos ishonchsizlik ovozi, xolos. Aynan mana shu palla ayniqsa qulay...

— Menga qarang, — gumbirlab dedi Berkxardt xona o'rtasidan. — Biz hammamiz allaqachon Uoldorfda bo'lishimiz kerak edi. Tomosha yana 15 daqiqadan keyin boshlanadi.

Palmerga barcha ovozlari haddan tashqari tarmoqlanib ketganday tuyuldi — bu uning ortidagi mehmonlarning o'rnidan ko'zga'algani edi. U o'z stakaniga qarab qo'ydi va yana og'zini to'ldirib ho'pladi.

— Men tushunmay turgan narsam shundaki, — murojaat qildi u Nikosga, yaxshiroq eshitishi uchun ovozini ko'tarib, — bunday iltifotni biz kimga ko'rsatishimiz kerak?

— Boshni qotirmasang-chi, Vudi, — dedi Garri Elder. — Yaqinda meni imtihondan o'tkazganingdan keyin ham senga ishonishimni istaysanmi?

Gap qanday imtihon haqida ketayotganini darhol anglagan Palmer Elderga qaradi.

— Yo'q, to'g'risini aytayapman, — dedi u, — gapim mutlaqo jiddiy.

— ... Mashinalar bo'lishi uchun pastga qo'ng'iroq ham qilib qo'ying, — dedi Berkxardt uning gapiga ulab.

Nikos, aftidan, Berkxardtning e'lonini suhbat mavzuidan qochish uchun qulay bahona o'rnida qo'llaganidan xursand edi. U jilmaydi va Palmerga bosh iring'ab qo'yib, yoni bilan undan nari keta boshladi.

— Ayting-chi, — dedi u, — Fors tanobiyisida bugun biz nimani ko'ramiz? Belafontnimi?

Palmer yelka qisib qo'ydi-da, Garri Elderga yuzlandi:

— Qanaqa firma bu, Garri?

— Seni bilarsan deb o'ylagandim, Vudi.

— Yo'q, bilmayman.

— "Jet-Text interneshnl".

Shu oqshom kechroq Palmer Garri tilga kirganida nima uchun xonada birdan jimjit bo'lib qolganini anglashga harakat qildi. Kiyinishga yordam berayotganlarida mehmonlar suhbatni to'xtatib turganlaridandir? Ehtimol, ulardan bir qanchasi allaqachon eshik tomon yura boshlagandir? Nima bo'lganda ham, Garrining so'zlari deyarli to'la jimjitlikda sado bergandi.

Palmer qo'lidagi stakaning sovug'ini his etdi. Sovuq yelka kuragigacha zirqiratib yubordi.

— Jet-Text? — takror so'radi u.

Ancha keyin, ular fors tanobiyisida raqs maydonchasi yonginasidagi stolchada o'tirganlarida Palmer bu sahnani miyasida qayta va qayta ko'rib chiqayotganini, uning botiniy ma'nosini anglashga qaysarlik bilan harakat qilayotganini, bundan badani sovuq jimirlab ketayotganini sezdi. U so'zlariga quloq solmay qo'shiqchini kuzatayotir, baribir anavi yoqda, Berkxardtning uyida nima uchun bosh aylanishiga o'xshash bir nimani his etganini anglashga urindi. Nimagadir oyoqlari ostidagi yer o'yilib, chohga tushib ketayotganday bo'lganini elas-elas esladi.

O'ttiz birinchi bob

Kun ertasi ko'ngilsiz boshlandi. Palmer uyqudan og'ir uyg'ondi. Qisman bu xumordan bo'lsa, qisman shuurida kecha oqshom tug'ilgan noaniq shubhaning o'zidan edi. Edisning Berkxardtningidagi ziyofatda sodir bo'lgan ahmoqona qiliqlarini miridan-sirigacha nonushta chog'ida muhokama qilamiz deb oyoq tirab turib olishi ishning badtar pachavasini chiqarmoqda edi.

Endi o'z xonasidagi stolda charog'on qish oftobi tufayli bahaybat yuqorigi deraza qopqog'ini yopib o'tirar ekan, Palmer Jo Lumis va "Jet-Text interneshnl" haqida Virjiniya Kleri to'plagan ma'lumotni yana bir karra batafsil o'rganib chiqdi. Kallayi sahardan bankka kelib, Palmer Virjiniya bilan

gaplashishdan o'zini bazo'r tiyib turardi. U hatto Virjiniya va Mak Bernsga va'da qilgan farqni ham keyinga qoldirdi. Shunday bo'lsa-da, u o'zi ishongan bironta odam bilan Nikosning taklifini muhokama qilmasa bo'lmas edi.

Qog'ozni bir chetga qo'yib va ma'nosiz nigohini qarshidagi devorga tikib, Palmer Virjiniyani ko'rishni xohlamayotganini, chunki uning o'zini qanday tutishini tasavvur qilolmasligini angladi. Ayni vaqtda u shu juvondan boshqa Nikosning taklifi haqida hech kim bilan gaplasha olmasligini ham bilib turardi, ayniqsa hozir, qaysidir tushuncha tomon olib boruvchi yo'lni paypaslab topib olmagunga qadar.

Palmer ichki aloqa tugmachasi tomon cho'zilgan qo'lga razm soldi. Barmog'i "Skrtr" tugmachasini bosganini darhol angladi. Kotiba javob bergach, u hayajonlanayotganimni bilib qolmasin deya asta yo'talib oldi va dedi:

— Ayting, miss Kleri huzurimga kirsin.

Juvonni kutar ekan, Palmer barcha odatdagi ma'muriy xatti-harakatlar unga pand berganini sezdi. Stol ustida u ko'rib chiqishi, saralashi, qovog'ini uyib barmoqlari bilan chertishi, o'qishi, ustida fikr yuritishi, bir joydan boshqa joyga olib qo'yishi, qistirishi, sug'urishi, ustiga qandaydir belgilar qo'yib chiqishi va h.k.lar qilishi kerak bo'lgan ko'pdan-ko'p qog'ozlar yotar edi. Moliya va bank ishlariga oid sahifalari ochib va kotiba tartib bilan taxlab qo'ygan tonggi gazetalar uning qo'li ostida. Bundan tashqari bu yerda "Uoll-strit jornel"ning o'qilmagan soni ham bor edi. Biroq Palmer ko'zlarini yopiq eshikka qadagancha qimir etmay o'tirardi. Eshik ochildi-yu, u beixtiyor o'rnidan turdi.

Uning ro'parasiga kelib o'tirarkan, Virjiniya iyak irg'ab qo'ydi:

— Xayrli tong.

Palmer uning qanday joylashib olishini kuzatdi: ikkala oyog'ini yonma-yon qo'ydi, qo'llari tizzalari ustida, kaftlarini tepaga qilib qovushtirib oldi. Bir lahza o'tgach, u juvonning salomiga alik olmaganini anglab qoldi.

— Xayrli tong, — shoshib dedi u. — Ayting-chi... — Omonat banklariga doir mana bu gaplar boshlanganda siz YuBTKda ishlar edingizmi?

Juvon boshini chayqadi:

— Bu hangoma bundan o'n yil muqaddam boshlangan. Men qanday bo'lganini eslayman-u, ammo YuBTK nuqtai nazaridan emas.

Ularning nigohlari to'qnashdi. Palmer juvonning yonoqlari bo'rtiq va katta-katta qora ko'zli chehrasiga razm soldi.

— Siz bugun haddan tashqari jozibali ko'rinasiz, — g'udrandi yigit.

Juvon yelkasi osha yopiq eshikka qaradi va juvonga tomon yuzlanib dedi:

— Siz esa unday emassiz.

Yigit bosh irg'ab qo'ydi-da, unga sigareta uzatdi.

— Asabiy bo'lganimda, tun bo'yi mijja qoqmagan bo'lardim.

— Lekin siz, baribir, uxlagansiz, — dedi Virjiniya sigaretani rad etarkan.

Yigit yana bosh irg'idi.

— Notinch.

— Vijdoningizmi? — Juvon xiyol qoshini chimirdi. — Juda afsusdaman.

— Yo'q. — Yigit ular butunlay boshqa-boshqa narsalar haqida gaplashishayotganlarini anglab qoldi. Boz ustiga, buni juvonga tushuntirish uni haqorat qilish ekanini ham angladi.

Albatta, deb mushohada qilardi Palmer, Virjiniya uning asabiylashuvini gunoh tuyg'usi natijasi deb hisoblashi kerak. Uning vijdoni qiynalishidan ham jiddiyroq asabiylashuviga boshqa sabablar bor ekanini juvon tushida ko'ribdimi. Buning ustiga ular kecha oqshom ajrashganlaridan keyin nimalar bo'lganini Virjiniya bilmasdi.

— Vijdoningiz qiynalmadimi?

— Siz o'zingizni aybdor deb bilmasligingiz kerak deb aytmoqchi edim.

— Mening qo'limdan hech narsa kelmaydi.

— Modomiki men o'zimni aybdor, deb his qilmabmanmi, demak siz ham shunday bo'lishingiz

kerak.

— Yaxshi, — rozi bo'ldi Virjiniya, — to'g'risini aytsam, xursandman, — to'satdan uning ko'zlari yanada kattalashib ketdi. — Harholda, — davom etdi juvon, uning ovozi deyarli shivirlab chiqmoqda, ko'zlari esa yigitga tik qarab turardi. — Shu paytgacha mening birona ishim menga bunday huzur bag'ishlamagandi. Endi bo'lsa, — uning ovozi yana jaranglab chiqa boshladi va deyarli ishchan ohang kasb etgandi, — omonat banklari xususida siz yana nimalar bilishni istar edingiz?

Go'yo yelkasidan tog' ag'darilganday o'zini yengil his qilib, Palmer o'rindi qorqasiga yotib oldi; nazarida bir mehribon qo'l badanini silab, vujudini yayratayotganday his qildi.

— Bilasizmi, — dedi yigit, — men sizga bir nechta noqulay savol bermoqchiman, chunki menga sizning tayyor bo'lmagan javoblaringiz kerak. Anig'ini ayting-chi, omonat banklariga doir mana bu jang dastavval qachon boshlangandi?

— Bu 10 yil muqaddam Olbanidagi qonun chiqaruvchi majlis taklifidan boshlangandi. O'shanda omonat banklariga ularning bosh boshqarmasi joylashgan okrugdan tashqarida bo'linga ega bo'lish huquqi berilgandi.

— Taklifni kim ilgari surgandi?

Juvon yelkalarini qisdi:

— Shtat markazidan majlisning bir necha a'zosi. Menimcha, Nyu-Yorkdan edi.

— Taklif nima bo'ldi?

— U jimgina jon berdi-qo'ydi.

— Shundayicha-ya? Hech qanday kurash-purashsiz-a?

— Hech qanday kurash-purashsiz. — Juvon bir daqiqa o'ylanib oldi. — Agar omonat banklari o'shandan buyon bo'limlar haqidagi qonun loyihalariga sarflagan barcha pullardan birinchi yiliyoq foydalanganlarida edi, dastlabki urinishdayoq g'alaba qozonilgan bo'lardi. Ammo bunday qadam qo'yishga hech kimning yuragi dov bermadi.

Palmer bosh irg'adi:

— Buni menga Berns tushuntirib berdi. U bu yillar ichida omonat banklarining bo'limlari haqidagi taklif barcha nusxalarida qonun chiqaruvchilar uchun ortiqcha yuk bo'lib kelgan. Ayting-chi, ochiq kurash qachon boshlangan? Qaysi yilda?

— Kurash bir necha marta avj olgan. Sakkiz yil burun ham. Besh yil burun ham. Shubhasiz, o'tgan yili yuqori nuqtaga borib yetdi. Siz bugun butunlay boshqacha ko'rinayapsiz.

Palmer qovog'ini uydi.

— Nega boshqacha ko'rinarkanman? Qaysi ma'noda?

— Biroz asabiylashgandaysiz. — Juvon gapidan to'xtadi-da, boshini saraklatdi. — Mavzuga aloqador emas. Men o'zimga qarashim kerak. Bo'пти, endi omonat banklari kurashiga qaytaylik.

— Ha. Nima uchun aynan o'tgan yili kurash bu qadar keskin bo'ldi?

— Qisman shundanki, omonat banklari oldingilardan ko'proq tazyiq o'tkaza boshlashdi, — tushuntirdi juvon. — Qisman yana shundanki, ular har qanday odob-axloqni bir chetga qo'yib, YuBTKga o'xshagan yirik shahar banklariga hujum boshladilar. Yana qisman shundanki, Leyn Berkxardtning fikricha, ular hujumni endi shaxsan uning o'ziga qarshi olib bora boshladilar. U ham mushtlashuvga bosh qo'shgandan keyin chinakamiga to's-to'polon boshlanib ketdi.

— To'g'ri. Hamma gap shunda, — dedi Palmer. — Nima uchun oxiri Berkxardt jangga kirishishga qaror qildi?

Juvon yana yelka qisdi:

— Bu yilning boshida nima bo'lgan bo'lsa, o'shanda ham shunday bo'lgandi. Jo Lumis "Merrey Xil" omonat banki nomidan undan kurashdan tiyilib turishini iltimos qildi. Shuning uchun Berkxardt aynan shuning teskarisini qilishga ahd etdi.

— U bilan Lumis eski do'stlar, qil o'tmas ulfatlar, qon dushmanlar emas. Nima uchun Berkxardt shunday qilishi kerak bo'lib qolgan?

— Aynan shuning uchunki, — dedi Virjiniya, — u do'stlikning oqibati nimaga olib kelishini angladi.

Berkxardt kurashda dushman uning asosiy omili bo'ldi degan qarorga keldi, raqibining qo'llarini bog'lab qo'ymoqchi bo'ldi, Lumis bilan do'stliklaridan qing'ir yo'lda foydalanishni o'yladi.

— Tushunarli, — davom etdi Palmer. — Bular barini siz qayoqdan bilasiz?

— Berkxardtning o'zi ba'zi gaplarga ishora qilar edi, boshqa gaplarni esa mening o'zimga yoki men borimda ochiq-oshkor aytar edi. Qolganlarini men gazetchilardan bilib olar edim.

Palmer bitta sigareta olmoqchi bo'ldi, biroq o'ylab, pachkani yana Virjiniyaga tutdi. Juvon rad etgandan keyin u sigareta tutatdi.

— Endi ayting, Berkxardtning qaysarligini hamma biladimi? Sanoatchilar ichidan bitta-yarimtasining bundan xabari bormi?

— Agar ular bilishmaydi desalar, men hayratdan yoqa ushlagan bo'lardim.

Palmer bosh irg'adi.

— Navbatdagi savol: o'tgan sessiyada bo'limlar haqidagi taklif qanday barbod bo'lgandi? Bu g'alabani Berkxardtning shaxsiy g'alabasi deb qay darajada hisoblash mumkin?

— Obbo! Siz juda nozik savollar berdingiz-ku.

— Men judayam bir chigal kalavaning uchini topmoqchiman.

— Men aytardimki... hm-hm... nima derdim? — o'zidan so'radi juvon. — O'tgan yili qonun chiqaruvchi majlis taklifga deyarli bab-baravar munosabatda edi. Ovoz berish har ikki tomonga og'ib ketishi mumkin edi. Kelishmovchiliklar partiyaviy belgi bo'yicha yuzaga kelmagandi, biroq muxolifat asosan chekka shtatlardan bo'lgani uchun respublikachilar edi; omonat banklari tarafdorlari asosan shtat markazidan bo'lib, demakki, demokratlar edi. Keyin esa... — Juvon jimib o'yg'a toldi.

— Keyin-chi?

— Kelganlardan biri o'rnidan turdi-da, partiyaviy yagonalikka chorladi. U omonat banklari — mayda odamlar banki, demokratik partiya — ularning partiyasi bo'lgani bois, xudo haqi, kelinglar, respublikachilar va tijorat bankirlarining iblisona ittifoqiga qarshi birlashaylik va taklifni ilgari suraylik, deb ta'kidladi.

— Bu ma'ruzaning biron ta'siri sezildimi?

— U kutilmaganda mojaroli masalani partiyadan tashqaridagi partiyaga aylantirib yubordi. Taklifda so'zga chiqqan ozgina respublikachilar dumlarini qisib qolishdi va birlashgan respublikachilar qanotida unga qarshi ovoz berdilar; bu nutqdan keyin ularda boshqa yo'l qolmagandi.

— Demak siz, — o'smoqchiladi Palmer, — ma'ruza u qadar ta'sirchan bo'lmadi demoqchisiz, shundaymi?

— Haddan tashqari bema'ni nutq bo'ldi.

— Uni tag'in sal boshqacharoq qilib tavsiflab berolmaysizmi? — so'radi Palmer.

— O'ta o'ziga xos.

— Siz bu taklif tarafdorining nomi uchun uning imkoniyatlarini bu qadar gustoxona barbod etayotganidan hayron bo'lgandirsiz?

— Juda topib aytdingiz, shef.

Palmer yuzini tirishtirdi.

— Shu "shef" degan so'zni boshqa eshitmay sizdan.

— Yaxshi, boss.

— Davom eting.

— Kechirasiz. — Juvon kulib qo'ymoqchi edi-yu, biroq darhol o'zini qo'lga oldi. — UZR. Azbaroyi qiziqayotganim uchun, iltimos, sizga malol kelmasin-u, bir narsani so'ramoqchiman, siz nimaga ishora qilayapsiz... mister Palmer?

— O'zingizni bosing, — dedi yigit nasihatimiz. — Yana bir nechta qutquli savollarim bor. Bu yil Jo Lumis o'zining Berkxardtga nisbatan navbatdagi murojaati bilan yana hamma narsani harakatga keltirganini qayoqdan bilasiz?

— Berkxardt buni hech kimdan yashirmas edi. Siz bizning baxtiyor davramizga kelib qo'shilgan paytdayoq u g'azabdan o'zini qo'ygani joy topolmay qolgan edi.

- G'azabga ham kelgandi, kurashni oxiriga yetkazishga ont ham ichgandi, shundaymi?
 - Xuddi shunday.
 - Bultur partiyaviy yakdillik sari bu g'alati da'vat e'lon qilinganida YuBTKdan bironta odam nima uchun qonun chiqaruvchilardan biri butun safarbarlikni barbod etishga to'satdan jazm qilib qoldi degan gapni aytmaganmi?
 - Menimcha, u g'irt mast degan yagona fikrga kelishgandi.
 - Rostdanmi?
 - Uning bay puli qo'yayotgani kunday ravshan edi. Lekin u bu ishni bunaqa lo'ttibozlikka yo'l qo'ymasdan ko'p yillardan beri ado etib kelardi.
 - Yana qandaydir taxminlar bormi?
 - Biznikilardan biri unga bir dasta pul ko'rsatganmish.
 - Shunday bo'lishi mumkinmi? — tinib-tinchimasdi Palmer.
 - Bilasizmi, men reklama bo'limining kichik bir odamiman, folbin emasman.
 - Men esa sizni chinakam kelt jodugari deb yurardim.
 - Faqat qorong'i tushgandan keyin.
 - Ha. Endi esladim.
 - M-m...
- Ular jimib qolishdi.
- Nima ham derdik, — dedi so'ngra Palmer. U xo'rsindi-da, juvonga qarab jilmayib qo'ydi. — Kalavanning uchi qo'limga kirdi desam bo'laveradi. Bordi-yu, bir siltasam, xuddi ko'zboylog'ichning sehrli tayoqchasiday butun kalavani chiyratib yuboradi.
 - Marhamat, maestro.
- Yigit ichki aloqa telefoniga uzandi-da, "Elder" tugmachasini bosdi. Bir soniyadan so'ng interkomda Garrining xirildoq ovozi yangradi:
- Nima gap, Vudi?
 - Tafsilotlarni chetlab o'tishga majburman, Garri. Kecha tilga olingan ajoyib bitim bizga dastavval qachon taklif etilganini ayta olasanmi?
 - Yigirma yillik...
 - Tafsilotlarsiz, — uning so'zini bo'ldi Palmer.
 - Ha. Yaxshi. O'ylab olishim kerak. Tag'in kelib-kelib tong sahardan-a.
 - Tortinmay o'ylayver.
 - O'ylayapman, o'yladimam, — tishining orasidan dedi Elder. — Topdim.
 - Xo'sh?
 - Bu qaysidir korxonani moliya bilan ta'minlash haqidagi muzokaralarni qayta boshlash munosabati bilan o'n sakkiz oylar muqaddam sodir bo'lgandi-yov. O'shanda, menimcha, hech kim bu taklifga jiddiy e'tibor bermagandi.
 - Leyn Berkxardt hammadan kam qiziqqanmidi?
 - Ayniqsa Leyn. U bu taklifni juda ham ahmoqona, bunaqasini umrimda ko'rmaganman degandi.
 - Hamma ham bunga hazilga o'xshagan bir narsa deb qaraganmidi? — so'radi Palmer.
 - Faqat kechagi uzun sochli do'stimizdan tashqari hamma.
 - Albatta. U bu bitimni hozirgi shaklida qachon taqdim qilgandi?
 - Bir yilcha avval. Balki, undan kamroqmi-ey.
 - Leyn hamon buni hazil deb yurarmidi?
 - Endi unday deb o'ylamayotgandi, — dedi Elder. — Bundoq o'ylab qarasaki, bu jiddiy narsa ekan. Jiddiyligi shunchalikki, u shartta rad etdi uni. Bunk idorasi roziligini olib, albatta.
 - Hozir bu taklif yana ko'tarilayaptimi?
 - Barra bodringday beg'ubor. Faqat bu gal puli ko'proq.
 - Xo'sh? — Palmer sukutga cho'mdi. — Ular o'z takliflarini yangidan barbod bo'lishiga zamin tayyorlashmoqchi desa bo'ladimi?

— Yo`q, bunday emas, — dedi Elder. — Shunchaki yil o`tib ketdi. Ularning rejalari kengaydi, ularga ko`proq shu kerak. Men buni tushuna olaman. Nahotki sen tushunmayotgan bo`lsang?

— Nega tushunmay? Bo`pti, rahmat, Garri.

— Kecha kabaredagi tomosha haqida nima deysan? — so`radi Elder.

— Menga stolda — dasturxon ustidagi tomosha ko`proq yoqdi.

— Vudi, sen tuturuqsiz yigitchaga o`xshab qolayapsan asta-sekin. Bu, bilasanmi, tuturuqsiz choldan ko`ra yomon.

— Men tuturuqsiz emasman. Shunchaki qiziquvchanman.

— Men bilmaydigan biron narsani bilasanmi? — qiziqsindi Elder.

— Dangal aytaman: hech narsani.

— Tuturuqsiz cholning boshini qotirma, Vudi.

— Xayolinga ham kelgani yo`q.

— Kelasi safar valaqlash kasaling xuruj qilib qolganida, menga xabar qil. — Ichki aloqa o`chirib qo`yildi.

Virjiniya Kleri jimib qolgan interkomga qarab turardi.

— Bular bari nimani anglatadi?

— Yana bir dunyo qaltis savollar.

— Siz bilan Elder kecha oqshom bir joyda bo`lganmidingiz?

— Berkxardt va Mergendal, xotinlarimiz va yana bir nechta mehmonlar bilan birga edik.

Juvon interkomdan nigohini olmayotgandi, biroq uning ko`zlari xiyol toraydi.

— Hayotingiz hodisalarga haddan tashqari to`lib-toshgan, mister Palmer, — dedi u.

— Men bu ziyofatga kechikib bordim. Butunlay esimdan chiqib ketibdi.

— Rostdan esingizdan chiqqanmidi?

— Rostdan. Ziyofatgacha bir ish bo`ldiyu kallamga hech narsa kelmabdi.

Juvonning jim turganini ko`rib, Palmer stol osha unga egildi-da, qog`ozlarni bir chetga surib, dedi:

— Bir nima desangiz-chi.

— Avval o`ylab olay, keyin aytaman. — Oxiri juvon ko`zlarini ko`tarib, unga qaradi. Palmer uning xijolatda qolganidan ko`ra ko`proq jahli burni uchida turganini ko`rdi.

— To`g`risi ham shu-da. Ziyofat butunlay esimdan chiqib ketibdi.

Bir soniyadan so`ng juvonning chehrasi xijolatdan qizardi. U teskari o`girilib, xo`rsinib qo`ydi.

— Jinniman, — dedi Virjiniya — Hatto nega jahlim chiqqanini ham bilmayman. Bu ahmoqlik bo`lmay nima? — U ko`zining qiri bilan yigitga qarab qo`ydi-da, yana undan nigohini olib qochdi: — Iltimos, bunga e`tibor qilmang.

— Siz-chi?

— Unutaman, — va`da berdi juvon.

Ular uzoq jim qolishdi.

— Jin ursin, kechiring meni, — birdaniga dedi yigit oxiri. Juvon qaddini rostladi va jilmayishga harakat qildi. — Hammasi joyida. — So`ng nafasini o`nglab, boshini keskin siltadi: — Endi yaxshi. Qani, bering o`sha qaltis savollaringizni. — Juvon yana boshini dadil silkib qo`ydi, go`yo bu bilan unda endi haqiqatan ham hammasi joyida ekanini tasdiqlagandek.

— Bo`pti. — Yigit stolning o`zi qog`ozlardan xoli qilib qo`ygan joyga qaradi. Xoli joy hozir Palmerning shuurini band etgan fikrning o`zi kabi mungli va yakrang ko`rinar edi. Bo`shliqni to`ldirish uchun u beixtiyor bir qancha duch kelgan qog`ozni o`sha joyga surib qo`ydi.

— G`oyam shu qadar oqilona va shu qadar ahmoqonaki, shunday narsani o`ylagan kallam kallami yo oshqovoqmi, o`zim bilmayman.

— Menda sinab ko`ra qoling.

— Siz, rostdanam, bu g`oyam to`g`riligini sinab ko`rishdan cho`chimaydiganim yagona odamsiz! — U qo`li bilan yuzini asta silab qo`ydi. — "Jet-Tex" bizdagi haddan tashqari katta va past foizli, juda uzoq muddatli me`yordagi pul zayomi to`g`risida muzokaralar olib borishga urinayotganini eshitsangiz,

bilmadim, qanday ahvolga tushasiz?

— Qancha ekan o'sha pul?

— Sizning o'zingizni deb men na pul miqdorini, na me'yor foizini sizga ayta olaman.

Tushungandirsiz?

— Ha. Meni o'zim bilmagan narsa haqida valaqlashda ayblash mumkin emas.

— Hamma gap shunda.

— Unda, sizning Garri Elder bilan qilgan suhbatingizdan kelib chiqadigan bo'lsak, ular bu zayomni olishmoqchi emaslar deb o'ylasam bo'larkan-da?

— Siz bunga qanday qaragan bo'lar edingiz?

— Menmi... — Juvon sarosimaga tushganday yigitga qaradi. Uning ko'zlari asta kengaya borib, og'zi yarim ochildi. — Men so'ragan bo'lardimki... — Juvon boshini chayqadi: — Yo'q.

— Davom eting.

— Men o'z-o'zimdanda Jo Lumis haqida so'ragan bo'lardim, — dedi nihoyat Virjiniya hayratli ohangda baland ovoz bilan. — So'ragan bo'lardimki, Lumisning bir vaqtning o'zida ham Jet-Tex tarafini, ham omonat banklarning bo'limlari haqidagi taklif tarafini olishi nimani anglatadi, deb.

— Shunda nima deb javob bergan bo'lardingiz? — so'radi Palmer.

— Men... men bilmayman. Haqiqatan ham bilmayman.

— Men ham. — Hayhotday xonada Palmerning ovozi ma'yus jarangladi. U yo'talib qo'ydi. — Hozircha bilmayman, — qo'shimcha qildi u.

So'zlar katta xonaning to'rida bo'g'iq aks sado berdi. Uzoq jimlikdan keyin Virjiniya turdi. Uning yuzida, go'yo hech gap aytilmaganday, hech qanaqangi ma'no yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, Palmer bunda qandaydir boshqa narsani, go'yo hech narsa bo'lmaganini namoyishkorona tasdiqlovchi yasama betaraflikni payqadi. Jarohatga malhamni angladi. U xiyol jilmayib qo'ydi va bu harakat uning lablarini deyarli og'ritib cho'zgandek bo'ldi.

— Demak, — dedi u, — shunchaki nimadir aytish joiz bo'lganidan.

— O'z javoblarim bilan sizga yordam bera olamanmi? — so'radi juvon.

— Hozircha yo'q. Siz, harholda, yordam berib bo'ldingiz.

— Men sizga yordam bermoqchiman.

— Men ham sizdan iltimos qilaman. Xotirjam bo'ling.

— Ishonsam bo'ladimi?

— Ha, — qat'iy dedi yigit.

— Unda men mashinkam oldiga qaytay, — dedi juvon. — E, ha...

— Nimaydi?

Juvon qo'lini o'z ko'ylagining yoqasiga suqdi.

— Bu yerda bir nima bor, — dedi u. — Mana. Bu sizniki. — Juvon uning yo'qolgan to'g'nog'ichini oldi va yigitga uzatdi.

— Eh xudoyim-ey! — U to'g'nog'ichni oldi. — Rahmat.

Juvon bosh irg'ab qo'ydi.

— Men uni o'zimda olib qolmoqchi bo'lgan edim.

— Lekin u yerda emas. Biron joyingizga sanchilishi mumkin.

Juvon yana bosh irg'adi: — Bilaman. — Juvon asta o'girildi-da, eshik tomon yo'naldi. — Sanchib olish mumkin, shunda to'g'raroq bo'ladi. — U eshikni ochdi-da, chiqib ketdi.

O'ttiz ikkinchi bob

Palmerning kotibasi tushga yaqingina oxiri Berxardtning topishga muvaffaq bo'ldi.

— Leyn, — dedi Palmer go'shakka, — keling, birga nonushta qilaylik.

— Men shaharning boshqa chekkasidaman, Vudi.

— Men siz bilan o'sha yerda ko'rishaman.
— Seni shuncha uzoqqa ovora bo'lib kelib yurishingni istamayman, Vudi.
— Hechqisi yo'q. — Palmer chap qo'lining galstuk to'g'nog'ichini oldinga va orqaga aylantirib o'ynayotgan barmoqlariga qaradi. — Yarim soatdan keyin, xo'pmi?

Berkxardt bir lahza ikkilandi.

— Unda o'zim kelaman.

— Ixtiyoringiz.

— 12.40. "Yunion lig"da.

— Yo'q, — e'tiroz bildirdi Palmer, — moliyaviy nusxalarga to'lib-toshmagan biron joy bo'lsa.

— Maxfiy gaping bormi?

— Juda unaqa emas, — ishontirib dedi Palmer. — Joriy ishlar haqidagi hisobotlarga o'xshash bir narsa. Yaqin bir necha hafta ichi men ish bilan u yoq-bu yoqlarda bo'laman, siz bilan ba'zi narsalarni maslahatlashib olmoqchi edim.

— Vudi, sen mening hech qanaqangi maslahatimga muhtoj emassan, buni o'zing bilasan-ku.

— Keling, siyqasi chiqqan yo'ldan sal chetroqda ko'rishaylik. Ikkinchi avenyuda, menimcha, qirqinchi ko'cha atrofida tamaddi qilib olsa bo'ladigan bir restorancha bor.

— Bu aytganing siyqasi chiqqan yo'llardan shu qadar uzoqki, naq tupkaning tubida, — dedi Berkxardt. — Bo'пти, Vudi. Sening, aftidan, oldi-qochdi kitoblardagi sarguzashtlarga ishqibozliging hali ham qolmabdi.

— Ishqiboz bo'lmagan bormi o'zi? — so'radi Palmer.

Berkxardt javob berishga ulgurmay, u go'shakni ildi. Shahar telefoni tugmachasini bosdi, ma'lumotlar xonasidan restoran telefonini aniqladi, u yoqqa qo'ng'iroq qilib, chog'roq dasturxonga buyurtma berdi.

Soatiga qaradi, hali vaqti juda ko'p ekanini ko'rdi va o'rindiqqa chalqa yotdi. Hali vaqt ko'p ekan, o'yladi u. U o'zida jang oldidagi keskinlikni, ayniqsa, chuqur his qilmoqda edi — atrofdagi odamlarga qattiq ta'sir, qator maqsadsiz, bir chaqaga qimmat harakatlar — ishqilib, fikrni oldinga o'qday otilib ketishdan saqlab qolish uchun qilinadigan har qanaqangi chalg'ituvchi nayrang. U to'g'nog'ichni stol ustiga tashladi va oppoq boshcha tez aylanib, keng yoy hosil qilayotganini kuzatib turdi. Keyin uni yana turti va boshchani aylanishini yana tomosha qila boshladi.

Ertalabdan beri Palmerning miyasida shu fikr aylangani-aylangan: agar o'z shubhalarini Berkxardtga ochiqdan-ochiq aytib solsa, to'g'ri qilgan bo'larmikan? Bu o'q ko'rgan chumchuq rostdan ham ko'p narsani bilarmikan? Agar u hech nimadan boxabar bo'lmasa, uning g'azabi kutilmagan yangilik taqdim etarmikan? Ishga faqat zarar yetkazishi mumkin bo'lgan biron harakat qilishi uchun yo'l ochib berarmikan? Bordi-yu, Berkxardt biron narsani bilsa yo his etsa, uning ishtiroklari Palmerning shubhalariga chek qo'ya olarmikan? Yoki ular unga almisoqdan qolgan gaplarday bo'lib ko'rinib, Berkxardtning Palmerni qarshi tish qayratib qo'yarmikan?

Albatta, ular haqiqatdan yiroqqa o'xshab ko'rinadi, shu qadar yiroqki, kishining aqli bovar qilmaydi, shunday bo'lsa-da, ularda qandaydir ma'no bor, o'zicha qat'iy fikrga keldi Palmer. Ha, eng yomoni shundaki, ularda baribir qandaydir ma'no bor.

Palmer to'g'nog'ichni oldi va uni nima qilsam ekan deb o'ylanib qoldi. Galstugiga to'g'nab olgani ham xuddi shunaqa edi. Ortiqchasini stol tortmasiga yoki cho'ntagiga solib qo'ysa bo'ladi. Yoki axlat savatiga qarab uloqtirsinmi? Uloqtirsa nima bo'libdi? Moshdekkina sopol boshli bir bo'lak temir-da. Nahotki, u bu to'g'nog'ichni xotira sifatida asraydigan darajada ahmoq bo'lsa? Ey xudo! U boshqa to'g'nog'ichlarga qo'shilib ketadi-da, bori ham, yo'g'i ham bir go'r bo'ladi-qo'yadi.

Virjiniya bo'lsa uni asrab qo'ymoqchi. Bu unga nega kerak ekan?

Palmer to'g'nog'ichni ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi-da, o'rnidan qo'zg'aldi. U tez yurib katta deraza oldiga keldi va quyoshli qish manzarasiga razm soldi. Garchi daraxtlari qip-yalang'och bo'lsa-da, Sentral-park tinch va osuda, inson qo'li bilangina yaratilgan oliy darajadagi san'at asaridek ko'rinar edi. Birmuncha muddat Palmer cho'g'dek qizil palto kiygan bo'ydor mallasoch ayolni kuzatib

turdi, u "Bokvit" do'konidan chiqdi-da, "Plaza" tomon yurib ketdi. Shu masofadan ham ayolning bo'yi rosa 180 sm kelishligi bilinib turardi. Agar paltosi rangini aytmasa, bu Edis ham bo'lishi mumkin edi. Bu ham Edisga o'xshab katta-katta odimlar bilan shaxdam yurib borar, sochi ham Edisdaqa yaltiroq va qo'lini ham shunaqa burchaksimon qilib siltar edi. Ayol oliy darajada maftunkor ko'rinardi.

Qiziq, bordi-yu, agar bu yangi palto olgan Edisning o'zi bo'lib chiqsa, men o'zimni qanday his etgan bo'lardim, deb o'yladi Palmer. U ayolning poshnasi balandligini chamalab ko'rmoqchi bo'ldi. Ko'zi o'tkir bo'lgani bilan shuncha yerdan turib buni hatto chamalashning ham iloji yo'q edi. Biroq uning hozirgi yurishi hech bo'lmaganda Virjiniya Kleri tuflisiga o'xshash juda baland poshnali tufli kiyib olganiga Palmerning imoni komil edi. Edis esa juda nari borganda besh santimetrcha keladigan poshnali tufli kiyadi. Demak, bu Edis emas. Lekin u juda ham jozibador edi.

Qurib ketsin bu gaplarning bari, o'yladi Palmer derazadan shartta o'girilar ekan. U birdaniga haddan tashqari ko'p narsalar haqida xayol suradigan bo'lib qolibdi o'ziyam.

Palmer paltosini kiydi-da, bankdan chiqib, sharq tomon yo'l oldi. Ikkinchi avenyuga yetib bordi va restorangacha shu yo'ldan ancha yurdi — bungacha uni birov zimdan kuzatayotibdimi yo yo'qmi, bemalol bilib olsa bo'lardi.

Kun uncha sovuq bo'lmasa-da, izg'irinli shamol yuzga urardi va Palmerning ko'zi yoshlana boshladi. Peshtaxtaga qaramoqchi bo'lgan odamday u mahalla o'rtasida to'xtadi. Bir mahalla o'tib, bu usulni yana takrorladi.

Kun sovuq, ammo quyoshli bo'lganidan odamlar ko'chada serob edi. Ular lenchga borar yoki o'sha yoqdan qaytar edilar, musaffo osmon, yo'lak asfaltining jimir-jimir yog'dusi, o'tib ketayotgan mashinalar oynasidan hammayoqqa tashlanayotgan quyosh shu'lalarining o'ynoqi aksidan zavqlanganicha tez va shaxdam qadam tashlar; kiyimlarini hilpiratgan shamoldan zavqlanib yurib borar edilar. Palmer bunday zavqni tuymayotgan edi.

Lekin u o'ziga nisbatan ishonchsizlikni his etmoqda edi. O'z shubhalarini ming bir taroziga solib, ulardan xatolar topib, xulosalar chiqarib, o'zini g'irt ahmoq sanab va hatto jinni hisoblab, u shu narsani anglay boshlagan ediki, o'zining asosiy fikrini tasdiqlash uchun haddan tashqari kam isbotga ega ekan. Modomiki shunday ekan, buni Berkxardtga izhor qilishning nima keragi bor? Hech bo'lmaganda birgina keskin isbot bo'lishi shart. Shunday xayollar bilan u burchakdagi telefon budkasiga kirdi va o'z makleriga qo'ng'iroq qildi. Ularning suhbatini qisqagina bo'lsa-da, biroq Palmer uchun nimanidir oydinlashtirganday bo'ldi.

Restorangacha yarim mahallalik yo'l qolganda u ortidan hech kim kuzatmayotibdimikan degan o'yda yana bir tekshirib oldi va hech qanday g'ayriodatiy narsa payqamadi. Shu top miyasiga uning shubhasi adolatlimi yo yo'q, bundan qat'i nazar, o'zimni muttahamlarcha tutayotibman, degan o'y keldi. U restoranga ta'bi tirriq bir holda kirib keldi, o'z stolchasini topdi-da, viski buyurdi.

Berkxardt kirib kelganida Palmer allaqachon ikkinchi stakanga o'tib ulgurgandi. Garchi kechikkani uchun choldan g'ijini o'tirgan bo'lsa-da, u baribir dastlabki yengil va mazmunsiz suhbatni ochilibgina o'tkazdi. Restoran kambargina xonada joylashgan bo'lib, "N" harfining ikkala oyog'iga o'xshash ikkita xonaga ajratilgandi. Qachonlardir ilgari devorlarga manavi yerda yuztacha odamning kulgili bashalari chizib tashlangandi. Suvratlar tagidagi aji-buji imzolar ulardan birontasining kimligini bilishga xalal bermasdi. Asl qahramonlari kimligidan bexabar Palmer suvratlarning kimligini bilish uchun Nyu-York ahli bo'lish kerak deb behuda taxmin qilmoqda edi.

— ... Biqin go'shtiga gap yo'q, — der edi bu orada Berkxardt.

— Bu joy haqida menga Garri Elder aytgandi, — izoh berdi Palmer. — Men sizni bu yerda bo'lgansiz deb o'ylovdim.

— Bu yerda-ya? Bu yerda hech ham bo'lmaganman ilgari, — Berkxardt go'shtdan katta bo'lak kesib oldi-da, sanchqi bilan uni ikki bukladi va likobchadagi tiniq qizil sharbatga botirib olib, yeya boshladi. — O'-o', mazaligini qarang.

Berkxardt tez-tez chaynab, tez-tez yutar edi. So'ng sanchqini qo'ydi-da, Palmerga qaradi. Uning mitti to'g'nog'ich boshi sanchib qo'yilgandek qorachiqli och moviy ko'zlari hozir kattalashganday

tuyulib ketdi. Mana, nechanchi martaki, o'yladi Palmer, qiziq, nima uchundir Berkxardt har doim charaqlagan quyosh va qattiq shamolga betkay turib yurib kelayotgan odamni eslatardi.

— Boshla, Vudi. 1.30 da men shaharda bo'lishim kerak.

— Jadvalingiz shunaqa tig'iz paytda sizni bu yerga sudrab kelganim uchun uzr so'rayman.

— Qo'yaver. Nimani ham yashirardik. Gapir.

Palmer endi uchinchi stakan viskini mayda-mayda ho'plardi.

— Oldin aytganimday, bunda hech qanaqa sir-asror yo'q deb o'ylayman, — tushuntirdi u. — Faqat miyamga kelib qoldi-da, biz har doim bir xil restoranlarda ovqatlanib o'rganganmiz va... — U yelka qisib qo'ydi. — Men sizga o'zimning notiqlik safarim istiqboli haqida gapirib bermoqchi edim. Men uni Mak Berns istiqboli degim keladi.

— U bilan munosabatlaringiz qanday?

— Zo'r.

— Xursandman. — Berkxardt ovqatga og'zini to'ldirib gapirardi. — Bu mitti yunon bilan birga ishlab keta olish uchun sening muomala qilish qobiliyating borligini bilardim.

Palmer bir bo'lak go'shtni indamay chaynab yedi. So'ng:

— Livanlik bilan, — dedi. — Madomiki, siz uni shunday deb o'ylar ekansiz, jin ursin, siz uni nega yolladingiz?

— Majburlikdan. U demokratlarga kalit.

— Demokratlar butunlay omonat banklari tarafdorlari va bizlarga qarshi-ku. Ularga hech qanday kalit to'g'ri kelmaydi.

Berkxardt boshini chayqadi-da, yaxshi chaynalmagan luqmani yutib yubordi.

— Ishonmayman bunga. Shunday bo'lganida Jo Lumis Bernsni o'zi yollashga harakat qilmasdi.

— Bu qachon bo'lgan edi?

Berkxardt qo'lini keng yoyib siltadi:

— Mish-mishlar qulog'imga o'tgan bahorda chalingandi. Jo Bernsni omonat banklari uchun yollamoqchi edi. Agar demokratlar shunchalik yakdil bo'lsalar, ularning jipslashuvlari uchun shuncha pulni isrof qilishning nima hojati bor edi? Bundan tashqari, Berns bizning reklama agentligimizda jamoatchilik bilan munosabatlar bo'yicha bo'limni boshqaradi. Bundan ham aniqroq nima bo'lishi mumkin?

— Lumis Bernsni yollamoqchi bo'lgan deb kim aytdi sizga?

— Ahamiyati yo'q. — Berkxardt yana bir bo'lak go'sht kesib og'ziga soldi-da, chaynay boshladi. — Jin ursin, buni o'zing ham bilib olaversang bo'ladi. Archi Nikos o'shanga shama qilgandi.

Palmer oldinga engashdi-da, o'z boshlig'iga yanada tikilibroq qaray boshladi.

— Nikos shunaqa axborotlarning ishonchli manbasi ekanmi?

— E xudoyim-ey, bo'lmasa-chi. Xuddi Gibrallarday ishonchli.

— U Lumisga sizga yaqin bo'lganday yaqinmi?

— Men faqat bir narsani nazarda tutayapman, — uqdirib dedi Berkxardt. — U biron narsani xabar qilganida, bu g'oyatda aniq bo'ladi. — Berkxardt chaynashdan to'xtadi. — Senga nima bo'ldi, Vudi?

— Shunchaki qiziqish.

— Ko'nglingda boshqa gap borga o'xshayapti. — Berkxardt asta bosh chayqab qo'ydi. — Xalqaro bank ishlari bilan shug'ullanuvchi bu arboblarni taklif uchun faqat bittagina dastakni topib olishgan: kafolat. Agar ular YuBTKday katta banklarning qulog'iga lag'mon ila boshlasalar, o'zlarining navbatdagi bank ishlari uchun pulni qaerdan oladilar?

— Boshqa banklar ham bor. Sug'urta kompaniyalari ham bor, xayriya jamg'armalari ham bor. Mamlakatda oqilona foydalanishni kutib yotgan pullar to'lib-toshib yotibdi.

— Vudi, qachon esing kiradi? Agar o'zining asosiy pul manbalariga pand berib ketganida, Archi Nikosni shuncha uzoq saqlab turgan bo'larmidi? Nima bo'lganda ham, jin ursin, sen nimaga shama qilayapsan o'zi?

— Men sizga aytdim. Oddiy qiziquvchanlik. Nima uchun Bernsni yollaganingizga qiziqayotuvdim-da.

— Eng avvalo, uni Lumis yollab olmasligi uchun.

— O'zidan keyin o'rniga qo'yish uchunmi?

Berkxardt bosh irg'adi.

— Ko'ngling to'ldimi?

— Haddan tashqari. Umrimda birinchi marta. Quloq soling, — davom etdi Palmer. — Mening notiqlik safarimda ortiq markiz Kvinzberri¹ ning qat'iy qoidalarini bo'lmaydi. Men omonat banklariga qo'limga tushgan har qanday narsani, agar u ancha zalvorli bo'lsa, otishga tayyorman. Ammo boshlashdan oldin men sizdan qanchalik chuqur kirib borish mumkinligini aniqlashim kerak.

— Istagan chuqurlikka kirib boraver. — Berkxardtning oqish moviy ko'zlari qisildi, tabassumdan tishlari tirjayib ko'rindi. — Oxir-oqibatda men seni har doim ishdan haydashim mumkin:

— Jumladan, — davom etdi Palmer go'yo eshitmaganday, — direktorlaringiz va ularning departamentlari faoliyat doirasi qanchalik chuqurlikka ega o'zi? Agar bir g'isht tashlasam, odamlarimizdan birining boshiga borib tegishi mumkin-ku?

— Ehtimol. Menga, masalan, buning farqi yo'q.

— Hissadorlarimizga nisbatan qanaqa? — tinib-tinchimasdi Palmer. — Direktorlarga nisbatan sizning sanksiyangizni oldim, bizning aksiyalarimizga egalik qilgan soxta bevalaru yetimlarga nisbatan qanday?

— Hech qanday muammo yo'q.

— Sizning munosabatingiz menga yoqadi. General jang arafasida o'z askarlariga deydi: "Ular sizga zarar yetkaza olmaydilar". Nima bo'lganda ham aksiyalarning yirik xaltalarini kim ushlab turganini tushuntirib berganingizda yaxshi bo'lardi.

Berkxardt go'shtini yeb tugatdi va asta-asta chaynalgancha huzur qilib o'zini stul suyanchig'iga tashladi.

— Buni hamma biladi, Vudi. O'zingni hech narsadan xabari yo'qday qilib ko'rsatib nima qilasan?

— Sizningcha, bunga vaqtim musoida etadimi?

Berkxardt yelka uchirib qo'ydi.

— YuBTK aksiyalarini har kim ham ola biladi. Har kimning o'z ulushi bor. Menda 90.000 aksiya bor, xuddi shunchadan Garrida ham, Kliffda ham, boshqa vitse-prezidentlarda ham bor. O'zaro yordamning yirik jamg'armalari va investitsiya banklarida ham ko'p aksiyalar bor. Men nima deyishim mumkin, Vudi? Bunday aksiyalar o'zini munosib deb topgan har qanday odamda bor. Boshqa banklar YuBTK aksiyalarini ushlab turibdilar, sug'urta kompaniyalari ham. Maklerlar YuBTK aksiyalarini o'z mijozlariga sotmoqdalar, chunki mijozlar YuBTKni talab qilmoqdalar. Grestlarning jamg'armalari. Nafaqaxo'rlarning jamg'armalari. Mubashshirlar bevalarining allaqanday dafn jamg'armasi 20.000 aksiyaga ega ekan. YuBTK aksiyalari haddan tashqari mustahkam. 1933 yildan buyon biz dividendlarning bitta ham to'lovini o'tkazib yuborganimiz yo'q. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa dividendlar qariyb 60 foizga o'sdi. 1954 yilda biz hatto aksiyalarni maydalab yubordik. Agar 1945 yilda aksioner YuBTKning 100 dollarlik aksiyalariga ega bo'lsa, bugungi kunda uning mablag'i 240 dollarni tashkil etayapti. Hamma YuBTKni sotib olmoqda. Birjada bizning aksiyalarimiz eng barqarori. G'ishtlarni uloqtirganingda kimni mo'ljalga olganingni men qayoqdan bilay? Takror aytamanki, bu haqiqatan ham bir chaqaga qimmat. Bizning mulklarimiz shu qadar kengki, bizga zarar keltirmoq uchun ko'nglingdagiday katta bo'lakni ushatib ololmaysan.

— Siz tavakkal qilish va bundan nima chiqarkin, deb qarab turish kerak demoqchimisiz?

— Bo'пти. Faraz qilaylikki, shunday. Lekin men bir narsani tushunmay turibman, bu seni nega tashvishga solmoqda? Nega aynan hozir? Nega birdaniga?

Berkxardtning ko'zlari katta-katta ochildi, bu ham bir lahzagina, qorachiqlar nurdan qisilguncha davom etdi, xolos. Palmerni bu ko'zlarda namoyishkorona takabburlikdan boshqa yana nimadir yilt etgandek bo'ldi. Balki, u buni eshitdimikan yo? Berkxardt haddan ortiq qizishib ketmadimikan? Yoki Palmerning o'zi isbotlarni qidirib, ularni aslida yo'q joydan topmadimikan?

Javob o'rniga Palmer likobchani surib qo'ydi, o'zini orqaga tashladi va sigareta tutatdi.

— Co'nggi vaqtlarda men birjadagi ahvolni kuzatdim, — yolg'onladi u, hozirgina makleridan olgan ma'lumotlarga tayanib. — Bilasizmi, — davom etdi u, — YuBTK aksiyalari ahvoli bilan qiziqish uchun bir amallab vaqt topishga harakat qilayapman. Men har kuni sotuvga qancha aktsiya kelib tushishini tekshirayapman. Asta-sekinlik bilan bo'lsa ham, ammo aktivlar muntazam o'sib bormoqda.

— Sening ko'zlaring menikidan o'tkirroq, — keskin ohangda javob berdi Berkxardt.

— Siz hech narsani ko'rmadingizmi?

— Men odatdagi aktiv talabi va taklifini ko'rganman, xolos. YuBTK aksiyalari boshqa aksiyalar qatori jadal sotilmoqda va sotib olinmoqda. Ammo jadallik umumiy. Bu bevosita YuBTKga daxl qilmaydi.

— Men bunga ishonmayman.

— Vudi. — Berkxardt sanchqini shunday keskin qo'ydiki, Palmer cho'chib tushdi. — Bu o'zi, jin ursin, gapni qayoqqa burayapsan?

— Modomiki siz bu faollik risoladagiday dedingizmi, men sizning so'zingizga ishonishim kerak.

— Ishonaver, jin ursin, — shartta dedi Berkxardt.

— Yaxshi, — yon berdi Palmer. — Keling, so'nggi bir necha oyni olaylik. Aktsiya baholari biroz tushdi. Uning birjadagi narxlar tebranib turibdi. Shunday kun va haftalar bo'ladiki, YuBTK aksiyalari ko'payib ketadi, shunday kun va haftalar bo'ladiki, ular ozayib qoladi. Bu beqaror bozor. Vaqti-vaqti bilan narx ko'tarilishi kuzatiladi, chunki ularda ko'plab tajribasiz havaskorlar ishtirok etadilar. Ammo narxni tushirib o'ynaydigan chayqovchilar hamon faol va vaqtinchalik vaziyatdan o'z manfaatlariga foydalanib qoladilar. Agar siz hisobotlarni o'rgangan bo'lsangiz, ko'plab tarqoq bank ishlarini payqagan bo'lishingiz kerak. Men sizga aytgan haligi ikkitasini istisno qilganda yorqin tendentsiyalarning yo'qligi. Birjada nima qilinayotganidan, u yoki bu haftaning umumiy yo'nalishi qandayligidan qat'i nazar, siz YuBTKning sotilgan aksiyalari miqdorining birmuncha ortganini albatta, ko'rasiz. Bir necha oy muqaddam kunduzgi me'yor taxminan soat uchlarga teng kelgan edi. Kecha olti mingtasi sotilgandi. Bu bitta tendentsiya. Ikkinchisi — bu narx. Bir necha oy muqaddam u yetmish ikkida muqim turgan edi. Kecha, birja yopilganda, yetmish sakkiz edi.

Berkxardt qo'llarini ikki tomonga yoydi.

— Men senga hozirgina aytdim, bizlar — birjaning asosiy ustunimiz, deb. O'zing ayt-chi, nima uchun bizning aksiyalarimiz shunchalik ko'p jamg'armalarning portfellarida bor? Agar jiladigan bo'lsak, yuqoriga qarab jilamiz. Asta-sekinu ammo bir tekis jilamiz. Endi bunaqa safsatalaringga balo bormi? Undan ko'ra muddaoga o'tib qo'ya qol.

Palmer lablarini qimtididi.

— Meni gapdan chalg'itishga urinmang, — sovuq ohangda dedi u. — Bu qo'lingizdan kelmaydi.

Berkxardt unga uzoq qarab qoldi. So'ng YuBTK Prezidentining yuzida qandaydir o'zgarish yuz berdi. Ko'zlari atrofidagi qoramtir ajinlar chuqurlashdi. Palmer suhbatdoshining qansharidagi tomirlar bo'rtganini, pastki jag'i oldinga turtib chiqqanini payqadi.

— Gapi, — dedi Berkxardt muzdek sovuq ohangda. — Davom et. Gapi.

— Men aytadiganimni aytib bo'ldim, endi navbat sizga.

— Mening nima deyishimni istaysan? — so'radi Berkxardt. Endi uning ovozida bo'g'iq shikoyat ohangi bor edi. — Sen haqsan deyishim kerakmi? Ha, ehtimol, sen haqdirsan.

— Unda tushuntirib bering, bu nimani anglatadi? — iltimos qildi Palmer.

— Agar bilganimda... — Berkxardt xo'rsinig'ini bosdi. — Bo'пти. Men buni uch haftacha ilgari payqagan edim. Sen ham, aftidan, payqagan ko'rinasan, men oldingi oylarni tekshirib chiqdim va bu ancha vaqtdan beri sodir bo'lib kelayotganini ko'rdim. Men tushuntirib bersin deb darhol Kliffni chaqirdim. U bunday ishlardan doim xabardor bo'lib turishi va u biron narsani sezgan zahoti menga ma'lum qilishi shart. Xuddi menga o'xshab, Kliff ham hayron edi.

— Axir bu yaxshi emas-ku. U bilishi kerak edi!

— Nazariy jihatdan shunday. Lekin u bu narsaning oddiy hol ekaniga ishonib qo'ygandi.

— Bir daqiqa siz bayon etgan keng mulohaza — bu Kliff Mergendalning izohi edimi? —

o'smoqchiladi Palmer.

— Ozmi, ko'pmi darajada. Lekin bu unaqa bema'ni narsa emas-da.

— Albatta, — uni quvvatladi Palmer, — agar men kabi sizning ham orqa miyangizda ilgarigiday noxush sezgi qolib ketayotganini hisobga olmaganda.

Berkxardt miyig'ida kulib qo'ydi.

— Seni nima tashvishga solayapti, shuni ayt, men senga o'z tashvishlarim haqida so'zlab beraman.

— Birinchi bilmoqchi bo'lgan narsam shuki, nima uchun Kliffda bunday tashvish yo'q?

— Kliffni esdan chiqar! — qo'lini siltadi Berkxardt. — Bular ortidan sen nimani ko'rib turibsan, meni shu qiziqtiradi.

— Ehtimol, u yerda biror narsa bordir, ehtimol, u yerda aytarli hech nima yo'qdir. Bordi-yu, mana shu nimadir bor bo'lsa, demakki, kimdir ham bor. Mantiq meni mana shu nuqtaga olib kelib qo'ydi. Bu yog'iga menga o'zimda yo'q dalillar kerak. Lekin ular sizda bor.

— Menda?

— Bo'lmasa-chi, — dedi Palmer qat'iy va sipolik bilan. — Siz mana shu "kimdir"ga ism qo'yishingiz mumkin. Juda bo'lmaganda ichidan bittasini tanlab olish uchun ismlar ro'yxatini berishingiz mumkin. Men bunday qilolmayman. Siz esa qila olasiz.

— Kimdan boshlashimni ham bilmay qoldim. — Berkxardt o'zini stul suyanchig'iga tashladi-da, yonidagi devorga chizilgan qizil suvratlardan biriga tikildi. Suvratda simyog'ochga tirmashib chiqayotgan, tepada o'tirgan Jenni degan qiz tomon talpinayotgan qandaydir Charli tasvirlangan edi.

— Qo'lingizdan kelmaydimi, — zo'r berardi Palmer, — yoki xohishingiz yo'qmi?

Berkxardt zimdan unga yeb qo'yguday bo'lib qaradi. Ko'zlari chaqnadi, qansharidagi tomir bo'rtidi.

— O'zingni bos, Vudi. Nima deyayotganingni o'ylab ko'r, bolakay.

— Men sizni haqorat qilmoqchi emasman, — endi Palmerniki ham tutib ketdi. — Men sizga yordam bermoqchiman.

— Sendan yordam so'ramagandim, shekilli?

— Nega so'rashlarini kutib turar ekanman?

— Sen har doimgiday sertakalluf va haqsan, o'lay agar. — Tishining orasidan dedi Berkxardt. — Menga yordam kerak bo'lganida, o'zim so'rayman. Ammo qachondir yangi kelgan odam menga yordam bermoqchi bo'lsa, bilayki boshimga musibatning zo'ri tushadi. — Aftidan, o'zini jamoatchilik joyida talab etilgandek tutishga harakat qilganicha u asta o'rnidan turdi. — Endi quloq sol, — davom etdi u. — Ajoyib lenchni rasvo qilding. Lekin men sendan xafa bo'lmayman. Ko'p bo'lmag'ur gaplarni gapirding. Buni ham esimdan chiqaraman. Faqat bir narsani tushunishingni istardim: ko'chani kesib o'tishda Berkxardtga hech kimning yordami kerak emas. Yetaklovchi kerak bo'lib qolganida, o'zim chaqiraman. Hozir esa, bor, ma'ruzangni o'qi, qolganini menga qo'yib ber. Tushundingmi?

Palmer o'rnidan turdi.

— Bu sizning bankingiz.

— Mana endi sen qandaydir chigal gapni aytding, — dedi boss. — Yaxshisi, buni esingdan chiqarma. — U qo'lini uzatdi. — Gap oramizda qolsin, xafa bo'lish yo'q, Vudi.

Palmer uning qo'lini oldi va qo'pol va yo'g'on barmoqlarning qattiq qisganini sezdi.

— Siz nima desangiz — shu.

— Bo'пти, — dedi boss. — Shoshmasak bo'lmaydi. Sen bilan keyin gaplashamiz. Yoki ertaga. — U qo'lini siltab qo'ydi, garderobdagi kiyim ilgichdan paltosini oldi va restorandan chiqib ketayotib hayron qarab turgan qizga 25 tsent tashlab ketdi.

Palmer derazaga qaraganicha ancha turib qoldi. Ko'chadan Berkxardtning chorpahil qomatini, paltosini kiyayotganini naridan-beri ko'rdi. U kimgadir qo'l siltab qo'ydi. So'ng Palmer bossning transportdan ilgarilab ko'chani kesib o'tganini, narigi tomonda turgan o'zining "rolls"i tomon yo'l olganini ko'rdi. Berkxardt mashinaga chaqqon o'tirdi, eshikni yopdi va yelib ketdi. Palmer o'zicha to Berkxardt uning qo'lini qisib xayrlashganidan hozir g'oyib bo'lganiga qadar taxminan 30 soniyacha

o'tgandir-ov deb chama qildi.

Shiddatli. Qaysar. O'ziga ishongan. Kuydi-pishdi.

Shu bilan birga, dilidan o'tkazdi Palmer, birjadagi YuBTK aksiyalari nima bo'layotganini kimdir sezib qolganidan xabar topib, oyog'i kuygan tovuqday pitillab ham qoldi.

Ofitsiantni qidirib, Palmer u yoq-bu yoqqa alangladi. U yo'q edi. Palmer o'tirdi, yana chekdi va sigareta uchiga tikildi. Hech kimning yordamiga muhtoj bo'lmagan qaysar va beso'naqay chollar uning me'dasiga tega boshlagandi. Ilgarilari bunday hollarda u har doim otasiga yon berardi va bahsli o'rinlarga boshqa qaytmasdi. Lekin bu ilgari shunday edi, hozir esa — boshqa zamon. Bu gal u boshlagan ishini tashlamoqchi emas.

O'ttiz uchinchi bob

Palmer oteldagilar kutubxona deb ataydigan choqqina bir xonada o'tirardi. Bolalarning uxlaganiga ham bir soatlar bo'lib qolgandi. Olti xonali kvartiraning allaqaysi bir chekkasida xotining nimalar bilandir kuymanib yurgani qulog'iga chalindi. Hozir "kutubxona" bo'm-bo'sh edi. Nyu-Yorkka ko'chib o'tishlarida Edis Chikagoda saqlagani qoldirishga ko'nmagan sonsiz suvratlaru kitoblarga to'la qutilar g'oyib bo'lgan. Bugun kunduzi, hoynahoy, yukchilar kelgan va Palmerlarning bor bud-shudini kvartiradan olib ketgan. Faqat almashtirilgan toza choyshabu yostiqpo'shlargina qolgandi. Edis bilan otel oqsochi barcha kastyumlar, ko'ylaklar, mayda-chuyda kiyim-kechaklarni plastik jomadonlarga joylashdi, shkaf va yozuv stoli tortmasida ertangi kunga asqotishi mumkin bo'lgan narsalarnigina qoldirishdi. Oteldagilar "mutolaa chirog'i" deb ataydigan chiroqning xira yog'dusida o'tirib, Palmer ertangi kunga xotini qaysi kostyumni tayyorlab qo'ygani ustida bosh qotirardi.

U, albatta, Chikagoda Nyu-Yorkka, endi esa oteldan ularning yangi uyga ko'chib o'tishlarida tashabbus ko'rsatgan Edisdan minnatdor. Uyni epaqaga keltirish esa uning sira-sira qo'lidan kelmasligi aniq edi. Shuncha ishlarni Edisdek qoyilmaqom qilib uddalash har qanday ayolning qo'lidan kelavermasligini ham tushunardi Palmer.

So'ng uning fikrlari asta yo'nalishini o'zgartirdi-da, o'zining gunoh va xatolari haqida o'ylay boshladi.

Uning o'zi, deylik, mana, bir oy bo'ldiki, qurilishda qorasini ko'rsatgani yo'q. Aylantirib kelganda, u uyni bor-yo'g'i ikki martagina ko'rgan: Edis bilan ular uyni sotib olishga qaror qilgan kuni va ikkinchi gal ichki devorchalarni qurib bo'lishgan kuni. Boshqacha aytganda, — dedi u o'ziga-o'zi, — qurilish ishlari boshlab yuborilgandan keyin u uyga mutlaqo e'tibor bermay qo'ygandi. Agar Edisning chizmalari bilan apil-tapil tanishib chiqqanini hisobga olmasa, u yoqda nima qurilayapti yoki qanday ko'rinishga ega va unga yoqadimi, yo'qmi — hech baloni bilmas edi.

Mana shuning o'zi, endi bilishicha, uyga nisbatan loqaydlik va hatto Edisga nisbatan shafqatsizlikdir.

Darvoqe, Edis hech buni uning yuziga solmasdi. Asosiy ishlar qilib bo'lingan so'nggi bir necha haftada hali talay ishlar qarab yotardi, masalan, oshxonadagi plintus yong'oq yog'ochidan bo'lsinmi yo tik yog'ochidanmi? Oqshomlari eridan uning xohishini aniqlab olish uchun Edisning vaqti bemalol bo'lardi: ha, katta mehmonxona bo'lmaning poli sidirg'asiga dub taxtalardan bo'lgani ma'qul. Qoplamalar fabrika matosidan emas, qo'lda to'qilganidan bo'lsin. Oshxonadagi esa zarang yaprog'i shaklidagi plastikdan qoplansin; bolalar xonasiga esa hech qanaqangi vinil-asbes taxtachalari ketmaydi (yalang oyoqlar uchun juda sovuqlik qiladi, yaxshisi, eman yog'ochidan bo'lsin). Liftning o'zi ochilar eshiklari uchun o'n soniya ochiq turish yetarlimi? Yetarli. Ha.

Kutubxonada o'tirar ekan, Palmer, mana, ikki oydirki, Edis oddiy pudratchi, chizmakash-ixtirochilik ishini, shuningdek, me'mor ishining bir qismini o'z zimmasiga olgani haqida fikr yuritar edi. Bular barchasi uchun men undan minnatdor bo'lishim kerak, deb o'y surardi Palmer.

Biroq, astoydil o'ylab ko'rsa, aslida u xotinidan minnatdor emas ekan, balki shunday tuyg'uning joizligini e'tirof etar ekan, xolos. U endi tan berdiki, Edis boshidan suv o'girib ichsa arziydigan xotin, tamom.

Shunday xayollar bilan Palmer zaif nurdan ko'zini xiyol qisgancha yana hujjatlarni o'qishga tutindi. Uning oldida xromli qisqichlar qadalgan va ko'k jildga solingan taxlam-taxlam qog'ozlar yotardi. Birmuncha muddat Palmer ularni varaqladi, biroq keyin uning xayoli yana chalg'ib keta boshladi. So'ngsiz ismlar va manzillar silsilasida qandaydir umidsizlik bor edi. Berkhardt haq: uncha-muncha qo'r-quti bor odamlar ko'proq YuBTK aksiyalarini sotib olmoqda. Hozir Palmerning qo'lidagi aksionerlar ro'yxati manavi yerda yarim kilochoa keladi.

Aniqrog'i, bu yerda bitta qilib qistirilgan ikkita ro'yxat bor edi. Biri olti oy burungi ahvolni batafsil izohlab turardi. Ikkinchisi hozirgi vaqtni aks ettirardi — bu, albatta, Garri Elder qanchalik ulgurganiga qarab belgilanadi, ya'ni nari borganda o'ttiz kun avvalgi muddatni qamrab olgan.

Birjuda g'ayrioddiy faollik boshlanganda Palmer buning sababini anglab yetdi — har kuni aylanmada YuBTKning tobora ko'proq aksiyalari miqdori bo'lar edi. Aksiyalarning bir qancha yirik egalardan ko'plab mayda egalarga tabiiy o'tishi sodir bo'lmoqda deb taxmin qilish mumkin edi. Deylik, o'n minglab aksiyalarning egasi, qandaydir o'zaro yordam jamg'armasi yilning so'nggi choragida o'z portfeli yukini birmuncha yengillatishga qaror qila oladi. Bu minglar oxir-oqibatda bir necha yuz xususiy xaridorlarga yo'l topishi mumkin. Bunday taxminda go'yo mantiq borga o'xshaydi. Biroq ro'yxatlarni taqqoslab chiqib, Palmer ko'rdiki, so'nggi olti oyda aksiyalarning ko'pi aksionerlarning oz miqdori qo'lida ekan. Bu kutilmagan hol edi.

U "uh-h" deb qo'ydi va og'ir qog'ozlar bog'lamini tizzasiga tushirib yubordi. So'nggi yarim soatni u eski ro'yxatda uchramagan ismlarni yangi ro'yxatga qayd etib qo'yishga sarfladi. U ahvolni bor-bo'yicha aniq ko'z oldiga keltira olardi: yarim yil ichida YuBTKning yaqin 200 ming aksiyasi sotuv yo'li bilan uch ming odamdan taxminan 25 nafar odamga o'tgan. U bu yigirma besh nafar yangi odamdan bittasini ham bilmasdi va ularda hech qanday ma'lum tendentsiyani ko'zda tutmasdi. Hatto ularning manzillari ham deyarli butun mamlakat bo'ylab sochib yuborilgandi.

Palmer esnadi va ko'zlarini yumdi. Qulog'iga Edising xonalardan biridagi shaxdam odimlari chalindi.

Edis. Palmer uyqusiragancha qachondir ishi uchun xotinini maqtaganini eslashga harakat qilib, ikki oy orqaga qaytishga urinib ko'rdi. Shunga o'xshagan biron og'iz gapni unga gapirganmikan hech? Nima degandi? U yoki bu bahona bilan sof shartli manfaat ifodasidan tashqari umuman biron-bir tanbeh qilganmi? Mana bu katta qurilish borasida qachondir o'z fikrini xotiniga bayon qilganmi? Aslida savol va javoblardan tashqari umuman biron gap gapirganmi?

Uyqu qochdi. Palmer o'rnidan turdi va aksionerlar ro'yxatini stulga qo'ydi. Xotinini izlab, xonama-xona yura boshladi. Uni oshxonadan topdi. Edis ochiq muzlatgichga tikilib qarab turardi. Pastdan tushib turgan yog'duda uning ingichka yuzi, cho'zinchoq, uchli iyagi yanada yaqqolroq ko'zga tashlanardi. Pardozsiz, yengi kalta keng oq bluzka va xokiyrang shim kiygan Edis, bankirning xotiniga ham o'xshamasdi, o'yladi Palmer. U nigohini xotini shimning uzun chizig'idan yuqoriga, bolalarcha sonidan olib o'tib, qora charm kamar taqqan beliga ko'tardi.

— Muzxonaga hech qanday tajovuz o'tkazilmasin, — hazillashdi Palmer.

Xotini burilib qaradi.

— Azizim, — dedi u, — keksayganingni o'zing bildirib qo'yayapsan. Rostdanam bu "muzxona"-ku!
— U muzlatkichdan nimanidir sug'urib olgani engashdi va Palmer hatto shu holatida ham xotining dumbalari yassi, kesimsiz ekanini ko'rdi. — Buzilmaydigan narsalar bo'lsa, bugunoq o'rab-chirmab qo'ya qolsam deb o'ylayotuvdim.

— Qolgan buyumlarga qachon kelishadi?

— Ertaga ertalab, sen bilan bolalar ketishgandan besh daqiqa o'tib.

— Hammasi shunga hisob-kitob qilinganmi?

— Hali bu holva, — dedi xotini gavdasini rostlarkan. — Mana, kunduzgi ishlar soniyama-soniya

haqiqatan ham hayratomuz darajada hisob-kitob qilingan. Bolalar xonasi soat uchga tayyor bo'lishi kerak. Biznikilar sabr qilib turishadi.

— O'zing bolalardan ortmasang ham kerak.

— Turgan gap. — U yarim burildi, lekin eriga qaramadi. Muzlatgich ichidan chiqib turgan nurda uning qomati maftunkor aks etib turardi — mo'jazgina siynalari do'ppaygan, qorni shu qadar yassiki, belidagi kamar to'g'asi ortiqcha buyumday ko'rinib qolgan.

— Boshqalarning ishlashlarini tomosha qilamiz deb oyoq ostida o'ralashib yurishlarini xohlamayman — busiz ham ular deyarli hech narsa qilishmaypti, — qo'shimcha qildi Palmer.

— Ular band bo'lishadi. — Xotini jimib qoldi. — Ertaga soat nechada kutay seni?

— Soat... — Palmer ham jimib qoldi. — Anig'ini bilmayman. Agar istasang, ertaroq kelishim mumkin, bir amallab.

— Bir amallab kelsang, yaxshi bo'lardi, harqalay.

Palmer bosh irg'adi va shu zahoti xotini uning harakatini payqay olmasligini angladi, chunki u hamon unga qaramayotgan edi.

— Menga biron-bir maxsus topshiriq bormi?

— Bilasan-ku, ertaga ertalab missis Keyj keladi.

— Ertaga keladimi?

— Soat 12 da u Aydluayldda bo'lishi kerak. Men unga to'g'ri uyga taksi ol deb aytdim. Agar uchalamiz oqshomni shunga bag'ishlasak, kitoblarni taxlar, suvratlarni osar va ko'rimli bo'lishi uchun turli uslubdagi mebelni joylashtirar edik.

Palmer asta oh tortib qo'ydi:

— Butun oqshom suvratlarni osish. Zo'r-ku.

— Osmaymiz. Nahotki osish ustasi bo'lmagan odamga men bu ishni shundoq ishonib topshirib qo'yaversam.

— Sening mutaxassislaricha ishlab chiqqan rejang barcha san'at asarlarini osishni ko'zda tutmaganmi hali? — so'radi Palmer. Gapini oxiriga yetkazmayoq u so'zlaridagi oshkora sarkashlikni o'zi ham aniq his etdi. — Aytmoqchi edimki, — shoshib gapini to'g'riladi Palmer, — shift chiroqlari nahotki o'rnatilmagan bo'lsa?

Bu gal ayol burilib unga qaradi. Yorug' uning orqasidan tushib turgani bois, Palmer xotining yuzidagi ifodani o'qib ololmayotgandi.

— Vuds, — xotirjam ohangda dedi Edis, — chiroqlar ko'chma, ularni istagan vaqtda istagan joyga to'g'rilasa bo'laveradi.

— Men, men unday...

— Hechqisi yo'q, — uning so'zini bo'ldi xotini. Qandaydir chorasiz harakatni boshlab, ayolning qo'llari yuqoriga ko'tarildi va o'sha zahoti qotib qoldi. — Hechqisi yo'q. — Edis orqasi bilan unga o'girildi va tag'in muzlatkichga tikildi. — Lekin iltimos, uyga tushlikka kelishga harakat qil. Bu bizning yangi uyimizdagi birinchi tushligimiz bo'ladi.

— Albatta.

Yana biron narsa aytar deb o'ylab, Palmer kutib turdi. Lekin xotini jim edi. Shunda Palmer bironta jo'yali gap topib, suhbatlariga ko'ngilli xotima yasashni o'ylay boshladi. Xotiniga qarab turib, u birdaniga Edisning qattiq jahli chiqqanini angladi, aks holda uning muzlatkich eshigini bu taxlit uzoq ochiq tutib turishini boshqa nima bilan izohlash mumkin? Edisning bilmagan narsasi yo'q desa bo'lardi; onasi va oqsoch xotindan ham u odatdagi, Uellesli kollejidan ham odatdagi bilim va uquvlarni olgan edi. Biroq Palmer uning o'ziga xos va mos bo'lmagan ma'lumotlarni qaerdan olganligini bilolmay boshi qotgani-qotgan edi. Edis, masalan, elektrga oid haddan tashqari ko'p narsalarni bilardi. O'ziga tanish bo'lgan ayollar ichida elektr pechkasi, changyutkich va torsherni bitta rozetkaga tiqib bo'lmasligini, aks holda qisqa tutashuv ro'y berishini birgina u bilar edi. Muzlatkichda haroratning muayyan darajasini tiklash uchun qancha vaqt ketishini ham bilardi. Shunday bo'lishiga qaramay, mana, necha daqiqadirki, muzlatkich hamon ochiq turardi.

- Borib ishimni tugatib qo'yay, — dedi Palmer.
- Yaxshi. — Xotini soatiga qaradi. — Birozdan keyin yotsak ham bo'ladi.
- Men tezroq bo'lishga harakat qilaman.
- Durust.

Palmer burildi-da, bu yerga nega kelganini eslab, to'xtadi.

— Menga qara, — asta dedi u, — sen rosa charchagan bo'lishing kerak. Hozir borib yotsang nima qilibdi?

- Hozir yotaman.
- Oxirgi ikki oy rostdanam og'ir bo'ldi.

Yupqa oq bluzka ostidan Palmer salqi taqilgan kamar uzra uning belini ko'rdi. Go'yo umurtqasi bir xil holatda mahkamlanib qo'yganday Edis qiyshiq harakat bilan xiyol o'girildi.

— Ha, — bosiq ohangda javob berdi u pastga, yerga qaraganicha.

— Men sening rejang va sening rahbarliging ostida nimalar qilingan bo'lsa, hammasini nazarda tutayapman, — davom etdi Palmer. — Bu katta ish edi. Hammasi deyarli oxiriga yetib, sening qanchalik baxtiyor ekaningni tasavvur qilayapman.

— Ha.

— Bu yoqqa qara, men... — Palmer jim bo'lib qoldi va xotini ko'rmayotganidan xursand bo'lib, pastki labini yalab qo'ydi. — Men ilgari sira aytmagandim. Ammo hammasi uchun sendan juda-juda minnatdorman.

Ayol bosh irg'ab qo'ydi. Uning nigohi hamon yerda edi.

— Men buni bilaman, — dedi nihoyat u.

— Buni qaerdan bilishingga aqlim yetmaydi, — dedi er yarim hazil tariqasida gapirishga urinib, — axir o'z minnatdorligimni izhor etishga juda no'noqman-da.

Edis boshini chayqab qo'ydi:

— Bunday emas. Faqat sen mantiqan fikrlovchi odamsan. Har qanday mantiqan fikrlovchi odam esa sen nimani ko'rsang shuni ko'rib turadi. Va minnatdorlikni ham... — Ayol jim bo'lib qoldi. Palmer uning lablari bir lahzada unsiz qimirlaganini ko'rdi, — his qiladi, — gapini tugatdi Edis.

— Men his qilaman, juda chuqur minnatdorlik tuyg'usini his qilaman va men... — o'z fikrini so'zlargisiz ifoda etishga harakat qilib, u qo'lini siltab qo'ydi.

— Va bu moddani o'z hisobotingga kiritmoqchi bo'lgansan, — dedi ayol eri uchun.

— Taxminan shunday.

Edisning nigohi yuqoriga va biroz chetga, Palmerning yuziga sirpanib bordi.

— Hisobot berish sen uchun juda ham muhim, Vuds. Bankir uchun bu eng asosiy narsa, shunday emasmi?

— Qaysidir darajada, ha.

— Hisobot, — takrorladi xotini unga qarashda davom etarkan, — bu, aslida, yakun chiqarish. Men, haligi... yillik balansni nazarda tutayapman. Sizlarda buni nima deydi? Yakuniy chiziqmi?

— Yakuniy chiziq. Ha.

— Yakuniy chiziqdan tashqari deyarli hech qanday ahamiyatga ega emas, — xotini shu qadar past ovozda gapirar ediki, yaxshiroq eshitish uchun Palmer hatto engashishga majbur bo'ldi. — U ishga xotima yasaydi. Bungacha hamma narsa bo'lishi mumkin: yaxshi ham, yomon ham, ajoyibi ham, azob-uqubati ham — har qanaqasi. Yakuniy chiziq qora siyohda tortildimi, demak hammasi joyida.

— Ana, xolos... — Palmer hissiyotining birmuncha muddat havoda osilib turishiga izn berdi, chunki garchi xotining adovatini yaqqol his etib turgan bo'lsa-da, uning nimaga shama qilayotgani tagiga yetolmayotgandi. — Men hech qachon debet va kreditni bu qadar zavq bilan izohlashganini eshitmaganman, ammo sen haqsan deb qo'rqaman. Yakuniy chiziq — faqat shu ahamiyatga ega.

— Bundan ham muhimrog'i shundaki, u kreditni ko'rsatib tursa.

— Ha.

Xotini bosh irg'ab qo'ydi:

— Yaxshi. Sen qora yakuniy chiziq tortding, azizim. Omading bor ekan.

— Edis. — Palmer xotining gavdasi rostlanganini va o'zini yaqinlashib kelayotgan hujumdan saqlashga chog'layotgandek yana ham tarang tortilganini ko'rdi. — Men senga nimani his qilayotganimni aytmoqchi edim, xolos.

— Ayt ding ham.

— Xo'sh?

— Rahmat, azizim. — Ayol yana yerga tikildi. — Jiddiy aytayapman. Rahmat.

— Sen menga rahmat aytma, men aytishim kerak senga.

Xotini qisqa, keskin kulib qo'ydi:

— Alfons va Gaston jo'mardlarcha bir-birini hurmat qilganlaridaymi?

— Tag'in meni keksaligingni bildirib qo'yayapsan deysan-a.

Ayoldagi taranglik yo'qolganday bo'ldi va u eriga burildi. Palmerga hatto xotini chehrasida tabassum jilva qilganday tuyuldi.

— Bizlar nimadan iztirob chekishimizni topmoqchi bo'lgandim, xolos, — dedi Edis. — Nyu-York kasalligidan ekan. Alomatlari — boshqalar bilan munosabatning mutlaqo yo'qligi. Sababi esa — qattiq toliqish.

— Ehtimol, sen haqdirsan.

— Lekin indin, — davom etdi xotini, — yoki hech bo'lmaganda, haftaning oxirida, batamom o'rnashib olganimizdan keyin, men dam olmoqchiman. Shunchaki dam. Sen-chi?

— Hozircha yo'q. Ma'ruzali kichikroq safarim qarab turibdi.

— Uh!

— Olbanidagi qonun chiqaruvchi yig'ilish majlislarining tanaffusigacha yana shunaqa safarlar bor.

— Qaysisi qachon bo'ladi?

— Martmi. Aprelmi. Anig'ini bilmayman.

— Azizim, bu to'rt oydan ko'proqqa cho'ziladigan ko'rinadi-ku.

— Iloj qancha...

Ayol jimgina turaverdi, so'ng qoshini chimirdi, orqaga cho'zildi-da, muzlatkich eshigini yopdi.

— UZR, — dedi u shu zahoti. — Balki, yakshanba va bayram kunlari biroz dam olarsan?

— Xudo xohlasa.

— Durust. Ishingni tugat-da, uxlagani kel.

Palmer jilmayishga harakat qildi:

— Bo'pti, birozdan keyin ko'rishamiz.

— Judayam hayallama.

Palmer kutubxonaga qaytdi va yana o'rindiqqa cho'kdi. Qiziq, xotini ataylab keskinlik yaratdi-da, keyin o'zi uni yumshatdi, go'yo u eriga g'anim emas, balki uning tarafida — ittifoqdoshday.

Palmer YuBTK aksionerlari ro'yxatini varaqlay boshladi va o'zi qandaydir hisob-kitoblar qilgan shaldiriq qog'ozga yetib keldi. Hech bo'lmaganda, deb o'yladi Palmer, o'z minnatdorligimni qayd etib qo'ydim-ku. Biroq bu minnatdorlikni qabul qilgan xotining shamasi uni bir pulga chiqarmoqda edi.

U o'rindiqqa joylashibroq o'tirib oldi-da, sahifa raqamlarini ko'chira boshladi. Ertaga ertalab u kotibasini YuBTK aksiyalarining so'nggi yigirma beshtasi ism-sharifi va manzillarini qayta yozishga majbur qiladi. Biroq bu ishni unga topshirib qo'yib, bu haqda Berkxardt voqif bo'lmasligiga ishonish mumkinmikan?

Palmer bankdagi biron-bir kishiga, albatta, Virjiniya Kleridan boshqa, ishonib bo'lmasligini tushunardi.

U Edisning muzlatkichni yana ochganini eshitdi. Palmer qog'ozlardan bosh ko'tardi va kutilmagan zo'riqishni his etgan qandaydir noma'lum narsaga shay bo'lgan holda atrofidagi zulmatga tikildi. Mana shu keskin muntazirlikda u uzoq o'tirdi. Ammo nima ekanligidan qat'i nazar, o'sha narsa kelmadi. Hozircha.

O'ttiz to'rtinchi bob

Palmer G'arbiy Qirq beshinchi ko'chadagi baliq restoranining to'rida to'rt kishilik stolda o'tirardi. U soatiga qaradi, so'ng farqini bilish uchun devordagi soatga qaradi. Unisi ham, bunisi ham kunduzgi birni ko'rsatib turardi, bu esa Mak Berns va uning mehmoni, gazeta muxbiri, yarim soat kechikayotganini bildirardi.

Palmer ofitsiantning qo'shni stolda o'tirgan ikkala kishiga viqor bilan qog'oz oshxo'rak — salfetka taqishini kuzatdi. Ularga hozirgina lench uchun haddan tashqari ulug'lik qiladigan omar balig'i tortilgandi. Bor-yo'g'i o'n besh daqiqa muqaddam bu baliqlar tirik edi va ofitsiant ularni buyurtmachilarga ko'rsatgani olib kelganida, baliqning panjalari jon talvasasida titrab turgandi. Endi esa harakatsiz qizil omarlar turli-tuman o'lim qurollari hamlasiga duchor bo'lgandi.

AQSh O'rta G'arbining ko'pgina aholisi kabi Palmer ham dengiz tubi jonivorlaridan tayyorlangan taomni xush ko'rmasdi. Chig'anog'i bo'lgan har qanday jonivorga uning tob-toqati yo'q edi. Omarlar, krevetkalar va krablar unga jahannamdan chiqqan ulkan hasharotlarga o'xshab ko'rinaridi. Chig'anoqning bir pallasida tortiladigan ustritsa va mollyuskalar unga kuydirib pishirilgan shilliqqurtning o'zidek tuyulardi. Bundan tashqari, O'rta G'arbning ko'pgina aholisi kabi, u bir narsaga sira ko'nikolmayotgandi, ya'ni Nyu-Yorkda ko'rishuvga belgilangan vaqtdan juda ham nisbiy darajada foydalanadilar, ayniqsa ko'rishuvda jamoatchilik faoliyatining, deylik, lench kabi turi ko'zda tutilganda. Soat 8 ga mo'ljallangan uchrashuv hech qachon to'qqizdan oldin boshlanmasdi. Soat 12.30 ga tayinlangan lench esa, o'ziga o'zi derdi Palmer, soat birdan keyingi har qanday vaqtni bildiraveradi.

Shu asnoda uning ko'zi qandaydir erkak hamrohligida restoranga uchib kirgan Virjiniya Kleriga tushdi. Juvon tezgina ichkariga ko'z yugurtirdi va Palmerni ko'rib, uning stoli tomon oshiqdi.

— UZR, kechikib qoldik, — dedi u nafasini bazo'r rostlaganicha. — Mak menga o'n besh daqiqa oldin qo'ng'iroq qilib, kelolmasligini aytdi. Shuning uchun "Star"ga chopdim-da, Jorjni o'zim olib keldim, — Jorjni ko'rsatish uchun u bir chetga o'tdi.

Palmer o'rnidan turdi.

— Mister Mollettmisiz? — dedi u qo'lini uzatib.

Jorj Mollett Palmerning qo'lini olib, uni qattiq va betakalluflarcha qisdi. U atrofga ko'z yugurtirdi, paltosini yechdi va o'tirishidan oldin uni stulga ildi.

Mollett ko'rinishi yosh bir kishi edi — qirqlarda bo'lsa kerak, o'yladi Palmer. Bo'yi o'rtacha, chorpahildan kelgan, boshi dum-dumaloq. Yuzi notabiiy darajada qizil. O'zi shunaqami yo dekabr sovug'i natijasimi, Palmer tushunolmadi. Mollettning ko'zlari xuddi Berkxardtga o'xshab oqishtob moviy rangda bo'lib, o'ynab turardi, shu bilan birga sinchkov ham edi. Aftidan, narsadan narsaga ko'chganida ular qisqa, o'tli nigohlar bilan tasavvurlarni qamrab olayotganday bo'lardi. Xoh Virjiniyaning stolidagi qovushtirilgan qo'llari bo'lsin, xoh tuzdon yoki qo'shni stolda omarxo'rlik qilgan, ko'kraklariga oshxo'rak taqqan odamlar bo'lsin va hattoki Palmer ko'ylagining yoqasi bo'lsin — hech bir narsa bu o'ziga xos ko'zlar hamlasidan chetdan qolmayotganini Palmer payqadi. Ko'zlaridagi bu sinchkovlik, Palmerning fikricha, Mollettning aniq bir shaklga ega bo'lmagan, ko'proq ildizpiyozga o'xshab ketadigan burniga sira hamohang emasdi. Bu noyob burun sinchkov ko'zlarni xaspo'shlab turish uchun maxsus yaratilgan, deb o'yladi Palmer. Mehmonning og'zi kichkina, lablari do'rdoqqina edi. O'sha og'izni ochib, Mollett chiyildoqqina dadil ovozda so'radi:

— Nima ichamiz biz?

Palmer kulib yubordi va ofitsiantga qo'l siltadi.

— Bemavrid sovuqni qarang-a, — dedi u. — Birona antifriz buyuraylik bo'lmasa, xo'pmi?

— Viski. Har qanaqasi. — Mollett Virjiniyaga o'girildi: — Mak juftakni rostlatdi-da, a? Xuddi o'ylaganiday bo'lib chiqdi, men bilan nonushta qilishga uning beti chidarmidi.

— Nimaga unday deysiz?

Yoqimsiz hidni haydaganday, Mollett qo'lini sermadi.

— O'tgan hafta bu yigitcha yolg'on birja ma'lumotlari bilan meni yomon tuzladi. — U oldinga engashdi, tirsaklarini stolga qo'ydi, ovozini pasaytirdi: — Jinning ham xayoliga kelmaydigan gaplar. Emishki, dividendlar oshishi e'lon qilinarmish, aktsiyalar qo'lma-qo'l bo'lib ketarmish. Emishki, ikki hafta ichida daromadlar ikki baravar ko'payarmish. Halizamon 80 million dollarga hukumat shartnomasi e'lon qilinarmish va shunga o'xshagan safsatalar. Eshitib, soching tikka bo'ldi.

— Sen sotib olmagandirsan? — so'radi Virjiniya.

Mollett boshini chayqadi va jilmaydi:

— Azizam, agar men umuman qachondir aktsiya sotib oladigan bo'lsam, har qanday odamdan maslahat so'rasam ham Mak Bernsdan so'ramasman. U buni gazetamizda yozib chiqishimga umid qilgandi. Maqola esa aktsiyalar narxini ko'tarish uchun kerak edi. Oddiy o'yin. Bundan kulgili narsa bo'lmasa kerak. — U basharasini burishtirdi.

— Bunaqasi hech qachon bo'lmagan, — juda jiddiy ohangda dedi Virjiniya, — Nyu-York jurnalizmi tarixida uchramagan voqea.

— Hah! Ammo biz "Star"doshlar bunaqa voqealarga ilakishmaslikka harakat qilamiz.

— Boshqa gazetalardagi ucharlar shunaqa narsalar bilan shug'ullanadilar, to'g'rimi, Jorj?

Jorj juvonga qovog'i ostidan qarab qo'ydi-da, Palmerga yuzlandi:

— Siz ajabtovur bir narsaga ega bo'ldingiz. U bankni egallamasdan qo'ymaydi.

Palmer ofitsiantga ichimliklar buyurdi.

— Kimdir baribir shuni qiladi, — dedi u. Mollettning ko'zlari birdaniga dum-dumaloq bo'lib qoldi va Palmerga tikildi:

— Tushunmadim.

Palmer boshini chayqadi va Virjiniyaga murojaat qildi:

— Mak nima deb ta'riflagandi? Qo'rqqoqlikmi?

— Soat birda u Olbaniga uchib ketayapti.

— Makning bo'lgani shu, — tasdiqladi Mollett. — Aerodromga yetib olish, ikki motorli shaloq mashinada uchish, keyin esa aerodromdan shahar markaziga yetib olish uchun ketadigan vaqtiga, o'sha yoqqa poezdda ham yetib olsa bo'lardi-ku. Lekin Mak o'laqolsa bunday qilmaydi.

— Tezlikning o'zi, — dedi Palmer, — goho tezlik haqidagi xayolchalik bo'lmaydi.

— Xayol esa, — qo'shimcha qildi Mollett, — agar siz Mak Berns bo'lsangiz, voqelikdan ko'ra ancha muhimroq.

Oraga chuqur sukunat cho'kdi. Sukunatga g'arq bo'lib ketayotganini his qilgan Palmer dedi:

— Qiziq, modomiki siz Mak haqida shunday fikrda ekansiz, u siz bilan bugun qanday qilib ham birga ovqatlanardi?

Mollett to'rtburchak barmog'i bilan Palmerni ko'rsatib, o'zining chiyildoq dadil ovozida dedi:

— Mening bu yerdaligim — sizni ko'rish uchun, bas. To'g'risini aytsam, Mekki Nojning Olbaniga uchib ketganidan o'zimda yo'q xursandman.

Viski keltirishdi. Palmer o'z stakanini ko'tardi.

— Dushman o'rdasidagi sarosimalik uchun!

Mollett shirin jilmaydi:

— U kim bo'lishidan qat'i nazar!

— Sizga nimani so'zlab berishim mumkin? — so'radi Palmer.

— Siz bir narsani hisobga olishingiz kerak, — gap boshladi Mollett, — bank ishlari bilan shug'ullanadigan yigitchamiz ta'tilda. Mening soham boshqa. Hozir men sizdan intervyu olish vazifasini bajarayapman, xolos. Yonimda bir necha ming savoldan iborat uncha katta bo'lmagan ro'yxat bor.

— Qaysi mavzuda?

— Omonat banklari bo'limlari haqidagi taklifni qanday qilib barbod qilmoqchisiz?

— Matbuot uchunmi?

Mollett kaftini yuqoriga qilib, ikkala qo'lini oldinga cho'zdi.

— Buning uchun menga haq to'laydilar.

— Lekin menga buning uchun haq to'lashmaydi-da, — eslatdi Palmer. — Bir qancha shunday masalalar bo'yicha norasmiy gaplashib olganimizda mendan baxtli odam bo'lmasdi. Ammo matbuot uchun men sizga aytmoqchi bo'lgan gaplardan bir abzats narsa chiqsa ham katta gap.

— Keling, shundan boshlay qolaylik.

Palmer biroz viski ichib oldi.

— Biz qo'limizdan kelgancha tez va g'ayrat bilan odamlar ongiga shuni yetkazmoqchimizki, milliy iqtisodiyotimizning hozirgi bosqichida omonat banklari pullarning boshi berk ko'chasi bo'lib qolgan; shaxsiy omonatlar — yaxshi narsa, ammo bunday omonatlar ko'payib ketaversa, albatta, yaxshi bo'lishi shart bo'lmay qoladi; omonatlarning muntazam o'sishi aslida iqtisodiyotning tabiiy rivojlanishini qiyinlashtiradi; shunday qilib, omonat banklarining bosqinchilik talablari jamiyat manfaatiga ziddir.

Mollett biroz o'ylanib qoldi, so'ng stakanni ko'tardi.

— Men siltab tashlamoqchi emasman, — dedi u muzli viskiga qarab, — ammo siz aytgan gaplardan birontasini shov-shuvli yangilik deb atay olmasdim.

— Bilaman, — unga qo'shildi Palmer, — biroq matbuot uchun boshqa hech narsa aytolmayman.

Mollett xo'rsindi.

— Unda, keling, norasmiy gaplashaylik. Agar men arziydigan bir narsa ko'ra olsam, biz buni boshqatdan yozib chiqamiz-da, rasmiy tus beramiz. Maylimi?

— Har holda, bir sinab ko'rsak yomon bo'lmasdi.

Mollett bosh irg'adi-da, Virjiniyaga qaradi:

— Bankir uchun yomon emas. — O'sha-o'sha shirin jilmaygancha u yana Palmer tomonga o'girildi. — Matbuot uchun emas. Hozirgina bayon etgan bo'lmag'ur gaplaringizdan hech bo'lmasa bittasiga o'zingiz ishonasizmi?

Palmer kinoyali jilmaydi:

— Matbuot uchun emas, "bo'lmag'ur" — bu topib aytilgan so'z emas. Bu yerda "zaharlash" so'zi ko'proq mos keladi. Biroq — hamon matbuot uchun emas — men aytgan narsalar iqtisodiy siyosat yasaladigan Vashingtonda va boshqa oliy doiralarda muqaddas haqiqat sanaladi.

— Bankir bo'lishingiz o'laroq siz shaxsiy kreditni cheksiz ravishda kengaytirishga qanday qaraysiz?

— Uni inkor etish uchun bankir bo'lmoq mutlaqo shart emas, — javob berdi Palmer. — O'z mamlakatining farovonligini qadrlovchi har qanday odam buning telbalik ekanini biladi. Boshqa tomondan, bu odam shuni ham biladiki, — qo'shimcha qildi u, — kreditni qisib qo'yib, biz shunday iqtisodiy iskanja ichiga kirib qolamizki, buning oldida 1929 yilgi bo'hron sekin chalinuvchi valsga o'xshab qoladi. Juda-juda kech bo'ladi. Yo'lbarsni dumidan tutdingmi, endi uni qo'yib yuborib bo'lmaydi.

— Juda yaxshi, — dedi Mollett. — Iqtibos keltirsam maylimi?

— Arzimaydi.

— Yo'lbarsning dumi borasidagi ta'rifni har kim har xil tushunishi mumkin, — davom etdi reportyor. — Masalan, Tammani yo'lbarisi¹ oldida raqs tushadigan bankka nisbatan. Hatto vositachi sifatidagi Mak Bernsga ega bo'lib turib ham.

Palmer qoshini chimirdi:

— "Raqs tushadigan" iborasini aniqroq izohlab bera olmaysizmi?

— Uni qaytib oldim. Keling, boshqacha aytaylik — Tammani ta'siridan o'z iqtisodiy maqsadlarida foydalanadigan bank.

— Bu haqda mister Berkxardtdan so'rashingizga to'g'ri kelmasmikan deb qo'rqaman. Mak Berns mening sahnada paydo bo'lishimdan ancha oldin yollab olingan.

— Agar men Berkxardtdan iltimos qilgudek bo'lsam, — e'tiroz bildirdi Mollett, — u menga o'shqirib berishi tayin. Men sizdan so'rayotganim sababi shundaki, siz sog'lom fikrli odamga o'xshayapsiz. Siz

bankirning zamonaviy namunasini o'zingizda namoyon qilgansiz, — qo'shib qo'ydi u Virjiniyaga ko'z qisib, — hamkorlik qilishga hoziru nozirsiz va umuman oliy darajadagi zakovat sohibisiz.

— Maqto'v so'zlaringiz maqoladan boshqa siz uchun hamma narsa qilib bera oladi, — javob berdi Palmer. — Yana o'shanday matbuot uchun emas — men Berns va Tammani bilan aloqani meros qilib olganman. Bunda qandaydir mantiq bor. YuBTK sizning savollaringizga o'xshagan savollarga o'rin qoldirmaydigan qilib ish ko'rmog'i lozim, xolos.

— Boshqacha aytganda, Tammani bilan hamkorlik qilish sizga yoqmaydi, shundaymi?

— Men qarshi emasman, faqat men uni o'yinning asosiy qoidalaridan biri deb bilaman, xolos.

— Uh-h, — dedi Mollett. U yana Virjiniya tomon o'girildi: — Kelasi safar men undan intervyu olganimda qalamni xonada qoldirishimni eslatib qo'y.

— Bunaqa tikka savollar bermagin-da, — maslahat soldi Virjiniya.

— Biz norasmiy gaplashayapmiz. Chegara — osmon bilan yercha, xo'pmi? — dedi u Palmer tomonga o'girilib.

— So'rang.

— Ha, albatta-da, — kuldi Mollett, — yana qanaqa yo'l bilan biron narsa bilib olardim? — U stolga shunchalik chuqur engashib oldiki, viskili stakan uning ko'kragiga qisilib qoldi. — Bunga nima deb javob bergan bo'lardingiz: siz Mak Bernsga ishonasizmi?

— Ishonmasligim kerakmi? — uni qayirib tashladi Palmer.

— Kasodgarchilik borasidagi ishlarni olib boruvchi sudlar unga ishonadigan odamlarga liq to'la.

— Tushunishimcha, uning mijozlaridan ko'pchiligi ancha boy odamlar bo'lgan.

— Men aynan ana shundaylar haqida gapirayotibman hozir, Makning siyosiy ta'siridan foydalanish niyatida uning oldiga tanda qo'yuvchi chakana-chukanalar haqida emas. U bunday odamlarning ayamay siqib suvini ichdi va agar ulardan loaqal bir foizginasi qachonlardir hukumat shartnomasini olgan bo'lsa, hayratdan yoqa ushlagan bo'lardim.

— Bunday odamlarga ko'zingiz tushganida yuragingiz qonga to'lmaydi, shunday emasmi? — so'radi Palmer. — Bunday o'yinning mohiyati shundan iboratki, yurakni siqib, qonini ichuvchi odamning yuragi toshdan bo'lishi kerak.

— To'g'ri. YuBTK ga nisbatan meni xuddi shu narsa tashvishga soladi.

Palmer yana ofitsiantni chaqirdi.

— Qaytaring.

— Zo'r, — rozi bo'ldi Mollett.

— Meniki — bas, — dedi Virjiniya.

— Aytmoqchi, yeyishga u-bu buyursak qalay bo'larkin? — qo'shimcha qildi Mollett. — Men ozroq omar olaman, qovurilganidan va yangi sabzavotdan salat ham. Sen-chi, Jinniy?

— Nyuburgcha omar.

— Pushti mag'iz bifshteksi, chala qovurilganidan, — dedi Palmer. — Qanaqa gazak bo'lsin?

— Menga hech narsa. — Mollett boshini bir yonga solintirdi. — Bilasizmi, u buyurtma olib ketganida men sizga yana o'sha savolni beraman?

— Xuddi shundan qo'rqib turuvdim, Virjiniya!

— Rahmat, omardan boshqa hech narsa kerak emas.

— Bo'ldi. — Palmer ofitsiantning uzoqlashayotganini kuzatib turdi. — Siz, — deb davom etdi u, — YuBTKning ko'nglida o'g'irlikka moyillik bor ekan, deb o'ylayapsizmi?

— Ko'nglida shunday moyillik borgan o'xshab ish tutilyapti deyapman.

— Sizning bank haqida bunday o'ylashingizdan hayronman. Bank biznesi — bu insoniyatga ma'lum yagona qonunlashtirilgan o'g'irlik ekanini nahotki bilmaysiz?

Mollett tugmadekkina semiz lablarini bujmaytirib, bosiq jilmaydi.

— Siz mening savolimga hazil bilan chap berib ketmoqchimisiz?

— Bo'пти. Buni boshqacha ifoda qilib berishimga ijozat bering: o'tgan yillarda Olbanida shtat chekkalaridagi qonun chiqaruvchilar tijorat banklarini homiylikka oldilar. Nyu-York qonun

chiqaruvchilar omonat banklarini afzal deb topdilar. Agar biz Tammani yordamida bir qancha nuuyorklikni o'z o'rdamizga avrab kiritib olsak, bu o'g'rilik bo'ladimi?

— Bu Tammanining qaysi yo'l bilan sizga yordam ko'rsatishiga bog'liq.

— Bu endi Tammanining ishi.

— Ana-ana, — tilidan tutdi uni Mollett, — mening bir qora tanli do'stim aytganiday, ayni ilmoqli joyga keldik. Siz qanday yo'l bilan foydalanishingizga javobgar emassiz deb Tammanini pul bilan ta'minlayapsiz.

— Bunga pulning nima daxli bor? Biz Bernsga durustgina gonorar to'layapmiz. Biroq bu gonorar bitta-yarimta qonun chiqaruvchini sotib olishga yetishi amri mahol.

— Siz hech qachon... — Mollett jim bo'lib qoldi va boshini chayqadi. — Albatta, yo'q. Boshqa hech kim ham. Men bir narsani so'ramoqchi edim: siz qachon bo'lsa ham Makning shaxsiy kirim-chiqim daftarini ko'rganmisiz? O'ylashimcha, u uni hatto onasiga ham ko'rsatmasa kerak. Biroq bordi-yu, agar unga ko'zingiz tushgudek bo'lganda, Makning baliqday sukut saqlashga qodir sherigi bor ekanidan xabardor bo'lgan bo'lar edingiz. Bu indamas, ko'rinmas, mavjud emas sherik Makning daromadlaridan kattagina bo'lakni o'ziga oladi. Hech kim hech qachon buni isbotlay olmaydi, biroq ismi boru jismi yo'q bu sherik — Viktor Salvatore Kalxeyndir.

Palmer yelka qisib qo'ydi.

— Sizning shunday o'ylashga haqqingiz bor. Biroq bu narsa nima uchun Mak Bernsdan boshqa biron odamni tashvishga solishi kerak?

— Sizni hayron qoldirishning o'zi bo'lmaydi, a? — hayajon bilan dedi Mollett. — Siz xalq saylagan vakillar ovozini sotib ola bilishi uchun kimga pul berish g'oyasida nojo'ya hech qanaqa narsa topmaysizmi?

— Albatta, — unga qo'shildi Palmer. — Bunda ham, urushda ham, ocharchilikda ham, vaboda ham qandaydir juda ham nojo'ya bir narsa bor. Lekin bular bari hayotiy hodisalardir. Nojo'ya, ammo bor narsalar.

— YuBTK so'nggi vaqtlarda, — kuruq javob qildi Mollett, — biron-bir urushni, ocharchilikni yoki o'latni moliya bilan ta'minlaganini eshitmaganman.

— Tammanini ham moliya bilan ta'minlamaymiz. Agar bilishni xohlasangiz, — davom etdi Palmer bir tekis va hayajonsiz gapirishga harakat qilib, — omonat banklari Mak Bernsni yollamoqchi bo'lishgan, lekin biz uni ushlab qoldik.

Mollett jim edi. U ofitsiantdan viskili yangi stakan oldi va o'zining to'mtoq ko'rsatkich barmog'i bilan uni dasturxonda oldinga va orqaga sura boshladi. Oxiri u ko'zini ko'tardi — uning sinchkov nigohi bir necha marta Virjiniyadan Palmerga sakradi.

— Bu juda qiziq, — past ovozda dedi u oxiri.

— Nima uchun?

Mollett bir necha bor boshini chayqadi:

— Intervyu olishga izn bering.

— Aftidan, bu yangilik sizni lol qoldirdi, shekilli?

— Yo'q, shunchaki qiziqtirib qo'ydi. — Mollett qo'lini Virjiniya qo'lining ustiga qo'ydi. — Seni ham bu narsa nahotki qiziqtirmasa, Jinniy?

— Xo'p, davom et, Jorj, aylantirma. — U ikkinchi qo'lini Mollettning qo'li ustiga tashladi. — Agar biron narsa biladigan bo'lsang, do'st bo'l.

Reportyor yana boshini bir yonga solintirdi.

— Eshitingiz-a, — dedi u Palmerga, — "Biron narsa biladigan bo'lsang, bo'l. Men bundan durustrog'ini topib aytolmagan bo'lardim".

Palmer uzoq sukutga cho'mdi. U bir taxminni aytish va shu bilan Mollettning ishonchini qozonish uchun eng qulay payt kelganini tushunib turardi. Biroq taxmin shaklida bo'lsa hamki, bunday izhor xavfli edi. Qulay payt kelganda u birinchi bo'lib e'lon qilmasligi sharti bilangina bunday sirni Mollettga ishonsa bo'lardi. Biroq Palmer bunday shart qo'yish uchun vaziyatni yaxshi bilmasligini tushunardi.

Bundan tashqari, nima uchun gapirish kerak ekan, deb mulohaza ham qilmoqda edi. Suhbatlar nuqul ko'ngilsizliklardan boshqa nima keltirardi? Bu yerda esa ular busiz ham oshib-toshib yotibdi.

— Men sizga yordam berishni istardim, — dedi Mollett. — Ammo siz bilan ishlash oson emas.

Virjiniya yo'talib qo'ydi.

— Bu noiloj odam, — Palmerga murojaat qildi juvon, — haqiqatan ham yordam berish qo'ldan keladigan oz sonli odamlardan bittasi.

Palmer stakanni ko'tardi, biroq ichmay uni qayta joyiga qo'ydi. Keyin o'z qarorini mustahkamlayotgandek, stakanni bir chetga surib qo'ydi.

— Avvalo men quyidagilarni bilishim kerak, — gap boshladi u. — Keling, faraz qilaylik, men sizga qandaydir sirni aytdim, ehtimol, u hech qachon matbuot uchun ashyo bo'lmas. Keling, yana faraz qilaylik, buni isbot qilish mumkin emas yoki men mutlaqo nohaqman, keling, yana bir faraz qilaylik, mening ma'lumotlarim chala va sizning tomoningizdan ishlov berilishiga muhtoj. Bu ishni bajara turib va sizda qachonlardir maqola chop etish imkoniyati bo'ladimi, yo'qmi, bilmay turib, qoniqish hosil qilasizmi?

Mollettning kichkinagina og'zi yasama shirin tabassumdan ikki tomonga cho'zildi.

— Men chop etilmaydigan narsa ustida ishlashni jonimdan yaxshi ko'raman. — So'ng jiddiy ohangda davom etdi: — Keling, ishning mohiyatiga qaytaylik. Agar u chindan ham muhim bo'lsa, unda men unga o'z vaqtimni sarf qilish istagimni izhor etaman.

— Matbuot uchun emas.

— Sho'rlik matbuot uchun emas, — unga qo'shildi Mollett.

— Shubha qilishga menda asos bor, — tez gap boshladi Palmer, agar sherigi so'zlarni terishga kirishgudek bo'lsa, ularni hech qachon aytib ulgurmasligini bilib, — YuBTK ustidan nazorat o'rnatishga intilayotgan qandaydir, tashqi guruhlar yo'q emas.

Mollett tovushsiz hushtak chaldi. Uning nigohi darhol Virjiniyaga sakrab o'tdi.

— Rostdanmi? — ming'irladi u.

— Sen bu odamni eshitgansan, — javob berdi juvon.

Reportyor o'zini asta stul suyanchig'iga tashladi va joylashibroq o'tirdi.

— Mak Bernsning Olbaniga borishiga to'g'ri kelib qolganidan xursandman.

— Nimaga bunday deysiz? — so'radi Palmer.

— Chunki u bu yerda bo'lganida, siz menga buni sira ham aytmagan bo'lardingiz.

— To'g'ri. Ammo nega siz shunday o'ylaysiz?

— Davom eting. Mak Berns o'zining bashang ikki yuz dollarlik kostyumini kiyib yuraverishi mumkin, lekin men uchun u Troya oti bo'lib qolaveradi.

— Bu, — asta dedi Palmer, — bugun men eshitgan eng qiziq narsa bo'ldi. — Birmuncha vaqt hamma jim bo'lib qoldi. Sukunat cho'zilib ketdi. Ofitsiant stolga uchta likobcha qo'ydi va marmitdan¹ Virjiniyaning likobchasiga nyuburgcha omarlarni olib qo'ya boshladi, qo'lida qisqich kabi ushlab turgan sanchqi va qoshiqlarni stol ustiga avaylab terar ekan, har bir harakati bilan oliy darajali restoranda xizmat qilishini ta'kidlayotgandek va taomnomada chop etilgan yirik dollarli narxlarni isbotlayotgandek bo'lar edi.

Mollett uh tortdi, uning ko'zlari ofitsiant sanchqilari va qoshiqlari harakatini kuzatar edi.

— So'nggi vaqtlarda biron qiziq kitob o'qidingizmi? — so'radi u hech kimga bevosita murojaat qilmasdan. Mollettning barmoqlari oq dasturxonni betoqat chertayotganini Palmer ko'rib turardi.

Hammaga xizmat qilib bo'lib, ofitsiant uzoqlashar ekan, Mollettning barmoqlari tinchidi.

— Biz nima haqdadir gaplashayotuvdikmi?

— Biz "Star"ning jonboz chalamulla yozuvchisi bu yangilikni muhim deb hisoblarmikan yo yo'qmi, shundan gaplashayotuvdik, — javob berdi Virjiniya.

— Agar bular bari qumga yozilgan bo'lsa ham, — qo'shib qo'ydi Palmer.

— O'zing hozirgina Mak Berns bilan odamning umurtqasiga o'tmas xanjarni sanchib olding-ku, — davom etdi Virjiniya.

— Menmi? — Mollett ofitsiant unga taqmoqchi bo'lgan oshxo'rakni yulib tashladi. — Halol Makka shunday qilar ekanmanmi? — U ofitsiantning uzoqlashuvini kuzatib turardi. — Turli-tuman shubhali tadbirlarning siyosiy tashkilotchisi ishonchini qozonuvchi sifatida, — dedi u omarga chaqqon va dadil hujum qilar ekan, — men uning ikki jabhaga ishlashni qoyilmaqom qilib o'rganganini ko'rdim, xolos. — Mollett omarning uzun bir bo'lagini ko'tardi, uni qizdirilgan yoqqa buladi va og'ziga jo'natdi. Uning nigohi tezgina Palmerning yuziga sapchidi. — Siz bir narsa dedingizmi? — so'radi u.

— Ezilib ketdim, xolos, — javob berdi Palmer o'zining bifshteksiga pichoq urar ekan. Chala qovurilish o'rniga go'sht tashqi tomonidan bukib qo'ya qoling, ichi esa xomligicha qolavergandi. — Mana sizga kerak bo'lsa, — shikoyatomuz dedi u.

— Yeb bo'lmaydiganga o'xshaydi, — dedi Virjiniya. — Bugun juma, men baliq taomlari tartibiga rioya qilaman.

— Aqli joyida bo'lgan odam buni chala qovurilgan deb ayta oladimi?

— Judayam chala qovurishibdi-da, — unga qo'shildi Mollett. — Qaytarib yubora qoling.

Palmer boshini chayqadi va bifshteksning yesa bo'ladigan qismlarini kovlashtira ketdi.

— Siz bizga javob bermadingiz hali, yangilik ustida ishlash uchun u sizni ko'ngildagidek qiziqtiradimi?

Mollett luqmani chaynashda davom etardi.

— Buni tushuntirish qiyinroq. Aslida, padariga qusur, deyarli iloji yo'q.

— Hech qiziqib ko'rmaganmisiz?

— Unda...

Omarning navbatdagi bo'lagini ajratar ekan, Mollett lablarini qattiq qimtdi.

— Buni tushuntirish kerakligiga unchalik ishonmay turibman, — javob berdi u.

Virjiniya sanchqini qo'ydi.

— E, yo'q. Bo'lishi mumkin emas.

Mollett bosh irg'adi:

— Mumkin.

Virjiniya Palmerga yuzlandi.

— Bu nusxaning gapiga qaraganda, — juvon ovozini pasaytirdi, — kimdir unga bu yangilikni allaqachon yetkazgan. Boshqa tomondan birov.

Palmer kavshanishdan to'xtadi. U o'zini stul suyanchig'iga tashladi, ko'zlari reportyorga tikildi. Bir lahza o'tib u go'sht luqmasini yutdi, biroq boshqasini kesib olishga shoshilmadi.

— Unda, — dedi u oxiri, — nima uchun buni mendan eshitganingizda siz hayratdan yoqa ushladingiz?

— Meni ishontirib aytishgandiki, birinchidan, YuBTK da hech kim hech narsadan shubhalanmaydi va, ikkinchidan, to oybolta tushmaguncha... ular hech nimadan shubhalanishmaydi.

— Men o'zim haqidagi birovlarning fikriga unchalik mazaxo'rak bo'lganim yo'q.

— Bu ikki oyoqda yuradigan hasharot bor-ku, Berkxardt, shu odam haqidagi ularning fikri, — javob berdi Mollett. — Ko'rayapsizmi, men bu ma'lumotlarni siz Nyu-Yorkka kelmasingizdan avval olgan edim.

Palmer bosh irg'adi:

— Ish anchadan beri davom etib kelayotganini bilardim. Nima deb o'ylaysiz, ular nechta aktsiya to'plashdi ekan?

Mollett qoshini chimirdi va omarni yoqqa buladi.

— Yana esingizdan chiqdi. Menga sir qilib aytishgan.

— Jorj, — dedi Virjiniya, — sen qanaqa do'stsan o'zi? — Reportyor indamay ovqat yeyotgani uchun u gapida davom etdi: — Mening bir narsaga hech aqlim yetmayapti, nega hamma narsa shu qadar sirli, a? Rahbarlik kursisi uchun boshqa janglar ochiq-oshkora bo'ladi. Vakolat uchun kurash. Gazetalardagi shov-shuvli sirlavhalar. Bu esa shunchalik maxfiylashtirilganki, haligacha uning borligiga ishonmayman.

— Ishon, — dedi Mollett.

— Bank shunchaki odatdagi korporatsiya emas, — tushuntirdi Palmer. — Qachondir — kimdir bank ustidan nazorat o'rnatish uchun zarba berishga harakat qilsa, u bu ishni ochiqchasiga qilishni o'ziga ep ko'rmaydi. O'rta biznesga-ku bunday oshkoralik zarar yetkazmasligi mumkin. Ammo uning bankka hujum boshlanishiga qanchalik xalaqit berishini hamma biladi.

— Oshkora kurash, — tasdiqladi Mollett, — bankni shu qadar xonavayron qilishi mumkinki, yangi rahbarga bosh og'rig'idan boshqa hech narsa qolmaydi.

So'ng yana oraga sukunat cho'kdi. Hech kim ularning suhbatiga quloq solmayotganiga ishonch hosil qilish uchun Palmer xonaga yana bir bor ko'z yugurtirib chiqdi. Kassir peshtaxtasi oldida charm kurtka kiygan bir yosh yigit metrdotel bilan gaplashib turardi. Keyin yigit metrdotelga bir konvert tutqazdi.

— Demak, — keskin ohangda dedi Mollett, — nima bor sizda?

Palmer uning ko'ziga qaradi:

— Rivojlantirish va to'ldirishda siz yordam berolmaydigan axborot.

— To'g'ri. Agar siz oldimga birinchi bo'lib kelganingizda, men bir nima qila olishim mumkin bo'lardi. Endi esa mening qo'llarim bog'liq.

— Lekin tiling emas, — pisanda qilda Virjiniya. — Odob, harqalay, sening zudlik bilan orqaga, o'sha dastlabki manbanga yugurib borishingni va unga YuBTKning ishlari besh ekan deb xabar qilishingni talab etadi.

Yoqqa bulangan omarni maza qilib chaynayotgan odam birdan achinarli holga tushib qolsa, qanday bo'ladi? Mollett ham xuddi shu holga tushgandi.

— Boshim qotib qoldi, — dedi u oxiri. — Siz men bilan xufyona gaplashdingiz.

— Rahmat, — javob berdi Palmer. U metrdotelning ular stoli tomon kelayotganini ko'rdi. — Sizni YuBTK tomonga og'dirishning biron usuli bormikan?

— "Star"ning odamini-ya? — so'radi Virjiniya chuqur hayrat ohangida.

— Bunga bir boshqacha qarab ko'ring, — dedi Palmer. — Biz qanchalik ko'p narsa bilsak, kurash shuncha keskinroq va sizning maqolangiz shuncha qiziqroq bo'ladi.

— Makiavelli, — dedi Mollett. — Siz, chikagoliklar, qotilning o'zginasi- sizlar — odam o'ldirmay turolmaysizlar.

Metrdotel stol oldiga keldi.

— Mister Palmer kim edi? — so'radi u Palmerni taniyolmay. Palmer bosh irg'agach: — E-ha, siz edingiz-ku. Marhamat, — dedi-da, konvertni unga tutdi.

Bu oppoq skotch bilan bir necha joyidan yelimlab tashlangan konvert bo'lib, ustida hech qanaqa yozuv-pozuv yo'q edi. Palmer uni aylantirib ko'rdi-da, kimdan kelganini va kimga yuborilganini aniqlay olmadi. U konvertni ochdi va ichida yassi kalit yopishtirib qo'yilgan qalin oq qog'ozni ko'rdi. Qog'ozga qizil qalamda bunday deb yozib qo'yilgandi: "Olbanida 10 kun. Mehmonim bo'l". Palmer ko'zini ko'tardi va Mollett bilan Virjiniya uni kuzatib turishganini ko'rdi Baxtiga u qog'ozni kalit ko'rinmaydigan qilib ushlab turgan ekan. U xat bilan kalitni cho'ntagiga tiqdi, bu oqilona bo'ldimi yo yo'qmi, o'ylagani ham yo'q, ishqilib ularni ko'zdan yashirsa bo'lgani edi. Xatdagi gaplardan na jo'natuvchini, na oluvchini bilib bo'lardi.

Palmerning ko'nglidan beixtiyor shunday o'y kechdi: Mak Berns josuslikda ishlasa qalay bo'larkin? Hoynahoy, yomon bo'lmasdi.

U suhbatdoshlariga jilmayib qo'ydi.

— Qotil tabiatli odamlar, — asta dedi u, — jug'rofiy chegarani bilmaydilar.

— Ya'ni? — so'radi Mollett.

— Kelib chiqishi qaerdanligining ahamiyati yo'q. Bu yog'ini so'rasangiz, Jo Lumis, agar yanglishmasam, Ogayodan.

Mollettning tugmadekkina og'zi xiyol titradi:

— O'-ha.

- Archi Nikos esa, Londondan bo'lsa kerak.
- Hm.
- Mak Berns esa, menga aytishlaricha, Bayrut bilan Gollivud mahsuloti sanaladi.
- Obbo.
- Inglizchalab bir nima desang-chi, Jorj, — iltimos qildi Virjiniya.
- Mollett kovshandi-da, og'zidagini yutdi.
- Aytadigan birgina gapim shuki, — tantanavor dedi u, — ularning kelib chiqishi kim va qaerdan bo'lmasin, chikagolik bir qishloqi lapashangni uchratib qolgan ayni paytda ularga achinib ketayapman.

O'ttiz beshinchi bob

Mak Bernsning kvartirasida Ist Riverga qaragan deraza oldida turib Palmer, xullas, hech bir narsada Bernsga ishonib bo'lmas ekan deya xayol surardi, ayniqsa uning Olbanida o'n kun bo'laman degani g'irt yolg'on bo'lib chiqdi.

Dalillarni tekshirishni uzoq mashq qilib o'rgangan Palmer Bernsning xatda ko'rsatgan o'n kunlik muddatning tug'riligiga ishonch hosil qilish uchun qo'lidan kelgan hamma narsani qildi. Bernsning idorasiga qilgan qo'ng'irog'i yordam berdi. Kotiba uni kechi bilan Rojdestvo kuniga kutmoqda edi, ungacha hali o'n bir kun bor. Qandaydir bir arzimas sabab bilan Palmer Kalxeynga ham qo'ng'iroq qildi va siyosiy arbob Bernsni Nyu-Yorkda kam deganda o'n kun mobaynida kutib turmasligini aniqladi.

Hozir Byorns mehmonxona bo'lmasi derazasi yonida avtomobil chiroqlari nuri Ist Riverdrayvning qop-qora fonida sidirg'a oq-sariq tusda qorishib ketayotganini kuzatar ekan, Palmer Bernsning sotqinligi ehtimolligi haqidagi fikrni nima uchun osongina miyasidan chiqarib yuborganini o'ylar edi. Bu fikrni hisobga olmagan uchun emas, balki Palmer ozgina urinish bilan uni xayolining bir chekkasiga surib qo'ygani uchun.

Aslida, deb o'ylardi hozir Palmer, u nima qilgan va qilmoqchi bo'lgan hamma narsa, Aftidan, uni u qadar tashvishga solmayapti. Bu ham, o'zicha iqrar bo'ldi u, undagi xohish boshqa hamma narsaning biron-bir ahamiyatini yo'qqa chiqarganidan emas. Yo'q. Bo'lajak ziyofat istiqboli boshqa barcha tuyg'ularni bo'g'ib qo'yishga qodir keskinlik bilan to'ldirmayotgandi. Xullasi kalom, Jerri aytmoqchiday, u, aftidan, o'zining yangi roliga juda sovuqqonlik bilan qarayapti.

Eshik uch marta yengil tiqilladi.

Palmer eshik oldiga bordi va bir necha santimetr qiya ochdi. Yo'lakdan unga Virjiniya Kleri kulib turardi. Palmer eshikni katta ochdi, juvonne ichkariga oldi, eshikni yopdi va qulflab qo'ydi. Keyin burildi-da, juvonga qaradi. Juvon nimqorong'ilikda turar, ko'zlari chaqnar edi, bo'rtiq yonoqlarida xiyol qizillik, lablarini hali ham yoqimli tabassum tark etgani yo'q. Palmer o'zining ham yuzida ana shunday mamnun, biroz ahmoqona sevinchli tabassum borligini bilib turardi.

- Chopib keldim, — dedi Virjiniya.
- Keragi yo'q edi.
- Keragi bor edi. Hatto lablarimga qizil surganim ham yo'q.
- Labbo'yoq deyarli butunlay yoyilib ketgan.
- Har doimgiday kunning oxirida kelib, — dedi juvon.
- Biron narsa ichasizmi?
- Zudlik bilan. — Juvon mehmonxona bo'lmasiga bordi. Palmer barga yo'l oldi, juvon uni to'xtatdi va uzun divanni ko'rsatdi. Yigit o'tirdi va juvonning kokteyl tayyorlashini tomosha qila boshladi.
- Chelakchada muz bor, — bidirlab dedi juvon, — ba'zi erkaklar hamma narsa haqida o'ylaydi.
- Otam buni hamma narsada ehtiyotkorlik uquvi deb atardi.
- Juvon stakanlarni divan oldiga olib keldi-da, yigitning yoniga o'tirdi.

Ular stakanlarini cho'qishtirdilar. Xonani to'rdagi devor derazasi oldidagi mo'jazgina chiroq yoritib turardi. Palmerning g'oyasi: ular ikkalasi uchun kifoya qiladigan yorug'lik, ko'chaning narigi tomonidagi derazalardan kuzatuvchilar uchun kifoya qiladigan yorug'lik. Bundan tashqari, chiroqning joylashuvining o'zi kuzatishga yo'l qo'ymas edi. U nimharir pardani yoritib, tashqi kuzatuvchilar va xonadagi odamlar o'rtasida to'siq hosil qilgandi.

— Sovuqqon mulohaza, — ta'kidladi yigit. — Bunday sovuqqonlik qayoqdan paydo bo'ldi?

— Sening otang, — dedi Virjiniya, — buni nima deb atagan bo'lardi?

— Borib turgan jinnilik.

Juvon bosh irg'adi.

— Men unga qo'shilaman.

— Unda, kel, ichaylik-da, ketaylik. Men Makning Olbanida ekaniga unchalik ishonayotganim yo'q.

— Men ishonaman.

— Nima uchun?

— Ishdan ketish chog'ida men unga Olbaniga qo'ng'iroq qilgan edim, — dedi juvon. — Chunki u bilan uchrashishga harakat qilib ko'rishimning aniq sababi bor edi menda. U o'n kundan keyin qaytaman, degan edi. O.Ye.O.¹

— Nima uchun sen uni tekshirib ko'rding?

— Bu oqilona ko'ringandi.

— Qo'rqayapsanmi?

Juvon jiddiy bosh irg'adi:

— O'lguday qo'rqqandim. Tashvishlanishimga sabablar juda ko'p. Men yolg'izman. Bankda pullarim bor. Agar kerak bo'lsa, men istagan vaqtimda gazetada ish topa olar edim.

Yigit jilmaydi.

— Pullaringni qaysi bankda saqlayapsan?

— Sir. — Juvon stakanidan ikki-uch ho'pladi. — Sening pullaring ko'pmi, Vuds?

— Nimaydi?

— Katta iflos janjalga bardosh berishga yetadimi?

— Ha.

— Unda ikkalamiz hech narsadan tashvish qilmasak bo'laverarkan.

Juvon u bilan yana yengil cho'qishtirib qo'ydi. — Lekin kelasi gal ham baribir ikki marta tekshiraman. — Viskini oxirigacha ichdi-da, stakanni kokteyl stolchasining zalvorli oynasi ustiga qo'ydi.

— Bugun kunduzi judayam bir kulgili voqeani boshimdan o'tkazdim. Qandaydir bir erkak mening ish stolim oldiga kelib to'xtadi. Biz u bilan nimanidir muhokama qilib turganimizda u menga kalit yopishtirilgan vatman qog'ozini ko'rsatdi. Suhbat davomida u na kalit haqida, na qog'oz haqida bir og'iz gap aytdi, men ham. U nimanidir aytmoqchi bo'lardi deb o'ylaysanmi?

— O'ylamasdan ha degan bo'lardim.

— U nimani nazarda tutgani haqida fikring qanday?

— Yaxshilikdan nishona emas.

— Xo'p, bunisi-ku, kulgili voqea bo'ldi, — davom etdi juvon, — keyin men mutlaqo g'ayritabiiy bir ish qildim. Men kechqurun birga ovqatlanishga taklif qilgan odamga qo'ng'iroq qildim va o'zimni yomon sezayapman, dedim.

— Sen bunday qilmasliging kerak edi. Men jiddiy aytayapman.

— Bilaman, jiddiy aytayapsan.

— Boshqa bunday qilma.

— Nima uchun?

— Bu ... bu unga nisbatan zulm. U kim bo'lishidan qat'i nazar.

— U meni qiziqitirmaydi, — dedi juvon. — Men o'zim o'zimga nisbatan hal etishga harakat qilaman.

— Hal qilgansan deb o'ylayman. Nazarimda, sen buni jinnilik deb e'tirof etding, shekilli.

— Ha. — Juvon qaddini rosladi va unga yanada tikilibroq qaradi.

— Va nazarimda, ichib bo'lib, ketaylik deb taklif qildim, shekilli.

— Bu taklifga men e'tibor qilmabman.

— U hamon o'z kuchida turibdi.

Virjiniya uning qo'lidan tutdi va yigit uning ingichka barmoqlari taftini his etdi.

— Kel, bu haqda gapirmaylik, — iltimos qildi juvon. — Kel, churq etmay o'tiramiz. Birpas. — U yigitning qo'lini aylantirdi, kaftiga qaradi, uni lablariga olib keldi va o'pdi.

Juvon asta egilib, uning tizzalari ustiga yetgach, yigit uni quchoqladi. Yuzidan o'pdi, so'ng lablaridan o'pdi va juvonning lablari uning lablari ostida xiyol ochilganini his qildi. Juvon anglab bo'lmaydigan bir narsa dedi: so'z yigitning og'ziga cho'kib ketdi. Juvonning qo'li to'satdan tarang tortdi va u yigitning og'zini o'zining og'ziga shunday kuch bilan bosdiki, yigitning labi yaralandi. Bir lahzadan keyin juvon qo'lini bo'sh qo'ydi. Ularning lablari ajraldi.

— Hech narsa gapirma, nafasini chiqarib dedi juvon.

Yigit uning sonidan qo'lini oldi-da, labiga tekkizdi. Barmog'iga qaradi — qon yo'q edi. U qo'lini juvonning tizzasi tagiga suqdi-da, uning oyog'ini asta silay boshladi. Xonadagi sukunat ichida qo'lining neylon paypoq bo'ylab qilgan harakatidan yengil shitirlash tarqalmoqda edi. Uning qo'li yuqoriroqqa ko'chdi.

Birmuncha vaqtdan keyin qarasa, u qalin oq gilam ustida ko'zlarini yumib chalqancha yotibdi. Virjiniya qayoqqadir g'oyib bo'lgandi. U juvonning kokteyl tayyorlayotganini eshitdi. Ko'zini ochib, juvon uning boshi uzra qo'lida stakan bilan turganini ko'rdi.

— Sen baribir mallasoch uchun sertuklik qilasan, — dedi juvon.

— Tirishaman.

Virjiniya oyog'ini uning ko'kragiga qo'ydi.

— Og'riyaptimi?

— Yo'q.

— Endi-chi?

— Agar qars etgan ovoz eshitsang, bilginki, qovurg'am singan.

— Jo'ja. — Juvon oyog'ini oldi-da katga tomon ketdi. Palmer uzoqdan juvonning quymichi va sonlari mushaklarining o'ynoqlashini kuzatdi. Juvon ikkita kichkina-kichkina yostiqchani olib qaytib keldi va taklif qildi: — Boshingga qo'yib ol. Gilam unchalik yumshoq emas.

Erkak yostiqqa yotgach, juvon uning qorni ustiga minib oldi, stakanni uning lablariga olib bordi va to ichib bo'lgunicha asta-asta egib turdi.

— Rahmat, — dedi nihoyat Palmer.

— Agar og'irlik qilayotgan bo'lsam...

— Qushday yengilsan.

Juvon jilmaydi va stakanni uning boshi yonidan yerga qo'ydi, bir nima deb gapirmoqchi bo'ldi-yu, lekin tutilib qoldi.

— Menga ayt-chi, — dedi juvon oxiri, — qattiq tajribang natijasimi bu? Yoki sen o'zing shunaqamisan?

— Qanaqaman?

Juvon xiyol oldinga egildi:

— Go'llikka solma o'zingni.

— E, buni aytayapsanmi? Yaxshi. — Yigit yuzini shunday qiyshaytirdiki, bundan: "Senga nima ham derdim" — degan ma'noni uqish mumkin edi. — Bu tajriba natijasi emas.

— Sendagi men eng ko'p yaxshi ko'rgan narsa — bu kamtarlik.

— Men iloji boricha kamtarona javob berishga harakat qilaman, — dedi Palmer yon bermay. — Lekin savolning o'zi u qadar kamtarona emas. Harholda uni ikki xil tushunsa bo'ladi. Uni boshqacha qilib ham aytish mumkin: sening aql bovar qilmas muvaffaqiyating siri nimada?

— Javob o'sha: tajriba natijasi emas.

— Unda nima?

— O, — dedi juvon. — Men senga aytib berishim mumkin. To'g'risini aytsam, men har ikkala savolga javob bera olaman. Mening yaxshi bo'lishimga sabab — bu sensan va shuning aksi.

— Chakki emas.

— Ustimdan kulish yo'q, — ogohlantirdi Virjiniya. — Buning uchun sen hozir o'shanday holatda emassan. — U gilamdan oyoqlarini ko'tardi-da, Palmerning qorni ustida chordona qurib o'tirib oldi.

— Qalay, og'irmi?

— Necha kilogramsan?

— 1 stoun 5 funt.¹ Shuning bari ichak-chavoqlarimga bosib turibdi.

— Menda bir foydali fikr paydo bo'lib qoldi, — dedi yigit. — Qorin mushaklarini mustahkamlaydigan mashqlar. Menga 1 stoun 5 funt og'irligidagi bir ayol kerak. Sen bunga qiziqmaysanmi?

— Yo'q.

Juvon oldinga egildi-da, yigitning ustiga shunday cho'zildiki, yuzi yigitning bo'yniga yopishdi, ularning oyoqlari bir-biriga juftlashdi.

— Nima bo'lganini bilayapsanmi? — so'radi juvon. — Endi sen meni butunlay sezmayapsan.

— Judayam xato qilayapsan-da!

— Vaznimni nazarda tutib aytayapman.

— E-ha.

— Sen taxta katchalik ham emas ekansan.

— Aybsitavera-a, aybsitaver.

— Qoq suyaksan, — davom etdi juvon, — bundan tashqari, har xil bo'rtiqlar.

— Balki, murvatlar bo'shshib qolgandir?

— Uni mahkamlashning qandaydir usuli bo'lishi kerak.

— Bo'lishi kerak.

— O, — dedi juvon, uning ko'krigidan asta tishlab.

— Qanaqa?

— Qarab tur.

Telefon jiringlaganda soat endigina to'qqizdan oshgandi. Palmer yuzini gilamga tiqib, qornida uxlab yotardi. U asta qimirladi, so'ng butunlay uyg'ondi va Virjiniyaga tikildi. Juvon barmog'ini uning labiga bosdi. Telefon yetti marta jiringlaguncha ular bir-biriga tikilib qarab, kutib turishdi. Sakkizinchi qo'ng'iroq o'rtasida u tindi.

— Shahar qo'ng'irog'i, — dedi juvon. — Bu uydanda emas.

— Soat necha?

— To'qqizlar atrofida. Qorning ochdimi?

Yigit boshini chayqadi.

— Men uxlaganimda nima qilding?

— Seni tomosha qildim.

— Xo'sh?

— Va o'yladim. — Juvon chekib turgan sigaretasini unga uzatdi. — Seks haqida o'yladim.

Yigit bir tortdi-da, sigaretani qaytardi.

— Nimani topding?

— Ikkovimizdan bittamiz ham tushunib bo'lmaydigan narsani.

— Juda afsusdaman.

— Afsuslanma. Men shunday xulosaga keldim: Buni tushunish mutlaqo shart emas. Bu yog'ochdan zavq olgan bilan baravar.

— Hamma ham shunday his etavermaydi.

— Men ikkovimizga bir qara, demoqchiman. Agar turli-tuman gunohu ayblar nomi bilan ataluvchi narsalardan o'tib kelish uchun to'la ixtiyorga ega bo'lmasak, ko'p o'tmay hech qanaqa lazzat ololmay qolamiz.

Yigit tirsagiga suyandi.

— Sen asosiy narsani esdan chiqarayapsan.

— Bugun oqshom ko'pam esdan chiqarayotganim yo'q.

— Asosiysi o'z kuzatishingda, — o'jarlik bilan takrorladi Palmer.

— E-ha, mana, gap qayoqda ekan.

— Aynan bizning gunohlarni eslatish va aniq belgilashdan muvaffaqiyat bilan qutilib qolishimiz. Sen buni nima deb izohlagan bo'lar eding?

— Bolalarcha go'llik. Bir kuni tunda bu barcha yuk ustimizdan bosib tushmasa deb qo'rqaman.

— Keyin biz lazzatlanish qobiliyatimizni darhol yo'qotamizmi?

Juvon xo'rsindi.

— Men boshqa biron narsa haqida gaplashishni istardim.

— Baribir ayollar qiziq-da!

— Ha. Jismlarining yarmi farishta, yarmi qari qiz.

— Qanday dahshatli yolg'on. Unisi ham, bunisi ham.

— Bo'пти. Jentlmen sifatida o'z e'tirozingni bildirding. Kel, endi boshqa narsa haqida gaplashaylik.

Yigit boshini bukilgan qo'li ustiga qo'yib, yana gilamda yotib oldi.

— Biz oddiygina xufyona jazmanlar bo'lib qolishni o'lguday xohlayman, — o'ychan dedi juvon. — Ayol uxlab qoladi. Erkak yotoqxona bo'lmada oyoq uchida u yoq-bu yoqqa yuradi va kiyinadi. Uning ketishi va pardo stolchasida pulni ko'rish uchun ertalab ayol uyg'onadi. Buning o'rniga sen uxlaysan, mening esa o'z yog'imga o'zim qovrilishdan boshqa ilojim qolmaydi. Nahotki "Virjiniya Kleriga nisbatan jentlmen bo'ling" haftasi e'lon qilingan bo'lsa?

— Oh, jim bo'lsang-chi.

Palmer ko'zlarini yumdi.

— Tirnoq ostidan kir qidirishlar.

U hech narsa deb javob bera olmadi va juvonning sigareta tortganini hamda kuch bilan tutunni puflaganini eshitdi. Yigit ko'zlarini yumib yotganicha churq etmasdi.

— Bu adolatdan emas deb o'ylayman, — davom etdi juvon birmuncha muddatdan keyin. — Men tinch, xotirjam yashab kelayotgan edim. Gunohlarim doim nazorat ostida bo'lardi. Eng dahshatlilarini katta tanaffuslardan keyin sodir etardim. Uzoq vaqtgacha tavba-tazarruda¹ bo'lmagandim, o'zimni uslubiyotchi deb his qilaman. Jinsiy aloqalarini o'zi yo'q voqealar sirasiga kiritishimning o'zi bo'lmagan — qunduz palto deysan: boshqalar kiysa chiroyli, mening davramdagilar uchun esa dabdaba. Ko'zlarim senda to'xtagan dastlabki badbaxt onda tushundimki, sen ayniqsa ehtiyot bo'lib muomala qiladigan odam ekansan. Bu sening tashqi ko'rinishing tufaylidan emasdi. Biron-bir muayyan jismoniy nusxaga ko'nglim sust ketmaydi. Faqat sening menga qarashingdagi bir nima didimga o'tirib qolgandi, xolos. Sendan signallar kelardi. Mening radarim ularni tutardi. O'zingga ham menda qandaydir o'z signallarim yoki shunga o'xshagan nimadir bordek tuyulardi. Bu texnikani butunlay tushunishga da'vogarlik qilmayman. Lekin, ey xudo, Vuds, men qiynalgandan qiynalardim, o'zimni qo'lga olishga harakat qilardim, men haqiqatan ham harakat qilardim. Sen menga kerak bo'lgan odam emassan, zinhor. Uylangansan. Farzandlaring bor. Mening ishdagi xo'jayinimsan. Haligi ziyofatda qanday raqs tushganimiz yodingdami? Mening barcha mashqlarim jildirab kanalizatsiya quvuriga oqib ketayotganday his qilardim. Keyin biz shahar bo'ylab yurganimizda men sofdil bo'lishga va bular barchasini senga erkalab, ammo astoydil aytib berishga harakat qilgandim. Men hatto kichikroq munoqasha bilan tugatmoqchi ham bo'lgandim. Lekin qo'limdan kelmagandi. Esingda yo'qmi? Endi hammasi unutilgan. Lekin harholda o'shanda sen mendan minnatdor bo'lib qo'yganding. Sening birovdan minnatdor bo'lishing o'limdan qiyin. Shunchalik ichimdan top edingki, bitta so'zni ming mashaqqat bilan aytarding. Mana shu ichimdan topliging meni o'ldirdi. U menga sening botinan qandayligingni ko'rsatdi, sening o'zingni desam ham bo'laveradi, shu narsa jigar-bag'rimni ezib, qiyma qilib yubordi. Mana, bu yerda men sen bilan Mak Bernsning mo'jizaviy gilami ustida ag'anib yotibman, boshqa bironta idoradan ish qidirib topishim va bu voqeani unutilishga harakat qilishim

kerak bo'lgan bir vaqtda.

Juvon jimib qoldi. Bir lahzadan keyin Palmer boshini ko'tardi:

— Tugatdingmi?

— Butunlay.

— Savolim bor.

— Xo'sh?

— Shunchalik baxtsiz bo'la turib, shunchalik chiroylik bo'lish qanday qo'lingdan keladi?

Juvon unga ajabsinib qarab qo'ydi:

— Jahling chiqmasligiga ishonasanmi?

— Bu yoqqa kel-chi.

— Kelayapman.

O'ttiz oltinchi bob

Palmer kechki soat oltida Park avenyu bo'ylab "kadillak"da shamolday yelib borar ekan, "Uorld telegram"dagi so'nggi yettinchi sport bo'limini moliyaga doir bobigacha varaqlab chiqdi. U mashinadagi mutolaaga mo'ljallangan chiroqni yoqdi va birja yopilishi vaqtidagi bank aktsiyalari narxini o'rgana boshladi. YuBTK aktsiyasi narxi 25 foizga ko'tarilgan va sotilgan aktsiyalar miqdori ortgan edi.

Ularni kim sotib olsa ham nazorat paketini egallab olishi hali amri maholligiga amin bo'lib, Palmer gazetani bukladi-da, o'zining yoniga o'rindiqla tashladi. Birmuncha muddat u haydovchi boshining orqasiga qarab turdi. So'ng vujudida qandaydir tanholik tuyg'usini his etdi. Garchi haydovchi undan bor-yo'g'i bir yarim-ikki metrcha narida o'tirgan bo'lsa-da, Palmer o'zini mutlaqo yolg'iz his qildi. Bunday sezgi qaysidir ma'noda unga yoqardi.

Shuning uchun yoqadiki, o'yladi u, bu yerda, qubbasimon mayin oq nur ostida, go'yo do'kon peshtaxtasidagidek, yolg'iz va qaysidir darajada sevimli bo'lib o'tirish maza edi, ayni vaqtda esa qorong'ilik qo'ynida butun shahar ko'zga ko'rinmas suvratlar silsilasiday yoningdan o'tib turadi. Palmer charaqlagan yangi yil archalari ulug'vor safining lip-lip uchib o'tishini tomosha qildi. Oqshomlari Park avenyu har doim yorqin qizil nuqtalar — mashinalarning orqa chiroqlari bilan bezangan bo'ladi. Hozir esa archa chiroqlari ortida butun ko'cha bayramona tus olgandi.

Yetmishinchi ko'chalarda haydovchi chapga burilish signalini berdi va Palmer oldinga engashdi.

— Jimmi, buriling-da, meni muyulishda tushirib qoldiring. Bu yog'iga yayov ketaman.

— Yaxshi, mister Palmer, rahmat.

Palmer qoshini chimirdi. Bu tashakkur nechun? Bu Jimmining qaytar yo'lini nari borsa besh daqiqaga qisqartirgandir. Nahotki besh daqiqa shunchalik zarur bo'lsa?

— Biron yoqqa shoshayapsizmi? — so'radi u.

— Uyga. Archa bezatish kerak, mister Palmer. Men galga solganim-solgan, bu yog'i atigi olti kungina qolibdi. Bolalarim o'ldiradi meni...

Mashina yumshoqqina kichikroq doira yasadi-da, yo'lka chekkasiga, shaharning ishbilarmonlar mahallasi tomonga kelib to'xtadi. Jimmi eshikni ochgani chiqib kelguncha Palmer qubbasimon chiroqni o'chirdi va gazetani oldi.

— "Telli"ni oling, — dedi u gazetani haydovchiga uzata turib; uning bilishicha, haydovchi, odatda, faqat "Jornel amerikan"ni sotib olardi.

— Yana bir marta rahmat. Xayrli tun, ser.

— Xayrli tun.

Hayhotday mashina jo'nab ketdi va Palmer muzdek havodan chuqur nafas oldi, so'ng osmonga qaradi. Osmon shu qadar musaffo ediki, u hatto yakkam-dukkam yulduzni ham ko'ra oldi — tutunli

Manhetten uchun bu mutlaqo odatdan tashqari hodisa edi. Palmer Park avenyu yoqalab ko'z yugurtirdi va yangi yil archalarini sanashga urinib ko'rdi. Ko'p o'tmay ular bir-biriga qo'shilib, yorqin chiziqqa aylandi. U sanashni bas qildi.

Burildi-da, tezgina uyiga qarab ketdi.

Uy tarhi bo'yicha Edising rejalari qoyilmaqom tarzda ado etilgandi. Asr boshida qurilgan, deyarli butunlay katta-katta, keng-keng uch-to'rt qavatli binolardan tashkil topgan mahallada Palmerning uyi, shubhasiz, mana men deb turardi. Mahalliy uy egalarining haddi juda deganda tosh devorni qumli favvora bilan obdon tozalashga yoki bo'yashga, bundan tashqari, derazalarga yaxlit oyna qo'ndirishgacha borib yetardi. Faqat bir yuragida o'ti bor ixtirochi rim g'ishtidan yangi devor tikka qilgandi. Biroq Edis boshqa yo'ldan bordi.

Jimjimador old devorli binolarni Palmer oldin ham ko'rgan. Bundaylari, odatda, issiq iqlimli mamlakatlarda quriladi. Hindistondagi Qo'shma Shtatlar elchixonasi, esladi u, shu texnikaning zamonaviy nusxasidan foydalangan. Manhetten tropik iqlim sharoiti ahyon-ahyondagina aks etsada, Edis shunday jimjimador devorni tanladiki, u halovatni yuzaga keltirardi. U hatto qimmatbaho maydonning bir qismidan voz kechib, uyni ko'cha tomon surishga jazm etdi. Shunday qilib, yo'lkadan qariyb 3 metrlik masofada panjaraga o'xshash bir nima bilan birlashtirilgan egma va uchli quyma beton devor tiklangandi.

Nur va havoni o'tkazib turadigan, ammo ajabtovurgina soya tushiradigan bu begona kungiralar uyni suq ko'zlardan yashirib turishga mo'ljallangan edi. Devorning naryog'ida yana ikki metrcha joyda binoning o'zi savlat to'kib turardi. Uning to'rt qavatli frontoni so'nggi modada 4 ga 6 hajmdagi, alyuminiy jild bilan mahkamlangan yaxlit oynadan yasalgandi. Jimjimador old devorning ichki tomonini Edis, aftidan keyinchalik chirmovuuq bilan yepmoqchi bo'lgandir.

Palmer oddiy qora tashqi eshikdan o'tdi-da, tor tirqishdan osmonga qarab olish uchun to'xtadi. Ha, yulduz. Bitta.

U xuddi shunday oddiy qora ichki eshikni ochdi va o'zining yangi uyiga kirdi. Allaqaysi qavat va xonalardan Jerri bilan Tomning aytishayotgani qulog'iga chalindi.

Palmer paltosini yechdi va yo'g'on laklangan kiyim ilg'ichlardan biriga oldi. Shlyapasini olib, kiyimilg'ich ustidan tokchaga qo'ydi. Choqqina vestibyuldan o'tdi-da, ikki qavatni egallagan asosiy mehmonxona bo'lma eshigi oldida to'xtadi.

Shubhasiz, uyga gap yo'q, o'zicha dedi Palmer. Garchi jimjimador old devorga o'xshagan narsalarga kulib qarasa-da, xotinining san'at mo'jizasi yaratganiga tan berdi.

Bu iboraning endi siyqasi chiqqanini eslab, Palmer qoshini chimirdi. Ikki sergak fotograf bilan qaysidir jurnalning muharriri, zil-zambil keksa xonim ko'p qo'llashardi bu iborani. Kecha kechqurun uyga kelib Palmer ularni shu yerda ko'rdi, ular hamma joyda hoziru nozir edilar.

— Haqiqiy san'at asari, — derdi suratkashlardan biri. — Bizning zamonda bunaqasi kam uchraydi, ajoyib pieil oi terre¹, — suhbatga qo'shildi narigisi.

— Bu haqiqiy shaharcha uy, — dedi horg'in muharrir ayol reportyorlardan biriga. — Odatdagi kamtarona inglizcha uslub.

— Ha, xonim.

Palmer kechagi oqshomni esladi. Fotosuvratlar va maqola, qiziq, qachon jurnalda paydo bo'larkina? U muharrirlik amaliyoti bilan yaxshigina tanish — jurnallarning tahririyatlari olti oy ilgarilab yuradi. Biroq bordi-yu, ularda maqolani qonun chiqaruvchi yig'ilish yopilishigacha chop etishga qaror qilingudek bo'lsa, bu butun qilingan ishlar uchun to'siq bo'lishi mumkin.

Senatorlar va mahalliy qonun chiqaruvchi organlar a'zolarining xotinlari maqolani o'qishadi, suvratlar bilan tanishishadi. Erlariga o'z uylaridan ko'ngillari to'lmayotganini va shu jurnal xabar qilgan mana bunday uyda yashovchi har qanday oilaga nisbatan oshkora shubhalarini izhor etishning o'nlab yoqimsiz usullarini topishadi. O'tgan oqshomda, esladi Palmer, maqolani bosishga ruxsat bergani uchun Edisdan chaparasta jahli chiqqan edi. Jahli chiqqandi-yu, lekin ichiga yutib qo'ya qolgandi.

Palmer aylanma zinadan asta ikkinchi qavatga ko'tarildi. Musiqa va bahs aniqroq eshitildi. — Salom!

— Salom, azizim. — Edis ularning yotoqxona bo'lmasi ostonasida paydo bo'ldi va qo'l silkidi: — Ovqat 10 daqiqadan keyin bo'ladi. Missis Keyjga aytib qo'y. — Xotini g'oyib bo'ldi.

Palmer yana bir qavat ko'tarildi — ikkala jajji bolalari bilan ko'rishishi kerak. U Jerri yotoqxona bo'lmasi eshigida to'xtaganida bolalar otalariga qaramadilar va deyarli uzluksiz bahslarini davom ettirishdi.

— Uni olgan bo'lishing mumkin deb aytganim yo'q, — tonmoqchi bo'lardi Jerri.

— Men olishim mumkin emas deb men ham aytganim yo'q, — e'tiroz bildirdi Tom.

— Men aytdim-ku, men senga beraman, ammo hozir emas, deb.

— Nega hozir emas?

— Chunki u hozir menga kerak.

— Senga kerak emas.

— Yo'q, juda kerak.

— Yo'q, mutlaqo kerak emas, yolg'onchisan.

— Meni yolg'onchi dema, sen ahmoqsan.

— Lekin senga o'xshab yolg'onchi emasman.

— Undan badtarsan.

— Men...

— To'xtanglar! — xirqiroq ovozda dedi Palmer. Yo'talib oldi. — Salom, bolajonlarim, — zo'raki shirin ohangda dedi u. — O'ynayotganlaringni ko'rib men ham yayrab ketdim, qaqildoqlarim.

— Anovi mittingiz qip-qizil yolg'onchi.

— Anovi ho'kizingiz isqirt yolg'onchi.

— Yaxshi o'tiribsizmi, sog'liqlaringiz qalay? — davom etdi Palmer. — Ishdan kelganimda meni qanday kutib olasizlar deb rosa intiq bo'laman. Buni sizlar judayam qotirib ado etayapsizlar.

Bola va qiz jim bo'lib qolishdi, hiringlashdi va oyoqqa turishdi. Ular Palmerni ikki xilda osilib olishdi. Tom — uning qorni va tizzasida, Jerri esa ko'kragi va qo'lida. Bir necha soniya davomida Palmerni turtishdi, siqishdi, tepishdi, qattiq quchishdi, tiz cho'kdirishdi, qitiqlashdi, oyog'idan bosishdi, chimchilashdi, suzishdi va hatto timdalashdi.

— Bas, bas!

To u o'zini o'nqlab olguncha Jerri uni tanqidiy ko'z bilan qarab chiqdi:

— Tag'in ko'zingizning tagida mana bu qora narsalar bormi?

— "Tag'in" deganing nimasi?

— Har doim bor-ku, ular, — dedi Tom.

— Yo'q, goh-gohda bor bo'lib qoladi, — e'tiroz bildirdi Jerri, — Ba'zan, kunning oxirida.

— Uzun, og'ir, tinkani quritadigan kun, — tushuntirdi Palmer, — issiq, tinkani quritadigan stolda.

— Ochimdan o'laman, — dedi Tom.

— Assalomu alaykum, mister O'luvchi, — gap boshladi Jerri. — Men mamnuniyat...

— Bo'ldi-bo'ldi, — uni to'xtatdi Palmer. — Bu bechora hazilni chaynayverib jonini sug'urib olding.

Bironta yangirog'idan olsang-chi.

— Bir devor ikkinchisiga nima deydi? — so'radi Tom.

— Burchakda uchrashamiz deydi! — Chiyilladi Jerri. Palmer kaftlari bilan quloqlarini bekitib oldi.

— Jerri, — yalindi u, — sekinroq-da!

— Koksga o'xshagan nima, loksdan hid beradigan va uchadigan nima? — so'radi Jerri.

— Samolyot kabinasidagi koks surtilgan loksli quticha! — qichqirdi Tom.

Palmer ko'zlarini alamli yumdi. Shovqin bosilgach, u ko'zlarini ochdi va so'radi:

— Loks nima degani?

Jerri yelki qisdi:

— Qandaydir baliq. Dudlangan.

— Yo'q, — dedi Tom. — Loks — suyuq kislorod. Undan raketa yonilg'isi uchun foydalanadilar.

— Bu topishmoqni aytgan maktabdagi qizaloq, — tushuntirdi unga opasi, — aytdiki, loks — bu dudlangan baliq, dedi. Dudlangan syomga.

— U — jinni ekan, — dedi Tom.

— Nima bo'lganda ham, — so'radi Palmer, — bu topishmoqning nimasi kulgili?

Bolalar jim bo'lib qolishdi.

— Sen tushunmaysan, — dedi oxiri Jerri.

Palmer bosh irg'adi:

— Ovqat yana o'n daqiqadan keyin.

Vudining xonasiga kirish uchun u tanobiy xonaga tushdi. O'piq eshik oldida to'xtab, u ichkaridan nog'oraning asabiy taraqa-turug'iga hamohang chiyillagan klarnet ovozini eshitdi. Roudining musiqaga qiziqishi yaqqol ko'rinib turardi. Ovozi uyni to'ldirib turgan orkestr chinakamiga yengil orleancha usulda kontrabas o'rniga trubadan foydalangan edi. Palmer ko'zining teparog'ida, bosh suyagining ichida og'riq boshlanayotganini his etdi.

U eshikni chertdi, kutib turdi, yana qattiqroq chertdi. Birpas kutib turib, eshikni ochdi va to'ng'ich o'g'lini logarifmik lineyka bilan yozuv stoli uzra engashib turganini ko'rdi. Palmer proigrivatel oldiga bordi va keskin burab ovozini pasaytirdi.

— Barcha avliyolar haqi, bu ahvolda qanday o'ylab, qanday ishlaysan? — so'radi u.

Vudi unga ma'nosiz qaradi:

— E, salom!

— Ovqat o'n daqiqadan keyin. Besh daqiqa hatto.

Vudi bosh irg'adi:

— Dada, foizlar haqida nimani bilasiz?

— Hamma narsani.

Vudi unga ishonqiramay qarab turardi:

— Bilasizmi, nima to'g'risida gapirayapman... Zayomlar foizi va har xil shunga o'xshagan narsalar.

— Nima to'g'risida gapirayotganingni bilib turibman, — vazminlik bilan gapirdi Palmer. — Nimani bilmoqchisan?

— Men "Muddatli sotuv" mavzuida insho yozishim kerak.

— Matematika bo'yichami?

— Yo'q, ijtimoiy fanlar bo'yicha.

Palmer bir talay plastinkalarni nari surib qo'ydi-da, o'g'lining karavotiga o'tirdi.

— Ular qanaqa misollar keltirishdi?

— U misol keltirmadi, — shikoyatomuz dedi Vudi. — Men o'zim o'ylashim kerak.

— Unday bo'lsa, quloq sol.

Bola og'ir xo'rsindi va yuzida tund bir ko'rinish zohir bo'ldi.

— Bir odam 3000 dollar turadigan mashina sotib olmoqchi, — gap boshladi Vudi bular barchasi qanchalik joniga tegib ketganini bildirmoqchiday cho'zib, bir zaylda. — O'zining eski mashinasini 1000 dollarga sotmoqchi. Qolgan ikki mingni ikki yilda to'lamoqchi. Bu — yetti foizli zayom bo'ladi. 2000 dan yetti foizi — 140 dollar bo'ladi. Ikki yilga. Demak, 3000 dan tashqari mashina yana unga foizlarda 280 dollar turadi. To'g'rimi?

— Ha.

— Bo'пти, rahmat, dada.

— Bu raqamlarning ijtimoiy fanlarga qanday aloqasi bor?

Vudining yuzidagi tund ifoda o'rnini endi o'ta malollik ifodasi egalladi.

— O'lay agar, bilmayman.

— Bu masalani yechish nimaga kerak bo'lib qoldi? Oddiy arifmetikadan xabardorligingni isbotlash uchunmi?

Bola yelka qisdi.

- Keksa Filmerning ko'nglini olish uchun bo'lsa kerak. Bu g'oya undan chiqqan, mendan emas. Palmer keskin javob bermoqchi bo'ldi-yu, biroq o'zini tutdi.
- Yaxshi. Bundoq chiroyingni och-da, quloq sol.
- Xo'p.
- Sen pul qarz olib, uni oyma-oy to'lab borsang, — davom etdi Palmer, — asosiy summani nima qiladilar?
- Nimani?
- Asosiy summani, sen qarz olgan pulni. U ko'payadimi?
- Ozayadi. — Vudi qovog'ini uydi va shu zahoti yuzi yorishib ketdi. — Albatta, ozayadi-da.
- To'g'ri. Agar sen mashina sotib olgani 2000 dollarga ikki yillik zayom uchun bankka borsang, sen 2280 dollarga imzo chekasan. Boshqacha aytganda, ular senga naqd 2000 dollar berishadi, uni sen to'liq ikki yillik foizni qo'shib to'lashga majbursan. Tushundingmi?
- Bo'lmasa-chi, axir bu tabiiy-ku.
- Nahotki? — keskin ohangda so'radi Palmer. — Bu haqda o'ylab ko'r. Ikki yil mobaynida oyiga 10 dollardan ko'proqdan to'lab borasan. Har to'lov bilan zayomning asosiy summasini qisqartirasan. Lekin foizlarni avvalgiday 2000 hisobidan to'laysan, chunki dastlab shunday belgilab qo'yilgan edi-da.
- Nima qilibdi?
- Senga bu g'alati tuyulmaydimi?
- Bola yana yelka qisdi:
- Tartib shunaqa bo'lgach, nimasi g'alati bo'larkan?
- Palmer bosh og'rig'i kuchayganini sezdi. U peshonasini artidi-da, davom etdi:
- Kel, faraz qilaylikki, sen bay puliga o'xshash zayomning boshqa turini olasan, unda aslida shart bo'lgan foizlarni to'lab borasan. Birinchi oyda sen 2000 dollar hisobidan to'laysan. Biroq har oyga to'lovlarning bir yilidan keyin sen faqat 1000 dollar hisobidan to'lashing kerak bo'lib qoladi. Faraz qilaylikki, har oy qarzing summasi kamayib borishi barobarida sen faqat qolgan summa hisobidan foiz to'laysan. Xo'sh, yetti foizli zayomda 2000 dollar uchun qancha to'layman deb o'ylaysan?
- 280. Boya aytdim-ku.
- Yo'q. Sen 70 dollar atrofida to'laysan.
- Hazillashmang.
- Jiddiy aytayapman.
- Vudi otasiga uzoq qarab qoldi:
- Rostdan shunaqami, dada?
- Palmer o'rnidan turdi.
- Ha, — dedi u g'oyatda sovuqqonlik bilan, — xuddi shunday.
- Ammo unda... anovisi, dastlabkisida foizlarni to'rt baravar ko'p to'lar ekansiz-da?
- Uh! — Palmer yengil xo'rsindi. — O'rug'lik bor ekan-ku.
- Keksa Filmer shular bariga ishonadi deb o'ylaysizmi?
- Sinab ko'r uni. — Palmer eshik oldiga keldi. — Ovqat bir daqiqadan keyin.
- Xotirjam bo'ling, — ming'irlab dedi Vudi yana logarifmik lineykani qo'lga olib.
- Palmer pastga yo'l oldi va missis Keyjning oshxonasiga kirdi. Qovurilgan cho'chqa go'shtining hidi bu yerda kuchliroq edi. 14 yilcha oldin, Vudi tug'ilganida Edisning onasi missis Keyjni Palmerlarga "berish"ni taklif qilgandi. Missis Keyj ozg'in, yuzlari cho'zinchoq, ko'zlari bir-biriga yaqin va burni uchli, og'iz chekkalari osilib tushgan suyagi buzuq beva bo'lib, muttasil kasalvandlarday eshitilar-eshitilmas voy-voylab yurardi. Og'zi va iyagi tik ajinlar orasida qavs ichiga olinganday ko'rinardi. Gapirganida yuzining pastki qismi bir yuqoriga, bir pastga harakat qilardi. Ming xil dardi borligidan shikoyat qilishiga qaramay, shuncha yillar mobaynida halol va g'ayrat bilan mehnat qilib kelardi, tejamkor edi, zarurat tug'ilganda, masalan, hozirgidek qo'shimcha ishlarni ham bajaraverardi.
- O'n daqiqa burun, — dedi Palmer, — men sizlarga ovqatga o'n daqiqa qolganini aytib qo'yishim kerak edi.

— Hammasi joyida, — hozirjavoblik bilan dedi missis Keyj, — qarashgani Jerrini bu yoqqa yuboring, shu tayyormiz, mister Palmer.

—Yaxshi.

Yosh bolalariga yana bir ko'z solib qo'yish uchun Palmer Jerrining xonasiga qaytdi.

— Qani, qani, — dedi Jeri, — endi umrim bo'yi sen bilan boshqa gaplashmayman.

— Qo'rqib ketdim, — piching qildi Tom. — Qara, qo'rqqanimdan dag'-dag' titrayapman.

— Yana qo'rqasan! Agar men...

— Hali ham janjalashayapsizlarmi? — uning gapini bo'ldi Palmer, — Jerri, missis Keyjga qarashib yubor. Tom, qo'llaringni ko'rsat-chi.

Bola kaftlarini pastga qilib cho'zdi.

— Top-toza.

— Kaftingni yuqoriga qil.

— Top-toza dedim-ku, — yozg'irdi u.

— Bitliqi Merining o'zginasi, — ming'irladi Jerri.

Uzoq jimlikdan keyin Tom og'ir xo'rsindi va tanobiyning to'ridagi vannaxonaga qarab ketdi. Palmer bir lahza uning ortidan kuzatib turdi-da, ozg'in ota-onaning o'g'li uchun uning dumbasi semizlik qiladi, deya ko'nglidan o'tkazdi...

Palmer ikkinchi qavatdagi oilaviy oshxonaga yo'l oldi. Chiroqni yoqib qarasa, dasturxon allaqachon tuzalib qo'yilibdi. Shamlarni chaqmoqtosh bilan yoqishga behuda urinib ko'rди, so'ng bufet tortmasidan gugurt topib, ularni yoqib chiqdi.

U qarshidagi devorga, turli kattalikdagi eski g'ishtlardan yasalgan chog'roq kaminga qarab qo'ydi va Bufo asaridagi erkak yuziga razm sola boshladi. Bu odam ham tuzalmagan yog'och stolda o'tirar, oldida, stolning o'zida chala yeyilgan baliq bor edi. Nimqorong'ilikda uning chehrasida moviy, ma'yus, och ko'zlaridan boshqa hech nima yo'q edi. Palmer chiroqni yoqib, erkakning yuzida hech narsa o'zgarmaganini ko'rди. Baliqlarni o'zi yeganmi yoki birovning sarqitiga qarab o'tiribdimi, bilib bo'lmasdi.

Kamining yonida yana bir suvrat: pishloq, ikkita olma, pichoq va vino shishasi tasvirlangan natyurmort osig'liq edi. Palmer yorug'ni asta pasaytirdi va barcha buyumlardan faqat pichoq ko'rinib qolganining shohidi bo'ldi. Taajjub. Balki bu suvratlarning qandaydir yangi xossasini kashf qilgandirman, mulohaza qilardi u. Rassomlarning o'zlari bu haqda bilganmikinlar? Uning qulog'iga Jerri bilan missis Keyjning qo'shni xonada idishlarni taraqlatayotganlari eshitildi.

Yuqorigi chiroqni o'chirqli qoldirib, u zinapoya maydonchasiga chiqdi va pastdan kiraverishdagi vestibulga olib chiquvchi zinapoyaning ikki o'ramiga nazar soldi. Har biri 180ga 25 santimetr bo'lgan zinapoyalar 7 santimetrdan qalinroq bo'lmagan dub taxtalaridan yasalgandi. Zinapoyalarni yaxlit tortib turuvchi plastik orasidan yog'och xira aks etib turardi. Ular bamisoli havoda muallaq osilib turgandek bo'm-bo'sh edi. Palmer kayfi baland odamning bundan qanday tushib-chiqishini ko'z oldiga keltirishga harakat qildi.

Shularni xayolidan kechirganicha u bir qo'li bilan panjaradan tutganicha zinapoyadan tusha boshladi. Xuddi o'ylaganidek bo'ldi. Bir oyog'ini qo'yib, ikkinchisi bilan keyingi zinani paypaslaganicha o'z og'irligini chamalab ko'rди — bamisoli havoda parvoz qilayotgandek bir hissiyotni tuydi. U pastgacha tushib oldi-da, u yoq-bu yoqni qarab chiqib, "Zinapoya qafasi" degan lavhachani topdi. Tugmachani bosdi. Ikkinchi qavat shiftiga yashiringan chiroqlarning nuri zinapoyani zamonaviy haykaltaroshlik asariga aylantirdi. Uni tomosha qilar ekan, Palmer jilmayib qo'ydi. Dramatik asar. Ta'sirchan asar. Jozibador asar — gap yo'q.

U nazorat taxtasi tomonga burildi va g'ildirak ko'rsatkichini asosiy mehmonxonaga surib qo'ydi. Chor-atrofni mayin aks etib turgan yog'du chulg'adi. Bu avvaliga unga yoqmagan yagona xona edi, haddan tashqari kattaligi uchun yoqmagandi. Uning 7,5 ga 18 metr keladigan butun birinchi qavati asosan mehmonxona va mayda-chuyda yordamchi xonalar qilib qo'yilgandi. Uncha katta bo'lmagan foye mehmonxonaning birgina burchagini egallagan. Zinapoya ham bir chetginasida edi, biroq reja

bo'yicha u ham xonaning me'moriy bo'lagi sifatida rejalashtirilgandi. Quyi qavatning to'rdagi burchagida uyni enlab bir qancha mayda xonalar joylashgan, bular vino saqlanadigan hujracha, vannaxona, yordamchi oshxona bo'lib, taomni tortish uchun yuqoridagi oshxona bilan lift orqali tutashtirilgandi. Mehmonxonaning o'zi 7,5 ga 15 metr maydonni egallar, shiftning balandligi 7,5 metr, poli dubdan, aralash parket terilgan, old tomondagi sidirg'a oynavand devorga parda qoqilmagan edi. Alyumin panjara uni to'g'riburchaklarga bo'lib turar va orasidan bino old devorining kungiralari ko'zga tashlanardi. Kechqurun o'tayotganlar mehmonxonaga old devor oralig'idan mo'ralash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Va, darvoqe, shunday foydalanmoqdalar edi. Chirmovuq o'sdirilgandan keyin, dedi Palmer o'zicha, tilla baliqchali akvarium ko'ngildagiday zavq bermay qoladi. Lekin ungacha, o'yladi u, o'tayotganlar old devordan kirib kelishga o'rganib qolishadi. Yoki kechqurunlari xonadan foydalanishga hojat ham qolmas?

Zinapoya oldida turganida unga uzunday bo'lib ko'ringan orqa devorda asosiy narsa kamin — mustamlakachilik o'chog'ining zamonaviy kamoloti edi, lekin u shu qadar katta ediki, unga bir nechta odam tik turib ham bermalol sig'ardi. Kaminning qoq o'rtasida o'tin uchun oddiy qora cho'yan taglik va ikki metrcha enlikdagi panjara joylashgandi. Panjarada bir nechta tarasha, ular yonida kaminga tegishli buyumlar va maroqli ko'rinishdagi qora temir chaqmoqtosh yotardi.

— Shu narsang yomon xavfli-da, — degan edi u xotiniga.

— Uni yuz yildan beri ishlatib kelishadi-ku.

— Bizdagi shu narsani-ya?

— Ha.

— Biron yangiroq xilini o'ylab topisholmabdimi?

Xonaga razm solar ekan, Palmer uning bo'yog'iga e'tibor berishni esdan chiqarayozibdi. Edisning laklanmagan dubga moyilligini ma'qullagan holda pol chiroyli deb qo'ydi. Devor va kamin oq rangda edi. Chog'roq orqa xonalarga ochiladigan eshiklar qora, kaminga tegishli narsalar ham shu tusda. Darhaqiqat, dedi u xonaga yana bir bor sinchiklab ko'z yugurtirib chiqib, suvratlar boshqacha jon kiritib turibdi. Ularning har biri o'z chirog'ining tagidan joy olgan, bu devor oqini yumshatar va moybo'yoqlar yorqinligini kuchaytirardi. Lekin qolgan narsalar xona ko'rinishiga sira ko'rk bag'ishlamayotgandi. Pastak stul va devorlarga daraxt pustlog'ini eslatuvchi mato qoplangan. Bir nechta yashil o'simlik g'ildirali oq va qora ko'chma qutilarda turardi.

Bir gal bilmasdan va g'oyat xotirjam tusda u Edisga bo'yoqlarning ma'nosizligi haqida aytganida xotini uning tanbehini maqtov deb tushungandi.

— Albatta, — deb javob bergandi xotini, — xonada bo'lgan odamlar uni bezab tursin degan xayolda shunday qilingan.

— Sen ayollarni nazarda tutayapsanmi?

— Balki, — dedi xotini, — men bir necha ixcham-ixcham sidirg'a rang gilam olarman.

Palmer tepada oila ovqatga yig'ilayotganini eshitdi. U nazorat shchitiga qaytdi, chiroqni o'chirdi va endi ko'zga ko'rinmay qolgan zinadan ko'tarila boshladi.

Uyiga qaytayotib mashinada his qilgani yolg'izlik tuyg'usi hozir zinadan ko'tarilib borayotganda ham vujudini qamrab oldi. Edis va missis Keyjning bir-biri bilan gaplashayotgandagi gaplariga emas, balki faqat ovozloriga quloq tutdi. Shu on Palmer to'satdan ko'nglida boshqa tuyg'uni, xuddi yolg'izlikka o'xshagan kuchli tuyg'uni his etdi.

Avvaliga bu qanaqa tuyg'u ekanini bilolmadi U qandaydir tanholik bilan bog'liqday edi, lekin baribir bu qandaydir boshqacha edi. Yolg'izlikni yoqimli, hatto hayajonli qiluvchi o'shanday kuchli tuyg'u.

U keyin tushundi. Mana shu oylar mobaynida Nyu-Yorkda u tuturuqsiz mehmonxona hayotini kechirdi. Hamma narsa o'zgardi. Endi u o'zining yana odatdagi rolini — o'z uyida oila otasi rolini o'ynamoqda edi, hatto yuridik ma'noda ham uy egasi mas'uliyat va mulkchilikning ola xurjuni bo'yniga tushgan erkak, vassalom.

Uning hech bo'lmaganda Chikagoda o'ynagan bu roli boshqa bir narsani ham ko'zda tutar edi. Uydagilarga yordam berish, garchi sezilmas bo'lsa-da, uy yumushlarining borishi ustidan doimiy

nazorat, missis Keyj va bolalarga yo'l-yo'riqlar berish.

Boshqacha aytganda, dedi Palmer, endi u pater familias sifatida to'la tiklangan. Ammo Virjiniya Klerining borligi bular barchasiga qo'shimcha jihat bag'ishlaganday bo'ldi.

Palmer aslida bu rol qanaqa bo'lganligini birinchi marta ko'rdi. U bu ikkita rol ekanini endi angladi. Akter kabi u ikkiyoqlama hayot kechirardi. To o'ynashi lozim bo'lgan ikkita Palmer bo'lar ekan, ulardan hech biri haqiqat bo'lolmaydi. Butun hayoti to'qimadan iborat bo'lib qoladi.

Palmer qorong'ilik qo'ynida miyig'ida kulib qo'ydi. Endi u har ikkala tuyg'usini ajrim qilib olgandi. Aktyorga o'xshab, alohidalik tuyg'usi bor edi unda. Alohidalik bilan yana senga qarab turganlarini anglash tuyg'usi shunga chambarchas bog'lanib ketgandi.

Oila otasi. Jazman ota. Bunaqa rollarni har kim ham uddalayvermaydi, o'yladi u. Har kim ham bir vaqtning o'zida er va o'smir rolini o'ynayolmaydi. Kutilmaganda uning miyasiga bir fikr urildi: o'zi kimdir — qachondir uddalaganmikan?

— Vud, azizim.

— Kelayapman.

U avvaliga zulmatda ko'zga ko'rinmayotgan zinapoyalardan sekin, hadiksirab yuqoriga ko'tarila boshladi, yorug'roq bo'lgan joyda esa odimlarini jadallatdi. Oshxona eshigi tagida to'xtadi. Edis chiroqlarni charaqlatib yoqib qo'ygandi. Xonaga qarab ko'z qamashardi, bolalarning chehralari yoqimli va deyarli beg'ubor edi.

— Parada ochildi!

O'ttiz yettinchi bob

Bu vaqtga kelib, poezd Manhettenning yuz yigirma beshinchi ko'chasidan qo'zg'alganida va Olbani tomon shimol sari gumburlab yo'l olganida vagonda bitta ham bo'sh joy qolmagandi. Biroq, Palmer ko'pchilik qatori chiptani oldindan oldirib qo'ygandi. Qolgan yo'lovchilar vagonni shoshmay, erinchoqlik bilan to'ldira boshlagan edilar. Ularning chehralaridan: "Modomiki shu joy bizniki ekanmi, qittak-qittak otib olib, keyin bemalol chiqib o'tiraveramiz-da", degan qandaydir bamaylixotirlikni alayna oshkor sezish mumkin edi.

Palmer asta-asta viski ho'plar ekan, stakan tepasidan o'z hamrohlarini kuzatardi. Hammalari shunchaki oliftalikka ichishayotgani ochiq ko'rinib turibdi, xayolidan o'tkazdi u. Samolyotning yo'rig'i boshqa — asabi bo'sh sayyohlar uchun alkogol — eng yaxshi tinchlantiruvchi vosita. Vagonda esa yo'lovchilar bir-birlari bilan gurunglashib ham, u yoqdan-bu yoqqa bemalol yurib turib ham vaqtlarini o'tkazsa bo'ladi. Faqat bunday imkoniyat o'tirib ketiladigan kupelardagina yo'q. To'rt soatlik bekorchilikni amerikaliklar bir joyda qimirlamay o'tirib o'tkazishni afzal ko'radilar.

Chunki, o'y surishda davom etdi Palmer, bir joyda qimir etmay o'tirganimda atrofdagilardan beixtiyor uzilasan va o'zing bilan o'zing qolasan. Shunda xayol surishdan boshqa ishing qolmaydi.

Viskidan ho'plar ekan, Palmer miyig'ida kulib qo'ydi. Bu yog'ini so'rasang, amerikaliklar xayol surishdan qochishga o'rganib qolishgan. Temir yo'l stantsiyalari va aerodromlarning kioskalari buning yaqqol dalili. Yumshoq muqovali jurnal va kitobchalarga tonnalab qog'ozu bo'yoqlar sarflangan — bular bari vaqt o'g'rilari bo'lib, shuuring devorini chaqirilmagan o'ylar kelib dukillatadi-da, zerikarli uzoq-uzoq soatlarni to'ldirishga kafolat beradi.

Derazadan boqish uchun Palmer o'rindig'ida o'girildi. Qish quyoshining so'nggi nurlari tez so'nib borardi. Yana bir lahzadan keyin manzara butunlay sidirg'a tus oldi — u yoqdan faqat och-sariq timqora bo'yog'u zaif pushti tutungina ko'zga tashlanardi. So'ng ufq osmoni ham qoq tepadagi kabi timqora tusga kirdi. Hammayoq bir xil rangda. Tun tepaliklarni ham tekislab yubordi, hozirgina uy va chorrahalar ayqash-uyqash bo'lib yotgan joyda yorqin chiroqlargina charaqlardi.

Palmer ohista xo'rsindi — kun botishiga hali bir necha daqiqqa bor, deb o'yladi. Kimdir unga aytgan edi — Virjiniya bo'lsa kerak, Gudzon vohasida yo'llar juda chiroyli bo'ladi deb. Hozir esa bu yo'l

Olbanigacha unda-bunda uchrab turadigan tungi qishloqlar manzarasidan boshqa hech nima taqdim etmayotgandi. U ko'zlarini yumdi va oxiri pinakka ketdi.

Olbani shahrining qadimiy stantsiyasida negr haydovchi uning furajkasi chetidan turti:

— Mister Palmer, ser?

Palmer unga yagona yuki bo'lmish jomadonni tutqazdi-da, haydovchi ortidan tutunli platforma yoqalab ketdi va keyin peshob hidi urib turgan beton zinapoyadan bir qavat pastga o'tdi. Yo'lak chekkasida uzun kulrang "flitdut" turardi. Haydovchi Palmerga mashina eshigini ochdi. Ichkari issiq edi.

— Mister Berns to'g'ri "Fort Oranj" klubiga borishni tayinlagan edi, ser, — dedi haydovchi mashinani tezlikka solar ekan.

"Fort oranj" klubi bir necha qavatli past-baland qilib qurilgan gotik uslubidagi qop-qora binolar turkumidan iborat edi. Tun qorong'iligida uning barcha derazalaridan chiroq porlardi. Haydovchi ortidan Palmer binoga kirib keldi. U nima qilishini bilmay foyeda to'xtab qoldi. Burchakdagi idorachadan bir kekxa xizmatkor unga peshvoz o'rnidan turdi.

— Sizni kutayapti, mister Palmer, — dedi u baland qaltiragan ovozda.

Palmer haydovchiga choychaqa berdi-da, qo'yib yubordi.

— Mister Berns xona buyurtma qilib qo'ygan bo'lsa kerak?

— Ha, mister Palmer, 2b, — javob berdi porte. — Yo'q demasangiz, jomadoningizni yuqoriga olib chiqib beray. Mister Berns sizni hordiq xonasida kutayaptilar.

Palmer burilib zinadan ko'tarila boshladi.

— Borib, kelganimni ayting, — dedi u kulgisini bosib.

— Hozir, ser. Xizmatkor jomadonga yugurdi, biroq birdan to'xtadi, og'irligini goh u, goh bu oyog'iga solib, nima qilishini bilmay taraddudlandi: avval jomadonni olib kirsinmi yo Bernsga xabar bersinmi. — Hozir, ser, hozir.

Keng zinaning deyarli yarmiga yetganida Palmer orqasiga o'girildi va xizmatkorga yomon o'qrayib qaradi. Xizmatkor darhol angladi-da, o'qday uchib kelib, uni xonasi tomon boshlab ketdi.

Chamadonni ichkariga qo'yar ekan, xizmatkor so'radi:

— Sizni hozir tushadilar deb aytaymi mister Bernsga?

— Kelganimni aytsang, bas.

Porte ketdi.

Garchi xona katta bo'lsa-da, beso'naqay mebdan torga o'xshab ko'rinardi. Krovatning endor mis suyanchiqlari oralig'idagi parqu to'shakda yotish ulkan iskabtopar qornida yotish bilan barobar, deya ko'nglidan o'tkazdi Palmer.

Vanna kattalikda yotoq bo'lmasidan qolishmasdi. Jihozlari ham baquvvat-baquvvat edi. Bu yerda faqat vannada cho'milish mumkin, ammo dushning iloji yo'q edi.

Yotoq bo'lmaga qaytib kelib Palmer kiyimlarini yechdi. U yuvinayotganda kimdir eshikni chertdi.

— Kiring.

— Vudi, qo'zichog'im?

Palmer artindi-da, Berns bilan ko'rishgani chiqdi. Ular churq etmay turishardi. Berns har ikkala qo'lida to'la-to'la stakan tutib turardi. Ulardan birini Palmerga uzatganida ko'ylagi yengidagi tugmato'g'nog'ich jiringlab ketdi.

— Salom, boboy!

Palmer stakanni oldi, asta ko'tardi va mayda-mayda ho'play boshladi.

— Shoshma, men avval kiyinib olay, — deya u stakanni qo'ydi-da, jomadonni titkilay ketdi.

— Vu-udi! — cho'zib dedi Berns ataylab ko'ngilchanligini bildirmoqchiday. — Vu-ud, chirog'im! Nega qovog'ing soliq? Yaxshi yetib keldingmi, ishqilib?

Palmer boshini chayqadi:

— Men Sirakuzaga ertaga kunduzi uchishni mo'ljallagandim, kechqurun qaytib ketmoqchi edim. Nima, dunyoga o't ketdimi?

Berns xo'rsindi va chuqur o'rindiqqa cho'kdi.

Ko'ylagini kiya turib Bernsga nazar solar ekan, Palmer uning qattiq toliqqanini angladi.

— Ko'rinishim yoqmadi, a, topdimmi? — so'radi Berns tomoshabin ko'nglini darhol payqagan aktyorlarga xos ziyraklik bilan. — Seni deb men bu yerda o'zimni o'tga ham, cho'qqa ham urdim, azizim Vudi. YuBTK uchun jonimni ayamadim, o'lguday tarmashdim. So'nggi sakkiz kunda o'rtacha uch-to'rt soatdan uxladim-ov. Mijja qoqmadim desam ham bo'ladi.

— Chakki bo'libdi, — dedi Palmer, ko'ylagini shimi ichiga solarkan. — Ammo takror aytaman, mening zudlik bilan bu yerga kelishim shartmide?

Berns unga qoshini chimirib tikildi:

— Nimadandir xafamisan, jo'rajonginam.

— Yo'q, shunchaki, qiziqyapman.

— Gap ohangingga qaraganda menga achchiq qilayotganga o'xshaysan.

— Yo'q, — aldadi Palmer. — Poezddan keyin bo'larim bo'ldi. Ayniqsa, nima uchun borib kelganimni tushunmaganimdan keyin.

— Ko'pgina sabablarga ko'ra, — javob berdi Berns. — Sen bu yerda shaxsan ishtirok etishing zarur.

— Foydali odamlar jamoasiga o'zimni ko'rsatamanmi? Shuyam bahona bo'ldi-yu.

— Qisman haqsan, Vudi. Dam olish xonasiga tushib, bir nechta demokratik partiyalar rahbarlari bilan valaqlashamiz. Bu yaxshi taassurot qoldiradi. Keyin respublika partiyasi barzangilaridan biri tashkil qilgan "Ten Eyk" yig'ilishiga boramiz. Biroq, bu ishning bir qismi xolos. Sen menga shu yerda, hafta davomida bu arboblarga sotgan narsalarimni mustahkamlash uchun keraksan.

— Hayit arafasida bu yerda arboblarni ko'p bo'lmasa kerak.

— Ular ertaga tarqalishadi. Shuning uchun seni zudlik bilan kelishga majburladim. Bugun oqshomda shunday tadbirlarning oxirgisi bo'ladi. Ta'til tugagandan keyin esa, hatto o'ylasang ko'ngil ayniydi — sessiyalar boshlanadi. Shunday qilib, yo bugun, yo hech qachon.

Palmer jamadonidan yangi bo'yinbog' olib, javondagi uzun, tussiz oynaga o'zini soldi.

— Bu yerda nimalar bilan ko'ngil ochding?

— Orzular bilan. Yana nima bilan shug'ullanishim mumkin?

— Qanaqa orzular?

— Berns yelkasini qisdi. Palmer oynada uning bu qilg'ini ko'rib, bir lahza o'z aksiga emas, unga qaradi.

— Aniqrog'i?

— Bir nechta shu yerlik yigitlar, asosan, huquqshunoslar bizga foydali bo'lishi mumkin. Ularga qarz so'ragan mijozlar uchun omonat banklari hech vaqo bermasligini, faqat tijorat banklarigina yordam ko'rsatishi mumkinligini aytdim.

— Bironta kafolat berdingmi?

— Ovoz berish masalasidami? Hali juda erta.

— Qarz berish masalasini aytyapman.

— Qarz berish? Men? — Palmer qo'llarini ko'tardi, birlashtirib, ko'ksiga bosdi. — Meni kim deb o'ylayapsan? Birorta ahmoq debmi?

— Shunchaki so'radim.

— Vudi! — Yana so'zlari go'yo boshlari ustida muallaq qolgandek bo'ldi. — Vudi, bolakay, — davom etdi Berns. — Mendan jahling chiqayapti, tan ol.

Palmer o'zini tutolmagani uchun oynaga qarab, aftini bujmaytirdi va Berns ishonmasligini o'ylab, javob berishdan oldin bo'yinbog'ini hafsala bilan bog'ladi.

— Mak, — gap boshladi u. — Aqling rasoligiga shubha qilmayman. Mulohazakorligingga, siyosiy sezgirligingga, sadoqatingga, kuch-quvvatingga tan beraman. Faqat bankirlik qobiliyating borligiga ishonmayman. Bankir sifatida hech narsaga arzimaydigan odam bo'lishing mumkin. Shu bois, qarz masalasida tezkor muzokara olib borayapman deganingda, ajablandim.

Bernsning uzunchoq yuzi tabassumdan yorishib, pastki lablari rohatlanganidan yoyilib ketdi.

— Men bankir emasman, yo`q. Gapimga ishonaver, bolakay, buni bilaman. Biroq men ahmoq ham emasman. Moliyaviy masalalarni senga qoldiraman.

Palmer o`g`irilib, unga tik qaradi.

— Shuning uchun keldimmi? Qarz haqida gapirish uchun-a?

Bernsning uzun, ozg`in qo`llari Palmerni cho`zildi, u olifalik bilan inkor ma`nosini bildirdi.

— Vudi, azizim, seni hech qachon bunaqa vaziyatda tashlab qo`ymayman. O`ylab ko`r, Mak Bernsning qarz haqidagi shamalariga kim ham ishonardi? Biroq Mak Berns bilan Vudi Palmer Olbanida birga yurishsa — ishonishadi. Shubhalar hatto million yilda ham amalga oshmasligi mumkin, biroq ularga ishonishadi. Senga orzular ichida yashaganimni aytdim, Vudi.

— Boya aytganimdek, Mak, aynan shuning uchun ham sen hech qachon bankir bo`lmaysan.

Berns biroz jim qoldi.

— Rahmat, — dedi nihoyat.

— Sen bu gapni maqtov deb tushunmasliging kerak.

— Bunga emas, imlo xatoimni to`g`rilaganing uchun rahmat.

— Qanaqa xato?

— Mug`ambirlik qilma, Vudi, "Men shunday dedim"ni sen "Men aytganimdek" deb to`g`rilading. Men aytganimdek. Vudi, men ahmoq emasman. Shamang uchun rahmat.

— Bu hatto xayolimda ham yo`q edi. Endi kimdan ko`proq jahli chiqyapti?

Bernsning sarg`imtil — qo`ng`ir ko`zlarida o`zgarish ko`rinmas, ular xotirjam boqardi. Keyin bu ko`zlarda masxaraomuz istehzo paydo bo`ldi.

— Kechir, qariya, — dedi u. — Seni yaxshiroq bilib olganimdan keyin dastlab nimalarni o`ylaganimni gapirib beraman. — U ko`kragiga urdi. — Ichim-dagi gaplarni...

Palmer bo`yinbog`ini ko`ngildagidek qilib bog`ladi. Kutilmaganda xayoliga: Bernsning xonadonida tushirib yuborgan to`g`nog`ichimni Virjiniya emas, u topib olganda, nima bo`lardi? — degan fikr keldi. U xayollarini ma`lum bir yo`nalishga solayotgandek, boshini silkitdi.

— Nima bo`lganda ham menda sen qadrlaydigan ayrim ma`lumotlar bor, — dedi u.

Bernsning yuzida yana befarqlik alomati zohir bo`ldi.

— Ha?

— Birja ma`lumotlari. Xohlaysanmi?

Berns kinoyali kulimsiradi.

— Xohlagan paytingda, azizim.

— Ular senga kulgili ko`rinadi, — gap boshladi Palmer. — Balki "kulgili" deganim o`rinli emas, siyqasi chiqqan gapdir. Men YuBTKning aktsiyalari haqida gapiryapman.

Berns kulib yubordi:

— Mana buni yangilik desa bo`ladi. Ular bir oydan buyon ko`tarilyapti.

— Biroq juda sekin.

— Sen katta sakrashni ko`zda tutayapsanmi?

— U boshlansa YuBTK aktsiyalari ikki kunda 10 bandga ko`tariladi.

Bernsning qoshlari tutashdi.

— Nima uchun?

— Hech qanday izohga o`rin yo`q. Shunchaki, ma`lumot.

— Yaxshi. Qachon?

— Bu — men aniq aytolmaydigan yagona narsa.

— Aniq bilmasliging g`alati.

— Agar bu sakrashni qandaydir yo`l bilan yakka o`zim tayyorlaganimda, — tushuntirdi Palmer, — senga "qachon"ligini hozir lo`nda qilib aytib berardim. Biroq bu menga ham, YuBTK dagilarning birortasiga ham bog`liq emas.

Berns oromkursidan oldinga qarab engashdi:

— Unda, kimga bog'liq?

Palmer yelkalarini qisdi. U stakanini olib, Bernsning karavotidan narisidagi oromkursiga o'tirdi.

— Noma'lum valine'matga.

Berns g'ayrishuuriy ravishda stakanini ko'tardi, biroq negadir ichishni unutdi.

— Vudi, bolakay, men bilan o'yin qilma. Sen bularni qaerdan olding?

Palmer qadahni ichib bo'shatdi. Keyin chamadonini ochib, bir nechta papka oldi.

— Bitimlar ro'yxati, — dedi u. — 30 oktyabrdan boshlangan. Kim sotgan. Kim sotib olgan — hammasi shu yerda.

Berns o'rnidan turib, karavotni aylanib o'tdi. Palmer uni kuzatib turdi. Berns kutilmaganda uyg'ongan qiziqishini yashirish uchun iloji boricha sekin yurib, unga yaqinlashdi.

— Unda nimalar bor ekan? — so'radi u.

— Kim sotgani, kim sotib olgani.

— Qani-qani? Ulardan nimani angalayapsan?

— Hech narsani.

— Butunlaymi?

— Butunlay hech narsani.

Berns boshini yoniga egdi.

— Sen meni laqillatmoqchimisani, Vudi? — u oromkursi yoniga qaytib, unga o'girdi. Palmer ro'yxat uni qiziqitirmay qo'yganini angladi.

— Tanlashib olish uchun vaqtimiz yetarlimi? — so'radi Palmer.

— Besh — o'n daqiqa.

— Sen Robert R. Yang "Nyu-York sentral" ustidan nazoratni qo'lga olgan paytdagi katta janjalni eslaysanmi?

— Albatta. Kim eslamaydi?

— Mening otam bank vakili emas, yirik aktsiyador bo'lgan Uayt ma'muriyatiga sodiq inson sifatida u Yang "Sentral"ni tortib olmasligiga ishonardi. Katta mojaro ochiqchasiga boshlanganda u har bir zarbani kuzatib turdi, hatto u Yangning g'alabasi bilan tugaganda ham bunga ishonmay yurdi.

— Bu chinakamiga g'aroyib voqea bo'lgan edi.

— Hayotiy tajribalariga qaramasdan otam rahbariyatga qarshi jang qilib, yuksak g'alabaga erishish mumkinligini tasavvur qilolmasdi. U janjal va mushtlashuv aktsiyalarni xarid qilish borasida Yang talab qilgan og'ir takliflarga qarshi qilinyapti deb o'ylagan.

— Aslida ham shunday emasmidi? — so'radi Berns.

Palmer yaxna ichimlik ho'plaganicha, jilmaydi.

— Biz, chamasi, hech qachon buni bilolmaymiz. Ko'ryapsanmi, bizning kunlarimizda ochiq jang boshlangunga qadar faqat shovqin-suron qoladi, boshqa muhim narsalar unutilib ketgan bo'ladi. Jang so'nggi daqiqaga qadar yashirin holda olib boriladi. Kompaniyada rahbarlikni egallagan kimsa, yetilib kelayotgan janjalni fahmlamay o'z ishi bilan tinchgina shug'ullanib yuraveradi. Vaqt-vaqti bilan ular ham qandaydir shovqin-suronni eshitib qoladilar. Bular albatta, boshqacha fikr yurituvchi aktsiyadorlarniki. Ular bir umr shovqin solishadi. Biroq rahbariyat haqiqiy ahvolni tushunmaydi. Juda ehtiyotkorlik bilan hamma yerdan oz-ozdan aktsiya sotib olishadi. Yuztasini bu yerdan elliktasini narigi yerdan. Bugun mingta, ertaga yana mingta. Bularning hammasi me'yordagi faollikni bildiradi. Ya'ni, avvaldan o'ylangandek ko'rinadi.

Berns bosh chayqadi:

— Bunaqangi sur'atda kimningdir hayoti faqat nazoratni egallash bilan band bo'ladi.

— Ba'zida yashirin harakatlar yillab davom etadi. Uni tezlashtirish mumkin emas. Haddan tashqari faollik shubha tug'diradi.

— Tushunarli. — Berns soatiga qaradi.

— Agar yugurishimiz kerak bo'lsa, gapimni boshqa bir kun tugatishim mumkin, — dedi Palmer.

— Yo'q, yo'q. Davom ettir.

— Joningga tegmadimmi?

— Men yuqori darajali nayrangbozlar orasidaman. Vudi. O'zing tushunasan-ku.

— Garov o'ynaymanki, yetib borasan. — Palmer ozgina viski ichdi. — Xo'p, mayli. Aktsiya sotib olishning zerikarli jarayonini boshqa vositalar bilan ham tezlashtirish mumkin emas: bu birjada narxlarni birdan ko'tarib yuborishi mumkin. Buning hojati yo'q. Bu barcha jarayonlarni muddatidan avval qimmatlashib ketishiga olib keladi. Muvaffaqiyatlar garovi narxlarni nomigagina ko'tarilib yoki pasayib, turg'un holda bo'lishi. Shunda siz tortinishni yig'ishtirib, kim sizga aktsiyaning yirik paketini sotsa, o'shanga o'n band mukofot taklif qilasiz. Siz imkoni bo'lgan hamma narsani bozor narxida sotib olib bo'lgansiz. Endi tayyorgarlik davri tugadi va siz aktsiyalarni 5000 dan sotib ola boshlaysiz. Eslashimcha, bunday usul bir necha marta foyda bergan. Biroq birortasi ehtiyotkorlikni yo'qotsa, yiqilib qolishi ham hech gap emas, yoki narxlar haddan tashqari tez ko'tarilib tursa, yoxud bank ma'muriyati nima bo'layotganini anglab qolsa, yoki hokimiyatga intilayotgan guruhlarining puli tugab qolgan bo'lsa...

Berns loqaydligini ochiq ko'rsatib, bo'shliqqa tikildi. Oradan bir daqiqadan ortiq vaqt o'tgandan keyingina u Palmerning gapi tugaganini angladi. Stakanini qo'lga olib, o'zini o'ngladi va ishbilarmonglarga xos qiyofada viski icha boshladi. Keyin o'rnidan turib shkaf oynasi oldiga bordi. Usti-boshini ko'zdan kechirib, ko'z ostida qorayib turgan xaltachalardan birini bosib ko'rди, xo'mrayib, kafti bilan sochini silliqhladi. Bir soniyadan keyin vannaxonaga yo'l oldi. Palmer quvurdan sharillab oqayotgan suvning ovozini eshitdi. Keyin hammayoq jimib qoldi. Berns stakan to'la suv ko'tarib qaytdi. To'xtab, shoshilmasdan suvni icha boshladi. U xo'rsindi.

— Qani, ko'raylik-chi, men seni to'g'ri tushundimmikin, — dedi nihoyat.

— Marhamat.

— Sen kimdir Berkxardtning ma'muriyatini siqib chiqarishga urinyapti, deyapsanmi? Shuning uchun aktsiyalar bahosi oshyaptimi? Shu tufayli yaqin kunlarda birdaniga o'n bandga ko'tariladimi?

— To'g'ri. Agar noma'lum raqibimizning hamma ishi yaxshi ketayotgan bo'lsa.

Berks Palmerning tizzasida yotgan ro'yxatni ko'rsatdi.

— Kim ekanligini fahmlay olmaysanmi?

— Bilolganimda, u g'irt tentak odam bo'lib chiqardi. Bu yerda hech kim hech qachon eshitmagan ismlar yozilgan. Bu odamlar butun AQSh hududi bo'ylab tarqalgan. Ishonching komil bo'lsinki, noma'lum korporatsiyalarning ishonchli hamma omonatchilari nafaqaxo'rlar, uncha katta bo'lmagan sug'urta kompaniyalari va aka-ukalar, turmushga chiqmagan xolajonlar, kotibalar va yana kimligini xudo biladigan odamlar bo'lib chiqadi.

— Bu odamlarni aktsiya sotib olishga qanday majburlashgan?

— Bu juda oson. Hokimiyatga intiluvchi guruhlar aktsiyalarning narxi oshishiga kafolat berishadi. Halol ishlaganda aslida shunday bo'lishi kerak-da. Bu guruhlar tarqoq aktsiya egalaridan aktsiyalarni qaytarib olishmaydi. Ularga shunchaki, hokimiyatga intilishlarini qo'llab-quvvatlovchi yuvosh omonatchilar kerak.

— Buni tushunaman, — Berns unga ishonch bildirdi. — Men buni anglab yetgunimcha, Vudi, kimdir YuBTK ustidan nazorat qilishni o'z qo'lga olmoqchimi? Bu — kimga kerak? Va asosiysi, nazorat paketini egallash uchun kimda shuncha pul topiladi?

— G'alaba aniq bo'lsa, pul hamisha topiladi.

— Berns asta bosh chayqadi.

— Ishlar chatoq, — to'ng'illadi u. — Ishlar chatoq.

— Uning qancha qismi, Mak? Kimdir... Shunday qilmoqchimi yoki men mohiyatiga shunchalik chuqur kirib bordimmi?

Berns hayron tikildi:

— Bu bilan nima demoqchisan?

— O'zimning ham ishonchim komil emas. Balki, hech gap yo'qdir. Balki, tavakkaliga, o'q otishdir.

Berns anchagacha Palmerdan nigohini olmadi. Va niyat boshqa tomonga qaradi.

- Ha, mayli, o'ylaymanki, senga o'xshagan pultopar yigitlar uchun bu — hech gap emas.
- Agar sening xususiy kompaniyangda yuz bersa, hech qachon "hech gap emas" deyolmaysan.
- To'g'ri aytding. Nima qilmoqchisan?
- Palmer idishdagini ichib tugatib, o'rnidan turdi.
- Gap shundaki, menda YuBTK aksiyalari yo'q. Men oddiy xizmatchiman. Bu — Berkxardtning tashvishi.
- U biladimi?
- Nayranglarnimi? Bilishi kerak. Men aytgandim.
- A? — Berns o'ychanlik bilan peshonasini tirishtirdi. — Mayli, qariya, bu — bizning oqshomgi tashrifimizga o'zgartish kiritmaydi, shunday emasmi? Biz hali yana bir nechta jamg'arma banklarini dabdala qilishimiz kerak.
- Shunday qilamiz. — Palmer pidjagini kiyib, eshik tomon yo'naldi.
- Albatta. Agar bu vaziyatni o'zgartirmasa, — ehtiyotkorlik bilan qo'shib qo'ydi Berns.
- Nega u vaziyatni o'zgartirishi kerak? — Palmer unga qarash uchun to'xtadi. — Birining ikkinchisiga aloqasi yo'q.
- U Berns sustkashlik qilayotganini ko'rib, tund basharasidan biror narsa uqishga urindi. Axir u Bernsga ataylab birja ahvolini mohirona uyushtirilgan nayrang deb tushuntirdi. Va YuBTK nazoratini qo'lga olish ustida ketayotgan jangni jamg'arma banklar uchun bo'layotgan urinishlarga aloqasi yo'qligini aniq ta'kidladi. Aslida, mulohaza qildi Palmer, ikkovi ham bitta nishonga urishyapti. Oddiygina aktsiya sotib olish bilan YuBTKda katta korporatsiya ustidan nazorat qilishni qo'lga kiritib bo'ladimi? Berns bir narsada haq — hammadada shunaqa pullar bor. Biroq bunday jangda pul yagona vosita bo'lmaydi, o'yladi Palmer. Bank direktiyasini obro'sizlantirib, ko'pchilik aktsiyadorlarni o'z atrofiga yig'ishi mumkin. Oqibatda aktsiyalar sonining ahamiyati bo'lmaydi. Asosiysi, yirik aktsiyalar kimni yoqlashida. Agar Leyk Bernxadtni ruhiy kasal, shuning uchun talvasada jamg'arma banklari bilan hisob-kitob qilyapti deb gap tarqatilib, sharmandalarcha mag'lub qilinsa, ana shundagina puldan ko'ra qimmatroq qurol paydo bo'ladi.
- Ketdik pastga, siyosat bilan shug'ullanamiz, — nihoyat taklif qildi Palmer.
- Ketdik. — Berns zo'r berib xonadan nimanidir qidira boshladi. Vannaga kirdi, bir daqiqacha o'tgach, u yerdan yuzida taajjub bilan chiqdi.
- Tumovga qarshi doring bormi?
- Bo'lsa kerak.
- Jinday tumov bo'libman, dorim tugab qolibdi.
- Sigaret sotiladigan dokonchada kichik qutichalari bo'ladi.
- To'g'ri. — Berns eshik yonida turgan Palmerning yoniga bordi. Shirin jilmaydi. Qandaydir lahzada yo'lbars ko'zlaridek o'tkir ko'zlari muloyim boqdi. — Senda kerakli dori bo'lishini bilardim, bolakay.
- Nega aynan menda?
- Bilmadim. — Tabassum kulguga aylandi. — Shunchaki, xayolimda bu doridan tez-tez foydalanib turasan, deb o'yladim.
- Berns eshikni ochib, tashqariga chiqdi.

O'ttiz sakkizinchi bob

Palmer ertasi kuni soat o'nda uyg'otishlarini so'ragan bo'lsa-da, soat o'n birda ham hamon o'rinda yotardi. Navbatchi soat o'nda qo'ng'iroq qildi va Palmer unga barcha so'raganlarga kechroq qayta qo'ng'iroq qilinglar, deb tayinlashni iltimos qildi. Palmer yana bir soat uzuq-yuliq tushlar ko'rib uxladi. Ana shunday tushlarning birida Palmer Berkxardt bilan nonushta qildi. Suhbat o'rtasida u

sochiqchasini ko'tardi va Berns qidirayotgan dori turganligini ko'rdi.

Palmer uyg'onib, yonboshiga ag'darildi va yana uyqu elitmaguncha, qimirlamay yotdi. Oxirgi tushi juda uzoq davom etdim... U oynadan qarab turgan ayolga quvonch bilan qo'l siltadi. Ular quchoqlashdilar. Ayolning qo'llari yo'q edi.

Palmer uyg'onib ketdi va tushidagi ko'rgan "tumov dorisi"ning mag'zini chaqishga urindi. Qo'lsiz ayolni ko'z oldiga keltirib, yuragi ezildi. So'ng faqat dorini o'ylab, boshqa tushlarini unutdi.

Nihoyat, batamom uyg'onib, karavot chetiga o'tirdi va bunchalik uyqu bosganiga hayron qoldi. Berns uni soat ikkida, shaharning ishbilarmonlar qismida o'tkazilgan zerikarli oqshomdan keyin tungi soat ikkilarda "Ford Oranj"ga qaytarib olib keldi. Keyin, klub salonida uncha katta bo'lmagan jamoa yig'ildi. Bu yerda Palmer biroz ichdi. U soat uchga yaqin, balki hatto ertaroq uxlagani yotganini esladi.

Palmer o'tgan oqshomda yuz bergan voqealardan eng yaxshisi — mehmonxonada o'tkazilgan kichkina o'tirish deb hisobladi. Unda asosan erkaklar bo'lgandi, bir-ikkitasigina xotinlari bilan kelgan, shuningdek, bir necha ayol ishtirok etgandi. Palmer bu ayollarning gaplarini deyarli eshitmadi. Suhbatni faqat erkaklar olib borishdi: keksalar, o'rta yoshlilar, ozg'in, semiz — umuman, har xil toifadagi, shtatlarning hamma chekkasidan, O'rta G'arbdan kelgan, qiyofasi ham, maqsadi ham turli-tuman odamlar yig'ilgan edilar.

Bu jamoa mening tengim emas, deb o'yladi u...

Nihoyat, o'rnidan turib, deraza oldiga bordi. Nima uchun u Berkxardtga o'zini mana bu siyosatchi hayvonlar bilan bitta sahnaga chiqarib qo'yishiga yo'l berdi?..

Albatta, deb o'yladi Palmer derazadan boqib, ayrim arboblardan juda ham band. Masalan, Kalxeyn xilidagi odamlar qo'l yetmas hokimiyatlari bilan o'zlariga jalb qilishadi. Ular bilan ish olib borish mumkin...

Palmer keskin o'girilib, telefon yoniga keldi.

— Janob Bernsni, iltimos, u qaerda bo'lsa ham...

Navbatchi shaharning qaeridadir yurgan Bernsni topishiga kamida besh daqiqa vaqt ketdi.

— Vudi, bolakay, uyg'ondingmi?

— Mak, meni Sirakuzaga olib borishga hojat yo'q. Men shu yerdan ijaraga mashina olaman-da, bugungi nutqdan keyin Nyu-Yorkdan to'g'ri Sirakuzaga uchib ketaman.

— Azizim, bu — men uchun faqat huzur bag'ishlaydi. Seni olib borib qo'yish menga rohat-ku.

— Hojati yo'q. Bu yerda, Olbanida mendan nimani kutgan bo'lsang — bajardim.

— Nega bunday deyapsan?

— Men to'g'risini aytyapman. Sen, shunday qilib, Nyu-Yorkka jo'nashing mumkin, men ham. Aks holda bugun oqshomda mashinada orqaga, Olbanigacha qaytishingga to'g'ri keladi. Biz Nyu-Yorkka faqat ertaga yetib boramiz.

— Hm. Aqlli gap. Biroq men sen bilan yana ba'zi narsalar haqida gaplashib olmoqchi edim.

— Bayramdan keyin vaqtimiz ko'p bo'ladi.

— Bizga kelganda topilmay qoladi-da. Uch-uchini bog'lash zarur bo'lgan ishlar ko'payib qoldi. Sen bo'lsang nutq so'zlab, shtatlar bo'ylab aylanib yurasan.

— Uchrashish uchun vaqt topamiz.

Berns jim bo'ldi.

— Tasavvur qila olmayman: YuBTKning vitse-prezidenti ijaraga olingan shaloq aravada yursa.

— Aljirama.

— To'g'ri gap, Vudi. Hech bo'lmasa mashinam bilan haydovchimni berib turay, rozi bo'l. U seni Sirakuzaga olib borib qo'yib, keyin meni olib ketgani Olbaniga qaytadi. Maylimi?

Palmer o'ylanib qoldi. U Bernsga qarashli mashinadagi "8" belgisini ko'rgan, bu mashina ijaraga olinganini bildirardi. Berns uni aldamoqchimi?

— Mak, ortiqcha vaqt uchun limuzin yollash o'zim mashina haydaganimdan ko'ra qimmatga tushadi, — dedi Palmer.

— A? — Berns bir lahza jim qolib, beparvolik bilan so'zladi:

— Vudi, bankir menga iqtisod qilish haqida maslahat bersa, amal qilganim yaxshi.

— Durust. Men seni haftaning oxirida, Nyu-Yorkdan topib olaman.

— Mayli, Sirakuzadagilarning ta'zirini ber.

Palmer mahalliy ijara idorasiga qo'ng'iroq qilib, kredit kartochkasi va Nyu-Yorkdagi yashash manzilini bildirdi.

— Sirakuzadagi mehmonxonadan joy ajratib qo'yaylikmi?

— Buning keragi yo'q, — javob berdi Palmer xodimga. — Bugun oqshomdayoq uyimga uchib ketaman.

— Unday bo'lsa, samolyot uchun joy bron qilib qo'yaman.

— Shundaymi? Juda yaxshi. Yarim tundagisiga bo'lsin.

— Bu — 53-reys bo'ladi. U Nyu-Yorkkacha hech qaerga qo'nmay uchib boradi.

— Sirakuzaga qancha vaqtda yetib boriladi?

— Ikki soatda.

— Yaxshisi, mehmonxonadan joy buyurtiring. Ancha vaqtim qolarkan.

— Mashinani mehmonxona yonidagi idoraga qoldirasiz. Ular bungacha sizga samolyotga chipta buyurib qo'yishadi.

— Palmer go'shakni ilib, yuvinib, kostyumini almashtirish uchun yechina boshladi. Safar davomida Bernsni ko'rmasligidan xursand bo'lib, hatto yengil hushtak chalgani holda yuvindi. Berns bilan uzoq vaqt birga yurib bo'lmasdi. Biroq hozir, Palmer uni YuBTK ustidan nazoratni qo'lga olishni mo'ljallayapti degan shubhaga borib, ko'rgani ko'zi bo'lmay qoldi.

U nima bo'lganda ham Palmerning gaplariga sovuq munosabatda bo'ldi. Butun oqshom bu haqda eslatmadi ham. Palmer uning dori haqidagi shamasini qulog'iga quyib oldi, albatta.

Artinib bo'lgan Palmer xayolchan turib qoldi. Nima bo'lganda ham tumov dorisi haqidagi shamaning ma'nosi nima edi? Yo Berns Palmerdan biror narsada gumon qilayaptimi?

Palmer vanna chetiga o'tirib, o'zini Bernsning o'rniga qo'yishga urindi. Palmer bilan Virjiniya uning uyidan birinchi marta foydalangan o'sha tun haqida Bernsda qanday dalillar bo'lishi mumkin? Berns ikkovi o'sha yerda bir muddat bo'lishganini biladi, albatta. Uyiga qaytib, tuvom dorilarining yo'q bo'lib qolganini payqagandir. Shuningdek, Palmer ham, Virjiniya ham tumov bo'lmaganlarini eslagan. Shunday ekan, nima uchun ular shunchalik ko'p sochiq ishlatishganiga hayron qolmaydimi?

Palmer o'rnidan turib, kiyindi. Shkaf oynasiga qarab bo'yinbog'ini bog'ladi. Shumshaygan aksini ko'rib jilmayishga urindi. Berns nima deb gumon qilmasin, isboti yo'q.

Palmer buyumlarini kichkina jomadonga solib, xonaga bir qur ko'z yugurtirgach, tashqariga chiqdi.

O'ttiz to'qqizinchi bob

— Men to'la aniqlik kiritmoqchiman, — dedi Palmer. ovozi ziyofat zaliga o'rnatilgan mikrofon tufayli gumburlab chiqdi. — Jamg'arma banklar oila va jamiyat hayotida ijobiy kuch hisoblanadi. Uni hech kim shubha ostida qoldira olmaydi. Biroq... men bu gapni aytish uchungina Sirakuzadan kelganim yo'q. — U yig'ilganlar kularmikan deb gapini to'xtatdi. Kulgi o'rniga birdaniga qahqaha ko'tarildi. Mana bunisi zo'r bo'ldi! U g'ovur to'xtaguncha kutib turdi.

— Biroq, — davom etdi u, — Mas'uliyatli fuqarolar, millat tijoratchilari sifatida sizlar, shu yerga yig'ilganlar, AQSh iqtisodiga bir maqsad bilan qaraysizlar. Hammamiz ham iqtisodiyotni uzoq vaqt sustlashtiruvchi har qanday harakat millatimizning ravnaqi uchun xavf soladi deb hisoblaymiz.

Men shuni ishonch bilan ta'kidlaymanki, jamg'arma banklar mamlakatning o'sib borayotgan iqtisodiyotiga ana shunday xavf solib kelgan va shundayligicha qoladi. Fikrimni aniqroq ifodalashga ruxsat bering. Amerikaliklar uchun o'z jamg'armalarini asraydigan juda ko'p vositalar mavjud.

Jamg'arma banklari ana shunday vositalardan biri. Men jamg'arma banklarga emas, bu banklarning hamma pullarini o'z omborlariga yig'ishga urinayotganlarga qarshi gapirayapman.

— Jamg'arma bankiga qo'yilgan dollarlar nima bo'lishini o'ylab ko'ringlar. Qonun bu banklarga davlat obligatsiyalari, cheklangan miqdorda qimmatbaho qog'ozlar va garovdan boshqa narsaga ruxsat etmaydi. O'z navbatida bunday holat omonat banklari o'z zahiralarning ma'lum bir qismini naqd pul hisobida ushlab turishga majbur qiladi. Yana ta'kidlayman: bunday omonat turida hech qanday qonunbuzarlik yo'q. Agar ozgina miqdordagi pullarni saqlab turgan bunday banklar soni cheklangan bo'lsa, ularning iqtisodiyotiga ta'siri uncha sezilmasdi. Ammo...

Palmer nutq boshlaganidan bir necha daqiqa o'tgach, atrofga qarab, ziyofat zali odamlar bilan to'lganini ko'rdi. Yaxshi belgi.

Quvnoq sharoitda o'tgan tushlikdan keyin tinglovchilar xayrixohlik kayfiyatida edilar. Palmer bu odamlar butunlay o'zi tomoniga o'tganini sezgunga qadar jamg'armalar haqidagi gapni to'xtatmadi. Endi alohida jamg'arma banklardagi bill¹ga qarshi chiqish orqali YuBTK ham, tijorat banklari ham shaxsiyatparastlarcha yo'l tutmayotganiga ishonirishgina qoldi, xolos.

— Men ko'cha karnavalidagi sotuvchilardan biri bo'lganimda, — davom etdi Palmer, — bu minbardan qo'limda ilon zahari solingan shisha idish ushlab, u hatto billiard soqqasida ham soch o'stira olishini kafolatlayman deb gap sotgan bo'lardim.

Nomiga bo'lsa ham bir-ikki joyda kulgi eshitildi:

— Afsuski, janoblar, meni sotadigan narsam yo'q. Sirakuzada mening banklarim, sizlarning mahalliy banklaringiz bilan bilvosita operatsiyalar o'tkazishini hisobga olmaganda, tijorat ishlari bilan shug'ullanmaydi. Biz hatto yigitlaringizdan birortasini aldab, Nyu-Yorkka chaqirib olishni orzu ham qilmaymiz. — Kulgi sal ko'paydi.

— Sizlarning mahalliy tijorat banklaringiz nomidan gapirolmayman, — davom etdi u. — Lekin ishonamanki, ular shug'ullanishlari zarur bo'lgan hamma ishni qo'llariga olganlar. — Sirakuza — bu gullab-o'sayotgan jamoa. Bu yerda ko'pgina banklar faoliyati uchun maydon keng. Sizlar o'z xususiy zayomlaringizni ko'rsatasizlar, kredit ma'lumotlarini yig'asizlar, jamg'armalarni boshqarib, mashina, uylar sotib olish, muhim ishlarni bajarish uchun qarz olasizlar. Buning uchun sizlarga faqat tijorat banklari yordam beradi.

Biroq men sizlarni faqat Sirakuzaning iqtisodiga qarashdan tashqari boshqa narsalarga ham...

Palmer minbardan tushib, qarsaklarga quloq soldi. U hali gulduros qarsaklarning farqiga boradigan darajada ko'p nutq so'zlagani yo'q. Biroq qarsaklar qattiq yangrab, bir necha daqiqa davom etdi. U rasmiy qo'l olishish uchun raisga o'girildi.

Palmer yonboshdagi eshikdan chiqib ketayotib, soatiga qaradi. Oxirgi o'n besh daqiqa ichida soatga bir lahza ko'z tashlab olishni ko'p mo'ljalladi, lekin bu auditoriyada yomon taassurot qoldirishi mumkin edi. Soat o'n bir bo'lganini endi bildi. Samolyot uchishiga bir soat vaqt qolibdi. U yo'lakda komitetning bir necha a'zosi, ikkita mahalliy tijorat bankirlari va otasini taniydigan o'rta yoshlardagi kishining tabrigini qabul qildi. Keyin ijaraga olgan xonasiga kirdi. Telefon go'shagini ko'tarib, so'radi:

— Aeroportga qachon mashina ketishini aytolmaysizmi?

— Soat o'n biru o'n beshda. Iltimos, bir daqiqa to'xtang. — Telefon jim bo'lib qoldi. Palmer toqatsizlik bilan kutib turdi.

— Janob Palmer, — yana gapga tushdi telefonchi qiz, — ziyofat zalida bo'lgan paytingizda sizga kimdir qo'ng'iroq qildi. — U Palmerga mahalliy telefon raqamini berdi. Palmer qo'ng'iroq qiluvchi kimligini bilmas edi. Go'shakni ilib, jomadonini yopdi, paltosini olib, xonadan chiqdi. Qo'ng'iroq qilgan kim bo'lsa ham Sirakuzaga yanagi gal kelishini kutadigan bo'ldi.

Palmer pastga tushib, aerokompaniya mashinasi turadigan joyga yo'l oldi. O'ziga o'xshab horg'in ko'rinvchi bir nechta kishi eshik oldida turardi. Yonidan yugurdak g'uldiraganicha o'tib ketdi.

— Janob Marmer, janob Marmer.

Palmer to'xtadi:

— Palmer?

Yugurdak sekingina bosh irg'adi:

— Marhamat qilib, hov anavi telefon go'shagini oling. — U nimanidir kutib turdi, — Rahmat, janob Marmer.

Palmer hayron bo'lib unga qaradi, so'ng cho'ntagini kavlab, 25 tsent oldi va yugurdakka uzatdi.

— Janob Marm... Palmer eshitadi.

— Bir daqiqa, iltimos.

Go'shakda nimadir shitirladi.

— Xayrli tun, janob Palmer, — Virjiniya Klerining ovozi eshitildi. — Nafis to'rlar to'qish va yigirish birodarlari tijorat bankining Sirakuza bo'linmasidan gapiryapmiz.

— Avval ham sen qo'ng'iroq qilganmiding?

— To'g'ri, men o'ylovdimki, sen...

— Sen nima qilayapsan ... da?

— Balki, Sirakuzadagi birona mo'jizani ko'rmoqchidirsan, rost, sen...

— Jin ursin, — dedi u.

— Aeroportda emasligingdan xursandman, — dedi ayol. — U yerda radio orqali seni chaqirtirish g'irt bema'nilik bo'lardi.

— Bu gaping yaxshi, ammo noto'g'ri.

— Aviakompaniyaning mashinasidan ko'ra taksi olganing ma'qul, — taklif qildi ayol.

— Qimmatroq bo'lgani uchunmi? Pulni hamisha muomalaga solib turish yo'limi bu?

— Sababi, taksi seni Xill-avenyu va Vestern- xayveyning chorrahasigacha olib borishi mumkin. Bu ham yettinchi raqam.

— Qanaqa raqam?

— Ko'rasan.

— Nazarimda shu tufayli samolyotga kech qoladigandayman.

— Sen bundan boshqa yana ko'p ishlarni hal qila olasan.

— Hm-m. Biz — odat qulimiz, rejalarimizning o'zgarishiga toqatimiz yo'q. — Aloqa uzildi. — Allo, allo? — Palmer birortasi kuzatmayotganmikin degan xayolda atrofga alangladi. Hech kim qaramayotganiga ishonch hosil qilgach, go'shakni qo'ydi, chamadonni ko'tarib, foyeni kesib o'tdi.

— Iltimos, taksi, — dedi u eshik og'asiga...

— Yettinchi nomer, — dedi haydovchi manzilga yetib kelgach. U Palmer uzatgan besh dollarlikni olib, qaytimini bermoqchi bo'ldi. Palmer bosh irg'ab, qaytimni rad etdi.

— Kerak emas. Yaxshi o'ynab-kuling.

Mashina shahar tomon g'izillab ketdi.

Palmer yettinchi nomerli xona eshigiga kelib, taqillatdi.

— Ochiq.

Palmer qorong'u xonaga kirdi.

— Kim bo'lsang ham, salom.

— Eshit. — U Virjiniyani ko'rdi. Ayol tashqaridagi chiroq yorug'i xiragina tushayotgan xona o'rtasida turardi. — Men, chamasi, ahdimdan qaytganga o'xshayman.

Palmer u tomonga qadam qo'ydi:

— Ayni payti.

— Avvaliga bu menga juda yoqimli g'oya bo'lib tuyuldi. U yoqda, Nyu-Yorkda. Shuning uchun samolyotga yugurdim. Biroq yo'lga chiqqanimdan keyin o'ylab qoldim. — Palmer unga qarab yana bir qadam qo'ydi. — Yo'q. O'sha yerda tur. Biz aeroportdan bor-yo'g'i bir chaqirim naridamiz. Samolyotga bemalol ulgurishing mumkin.

— Seni shu yerda qoldirib-a?

— Sen meni chorlaganing yo'q. O'zim keldim.

— Bunisi to'g'ri. — U yana bir qadam yurdi. Endi ayol undan atigi yarim qadam narida turardi. Qorong'ilikda uning ko'zlari haddan tashqari yiriklashib ketgandek ko'rinardi.

— Nima kiyib olding?

— Betayin, tasqara penyuar. Nyu-Yorkka qaytib ketaver.

— Chamamda, ilgari seni bu kiyimda ko'rmagandim. Pardani yopib, tungi chiroqni yoqsam bo'ladimi?

— Iltimos, Vudi, haqiqatan ham bunday qilmasligim kerak edi. Uchib ketsang ham menga baribir. Samolyotga ulgurasan.

— Behuda takrorlayapsan. — U jomadonni yerga qo'ydi.

— Kerak emas. Sen haqsan, kutilmaganda rejalarni buzishdan yomoni yo'q. Bu — xavfli.

— Shu yerda-ya? Taksi haydovchisidan boshqa hech kim bilmaydi.

— Agar xohlasa har qanday odam bilishi mumkin.

U ayolning qo'llaridan ushladi. Uning barmoqlari muzdek edi.

— Ertaga peshingacha meni Nyu-Yorkda hech kim kutmaydi. O'sha paytda Berns meni o'z mashinasida olib kelmoqchi edi.

— U qaerda?

— Bugun kunduzi Nyu-Yorkka uchib ketgan bo'lsa kerak.

— U senga ertaga qo'ng'iroq qilmaydimi?

— Ertaga — shanba. U uyimga qo'ng'iroq qilishiga to'g'ri keladi.

— Bunisi chatoq. Aeroportga boraver.

— Berns uyimga qo'ng'iroq qilmaydi.

— Nima uchun?

— Keyin tushuntiraman.

Palmer uni o'ziga tortdi. Ayol qarshilik ko'rsatdi. Palmer uning qo'lini qo'yib yubordi va belidan ohista quchoqladi. Yupqa kiyimlari ustidan barmoqlari va kafti muloyim sirg'alib o'tdi. U asta yuzini ko'tardi. Issiq sonlarini silab, uni bag'riga tortdi. Lablar bir-biriga yopishdi. Ayolning qo'li uni quchoqlash o'rniga beixtiyor oraliqda qolib, palto tugmalarini yecha boshladi.

— Mana shunaqa tentakman-da, — dedi u go'yo o'ziga o'zi gapirayotgandek. — U paltoni polga tashladi va pidjak tugmalarini yechishga kirishdi. — Samolyotda bu yoqqa uchib kelar ekanman, butun badanimni qo'rquv bosdi.

Ayol pidjakni palto ustiga tashlab, galstukka qo'l cho'zdi.

— Bu yerga kelganimdan keyin o'zimni qo'lga oldim. Mehmonxonaga qo'ng'iroq qildim. Javob bermaganingdan keyin, seni qo'ldan chiqardim, xoynahoy, yo'lda ketayotgandir, deb o'yladim. Hatto shularni o'ylab, yengillashgandek bo'ldim.

— Mana, — u galstukni uzatdi. — Bu yer juda issiq, — davom etdi u. — Jomadoningda xalatga o'xshagan biron narsang bormi? — Yigit tasdiq ishorasini qilgach, u ko'ylak tugmalarini yechishga tutindi. — Yana o'zimga-o'zim, mayli, tag'in bir marta, faqat bir marta qo'ng'iroq qilib ko'ray dedim. Ular seni topib berishdi. Hamma narsa joyiga tushdi. Dastakni joyiga ilib, yana qo'rqib ketdim. Shunaqa tentakman-da.

— Meni topib olganingdan xursandman.

— Rostdanmi? Menga shunchaki ko'ngil uchun gapirayotganga o'xshaysan.

— Ha, mutlaqo to'g'ri.

— Bunday qilma, to'g'risini aytaver.

— To'g'ri yo'lni tanladim, — dedi u. — Boshqasi menga yoqmaydi.

— Men bu haqda Nyu-Yorkda o'ylagandim. La Gardia aerodromida, shunchaki, o'zim borib, senga osiladigan bo'lsam, qanaqa odam bo'ldim, deb o'yladim. Shu tariqa ayol kishining bema'ni yo'lga kirib ketishi ham oson-da. Nima bo'lganda ham. Keyin bunaqa xayollarning mavridi emas, deb o'yladim. Yarimta sevgi munosabatlari degan gap yo'q. Shunday emasmi? Bu narsa boshlangan, u mavjud, davom etyapti, kim-kimning oldiga boradi, u qaerda bo'ladi — ahamiyati yo'q deb o'yladim. Hatto, o'ylab turib, bu menga shunchalik kerakmi degan xayolga ham bordim.

Samolyotga o'tirish oldidan men ana shunday har xil, qarama-qarshi xayollar qurshovida edim.

Menga zarurmidi shu narsalar? Rosti bilan, nimani xohlayman o'zi? Shunga qaramay...

Qisqa jimlik cho'kdi. Palmer kulimsiradi:

— Ayt-chi, nima gap o'zi?

— Bilasanmi, nimaga qaror qildim. Bu menga hech qachon yaxshilik olib kelmasligini bilaman. Lekin bu menga kerak! Xuddi shunday! Yaxshi emas, ammo kerak! Mantiqsizlik-a?

— Hech qanday mantiqning keragi yo'q.

— Albatta. YAna bir marta shunday quchoqla, marhamat.

— Shundaymi?

— Ha.

— Nega jim bo'lib qolding? — oradan bir necha daqiqa o'tgach, Palmer gap qotdi.

— Ko'lni qara, — ayol uning qo'lidan ushlab, deraza yoniga olib keldi. Daraxtlardagi bayram chiroqlari o'chirilgan. Oyning ojiz yorug'ida daraxtlarning suvdagi aksi afsonaviy bir ko'rinish zohir etgandi.

Palmer uning xalati bog'ichini yechib, silliq, yumshoq qornini silashga tushdi. Tashqarida issiq shamol turdi, ammo deraza oynalari sovuq edi... Palmer Virjiniyani deraza tagidan bir necha qadam beriga olib keldi. Kaftlari bilan yalang'och ko'kragini ushladi va uning siynasi uchlari bo'rtib, qattiqlashib borayotganini his qildi. Ayol nimalardir deb pichirladi va uni xonada osilgan parda tarafga qarab tortdi. Nur o'tkazmaydigan parda surildi va ko'lni, daraxtlarni, tirqishlardan kirayotgan kuchsiz shamol yo'lini to'sib qo'ydi. YOqimli harorat badanini chulg'ab oldi. Palmer bir qo'li bilan Virjiniyaning qo'ltig'idan, ikkinchi qo'li bilan tizzasi ostidan ushlab, yerdan ko'tardi va uning ko'kraklari o'rtasidagi chuqur joyga yuzini qo'ydi. Virjiniya yengillashib qolgandek tuyuldi.

— Umrimda men ko'rgan to'shaklarning eng kattasi shundoq to'g'rimizda, ochiq deraza orqasida, — deb qulog'iga shivirladi Virjiniya.

Palmer uni o'sha xonaga olib chiqdi...

Qirqinchi bob

Avvaliga Palmerga noma'lum sabablarga ko'ra Vik Kalxeynning idorasi shahar markazidagi kichkina mehmonxonadagi ko'rimsiz bir xonaga joylashgandi. Uning huquqiy idoralari Nyu-Yorkdagi ishbiarmonlar mahallasida, Broud-stritda bo'lib, u yerga haftada bir martadan ortiq bormasdi. Siyosiy qarorgohi esa Sharqiy bir yuz o'n oltinchi ko'chada o'zi yashaydigan binoda joylashgan edi. Kalxeynga qarashli bu xonadonni bir vaqtlar — asr boshida yirik partiya rahnamalaridan bo'lgan otasi egallagandi. Biroq Palmerning bilishicha, Kalxeynni ko'proq mehmonxonadagi manzilidan topish mumkin edi. U siyosat bilan ham, huquqshunoslik amaliyoti bilan ham deyarli qiziqmasdi.

Berns bir gal unga vaziyatni tushuntirishga uringan, lekin foydasi bo'lmagandi.

— Bularning hammasi rejalashtirilgan o'yin, — dedi Berns. — Ishbiarmonlar mahallasi Kalxeyn mijozlariga huquqshunos sifatida, yashaydigan joyida esa saylovchilariga xizmat qiladi. U bu ikki toifani aralashtirib yubormaydi, tushunasizlarmi? Shahar markazidagi idorasi esa ana shu tarzda puxta ish yuritishga imkon beradi.

Palmer biroz bosh qotirib, Berns nimani nazarda tutayotganini angladi: Kalxeyn, chamasi, bu mehmonxonada siyosiy tijorat bilan shug'ullanadi...

Bayramdan ikki kun o'tgach, Kalxeynning xonasiga zinalardan ko'tarilib borayotganda Palmer shubhasi o'rinli ekanligini angladi. Hatto uning xonasiga boriladigan yo'lak ham turli-tuman qiyofadagi, sabr-toqati yuzidan sezilib turgan odamlarga to'la edi. Palmer ularning yonidan o'tayotganda bu odamlar xavotir bilan qaradilar. Palmerning xayolida ular "Bu kim bo'ldi? Siyosiy arbobmi? Uni tanimaymiz. U kimni taniydi? Bu yerda nima qilib yuribdi?" —deyishayotganga o'xshaydi. Palmer ochiq turgan eshikdan qarab navbat kutib tik turgan yoki o'tirgan o'n ikkitacha

odamni ilg'adi. Stol ortida o'tkir nigohlardan qaerga qochishni bilmay o'tirgan ko'hlikkina qizni ko'rdi. Palmerga ko'zi tushgan qiz bilinar-bilinmas ta'zim qilib:

— O'ngdan navbatdagi eshik, — dedi.

Palmer nari yurdi. Orqasidan kimningdir: — Azizam, u meni qabul qiladimi-yo'qmi? — degan ovozi eshitildi.

Palmer keyingi eshikni taqillatib, biroz muddat kutib turdi, keyin tutqichni buradi. Eshik yopiq edi. U tutqichni qattiqroq burab, eshikni itargan edi, ochilib ketdi. Palmer xonaning ostonasida Kalxeynga ro'baro' bo'ldi.

— Tezroq kirib, eshikni yoping, do'stim, — dedi u o'rnidan turayotib, — Bo'lmasa, hozir bu yerga mehmonxonaning yarmi yopirilib keladi.

Erkaklar qo'l siqib so'rashishdi. Palmer Kalxeynning oldida o'zini pakana odamdek his qildi. Uning bo'yi bor-yo'g'i besh santimetrcha baland bo'lsa ham bahaybat gavdasida bironta ortiqcha muskul yo'q edi. Siyosiy arbob yana qog'ozlar qalashib yotgan stol ortiga o'tirdi. Oromkursi suyanchig'iga suyanib, kulimsiradi:

— Mak qani?

— Shu yerda bo'lishi kerak. — Palmer soatiga qaradi. — Men hozir yig'ilishga borishim kerak. Ixtiyoringizda nimalar borligini menga ayting, zarur bo'lsa men Makka yetkazaman.

Kalxeyn go'yo "hamma narsa shu yerda" degandek, qo'lini uzatib, kaftlarini ochdi.

— Yaxshi xabarlardan boshqa hech narsa yo'q. Mening Sirakuzadagi xodimim juma kuni kechqurun qo'ng'iroq qilib, o'zingizni yaxshi ko'rsatganingizni aytdi. Nutqingiz, mulohazalaringiz yoqibdi. Demak, keyingi hafta Buffaloda yanada yaxshi bo'ladi. Bunday narsalar zanjirli reaksiyaga o'xshaydi. Og'izdan-og'izga o'tib ketaveradi.

— Bunisi yaxshi. Lekin xodimingiz ularning jamg'arma banklari bo'linmalaridagi billarini aniqlab olishiga ishonmayman.

— To'ppa-to'g'ri! Lekin ular siz tomonda tursa, demak, billga qarshi bo'ladi-da!

— Hamisha shunday bo'lavermaydi. Mening nutqimda qo'llab-quvvatlash haqida gap yo'q edi. Menimcha, biz umuman, bunday yo'l tutmasligimiz kerak. Ayniqsa, bu noma'lum shaxs tomonidan qilinmasligi kerak.

Kalxeyn bosh irg'adi:

— Bir necha kundan keyin mening xodimim ayrim ma'lumotlarni to'playdi. Aytaylik, bir haftadan keyin. O'shanda Sirakuzadagi imkoniyatlarimizni bilamiz. Yana zanjirli reaksiya. Sirakuzadagilar Bingamjon, Utiki va Rochesterning fikrini bilmaguncha, betaraf bo'lib turishadi.

Palmer sigaret chekdi.

— Chekka o'lkalardagi tijoratchilarda yashirin ma'lumotlar almashish tizimi borligiga shubha qilmasdim.

— Buni tizim deb atab bo'lmaydi. Lekin xohlagancha keng ma'lumot almashish mumkin. "Kivanis", "Rotari", "Layonz" klublari, turli savdo palatalari, cherkov guruhlari, telegraf agentligi, ishbilarmonlar jamiyati tijoratchilar ixtiyorida. Kuz va qishda siyosiy arboblarning faolligi oshadi, Olbaniga ketishdan oldin okruglarda yurib, odamlarning kayfiyatini bilishga urinishadi. Yozda bu faoliyat to'xtaydi. Odamlar ta'til va boshqa narsalar payida bo'ladi. Biroq qishda, bayram kunlarida, majlislar arafasida hamma tomondagi simsiz telegraflar ishga tushadi.

— Mayli, — dedi Palmer. — Endi o'z okrugimiz haqida gapirib bering.

Kalxeyn kaftlariga tikilib, yelkasini qisdi. U kalta kesilgan sochlarini barmoqlari bilan tarab, kinoyali iljaydi.

— Bilasiz-ku, shtatning chekka o'lkalari haqida hech qachon gumon bo'lgan emas. Ular u yoqda tijorat banklarini qattiq qo'llab-quvvatlashadi. Markaz — boshqa gap. Biroq bu yerda ham biz g'alaba qozonamiz. Mak ikkovlarning Olbanida biroz siyosat bilan shug'ullanganlaringni gapirib berdi.

— To'g'ri. Birinchi galda shtat markazi vakillari bilan.

— Unda mendan ko'ra siz ko'proq gapirishingiz kerak.

Palmer javobga chog'landi-yu, fikridan qaytdi. Unga hamma narsani bila turib, o'zini bilmaslikka soladigan Kalxeynga o'xshagan mug'ambirlar yoqmasdi.

— Boshqa ishlar bilan ovora bo'lib, to'g'risini aytsam, bu narsaga uncha ahamiyat berolmadim, — javob berdi Palmer.

Kalxeyn o'zini hayron bo'lgan odamga o'xshatdi.

— Sizning yagona vazifangiz — jamg'arma banklari bilan ishlash deb o'ylabman.

— Bizda hamma gap bankning ichida, — dedi Palmer. — Aktsiyalarimizga nimadir bo'lyapti.

Kalxeyn oldinga siljidi.

— Yaxshi gapmi?

— Doimiy mijozlar uchun — ha. Darvoqe, buni siz hisobga olib qo'yishingiz mumkin. Menimcha, tez kunda aktsiyalarimizning narxi oshib ketadi.

Kalxeyn yoniga yon daftarchasini tortib, qo'lga qalam oldi.

— Qanday qilib oshadi? Tez oradami?

Palmer hamsuhbatining avzoyini bilish uchun javob berishga oshiqmadi. Nima bu — o'yinmi?

— O'n band meni hayron qoldirmaydi, — dedi u nihoyat. — Vaqt masalasiga kelganda esa, uni umuman bilmayman. Biror oy atrofidamikin? Aniq ayto olmayman.

— Qachon bilasiz? — so'radi Kalxeyn yon daftarchasiga belgi qo'yarkan.

— Ayto olmayman. Makdan so'rab bilishingiz mumkin.

— Makdan? Jin ursin, u sizning aktsiyalaringiz haqidagi gapni qaerdan bilishi mumkin?

— U mendan ham ko'p narsani biladi.

Kalxeyn o'ychanlik bilan qalamni sekingina, qo'ydi. keyin stolga engashib boshini changalladi.

— Tushunmadim.

— Men ham, — tasdiqladi Palmer, — lekin aniq ishonamanki, u qandaydir tashqi guruhlar vositasida bu ishga aralashgan.

— Bo'lmagan gap. Bank aktsiyalari bilan o'yin qilishga kimning qurbi yetarkan? Ichagi ingichkalik qiladi.

— Qo'shilaman. Biroq shunday bo'ladi.

Kalxeyn xayolchan bosh chayqadi.

— Men ko'pdan beri Makning birja haqidagi maslahatlariga quloq solmay qo'yganman. U doim xato qiladi, demoqchi emasman. Shunchaki, o'z xulosalarini ochiq aytguncha yuzma-yuz turib, diqqat-e'tibor bilan muloqot qilish kerak. Men o'ziga qarashli bir mijozni haqida bergan maslahatini hech qachon unutmayman. Asbob-uskuna ishlab chiqaradigan bir korxonaga o'z mahsulotini sotish o'rniga ijaraga bermoqchi ekan. Bu — ularning siyosatida katta siljish edi. Vaholanki, boshqa ishlab chiqaruvchilar ulardan o'tib ketgandi. Mak bu korxonaning aktsiyasi besh bandga ko'payadi, deb hisoblagandi. U haq bo'lib chiqdi. Ular besh band kamaydi. Jihozlarni qarzga berilishi haqidagi e'lon bu korxonaga qo'llagan siyosat hech narsaga arzimastligini ko'rsatdi. Shunday qilib, bu qadam aktsiyalarni oshirish o'rniga kamayishiga olib keldi. — Kalxeyn bamaylixotir kuldi. — Bechora Mak o'z qarmog'iga o'zi ilindi.

— Sizga YuBTK haqida gapirmaganiga hayronman, — dedi Palmer.

— Men esa hayron bo'lmayman. O'tgan yili unga quruq safsatalaringni boshqa joyda sotgin deb maslahat berganman. Men boy emasman. Biroq uning bashoratlariga quloq solaversam, allaqachon qashshoqqa aylanib qolardim. Agar u aktsiyalaringiz haqida biror gap aytsa, e'tibor bermagan bo'lardim.

— Maslahat boshqa manbadan keldi, — Palmer sigaretini o'chirdi. Mak keyingi paytlarda sizga yana boshqa bir birja haqidagi yangiliklarni ham gapirdimi?

— Bu borada ham u tahsinga loyiq emas. Birjaga qiziqmayman. Avval qancha yutqazib, qancha yutganingni hisoblashing kerak. Soliq yig'uvchi amaldorlar uchun bu juda qulay. Agar ko'rgan zararingizga qarab soliqlar kamayishini xohlasangiz, daromadlaringizni hisob-kitob qilishingiz kerak. Men buni ham yomon ko'raman. — Kalxeyn stul suyanchig'iga yaslanib, ko'zini qisdi.

Palmer jilmaydi:

— Siz operatsiyalarni faqat naqdi bilan amalga oshirasizmi?

— Doim emas. To'g'ri kelib qolsa, aktsiyalarni ham olaveraman. Biroq, xudo haqqi, zahiralarni tilxatlardagi soxta ismlarga to'lib ketdi.

Ikkovlari ham kulishdi. Palmer bu insonning o'z sotqinligini tan olayotgani Olbanidagi siyosatchilar qilmishini eslatganiga qaramay, g'azabini qo'zg'atmayotganiga hayron edi. Balki, Vik xalq saylagan xizmatkor bo'lmagani uchundir? To'g'ri, bu odamning hududda egallab o'tirgan o'rni saylovga bog'liq. Biroq ovoz berish natijasi hamisha oldindan ma'lum bo'lgan. Hatto ba'zi radikal guruhlar Kalxeynga qarshi chiqqanda ham u ko'pchilik ovoz bilan qayta saylanishga muvaffaq bo'lgan. Har doim o'z hududidagi kambag'allarni to'ydiradi. Hatto ozgina yordami ham kattakon samara beradi. Birorta ishsizni ish bilan ta'minlash, har kungi yengil ovqatlanishlar, bayram kunlari tarqatiladigan sovg'a-salomlar, iqtidorli bolalar uchun nafaqalar — to'lov juda kam, qaytim esa to'liq bo'ladi.

Umuman olganda, saylovchilar o'z siyosiy rahnamolaridan bundan ortiq yana nimani kutadi, xayolidan o'tkazdi Palmer. U o'z hududidagi nafaqalar hamma yerdagidan yuqori bo'lishini doim nazorat qiladi. Haftada uch oqshom qabul o'tkazadi. U ispancha, italyanча va gel tillarida gaplashar va shu bilan tumandagi irland aholisining ko'nglini olar edi. Palmer u negrlar mahallasini ham mahorat bilan boshqarishini bilardi. Ko'p yillardan buyon yaqin yordamchisi negr edi. Kalxeyn unga butun boshqaruvni, ish yuritish va taqsimlashni topshirib qo'ygandi. Ko'pchilik negr yordamchi Kalxeynning o'zidan qimmatliroq deb gapirar edi. Bunga asos bor, albatta. Bernsning aytishicha, bir kompaniya ishga faqat oqtanlilarni qabul qilgani uchun, negr xaridorlaridan ajrab qolgan va bankrotga uchragan ekan. Kompaniya Berns orqali Kalxeyn bilan aloqa bog'labdi. Oradan uch hafta o'tib, shimoliy Bir yuz o'ninchi ko'cha hamda oqtanli aholini qo'shib hisoblaganda, faqat ana shu kompaniyagina negr sotuvchilari bilan muomala qiladigan bo'libdi. Savdo yaxshilanib, hatto avj olib ketibdi. Bu — o'ziga xos san'at deb fikr yuritdi Palmer, rangli aholini rivojlanishiga ta'sir etuvchi milliy assotsiatsiya imillab yurgan bir paytda fuqarolar korruptsiyasi naqadar avj olib ketishi mumkin. Ijtimoiy yuksalish yo'llari ko'p, lekin Kalxeynning hududida unga aylanma yo'llar orqali boriladi.

Kalxeynning kotibasi dumaloqlangan qog'oz sumkacha ko'tarib kirdi va uni stolga qo'ydi.

— Ularning allaqachon toqatlari toq bo'lgan, — dedi u. — Endi qorinlari ham ochibdi. Ayrimlari nonushtadan oldin kelishgandi.

— Hozir tugatamiz, — dedi Kalxeyn qog'oz sochiqlarni ochib, folgaga o'ralgan sandvichlarni olarkan. — Xohlaysizmi?

— Rahmat, men ovqatlandim, — Palmer soatiga qaradi. — Ikki? Ikki-yu o'ttizda yig'ilishim bor. Maksiz amallashimizga to'g'ri keladi.

Kalxeyn astoydil ovqat chaynashga tushdi.

— Bilmayman, anavi, yo'lakdagi odamlar nega buncha erta kelisharkin? Ular soat to'qqizgacha uyqudan turmasligimni, demak, bu yerda soat o'ndan oldin bo'lmasligimni bilishadi. Allaqanday jinnilar.

— Va ochlar. — Kotiba ularni qoldirib, chiqib ketdi.

— Makga kelganda esa, — dedi Kalxeyn ovqat chaynashdan to'xtamay, — u sizni menga ko'p haftalardan buyon kerak bo'lgani yo'q. "U vazifasini bajarib bo'ldi", to'g'rimi?

— U ikkimizni birdek tushurib ketdi, shuni nazarda tutyapsizmi?

Kalxeyn sandvichlardan birini ikki tishlashdayoq yeb tugatdi va boshqasini qo'lga oldi.

— Bu — siz bilan tuzilgan shartnoma edi, — tushuntirdi u og'zi bo'shagach. — Biz esa hozir boshqacha shartnoma tuzamiz. Men hech qachon sizga natija kafolatlanadi deb hisoblashga izn bermaganman.

— Shunday.

— Endi, o'sha gap aytili deb hisoblang. Ayrim narsalarni kafolatlay olaman. Lekin buni emas. Bizda, shtatning markazida bir dunyo primadonnalar bor. Men sizni ishbilarmonlar bilan ta'minlay olaman, biroq biz islohot deb yonib turgan guruhlar va bunga yanada mushtoq guruhlariga egamiz.

Hatto million yilda ham men bu kimsalar hamma narsani yamlayotgan tijorat banklari, ularning saylovchilari uchun, o'zimiz uchun ham foydali ish qiladi deb shaxsan ishontira olmayman. Fikrimni tushundingizmi?

— Unda bironta yangilik yo'q. Bizga hamisha sotuvchilar, sug'urta agentlari, ko'chmas mulklarni sotish bo'yicha agentlarning boshliqlari kerak.

— Bularning hammasi mayda sadaqalar, — dedi Kalxeyn ovqatini yeb bo'lib. — Siz buni yaxshi bilasiz.

— Albatta, har bitta mayda agent aytarli katta kuch emas, lekin ular birlashsa, qudratli kuchga aylanadi. Bizning ixtiyorimizda bunday agentlardan anchaginasi bor. Jamg'arma banklaridan kattarog'ini ham taklif qilish mumkin.

— Markazdagi senatorlar mana shunday bo'lmag'ur narsalarga aralashadi deb o'ylaysizmi?

— Balki siz uchun bo'lmag'ur narsadir, — dedi Palmer, eski maqolni biroz o'zgartirib, — ularga bu non bilan moydek yoqadi.

Kalxeynning yuzi tabassumdan qizarib ketdi. Biroq shu zahoti yana jiddiy tus oldi.

— Men hazillashayotganim yo'q.

Palmer suhbatdoshiga xafa bo'lgandek qaradi.

— Nima deyishimni ham bilmayman, — dedi u. — Gap shunchalikka borgan ekan, unda sizni nima qiziqtiradi?

— Bu ikkimizning o'rtamizdagi boshqa shartnoma, Mak.

— Haligi, ochishni xohlamayotganingizmi?

— Bilganimda, sizga shu zahoti aytardim. — Kalxeyn sumkaga qo'l tiqib, qahvali termos va shirin kulcha oldi. — Chin so'zim, men hozircha bilmayman.

— Shunday bo'lishi mumkinmi? Men o'ylovdimki...

— Shartnomaning ikki tomoni ham aniq bo'lishi kerak, — deb uning gapini yakunladi Kalxeyn. — Yo'q. Biz Mak bilan ko'p narsalarni boshdan kechirganmiz. Agar u arziydigan ish desa, men olaman. Boshqa birovga, balki, ishonmasdim. Biroq Makga mutlaqo ishonaman.

— Faqat uning birja bo'yicha maslahatlariga emas.

— Birja bo'yicha maslahatlaridan tashqari, — Kalxeyn kulchadan tishlab, qahva ho'pladi. — Biz birgalikda katta yo'lni bosib o'tdik. Siyosatda yigit kishining boshiga nimalar tushishi mumkin bo'lsa, barini ko'rdik. Kutilmagan narsalar kam qolgan chiqar. Mak siyosiy faoliyatimdagi yagona do'stim. Bu ko'p narsani anglatsa kerak.

Oraga uzoq jimlik cho'kdi. Mak Bernsning sadoqati haqida gap ketganda ham Kalxeyn ko'nglini shunchalik ochib qo'yarmikin, deb o'yladi Palmer. Yo'q, unday bo'lmaydi. Lekin bir gapga solib ko'rish kerak.

— U sizga o'xshamaydi. Sizlar butunlay boshqa-boshqa odamsizlar.

— Qanaqasiga boshqa? Har qanday odam ham hayot taqozosiga ko'ra bir-biridan farqlanadi-da. Ikkalamiz bir-birimizdan katta farq qilmaymizmi?

— Farq qilmaymizmi? — Kalxeyn kulchasini yeb tugatdi. — Shunaqangi farq qilamizki...

— Menimcha unday emas, — gapida turib oldi Palmer.

— Bilasizmi, — Kalxeyn yana sumkaga qo'l solib, bu gal muzqaymoq oldi. — Hammasi kelib chiqishda. Pulda. Mening qariyam yomon yashamagan, hamma narsaga ulgurgan. Uning bolalari ko'p edi, hammasi kollejlarni bitirgan. Balki shuning uchun siz ikkalamizning oramizdagi farqni bilmayotgandirsiz. Makning otasi esa, bilishimcha, Bayrutda tovuq sotish bilan shug'ullangan. Siz bu ish nimaligini bilmaysiz. Butun umr tovuq tozalab, o'zingiz kabi kambag'allar bilan savdolashasiz, yoningizda o'g'lingiz ham shu ish bilan ovora, u ham qashshoqlikning nonini yeydi. Nihoyat, oila jam bo'lib, shtatlarga ko'chib o'tadi. Mak hech qachon kollejni bitirmagan. Uning Garvard haqidagi gaplarini eslashingiz mumkin. Bu gaplarning ostida Koliforniya universitetidagi ikki yillik kechki mashg'ulotlar turibdi. U o'qishni tashlashga majbur bo'lgan, kunduzgi ishidan tashqari, kechqurun studiyalardan biriga qorovul bo'lib yollangan. Keyin, sochini bo'yab, o'z ishining ustasi bo'lib olganidan

keyin Mak shaxsiy kompaniyasini tashkil qilib, Garvarddagi uch kunlik yozgi seminarda qatnashdi. Endi esa hamma narsa joyiga tushdi. Mana, shuning uchun ham men Mak bilan siz boshqa-boshqa toifa odamlarsiz, deymen. Mana, nima uchun siz unga ishonmaysiz.

— Men bunday deganim yo'q.

— To'g'ri, siz emas, men shunday dedim. — Kalxeyn yog'och qoshiqchada muzqaymoq yeb, gapida davom etdi. — Balki unga ishonmasdan to'g'ri qilarsiz ham.

— Meni butunlay dovdiratib qo'ydingiz.

— Unga o'xshab o'smagan bo'lsam ham, Makka ancha yaqinman. Men shu yerda tug'ilganman, lekin men bilgan ko'p bolalar eski qit'adan kelgan. Uning ichki kechinmalarini tasavvur qilaman. Unga o'xshagan odam boshqalarni ko'rgani ko'zi yo'qligini ham bilaman.

— Meni yomon ko'radimi?

Kalxeyn indamay qoldi, nimadir demoqchi bo'ldi-yu, noiloj Palmerga qaradi.

— Siz aqlli odamsiz. Biror marta sizni nima uchun yollaganlarini o'ylab ko'rganmisiz?

Palmer bosh irg'adi:

— Bir nechta sabab bo'lgan. Rostini aytganda, gap Mak haqida ketayaptimi, asosiy sabab — Berkxardt uni yoqtirmaydi.

— Aqlli gap. Endi o'zingizni Makning o'rniga qo'yib ko'ring. U, sizningcha, Berkxardt yoki otasi intilgan bu buyuk kattakon mamlakatdagi boshqa har qanday Berkxardtlarga qanday munosabatda bo'ladi?

— Tushunaman.

— Tushunganingizga sabab, men manzarani to'g'ri chizib berdim, — Kalxeyn oldinga intildi. — Lekin siz his qilolmaysiz. His qilolmaysiz ham, chunki siz men yoki Makga nisbatan Berkxardtlar dunyosiga yaqinroqsiz.

— Demak, gap bu yoqda ekan-da, — o'ychanlik bilan dedi Palmer.

— Men uning eng yaxshi do'stiman, — javob berdi Kalxeyn, — lekin uning ko'nglidagi har bir qorong'i puchmoq uchun javob berolmayman. Mening boshimni ham ko'plab berkkxardtlar aylantirishdi. Bilasizmi, ikki irqning qo'shilishi hamisha qiyin kechadi. Biroq bu ikki, ya'ni irland va italyanning qoni qo'shilsa bormi, ehtiyot bo'lavering! Bunday odam deyarli bitta livanlikka teng.

— Hm, — Palmer soatiga qaradi. — Garvardni bitirgan do'stimiz bizni ko'rishni xohlamayapti, shekilli.

Kalxeyn yayrab kuldi:

— Bu gaplarni unga aytib o'tirmang, — u o'rnidan turdi.

— Tashvishlanmang. — Palmer ham o'rnidan turdi. — YuBTK aksiyalari haqidagi gaplarimni ham birovga aytmang. Biroq bir nechtasini sotib oling.

Palmer chiqib ketishi bilan Kalxeyn qaytib o'tirib, sumkasidan konfet oldi.

Qirq birinchi bob

Palmer yig'ilish boshlanishiga bir daqiqa qolganda bankga yetib keldi. Ochiq taklif qilinmagani uchun majlis boshlangandan keyin kirishni mo'ljalladi. Shuning uchun zaldagi reklama varaqalarini ko'zdan kechirib, mijozlarni erinmay kuzatib, to kassirlar payqab qolmagunlaricha o'zini sezdirmay aylanib yurdi. YuBTKda xizmat qiluvchi har bir xodim ma'lum axloq-odob qoidasiga amal qilishi zarur. Biroq bank peshtaxtalari orqasida turib xizmat qiladiganlar uchun maxsus talablar joriy etilgan. Birinchi navbatda ularning tashqi jozibadorligi e'tiborga olinardi. Ikkinchidan, ovozlari yoqimli bo'lishi, ziyoli ko'rinishi, xullas, ayollar haftasiga oladigan sakson dollarlarga, erkaklar bir yuz o'n dollarga munosib bo'lishlari lozim edi. Ular o'z ishxonalari — banklarining namunasiga aylanishlari shart hisoblanardi.

Soat ikkiyu qirqda Palmer liftidan ko'tarilib, Garri Elderning xonasi tomon yo'l oldi. U bugungi

yig'ilishdagi kun tartibiga qo'shimcha band — Jet Texning iltimosiga nisbatan qo'llaniladigan o'zaro suhbat chog'ida "Buyuk Koinot qarzi" sifatida eslatib o'tgandi.

Palmer Bufaloda nutq so'zlashga tayyorgarlik ko'rayotgani sabablimi yoki Mak Berns bilan ish haqida gaplashishi zarurligi uchunmi yoki boshqa biron ish bilan band bo'ladimi, xullas, Berkxardt: "Bu yig'ilishga borma, Vudi, vaqtingni bekorga o'tkazma" deb taklif qilgan edi. SHu sababli bo'lsa kerak, Palmer xonaga kirib, o'tirganlarga salom berib, o'zi ham o'tirishi bilanoq, Berkxardtning gapi og'zida qolib, kalavasining uchini yo'qotib qo'ydi. Nihoyat, u o'zini qo'lga olib, tilga kirganda Palmer Jet-Texning iltimosi kun tartibiga birinchi qo'yilganini, boshqa bandlar ko'rilmay qolishi ham mumkinligini tushundi.

— Aytib o'tganimdek, — dedi Berkxardt, — salom Vudi! — Jet-Texning maxsus vazifalarini bajaruvchi bo'limi ertaga shaharga zarba beradi. Biz ularga katta zalda tushlik beramiz. — Irma, hozircha hech narsa yozish kerak emas va bu tushlik sho'rvadan tortib, shirinlikkacha, chamasi, toshdek botadi.

Kotiba qalamni joyiga qo'ydi...

Bankning vitse-prezidenti va kotibi bo'lgan Klifson Mergendalga birja an'analarini sun'iy yuksaltirish kabi qator majburiyatlar berilgandi. Maxsus tadqiqotchilar guruhi bilan u YuBTK boshqaruvidagi fondlardan birortasi ham xatoga yo'l qo'ymasligini tekshirib borishi kerak edi. Kliff Mergendal Palmerdan birmuncha yosh bo'lib, YuBTKga ham urushdan keyin Uolt-Stritdagi dallollik idorasidan ishga o'tgandi. Berkxardt, u va Elder navbati bilan bankka direktorlik qilishgan va Mergendal, Berkxardtning hisobga olmaganda, YuBTKning ko'pgina aktsiyalariga egalik qilishardi. Palmer ularni kuzatib o'tirib, Kliffning kuchi nimadaligini va muvaffaqiyati sabablarini angladi. Yumshoq, och rangli bakenbard bilan qoplangan kichkina va uzunchoq yuzi unga ishonish mumkinligini bildirardi. Kliffning ko'zlari to'q kulrang bo'lib, kiprik qoqmas va sokin boqardi. Unga sizlar pulingizni ham, hayotingizni ham ishonasizlar deb o'yladi Palmer.

Qisqasi, u juda yaxshi odam bo'lib, unga to'la ishonish mumkin edi.

— Uni bunday yoqimsiz bo'lishiga hojat ham yo'q edi, — derdi Kliff sokin, yumshoq ovozda. — Hammasi o'zaro ishonch asosida yuz beradi. Biz iltimoslarni o'ta sinchiklab ko'rib chiqdik, afsuski, iqtisodiy vaziyatning ayrim noaniqliklari tufayli va havo kosmik sektordagi o'ziga xos xususiyatlar va boshqalar tufayli...

— Mayli, — davom etdi Berkxardt, — endi qay yo'sinda ishlashimizni kelishib olaylik. — U Mergendalga o'girildi: — Klifton, Archi Nikosning bugungi kayfiyati qanday?

Mergendal javob berishga og'iz juftlayotgandi, Palmer xo'jayinning savolini ichida takrorladi. Bu bilan Berkxardt Mergendalga ortiqcha ishonmasligini bildirmoqchimi? Balki shu bahonada Berkxardt Palmerni rahbarlik uchun bo'lajak kurashda birga bo'lamiz deb ishora qilmoqchimi? Bu pati yulingan chumchuq Palmer bilan bitimga kelishmoqchimi? Unday bo'lsa, nega u Palmerni yig'ilishga taklif etmadi? — ... Mening bilishimcha, — gap boshladi Mergendal, — u batamom betaraf qoladi, ikki tomon bilan do'stona aloqalarini uzmaydi, zayom masalasi ijobiy hal bo'lishiga umid qiladi, agar zayom berilmaydigan bo'lsa, uni ham to'g'ri tushunishga tayyor.

— "Agar"ga balo bormi? — po'ng'illadi Berkxardt. — javob salbiy bo'lishini Archi yaxshi bilardi-ku. Bu haqda unga xabar berilgan.

— Barcha eshiklarni ochib qo'ymasa, u Archi Nikos bo'la olarmidi?

Garri Elderning ovozi hammanikidan kuchli jarangladi:

— Zayom masalasining ijobiy yechimi Archi uchun nihoyatda zarur. U har qanday ishni qilishi mumkin, ammo betaraf turolmaydi. U boshqa daromad manbalarini izlamaydi deb meni ishontirib o'tirmanglar.

— U shunga o'xshagan gaplarni valdiragan edi, — tasdiqladi Mergendal.

— Qanday daromad manbalarini? — so'radi Palmer. — Bunaqa pullarni kim beradi?

Berkxardt kulgidan o'zini ancha vaqt to'xtata olmadi.

— Aniq bilamanki, Archining Yevropadagi hamkorlari foydali takliflarga har doim tayyor.

— Yevropaning qaysi burchagidan shunchalik bo'sh mablag'ni topa olasiz? — qiziqsindi Palmer.

— Topish mumkin, — uni ishontirishga urindi Berkxardt. — Archi umumiy bozorga qo'shilgan mamlakatlar sindikatini jalb eta oladi. Ular bizning biznesimizdan kichik bir luqmani xohlagan paytda uzib olishga qodir. Yevropa tomonidan boshqarilayotgan Jet-TeXni ko'z oldingizga keltiring. — U yana kuldi. Ularni yutib yuborishdan boshqa iloji qolmagan Jo Lumis va Barni Kinchni tasavvur qilib ko'ring.

— To'g'ri, — dedi Palmer. — Ularga Qo'shma Shtatlarning pullari kerak. Bizning pullarimiz.

— Ularga beradigan pulimiz yo'q, — e'tiroz bildirdi Berkxardt. — Hammasi ravshan. Yuz minglab hojatmandlarga yarim milliardni qarzga berib yuborsak, qancha daromad ko'rishimizni o'ylab ko'ringlar.

— Aqlga sig'maydigan g'oya.

— Faqat Kinchga emas, — dedi Mergendal. — Unga bu pullar zarur. Juda zarur.

— Yonib ketayaptimi? — so'radi Garri Elder. — Qanday falokat yuz berdi?

— Mendagi ma'lumotlarga ko'ra — hech qanday, — tez javob berdi Mergendal.

— Zarur bo'lsa, — gap qo'shdi Palmer, — foiz stavkasi yuqori bo'lishiga ko'nadimi?

— Qancha miqdorda? — Baqirdi Berkxardt. — Olti foizmi? Yettimi? Bekorga tavakkal qilmasligimiz uchun biz uni o'n ikki foizga ko'tarishimiz kerak. Lumis yoki Kinch o'n ikki foiz to'lashini tasavvur qila olasizlarmi? Sudxo'rlik-ku, bu.

Mergendal qalamni olib, boshmaldog'i tirnog'iga ura boshladi.

— Ish uslubi sizni qiziqtiradigan bo'lsa, — dedi u, — asosiy narsa shuki, Kinchning chekinib, chiqib ketishi va borgan joyida muzokaralarni davom ettirishi uchun boshpana berish lozim.

— Barni muzokara olib bormaydi, siz... — Berkxardt kotiba oldida so'kinib yubormaslik uchun to'xtab qoldi. — Muzokaralarni Lumis olib boradi. Barni o'z kartalari, chizmalari va yana allanimabalolari bilan xo'rak vazifasini bajaradi. Nega men, onasini emsin, Lumis uchun chekinadigan teshik topay deb qayg'urishim kerak?

Garri Elder gapga qo'shildi:

— Chamamda, biz bir joyda deysinib qoldik. Sizning usulingiz — "Yo'q!" deb baqirish va jo'nab qolish. Shundaymi?..

— Quloq solinglar, — iltijo qildi Mergendal, — halol ish olib borish uchun bunaqa gaplar to'g'ri kelmaydi. Jet-TeXning yordami bilan kattagina mablag' olish imkoniga egamiz. Ularning tumshug'i tagida eshikni yopishimizga hojat bormi?

— Agar shunday qilsam, — dedi Berkxardt ham sekin va qat'iy, — ishonchingiz komil bo'lsinki, ular eshik orqasida kutib turishadi. Ularga katta mablag' kerak...

Mergendal qalamini olib, ochiq turgan portfeliga tashladi. Nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ammo o'ylab qoldi va sigareta chiqardi. U chekar ekan, Palmer bu kishi qandaydir bir qarorga kelish uchun ikkilanayotganini ilg'ab oldi.

— Qani eshitib ko'ringlar-chi, — nihoyat o'ychanlik bilan gapirdi Mergendal, — o'zinglarni Kinchning o'rniga qo'yib ko'ringlar-chi, yoki Lumisning o'rniga. Rad javobini olsangiz, nima qilgan bo'lardingiz?

Noqulay jimlik cho'kdi. Kotiba Irma o'rindiqdan egilib, Mergendalga kuldon uzatdi. Qaydlar daftarchasiga hech narsa yozilmagan edi...

— Bir daqiqa, Kliff, — uning gapini bo'ldi Palmer. Hamma, hatto Irma ham o'ziga qaraganini ko'rib turardi. — Fikrimni aytish uchun bir soniya ijozat bering.

— Faqat bir minut, — xo'mrayib ruxsat berdi Berkxardt.

— Bu yerda shuncha bildirilgan fikrlarga qaramay, men baribir qarz berilishini yoqlayman. Men dastlab, "ha" deb rozi bo'lib, so'ng mo'may foyda olish yo'llarini o'ylagan bo'lardim. Foiz stavkasini yettigacha ko'tarar yoki muddatini o'n besh yilga qisqartirar edim yoki yana bir foydali yo'l izlab topardim. Men baribir, qarz berishimiz kerak, deb hisoblayman.

— Bu, ta'bir uchun meni kechirasizlar, — hiqilladi Berkxardt, — Qo'rqqoqlar topgan eng yaxshi yo'l.

— Masala biz o'ylagandan ko'ra ancha jiddiy, — e'tibor bermay davom etdi Palmer. — Va... — Yana bir lahza to'xtab, hammaning diqqati o'ziga qaratilganini his qildi. — Jet-TeX, fabrikalar,

ixtirochilar, moddiy buyumlar ishlab chiqaruvchilarning biznesi uchun qarz ajratish butunlay boshqa narsa. Bunday qarz ish haqi yuqori darajada saqlanib qolishiga ko'mak beradi. Bu o'z navbatida pul aylanishiga imkon yaratadi. Bunday usul mamlakatni rivojlantiradi, bu...

— Aqli ojizlarga sotish uchun ko'p miqdorda yangidan-yangi yaltiroq buyumlar ishlab chiqishga imkon beradi. — Gapini kesdi Berkxardt.

— Vudi, ezmalikni yig'ishtir, onangni emgur. Hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

— Agar takliflarimni eshitishni istamasanglar, — dedi Palmer, — agar yetarli pulimiz bo'lsa, kelinglar, uni arziydigan ishlarga sarflaylik.

— Biz kimmiz o'zi? — darg'azab bo'ldi Berkxardt. — Sen o'zi kimsan? Nega bu ishlarga tumshug'ingni tiqayapsan? Irma, xudo haqqi, bu bema'ni gaplarni yozib o'tirmang, milliy iqtisodiyotimiz yo'lga qarshi chiqishga kim huquq berdi senga? Kim senga iste'molchilar huquqi himoyasini topshirdi? Agar bu tentaklar borgan sari yana qarzga botishni xohlayotgan bo'lsa, ularga yordam qo'lini cho'zish kerak, o'g'lim! Ularni majbur qila olmaymiz. Mutlaqo! Biz ularning talabini bajarib, pul ishlaymiz. Ularning o'zi cheklanmagan shaxsiy qarz olmoqchi bo'lsa, bunga yordam beramiz.

— Aynan sizning mana shunday munosabatingiz. — Javob berdi Palmer, — ularga o'zi uchun har kuni yanada chuqurroq go'r qazishga yordam beradi. Bu baxti qaro tentaklar qarzlarni to'lash uchun pulni qaerdan oladi?

— Bema'ni safsata, — dedi Berkxardt. — Vudi, agar seni bilmaganimda, kechirasiz, Irma, bankka qanday kelib qolganingga hayron bo'lardim...

— Bankirlik — sharaflı kasb, — e'tiroz bildirdi Palmer. — Buning ustiga, juda qadimiy kasb.

Garri Elder xavotirlanib kuldi.

— Reglament. O'z ishlarimizga qaytaylik, janoblar. Sirasini aytganda, ko'p jihatdan Vudi haq. Agar qarzga bog'liq ehtiyot choralarini ishlab chiqa olsak, men uni yoqlagan bo'lardim.

— Hali shundaymi? — Berkxardt sakrab turdi. — Sen ham u tomondamisan, Garri? Siz ham yo'lini qilib, kurashdan sirg'alib chiqmoqchimisan?

— Tinchlaning, — g'o'ng'illadi Elder, — o'tiring, Leyn. Berkxardtning yuzi qizardi. Och-ko'kish ko'zlari qisildi.

Qirq ikkinchi bob

Tun yarmida Palmer oxirgi juftlarni — Jeyn, Edising xolasi va Tima Kervini uchinchi eri bilan eshikkacha kuzatib keldi. Keyingi ayol Edisdan sal kattaroq, ammo baland bo'yli edi. Ular Nyu-Yorkdan ellik chaqirim uzoqlikda yashar, yarim kechada qiynalmaslik uchun. "Muqaddas Reyjis" mehmonxonasidan bir xona olishgan ekan. Xayrli tun tilab, xayrlashayotgan chog'ida Palmerning esida qolgani faqat shu edi. U tashqaridan kirib, xonaga kirayotgan sovuq havodan nafas olib, yo'lakda turar ekan, fikri tiniqlashib borayotganini his qildi. Keyin u ikki qavatni egallagan mehmonxonaga kirib, olov yonib turgan kamin oldiga o'tirdi.

— Natija ravshan emas, — dedi xonaning narigi burchagida turgan Edis.

— Nima?

— Bu o'ziga xos tajriba bo'ldi, azizim. Sakkiz kishidan iborat guruh binoni to'ldira oladimi? Javobi ma'lum: yo'q.

— Achinaman, — g'o'ng'illadi Palmer.

— Bu sening aybing emas. — Javob berdi Edis kulib. — Endi bilib oldim. Hali ham sakkizta quvnoq odam buni yaxshiroq uddalay olardi deb o'ylayman.

— Ularning oltitasi bankir va ikkitasi xotini bo'lsa, — o'ychanlik bilan javob berdi olovga tikilib o'tirgan Palmer, — rosa o'ynab-kulish qiyin.

— Yanagi safar o'n ikki kishini taklif qilamiz. Shunda hammasi ajoyib o'tadi deb o'ylayman.

Palmer boshini ko'tarib qaradi va Edis kichkina sharob stakanini maydalangan muz ustiga qo'yayotganini ko'rdi. Hozir u drambun yoki benediktin quyadi-da, sovutib ichadi.

— Menga ham tayyorlab ber, — iltimos qildi u.

— Hozir.

— Gaplaringga qaraganda, — davom etdi u, — bugun zerikarli bo'ldimi?

— Zerikarlimi? Bilmadim. Balki bunga xonamiz sababchidir?

Palmer bosh chayqadi.

— O'zlari aybdor. Hammasidan oldin men. Sen Jeyn bilan eridan boshqa hech kimni tanimas eding. Men esa bilardim. Tushlik ko'ngildagidek o'tdi. Berkxardt ish yuzasidan gaplashib olaylik deb meni deraza yoniga chorlagandan keyin sovuqchilik boshlandi.

— Nimani muhokama qildinglar o'zi? — so'radi u muz ustiga yana bitta stakan qo'yaturib. — Ish yuzasidan suhbatdan ko'ra falsafiy bahsga o'xshab tuyuldi.

— Menimcha, — dedi Palmer stakanlar qanday to'ldirilayotganini kuzatar ekan, — ayni shu narsa bu qari kalxatga yoqmadi. Falsafiy bahslarga uning toqati yo'q.

— Chamamda u seni qoloq odam deb hisoblasa kerak.

— U meni zamon bilan birga yurolmaysan, deb ayblaydi.

Bir muddat jim qolishdi. Ularning uyidan ancha uzoqlikdagi cherkov qo'ng'irog'i o'n ikki marta bong urdi.

— Haliyam sovumadimi? — so'radi Palmer.

Edis bosh chayqadi.

— Men biladigan bankirlar ichida, — dedi u, — faqat seni qoloqlikda ayblab bo'lmaydi. Qachondan beri zamondan orqada qolib ketding?

— O, bu juda murakkab, chalkash masala, chamasi, buning javobi, mening taxminimcha, ellik yillardan keyin aniqlansa kerak. Bundan tashqari, bu muammo batamom akademik tadqiqotlar doirasida qoladi, chunki e'tirozlarimga mutlaqo e'tibor berishmayapti.

— Shamol tegirmoni bilan jang qilishyaptimi?

U bar oldidagi baland o'rindiqqa o'tirdi.

— Bu borada kim bilan gaplashgan bo'lsam, hammasi sen nohaqsan deyishmoqda. — U muz solingan idishga ko'z tashladi. Qiroy bosgan stakanchalar ham unga qarab turishgandek tuyular edi.

— O'zing ham ishonmaysan-ku.

— Haqligimga to'la ishonaman. — U istehzo bilan jilmaydi. — Balki amaliy jihatdan nohaq bo'lishim mumkin. Nari borganda, men bu yil yoki keyingi yil hisobiga adashayotgandirman.

— Bemalol gaplashib olishni xohlaysanmi? Yoki hammasi tugagandan keyin nima gap bo'lganini aytib berasanmi?

— Qari Berkxarstdan eshitgansan deb o'ylagandim?

Uning ovozi xonaning barcha burchaklariga tarqalib ketgandek tuyuldi.

— Men boshqalar bilan halol gaplashganman.

— Mayli. Gap cheklanmagan iste'mol qarzlari ustida ketmoqda. — U xo'rsindi. — Sovib bo'ldimikin?

Edis bir stakanni olib, Palmerga uzatdi:

— Iliq drambun ichishni xohlasang...

Palmer ozgina ichib, liker sovib bo'lgan deb hisobladi.

— Ko'ryapsanmi? — deb gap boshladi u, — vaqti kelib, hamma qarzdorlar qarzini to'lab bitiradi — bu amalga oshmaydigan narsa; yoki iqtisod shishirilgan shardek yorilib ketadi. Qarz to'lash muddatlari qattiq siqib qo'yilgan, berilgan qarzar naqd pul bilan qoplanmagan, vaqti kelib fabrikachilar ko'tara savdo firmalaridan haq talab qilishga majbur bo'ladi, ular esa mayda savdogarlardan talab qiladi, bunisi ichte'molchilarni qisadi.

— Nahotki iste'molchilar to'lashga qodir bo'lmasa?

— Ular qarz muddati uzaytirilgan fabrikachilarga qarashli korxonalarda xizmat qiladilar, sog'lom aql egasi bunday sharoitda zarur mollarni ishlab chiqarishga qodir emas. Ular ishlab chiqarishni

rivojlantirish uchun ishchilarni qisqartirishga majbur. Ishsiz qolgan odam qarzlarini to'lay olmaydi. Tushunasanmi?

Edis boshini liqillatdi va o'z stakanchasini muz orasidan ohista oldi.

— Men hammasi avtomatlashtirishga bog'liq deb o'ylar ekanman.

Palmer Berkxardtga o'xshab achchiq istehzo bilan kulib qo'ydi, so'ng bu qiliqni qachon o'zlashtirib oldim degan xayolga borib, bir lahza to'xtab qoldi.

— Mahsulot ishlab chiqarish usuli qarz silsilasini o'zgartira olmaydi. — tushuntirdi u nihoyat.

— Unda tamom bo'lamiz.

— Men bu bema'ni muammoga shunchalik o'ralashib qolganimdan qoloq odam degan nom orttirdim, — Palmer xo'rsinib, likyor ho'pladi. — Ikki narsagina vaziyatni qutqara oladi. Federal zahira tizimi bankirlarga tazyiq o'tkazadi. Oqibatda banklar savdogarlarga qarz berishni kamaytiradi, ular ham o'z navbatida iste'molchilarga nasiya mol bermay qo'yadi yoki iste'molchilar, ochko'z bolalarga o'xshamasdan, o'zlarini katta odamday tutib, atrofga jiddiy qaraydigan bo'ladilar.

Edis o'z stakanini chiroq nuriga solib sinchiklab ko'zdan kechirar ekan:

— Demak, — deb xitob qildi. — Hammasi iste'molchilarga bog'liq ekan-da?

— Shubhasiz.

— Ularga bugun bo'lmasa ertaga kechqurun yoki boshqa ajoyib kunlardan birida, — davom etdi Edis, — parcha-parcha bo'lib ketish xavfidan qutulmasdan turib, o'zlarini katta odamlardek tuta olmaydilar.

Ular likyorni jimgina ichishga tutindilar. Katta bir palyon kamin ichida chirsillab yorildi, mo'ridan mayda uchqunlar yopirilib chiqdi.

— Chamamda, tayyorgarligi yo'q odam uchun bu mavzuda bahs yuritish ancha og'ir kechadi.

— Ammo u bankda bugungi majlis mavzusiga aylandi. Endi hamkasabalarim meni bu masalalardan yaxshi xabardor deb hisoblaydigan bo'lishadi.

— Ularning fikri qanday?

— Rostini aytsam, bunday masalalarni muhokama qilmaganmiz.

— Kim bilan gaplashgansizlar?

— Hay, men bilmayman. Men reklama va axborot bo'limidagi xodimlarimiz bilan gaplashgan edim.

— Mak Berns bilanmi? — so'radi u.

— Ha, shundayroq. U va miss Kleri bank ishlarida hech narsani tushunmaydilar...

— U reklama va axborot bilan shug'ullanadimi?

“Ko'rayapsanmi, — dedi ichida Palmer, — ko'rayapsanmi?” Ammo ovoz chiqarib: — U Berns bilan munosabatlarimga vositachilik qiladi, — dedi va chuqur nafas olib, gapni chalg'itishga urindi. — Ularning biri ham bank ishlarini tushunmaydi...

— Miss Klerini ishga kim yollagan? — so'radi Edis bo'linib qolgan mavzuga qaytib.

Palmer yelkasini siqdi.

— Men kelganimda ishlar edi.

— U chiroylimi?

Palmer asta kulib qo'ydi...

— Har kim o'z imkoniyatiga qarab hayot kechiradi, — dedi u. Ovozi kattakon xonada g'alati aks sado berib jarangladi. — Yaxshi ta'minlangan oilaning o'g'illari ham. Hatto, — qo'li bilan uni ko'rsatib, qo'shib qo'ydi, — qizlari ham. Mening qo'limda bank xo'jaligi bor. Men u bilan shug'ullanaman. Ochiqchasiga ayta olaman: bu sharafligina kasb. Men ishonamanki, u ayol ham kerakli ijtimoiy vazifasini bajaradi. Agar, vazifani bajarmay qo'ysa, u men uchun yo'q narsaga aylanadi. Nima haqida gapirayotganimni tushunasanmi?

— Tushunaman. Bu juda qayg'uli.

— Ha, qayg'uli, — qo'shildi u, — chunki bank ishlari ba'zi zarur vazifalardan ozod qiladi, xuddi ilon ham o'zini siqib turgan terisini tashlaganga o'xshab. Bank kuch bag'ishlashi, qo'llab-quvvatlashi, himoya qilishi lozim. Bankning asosiy vazifasi — jamg'arish.

- Shunday edi, — dedi Edis, — endi o'zgarib bormoqda.
- O'pkasi ishlayapti. Yuragi qonni haydayapti. Ba'zi vazifalar o'zgarmaydi. Agar o'zgarib ketsa, oqibati o'lim.
- Xudoyim-ey, Vuds, men hatto tasavvur ham qilolmagan edim, sen...
- Men ham tasavvur qilmaganman, — gapini bo'ldi u. — Faqat munosabatim qandayligini bilardim.
- Bu darajada qattiq kuyunishimni bilmagan edim. Ammo bugungi majlis meni butunlay maydalab tashladi. Mayli, nima bo'layotganini senga aytib beraqolay.
- Nima bo'layapti?
- "Jet-Text interneshnl". Ularga nihoyatda past foizlar bilan ko'p miqdorda qarz kerak. Biz ularni rad etdik, sababi, bu pullarni kichik qarzdorlarga bo'lib bersak, katta daromadga ega bo'lamiz, ular esa yanada qarzga botib qolaveradi. Agar Jet-Text bizdan qarz ololmasa, bankni butunlay qo'lga kiritishga harakat qiladi.
- Jiddiy gapirayapsanmi?
- Ularning niyati jiddiy. Omonat banklari jangi deymizmi? Yo'q. Bu hayot-mamot jangi. Ammo Jet-Text qasdma-qasdiga bosimni kuchaytirib bormoqda. Berkxardtni bunga tortib, mag'lubiyat sari sudrab, aktsiyadorlar ko'zi o'ngida obro'sini yerga urmoqda. O'zlari esa qo'lga tushgan aktsiyalarni mutlaqo xotirjam sotib olishmoqda.
- G'alati.
- Edis jim bo'ldi.
- Aktsiya bahosi ko'tarilyaptimi?
- Ular ko'tarilib bormoqda.
- Sira o'ylab ko'rmadingmi, — sekin va xayolchan ohangda gapirdi ayol, — Berkxardt qimmatli qog'ozlarini pullab, yaxshigina daromad olishi mumkin-ku.
- Shunday. Men buni o'ylab ko'rganman. Voz kechishga to'g'ri keldi. Bu ishni boshqa biron odam qilishi mumkin, ammo Berkxardt emas.
- Senga o'xshagan birontasimi?..
- Bu ko'p narsalarga bog'liq, Edis.
- U boshini chayqadi:
- Vijdon azobimi?
- Bu yerda vijdon azobi hech narsa emas...
- U xotiniga o'girilib:
- Men nohaqman, — dedi.
- Nima, azizim? — Uning ovozi xona ichida juda zaif eshitildi.
- Men nohaqman, — takrorladi u ovozi balandlatib. — Bankni bizdan tortib olishga ularning to'la huquqi bor.
- Shundaymi? Unda nima bo'ladi?
- Ularga xalaqit berish uchun mening ham to'la huquqim bor.
- Sen shunday qilasanmi?
- Ha, — dedi Palmer va yana bir marta qattiq ovozda qichqirdi: — Ha!..

Qirq uchinchi bob

- ... Ichki telefon ohista jiringladi.
- Eshitaman, — javob berdi u.
- Qandaydir mister Gauss sizni ko'rmoqchi.
- Kim?

- Qandaydir mister Geynts Gauss. U bilan uchrashuv tayinlanmagan.
- Xudoyim-ey, tez huzurimga olib keling. — Palmer eshikka qarab yurdi. — Kim o'ylabdi buni!
- Olim Geynts Gaussmi? — so'radi Virjiniya.
- Xuddi o'zi, uni Penemyunda asir tushirgan edim.

Palmer eshikni ochdi, ayni zamonda Gauss qabulxonaga kirib keldi. — Gauss! — dedi u qo'lini cho'zib.

Geynts Gauss Palmerdan bir bosh kichkina edi, ozg'in mitti odam, yoshi 60 dan sal oshgan, qora sochlari to'kila boshlagan, chakkalari oqargan...

— Ko'p ham o'zgarmabsiz, — dedi Palmer.

— E, yo'q, o'zgarib ketganman.

Palmer uning qo'lini bo'shatdi, Gauss bir nuqtada turib qoldi. Katta xonani ko'zdan kechirib chiqdi. Nazari Virjiniyada to'xtadi.

— Bu reklama bo'limidagi xodimingiz miss Klerimi?

Gauss qaddini tik ko'tardi, ammo poshnalarini taraqlatmadi. U bir oz egildi.

— Juda mamnunman, miss Kleri.

Virjiniya eshikka qarab yurdi.

— To'g'rilangan nusxasini keyin olasiz.

— Hozir uyga ketasizmi?

— Yo'q, matn ustida biroz ishlamoqchiman.

— Keyinroq huzuringizga kiraman.

— Mamnunman.

Palmer eshikni yopib, Gaussni yozuv stoli yonida turgan oromkursi oldiga olib bordi. Kichkina odam iloji boricha kam joy olishga intilgandek, ehtiyotkorlik bilan o'rindiqqa o'tirdi. Palmer o'z joyiga o'tdi.

— Sigareta chekasizmi?

Gauss chimirilib sigareta olib, tutatdi.

— Bilsangiz kerak, — dedi u. — Jet-Texga aloqador tarix. Men ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilaman.

Palmerning yuragiga birov sovuq latta bilan urgandek bo'ldi. O'n besh yil ichida Gaussdan hech qanday darak yo'q edi. Ayni shu kunlarda kirib kelishi ko'p narsani anglatadi.

— Shaharda Barni Kinch bilan birga bo'lsangiz kerak?

— Majlisdan to'g'ri kelyapman. Natijalar, chamasi, sizga ma'lumdir?

— Ha, — Palmer stolga yaqinroq surildi. — Agar sizga foydasi tegadigan bo'lsa, qabul qilingan qarorga qarshi chiqaman.

Nemisning ko'zlari charaqladi.

— Shundaymi? Nima uchun?

— Biz qandaydir bitimga kelishamiz deb o'ylayman. Balki bu siz xohlagandek bo'lmasligi mumkin, ammo siz ozmi-ko'pmi pul orttirib olasiz.

— Pul deysizmi? — Gaussning og'iz chekkalari yozildi.

— Eski do'stligimiz hurmati uchun ba'zi narsalarni sizga aytsam maylimi?

— O'zingiz zarur deb hisoblasangiz. — Kelgusi yildagi tajriba ishlarim uchun ajratilgan byudjet mablag'larining yarmisi la'nati eltuvchi raketa "Uotan"ga sarflanib bo'ldi.

— Haligi portlab ketayotganmi? U sizga qarashlimi?

— Mening aybim. — Kichkina odam go'yo muvaffaqiyatsizlik imtiyoz beradigandek stolga o'rnashib o'tirdi. — Ochig'ini aytganda, bu ish ahmoqona qalloblik. Suyuq yoqilg'ili dvigatellar chizma taxtalardan tushmay turib eskirib qoladi. Boshqa olimlar bolalar o'yinchog'iga o'xshagan shu ishga qo'l uradi, deb o'ylaysizmi?

Palmer yelkasini qisdi.

— Men, to'g'risini aytsam, bu sohadagi ishlarni kuzatib ulgurolmayapman, — tan oldi u...

Palmer shundan keyin muqarrar ravishda bo'ladigan iltimosni kutib, taraddudlandi.

— Men ham juda achinaman.

Nemis tasdiqladi:

— Boshqa sabablar ham bor. Majlisda birga bo'lamiz, deb kutgan edim. Ba'zi yangi o'yinchoqlarimizdan olib kelganman. Beozor narsalar. Juda yoqimtoy.

— Shundaymi?

— U yerda hech kim qadriga yetmadi. O'ylaymanki, buni siz tushunasiz. Siz ilmiy ma'lumot olgan bo'lsangiz kerak-a?

— Ibtidoiy darajada.

— Juda soz, — davom etdi kichkina odam, — siz ionli dvigatel nimaligini tushunsangiz kerak? U tezlikni gaz yoqilg'isidan emas, ionlarning nurlanishidan, elektr zaryadlaridan oladi. Hamma kompaniyalar shunday dvigatellarga ega. Ammo mening moslamamgina zarur bo'lgan tezlatgichni hosil qilib berishga qodir. Harakatchan, o'zgarmaydigan, his qilinadigan, faol tezlatgich. Yerda emas, havoda. Havo juda zich. Fazoda esa havo yo'q. Nihoyatda ajoyib.

— Sizning shaxsiy ixtiroingizmi?

Gauss ko'kragiga urib qo'ydi.

— Mening guruhimniki. Fanda ulkan kashfiyotlar qilishga keksalik qilaman. Kashfiyotlarni o'ttiz yoshlilar qiladi. Ammo men birinchi ponani qaerga qoqishni hali ham ko'rsatib bera olaman. Ular quloq solishadi.

— Bu ham katta zavq beradi.

— Hozirgina, — dedi nemis bu suhbatga avvaldan puxta tayyorlangandek, — suyuq yoqilg'i bilan ishlaydigan dvigatellar eskirdi deb aytdim. Siz qattiq yoqilg'i imkoniyatlari nimaligini tushunasizmi?

— Snaryadlar uchun. Uning vositasida tezroq otiladi.

— Kosmik raketalarda ham shunday... Qattiq yoqilg'i vositasida mutlaqo uzoq, Marsdan nariga ham uchib, qaytib kelish imkoniga ega bo'lamiz.

— Maxfiy ma'lumotlarmi?

— Davlat, albatta, biladi. — Kichkina odam qo'li bilan boshini ushladi. — Ular tushunishga, bu yoqilg'i qudratini chinakamiga baholashga qodir emas. Ular zichlashtirilgan. Shunday atama bilan tanishmisiz?

— Zichlashtirilgan? Uni kichik bo'lakchalarga aylantirib tayyorlaysizlarmi?

— Hajmi apteka tabletkalaridan katta emas. Har bir tabletka o'n soniya yonadi. Ko'p ham emas, kam ham emas. Ustida qattiq qoplamasi bor, u yonishni sekinlashtirib, ta'sir kuchini oshiradi. Bir xil miqdordagi suyuq va qattiq yoqilg'i aralashmasidan kuchli tebranish hosil bo'ladi. Bu tabletkalar juda qulay, ularni saqlash ham oson, xuddi rezinka saqichday gap. Xohishingizga qarab yonish kamerasiga sekin yo tez tushishi mumkin. Afsonaviy mo'jiza!

— Gapingizga qaraganda, yulduzlarga uchish arafasida turibmizmi?

— Faqat yulduzlargagina emas. Faqat biz xudo qarg'agan kompaniyaning shoxobchalaridan biri hisoblanamiz, pullarimiz turli korxonalariga taqsimlab tashlangan. — Nemis "shoxobchalaridan" degan so'zni ijirg'angandek talaffuz qildi. — Biz katta imkoniyatlarga ega bo'lgan elektronika sohasida ham ko'p ishlarni amalga oshirdik. Mikrominiaturizatsiya borasida ham. Bu mening soham emas, ammo men ularni ham nazorat qilib boraman. O'n tsentli tangadek qisqa to'lqinli uzatgichlarimiz bor. Gugurt qalpog'i kattaligida qabul qiluvchi moslamalarga egamiz. Bugun kunduzi ularni namoyish qildim. Hech kim anglamadi. Tushuntirishga urunib ko'rdim. Biz shu qadar kuchli tezlatkich yaratib beramiz, u mitti quyosh batareyasida ishlaydi, uning yordamida Marsdan yerga juda ko'p yillar davomida radiosignallar yuborib turish mumkin. Bularning hammasi — kuchaytirgich, batareyalar, uzatgich, qabul qiluvchi moslama — hammasi angishvona ichida joylashib ketadi.

— Berkxardt bunga nima dedi?

— Og'zini ham ochmadi. Ko'zlari meni yolg'onchiga chiqarib turdi...

— Ha, sizni tushunaman.

— Bu gaplarning hammasi qaerga taqalayotganini angladingizmi? — So'radi Gauss. — Qattiq

yoqilg'ida ishlaydigan eltuvchi raketa, ion dvigateli, mikro aloqa, yoqilg'i elementlari, supermotorlar nimadan darak beradi?.. Aytaylik, Oyga borish bir necha kunlik masofaga aylanib qoladi. Oyning tortish kuchi kimligidan foydalanib, boshqa sayyoralariga yo'l olamiz. — U qo'llarini havoda silkitdi. — Bularning hammasini amalga oshirish qo'limizda, hammasini! Sun'iy kosmik qo'nish maydoni uchun behuda mablag' sarflash kimga kerak? Tayyor tabiiy qo'nish maydoni — Oy turibdi-ku! Jet-Tex ixtiyorida Oyni katta fazo platformasiga aylantirishga qaratilgan barcha ma'lumotlar mavjud. Yulduzlarga uchish yo'lida u dastlabki bir bosqich bo'lib qoladi.

Ikkalasi ancha vaqt jim qolishdi. Palmer kulimsiradi:

— Shoirona. Va juda ta'sirchan.

— To'g'ri emasmi? — Nemis boshini silkitdi, qora ko'zlari yaltiradi. So'ng jim bo'lib qoldi. Yana bir daqiqadan keyin yuz ifodalari so'ndi. Xo'rsindi. Hatto katta bosim ostida yanada kichrayib qolgandek tuyuldi. — Bularning hammasi, — dedi u so'nik, umidsiz tovush bilan, — pul talab qiladi.

— Siz, albatta, hukumat jamg'armalariga umid qilasizmi?

— Biz katta pul irmoqlariga qarab jon-jahdimiz bilan intilamiz, — Gaussning jag'lari xunuk qiyshaydi. — Yarim millionni u tomondan, yarim millionni bu tomondan olamiz. Quyosh sistemasiga qo'limiz yetay deb turibdi, shu ahvolda gadoga o'xshab tilanchilik qilishga majburmiz...

— Gauss, — dedi nihoyat Palmer, — ish vaqti ham tugab qoldi. Shu yaqin atrofga borib, ichib o'tirib gaplashsak, nima deysiz?

Palmer savolini tugatmasdan oq nemis o'rnidan turib ketdi.

— Ajoyib taklif, — dedi u eshikka yuzlanib. Ammo Palmer qo'qqisidan yana to'xtadi.

— Meni lift oldida kutib turing. Ba'zi narsalarni ko'rib qo'yishim kerak.

Palmer Virjiniyaning xonasiga kirib borganda u hamon mashinkasini chiqillatib o'tirardi.

— Sen ko'chirishing emas, tahlil qilishing zarur.

— Tuzatishlar ko'payib ketdi, tushunish qiyin. — U boshini ko'tardi va kutilmaganda kulib yubordi.

— Seni gerr Gauss kutayapti.

— Biz u bilan oz-moz ichmoqchimiz. Unga yordam berishning yagona chorasi shu. — U bo'm-bo'sh xonaga o'g'rincha ko'z yugurtirdi. — Kechqurungi mo'ljalning qanday?

— Hech qanday rejam yo'q, — gapini bo'ldi ayol. — O'zing-chi?

— Telefoning kechqurun shahar bilan bog'lanadimi? Gauss bilan xayrlashgach, senga qo'ng'iroq qilaman.

— Qaysi raqamga ulab qo'yishganini bilmayman.

— Yaxshisi, biron joyda uchrashaylik, maylimi?

— Qaerda?

U o'ylanib qoldi.

— Seni hech kim tanimaydigan joyda. Meni ham. Uchinchi avenyudagi barda.

Ayol manzilni aytdi.

Qirq to'rtinchi bob

Palmer Virjiniya bilan uchrashiladigan joyga yaqin bo'lgan barni tanladi. O'n besh minut ichida Gauss birinchi stakan viskini ichib bo'ldi va ikkinchisiga qo'l urdi. Ichkilik uning kayfiyatini ko'tarmaganini Palmer sezib turardi. U faqat o'zini nazorat qilib turgan ichki kishanlarni uzib tashladi, xolos. Stolda unga qarama-qarshi o'tirgan Palmer faxrlansa arziydigan katta ishlarni qilib qo'ygan bu odam shu qadar baxtsiz ko'rinishiga hayron qolmoqda edi.

— Na, — der edi Gauss, — Na, na¹! Hamma narsa meni chetlab o'tdi, alter Freund². Hozir yetmish yoshdaman. Otmishdan oshib ketdim! Qismatinga yozilgan omad allaqachon meni tark etgan. U, du kennst³, ausgespielt⁴, men bilan birga tamom bo'ldi.

— Omad bilan fan orasida qanday umumiylik bor?

— Tamom. Odam qiladigan hamma ishlar bilan omad qay darajada aloqador deb so'rayapsizmi? Surat chizasizmi? Musiqa to'qiyasizmi? Raketa qurasizmi? Hammasi o'z vaqtida qilinishi kerak, vaqtida qilish uchun esa omad lozim.

— Ko'p marta muvaffaqiyat qozongansiz. — Palmer uning stakani bo'shab qolganini ko'rib, ofitsiantni imladi.

— Ularni kim biladi? — so'radi nemis. — Ba'zi hamkasblarim butun dunyoga tanilgan. Gaussning nomini dunyoda kim biladi? Sizga aytishim mumkin. — U jarangdor ohangda qattiq kuldi. Bu ovoz Palmerning qulog'ini teshib yuborayozdi. — Mening ismim fizikada juda mashhur. Ha-da, mening ismim. Siz Karl Fridrix Gaussni eshitganmisiz? Matematikani? Magnetizm asoschisi?

— Eshitganman deb ayto olmayman. U qarindoshingizmi?

— Hamma shunday deb so'raydi... Qarindoshim emas. Hech kimim emas. Shunday nom bilan yashaydigan fizika ne chog'lik og'ir bo'lishini bilasizmi? Xuddi Gyote ismi bilan tug'ilgan shoirdek gap... Nima uchun, — xitob qildi Gauss — Nima uchun fon Braunga har doim pul topiladi-yu, nega Gaussga yo'q?

— Hukumat bilan bevosita aloqada ishlasangiz bo'lmaydimi?..

— Bo'lmagan gap. Bu yoqqa dastlabki kelgan paytimda hukumat meni o'z qanoti ostiga oldi, ulkan, yumshoq bu qanot ostidan ko'plab ablahlar makon topishi mumkin... ammo kanalizatsiya trubasi ichida yashagandek bo'lasan. Havo yo'q. Hech qanday g'oya yo'q. Intilish yo'q. Yangi yo'nalishlarni hech kim izlamaydi. Xudoyim-ey, men chalg'ib ketdim. Adashgan keksa odamman. O'ttiz-o'ttiz besh yoshdan keyin siz yangilik yaratolmaysiz. Yuksak ilhom daqiqalari sizni bezovta qilmay qo'yadi. Siz daholikni tajriba va ayyorlik bilan almashtirasiz. Fikr bo'laklarini yig'asiz, boshqalar amalga oshirilmagan g'oyalarni to'playsiz, yoshlarni birlashtirasiz va juda kichkina bo'lsa ham qandaydir shaxsiy kashfiyotingizni yaratasiz. Shunda boshingizni silashadi. Hukumat buyurtmalaridan birinchilar, qatorida voz kechishga urinib ko'rdim. Yana hisobda adashibman. Omad qaytib kelmadi.

— Men Jet-Textdagi sizning guruhingiz boyagi yangi narsalarni yaratgan deb o'ylagan edim.

— Sizga aytgan o'yinchoqlarnimi? — Nemis viski xo'pladi. — Ular yomon emas. Ammo bir yil, nari borsa ikki yildan keyin "Jeneral daynemiks", "Bell" va "Jeneral elektrik", "Yunion karbayt" va "Vestingauz" va boshqalar ham ularni ishlab chiqara boshlaydi. Men bo'lsam quruq hamyon bilan noma'lumligimcha qolib ketaveraman. Meni yoshimda bu kamsitilish bo'ladi. Bu — tanazzul demakdir. Men tilanchi emas, olimman. Bu Jet-Tex... Baxtsizlik keltiradigan... bu narsa. Ish yurishmasligi. Omadsizlik.

— Siz shuhratparast odamsiz, — ohista gapirdi Palmer, — hozirgi yoshingizda bu yaxshi alomat.

— Kasallik alomati. U meni ichimdan kemiradi. Nima uchun u? Nima uchun bu? Nega Gauss emas?

— Balki, — fikrini davom ettirdi Palmer, — siz ham, katta pul talab qilmaydigan narsalar yaratarsiz? Yoki Jet-Textdan boshqa biron tashkilotga o'tganingiz ma'qulmikin?

— Keksas malay bo'lish uchunmi? Rahmat, bunisi ketmaydi. Jet-Textda hech bo'lmaganda katta lavozimda ishlayman-ku. Axlal tashuvchi qirol. — U g'alati bir tarzda qattiq kuldi, stolga qaragan paytida qalin qoshlar ko'zini to'sib qo'ygandek bo'ldi. Axlal tashuvchi qirol, — g'o'ng'illadi u. Shu paytgacha istehzoli kulib turgan ingichka labli katta og'zi tekis va ifodasiz bo'lib qoldi.

Palmer hisob-kitob qilish uchun ofitsiantni imlab chaqirdi... Ofitsiant hisob qog'ozini keltirib Palmerning oldiga qo'yganda, Gauss boshini keskin ko'tardi.

— Nima? Sizni kim chaqirdi?

— Mana bu janob, — izoh berdi ofitsiant.

— Men uyga borishim kerak, — dedi Palmer. — Hatto kechika boshladim.

— Ha, — Gauss qaddini bukdi. — Ha, albatta. Sizni tutib qolganim uchun uzr.

— Uzrga hojat yo'q. Sizni men taklif qildim.

— Pullar-chi, qarz nima bo'ladi?

— Gauss, siz tushunishingiz kerak... — deb gap boshlagan Palmer ofitsiant yonida turganini sezib,

to'xtab qoldi. U hamyonini olib, yigirma dollarni buklangan qog'oz ustiga qo'ydi. U Gaussning ko'zlari naqadar ochko'zlik bilan o'zini kuzatayotganini his qilib turardi. Ishonging kelmaydi, o'yladi Palmer. mutlaqo tushunib bo'lmaydigan holat. Bu odam har yili kam deganda o'ttiz ming dollardan ko'p daromad qilgan. U yolg'iz yashaydi, bolalari yo'q, chamasi, orttirgan har bir tsentni bankaga qo'yadi. Shunga qaramay shu darajada ayanch ahvolga yetganki, Hatto o'z xatti-harakatlarini nazorat qilolmaydigan bo'lib qolibdi.

— Hammaga ma'lumki, — gapini davom ettirdi Palmer, — men qarz masalasiga qarshi emasman, ammo siz so'rayotgan narsani hal qilish oxirgi natijaga bog'liq. Ishonamanki, siz yaxshi ishni ko'ngildagiday yakunlaysiz. Oradan ikki kun o'tganiga qaramay, kechagi gap-so'zlar o'tmishga aylanib bo'ldi; bugun Jet-Texga rasmiy ravishda xabar berildi, hozircha shu ahvolda to'xtab turibmiz. Lumis yangi takliflar bilan chiqishi va muzokaralarni qayta boshlashi mumkin. Men shunday bo'lishiga astoydil ishonaman. Bilasizmi? Siz pul olishingizni men ham xohlayman. Ixtiyorimda biron-bir imkoniyat paydo bo'lib qolsa, sizga amaliy yordam beraman. Hozirgi paytda esa... bundan boshqa hech narsa qila olmayman.

Gauss horg'in bosh chayqab qo'ydi.

— Men bilaman. Lumis ham aynan shunday degan edi.

Men kutaman. Vaqti kelib pul bo'ladi.

— U shunday dedimi? Qachon?

— Bugun. Avval ham ko'p aytgan.

— Buni qay darajada aniq aytdi? — so'radi Palmer.

— Cheksiz aniqlik bilan. Bu moliyachi ishbiarmonlar sizga ma'lum-ku, — Gauss ko'zlarini qisdi. — Lumisga o'xshaganlar bilasiz-ku. Siz butunlay boshqa odamsiz, eski do'stim.

— Lumis oxir-oqibatda pul bo'lishiga ishonadimi?

— Ishonadi, — achchiq narsa yegandek nemisning yupqa lablari qiyshayib ketdi.

Palmer qo'zg'aldi.

— Gauss, hozir yo'lga chiqmasam bo'lmaydi. Sizga yordam berolmasam ham gaplashib o'tirish menga yoqadi. — U qariya o'rnidan qo'zg'alishini kutib turdi...

Gauss jim o'tirar edi. Palmer yo'talib qo'ydi. Birozdan keyin butunlay o'zini eplolmay qoladi, degan xayolga bordi. Gaussga uch stakan viski olib berganiga, umuman, ichirib qo'yganiga pushaymon bo'ldi.

— Gauss, — dedi u, — tobingiz qochyaptimi?

Kichkina odam kiprik qoqmadi. Nigohini ko'tarib, Palmerning yuziga tikildi.

— Sizga ayrim narsalarni aytib beraman, — dedi u sokin, ammo bo'g'iq ovozda. — Ular meni bu yoqqa yuborishgani yo'q. Men o'zimni vakil bo'lib kelgandek ko'rsatdim. Buni hatto bilishmaydi. Bizning tanish ekanligimiz, ularning xayoliga ham kelmaydi.

— Hammasi o'zingizdan chiqqan g'oyami?

Gauss bosh silkidi.

— Marhamat, o'tiring.

Palmer devordagi soatga qaradi. Virjiniya bilan uchrashuvga o'n daqiqa qolgan edi.

— Faqat bir-ikki minutga, — dedi u Gaussning qarshisiga o'tirar ekan. — Tez yetib bormasam bo'lmaydi.

— Albatta, — Gauss Palmerni emas, stol ustidagi suratga qarab kuldi. — Bu erkak kishining surati, — dedi u barmog'i bilan nuqib.

— Bu temir tasvirdek gap. Ayni zamonda Mars sayyorasiga o'xshaydi. G'alati. — U jilmaygan holda hech narsa demasdan uzoq o'tirdi.

— Gauss, men kechikypman.

— Ha, ha, ha. — Qariya o'zini qo'lga olgandek bo'ldi. — Mendagi imkoniyatlar bilan, — dedi u ovozi ancha balandlatib, — Karl Fridrixga o'xshab, Gaussning nomini ham dunyoga mashhur qilish mumkin. Shunda uni "bu boshqa Gauss" deb atay boshlaydilar. Gauss nomi tilga olinganda — u

Geynts Valter Gauss emas, men bo'laman, bildingmi?

— Shunday bo'lishiga umid qilaman...

Palmer soatga qaradi. O'n daqiqa kechikkan edi. U o'rnidan turdi.

— Ishingizni qo'shimcha mablag'larsiz ham davom ettira olasizmi?

— Boshqa ilojim yo'q. — Gauss paltoga qo'l cho'zdi, ammo ko'zlari boshqa tamonda edi. — Men bu ishni davom ettirishga majburman. Xomashyolar haqida soxta ma'lumot to'ldiraman, yolg'on gapiraman, uskunalarni o'g'irayman.

— Hukumatdan shartnoma asosida pul olsangiz-chi? Jet-Textdan ketsangiz nima bo'ladi? Hamma ishni hukumat nazorati ostida qilaverasiz-ku!

Gauss istehzo bilan kuldi.

— Menga, o'sha la'nati "Uoatan" raketasi deb millionlab dollarlarni sovurgan kishiga hukumat boshqa millionlarni bermaydi. — U shlyapasini boshiga ildi. — Bugun rad etishganini eshitganimdan keyin ko'z oldimga siz keldingiz. Muloqotimiz qanday bo'lishini o'yladim. Men aqlli edim. O'zimga ishonardim. Sizga ham ana shu ishonchni yuqtira oldim. Siz meni qanday ko'rgan bo'lsangiz, men ham o'zimni shunday ko'rib turibman: cho'ntagida bir chaqasi yo'q, miyasi suyilgan, tentak qariya. Omadsiz chol. Mayli, shunday bo'lsin. — U ko'r-ko'rona ko'cha eshigiga qarab keskin burildi.

— Gauss, — Palmer paltosini yo'l-yo'lakay kiyib, nemisning orqasidan Uchinchi avenyuga chiqdi. — Gauss, bir daqiqa to'xtang.

— Siz butunlay kechikib bo'ldingiz, do'stim. Vaqt — katta ne'mat. Vaqtni to'g'ri hisoblay olishda gap ko'p. — Ko'chada g'irillab esayotgan sovuq kuz shamoli Gaussning shlyapasini ko'tarib yubordi. — Siz kechikish bo'yicha mutaxassis bilan gaplashyapsiz. Eynshteyn yahudiy bo'lgani uchun men o'n yilga kechikdim. Mayli. Hali o'n yil imkoniyatim bor. — Neon nurlari yoritib turgan qorong'ilikda uning jilmayishi g'ayritabiiy chiqdi. — Shunda omadim keladi, — qo'shimcha qildi u istehzoli ohangda. So'ng burilib, yo'l bo'ylab ketdi va birdan yon ko'chada g'oyib bo'ldi...

Qirq beshinchi bob

U barning etagidagi alohida stolda yolg'iz o'tirardi. Palmer alang-jalang qarab, qidirib topdi va tez oldiga keldi.

— Meni kechir, — dedi u ayolning qarshisiga o'tirar ekan, — ammo Gaussga ko'p narsalarni aytib berolmay qoldim.

U barga kirganda ayol boshini ko'tarib qaragan edi. Uni ko'rgandan keyin ikki qo'llab ushlab turgan stakanga tikilganча jim o'tiraverdi, go'yo yana bir qarashga madori yetmayotgandek edi.

— Hammasi joyida, — dedi u bo'g'iq ovozda.

— Xafa bo'lganga o'xshaysan.

— Hammasi joyida, — deb ta'kidladi u hamon unga qaramay.

— Ajabtovur nusxa, — dedi Palmer. — Zarur ishim bo'lmaganda, gaplarini eshitib o'tiravergan bo'lardim.

Ayol boshini sekin ko'tardi va uning ko'zlariga tikildi.

— Agar Gauss shu darajada aziz bo'lsa, — dedi u tiniq ovozda, — bekor tashlab kelibsan.

— Sen undan azizroqsan...

— Ha, — tasdiqladi u. — O'zimga o'zim achinib ketaman.

— Nimani o'ylayotganimni qaerdan bilasan?

— Bu gaplarni qo'y, — gapini bo'ldi ayol. — Shuni unutmaginki, keltlardan biron narsani yashirib bo'lmaydi... O'zaro munosabatlarimiz haqida bir soat o'ylab o'tirdim. Kechikib ketganingni ko'rganimdan keyin yanada yomon bo'ldim. Nihoyat, — dedi u xuddi xayol surayotgan odamdek, — seni kelmaydi deb ishonganimdan keyin oramizdagi barcha munosabatlar o'ldi. Shunday ko'z oldimda, stol ustida. Men suyaklarini yig'ib dafn etayotganimda sen paydo bo'lib qolding.

— Xudoyim- yey, men bor-yo'g'i bir necha daqiqa kechikdim.

— O'n besh daqiqa.

— Avval eshitgin...

— Bilasanmi, — yana gapini kesdi u, — badiiy asarlarda ko'pincha shunday tomoshalar uchrab turadi. — Qahramon paydo bo'ladi va barcha noxush xayollar bema'ni tushdek yo'qolib ketadi, atrofdagilar yana shod-xurram bo'lib qoladilar. Bu nihoyatda ko'ngil yaqinligining alomati. Oddiy dalil, u oxir-oqibatda paydo bo'ladi va sevinchdan yosh tentak qizning boshi osmonga yetadi.

— Ammo sen unday emassan.

— Mayli, — rozi bo'ldi u. — Eski miya qutisi bunday jismoniy mashqlar uchun torlik qiladi. — Nima bo'lganda ham, — u engashib, Palmerning qo'llarini shapatilab qo'ydi, — nima bo'lganda ham kelganing uchun xursandman.

— Men ham xursandman. — U ayolning qo'lini ushladi.

— Qurib ketsin, — davom etdi ayol, — bu o'limtik natsist nimasi bilan seni maftun qildi, qanday qilib Nyu-Yorkdagi eng go'zal ayol bilan ishqiy uchrashuvga kechikib kelishga jur'at etding?

— Aytganim bilan ishonmaysan.

— Qani ayt-chi?

— Boshqa payt aytib beraman, — uning qo'lini qisdi.

— Nega uni natsist deyapsan?

— Aslida shunday emasmi? — U birdaniga "achigan karam" deb ataladigan talaffuzda gapirishga o'tdi.

U hech qachan partiya agzasi bilan ichkani yoq? Bisning aramisda natsis belan ichkan natsis yoq. Ha, bis ularga nema boldi, belgan yoq.

U kulib yubordi.

— Siz irlandlar haqiqatan ham oliy irq namoyandalarini yoqtirmaysizlar, to'g'rimi?..

Palmerning kulgisidan salgina narida turgan ofitsiant cho'chib tushdi. U biron narsa buyurishadi deb o'ylab, burilib qaradi. Palmer dabdurustdan buni sezmay qoldi.

— Menga ham xuddi shunisidan, — dedi u Virjiniyaning bo'sh stakanini ko'rsatib, — xonimga yana bitta.

So'ng bir muddat bosh chayqab jim turib qoldi, keyin:

— Yaqinda men Viktor Kalxeynning bir va'zgo'yligini eshitib qoldim, — dedi.

— Vik, — buyuk makkor, — ta'kidladi Virjiniya irland lahjasida gapirishda davom etib. — Irlandlardan keyingi o'rinda — italyanlar turadi. Vikning qoniga har ikkalasi qo'shilib ketgan.

— Harqalay, u Mak Bernsdan ehtiyot bo'l, deb ogohlantirdi.

— Uh, hozirgi kunlarda hammamizda, jumladan, irlandlarda ham livanliklardan bir chimdim bor.

— Men kelguncha qancha ichib ulgurding?

— G'animlik Departamentida livanliklarga mansub shaxslar, — davom etdi u, — o'zlarini keltlar deb hisoblovchilar soni bilan baravar.

— Mast bo'lib qolibsana.

— Ichdim, kayf qildim, yig'ladim, — xo'rsindi u. — Umuman, ko'p ichmadim. Shunchalik uzoq kutish davomida birgina stakan bilan cheklandim. Ko'rmayapsanmi? — Bo'sh stakanni unga tomon surib qo'ydi — Muz parchalari qanchalik kichik bo'lib qolganini ko'ryapsanmi? No'xatning o'zi deysan.

— Bugun senga nimadir bo'lganga o'xshaydi.

— Bir chekkada turib, seni shafqatsizlarcha o'rganish natijasi, xolos.

— E, xudo, — dedi Palmer ma'yuslanib. — Endi hech qachon uchrashuvga kechikib kelmayman...

— Buning uchun qandaydir darajada yaxshigina jazo olding. Men talabni yuqori qo'yaman, sen hammasiga mos kelasan. Hatto boshqalardan baland turasan. Sen juda dahshatlisana, qarang-a, qizarib ketyapganini! — Bunaqasi xotirlarda bo'ladi. Eh, faqat kichkina bir tugun bor-da. Sen bevaqt uylanib qo'ygansana-da.

— Men qizaribmanmi? — O'jarlik qildi Palmer. — Ayollar menga doim shunday deyishadi.

— Shunday bo'layapti-da. — U mayingina kuldi. — Ammo sen, mening ayolmand do'stim, men uchun dahshatli muammolarni tug'dirasan. Agar men munosib erkakni topishni xohlab qolsam, orqada qolishingga to'g'ri keladi.

Palmer hazil bilan javob berdi:

— Orqangda bo'lish — men uchun nihoyatda yoqimli hodisa.

— Sen meni nihoyatda jiddiy deb o'ylaysan, shekilli. SHuning uchun tegajoqlik qilayapsanmi?

— Shuning uchun.

— Keragi yo'q. Loqaqal bir daqiqa jiddiy o'tirgin.

— Harakat qilaman, — va'da berdi u, — ammo bunday taqdirda bu xonadan chiqib ketish va sendan voz kechishimga to'g'ri keladi, chunki har bir ayol erga tegishi shart.

Bir muddat ikkalasi ham jim qolishdi.

— Menga bunday qarama, — iltimos qildi u.

— Qanday?

— O'zing bilasan-ku, Vuds, marhamat qilib, menga rostini ayt. Meni nimamni yoqtirasan?

Jiddiy javob zarurligini his qilgan Palmer ancha o'ylanib qoldi.

— Seni chiroyli qiz... ayol, deb bilaman, — boshladi u.

— Marhamat!

— Shundan boshlashim kerak. Sen faqat yaxshigina emas, chiroylisan, bu men uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari sen juda aqlli ayolsan, hatto erkaklar bilan bemalol vaqt o'tkaza oladigan darajada aqlli ayolsan... Yana yoqadiganlari... nima deyishim mumkin? Obro'li, iste'dodli ayolsan, ishda e'tibor qozongansan, yuqori darajada maosh olib ishlashga munosibsan, shunga qaramay, modomiki yurakdan gaplashayotgan ekanmiz, YuBTKda senga kam to'lashadi. Xo'p, mayli. Senda ko'p fazilatlarini ko'raman. Hissiyot borasida hakamlik qilolmayman. Boshqalarni to'g'ri tushunish uchun avval o'zingni yaxshi bilishing zarur. O'zingda borini boshqalarga baxshida eta oladigan, yoqimtoy xilqatsan. Qalqon tutib, o'zingni himoya qilishga qodir emassan, seni himoya qilishidan oldin uni uloqtirib yuborasan. Bu sen uchun yomon, ammo butun haroratingni bag'ishlaydigan erkak uchun bu narsa juda yoqimli. Sen... men o'ylaymanki... men nimani... — U gapdan to'xtadi.

Ayol uning qo'lini ushladi.

— Agar shu narsalarni yoqtirgan bo'lsang, ularni men ham yomon deyolmayman. — Issiq barmoqlar yigitning qo'li uzra yuqoriga siljidi, Palmer ayolning kaftini siqdi.

— Sen tushunmaysan. O'zim ham zo'rg'a anglayman. Mening boshim va yuragim baliqnikidek juda sovuq. Haqiqiy bankirning yuragi. Sen uni isitasan yoki toptab tashlay olasan. Shunday bo'lsa, azobda qolaman. Men buni xohlamayman. Aloqalarimiz mutlaqo jismoniy holatda qolishini istayman. Shunday davom ettirsak, o'zing topib aytganingdek, eng og'ir narsa meni tashlab ketishingdir. Sen dastlab men ishongan yagona odam eding. Hozir ham shunday. Ammo hammasi jiddiylashib ketyapti. Menga o'xshagan tajribasiz odam uchun bu juda xavfli. Bugungi dildan qilingan suhbatimizni hisobga olsak, munosabatlarimiz har qanday majburiyat doirasidan chiqib ketayotganini ko'rish qiyin emas.

U ayolning barmoqlari qo'llarini muloyim silayotganini sezdi. Bir qoshini chimirib, u aytayotgan gaplarga ishongisi kelmaganday yoki umuman ishonishni xohlamaganday befarq qarab o'tirardi.

— O'zing haqingda shunchalik ayanchli fikrdamisan-a? — so'radi u.

— Y-yo'q. Nahotki.

— Hissiyotlarimiz haqida. O'zingni kamida o'g'ri deb hisoblaysanmi?

— Ha. Hamma narsamni senga bag'ishlab, evaziga hech narsa talab qilmayotganimni aytib o'tding. Bu talovchilikka o'xshab ketadi. Ammo unday emas.

— Menmi? — so'radi Palmer. — Senga nimaniyam berardim.

— Mendan olgan haroratni yana qaytarib berasan. — Uning qo'llari siqilib, kaftlarini ohista, ammo qat'iyat bilan silay boshladi. U kaftlari qizib ketganini his qildi.

— Ajoyib ko'rgazma, — dedi u. — Odamlar shunday qilib olov yoqishadi.

— Bir xaridorim qachonlardir barmoqlarimdan olov chiqargan edi.

— Virjiniya, — xitob qildi Palmer uning qo'lini siqib. — Eshit. Hozirgina men uchun dahshatli muammolar tug'dirasani deb aytding. Erga tegish haqidagi rejalarini hisobga olmaganda ham hayotingni murakkablashtirayotganimni bilib turibman. Senikini ham, o'zimirni ham.

Ayol dangaliga ko'chib qo'ya qoldi.

— Men behuda gap boshladim. O'zingga achinishdan kuchli tuyg'u yo'q. Unga bo'ysunganim uchun o'zim aybdorman. Endi bo'lsa, — u Palmerning qo'liga bir urdi, — kel, jismoniy munosabatlar darajasiga tushamiz. Maylimi?

— Boshqa hamma narsalar havoda muallaq qolaveradimi?

— Xuddi shunday. Nega biz dunyoda yagona paysalga soluvchilardan bo'lishimiz kerak? Bu baxtsiz buyum u yoqda osilib yotaversin.

— Navbatdagi xurujing boshlangunchami?

— To'g'ri aytasan. — U viskini simirdi. — Mashinang bormi?

— Shaxsiymi? Yo'q.

— Meniki ham. Hozir qiladigan asosiy ishimiz — mashinaga o'tirib, uzoq-uzoqlarga ketish.

— "Qayg'ularingni unut, baxtli bo'lasan".

— Qo'shiq uchun ajoyib she'r.

— "Kayfiyating yomon bo'lsa, boshingni ko'tarib qichqir: "Keladi ajoyib bir kun!" — tamomladi Palmer.

— Iste'doding borligiga shubha qilmagan edim.

— Bunisi hali nima bo'пти? — dedi Palmer o'rnidan turib. — Mana hozir senga iste'dodimni ko'rsataman. — Qora paltosini ilmoqdan olib, unga uzatdi. — Gertsning kartochkasidan boshqa narsam bo'lmagani holda mashina yollayman.

Qirq oltinchi bob

Nyu-Inglendning keng avtomobil yo'lida to'q qizil "korvet" hech qanday qoidani pisand qilmay, soatiga 90 mil tezlikda uchib borardi. Ko'z ochib-yumguncha ular Stamfordga yetib bordilar va o'zlari ham sezmagani holda yo'ldan burilib, bir necha daqiqadan keyin mehmonxona motelga o'xshagan joyga kelib to'xtadilar. Bir-biriga jipslashtirib qo'yilgan ulkan ikki karavot ustida tun yarmigacha qolib ketishdi. Virjiniya Nyu-Yorkka Merrit Parkuey orqali qaytamiz, deb turib olgani uchun hozir ancha eski yo'ldan kelmoqda edilar. Svetaforlar, tor va tezlikni cheklovchi boshqa belgilar ko'pligi uchun qaytish vaqti cho'zilib ketdi.

— Senga sport mashinalarini yoqtirmayman, deganim yo'q edi-ku, — luqma tashladi Virjiniya.

Palmer spidometr nayzasiga qaradi va u 70 atrofida tebranib turganini ko'rdi¹. U akseleratorni tushirdi.

— Nima uchun?

— Sport mashinasini haydovchi erkaklar ayollar bilan mutlaqo qiziqmaydilar.

— Dalillar bormi?

— U yonida o'tirgan qizdan ko'ra mashinani ko'proq yaxshi ko'rib qoladi...

— Jim bo'l, spidometrqa qara, yana 70 ni ko'rsatyapti. Jiddiy gapiryapman. Tinch o'tir...

Palmer ko'prikdan o'tish uchun yana pul to'ladi va Ist River yo'li bo'ylab ketdi.

— Seni uyingga eltib qo'yib, keyin mashinani topshirsam bo'ladimi yoki aksinchami?

— Aksincha. Men yana bir necha daqiqa aylanmoqchiman. — U sigareta tutatdi. — Ko'ryapsanmi, sevgi odamni ne ko'ylarga soladi? Sen aftingni burishtirayapsan. Bu so'zdan afting burishib ketdi. Sevgi. Xudoyim-ey. Biron falokatga uchrayman, shekilli, — U sigaretni o'chirib. — Men darg'azabman, parishonman va butunlay majaqlab tashlanganman. "Sevgi" so'zini eshitib, nega bujmayib ketding? Nega senga yopishib oldim? Sen ham, hech shubhasiz, menga o'xshab qattiq darg'azabsan. Men

ishonaman, men... aqldan ozib borayapman... Balki mast bo'lib qolgandirman? Ta'na qilayapman. Endi gapirmayman. — U qo'llarini qovushtirib, yonboshdagi oynaga suyandi.

Muvozanatdan chiqib ketgan Palmer boshqa yo'lga tushib qoldi va ko'p o'tmay Oltmishinchi ko'chada, mashinani ijaraga olgan bekat tomonda yurganini angladi. U Leksington-avenyuda chapga burildi, yana chapga burilib, jigarrang toshlardan qurilgan va huvillab yotgan eski uylar oralab keta boshladi; goh u, goh bu yerda ancha baland hashamatli yangi binolar ham ko'rinib qoldi. Ikkinchi avenyudagi svetofor chirog'ida to'xtagan paytida mashina orqasida tez yurib kelayotgan qadam tovushlarini eshitdi. Yonboshdagi oynaga qarab, uzun oqish palto kiygan yoshgina ayolning ko'cha bo'ylab chopib kelayotganini ko'rdi, orqasidan kuchuk yetaklagan kichkina bola xarsillab yugurar edi.

— Nima bo'ldi ekan, jin ursin? — ularni durustroq ko'rish uchun mashinani burdi. Virjiniya ham nima gapligini bilay, deb o'girilib qaradi.

Sovuq shamolda paltosining oldi ochilib ketgan ayol mashina oldigacha chopib keldi va oynani taqillatdi. Kuchukcha shodon vovulladi, uni tutib turgan bola xarsillab nafas olardi. Palmer oynani tushirdi.

— Menga qarashib yuborolmaysizmi? — Og'ir nafas olib so'radi ayol.

— Menmi? Hm, bu yengil mashina-ku.

— Meniki "folksvagen". Shafqat qiling. O'ylaymanki, siz yordam berolasiz... — Ovozi sekinlashdi va og'ir nafas olib jim bo'ldi. It orqa oyoqlarida turib, oldingisini palto etagiga qo'ydi.

— Yarim kvartalgina narida. Ana, ko'ryapsizmi?

Palmer burilib qaradi va yo'lka orqasidagi ikkinchi qatorda turgan kichkina mashinani ko'rdi.

— Mayli, — rozi bo'ldi u va tezlikni pasaytirib, mashinani orqasi bilan haydadi. YOsh ayol, kuchuk va bola, chamasi yetti yoshlardagi qizaloq, "korvet" orqasidan ergashdilar. Ayol xuddi mashinani yetaklab ketayotgandek, qanot tomonini ushlab olgan edi.

— Hech kim to'xtashni xohlamadi, — gapirdi u. — Siz katta iltifot ko'rsatdingiz.

— Mashinangizga nima bo'ldi? — so'radi Palmer o'zini eshitmaganga solib, aslida ham uni deb to'xtagani yo'q edi.

— Akkumulyator.

— Nima qilishni bilasizmi? Ikkinchi tezlikka solib, o't oldirasiz va uzatgichni ishga solasiz.

— O, buni bilaman.

— Men tezlikni olganimdan keyin, siz uzatgichni sekin bosing, — davom etdi u. — Sekin.

— Bilaman. Akkumulyator butunlay ishdan chiqqan.

Palmer "folksvagen" atrofini aylanib chiqdi. Ayol hamon izidan qolmas edi.

— Mashinaga o'tiringlar, ikkalangiz ham, — ayol bolasiga buyurdi. — Sizga ko'p rahmat, — murojaat etdi Palmerni.

— Bu akkumulyatorni nima qilish kerakligini bilasizmi?

— Shu atrofda tungi garajlar bor. U yerda bir yoki ikki dollarga zaryadlab berishadi. Boshqa iloji yo'qmi?

— Generatoridan o't oldirish uchun ko'p yurishga to'g'ri keladi. Bu foyda bermasligiyam mumkin. Qisqa to'qnashuv chiqishi xavfi ham bor. Garajga murojaat qilganingiz ma'qul.

— Juda qimmat. Imkonim yo'q. Haftaning oxirigacha 30 tsent pulim qolgan.

U jilmayib, bosh silkib qo'ydi. So'ng mashinaga o'tirdi. Palmer "korvet"ning burnini "folksvagen"ga taqab, kichik tezlikni ishga soldi. U asta-sekin tezlikni oshira borib, mashinani oldiga jildirdi. Amortizatorlar ohista g'irchilladi va "folksvagen" joyidan qo'zg'aldi. Ayol zudlik bilan to'rt marta signal berdi va qizil chiroqda Ikkinchi avenyuning muyulishiga burildi. Palmer burchakka yetib borganda "folksvagen" g'oyib bo'lgan edi.

— Eshitdingmi? — so'radi u.

Virjiniya bosh silkidi.

— Agar to'xtash joyidan o'rin topilsa, u bolasi bilan mashinada uxlasa kerak.

— Hozir sovuq-ku.

- Balki chek dushanbada ertalab kelar.
 - Qanaqa chek?
 - Aliment yoki yordam.
 - Qaerdan bil...
 - Yetar endi, — ayol gapni bo'ldi, ovozi sovuq va silliq edi.
 - U og'ir ahvolda. Hali yosh ekan. Hech bo'lmaganda mashinani sotishi mumkin, agar o'ziniki bo'lsa.
 - Ammo u juda yaxshi taassurot qoldiradi.
 - O, xudoyim, Vuds, jim bo'l.
- Palmer Qirq sakkizinchi ko'chadan sharqqa burildi, mashinani topshirdi, xizmatchining uyigacha eltib qo'yish haqidagi taklifni rad etdi va Birinchi avenyu bo'ylab Virjiniya bilan birga ketdi.
- Nega rad etding? Taksi topolmasligimiz mumkin, — dedi ayol.
 - U ismimni biladi. Bizni ikki tomonga eltib qo'yishi kerak. Sog'lom aql bunday qilib bo'lmaydi deb turibdi. — Palmer o'tib ketayotgan taksini chaqirdi, u bo'sh bo'lishiga qaramay to'xtamadi.
 - Tushunaman. Kechirasan.. — Bir muddat jimlikdan keyin u zo'rg'a gapirdi: — Vuds, gaplarim soxta mehribonchilik emas. Ba'zan achchiq haqiqat shunday tuyuladi. Javob bermasliging mumkinligini ham o'ylab ko'rdim. Bunday javoblarni ko'p eshitganman.
 - Mayli. Faqat menga ko'ngli qattiq odam deb qaraganlarni yoqtirmayman. Haqiqatga yaqin gaplarni esa xotirjam eshitsa bo'ladi.
 - Yo xudo! — U bir necha qadam olg'a yurib, sovuq havoga bir tekisda hovur chiqardi. — Ba'zi odamlar befahm bo'ladi, ammo sen unday emassan. Senda ajoyib bir qobiliyat bor: hamma narsani ko'rib, his qilib turasan, ammo bironta amaliy ish qilishni o'ylamaysan. Boyagi ayol...
 - Qaysi ayolni aytasan?
 - Bolasi, kuchugi, akkumulyatori o'tirib qolgan "folksvageni" bor va hafta oxirigacha o'ttiz tsendi qolgan yosh ayolni. Mashinasi birdaniga o't olib ketgani g'alati emasmi?
 - Men bil...
 - Albatta, sen tushunding. Akkumulyator butunlay yaroqli edi. Agar biron kori hol yuz berib, to'g'risini aytish lozim bo'lsa va masala nima qilishga kelib taqalsa, bu birinchi marta bo'lmasa kerak, ayol puli yo'qligini ochiq aytgan. Vuds, marhamat qilib, tushunmadim deya ko'rma. Uning g'ururi pul so'rashga yo'l qo'ymagan.
 - Ammo u hech...
 - Albatta, yo'q. Ijobiy javob bo'lmagandan keyin u darhol suhbatni to'xtatgan.
 - Ishonamanki, sen...
 - Yo'q. U juda tushunadigan qilib gapirdi! Ana taksi.
- Palmer beixtiyor qo'l ko'tarib, silkitdi. Taksi to'xtadi va ular o'tirdilar. Virjiniya shofyorga manzilini berib, qo'shib qo'ydi:
- Bu janob uzoqroqqa boradi.
- Mashina ko'k chiroqni kutib, turib qoldi. Ular jim o'tirishardi. Mashina qo'zg'algach, Virjiniya Palmerga burilib qarab:
- Marhamat qilib, hamma gaplar uchun meni kechir, — dedi... Uning ko'zlari ko'p narsalarni aytib turardi. Ularga qarab qandaydir uyat, hatto qo'rquv hissini uqish mumkin edi. Palmer uning qo'lini ushladi:
 - Qabul qilaman, — dedi u, — marhamat, sen ham mening uzrimni qabul qil.
 - Bugungi oqshom juda sarguzashtlarga boy bo'ldi. — dedi u juda tez va ta'sirsiz ohangda. — Bolali ayol ham ortiqcha tashvishga aylandi. U o'yin qildi... — Virjiniya gapini davom ettirmay, yelkasini qisib qo'ydi.
 - Ochiqroq ayt.
 - Dahshat. Har bir yolg'iz ayol shu ahvolga tushishi mumkin. Men bu haqda gapirishni xohlamayman. — U tashqariga qaradi. Biz, nihoyat, manzilga keldik, shekilli.

— Shunday.

— Seni yuqoriga taklif qilolmayman. Tushunasanmi?

— Ha.

— Buni judayam xohlashimniyam tushunasanmi?

— Ha.

U og'ir xo'rsinib qo'ydi.

— Seni bag'rimga bosaman. Ilonni ko'kragimga olgan kabi. Uni uloqtirib yuborish kerakligini bila turib...

— Virjiniya...

— E, xudo, bu aljirashlar tamom bo'lishini shunday xohlaymanki... — U pastki labini tishladi va mashinaning oldingi oynasiga tikildi. — Mana shu burchakda to'xtang. Burilib o'tirmang. U yog'iga o'zim ketaman. Xayrli tun.

— Menga ruxsat eting...

— Xayrli tun, — takrorladi Virjiniya va ko'cha tarafdagi eshikni ochdi.

— Ledi, — ogohlantirmoqchi bo'ldi shofyor, — bu tomonga tushib bo'lmaydi-ku...

— Yo'lingdan qolma, Jek, — javob qaytardi u ko'chaga tushib bo'lib. — Xayrli tun. — U eshikni qattiq yopib, mashina oldidan yo'lkaga qarab chopib ketdi, tuflisining baland poshnalari yaltirab, ko'cha chiroqlari yog'dusini aks ettirardi. Burchakkacha chopib borgach, u yog'iga sekin yurib ketdi. Ayol ko'zdan g'oyib bo'lguncha Palmer uning kelishgan sonlarini kuzatib turdi. Shofyor tishlari orasidan nimalarnidir so'rib, g'alati bir tovush chiqarib qo'ydi.

— Qaerga boramiz? — so'radi u sovuqqina.

Palmer xo'rsinib, o'ylanib qoldi. So'ng:

— Do'stimni "folksvagen" mashinasi bor. U Oltmishinchi ko'cha hududida, Birinchi va Uchinchi avenyularning o'rtasida ikkinchi qatorda bo'lishi kerak. Keling, izlab topamiz.

— Mayli, izlaymiz, — Shofyor tezlikni oshirdi, taksi svetofor yonidan o'tib, olg'a intildi.

— U yosh ayol, — dedi u, — qaysi tomondan katta ko'chaga chiqishni bilsa kerak.

Palmer shu bilan suhbatga chek qo'yiladi deb o'ylab, jim bo'ldi. Biroz yurishgandan keyin shofyor gapga tushdi:

— Mana shunisiga tushunmayman. Odamlar nima qilishayotganini bilmagandek yurishadi. Yana hammasi ma'lumotli.

Palmer sigaret chekib, "folksvagen"ni izlab boraverdi.

— Hozirgi ma'lumotlilardan nimaniam kutish mumkin? Narx oshgandan oshib ketayapti. Zig'irdak ish haqi bilan qanaqa ma'lumot olish mumkin?

Palmer oldinga engashdi.

— Shu yerdan burilib, ilon izi qilib haydang.

— Yaxshi. Mening o'g'lim bor. O'n besh yoshda. Ikki yildan keyin kollejga kirishi kerak. Bu darajani — olmaguncha xuddi loyning o'zsisiz. U "san'at bakalavri" deb ataladi. U bo'lmasa, hech narsaga arzimaysiz. Ammo u — qobiliyatli bola. Daho emas. Oddiygina qobiliyatli o'smir. O'rtacha baholar olishi mumkin. Nyu-Yorkdagi kollejlarga kirish uchun o'rtacha baho zarurligini bilasiz. Endi hech kutilmaganda 87 ball bilan kiradigan qilib qo'yishibdi. Bu — o'g'lim uchun tobutda yotish bilan baravar. Umuman, hamma risoladagi yigitlar uchun... Hech kim aptekachi bo'lishni xohlamaydi. U farmakologiyaga joylashmoqchi, u yerda hozircha yaxshi to'lashadi.

Taksi Uchinchi avenyuga chiqdi, so'ng yana sharqqa burilib, yondosh ko'chaga o'tdi. Palmer ko'cha bo'ylab "folksvagen"ni qarab bordi, mashina ko'rinmas edi.

— Barcha illatlar, — shofyor hasratini davom ettirdi, — maktabga taqaladi. O'qitish saviyasi past. Ular bolalarga zarur bilimlarni berolmaydilar. Yo, xudo, telbasifat g'or odamlar, greklar, misrliklar va yana hech kimga keragi yo'q allakimlardan boshlaydilar. Bular bolalarga zarurmi — ayting-chi?!. Ulardan qanday naf bor? O'qitadigan kitoblarini aytmaysizmi? Bu kitoblar kimga kerak? She'riyat? Shekspir? Umringizda ko'rmagan, eshitmagan odamlar yozgan kitoblar. Siz ham ularni hech qachon

ko'rmagan bo'lsangiz kerak? Nahotki bu kitoblar bolalarga pul ishlashni o'rgata olsa?

Taksi Ikkinchi avenyuni kesib o'tib, daryo tomonga qarab ketdi.

— Iso hurmati, bulardan voz kechish kerak, — to'xtovsiz valdirar edi shofyor, — bolalar erkin nafas olsin. Jin ursin, ular maktabga nega borishlari kerak? Ota sifatida gapirayapman bolalarga yaxshi ma'lumot olish huquqi berilgan. Ular yana...

— Sekinroq haydang, — gapini bo'ldi Palmer. U Birinchi avenyu oxiridagi to'xtash joyida turgan "folksvagen"ni ko'rib qolgan edi. — Juda sekin. — U hamyonini chiqarib, yon daftarchasidan bir varaq yirtib oldi. Yonidagi o'n dollarliklarni — ular uchta edi, — qog'ozga yaxshilab o'rab, kichkina tuguncha yasadi.

— Endi "folk"ning oldiga haydang, — buyurdi u.

Ayol va qizcha mashinada o'tirishar edi. Qizcha kuchukchani tizzasida ushlagancha uxlab qolgandi. Ayol taksiga qaradi. Palmer eshikni ochganda u mashinasidan chiqdi.

— Mana bu narsani tushirib qoldiribsiz, — unga murojaat qildi Palmer.

— Menmi? Yo'q, yo'... E, bu "korvet"dagi yigit-ku.

— Menimcha, buni siz tushirib qoldirgansiz, — takrorladi u o'ralgan qog'ozni uzatib. Ayol uni oldi.

— Buni men tushirganga o'x...

Palmer eshikni yopdi. — Ketdik, haydovchi.

Shofyor motorni ishga soldi va yashil chiroq yongach, Birinchi avenyuga qarab haydadi. U shimolga burilgach, tezlikni kamaytirdi.

— Unga nima berdingiz?

— Meni ... hm, "Plaza"ga olib boring.

— Xo'p bo'ladi, — taksi g'arb tarafga burildi. — Shu yoqda turasizmi, shef?

— Yo'q.

— Biron narsa ichishni xohlaysizmi?

— Yo'q.

— Birov bilan uchrashmoqchimisiz?

— Yo'q. — Palmer negadir otelga yetguncha indamay keldi.

Shofyor ham gap kavlamadi. Haqini berar ekan:

— Bu yerda tunda taksi topish oson, — dedi Palmer.

Qirq yettinchi bob

Old tomoniga betondan soyabon o'rnatilgan uy qorong'i edi. Palmer shofyorga pul berib, ichkariga kirdi.

Qimir etmasdan birpas jim quloq soldi. Allaqaerda to'rda gaz isitgich ikki marta shirqilladi va uning ovozi kuchli bo'g'ib qo'yilgan parragi eshitar-eshitilmas vizillab aylana ketdi. Palmer egildi-da, tuflisi bog'ichini bo'shatdi. Yurgan holda oyoqlarini chiqarib, zinapoya tomonga paypoqda odimlab ketdi, xayolidan chiroqsiz chiqishga tavakkal qilayotganim chakki bo'lmadimikan, degan o'y o'tdi.

Mehmonxona eshigi yonidan o'tayotib, u bosiq qarsillashni eshitdi. U shartta o'girildi va qorong'ilik ichidan yovuzlarcha yonib turgan bir juft katta-katta qizil ko'zga tikilib qoldi. Yuragi ko'ksini teshgudek qattiq urdi. Xuddi tanasidan ayrilishga urinayotgandek, bo'yin va yelka terisi har tomonga qarab o'rmalay ketdi. Tag'in nimadir qarsilladi va bitta ko'z sinib, ikki qizil bo'lakka ajradi. Palmer yengil nafas oldi, vujudidagi keskinlik yo'qoldi. U ovozsiz kamin oldiga yurib bordi, paypaslab otashkurakni topdi va uni qo'rqitib yuborgan ikki bo'lak ko'mir cho'g'ini naridan-beri urib, maydalab tashladi. To'satdan Palmer to'xtadi-da, otashkurakni tashlab, kalta va yupqa bir tarashani qo'lga oldi. U tarashani ko'mir ustiga qo'ydi va cho'kkalab olib, uni puflay boshladi. Xuddi serajin bashara ishtiyok hissidan titraganday, ko'mirlar sarg'ish tusga kirdi. Tarasha charsilladi va bu tovush itning uzib-uzib past hurishiga o'xshab ketdi. Palmer ehtiyotkorlik bilan puflashda davom etdi.

Bir vaqt ohista pishqirganday ovoz chiqardi-da, tarasha yorqin sariq yog`du taratib olov oldi. Palmer tizzalarini yerdan uzdi-da, cho`nqayib o`tirgan ko`yi birdan ko`tarilgan alangaga tikildi. U shu alpozda anchagacha o`tirdi, so`ng o`rnidan turdi va kaminning iliq yog`dusida ohista yurib, hayhotday xonaning narigi to`ridagi barga qarab yo`l oldi.

Paypoqda bo`lganidan polning sovug`i yalang oyog`idan o`tib ketmoqda edi. Palmer katta chorqirra qadahga biroz viski quydi-da, olov oldiga qaytdi.

U olov qarshisiga kelib, yeyilib ketgan dub polga chordona qurib o`tirib oldi. Viski labi va tiliga xiyol sovuq botdi. Biroq tomog`iga yetganida ozroq kuydirdi. Oshqozonga tushganidan keyin esa olov yoqimli issiqlik taratganicha har tomonga chopa ketdi. U yana bir qultum yutdi va bu gal viski dastlabki qultum hissini berolmaganidan hafsalasi pir bo`ldi.

Endi tarasha lovullab yonar, undan oqib chiqqan mum har tomonga sachrar va mayda pufakchalar ohista vishillab, dudli alanga lop-lop qilar edi. Palmer alanganing bir kattalashib, bir kichiklashib turgan tillarini tomosha qilganicha tarashadan ko`zini olmasdi.

Ular yana takrorlanarmikan? — qiziqsindi u. Matematika nuqtai nazaridan ular takrorlanishi mumkinmikan? Vaqti kelib bu haqda Gaussdan so`rab ko`rish kerak. Agar, deb o`yladi u, Gauss umuman u bilan yana gaplashsagina so`ray oladi.

Viskidan ho`plaganicha va Gauss bilan tartibsiz hamda g`alati tarzda cho`zilib ketuvchi suhbatni qadam-baqadam ko`z oldiga keltirganicha tek o`tirardi u. Uning sirli g`oyalari jon bordek ko`rinardi. Tijorat nuqtai nazaridan oqilona tuyulmoqda edi. Agar hozir, ularning haqiqiy ko`rinishida, hech bo`lmaganda, ular butunlay shunday bo`lmagan taqdirda ham bisotida loaqal bir misqolcha ijtimoiy ong bo`lgan har qanday bankning burchi bunday g`oyalarni moliya bilan ta`minlash emasmi?

Gaussning hafsalasini qattiq pir qilganini u bilardi. Lekin u bundan ortig`idan umid bog`lashiga yo`l qo`ymagandi.

Palmer stakanni oxirigacha simirdi va alanganing notekis uchlariga ma`nosiz tikilib qoldi. Ha, juvon uni sehrlab qo`ygandi. Issiqqa ham qaramay, ko`zlari achishganiga ham qaramay, Palmer kiprik qoqmayotgandi.

U o`girildi va ulkan xonaga sinovchan razm soldi, uning to`rdagi burchaklari endi qorong`i tortgan va o`rtasigina o`chayotgan olovdan g`ira-shira yorishib turardi. Marhum aka va marhum otaning orqasiga o`tib yashirinish qo`rqqoqlikdan boshqa narsa emas, dedi u o`zicha. Ham qo`rqqoqlik, ham bolalarcha soddalik.

U kamin oldiga qaytdi va otashkurak bilan yirikroq cho`g`larni urib maydaladi. Yog`du tezgina o`chdi. Ko`mirlar qanday xira qizg`ish tusga kirib, so`ng birin-ketin o`chishini u bir lahza tomosha qilib turdi. U otashkurakni qo`ydi va o`sha quruq paypoqda xonadan yo`lakka chiqdi. U zinapoyani topdi va oyog`i bilan zinalarni bitta-bitta paypaslab, qo`li bilan panjaradan ushlab suyangancha qorong`ilikda asta yuqoriga ko`tarila boshladi.

U sekin harakat qilardi. Agar uzun zinapoyaning har yer-har yerida maydoncha bo`lganida, to`xtab nafasni rostlab olsa, so`ng yana ko`tarilaversa bo`lardi. Biroq ro`parasida, xuddi avvalgisiday, yana bir zinapoya turganidan u tez-tez to`xtashga majbur bo`lmoqda edi. Uning muvozanatini saqlovchi a`zolaridan nimadir ishdan chiqqan bo`lishi kerak. U gavdasining o`ng tomonga, panjara tarafga keskin og`ayotganini his qildi. Aftidan, tayanch nuqtani ko`rolmay, u o`zini to`g`ri tutolmayotgan edi.

Birozdan so`ng, o`n-o`n ikki odimlar tashlagach, u to`xtadi va qorong`ida ko`zlarini yumib turdi — o`ng qo`li bilan panjarani mahkam qisib, o`zini tutib turish uchun oyoqlarini keng yoyib olgandi.

Qo`li panjarani badtarroq qisdi. U kafti terlaganligini his etdi. Ohista chap qo`lini oldinga oldi-da, u qo`li bilan ham panjarani mahkam ushladi. Shu harakat uning muvozanatini buzdi. Manglayiga ter chiqdi. Uning miyasi shiddat bilan ishlar, fikrlari oldinga va orqaga otilar, o`tmish manzaralari lip-lip qilar edi: "Men umrim bino bo`lib bir to`xtamga kelgan narsam — bu binoni tashlab, Nyu-Yorkka kelishga azmu qaror qilganim bo`ldi". Endi bundoq o`ylab qaragam, hatto shu azmu qarorim ham qandaydir boshqa odamga qarshi qaratilgan ekan. U odam ham xuddi shundayin bankdagi stolida tirik o`tirganidek, Roz-xil qabristonidagi o`z xilxonasida abadiy uyquda yotibdi.

Palmer chayqalib ketdi. Eng avval nima qilish kerakligini u bilardi — bemaolol, aqlni peshlab yana barqaror holatiga qaytishi, qaddini rostlashi, kuchini to'plashi va ko'tarilishda davom etishi kerak.

Limmo-lim bir vannadan sutday, to'sattan oppoq, tip-tiniq nur tepadan uning boshi uzra to'kildi.

— Vudsmisan?

Yorug'likdan u o'ziga keldi, boshi aylanishdan to'xtadi. U qaddini rostladi va ikkala qo'lini panjaradan oldi.

— Mazang bo'lmayaptimi?

— Sal ko'proq olvoribman, shekilli, — dedi u xayoliga kelgan dastlabki o'yga mahkam yopishib; shu zahoti o'zini mehribon xotining ixtiyoriga topshirib qo'yayotganini ham angladi.

— Gapingni anglamayapman. Bo'пти, bu yoqqa chiq.

Egniga ko'k-yashil shotlandcha xalat kiyib olgan Edis unga qarab turardi. Uning sochlari mayda sariq gajak qilib burab tashlangandi. Yuzi bo'rday oppoq va ma'nosiz, ko'zlaridagi surma yuvilib ketgan, lablari pushti edi. Yanoqlari tagida zaif yashilga moyil soya ko'zga tashlanardi.

— Seni uyg'otib yuborganim uchun uzr.

— Uyg'otmading. Kitob o'qib yotgandim. Kelib, kamin oldida nimalar bilandir mashg'ul bo'lganingni eshitib turgandim. Uydaligingni bilganimdan keyin uxlab qoldim.

— Kutishning keragi yo'q edi. Qanchagacha hayallab qolishimni bilmayman degandim-ku.

— Ha. — Xotining qo'li chiroq o'chirgichdan pastga tushdi. — Bu shaharlarda... — U qo'li bilan noaniq, tushunib bo'lmaydigan harakat qildi, — nima bo'lishi mumkinligini hech qachon bilmayman. Yarim tunda senga nima bo'lishini ham hech qachon bilmayman.

— Qo'yaver. Men taksida yuraman.

— Keyin, — dedi juvon gapida davom etib, — uxlab qolib, darrov uyg'onib ketdim, chunki sen bo'kiribmi yo ingrabmi yubording. Bu ham juda qo'rqinchli ovoz edi, Vuds. Bilmadim, ammo shunday eshitildiki... — Ayol boshini chayqadi.

Qirq sakkizinchi bob

Bruklinida qattiq sovuq hukm surardi. Ist-River uzra tungi yanvar shamoli esar, daryoda muz bo'laklari suzardi. Xeyts tumanida mayda, ammo serhasham ko'pxonadonli uylar orasida va Borou Xoll atrofidagi ochiq joylarda shamol uvlardi. Tungi soat o'nlarga yaqin hatto ishchan odamlar yashaydigan mahallalarni ham sukunat chulg'agandi, ahyon-ahyonda bu sukunatni bitta-yarimta mashina ovozigina buzardi. Olisdagi Bruklin ko'prigi panjaralarini hisobga olmaganda, o'yladi Palmer, ushbu tumanni har qanday mo'jaz shaharchaning ishchan qismiga yo'yish mumkin edi. Shiddatli shamol ko'chalarni ana shu tariqa shibbalab tashlagandi.

Palmerning asli bruklinlik bo'lgan haydovchisi mashinani mohirlik bilan bir qancha tor ko'chalardan olib o'tdi-da, agar granit devoriga o'yib ishlangan emblemalariga qarab hukm chiqarilsa, bir vaqtlar mason ibodatxonasi bo'lgan muhtasham eski bino oldida to'xtatdi. Endi ibodatxonaligi ham qolmagan, deb o'yladi Palmer mashinadan chiqarkan, chunki bugungi yig'ilishni shu yerda o'tkazishga kelishilgan edi.

U izg'irinli shamolda birpas to'xtab turdi va shoshilmay atrofga nazar soldi. Bu uning Bruklin bilan birinchi marta to'qnashuvi edi. Eski shahar, o'yladi u. U bir vaqtlar tarovatli bo'lgan Manxettendan ancha ko'hna roq ko'rinmoqda edi.

— Jimmi, endi yarim tungacha siz menga kerak bo'lmaysiz, — murojaat qildi u haydovchisiga. — Issiqroq bir joy topib, isinib olsangiz bo'larmidi.

— Bu paytda bu yerda hamma narsa yopiq bo'ladi, mister Palmer.

— Unda mashinani qulflang-da, men bilan yuring.

Ular endor tosh zinadan ko'tarilishdi. Haydovchi zalvorli o'ymakorli eshikni itarib ochdi. Yong'oq yog'ochidan oro berilgan vestibulda hech zog' yo'q edi. Palmer quloq solib, kulgi ovozini eshitdi. U

ovoz kelgan tomonga yurdi va yo'lakdan o'tib, dastasiga o'ymakori naqsh solingan ikki tavaqali yong'oq yog'ochdan qilingan ulkan eshik oldida to'xtadi. Qo'ng'iroq tugmachasini bosib, u eshikni qiya ochdi va sariq ko'zga duch keldi. Xona to'ridagilar hamon kulishda davom etishardi.

— Vudi! — Berns eshikni lang ochib yubordi va uning har ikkala ko'ziga shirakayf yuzi namoyon bo'ldi. — Chiroqqinam, kech qolding-ku.

— Haydovchim qaerda kutib tura oladi?

— Pastda, tanobiyda, — javob berdi Berns, qo'li bilan ko'rsatib. — O'ngga qarab, birinchi zinapoya.

— Keyinroq ko'rishamiz, mister Palmer, — dedi Jimmi.

— Kira qol, Vudi, qo'zichog'im. — Berns Palmerni xonaga boshlab kirdi va eshikni yopdi. Kulgi uzildi.

Palmer xona ichiga ko'z yugurtirdi. Xonaning deyarli butunlay uzunasi bo'ylab stol turardi. Oq dasturxonda ovqat sarqitlari. Stol tevaragida kechki kiyimdagi bir guruh kishilar o'tirardi.

Berns Palmerni stol atrofidan yetaklab olib o'tarkan, elliktacha mehmon bilan bittama-bitta tanishtirib chiqdi. Ular yana aylanishni boshlagan joyga kelib turib qolishdi. Palmer birontasining ham ismini eslab qololmadi. Ular odatdagiday, uchdan bir qism irland, uchdan bir qism italyan, uchdan bir qism yahudiy edilar. U Berns bilan yonma-yon o'tirganida ovqat sarqitlarini yig'ishtirib olgani ofitsiantlar kelishdi. Ikki ofitsiant ko'chma barni g'ildiratganicha likyorlar, brendilar, viskilar va qahvalar ulashdi.

— Ikkita qirollik qahvasidan, — buyurtma berdi Berns.

Palmer ofitsiantlardan birining ikkita idishga yarimlatib qahva quyganini, uning sherigi esa ularning har ikkoviga ham brendi bilan limmo-lim qilib to'lg'azganini, so'ng ularni o'zi va Berns oldiga qo'yishganini kuzatib turardi.

— Menga kerak emas, — dedi Palmer bosiq ovozda. Stol tevaragida suhbat qayta jonlangandi. — Ozigina muzli viski kifoya.

Stolning narigi tomon o'rtasida semiz yuz egalaridan biri o'rnidan turdi-da, qoshiqcha bilan stakanni asta urib qo'ydi.

— Jentlmenlar, — dedi u, — bizning kichikkina ziyofat ishtirokchilarimiz nomidan sizlar hozirgina tanishganimiz mister Palmerni xush kelibsiz demoqchiman. Uning ziyofatimizda ishtirok etolmaganidan juda afsusdamiz, ammo ayb Buffalodan kech uchib kelgan samolyotda. Men taomilga rioya qilishingizni iltimos qilaman, shuning uchun ortiqcha takalluflarsiz unga so'z berishimga izn bergaysiz. Vuds Palmer, "Yunayted bank end trast kompani".

U to'rnidan turib, ta'zim qilib, jilmayishga harakat qilar ekan, uni jiddiy chapaklar bilan olqishlab turishdi. Avvaliga notanish odamlarga qarab jilmayish oson bo'lmadi, biroq sal o'tmay u bunga ko'nikib ketdi.

— Jentlmenlar, — dedi u, — darhaqiqat, mana shunday ajoyib ziyofatni boy berganimdan nechog'li afsusda ekanimni aytsam, zarracha yolg'on gapirmagan bo'lar edim. Bunday deyotganimning sababi shundaki, bu vaqtni sizlar bilan yaqindan tanishishga sarflaganimda nur ustiga nur bo'lar edi, albatta, samolyotlardagi ziyofatlardan ko'ra bunday ziyofatlarni afzal ko'rayotganidan shunday deyapti deb o'ylamasliklaringizni so'rardim.

U kulib bo'lishlarini kutib turdi-da, so'ng Berns bir necha kun oldin unga so'zlab bergan bir uzun qiziq hazil voqeani hikoya qila ketdi. Garchi o'zi buni hech qanday kulgili deb o'ylamasa-da, Buffalodagi hamsuhbatlari kulaverib ichaklari uzilayozgan edi.

— Bilasizlar, — davom etdi u, — biz bankirlarda hojatxona qog'ozi haqidagi bir latifa bor. Agar biz birdaniga uning navini jamoat hojatxonalari naviga almashtirgiz kelib qolsa, biz buning uchun Olbanidanmi... yo Vashingtondanmi olishimiz kerak bo'ladi. Banklarni boshqarish ana shunaqa markazlashtirib tashlangan.

Palmer o'z tinglovchilariga tinchlanib olish va o'tirib reklamalarni ko'rishga tomoshabinlarni majbur qilganlaridek xushchaqchaqlik haqini to'latib qo'yish uchun imkoniyat berdi.

— Jentlmenlar, ish pulga kelib taqalganda, juda ehtiyot bo'lib harakat qilishga odam o'rganib

qoladi. Xatoni tuzatish g'oyat qimmatga tushadi. Menimcha, bunday oqilona ehtiyotkorlik omonat banklari muammosini hal qilishda bizning qarorimizda qo'llanmog'i shart. — Palmer jim bo'lib qoldi. — Xo'sh, endi kimda savollar bor?

Stolning to'rida o'tirgan ozg'in yuzli kishi qo'lini ko'tardi va Palmer uning ismini bilib olguncha gapini boshlab yubordi.

— Mister Palmer, — dedi u baland, xirildoq ovozda. — Donolik va ehtiyotkorlik — yaxshi narsa. Ammo bo'limlardagi mana bu bill, yoki oti nimaydi, o'sha Olbanida mana besh yo olti yildan beri muhokama qilib kelinyapti. Bizlar haddan tashqari farosatli va ehtiyotkor bo'lib qolmadikmikan, nima deysiz?

Tinglovchilar kulib yuborishdi. Ularni kuldirgan tagdor savol emas, angladi Palmer, balki savolning unga qarshi qaratilgani edi.

— Agar siz iqtisodiyotimizni barbod etishni maqsad qilib qo'ygan va bilib turib uni yerga kirgizib yuborishga qasd qilgan bo'lsangiz, buning uchun sizga yillar kerak bo'ladi. Ammo hammasi birdaniga, bir tundayoq qulab tushishi mumkin. Biz siz bilan turkumlar, jadvallar bilan fikrlashga o'rganib qolganmiz, bunda egri chiziqlar goh yuqoriga, goh pastga egilib chiqib-tushib turadi. Lekin aslida hamma narsa unday sodir bo'lmayotgan bo'ladi. Iqtisodiyotning mustahkamligi ayolning himmatiga o'xshaydi. U ko'p yillar davomida mukammalday bo'lib ko'rinishi mumkin. To'satdan birgina so'z uning boshiga yetadi.

Sukunat cho'kdi. Ularning hushini joyiga keltirib qo'yganini Palmer tushundi. U tafsilotlarga bu qadar chuqur berilmoqchi emas edi, ammo endi ko'rdiki, to'g'ri qilibdi. U hatto baridan ham batafsilroq qilib tushuntirishi mumkinligini o'yladi. Ularning yuzlaridagi o'ychan, bir qadar xo'mraygan ifoda, agar ularga o'zining aynan mana shunday toifaga mansubligini aytgudek bo'lsa, ishonchsiz ifodaga osongina aylanar edi.

— Bu bilan siz bizga, — dedi hozir bo'lganlardan biri savol tariqasida, — iqtisodiyotda tejamkorlikka o'rin yo'q, deb aytmoqchimisiz?

— Yo'q, ser, mutlaqo unday emas. — Palmer chuqur uh tortdi. — Bordi-yu, sizlarga shunday ma'lumotlar kelgudek bo'lsa, ular xalqdan chiqqan bo'ladi, mendan emas. Statistikaning bir tekshirib ko'ring-a. Ish haqining har yili oshib borishiga qaramay, jamg'armalarning o'rtacha darajasi hozir 15 yil oldingisidan ko'p emas. Aslida u hatto qisqara boshlagan.

— Bular hammasi to'g'ri. Lekin ish haqi bilan barobarida hayot qiymati o'sayapti-ku, — yon bermasdi savol beruvchi.

— To'g'ri, — unga qo'shildi Palmer, — oylikka yashovchi o'rtacha odamni aynan mana shu narsa gangitib qo'ygan. U erta-indin emas, aynan nima uchun bugun pul sarflashi sabablaridan bittasi shudir. Bu odam bugun saqlab qo'yilgan dollari besh yildan keyin, masalan, mashina sotib olish uchun yetarli pul jamg'arganida oldingi xarid qobiliyatini yo'qotgan bo'ladi.

To'satdan oraga cho'mgan sukunat Palmerga ularning ko'ngliga yana bir bor g'ulg'ula solganidan darak berdi. Endi gapning po'stkallasi, deb o'yladi u, ayni holda biron chora ko'rishda o'zlarini nochor sezmasliklari uchun ularni tushkunlikka tushirmaslik kerak.

— Nazarimda, — tilga kirdi Palmerdan bir nechta stul narida o'tirgan jikkakkina ozg'in kishi, — siz maoshga yashovchi o'rtacha odamning sog'lom fikriga baribir umidizlik bilan qarayapsiz. Bilasiz, agar unga yomon muomalada bo'lishsa, u xaridorlarni isyonga boshlaydi. U shu qadar kaltafahm bo'lmasa kerak.

— To'g'ri, — javob berdi Palmer. — U kaltafahm emas. Ammo bundoq chuqurroq o'ylab ko'rilsa, xaridorlar isyoni nima degani? Bu xarid qilishdan keskin bosh tortish degani. Iste'molchi aytadi: "To narxlar pastlashmaguncha sabr qilaman". Bu orada... Nima bo'ladi? Balki u mollarsiz ishini o'nglab olar? Har doimgiday uning ro'parasida uchta muammo ko'ndalang turadi — ovqat, boshpana va kiyim-kechak. Iste'molchi uzluksiz isyon ko'tarolmaydi-ku, to'g'rimi? U aqlli odam, avvalo u qanday kayfiyatda bo'lmasin, uning oldida shundan boshqa yo'l yo'q.

Yangi savollar kutib, Palmer tek turardi. U tinglovchilar kayfiyatida qandaydir o'zgarishni his qildi,

ammo bu nimani anglatishi hozircha unga ma'lum emasdi. Nutqning avvalida ular ancha do'stona kayfiyatda edilar. Nutqini tugatganida esa hammalari pinhoniyl shubhaparastga aylangan edilar. Keyin hujumga o'tish harakati boshlandi. Endi ular aftidan, to kayfiyatlari aniqlanmaguncha kutib turishga ahd qilgan edilar. Birlarining yuzida hech qanday ifoda yo'q, o'y-fikrlari allaqayoqlarda kezib yurardi. Palmer keyingi savol nima bo'lganini aniqlab olishga yordam berar, deb umid qildi.

— Mister Palmer! — Semiz ham, oriql ham emas oppoql sochl Makarturchasiga olingan mittigina kishi o'tirgan joyida betoqlat tipirchilardi. — Sizningcha, sanoat sohalariga xizmat qiluvchi mana bu, deylik, litsenziyalar bo'yicha amal qilayotgan korxonalarining bevosita kelajagi qanday?

Palmer bosh irg'ab qo'ydi va yaxshi kayfiyat tabassumini saqlab qolishga harakat qildi. U ular kayfiyatidagi o'zgarishni angladi. Endi ularning qiziqishi yaqqolroql ko'rina boshlagandi, mavhum emasdi. Bo'lajak bizneschilar sifatida ular muayyan ishchan imkoniyatlardan manfaatdor edilar.

Palmer bu imkoniyatlarni qisqacha tasvirlab berdi va yana bir qancha mana shunday savollardan keyin yig'ilish raisi o'rnidan turdi va unga tashakkur aytdi. — Garchand omonat banklari haqidagi maqlola biz uchun ham unchalik ravshan bo'lmasa-da, baribir ma'ruzangiz g'oyatda maroqli bo'ldi desam, ko'pchilikning fikrini ifoda qilgan bo'lur edi. Mening tushunishimcha, siz o'z bankingizda oldi-qochdi suhbatlardan ko'ra ko'proql ma'lum muhokamalar olib borish tarafdorisiz.

Palmer ta'zim qilib qo'ydi.

Berns og'ir xo'rsindi:

— Vudi, qoqvosh. Men senga bankir rolini qanday o'ynashni o'rgatmayman. Sen menga siyosatdon rolini qanday o'ynashni o'rgatma. Bu nusxalarni o'z tomonimga og'dirib oldim deb o'ylayapsanmi?

— Bilmadim. Lekin men ularni o'ylashga majbur qildim.

— Biznes haqida, ammo siyosat haqida emas. — Berns sigareta tutatdi. Qop-qorong'i mashinada chaqmoqtosh alangasi uning ko'zlarida mayda sariql uchqunlar bo'lib aks etdi. — Biznes — bu mantiql va sen juda mantiqli nutql qilding. Siyosat — bu majburiyat, u har doim ham mantiqqa asoslanavermaydi. Bordi-yu, bu shunday bo'lganida edi, bordi-yu, nomzodlar va saylovchilar mantiql qoidalariga rioya qilganlarida edi, har qanday saylovning natijasi oldindan ma'lum bo'lar edi.

— Gap mana bu siyosiy arboblarning ijtimoiyl mavqei haqida ketmayotibdi, Mak. Bu ularning biznesi, boyishning xususiy biznesi.

— Sen yangisan, — javob berdi Berns, — va har qanday yangi kabi butun uyinni miridan-sirigacha tushunaman deb o'zingga ishonasan. Siyosatda men o'ql yegan chumchuqlman, azizim, ammo men ham barcha qoidalarni bilmayman.

— Unda qanday ish olib borayapsan?

— Bugungi oqshomni olaylik, — tushuntirdi Berns. — Juda ma'ql misol. Sen u yerda nima gapirgan bo'lma, ular senga nima gapirishgan bo'lmasin, sen hammaning oldiga poql solayotganing hidini burnim sezib turgandi...

Mashina Qirql ikkinchi ko'cha yonidagi shohrohdan burildi va bor tezligi bilan birinchi avenyu bo'ylab Bernsning uyi tomon uchib ketdi. Chap tomonda BMT binosi lip etib ko'rindi-yu g'oyib bo'ldi.

— Sen goho o'zingni o'zing aldayotganday tuyulib ketadi menga, — davom etdi Palmer ko'chaga qaragancha. — Besh daqiqa burun siyosat har doim ham mantiqli bo'lavermaydi, degan eding. Menimcha, sen o'zing ham uncha mantiqli emassan.

Berns yelka qisdi:

— Ayb bizda.

Palmer ular allaqachon Elliginchi ko'cha atrofida ekanliklarini ko'rdi. Hozir ular o'ngga buriladilar-da, Berns turadigan o'n sakkiz qavatli bino oldida to'xtashadi.

Darbon mashina eshigini ochdi va dastakdan ushlab, Berns tomon cho'zildi.

— Salom, mister Berns, ser.

Berns mashinadan tushdi-da, bir daqiqa darvoza oldida turdi.

— U esimga tushdi. Nasroniy Barni Baruk emasmidi?

— Sof oriycha protestant nasl, — javob berdi Palmer.

— Ha-a? — Berns hamon o'ygga cho'mib tik turardi. — Ha-a. — takrorladi u.

Ular bir-birlariga ko'zlarini tikishdi. Shunda Palmer o'zi kutganidan ham ortiq darajada Bernsga nisbatan haq ekanini angladi. Bu odam jahli chiqqanda mantiq-pantiqni bir chetga uloqtirib yuborishdan ham, o'z manfaatiga qarshi ish tutishdan ham toymaydi. — ibodatxonani o'z boshiga ag'darib yuborgan Samsonning o'zi deyvering.

— Yaxshi yotib tur, o'rtoqjon, — dedi Berns.

Labining bir chetini qiyshaytirib, u miyig'ida kulib qo'ydi.

— Yaxshi yotib tur, Mak.

— Og'irroq bo'l, bo'tam.

— Sen ham.

Darbon mashina eshigini yopdi. Haydovchi tormozni qo'yib yubordi va mashina guldiragancha tun qo'ynida yelib ketdi.

Qirq to'qqizinchi bob

Ertalab soat o'nlarda Palmer o'z xonasi tomon ketib borardi. Siynalari lo'mbozday kotiba telefonda gaplashardi. U kotibaning: "Ketdingmi? Yaxshi," — deganini eshitdi va kotiba go'shakni ildi.

— E-ha, mister Palmer!

Palmer odimlarini sekinlatdi.

— Xo'sh?

— Mister Berkxardt liftida o'z xonasiga ko'tarilayapti.

— Rahmat.

Palmer xonasiga kirdi, stolga o'tirdi va shu shanbada Utikda irod etishi kerak bo'lgan nutqini tahrir qilishda davom etdi. Virjiniya uning o'tgan kungi Bruklinda qilgan nutqidan namuna olib, qoralama qilib qo'ygandi. Bir necha kundan beri ertalablari Berns bilan suhbatini haqida afsuslanib mulohaza yuritar ekan, Palmer uning agar to'liq bo'lmasa-da, ellik foizdan ko'proq haq ekanini anglagandi. Uning nutqi, albatta, takabburlikdan xoli edi, ammo u o'ta mayin, o'ta sipolik bilan va tinglovchilarga nisbatan tirnoqcha takallufsiz gapirgandi. Mana, endi u qalamda nutqning avvalidayoq iltifotli so'zlarni yozib qo'yimoqda edi: "Qattiq band bo'lishingizga qaramay men uchun vaqtingizni ayamaganingiz va meni sizlarga murojaat etish sharafiga muyassar etganingiz uchun barchangizdan minnatdorman..." — shu top uning xonasiga yirik-yirik odimlar bilan Berkxardt kirib keldi va eshikni gursillatib yopdi.

Palmer ko'zini ko'tardi. Ichida o'zi bilan o'zi kurashgandek boss eshik oldida bir zum turib qoldi — yo darg'azab edi, yo shunchaki havo yetishmayotgandi. Uning doimiy qizil yuzi yanada qizarib ketgandi, shuning uchun naridan-beri jilmayganda ko'rinib ketadigan tishlari hayratomuz darajada oppoq va sun'iy bo'lib ko'zga tashlanardi.

— Salom, Leyn, — dedi Palmer o'rnidan turarkan.

Berkxardt nimadir deb ming'irlab qo'ydi-da, o'tiraver degandek qo'l silkidi.

— Bu bosh o'lgur sira tashvishlardan chiqmadi-chiqmadi, — bidirladi u.

Palmer qo'li bilan ro'paradagi o'rindiqni ko'rsatdi va uning qanday o'tirishini kuzatib turdi.

— Qanaqa tashvishlar?

— Tonggi ro'znomani ko'rdingmi? Olbanidan xabar bosilgan.

— "Tayms" va "Trib"ni o'qidim, ularda aydarlik hech gap yo'q edi.

— Sen "Byulleten"ni o'qi avval, bolam, — dedi Berkxardt past xirildoq ovozda. U paltosi tugmalarini yechdi va ichki cho'ntagini uzoq kavlashtirib, oxiri undan necha marta buklab tashlangan tuturuqsiz ro'znomalardan birini chiqardi. Palmer Berkxardtning atrofida gilardan "Byulleten" xabarlarini o'qishini va umuman ularga qiziqishini yashirishga harakat qilishini angladi. — To'rtinchi betda, — dedi boss ro'znomani stolga shaloplatib tashlarkan.

— Deyarli hech qachon. Xo'sh, o'qishim kerakmi?

— Har doim, har kuni siyosiy bo'lim berib boriladi. — Endi Berkxardt xiyol bemalol nafas olardi. — Sen yangisan, Vudi, shuning uchun o'zingni oqlash imkoniyatiga egasan. Ammo sen shuni bilishing kerakki, "Byulleten" har doim maxfiy axborotni boshqa ro'znomalardan bir kun oldin beradi. Shu esingda bo'lsin.

Palmer bosh irg'adi va Berkxardt ko'rsatgan maqolani o'qiy boshladi.

Berkxardt o'rnidan turdi, paltosini stulga tashladi va deraza oldiga bordi.

— Qandaydir ig'vo ketayapti, — g'udrandi u. — Bunday maqola behuda yuzaga kelmagan va uni kimdir ataylab yozgan. Bernsni ishga sol. Buning zamirida nima yotganini aniqlasin.

Palmer telefonga uzandi.

— Menga Mak Bernsni topib bering, — dedi u va go'shakni oldi. So'ng Berkxardtga yuzlandi: — YuBTK aksiyalari kecha naq bir band ko'tarildi.

— Bu hech nima emas.

— Dou-Jonsning o'rtacha sanoat indeksi uch banddan ham pastroq tushib ketdi. Lekin odatdagi YuBTKga o'xshagan ancha faol bank aksiyalari ko'tarildi.

— Mutlaqo ahamiyati yo'q buning.

— Jet-Tex bilan qo'shma yig'ilishimizdan so'ng Lumis haqida biron narsa eshitdingizmi? — so'radi Palmer.

— Yo'q. Eshitishim kerakmidi?

— Men zayomlar haqida u yangi, ancha oqilona talab qo'yadi deb xayol qilgandim.

— U talab qo'ymadi. Men ham undan bu narsani kutmagandim.

— Men kutgan bo'lardim, — dedi Palmer, — bashartiki, u sizni burchakka qisib qo'ya olmaganini his qilganida, albatta. Biroq modomiki talab bo'lmagan ekan, men faqat tusmol qilishim mumkin ediki... — Telefon jiringladi, — nazorat paketini u qariyb cho'ntagimda deb hisoblayapti.

— Go'shakni ol.

— Allo.

— Vuds, azizim. Wie geht's¹ ?

— Bugun tonggi "Byulleten"dagi maqola.

— Ha-a? — Bugun Bernsning ovozi haddan tashqari xotirjam va dadil jaranglayotgandi.

— Bunga qanday baho berasan?

— Menmi? Senga nima ham derdim, bo'tam? Duch kelgan go'ngni titaverishim kerakmi? Mening shunday qilishimni istaysanmi sen?

Simning narigi uchida jimlik cho'kdi. So'ng:

— Sen menga bir gap aytmoqchimisan, Vudi? — so'radi Berns ifodasiz ohangda.

— Bu yerda nimagadir ishora qilinayotgandek tuyulmayaptimi senga?

— So'nggi oqshomda o'zingdan olgan narsalar, vassalom. Agar sening menga aytadigan gaping bo'lsa, nega shartta oldimga kelib, aytib qo'ya qolmaysan?

Palmer kuldi:

— Yaxshisi men buni senga siyosatdon sifatida in'om qilaman. Mak, sen haddan tashqari sezgir bo'lib ketayapsan. Hech qanaqa ishora-pishora yo'q.

— Tushki tanaffusda nima qilasan, Vudi?

— Bugun ko'rishuvimiz bor.

Palmer o'ylanib qoldi. Uchrashmoqchi bo'lsa, Bernsning har doim ikkala oyog'ini bir etikka tiqib oladigan odati bor edi, ammo hech qachon bugungiday bo'lmagandi.

— Soat sakkizlarda senga qaerga qo'ng'iroq qilay? — so'radi Palmer.

— Uyga. Ammo to'qqizda men Olbaniga ketaman.

— Yaxshi, — javob berdi Palmer, — men senga qo'ng'iroq qilib, qaerda uchrashajagimizni aytaman.

— Jinnimni chiqarib yubording, — dedi Berns zo'raki hayajonli kesatq bilan. — Bo'пти, bo'taginam,

— qo'shib qo'ydi u suhbatga xotima yasab.

— Ko'rishguncha. — Palmer go'shakni ildi va Berkxardtga aftini qiyshaytirib qo'ydi.

Xafaqon bir tarzda Berkxardt asta o'rnidan turdi. Uning harakatlari qandaydir sustlashganday edi. Har doim yerga ursa osmonga sapchiydigan odam o'z yoshiga muvofiq holda birdaniga quvvatidan ayrilgandi. To'g'ri, bu ko'p haftadan beri to'planib qolgan zo'riqishlar natijasimi yoki "Byulleten"dagi maqoladan bevosita paydo bo'lgan hayajonmi, buni Palmer ayta olmasdi.

— Kelasi haftada bank qo'mitasi qonun loyihasi muhokamaga qo'yilishini xabar qilganida men Olbaniga o'tlanmoqchiman, — dedi Palmer va bu bilan kekxa miqqiyni xotirjam qilaman deb o'yladi. — Avval Utikda bo'laman, keyin Rochesterda, Olbaniga esa ehtimol payshanbada qaytarman .

Berkxardt bosh irg'adi: — Ulardan sira ortda qolishni istamasdim, — dedi u past ovozda, go'yo birov eshitib qolishidan qo'rqqanday. — Bultur ishlarim besh bo'lgandi. Ko'p kuchimni olgandi-yu zoe ketmagandi. Bu yil esa... — U eshikka tomon burildi, so'ngra yana Palmerga o'girildi va uning ko'ziga tikildi. — Shuning uchun ham bu yil seni olgandim, o'g'lim. — Buni u yana Berkxardtga aylanib, keskin ohangda aytdi. — Bunga panja orasidan qarab bo'lmaydi. Agar men chol o'tgan yili ularni to'xtatib qololgan ekanman, sen bu haromilarning jonini sug'urib olishingni kutsam bo'ladi, bordi-yu, sen bunday qilmasang, do'stim, YuBTK bilan xayr-ma'zurni nasiya qilaversang bo'ladi. — Berkxardt asta ko'tarildi, Palmer ham, lekin u oralaridagi farqni boss ko'rib qo'yishi uchun oyoqlari qanchalik baquvvat ekanini namoyish qilganicha ataylab azod o'rnidan turdi.

Berkxardtning istehzoli jilmayishi ko'ngildagidek chiqmadi.

— Qayoqqa lozim bo'lsa, o'sha yoqqa burilaver, o'g'lim. — U yelkalarini rostladi, eshikni ochdi va chiqib ketdi.

Palmer eshik oldida uzoq turib qoldi, cholning sharti ketib, parti qolganini qo'shib hisoblaganda, bular bari Berkxardtning uyini emasmikan — shuni bilolmay boshi qotdi. Birozdan so'ng u Berkxardtning qo'lidani hamma narsa keladi degan xulosa yasadi.

Stoliga qaytib kelib u ichki telefondan Virjiniyaga qo'ng'iroq qildi.

— Reklama bo'limi. Miss Kleri o'sha yerdami?

— Bir daqiqa, marhamat, mister Palmer, — javob berdi qiz, qo'shni stolda o'tirgan Virjiniya eshitsin deya ataylab yigitning ismiga urg'u berib.

— Xo'sh, mister Palmer. — Virjiniya telefon oldiga keldi.

— Bir daqiqadan keyin oldimga kiring.

Juvon uning kabinetiga kirib kelganida Palmer uning egnidagi ko'ylak yangi ekanini, nima bo'lganida ham avval uni ko'rmaganini payqadi. Palmer qo'li bilan eshikni yoping ishorasini qildi va juvon burilganida yumshoq ko'ylagi ostidan siynalari qanday do'mpayib ko'rinishini kuzatdi.

— ...Agar bugun bo'sh bo'lganingizda, hammasini ko'rsatgan bo'lardingiz.

— Qaerda?

— Bilmadim. Men Bernsga soat sakkizda qo'ng'iroq qilishim kerak. U men bilan bir-ikki daqiqaga ko'rishmoqchi edi.

— O'zining uyidami?

— Ha. Afsuski, u Olbaniga soat to'qqizda ketayapti.

— Bu dahshat, — dedi juvon.

Chiqib ketar ekan, juvon eshikni avaylabgina yopdi. Yigit aylanma o'rindig'ida ohista burildi va yopiq eshikdan ko'zini oldi.

Oqshom haqida o'ylar ekan, u allaqachon o'zini Bernsning kvartirasida Virjiniya bilan ko'rib turardi. Manzara qism-qism bo'lib, kimsasiz eshikda yomon o'rnatilgan filmday uning ko'z o'ngida lip-lip qilar edi. U ko'zlarini qisib, g'iltakni almashtirishga harakat qildi. Agar tong bunday manzarani taqdim etsa, sermahsul tinch kundan umid qilmasa ham bo'ladi.

Oxiri uyga kech qaytishi haqida Edis uchun biron sabab o'ylay boshlagandagina xotiralariga chek qo'yishning uddasidan chiqqa oldi.

Elliginchi bob

Palmer Bernsnikiga kechki 8.15 dan keyin keldi. Kelsa, u hozirgina soqolini qirtishlagan va kiyinib olgan ekan, dahlizdagi stolchada ikki kostyumlik jomadon ochiq turibdi. — Biron narsa ichamizmi, Vuds? — Palmerni murojaat qildi Berns, uning ortidan mehmonxona bo'lmaga borar ekan. — Mashina yana 15 daqiqadan keyin keladi. Men Vestchestr aerodromiga 9.30 ga borib turishim kerak.

— O'shanaqasi Olbaniga uchib ketasanmi?

— Bu eng mayda aviayo'llaridan biri, — tushuntirdi Berns yotoq bo'lmaga kira turib. — Lekin menga baribir. Yangi turbovintillarga qaraganda mayda samolyotlar ancha xavfsiz.

— Ehtimol. — Palmer viskini qattiq-qattiq chayqadi. — Sen ham ichasanmi? — qichqirdi u yotoq bo'lmasiga tomon.

— Jinni bo'lgunimcha, — javob berdi Berns. — Yo'lga naq bir shishasini.

Palmer unga achchiq ichimlik tayyorladi va stakanni bar peshtaxtasiga qo'ydi.

— Meni nega ko'rging kelib qoldi, Mak?

— Gaplashadigan vaqtimiz kelgan deb o'ylaysanmi? — so'radi Berns, xonaga qaytarkan. U bir dasta qog'oz ko'tarib kelib, uni dahlizdagi stolchaga qo'ydi. — Do'stona suhbat.

— Qachon desang tayyorman, o'rtoqjon.

— Menga xuddi shunisi kerak. — Berns qaytib keldi, stakanini qo'lga oldi va taxtaga o'tirdi.

— Sog' bo'!

— Sog' bo'!

Ular ichishdi-da, sukutga cho'mishdi. Palmer pastda Ist River shohrohida mashinalarning guvillashiga quloq solib turishardi. U o'girildi-da, Kuinsboro ko'prigiga qaragan derazadan ko'z soldi. Iliq gaz tumani orasidan ko'prik jimirlab ko'rinardi.

— Biz "Byulleten" muxbirlaridan surishtirib ko'rdik, — dedi u oxiri.

— Jimmidanmi? — Bernsning ovozida tashvishdan asar yo'q edi. — Kalavanning uchi topilgandir?

— Topildi. — Palmer ohista xo'rsinib, o'girildi va Bernsning ro'parasidan o'tirdi. — Manba nomini topdik.

— Jimmi uni senga berdimi? — Bernsning ko'zi ajablangandek xotirjam qarardi. — Ha, bildim. U Jinni Kleriga aytgan.

— Eng kulgilisi shundaki, — davom etdi Palmer, — men bilgan narsa bo'lib chiqdi.

Berns sapchib turdi-da, Palmerning oldidan yugurib o'tib deraza oldiga bordi. Xuddi sahnadagiday, u derazaga orqa qilib san'atkorlarcha o'girildi. Uning cho'zinchoq yuzi badtar cho'zildi.

— Vudi, boshqalar kabi mening ham sabr kosam tubsiz emas. Sen meni boshi berk yo'llarga boshlayapsan, va men...

— Seni bundan ham chalkash yo'lga olib kirish uchun nima qilishim kerak, Mak?

— Birgina o'ylamasdan qilingan ayblov. — Bernsning pastki labi tarang tortdi.

— Bunaqa ayblovlarim to'lib yotibdi. Eng to'g'risini tanlashimga bir soniya sabr qil. — Palmer Bernsning odatdagi malla basharasini kuzatdi. Endi uning yonoq va manglayi qanday qizarayotgani yaqqol ko'rinib turardi.

— Palmer, — gap boshladi Berns birmuncha ta'sirsiz ohangda. — O'zi avval-boshidanoq sen ham, anavi sassiq chol bossingiz ham menga hech qachon ishonmay kelyapsizlar, shunday emasmi?

— Shunday emas. Bir necha hafta burun ham men sizga ishonar edim. — Palmer yana viskidan ho'pladi. — Ishonganim shunchalikmi, to shu bugungi kungacha o'zimga ishonmay kelar edim. Siz ro'znomada mana bu xabarni bostirganingizdan keyin nega bunday qilganingizga aqlim yetmaguncha sizga ishonib kelayotgandim.

— Lekin bu sabab bo'lolmaydi, — tutoqdi Berns, — sizning tasmollaringiz ham, isbotlaringiz ham xato. Men sizga o'zimning sababimni aytdim. Nima uchun endi siz bunga ishonmas ekansiz?

— Shunday qilgim kelib qoldi.

— Menga ishon, Vudi, — Berns ozg'in qo'llarini uzatdi, birdan yengidagi ignatugmalar qandaydir jazavali yaltirab ketdi. — E xudo, bizlar bir-birimizga ishonishimiz kerak.

— Menga nisbatan halol munosabatda bo'lsang ishonaman senga.

— Halolman.

— Sinab ko'ramiz, — taklif etdi Palmer, — uncha katta bo'lmagan ochiq suhbat qilib ko'ramiz. Menga ayt-chi, shtat markazi tashkilotining ichida haqiqatdan nimalar bo'layapti?

Berns bir nima demoqchi bo'ldi, biroq og'zini ochganicha tek turib qoldi. U Palmerga bir muncha muddat tikilib turdi, so'ng uning og'zi yopildi, qo'llari har ikki yonida osildi va u orqadagi divanga qarab ketdi. O'tirdi-da, yana stakanni qo'lga olib, go'yo o'zicha yengil kulib qo'ydi.

— Yangi odam degani ham shunaqa fahm-farosatli bo'ladimi? — murojaat qildi u divan yonidagi bo'shliqqa. — Yoki qizaloq Kleri buni ma'lumotlar bilan boqayaptimi?

— U menga axborotlarni yetkazib turadi. — dedi Palmer, — yiliga ellik ming dollar maosh oladigan maslahatchingdan ham ko'proq ma'lumotlar keltiradi.

Berns boshini ko'tardi va Palmerga qattiq tikildi...

— Men senga vaziyatni to'la izohlab berganim yo'q, Vudi, — asta dedi u. — Shtat chekkalaridan menga notinch mish-mishlar kelib turibdi.

Palmer oldinga intildi:

— Qanaqa mish-mishlar? Qaerdan?

— Van Kalxeynning u yerda odamlari bor. Xiyol mayda tijorat banklaridan ayrimlari omonat banklari tomoniga o'tib ketayotgani haqidagi ma'lumotlarni oldik. Ularning yo'qotadigan narsalari yo'q, chunki ular mayda. Ular yirik markaziy tijorat banklarini yomon ko'radilar.

— Bu bema'ni gap! — qariyb qichqirib dedi Palmer. — Ular bizga bog'liq-ku. Biz ularning muxbir banki bo'lamiz. Biz ularning qo'yilmalarini sotib olamiz. Biz ular uchun qimmatbaho qog'ozlarni sotib olamiz va sotamiz. Ey xudoyim, biz ularga beysbol birinchiligi matchlariga va Brodveydagi tomoshalarga biletlar olib beramiz, ular shaharga kelganlarida o'zlarining ermaklari bilan bo'lib, bizning dabdabali xususiy idoralarimizda aylanib yurishadi. Biz ular uchun hamma narsani qilamiz...

Palmer mehmonxona bo'lmasiga qaytdi va soatiga qaradi, Virjiniyaning qo'ng'irog'iga ham ancha vaqt bor edi. U yarimlagan stakanni oldi va unga toza viskidan quydi, so'ng deraza oldiga keldi-da, ko'prikka tikildi.

Ko'prik Kuinsga va shunaqasi omonat banklari butun bir lashkarining bo'ronli markazlaridan biri Long-Aylendga olib borardi. Baribir ham, u agar Jet-Tex puflab shishirmaganida bu lashkar omon qolarmidi? — o'ziga-o'zi savol berdi Palmer.

U stakanni og'ziga olib bordi va ichayotgani muzdan xiyol sovigan toza viski ekanini angladi. Ammo o'zini ichishdan tortish shartmikan? Bu oqshom uning hech qanday qiladigan ishi yo'q. Agar tormoz markazlari ichkilikdan biroz to'mtoqlashsa, yanada kattaroq bo'ladigan lazzatni hisobga olmaganda, albatta.

Aslida Virjiniyaning u bilan yana uchrashish xohishi Palmerni hayratga solgani yo'q. Qisman shuning uchunki, u juvonga o'sha oqshomda, siz bilan munosabatlarni uzaman deb aytganida unga chinakamiga ishonmagandi. Ehtimol, esladi Palmer, bu shunchaki yo'l topish masalasi edi. Juvonning boshqa yo'li yo'q edi. Oldingi kuchli muhabbatdan asar qolmagandi. Uning paydo bo'lishiga ham hech qanday umid-pumid yo'q edi. Juvon to'la ko'ngilchanlik nuqtai nazaridangina ishqiy aloqa boshlagandi.

Bordi-yu, ular bu aloqani uzgudek bo'lsalar, tushundi yigit endi, juvon hech qayoqqa qarab burila olmay qoladi, darvoqe Palmer ham. Palmerning oilasi bor, bu oila Virjiniya uchun onaga qaraganda Palmer uchun ko'proq hissiy manba bo'lib hisoblanardi. Ularning ikkovi ham daqiqa ta'siri ostida bir-biriga surilib qolgan edi, holatlar mushtarakligi, bir xildagi ochlik, o'zaro intilishning yuzaga kelgan hali zaif tuyg'usi ularni harakat qilishga undardi. Shu boisdan ham ulardagi ochlik shu qadar katta ediki, ular oldindan o'rganish bo'lib qolgan odobli rasmiyatchiliklar bilan tezgina ajrashib ketar edilar.

Palmer daryoda quyiga qarab suzib ketayotgan ixcham shatakchi kemaga qarab qoldi, oppoq

ko'pik toshib, uning qop-qora suvga urilgan tumshug'i uzra qalpoqday osilib qolardi.

Miyig'ida kulib, Palmer kutishga toqati yo'qligidan o'zi bilan Virjiniya butun dunyoga, tezda lazzat olish va o'z ochligini tezroq qondirish uchun o'zini sarf qilib yuboradigan millionlab odamlarga o'xshatdi.

Eshikning ohista tiqillagani eshitildi. Bir marta, keyin yana bir marta. Palmer ko'zini ochdi va o'girildi. Vujudini sababsiz g'azab chulg'agan edi. Qandaydir yaramas, qandaydir jonga teguvchi yaramas maxluq uning rejalarini buzishga, chalkashtirishga, tashvishga solishga qasd qilgan. Qandaydir yugurdakmi, dorbonmi bo'lsa kerak... Yoki Bernsmikin?

Palmerning lablari qimtildi. Agar bu Berns bo'lsa, Virjiniyaga telefonda nima deb javob beradi? Qo'ng'iroqqa Berns javob qiladi. Juvon uning ovozini tanib, hech nima demay go'shakni ilib qo'yarmikan? Kechroq telefon qilarmikan? Yoki oqshom butunlay rasvo bo'larmikan?

Palmer eshik oldiga keldi.

— Kim?

Qandaydir ming'irlagan, juda past va ma'nosiz ming'irlagan ovoz keldi. Yigit asabiy basharasini tirishtirdi, qulfni paypasladi va eshikni ochdi. U yerda Virjiniya turardi.

Ellik birinchi bob

Palmer biroz uyqusirab yotdi. Virjiniya uning yonida jim yotar edi. Juvon salgina qimirlagan edi, yigit darhol uyg'ondi. Yigit qimir etmay yotar, ko'zlari yumuq, bir tekis va chuqur-chuqur nafas olardi. Juvon yana bir qimirlab qo'lini o'zining ustidan yurgazib o'tganida ham u qimir etmay yotaverdi. Nima uchun bunday qilayotganiga o'zining ham aqli yetmayotgandi.

Birmuncha muddat o'tgach, u chaqmoqtoshning qisqagina shirq etgan ovozini eshitdi. So'ng sigareta tutuni hidi dimog'iga urildi.

— Uyg'ondingmi? — juda past ovozda shivirladi juvon.

Palmer sekin va chuqur-chuqur nafas olardi. Tezda juvon ehtiyotkorlik bilan to'shakdan turdi. Palmer uning nafas chiqarganini eshitdi, aftidan sigareta tutunini pufladi. Yigit ko'zini ochdi va atigi bir-ikki metr naridagi juvonning tanasini tomosha qila boshladi. Juvon pardani surib, ko'chadagi nimagadir qaramoqda edi. Mehmonxona bo'lmaga qarab ochilgan eshik orqali tushayotgan tarqoq nur soya tushirmasdan juvonning dumbalari oralig'idagi birgina chuqurlikdan tashqari badanining hamma joyini yoritib turardi.

Xonadan tashqaridagi nimagadir mahliyo bo'lgan va uni kuzatib turgan nigohni sezmagan holda juvon mutlaqo boshqacha ko'rinar edi. Nega shunday ekan-a?

Balki, deb o'yladi Palmer, men uni tinch holatda umuman kam ko'rganimdandir. Hatto u o'tirgan vaqtda ham — yozuv stolida, masalan, — yigit uni tinch holatda turibdi deb ayta olmasdi. Undagi nimadir, ehtimol ko'zlarining harakatimi yoki ovozimi, yigitga alayna-oshkor juvon — harakatda deb aytib turganday bo'ladi. Juvonga nisbatan esa bu qariyb har doim haqqoniy bo'lar edi, degan to'xtamga keldi u. Juvonda qandaydir jo'shqin zo'riqish aks etib turardi.

Ayni damda men uning ko'zlarini ko'rmayapman, o'yladi Palmer, bundan tashqari uni uyg'otib yubormaslik uchun juvon nafasini ichiga yutgan. U juvonnini uydagi o'z xonasida qanday bo'lsa, shunday ko'rib turardi — bir tirsagi bilan deraza yonidagi devorga suyangan, gavdasi og'irligini bir oyog'iga solgan, ikkinchi oyog'i tizzasidan erkin bukilgan. Yigit uning oyog'i kaftini, ustini, xiyol dag'allashgan tovonini tomosha qildi. Hatto butun tana vaznini ko'tarib turgan to'pig'i judayam ingichkaligini yigit birinchi marta ko'rib turishi edi.

Juvon asta xo'rsinib qo'ydi va Palmer bu tovush sirini bilishga harakat qildi. Unda, deb o'yladi yigit, his etilgan qoniqish ham, tanho va tinchlikda qolmaslik xohishi ham bor. Bordi-yu, ular o'rtasida qandaydir umumiylik bo'lsa, bu hammadan ham zo'riqishdan birato'la xalos bo'lishga va barcha xayollarni itqitib tashlashga noqobil edi.

Ehtimol, o'yladi Palmer, bu aql borligining badbaxt natijasidir. U yotar ekan, ko'zlari juvonning

oyoqlari bo'ylab goh yuqoriga, goh pastga qadar o'rladi, qandaydir hech narsani o'ylamaydigan, yoqimli zo'riqishdan keyin boshlanuvchi sokin holatda yotardi u.

Garchi juvon badanini tomosha qilish unga lazzat bag'ishlayotgan bo'lsa-da, u ko'zlari yumilib ketayotganini sezdi. U mushohadalari qandaydir yanada salqi tortib, haqqoniyatdan uzoqlashib borayotganday bir tuyg'uni his etdi. Nima bo'lganda ham unga uylanib ol, o'zicha xayolidan o'tkazdi Palmer.

Palmer diqqatini asta ular kelayotgan va ko'zga elas chalinayotgan yo'lga tortdi. Edis, uyqusirab dedi o'zicha, ortiqcha shovqin ko'tarmaydi, uning bolalari bilan ko'rishuviga nisbatan ilojisiz qattiq shartlar ham qo'ymaydi.

Virjiniyaning, albatta, bankdan ketishiga to'g'ri keladi. Shu holatdan kelib chiqib, uning ham kovushini to'g'rilab qo'yishlari tayin.

Mudroq holatda Palmer o'zining moliyaviy ishlarini tahlil qila boshladi. Mulkning yarmini — birvarakay yoki qismlarga bo'lib to'lash sharti bilan — Edis uchun uyiga, shuningdek u bolalari uchun turli trest jamg'armalariga qo'shimcha tariqasida Edis uchun yetarli bo'ladi — qolgani uning butun umriga kifoya qilarmikan? Mutloq minimum sifatida er va xotin nima hisobiga bermalol yashashi mumkin? Uning bunga aqli yetmasdi. O'n mingmi? Yigirmami? Bankni tashlab ketganlaridan keyin ular uzoq safar qiladilarmi? Ehtimol. Ular xorijga borib yashashlari mumkin. Ispaniya, balki, yoki O'rta yer dengizidan bironta orol.

U o'zi va Virjiniyani xilvat sohilda, dengiz chuqurliklari orasida tasavvur etishga urindi va buni ko'z oldiga keltirishdan o'z qoldi. Osongina tasavvur etish bilan o'zini olis Riverada qaltirab turgan holda ko'rishning uddasidan chiqolmaydigan odamlar uchun shahar ehtimol tutilgan yagona turar-joy edi. Shahardagi hayot esa qimmat turadi. Yiliga 40 ming dollarmi? Modomiki, tasavvur qildi Palmer, uning yana kam deganda o'ttiz yil yashash niyati bor, bu esa xarajatlarga bir milliondan ortiq ketishini anglatadi. Ajrashuvdan keyin bunday katta pulga hech qachon umid bog'lay olmaydi. Bordi-yu, xarajatlarni qisqartirsa-chi? Chorak milliondan foizi yiliga 12500 dollarni tashkil etadi. Bunga asosiy mablag'ning yana 12500 dollarini qo'shadi. Uning qisqarib boruvchi asosiy mablag'ining foizlari kamayib borgan bir vaqtda u asosiy mablag'ining barcha eng katta summalarini sarflaydi va o'ttiz yilning oxiri qashshoqlikka borib taqaladi. Biroq bisotida yiliga 25000 dollar bo'lib, unga...

U yana iroda kuchi bilan fikrlarini asosiy izga qaytardi. Asosiy mablag'dan olish fikrining o'zidanoq u larzaga tushar edi. Balki boshqa yo'li bordir.

Albatta, agar ajrashganidan keyin u Virjiniya bilan turmush qurmasa, unda YuBTKdagi xizmatdan keladigan uning daromadi unga bermalol yetib-ortar edi. Ular bir necha yilni tishlarini tishiga qo'yib o'tkazar edilar. Keyin, ular turmush qurganlaridan so'ng ularning gardaniga hech qanday og'ir yuk tushmasdi. U YuBTKda qolavergan bo'lardi. Albatta, u Virjiniyadan bir necha yil sabr qilishni o'tinib so'rardi, bu vaqt davomida ularning turmushi hozirgi munosabatlaridek sir bo'lib qolaverardi.

Virjiniyaga uylanish o'zi nima degani, qiziquvchanlik bilan o'yladi Palmer. Uning shahvoniy nafsi kuchli bo'lib qolishini Palmer aniq-tiniq his etar edi. Uning o'z nafsi risoladagidek bo'lishiga Palmer amin edi. To'g'ri, vaqti-vaqti bilan oladigan lazzatlari bir necha soat oralig'i bilan ko'p yillik bir zayldagi er-xotinlik yaqinligi o'rtasida farqi bor. Uning bunday vaziyatni oldindan bilishga yordam beruvchi yetarli tajribaga ega emasligini fahmlab, Palmer birmuncha besaranjomlik sezdi. Edis bilan kechgan hayoti, hatto eng boshdan ham, jinsiy aloqalarga unchalik boy bo'lmagandi. Haftasiga bir marta — asosan ular turmushining maromi ana shunday edi.

Palmer xotini bilan oralarida hech qachon kutilmagan, tasodifiy yaqinlik bo'lmaganini esladi. Hammasi qariyb jadvaldagidek kechardi, odatda juma va shanba kunlari, sababi ertasiga to'yib uxlab olish uchun imkon bo'lsin. Biron marta ham navbatdan tashqari holatda yo'l qo'yilmagan edi. Bunday tartib o'z-o'zidan yuzaga kelardi: Palmer yalinardi, xotini esa ko'plab uzrli sabablarni ro'kach qilib, muloyimlik bilan rad etar edi. Bundan tashqari, albatta, oldindan tasavvur etmagan murakkabliklar bo'lardi. Masalan, ulardan birontasi tumov bo'lib qolganda yoki oshqozoni bezovta qilganida, yoki boshi og'riganda Edis bu ish bilan shug'ullanishni joiz deb bilmasdi. Bu ham yetmaganday, Edis bir

qancha filantropik jamiyatlarning faol aʼzosi edi; bu guruhlarning yigʻin va tadbirlariga qoʻshimcha keyinchalik kelgan Ota-onalar va oʻqituvchilar uyushmasi yigʻilishlari er-xotinlik yaqinlashuvining butun jarayonini teatrqa borish va qarindosh-urugʻlarni ziyofati taklif etishlar bilan bir qatorda ular turmushi tarzini ikkinchi darajali narsaga aylantirib qoʻygandi.

Palmer koʻzini yumdi-da, fikrlarini bir amallab izga solishga urindi. Bunda Edisni ayblash mumkin emas, oʻyladi u. Modalar jurnali suvratlarining uslubiga monand tarzda u gʻoyat jozibador edi. Eriga nisbatan jismoniy moyillikning yoʻqligi Palmerning uyga kech qaytgandagi mana bu barcha kechki ziyofatlarning, va yana bungacha Chikagodagi oʻzini nojoʻya soʻzlar bilan itarib tashlashga xotinini majbur etgan barcha oqshomlarning qisman natijasi hisoblanadi. U hech qachon xotiniga tiqilinch qilmasdi, Edisning esa uning nimalarga qodirligini yaxshiroq bilishi uchun imkoni boʻlmasdi. Faqat Virjiniyagina uning jinsiy ishtahasi nechogʻli kuchliligini yoki bu ishtaha lazzati yigit uchun nechogʻli muhim boʻlishi mumkinligini namoyish etdi.

Ellik ikkinchi bob

Palmer uni uyiga taksida olib borib qoʻymoqchi boʻldi. Biroq soat millari allaqachon tonggi 6.30 ni koʻrsatib turardi, shu bois Bernsning uyidan unga oʻzidan oldinroq chiqib ketishga ruxsat berdi. Kvartiraning "toza uy"ga aylanganidan 15 daqiqa oʻtib, Palmer yergacha bir qavat yetmay liftdan chiqdi va yon eshikdan binoni tark etdi. U Ist River shohrohidan burilib ketgan, rulda jahldor haydovchi oʻtirgan bir taksini tutdi. U Aydluaylddan odam olib kelgan boʻlib, qaytishida chiqadigan hech kim yoʻq edi. Butun yoʻl davomida jimjimador betonli uyiga yetguncha Palmer haydovchining alamli nolishlarini tinglab keldi.

U mashina koʻzdan yoʻqolguncha kutib turdi-da, uyiga qarab ketdi. Koʻcha tip-tiniq boʻlib, havo sovuq edi. Tong gʻira-shirasi koʻzga tashlanib qolgan boʻlsa-da, osmon qoʻrgʻoshinday ogʻir koʻrinardi.

Palmer paltosi, shlyapasi va sharfini ilar ekan, ichkarida ham tashqaridagiday kulrang yogʻdu hukmron ekanini his etdi. Atrofidagi hamma narsa goʻyo tosh qotgan. Yoqimsiz gʻira-shirada zinapoyaning tabiiy eman rangi qandaydir dagʻal edi. Ikkinchi qavatda botinkasini yechish uchun Palmer bir zum toʻxtadi va bu hayot nima uchun har doim jurnallardan kulgili suvratlarni koʻchirib oladi, deb xayolidan oʻtkazdi.

U katta yotoq boʻlma yonidagi vannada ustki kiyimlarini yechdi. Avvaliga oʻzini endi turganday qilib koʻrsatsammikin degan behuda oʻyni kechirdi koʻnglida. Agar Edis uxlab yotgan boʻlsa, bu ish gʻoyatda qiyin edi. Agar shunday qilish lozim boʻlsa, avval toʻshakni betartib holga keltirishi, vannaga qaytib borishi va xotinini uygʻotish uchun dush suvini sharillab oqizib qoʻyishi kerak boʻlardi. U yotoq boʻlmaga koʻz soldi. Edis uxlayotgandek edi. Palmerning toʻshagi yoyilib yotardi. Yalang oyoqlari bilan tovushsiz yurib, u yoʻlakay ichki koʻylagini yechgancha xotiniga yaqinlashdi. Soʻng asta ehtiyotkor harakatlar bilan yostigʻi va choyshabini titib qoʻydi.

Vannaga qaytib kelib, u trusigini yechdi-da, butun boʻyi bilan oʻzini oynaga soldi. Oynani bu yerga oʻrnashtirish Edisdan chiqqandi. Har ikkoviga oʻz vaznlarini kuzatib borishga yordam berib, oyna katta ahamiyat kasb etishiga Edis amin edi. Hozir oyna Palmerga dahshatli maʼlumotni taqdim etib turardi: naq kindigi tagida qizil-koʻkish tish izlari mana men deb turardi Palmer oynaga yaqinroq kelib razm solib qaradi va shaklidan uning qanday kelib chiqqanini payqash qiyinligini bildi. Oʻzicha maʼnodor bosh irgʻab qoʻydi-da, dush dastasini buradi va issiq va sovuq oʻrtasidagi chiziqqa keltirib qoʻydi. Suv shovqini xonani toʻldirdi. U dush tagida turib oldi-da, badanini sovunlay boshladi.

Eshikdan uyqusiragan, tumshaygan, deyarli koʻzga tashlanmaydigan qoshlari oʻrtasida ikkita tik ajin hosil qilgan Edis paydo boʻlganda Palmer yuvinib-artinib, hammom xalatini kiyib olgandi.

— Salom, — muloyim ohangda dedi Palmer.

— Hm. Qachon kelding xudo yarlaqab?

Palmer xotinining tiniq qora koʻzlariga sinchkov tikildi. Surmasiz ular kichik va uniqqandek

ko`rinardi.

— Qiziq, — javob berdi Palmer savolga savol bilan, — tinchlikmi? Erta uyg`onibsan?

Siyqasi chiqqan olib qochishdan uyquga to`ymagan Edisning ensasi qotdi.

— Soat birda ham uyg`oq edim. Sendan esa darak yo`q.

— Ikkigacha sabring yetmaydi-ku, — javob berdi Palmer bunga. — Tosh qotib uxlab yotibsan.

Dastlabki savoliga javob bermaganini bilib tursa ham Edis sir boy bermadi. Buning o`rniga yuvinish xonasiga bordi-da, tish cho`tkasiga qo`l cho`zdi. U tishini yuva boshladi, Palmer esa soqol cho`tkani namlab, stakanda sovun ko`pirtirdi. Vanna ichini yalpiz aralash yengil lavanda hidi tutdi. Shisha devorda qizg`ish yog`du jilvalandi. Palmer yuzini chaydi-da, soqolini qirtishlay boshladi. Ahyon-ahyonda u xotiniga ko`z tashlab qo`yardi — surishtirishga tushib ketmoqchi emasmi, ishqilib. Birdan xotinini anchadan beri bunday holda ko`rmaganini eslab, unga razm sola boshladi. Ular mehmonxonada turishganida vannaxonaga faqat bir kishi sig`ardi. Ular bu uyga ko`chib kelganlaridan buyon Edis negadir har kuni undan oldin kelib yuvinardi.

Yumshoq elastik pijama xuddi homilador ayollarday Edisning yelkasida shalvirab turardi. Tepadan tushib turgan och pushti nurda pijama yanada to`q ko`k bo`lib ko`rinardi. Devordagi isitgichlar yaxshi ishlab turganiga qaramay, Edisning ensiz yalang oyoqlari va boldirchalari sovqotganidan g`oyat ayanchli ko`rinmoqda edi. Xotinini tishini tozalab bo`lib, baland bo`yli shishadan allaqanday sutrang suyuqlik olib, yuzini chayayotganini kuzatar ekan, Palmer uning dumbalari silkinishidan sonida osilib turgan ishtoni asta sirg`alib, oyoqlari atrofiga taxlanib tushganini ko`rdi, tushgan kiyim chekkasidan faqat oyoq barmoqlarigina chiqib turardi.

Palmer kiyinishga chog`languncha xotini yotoq bo`lmadan chiqib keldi. Xalatni yechishdan oldin tishlangan joyni berkitish uchun Palmer trusigini tortib qo`ydi. Bir necha daqiqadan keyin u oshxonaga kirgan edi, qarasa, u yerda hech kim yo`q ekan, dasturxon yozilmagan. U oshxonaga bordi. Ola-bula guldor qaviqli xalatida missis Keyj choynakka sovuq suv to`ldirayotgandi.

— Salom. Missis Palmer qani?

Birmuncha muddat hech nima deb javob bermay, oshxona bekasi unga qarab turdi.

— Tepada. Nima, soatim orqadamikan? Meniki yetti yarim bo`ldi.

Palmer o`zining soatiga qaradi.

— To`g`ri.

— Bugun erta turibsiz, — dedi ayol, — salom.

Oshxonadan chiqib ketar ekan, Palmer jiddiy jilmayib qo`ydi. Odatdagidan erta turganim ham hech nimani anglatmaydi, o`ziga tasalli berdi u. U uzun egma zinapoyalardan katta eshik oldiga tushib bordi-da, eshikni ochdi. Eshik va devor oralig`idagi bo`shliqqa ko`zdan yashirin tashlab qo`yilgan gazetalarni paypaslab topguncha shamolsiz qish tongining kuchli izg`irini baribir badanini teshib yuborgudek bo`ldi. Gazetalarni topib ichkariga shoshildi va yana zinadan ko`tarilib, "Tayms"dagi Olbani xabarini o`qishga tutindi. Aftidan, ayni vaqtda u yerda bahsli qonun loyihalari haddan tashqari ko`p edi, ammo bo`limlar haqidagi qonun loyihalari haqida esa bir og`iz ham gap yo`q edi.

Palmer "Gerld tribyun" hisobotini mutolaa qilganicha birinchi qavat maydonchasida turar edi. O`z odati bo`yicha Olbanidagi voqealarni o`zaro bo`lashib, gazetalar ikkita maqola berar edilar. Biri dalillarni xabar qilsa, ikkinchisi bu voqealar rivojini sharhlar edi. Har doimgidek, gapning tagiga yetish uchun har ikkala maqolani yodlab olish zaruratidan xayol g`ijinish his etardi. Shunday bo`lsa-da, voqealarni tanqid etayotgan maqola tagida mayda harflar bilan pot pourri qisqa xabarlarga ko`zi tushdi. Ularda turli mish-mishlar bayon etilgandi.

"Manba katta ham, kichik ham emas, Viktor S., Katta Vik esa ittifoqdoshlariga omonat banklari bo`limlari haqidagi qonun loyihasi munosabati bilan Tammanining mustahkam muxolifatida parokandalik haqidagi mish-mishlarda zarracha haqiqat yo`q. Uning mavjud holatidan ancha ko`ngli to`q bo`lib ko`rinuvchi atter ego, publitsist Mak Berns shtatning g`arbiy okruglari bo`ylab kichikroq sayohat qilmoqda".

Palmer titrab ketdi.

Yuqori pillapoyada sayqallab ketib, panjaradan ushlab qoldi va har ikkala gazeta tushdi. U gazetalarni yerdan oldi-da, yotoq bo'lmaga yo'l oldi.

“Tayms”ni Edisning karavotiga tashlab, u o'zining karavotiga o'tirdi, tizzalarini mahkam qisib, “Gerald tribyun”ni nima qilsam ekan deb o'ylanib qoldi. Sarosimalanganidan hatto gazetani choyshab tagiga yashirmoqchi bo'ldi. So'ng o'zini qo'lga oldi-da, o'rnidan turdi. Juda sekin harakat qilgancha u eshik oldiga keldi, zalda hech kim yo'qligiga amin bo'lgach, tezgina katta eshik oldiga keldi. Uni ochib, ko'chaga chiqdi. Qora paltoli ikki kishi unga peshvoz kelardi. Ularning o'tib ketishini poylab turdi. Sovuq uning ko'ylak va shimlari orasiga kirib ketmoqda edi. Qorni ichida yengil titroq turganini his etdi. U darrov egildi-da, gazetani ko'chada ikki uy narida turgan mashina ostiga uloqtirdi. Tezda uyga kirdi, eshikni yopdi va isinib olgani biroz tik turdi.

Nafasini rostlagan bo'lsa-da, endi o'zini qo'lga olib, butunlay xotirjam holda u xabardagi qanday narsa uni hayajonga solganini aniqlashga qaror qildi: kecha kechqurun Berns Olbanida bo'lganmi, (holbuki Edis uni Nyu-Yorkda deb aytgandi), yoki bu sulloh uning oldiga poxol to'shab ketganicha Palmerdan oldin chekka joylardagi bankirlar bilan suhbatlashganmi?

Atigi qirq daqiqa ichida u uchinchi marta zinadan ko'tarila boshladi, biroq bu gal qulog'iga nonishtaga to'planganlarning g'ovur-g'uvuri chalinmoqda edi. Aftidan, gazetadagi xabarni endi oilaviy bo'lib muhokama qilishadiganga o'xshaydi. U yo'l yarmida to'xtadi. Gazetani gumdon qildi. Edis boshqa nusxasini topishga harakat qilmasa kerak. Bu tomondan ko'ngli tinch. Ammo Bernsni nima qilish kerak?

Palmer yemak bo'lmaga kirdi va Jerrining sanchqi, pichoq va qoshiqlarni terib qo'yayotganini ko'rdi.

— Hello, ko'rinishingiz xuddi qo'lida burga o'ldirgan odamga o'xshaydi.

Palmer im qoqib qo'ydi.

— Darvoqe, yaxshi yotib turdilaringmi? — dedi u.

Galstugini to'g'rilab, xonaga sudralgancha Vudi kirdi. U o'z o'rniga o'tirdi-da, stakandagi sharbatni bir daf'adayoq shunday simirdiki, hatto entikib yubordi.

— Salom, ota, — dedi u birdan so'ng.

— Durustmisan? — Palmer ovozidan asabiylashganini sezdirmaslikka harakat qildi. Borib o'z joyiga, oila boshlig'i o'rniga o'tirdi, ensasidan sal yuqorida miyasi lo'qillab og'riyotganini his qildi. U olovda toblangan non to'g'ramiga qo'l cho'zgan Vudidan ko'z olmay sharbatdan ho'play boshladi.

— Shoshma, — o'g'lini turtdi u. — Hali hamma kelgani yo'q.

Vudi yelka qisib qo'ydi va stolga kelib o'tirayotgan singlisiga ma'noli qaradi.

Palmer o'ziga qahva quydi-da, qahva choynagini Jerriga uzatdi.

— Oyingning piyolasiga quy.

— Uning piyolasi limmo-lim, — g'udrandi qiz. — Sovib, icholmaydigan bo'lib yotibdi.

Palmer ustalik bilan quymoqni ulashdi. Yillar davomida ortdirgan tajribasi har bir bolasiga o'ziga qarab ulush berishni o'rgatib qo'ygandi — katta bo'laklar Vudiga, eng kichkinasi Tomga — ortiqcha o'ylashga hojat yo'q.

— Edis?

Xotini bosh chayqadi.

— Faqat qahva ichaman.

Palmer bir lahza taraddudlandi. U aslida jiddiyroq ovqatlangisi ham yo'q edi, ammo huzurbaxsh tundan keyin u odatda bo'kib ovqatlanar edi. Bugun ham shunday qilish kerak. U o'ziga cho'chqa go'shtidan qo'ydi va to unisi ham, bunisi ham biroz sovushini kutib, qahvani oxirigacha ichib qo'yishga harakat qildi. Og'riq endi butun manglayiga tarqalgan va asta boshining chap tomoniga o'ta boshlagan edi.

— Edis, — dedi Palmer, baribir asabiylashganini ovozida bildirmaslikka tirishib, — bu bolalardan birontasi “iltimos” yoki “rahmat” so'zini biladimi?

— Iltimos, dadajon, yana ozgina quymoq berasizmi? — bir maromda bidirladi Vudi.

— Quymoq uchun rahmat, dadajon, — jo'r bo'ldi Tom.

Jerri o'y surgancha kavshanardi. Shu tariqa luqmani obdon yanchib, u og'zidagi borini yutib yubordi, odob bilan sharbatdan bir ho'pladi-da, salfetkani labiga tekizdi.

— Men suyuqli ota-onamning har ikkaloviga ham, — gap boshladi u, — chuqur minnatdorchilik izhor etaman, ayniqsa, menga mahorat bilan ovqat suzib bergan...

Tom kumush qahva choynagidagi o'z aksini o'ychan tomosha qilardi. U ijirg'anib yuqori labi chekkasini xiyol ko'tardi. So'ng ko'zlarini qisdi-da, nigohini u yerdan uzdi.

— Tom, — dedi Palmer odatdagi otalarcha hukmfarmolik bilan, — ovqatingni ye.

Kenja o'g'il ovqat yeya boshladi, Palmer ham.

Quymoqning birinchi ulushi mazasi o'rtacha edi. U nafis, yupqa quymoqni xush ko'rardi. Biroq bu tongda uning g'ovak namchilligi birdan Palmerning ko'nglini behuzur qilib yubordi. U Jerri tomonga o'girildi:

— Maktabda ishlar qalay?

— O'sha-o'sha — bosh og'rig'i.

Palmer hozirgina u kashf etgan chalg'ituvchi harakatni chuqurlashtirishga tayyorlanib, sanchqini qo'ydi. Farzandlar keksayganingda tayanch bo'lishlari kerak va bo'lganlar, o'yladi u.

Ellik uchinchi bob

O'sha haftada juma kuni Linkolnning tug'ilgan kuni bayram qilindi. Bunday bayram uik-endga to'g'ri kelmaganda ishbilarmonlar doirasida seziladigan qariyb ilg'ab bo'lmas odatdagi tazyiq bank sohasida bilinmayotgan edi. Boshqa idoralar tazyiqqa bardosh berolmay, bugun ishlamasliklari mumkin edi, o'yladi Palmer 8.45 da o'z kabinetiga kirib kelar ekan, biroq banklar Linkolnning tug'ilgan kunini o'z bayramlari deb tan olmasdilar. Janubda uni bayram qilmaganlari bois shimoliy banklar agar janubiy shtatlardan Nyu-Yorkka qandaydir muxbirlik ishlari kelib turgan holda ochiq qolaverishlari kerak edi.

Garchand Palmer bankka yo'l olganda "Tayms"ni mashinada o'qib chiqqan bo'lsa-da, u gazetani o'zi bilan kabinetiga olib kelgandi — Olbani xabarlarini yana bir karra ko'zdan o'tkazmasa bo'lmasdi, Shtatning qonun chiqaruvchi muassasalari jon talvasasida bugungi tonggi qisqagina dastlabki sessiyani rejalashtirdilar, u senatorlar va qonun chiqaruvchi yig'ilish a'zolariga odatdagidan ancha uzoqroq uik-endga uylariga jo'nashlariga imkon berishi kerak edi. Kun tartibining bugungi tongga qoldirilgan ikki banddan bittasi, Palmer ko'rganidek, g'ayrioddiy qo'shimchani — omonat banklari haqidagi qonun loyahasiga tuzatishlarni muhokama qilish uchun banklar qo'mitasi majlisi edi. Bunday tuzatish kiritish g'oyasi Bernsdan chiqqan bo'lib, u uni bir necha kun avval bayon qilgan edi. Hozir Palmer Bernsning fikrlari ish berishiga unchalik ko'zi yetmayotgandi, lekin tagidan qaraganda g'oya yaxshiday ko'rinardi.

Omonat banklari birligini sindirib, Berns kiritilgan tuzatishga nisbatan har qanday mo'ljalli muxolifni zaiflashtirishni tushunardi. Bordi-yu, tuzatish kiritilgudek bo'lsa, bu tijorat banki mustahkamligidan guvohlik beradi. Olbanida va umuman hayotda esa kuch guvohliklari boshga balodir.

Palmer yozuv stoli oldiga qaytdi va bugungi sanani ochib, taqvim varaqlarini og'dirdi. Varaqda nimadir tirnab o'chirilgan edi. Bir daqiqa Palmer o'zining shoshib yozgan xatini o'qishga tirishib, yozuvga sinchiklab qaradi. U taxminan bunday edi: "2 hft sqlvlar yig'il". U satrni yanada diqqat bilan o'rgandi va dastlabki ikki so'z "Ikki hafta" degan qarorga keldi. Shunda u butun yozuvning ma'nosini tushundi: "YuBTK aktsiyalarni saqlovchilarning yillik yig'ilishi ikki haftadan keyin bo'ladi". O'zini tekshirish uchun u taqvimni yana ag'dara ketdi va "juma" varag'ida, ikki haftadan keyin, "sqlv bld" degan yozuvni uchratdi.

Voqealar juda tez quyuqlashib borardi. Do Jons ko'rsatgichlari pastlashish tomon ketayotganini aniqlagan bir hafta ichida YuBTK aktsiyalari yana bir band ko'tarilgan edi.

Umuman o'lik, ma'yus bozorga qarshi o'laroq YuBTK aksiyalariga talab oshgandan oshmoqda edi. Palmerning maslahati bilan Berkxardt shu yil aksiyalarning yangi nodo'st qo'llarga o'tib qolishini qisqartirishga harakat qilib, aksiyalar saqlovchilardan muddatdan oldin ovoz berishga odatdagi ishonchnomalarni so'rab oldi, ammo bu eng ko'p deganda bir necha ming aksiyani harakatsizlantirib qo'yish uchun umid tug'dirishga imkon beruvchi "men do'konni yopayapman" qabilidagi nayrang edi. Ayni vaqtda agar Olbanidagi bernscha kuch sinashish muvaffaqiyatsizlikka uchragudek bo'lsa, bu hatto do'stona kayfiyatdagi aksiya saqlovchilarga Berkxardtning omonat banklari yuzaga keltirgan vaziyatni nazorat qilishga qodir emasligini namoyish qiladi. Bunday holda Berkxardt YuBTK ustidan nazoratni qo'lida ushlab tura oladigan aynan o'shanday odam hisoblanarmikan?

Murakkab o'yin, o'yladi Palmer. Ochig'ini aytganda, u Jo Lumis tashkil qilgan qanotdagi hujumlarni muvofiqlashtirib o'tirishni unchalik xushlamas edi. Har bir bo'g'imda muvaffaqiyat qozonishga imkon beruvchi vaqt va kuch zaxirasini tanlab olish uchun favqulodda ustamonlik bilan tuzilgan ayyorona reja.

Palmer shunday fikrlaganicha telefon go'shagini ko'tardi va Virjiniyaning ichki raqamlarini terdi.

— Boshing qalay? — deb so'radi u salom-alik qilib o'tirmay.

— Hmm. Xayrli... — uning erinchoq ovozi xirillab chiqdi.

— Yonimga qachon kira olasan?

— Shifokorlar kislorod yostiqchasi yordamida o'zimga keltirishi bilan.

U go'shakni joyiga ilib, o'zicha kulimsirab qo'ydi. Ikkalasi ham o'tgan kecha qattiq mast bo'lishgan edi. U nihoyat bugun ertalab kayfi tarqab, ko'ngilsizliklardan qutulib, o'ziga keldi. Uyga o'z vaqtida — kechki o'n birda qaytganim yaxshi bo'ldi, — degan xulosaga keldi u o'zicha, — Edisda hech qanday shubha-gumon tug'ilmaydi.

Ana, ayol kabinet eshigini ochib — yopdi, xonaga pardalar orasidan qiya tushayotgan xira fevral quyoshidan qamashgan ko'zlarini yarim ochgancha ostonada bir necha lahza turib qoldi. Palmer uning xona bo'ylab asta yurib kelayotgani, ish stolidan aylanib o'tib, o'ziga yaqinlashayotganiga qarab turdi. Ayoldan kelayotgan bilinar-bilinmas, sigaret tutuni aralash atir hidi uning ta'sirchan tuyg'ulariga bo'g'iq qo'ng'iroq ovozidek ta'sir qildi. Ayol engashib, uning yanog'idan o'pdi va lab bo'yog'i yuqib qolmadimikin deya o'pgan joyiga qarab qo'ydi, yana yozuv stolini aylanib o'tib, qarshidagi stulga o'tirdi. Ayol burnini jiyirdi.

— Marhamat qilib, bunchalik dimog'dor bo'lmang, — dedi ayol.

— Mayli. Qanday bo'lishim kerak unda?

— Xudo haqqi, bunchalik chiroyli ham bo'lmang. Menga o'xshab horg'in bo'ling.

— Mayli. Horg'in bo'laman. To'g'ri keladimi?

— Xuddi kattakon bankning vitse-prezidentiga o'xshab toliqqan bo'ling.

— Mening omadim yurishyapti.

— Meni nega chaqirdingiz? — xo'rsindi ayol.

— Bu yer juda yorug'. Biz shafqatsiz odamlarmiz, hech narsadan tap tortmaymiz.

Va nihoyat u ko'zlarini ochdi.

— Siz nafaqat shafqatsizsiz. Bu tunda bo'lib o'tgan narsalarni bajarishga meni qanday majbur qildingiz?

— Har qalay, qo'lingizni qayirish yo'li bilan emas.

— Men bayonnomaga avval va undan ham avval, hech qachon bunga o'xshash narsaga qo'lmaganim haqidagi arizamni kiritishingizni xohlayman. Hech qachon.

— Qiziq, biroq taklif siz tomoningizdan tushgani esimda.

Ayol chuqur xo'rsindi.

Siz meni o'zingizga allaqachon ma'lum blgan narsani bilish uchun chaqirmagandirsiz?

— Men ana shu xatoni tuzatish haqida qaerdan tez ma'lumot olishimiz mumkinligini bilmoqchi edim Teletaypda birorta tanishingiz yo'qmi?

— Bernsga qung'iroq qilsak bo'lmaydimi?

— Men biladigan joylardan uni topib bo'lmaydi. Uni topib berishlarini iltimos qilishim kerak. Shundan keyingina u menga qung'iroq qiladi. Doimiy aloqa qilish mumkin bo'lgan boshqa odam kerak.

— Men Olbaniga, matbuot xonasiga qo'ng'iroq qilishim mumkin, — taklif qildi ayol.

— Nahotki shu yerda, shaharda hech kimimiz bo'lmasa? Men ularni reportaj tayyorlayotgan paytlarida bezovta qilishni istamayman.

— "Tayms"ga suqulib kira olganimizdaydi, Virjiniya, agar siz...

— Bubbi! — kimdir qattiq qichqirdi. — Bubbili!

Palmer o'girilib, ishxona ostonasida Virjiniyaga jilmayib qarab turgan ko'ziga tanish odamni ko'rdi. Palmer uning bo'yi deyarli olti futga yaqinligini, faqat to'laligi uchun pakanaroq ko'rinishini payqadi. Kalta qirqilgan sochlari ostidagi o'ynoqi ko'zli yuzlari va do'mboq iyaklari Palmerga tanish edi.

— Jonginam. — Virjiniya unga salom berdi. — Mening boshlig'im Vuds Palmer bilan ham salomlashib qo'y. Bu — Kessler, "Star"ning jentlmen bo'lib ulgurmagan yagona fotoreportyori.

— Salom, Palmer! Haliyam keraksiz nemis raketachilarini yo'ldan urib yuribsizmi? Qanaqasidan kerak?

Palmer Kesslerning samimiy ko'zldariga qaradi. Bu ko'zlar "tanirmikin?" degandek hushyorlik bilan tikilib turardi.

— Siz?! — dedi Palmer. U qo'llarini uzatdi. Xayolida qo'llari qopqonga tushib, barmoqlari siqilib qolgandek bo'ldi va aftini burishtirib, barmoqlarini tortib oldi. Kesslerning pastki labi o'rtasida osilib turgan sigareta u gapirgan paytda sakrab, bejirim tikilgan kostyumiga quyuq kul sochardi.

— Qariya, baribir bema'nilik qildingiz. Siz ruslar qo'lga tushirgan narsalarni o'g'irlashingiz kerak edi.

— Nima, u doim shunaqami? — so'radi Palmer Virjiniyadan.

— Yo'q. U hozir o'zini yaxshi tutayapti.

— To'ppa-to'g'ri, — tasdiqladi Kessler. — Ayollar bor joyda o'zimni tutishga majbur bo'laman. — U Virjiniyaga zimdan qarab qo'ydi.

— Ayt-chi, azizim, fotobo'limingda teletayp bormi? Undan Olbani bilan aloqa qilsa bo'ladimi?

Kessler bosh chayqadi.

— Assosheyted Pressdan faqat moliyaviy hamda tijorat xabarlarini olamiz. Nimaydi? — Va qo'shib qo'ydi: — Foyda chiqadigan biror narsa bormi?

— Bugun ertalab u yerda qonun loyihasiga tuzatish kiritish bo'yicha ovoz beriladi.

— Yana bank bema'niliklarimi? — to'ng'illadi u. — Bubbi, men bu shahar haqida o'n besh yildan beri fotoreportaj berib kelaman, lekin bankdan biror marta tayinli surat olganim yo'k.

— Agar olganingda ham "Star"da bosib chiqarishmasdi, — dedi ayol.

U bosh irg'adi va Palmerga o'girildi:

— Undan so'rang. U sizga ayollar dumbasini suratga olish bo'yicha ustasi farangligimni aytib beradi. Eng asosiysi, o'n besh yil ichida men "Star" orqali nozanin ayollarning belini suratga oldim. Bular orasida Gussi Morenning kalta tennis ishtonchasini kiyayotgan paytdagi surati zo'r chiqdi. — U Palmerga qaradi. — Nima sababdan siz xodimingiz kuzatuvida xilvat joylarda daydib yuribsiz? — Odatda siz emas, reportyor oldingizga borishi kerak-ku.

— Biz sevgi tufayli bog'langanmiz — izoh berdi Virjiniya.

— Xudo qo'llasin sizni, Palmer, — dedi qat'iyat bilan Kessler. — Bu qiz oliy toifali barlarda qadahga solib beriladigan o'rtasi teshik bir bo'lak muzga o'xshaydi. Shunday emasmi?

— Gapingizga qaraganda bir gal tilingiz kuyganga o'xshaydi, — dedi Palmer.

— Bir gal? — Kessler kulib yubordi. — Azizam, sening ortingdan qanchadan-qancha tahririyatlarga yugurganimni unga aytib ber.

— Bunchalik past ketishning nima keragi bor? — javob berdi Virjiniya.

U ayolga bir soniya hirs bilan tikildi, keyin yelkasini qisdi:

— Bubbi, men seni teletayplar yoniga eltib qo'yaman, lekin boshlig'ing shu yerda qolishi kerak.

Palmer sun'iy och sariq-jigarrang charm qoplangan eski uzun o'rindiqqa o'tirdi. Atrofdagi taxta

romlarga ilib quyilgan "Star"ning yangi sahifalarini ko'zdan kechirdi. Sigaretini o't oldirdi va uzoq vaqt kutishni mo'ljallab, qulayroq o'rnashib oldi. Biroq bir soniyadan keyin Kessler qabulxonadan o'tayotib, unga "Siz haliyam shu yerdamisiz?" degan ma'noda soxta hayrat bilan tikildi. Tez yurib kelib, yoniga o'tirdi.

Palmer xo'mrayib, Virjiniyaga qaradi:

— Qiziq, bizning hamma sirlarimiz ham shunaqa keng yoyilganmi?

Kessler bosh chayqadi.

— Otaxon, hech kim menga deyarli hech narsani aytgani yo'q. Shunchaki, men Mak Bernsni yaxshi bilaman. Endi esa sizni ham bilib oldim, — uning nigohi Palmerdan Virjiniyaga, Virjiniyadan yana Palmerga, keyin yana ayolga sirg'aldi. — Qanday qilib u bunga erishadi? Chamasi, siz kaltafahm yigitga o'xshaysiz. Qanday qilib barcha safsatalariga ishona qoldingiz?

Palmer dastlab boplab javob bermoqchi bo'ldi. Ammo navbatdagi soniyada yaxshisi indamaslik kerak degan qarorga keldi va nihoyat, yengil tortib, o'zini bosib olganini his qildi.

— Shunisi kulgiliki, — dedi u Kesslerga, — boshdanoq men unga ishonmagandim. U birinchi yurishini boshlashidan oldinroq ikki yoqlama o'yin qilayotganini sezgandim. Men, hatto nima uchun bunday o'yin qilayotganini ham bilaman.

Kesser Virjiniyaga o'girildi:

— Bubbi, boshlig'ing qanaqa odam o'zi? — dedi-yu, yana Palmerga qaradi: — Xo'sh, gap nimada? Gipnozmi? Nima uchun shunday qilishiga yo'l qo'ydingiz? Yo sizga baribirmi?

Palmer ko'zini qisdi. U oldingidek ehtiyotkorlikdan emas, asabiylashmaslik uchun biroz jim qoldi.

— Menga to'g'risini ayting, — dedi u vaqtdan yutishga urinib. — Nyu-Yorkdagi gazetalardan birontasi Mak Bernsni qullab-quvvatlaydimi?

— Kimga haq to'layotgan bo'lsa — o'shalar.

Palmer Virjiniyaga o'girildi.

— Bu ham hammaga ma'lum.

Ayol bosh irg'adi:

— Siz bunaqangi quruq gaplar og'izdan-og'izga qanchalik tez o'tishini tasavvur ham qilolmaysiz.

— Bu nimasi? — Palmer yana sergaklandi. — Birortasi?... — U tutilib qoldi va lablarini yaladi. — Bu hamisha jamoatchilik bo'yicha aloqalar bo'limida qullaniladimi?

Kutilmaganda Kesser masxaromuz jilmaydi, shu asnoda sigaretidagi bir dunyo kul to'g'ri og'ziga to'kildi.

Uzoq tuyulgan bir necha soniya davomida fotoreportyor Palmerga qarab turdi, keyin:

— Otaxon, siz meni juda ajablantiryapsiz. Aks holda, Bernsga o'xshash itdan tug'ilganlar o'ziga kerakli narsalarni chop ettirish uchun jurnalistlarni qanday ishontiradi?

Palmer sekin bosh irg'adi. Shlyapasini kiyib, Virjiniyaga qaradi:

— Idoraga qaytib boramiz. Men Olbaniyaga qo'ng'iroq qilishim kerak.

Ular Oltinchi avenyuni kesib o'tib, oldinga qarab shiddat bilan yelib borishmoqda edi.

— Vuds, — chuqur tin oldi ayol. — Qayoqqa shoshyapsiz?

U qadamini sekinlatdi.

— Uning fikricha, — vazmin ovozda dedi Palmer, — men go'yo bichilgan odamman. Esingdami? "Boshlig'ing qanaqa odam o'zi?" degani. Bu gapni qanday ohangda so'rganini eslaysanmi?

— Albatta, lekin u sen haqingda bunaqa narsani nazarda tutgani yo'q...

— Men nimani nazarda tutganini yaxshi bilaman.

— Sen yo'q narsaga yopishib olding, Vuds. Senga yo'q narsa bor bo'lib tuyulyapti.

— Shunday bo'lishiyam mumkin. — U bir soniyaga jim qoldi. Keyin xo'rsindi. — Sen ham menga o'xshab his qilishingni unutmabman, albatta. Bu yillar davomida sen taqdir irodasiga ko'ra — o'z ixtiyoring bilan Berkxardtning qo'lga tushish uchun mening otamga o'xshagan ota qo'l ostida bo'lganing yo'q. Menga eng alam qiladigan joyi shunda. Kessler buni osongina ilg'ab oldi.

— Tasodifan, — dedi ayol.

— Qanday bo'lganda ham u aniq va qattiq zarba berdi.

— Sen bo'lsang bir narsa chaqib olgandek sakrab, telefon go'shagini oldingda Makni bo'shatib yubording. Men esam, bankirlar o'ta sabr-toqatli bo'lishadi, har qanday ishni shoshilmay bajarishadi deb o'ylagandim.

— Nima uchun Makning jilovini qo'yib yuborganimni birdan anglab qoldim. Bilasanmi, uning ishlari uchun ham mas'ulligimni his qilmaganman.

Palmer uni chorraha tomon boshladi va ular Beshinchi avenyuni kesib o'tdilar. Ular endi chorraha burchagida turishar, Virjiniya u qaysi tomonga boshlashini kutar, Palmer esa bir joyda turib qolganlarini anglamasdi.

— Berkxardt uni yollagandi. Yo'lbarsning dumidan ushlab olganini sezib qolib, qo'rqib ketdi-yu, unga qarshi vahshiy hayvon sifatida meni yolladi. Men o'zimni asosiy xususiyatlarimni anglab yetganimdan keyin Berkxardt qachonlardir otam meni hayratga solgani kabi hayratlantira boshladi. Menimcha, ayni shu asnoda Bernsning ikki yoqlama o'yinini kuzatib, yashirincha quvonch his qildim. Kessler haq. Menga, aslida farqi yo'q edi.

— Hozir-chi?

— Hozir nimagadir bunga shaxsiy ishimdek munosabatda bo'la boshladim. Meni to'g'ri tushunmasalar, toqat qilolmayman. Bu nafsoniyatimga tegadi. Ayniqsa, Makiavelliga o'xshagan livanlik pastkash Bernslar qadrimga yetmagani nafsoniyatimga tegadi.

— Laqma fotomuxbirning tasodifiy fikrlari ko'zingni ochganiga ishongim kelmaydi, — dedi ayol.

— Biroq, aynan ana shunday bo'ldi.

— Yo'q, hecham bunday emas, — ayol qovog'ini solib, yo'lak chetidan yurib ketdi va o'tib ketayotgan taksini to'xtatdi. — O'tir.

— Mashina gavjum yo'l harakati oralab shimoli-sharq yo'nalishi bo'ylab, Bernsning uyi tomonga asta yurib ketdi.

— Aslida seni zanjirdagi itdek tutib turgan bema'ni halol o'yinga ishtiyoqing tufayli Bernsga yana bir imkon berishga qaror qilding. Shuning uchun sen uning tuzatish to'g'risida yolg'on safsatasiga laqqa tushding.

— Qanday bema'nilik!

— To'g'ri aytasan, lekin sen aynan shunday qilding. Sen allaqachon o'zing bilgan narsani tan olishni xohlamading. Odamlarning halolligi haqidagi xasga o'xshagan sodda tasavvurga mahkam yopishib olding.

— Hm.

— Sen o'jarlik bilan hech qaysi odam Mak Bernsga o'xshab makkor bo'la olmaydi deb o'ylading. Lekin men senga aytyapman, Vuds, bu shaharda Mak Bernslar to'lib yotibdi. Dunyoda ham. Va nihoyat, hozir sen buni tushunib yetding. Jahling chiqayotganiga sabab shu.

— Men biroz tinchlandim, — u kulimsiraganicha, ayolning qo'lini ushladi.

— Ko'chada o'zingni juda g'alati tutding, — uning qo'lini olib jilmaydi Virjiniya. — Yo'lbarsning dumidan tutib turganing haqida gapirding.

— Bu kulgilimi?

— Fojia aralash kulgi. Vuds, sen Tammani siyosat bozorlari changalzorlaridagi yo'lbarsning dumidan ushlab turibsan. Bunday yo'lbarsdan qisqagina telefon qo'ng'irog'i vositasida qutulib keta olmasan.

— Berns ishdan bo'shadi. U buni yaxshi tushunadi.

— Demak, azizam, sen yo'lbarzlarning nimaga qodirligini bilmas ekansan.

Ellik to'rtinchi bob

Kunduz soat birda qish quyoshining qiya nurlari Berns joylashgan mehmonxonadagi qalin oq

gilamga tushdi. Quyosh gilamning Virjiniya yotgan joydagi qordek oppoq tuklarini qizdirdi va unda go'yo akslanib, xonani nurga to'ldirib yubordi. Ko'zlari biroz qamashgan Palmer o'rnidan turib, bar yoniga bordi. Uning yalang'och badani quyosh haroratini tuya boshladi. U ilgari sira ham quyoshning yorqin jilosidan jismonan lazzatlanmagandi. Quyosh nuri tanasidagi har bir tomir, har bir hujayraga kirib borayotganga o'xshardi. Jismoniy lazzat unga shunchalik hayratlanarli kuch va tiniqlik baxsh etdiki, go'yo qaytadan tug'ilganday bo'ldi. U ikkita stakanga ozginadan viski quydi va ikkalasini ham Virjiniyaga olib keldi.

— Muzi yo'q-ku? — ayol unga qarab ming'irladi.

— Erindim.

Qo'llarini yoyganicha chalqancha yotgan ayol o'ta yengil harakat bilan yonboshiga ag'darildi-yu, Palmerning oyog'idan qattiq tishlab oldi. U seskanib ketdi. Viski ayolning ko'ksiga sachradi.

— Sovuq ekan! — chiyilladi ayol. — Sen kimsan — aytaymi? Qari xotinbozsan!

U stakanni biroz qiyshaytirdi. Ayolning qorniga yana bir necha tomchi viski tomchi.

— Yaramas, — ming'irladi ayol. — Zo'r viskini bekorga isrof qilyapsan.

U ayolning yoniga tiz cho'kdi.

— Kel, viskini bekorga isrof qilmaylik.

Eshikka solingan kalit ovozini ikkalasi barobar eshitishdi.

Palmer o'rnidan turdi. Uni ham zudlik bilan turg'izdi. Ular yotoqxonaga eshigiga otilishdi. "Kiyimini olishga ulgurdi", e'tibor berdi Palmer. Va dahlizga qarab, eshik qiya ochilayotganini ko'rdi. Yotoqxonaga eshigiga nazar tashladi. Yopiq. Shoshilmasdan bar yoniga borib, stakanlarni qo'ydi. Ayol divanda buyumlaridan birini qoldirganini ko'rdi. Gilamda viskidan qolgan kichkina dog'ni ham payqadi. Va yana dahlizga qaradi.

— Azizim, sen bankir sifatida yomon joylashmagansan.

Bernsning ingichka pastki lablari yasama hayrat bilan qiyshaydi. U ortidan eshikni yopdi. Eshik temirga o'xshab qattiq taraqlab yopildi.

Palmer Bernsning yo'l chamadonini kiraverishga quyganini ko'rdi. U o'sha yerda yotgan konvertlarga ko'z tashladi. Keyin yana jilmayganicha Palmerga o'girildi.

— Nega kiyinmayapsan? Ustingga biror narsa tashlab olmaysanmi?

Palmer bar yoniga bordi. Undagi stakandan birini olib, shoshilmasdan ichdi. Keyin:

— Shaharga qanday qilib shunchalik tez qaytding? — deb so'radi qiziqish bilan.

— Mogavk aviayo'nalishidagi samolyotlardan biri bilan Nyu-Yorkkacha. Vertolyotda G'arbiy o'ttizinchi ko'chagacha. Bu yog'iga taksida. Ikki soatda.

— G'aroyib zamonda yashaymiz — Palmer stakanni bo'shatdi. — Viski ichasanmi?

Asta-sekin yurib, mehmonxonani ko'zdan kechirayotgan Bernsga o'girildi. Uning bug'doyrang sochlari quyosh nurida yaltirab turardi. U divanga engashib, qora siynabandni oldi va o'lchami hamda firma belgisini ko'zdan kechira boshladi.

— O'ttiz olti daraja, — ming'irladi u. — Ya'ni to'la. — Uning serharakat og'zida "men hamma bilan totuv yashayman" deganga o'xshash, xayrixohona tabassum zuhur bo'ldi. U Palmerga qaradi: — Vudi, bolajonim, qaddi-qomatingni qanday saqlashingga endi tushuna boshlayapman. Bir gramm ham ortiqcha yog' yo'q, to'g'rimi?

Palmer shu yerda, divan ustida yotgan kalta ishtonini olib, kiydi.

— U chiqib ketishi uchun oshxonaga kirib turolmaysanmi?

— Men uni ko'rmagan bo'lsam ham, Jinni deb taxmin qilsam bo'ladimi?

— Birinchi raund, — Palmer maykasini kiya boshladi. — Shunday ekan, men unga siynabandini beraman.

— Qimirla. Buni, hm, madad berish deyiladi.

— Ha. — Palmer yotoqxonaga eshigini taqillatdi. Eshik qiya ochildi. U siynabandni uzatdi.

— U sen borligingni biladi, — dedi u.

— Tushunarli. — Ayol eshikni yopdi.

— Chamasi, uning jahli chiqdi, — xushmuomalalik bilan soʻz qistirdi Berns. — Biroq u kimga jahli qilyapti?

Palmer divanga oʻtirib, shoshilmay paypoqlarini kiydi, kamarini taqdi.

Yotoqxonada eshigi ochildi. Virjiniya ikkala erkakning orasidan oʻtib, deraza yoniga bordi. Quyosh nuriga yoʻgʻrilganicha, upadonini oldi. Yuziga sinchiklab qarab, lablarini boʻyadi. Soʻng erkaklarga oʻgirildi:

— Salom, Mak!

— Juda zoʻr, — Berns bosh irgʻadi. — Vaqtni hisobga olmaganimga afsusdaman.

Ayol qoshlarini chimirdi:

— Shundaymi? Oʻzini bosishga urinib, chuqur xoʻrsindi. — Mayli, idorada ishim bor. Janoblar, koʻrishguncha.

Ellik beshinchi bob

— Toʻgʻrisini aytganda, sira ham borgim kelmayapti, — dedi Edis pardozi stolidagi koʻzgu qarshisida oʻtirib, yuziga bir tekisda upa surarkan. Uning yuzidagi mayda ajinlar chaplashgan pardozi ostida bilinmay qoldi.

Shu kunning oʻzida ikkinchi marta soqolini qirtishlagan Palmer hammomdan chiqdi. U soqoli har kuni olinmasa ham koʻzga tashlanmasligini bilsa ham oʻta silliq koʻrinish istagida yana bir marta soqol olishga mayl bildirdi.

— Bu, hatto qiziq tuyuladi, — uning gapini quvvatladi Palmer. — U yerda bizdan boshqa oʻta mashhur odamlar ham boʻladi. Zoʻr taomlarga boy dasturxon ham...

— Agar yahudiylarning taomlarini yoqtirsang, — labini boʻyayotgan Edis yarim ovozda javob berdi.

— Istehzo qilayapsanmi?

Edis xoʻrsindi.

— Yahudiylarga yaxshi munosabatda boʻlgan holda ularning taomlarini yoqtirmaslik mumkin. Ovqatlar hamisha keragidan ortiq qaynatilgan boʻladi, ziravorlar yetishmaydi. Anchagina doʻstlarim yahudiy taomlariga toqat qilolmaydi.

Palmer uni masxara qildi. Niyati Edisning kayfiyatini koʻtarish edi.

— Bu gaplaring Berns aytib bergan hazilni yodimga tushirdi.

Edis qoshlarini chimirdi:

— Ikkovlarning hazil gaplar bilan vaqt oʻtkazarkansizlarda?

— Bruklinda xitoy restorani ochildi, — shoshilib gapida davom etdi Palmer. — Birinchi xoʻrandayoq taomnomani qoʻliga olib, "Avf eting, sizlarda baqlajondan tayyorlangan pissa, losana, manicotti, parmigianlar bor ekan! Sizlar bularni xitoy taomlari deb atayapsizlarmi? — deb soʻrabdi. Unga javoban ofitsiant yelkasini qisib: — Nima qilaylik, yahudiylar hududidamiz-da, — degan ekan.

Edis koʻzlarini boʻyashga oʻtdi.

— Bu hazil, — dedi u bor eʼtiborini koʻzini boʻyashga qaratib, past, oʻzinikiga oʻxshamagan ovozda, — faqat Nyu-Yorkliklar uchun kulgili. Agar mening kayfiyatimni koʻtarmoqchi boʻlsang, ovora boʻlasan.

— Jin ursin, sening yaxshi kayfiyatingni menga nima keragi bor? — zaharxanda qildi u. — Sen qanday boʻlsang, shundayligingcha menga yoqasan.

Dasturxon oʻta toʻkis boʻlgani bois mehmonlar "Plaza"ga oqshom soat yetti yarimga taklif qilingan edilar. Shunga qaramay, soat toʻqqizda kelgan Palmerlar zalning yarmi boʻshab qolganini koʻrishdi. Xizmatkorlar chaqqonlik bilan taomli taqsimchalarni qoʻya boshladilar. Palmer maxsus kiyim kiygan eshik ogʻasiga bosma harflarda yozilgan taklifnomani uzatdi. U nimyashil rangdagi qalin qogʻozga qarab, past, lekin shirali ovozda ularning ism-sharifini eʼlon qildi:

— Kichik Vuds Palmer janoblari, xonimlari bilan!

Eshikdan nariroqda turgan bir nechta odam shu zahoti suhbatlarini toʻxtatib, kulib qaraganicha er-

xotin Palmer bilan salomlashishdi. Go'yo buyruq berilgandek, yetti kishidan iborat jaz musiqachilari sho'x kuy boshlab yubordilar.

Guruhdan yoqimtoy yuzli erkak ajralib chiqdi. Palmer u bilan Olbanida atigi bir marta uchrashgan bo'lsa ham u haqda anchagina gaplar eshitgandi. Shtat gubernatorining yordamchisi bo'lgan bu odamning tipratikan shaklida oldirilgan siyrak sochlari tepasidagi xaddan tashqari toza va yaltiroq tepakali aniq ko'rinib turardi. Asli kasbi muhandis bo'lgani uchun siyosatga kelguncha u bir necha yil mahalliy kollejda o'qituvchilik qilgandi. Hozir ham unda professorlik nutqi bor, deb o'yladi Palmer. Gubernator yordamchisining ko'zlari Berkxardtnikiga o'xshagan moviy edi. Ko'zlari tepasidagi ko'ndalang chiziqli peshonasi, Palmerning xayolida, quvnoq surbetlik belgisi bo'lib tuyuldi.

— Vuds, — dedi u bir maromdagi vazmin ovoz bilan, — kelganingiz juda ham yaxshi bo'ldi.

— Gubernator, bu — mening rafiqam Edis.

— Juda ham xursandman, Palmer xonim. Sizga rafiqam Say-meni tanishtirishga ruxsat eting. Azizim, "Yunayted benk"dan er-xotin Palmerlar. Kichkinagina ayolning yuzlarida go'yo qizini turmushga uzatayotgan onanikidek sarosimali tabassum paydo bo'ldi.

— Salom, Adler xonim, — dedi Edis. — Siz uchun, albatta, bu katta voqea. Qanchadan-qancha tashvish.

Adler xonim nozik yelkalarini qisdi — mehmonning gapida qandaydir ma'noda ochiqdan-ochiq kamsitish ohangi bor edi. — Mening turmushga chiqaradigan qizim ko'p emas, axir, — dedi u va yonida turgan qiz tomon o'girildi. — Mana kelin. Mim, janob Palmer va Palmer xonim bilan tanish. Mana bu — qizim Miranda, bunisi esa-kuyov.

Kelinning ko'rinishidan nikoh yoshiga yetgan deb bo'lmasdi. Palmer unga qarab jilmaydi va bunga javoban kelin bo'lmishning g'alati, horg'in kulimsiraganini ko'rdi. U Adlerni qulidan epchillik bilan tutib, mehmonlarni bu guruhdan nari olib ketdi.

— Qariganda ko'rgan farzandim, — dedi u past ovozda.

— Nechta farzandingiz bor? — so'radi Palmer.

Ular bar tomon yo'naldilar.

— Ikkita o'g'lim, ularning ham ikkitadan o'g'illari bor. Mim hali kollejda o'qiydi. U akalaridan ancha kichik.

— Demak, Miranda Pirospersoning qizi. Siz, esa sehrgar ekansiz-da?

Bu luqmani yutib yuborayotgandek, Adlerning og'zi biroz qiyshaydi.

— Keksa sehrgar sizga shampän vinosini taklif qiladi, — dedi u bufetchiga im qoqib.

— Mening qizim o'n bir yoshda, — ikkita stakanni olayotgan Palmer gapini davom ettirdi. — O'g'illarimning biri katta, ikkinchisi kichkina.

— Qizingizning to'yi kuni, mening do'stim, — Adler unga muloyim boqdi. — Bankir bo'lgan kuningizga mingdan-ming rahmat aytasiz. — U xonaga ko'z yugurtirdi. Edis yonida endigina kelgan mehmonlar turardi. — Tushunmadim, mening jamg'arma bankida bir necha dollar pulim qolishi uchun nega u sevgani bilan qochib keta qolmadi ekan?

Palmer kulib yubordi:

— Siz, omonatchi sifatida jamg'arma banklarini alohida ajratish bo'yicha qonun loyihalari bilan juda qiziqsangiz kerak?

— Bugungi qabul sharofati bilan meni qiziqtiradigan pulning o'zi qolgani yo'q, — Adler ma'yus kulimsinadi. — Men borib, mehmonlar bilan salomlashay. O'zingizni o'z uyingizda yurgandek biling, — u eshik tomon yo'l oldi. Palmer Edisning yoniga borib, unga shampän vinosi uzatdi. Ular yosh kelin-kuyov sharafiga qadah ko'tarishdi.

— Baxt tilayman! — dedi Edis.

Qizning yonoqlari o'ta oq, ko'zlari ostida ko'kimtir soyalar paydo bo'lgandi. U bosh irg'adi:

— Rahmat, Palmer xonim.

Yangi kelganlar tanishtirilayotganda Palmer va xotini nari ketishdi.

— Qara-ya, — dedi Edis hayratlanib, u shunchalik hayajonlanayaptiki, rangida qon qolmapti.

Shunday bo'lsa ham familiyamizni eslab qolipti.

— Siyosat arbobning qizi bunaqa narsalarni unutmaydi.

— Azizim, bu odamlar haqida menga biroz gapirib ber.

— Adlarmi? U ajoyib inson. U o'ta halol odam sifatida obro' qozongan. Balki, shundaydir ham. Hozir esa to'y xarajatidan tamoman dovdirab qolibdi.

— Mak Berns shu yerdami? Negadir uni ko'rmayapman.

— Mak kechroq keladi, — bashorat qildi Palmer. — Ajoyib ayol davrasida u. Bu — firma belgisi. Hov ana, ismi nimaydi, ha, Qo'shma shtatlar senatori.

— U qaerdan?

— Yo qishloqdan, yo markazdan. Anig'i esimda yo'q. U bilan suhbatlashib turgan ayol gubernatorning rafiqasi. Bundan ko'rinadiki, janob oliylari ham shu yerda-yu, kim bilandir siyosat haqida fikrlashyapti, shekilli.

— Hozirgina kirib kelgan juft kimlar?

— Voy xudoyim, Edis, sen merimizni kimligini bilishing kerak-ku?

— Ularning yonidagi bahaybat erkak-chi? Yuzi g'alati ekan. Uni hatto aqlli deb atash mumkin.

— U Viktor Kalxeyn. Azizam, senga u haqda gapirgandim.

— Kattakon Vik. G'aroyib.

— U bilan tanishishni xohlaysanmi?

— Yo'q, qo'yaqol...

— Oh, anavilarni qara.

Palmer uning nigohi qadalgan tomonga qarab, yetmish yoshlardagi erkak va ayol sho'x kuyga raqs tusha boshlaganini ko'rdi. Palmer avvaliga ularning harakatlaridagi nuqsonni ilg'ay olmadi. Ular musiqaga mos ohangda harakat qilayotgan bo'lsalar-da, harakatlarida qandaydir g'ayritabiiy holatlar bor edi.

— Ular bundan tuzukroq raqs tusha olmasa kerak, — dedi Edis past ovozda. Keyin: — Umuman, birontasi ulardan o'zib keta olarmikin? — dedi va qo'shib qo'ydi: — Ana, Berkxardtlar ham kelishdi.

Palmer ular uy egalari bilan tezgina salomlashib, o'zlariga shampan vinosi quyishganini, keyin gubernatorning yordamchisi bilan qadah urishtirib, tanishlarini izlab, atrofga alanglashganini kuzatib turdi. Berkxardtning ko'zi darhol Palmerlarga tushdi va xotinini yetaklab ularning yoniga keldi.

— Xayrli oqshom, Edis, Vudi.

Ikkala juftlik bir-biridan hol-ahvol so'rab ulgurmaslaridan Berkxardt Palmerning tirsagidan ushlab, uni nari tortdi. Shu tarzda ular suhbatlashayotgan yana bir guruhga aylandilar.

— Bugun qayoqqa yo'qolding, jin urgur? — so'radi u.

— Berns bilan birga edim.

— Olbanidami?

— Shu yerda. U kunduz soat birlarda kelib, qayta-qayta kechirim so'radi.

— Grekka hech qachon ishonma, — Berkxardt chuqur-chuqur nafas oldi, biroq shunda ham tinchlanmadi. — O'zingni oqlash uchun nima deya olasan?

— Faqat bir odim ilgarilaganimiz, Bernsni o'z ishonchimizga olganimizni...

— Sendan aynan mana shunday ahmoqona gaplarni kutgandim, — dedi Berkxardt iloji boricha Palmerning qulog'iga yaqinlashib, ovozida ochiq zaharxanda sezilib turardi. — Sen qanday chora ko'rmoqchisan? Yo shu yerda, arzon shampan vinosini ichib turaverasanmi?

— Siz nima, "Bolinger" oldingizmi? — Palmer katta ochilgan ko'zlarini boshlig'iga qadadi.

— Quloq sol, o'g'il bola, — Berkxardtning ovozi Palmerning naq qulog'ining ichida yangrab, miya qopqog'ini ko'tarib yuborganday tuyuldi. — Bu xaromi bizni chuv tushirib ketdi, — ma'lum qildi Berkxardt. — Ularga rahbarlik qilishni senga topshirgandim. Haligacha tushuna olmayman: sen ahmoqmisan yo aldoqchimisan? Ikkovidan qay birisan?

— Siz nima deb o'ylaysiz?

Berkxardt o'zini bir qadam nariga olib, qahrli moviy ko'zlarini Palmerni qadadi.

— Senga ovsarlik yarashadi.

— Bunday emasligimni yaxshi bilasiz, — Palmer imkon qadar hazil ohangida gapirishga urindi. Men sizni bir oydan oldinroq ogohlantirgandim. Siz ahamiyat bermadingiz.

— Meni uning tuzatish haqidagi g'oyalari ishlab chiqilishi haqida ogohlantirganlaring yo'q. Yo bu sening ham g'oyangmidi?

— Uning g'oyasi edi. Men tashviqot qilgandim. Sizdan boshqa birorta ko'rsatma olmaganim uchun, sizning odamingizni — Bernsni qo'llayverdim.

Berkxardtning ko'zlari qisilib ketdi.

— Senga umuman nafas olgin deb buyruq bermasam, nima bo'lardi, Vudi? Ko'karib, o'lib qolasanmi?

Palmer do'stona jilmaydi.

— Yolg'iz yo'l boshchining odatdagi kasali, Leyn. Agar hokimiyatni topshirishga o'zingizni majburlay olganingizda bu boshi berk ko'chaga kirib qolmagan bo'lardingiz. Biroq hozir ancha kech bo'ldi deb qo'rqaman.

— Ana shu-da, jin ursin, — g'ijindi Berkxardt.

— Umid qilamanki, siz haqsiz.

— Men boshidan nima qilishim kerak bo'lsa, ana shundan boshlamoqchiman. Kichik qora chamadonni yap-yangi "ko'ki" bilan to'ldiraman, Olbaniga borib, ayyorlik bilan menga nima sotib olishga intilgan bo'lsalaringiz, o'shalarning hammasini sotib olaman. Ayyorlikning bas qilinglar! Naqd pul bilan to'lash vaqti keldi.

— Suhbat mavzusini o'zgartirish vaqti ham yetti, — javob berdi Palmer. — Biz tomonga Madigal kelayapti.

Ular barobariga o'zlari tomon kelayotgan ellik besh yoshlardagi yigit — gavdali erkakka qarashdi. U "Merrey xil" jamg'arma bankining rahbarlaridan biri Jim Madigal edi. Endilikda zal juda tez to'lib borayotgani uchun Madigal qiyinchilik bilan yo'l ochib, ular tomon yaqinlashardi. U og'zini katta ochib, jilmaydi.

— Sizlarning bu yerdaliklaringni bilmagan edim, — dedi Madigal ularning qo'lini qisib. — Men gubernator bilan laqillashib, agar kelgan bo'lsalaring, sizlar ham unga hurmatlaringni bildirasizlar-da, deb o'ylabman.

— Keyinroq, — shang'illadi Berkxardt. — Jin urgur, Jim, ko'rinishing muncha beso'naqay? Semirayapsanmi?

Madigal yanayam quvnoq jilmayib, Berkxardtning tekis qorniga shapatiladi.

— Qari Temir Qorin. Siz qachon iste'foga chiqib, hayotdan lazzat olasiz?

— Qachon siz, gadoylarga o'xshab bo'sh qutilarni silkitishni qo'yib, yangi bo'linmalar ochishni so'rashdan to'xtaganlaringdan keyin.

Palmer Madigalning jilmayishiga jilmayish bilan javob berib, bu guruhdan ajralish uchun ularga yonlamasiga turib oldi. U Edis va Berkxardt xonim bilan suhbatlashishim kerak degan bahonada erkaklardan nari ketdi. Muruvvati buralgan qo'g'irchoqqa o'xshagan ikkala qariya endi boshqa musiqaga raqs tushishardi. Ularga bir nechta yoshroq juftlar qo'shilishgan. Raqslardan ilhomlangan musiqachilar tun bo'yi musiqa chalmoqchiga o'xshardilar. Palmer ko'p sonli mehmonlarni ehtiyotkorlik bilan oralab borar ekan, ular gapirayotgan gaplarning uzuq-yuluq bo'laklarini eshitib, anglash uchun bor diqqatini jamladi.

— ... Buning o'rniga jinday viski ichasizmi?

Palmer o'girilib, bu savol bilan o'ziga murojaat qilayotgan Vik Kalxeynni ko'rdi.

— Siz viski ichasizmi, Vik?

— Shampin vinosi oyoqdan oladi.

Palmer bosh irg'adi:

— Sizga o'xshagan ishbilarmon odamning oyog'idan oladigan narsa bo'lishi mumkinligini o'ylamagan ekanman.

Kalxeyn asta jilmayib, qornini ichiga tortganicha, daroz qaddini rostladi.

— Mak aytdiki, siz uni tushib qolgan og'ir ahvoldan chiqarib olar ekansiz. Bu ham oyoqdan oladigan ish.

Palmer qadahlarni ko'targanicha, odamlar orasidan asta-sekin Edis tomonga surila boshladi.

— ... faqat keyingi oyda tamom bo'ladi, qulog'igacha qarzga botgan. Ijaraga berishdan oldin anchagina qismini naqd to'lashga to'g'ri keladi.

— Hozir ijara bahosi qancha? U shunaqanggi qiyin ahvoldaki, men...

— "T-Berd" havoni tozalovchi moslama va shinam bari bilan. Men dedimki...

— aktsiyalarni to'rt yarimdan maydalatibdi...

— ... ahmoq, g'irt ahmoq...

— Ma, ol azizam, — Palmer qadahdagi vinoni Edisga uzatdi. — Berkxardt xonim qani?

— Shu atrofda. Men... bilan shunday maza qilib suhbatlashdimki.

— ... qirq uchta kredit bileti, ulardan birortasi ham bo'lmaydi...

— Unday bo'lsa, men vinosini ichib qo'yaman, — dedi Palmer.

— Viskidan keyin-a?

— Bu bugungi oqshomda men ichadigan oxirgi ichimlik bo'ladi, — ta'kidladi Palmer.

— Nima bo'lganda ham bu seni oxirgi marta barning oldiga borib, qaytishing bo'ladi. Ilgari hech shunchalik tala-to'p bo'lganini ko'rganmisan? Bu odamlar...

Kimdir kattakon nog'oraga urilib ketdi. Urib chalinadigan lappaklar jarangladi. Musiqachilar o'tirgan joydan dahshatli gumburlash eshitildi. Hamma birdan musiqachilar tomonga o'girildi. Zalga to'liq jimlik cho'kdi. Ayni shu paytda eshik tomonda harakat boshlandi. Palmer o'sha yoqqa qarab, zalga kirib kelayotgan Mak Bernsga ko'zi tushdi. Uning yonida qizil ipak ko'ylak kiygan Virjiniya Kleri kelardi. U Makni qo'ltiqlab olgandi.

— Nimani nazarda tutganingni tushuna olmayapman, — dedi Edis shivirlab. — O'z vaqtida kelish. Uning yonidagi pakana kim?

— Pakana?

— Boshqa tuzukroq nom topa olmadim. U o'zidan pastroq bo'lgani uchun uni olganmi?

— U mening reklama bo'limidagi xodim.

— Haligi... sening nutqlaringni yozadigan...

— Odatda yozardi.

— Shunaqalar ham bankda ishlasa... — Edis yangi kelayotganlar kelin va uning akasi bilan qanday so'rashayotganiga qarab turdi. — Zamon o'zgaryapti.

— Shunda u bunaqa qiyofada bo'lmaydi, — izoh berdi Palmer.

— Anavi Kler xonimmi? — so'radi Edis.

Berns bilan Virjiniya ularni ko'rmagan bo'lishsa ham Palmer turgan tomonga surilib kelishardi.

— Kleri. Virjiniya Kleri. Ilgari "Tayms" bilan "Star"da ishlagan.

— Ikkovidayam-a? Nahot shunday yoshgina ayol... — Edis jim qoldi. — Darvoqe, u unchalik yosh emas, to'g'rimi?

— Kechirasan, nima deding?

— Uzoqdan u judayam yosh ko'ringandi.

— Bilmadim.

— Qirq yoshdan oshgan, — dedi Edis. — Chamasi, u biz tomonga kelyapti.

— Berns bilan apoq-chapoq bo'laverma, men u bilan achchiqlashib qolganman.

— Kleri xonimga qanday munosabatdasan?

— O'ziga hamroh tanlashini qiziqish bilan kuzatib boraman.

— U xohlaganini tanlab olavermaydimi?

— U aynan Bernsni tanlagani sal g'alatiroq.

— Balki don olishib yurishishar? — ular yaqinlashgan sayin gumonlarini tinmay aytar edi Edis.

— Xudoyim-ey, aloqalari yo'q! — xitob qildi Palmer.

— Shundayligiga ishonasanmi?

— Ishonmayman, — Palmer bo'shshadi. — Bu shunchaki, ishonib bo'lmaydigan gap.

Shu payt Virjiniya uni ko'rdi. Uning qo'llari Bernsning tirsagiga yopishdi.

— Men yanayam ishonib bo'lmaydigan narsalarni ko'rdim, — sekingina dedi Edis.

Shu payt Berns ham ularni ko'rdi va maftunkorona hayrat bilan Virjiniyani ularning oldiga yetaklab keldi.

— Vudi... va mening sevimli mallaginam. Qalaysiz, azizam? — u Edisga murojaat qildi. Uning javobini kutmasdan: — Edis, Palmer, Virjiniya Kleri, bizning ishongan xodimimiz — jamoatchilik bilan aloqa qilish bo'yicha mutaxassis.

Edis bir soniyaga ikkilanib turgach, qo'lini uzatdi.

— Siz haqingizda hamma narsani bilaman deya olmayman, — Virjiniyaga murojaat qildi u. — Biroq siz o'sha... Vudi uchun nutqlar yozib beradigan daho bo'lsangiz kerak.

Virjiniya uning qo'lini qisdi.

— Odatda, yozar edim, — dedi u sekingina.

— Kechirasiz?

— Odatda yozar edim, — qattiqroq takrorladi Virjiniya. — Endi bu lavozimdan ozod qilishgan.

— Vuds o'zidan aqlliyoq odamlarni unchalik yoqtirmaydi.

— Bundaylarni kim yoqtiradi? — Yumshoqqina qilib so'radi Berns.

— O, bu gapingiz siz bilan juda apoq-chapoq bo'lmasligim kerakligini yodimga tushirdi, janob Berns. Mening erim siz bilan achchiqlashib qolibdi. Nima gap o'tdi? — so'radi Edis.

— Nima gapligini aytgani yo'q demoqchimisiz? — Hamon do'stona jilmayib so'radi Berns. Uning o'tkir burni Palmer tomonga o'girildi.

— ... shartnoma deyarli mening qo'limda edi, dedi menga, — Palmerning yonginasidan qandaydir erkakning ovozi keldi.

— Unga qizig'i bo'lmasa kerak deb o'yladim, — Bernsning gapiga javob berdi Palmer.

— Aksincha. Men hamisha qiziqaman.

Virjiniya Bernsga yanayam yopishibroq olib, qo'llariga shapatiladi va:

— Sen menga nisbatan sabrliroqsan, — deb qo'ydi.

— Agar siz bu ikki erkak bilan ishlasangiz, sizning sabr-toqatingiz hammanikidan ko'proq ekan derdim, — Edis gap qo'shdi. U jim bo'lib qoldi, keyin atrofga alangladi.

— Shampan vinosi yo'qmi?

— Hozir men topib kelaman, — Berns uchovini qoldirib, bir zumda nari ketdi.

Palmer o'zi va ikki ayol anchadan buyon jim turishganini anglab qoldi. U shoshilib, angladi.

— Chamasi, Mak unchalik uzoqqa ketmagan shekilli, — gap boshladi u. — Anavi, u bilan gaplashayotgan ikki kishi kim ekan?

Virjiniya u ko'rsatgan tomonga qaradi.

— Qishloqdan kelgan respublikachilar.

— Mak demokratlardan boshqa birov bilan gaplashishiga shubha qilardim, — dedi Edis.

— Hamma o'zi xohlagani bilan gaplashadi, — javob berdi Virjiniya. — Bu — siyosatning asosiy qoidasi. Suhbatlashish, do'stona munosabatda bo'lish. Aloqa yo'llarini ochiq tutish.

— Ajoyib qoida, o'ychanlik bilan dedi Edis. — Nafaqat siyosatda.

— Biz, chamasi, bu qoidani quvvatlay olmaymiz shekilli, — Edis gapini davom ettirdi. — Aytingchi, Kleri xonim, bu bankda anchadan buyon ishlayapsizmi?

— Yo'q... deyarli ikki yildan buyon, — Virjiniya Palmerga nazar tashladi. — Nahotki shuncha ko'p vaqtdan buyon ishlayotgan bo'lsam?

— Mening o'zim ham yaqinda keldim-ku? Darrov ikki yil bo'ptimi-a?

Virjiniya biroz jim bo'lib qoldi. Keyin: — Darvoqe, shunday. Sezmabman ham, ikki yil bo'libdi, — deb qo'ydi.

Yana gap qovushmadi. Palmer ko'zlari bilan Bernsni qidirdi va u shtatning sobiq gubernatori bilan

suhbatlashayotganini ko'rdi.

— Umid qilamanki, judayam ichkilaring kelmayotgandir, — dedi Palmer. — Mak yana to'xtab qoldi.

— Sen uni tutib kela qolmaysanmi? Biz seni kutib turamiz.

— Men...

— Boraqol, azizim. Biz Kleri xonim bilan suhbatlashish uchun mavzu topa olamiz.

— Uning bir necha daqiqadan keyin qaytishiga ishonaman...

— Qara, uni endi senator gapga solayapti, — ayol uning qo'lga bo'sh qadahini tutqazdi. — Biz yo shu yerda bo'lamiz yoki... — u atrofiga nazar tashladi. — Yoki birinchi stolning yonida bo'lamiz.

Palmer Virjiniyaning ko'zlariga qaradi va unda qandaydir alohida ma'no angladi.

— Men hoziroq qaytaman. — u qornida ko'nglini ag'darar darajada og'riq sezib, nari ketdi.

U Bernsni bar yonida, Vik Kalxeyn bilan qizg'in suhbatlashayotgan joydan topdi.

— Mak, — Palmer unga murojaat qildi, — katta rahmat!

Berns ung sekingina, surbetlarcha jilmayib, o'girildi.

— Vudi, bolaginam, jin ursin ular nima haqda gaplashisharkin? Xotinning o'ta sezgir-a, shunday emasmi?

Palmer uch qadah shampan vinosi buyurdi.

— Virjiniyani birga kelishga qanday ko'ndirding?

— Shaxsan yoqimtoyligim bilan, sen uchun bu ishda balogardon bo'layotganimni unutmagin.

Palmerning o'zi vino va qadahlarni olmoqchi bo'ldi-yu, biroz o'ylab, bufetchiga buyurdi:

— Manavi qadahlar va shampanlı shishani ofitsiantingiz o'ng tomondagi birinchi stolchaga olib borsin. — U Bernsga yana bir qarab, nari ketdi.

Zalda odamlar shunchalik ko'p ediki, ayrimlar bo'sh joy topish ilinjida eshik yonida tik turishardi. Palmer ularning orasida sabr-toqat bilan kutib turgan ikkita erkakni — qaysidir kichikroq davlatning Birlashgan millatlardagi vakilini tanib qoldi. U ushbu olomon orasidan amallab ular tomon yo'l ochib bora boshladi...

— Erim bilan ishlash qiyin emasmi? — kutilmaganda so'radi Edis.

— Endi... men unday demasdim...

— Siz u haqda nima deya olasiz?

Virjiniya indamadi.

— Unga bo'ysunuvchi xodim va rahbarining xotini bilan suhbatlashayotgan ayol sifatida u haqda... menimcha, hech narsa demasdim...

— O, — Edis yoqimli jilmaydi va o'girilib, Palmerni ko'rdi. — Ana, uning o'zi ham. Lekin vinosiz. Nima bo'ldi, azizim?

— Vino keltirishni ofitsiantga topshirgandim.

U kichkinagina javohirlar bilan bezatilgan soatchasiga qaradi.

— U ulgurmaydi. Soat o'n bo'ldi.

— Umumun, men ketmoqchiman, — Edis Palmerga qaradi. — Menimcha, sen qolishing kerak.

— Shunday shekilli.

— Yaxshi, — Edis o'rnidan turdi.

— Mashinagacha kuzatib qo'yaman, — Palmer uning qo'lidan ushladi. — Bu tiqilinchda menga yaqinroq yur.

— Ko'rishguncha, Kleri xonim, siz bilan tanishganimdan o'ta xursandman.

— Rahmat, Palmer xonim. Men ham juda xursandman.

Edis unga bir lahza tikilib qoldi.

— Menimcha, — xayolchanlik bilan dedi u, — ikkovlarning ham juda yaxshi o'ynadilaring...

Ellik oltinchi bob

Palmer deyarli yarim soatcha qolib ketdi. Taksi chaqirishga bir necha daqiqa vaqti ketdi. Biroq Edisni mashinaga o'tqazib, unga xayrli tun tilagandan keyin ham darhol zalga qaytgani yo'q. Aksincha, "Plaza"ning keng sharqiy zinalarida turib, muzdek havodan shunday to'yib simirdiki, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi. U to'xtab, yelkalarini to'g'riladi, aftini burishtirib, o'z aksiga tikilib qoldi-yu, darhol chehrasi o'zgardi: yo'lak xizmatchisi uni kuzatib turardi.

Palmer o'qraygan nigohini xizmatkorga tikdi, u darhol yerga qaradi. Palmer boshini chayqab, ortiga qaytdi va tantana bo'layotgan zal yonidagi kichkinagina xonaga kirib o'tirdi. Zaldagi tartibsiz shov-shuvlar yaqqol eshitilib turardi.

Uning ko'z oldida o't chaqnadi. Palmer boshini ko'tarib, yoqilgan gugurt cho'pini uzatib turgan ofitsiantni ko'rdi va sigaretani tutatdi.

— Rahmat.

— Marhamat, janob. Vino istaysizmi?

Palmer og'rinibgina chimirildi.

— Muz solingan viski olib keling.

— Xo'p bo'ladi, janob, muz solinganidan...

Palmer kerishdi. Edis uning o'ynashi borligini, u — Virjiniyaligini bilishi mumkinmi? Agar u hamma narsani tushungan bo'lsa, qanday chora qo'llashi mumkin? Dalil qidirarmikin? Bu ishda Bernsning rolini va uning qo'lidagi ma'lumot haqida bilguncha, qancha vaqt o'tarkin?

Viski olib kelishdi. U ofitsiantga minnatdorchilik bildirib, viskinging xo'plab icha boshladi. Muzdek nordon ichimlik aqlini tiniqlashtirgandek bo'ldi.

Yo'q, dedi u o'ziga o'zi, Edis nimanidir gumon qilishi mumkin, lekin aniq bir gap bilmaydi. Biroq YuBTKni kuzata borib, Jet-Texni qo'lga olishda qatnashganini bilsa, shunday bo'lishi tayin, u eriga juda kuchli tazyiq o'tkazilganini anglaydi.

Bir soat, uzog'i bilan ikki soatda u Bernsga javob berishi kerak. Palmer stakanni ko'targanicha, zalning eshigi yoniga bordi. Raqs maydoni atrofiga qo'yilgan stollarni odamlar o'rab olgan, ular ishtaha bilan taomlarni tushirib, idishlarni bo'shatishardi. Zalda bir necha juft raqs tushardi. Ularning orasida allaqachon musiqa ohangini anglamay, o'zicha raqs tushayotgan, o'yinni boshlab bergan qariyalar ham bor edi.

Palmer hayrat bilan nima uchun Bernsga javob berishni paysalga solayapman, deb o'yladi. Bu javob qanday bo'lishi ikkoviga ham ma'lum, axir.

Palmer qishloqdan kelgan, tijorat banki zanjirining qudratli halqalaridan biri bo'lgan bir tadbirkor bankirni kuzata boshladi. U bruklinlik demokrat kongresschi va "Merrey Xill"dagi Jim Madigalga yaqinda bo'lib o'tgan qandaydir uzundan uzoq voqeani kuyib-pishib gapirayotgandi. Ular Palmerdan bir necha qadam narida turishar, ko'rinishdan go'yo qadrdon aka-ukalarga o'xshar edilar. Gap tugagach, tadbirkor bo'sh likopchalarni olib, yana taom to'ldirgani ketdi...

— ... Yarim kechaga yaqin mening uyimga o'tgin, — Berns Palmerning qulog'iga shivirladi.

Palmer ko'zini pirpiratib, so'radi:

— Borishim shartmi?

— Albatta borishingiz zarur.

— Men shu yerdayoq senga javob berishim mumkin.

— Biroq men senga bu yerda ko'rsatma bera olmayman, shunday emasmi?

Palmer "ko'rsatma" nima bo'lishini o'ylab, indamadi.

— Virjiniya ko'rinmaydimi?

— Shu atrofda. Xohlasang, topib beraman.

Palmer bosh chayqadi:

— O'zim topib olaman.

— Albatta, azizim, — Berns do'stona kulganicha nari ketdi.

Palmer qo'lidagi viskini simirganicha, qizil ipak ko'ylakni qidirib, devor bo'ylab siljiy boshladi.

Go'yo oxiri yo'qdek tuyulgan musiqa ovozi birdan to'xtadi-yu, boshqa, ohistarog'i boshlandi. Palmer

zalning narigi chekkasida, bufetning yonida qizil ko'ylakni ko'rdi.

U notanish erkak bilan suhbatlashib turgan Virjiniya tomonga yo'l oldi. Suhbatdoshlar stol atrofida aylanib, likoplarini turli taomlar bilan to'ldirgancha, chamasi, jiddiy bir narsa haqida gaplashishardi. Palmer yelkasiga turtgach, Virjiniya unga o'girildi.

— Janob P...! — uning ovozida biroz keskinlik bor edi. — Men siz uyingizga ketdingiz deb o'ylabman. — Sid Beron — jamg'arma banklarining jamoatchilik bilan aloqasi bo'yicha daho bilan tanishing.

Palmer erkakning qulini qisdi:

— Bugun xalq kuyi chalinmoqda, Kleri xonim. Sizni taklif etishga ruxsat bering.

Virjiniya chala to'ldirilgan likopchani biroz yuqori ko'tardi.

— Umuman men... ovqatlanmoqchi edim...

Palmer uning qo'lidan likopchani olib, stolga qo'ydi va Virjiniyani raqs maydoniga yetakladi. Ular bir maromdagi, vazmin kuy ohangiga moslab, aylana boshladilar.

— U senga nima dedi?

Virjiniya bosh chayqadi:

— Arziydigan gaplar emas, — u Palmerning ko'zlariga sinchkov tikildi. — Mazang bo'lmayaptimi?

— Seningcha, o'zimni yaxshi his qilishim kerakmi?

— Ha. Gaping to'g'ri.

— Buning ustiga, yarim kechada Berns bilan uchrashib, unga o'z qarorimni bildirishim kerak. U esa menga qandaydir yo'l-yo'riqlar bermoqchi.

— U seni rozi bo'ladi deb taxmin qilayaptimi?

— Eng yomon ishni qilishi uchun unga imkoniyat berdim deb o'ylayman, — Palmer bu gaplarni ayolning qulog'iga aytish uchun uni o'ziga tortdi. — Men hamma narsadan: ishdan bo'shab, oilamdan ajralganimdan keyin, boshqa biror joyda ko'ngildagidek yashashimga yetadigan pul bilan qolganimdan so'ng qanday bo'lishimni tasavvur qilib ko'rdim.

— Birorta serquyosh oroldami?

— Shunga o'xshashroq, — tan oldi u. — Sen bilan birga.

— Ajoyib g'oya. Ishonchsiz, amalga oshmaydigan...

— Ko'pchilik ajoyib g'oyalar hamisha ana shunday bo'ladi. — Ular bir qancha vaqt musiqaga moslab jimgina aylandilar. — Nega shunday? — Nihoyat so'radi Palmer. — Nega bu g'oya ishonchsiz?

— Uzoq tushuntirishga vaqt sarflamasdan, lo'nda qilib aytib qo'ya qolay: chunki sen hech qachon bunday qila olmaysan...

Musiqaga ovozi tindi. Ular raqs maydoni o'rtasida harakatsiz turib qoldilar. Orkestr yana kuy boshladi. Palmer bu musiqaga qachondir Virjiniya bilan raqs tushganini esladi.

— Esingdami?

— Jim bo'l, — o'ynayotgan Virjiniya uning pinjiga tiqildi. — Vuds, nihoyat u gap boshladi. — Sen Berkxardtning o'rniga o'tsang, nimasi yomon? Sen, axir, eng yuqori malakaga egasan-ku? Bu sen YuBTK uchun amalga oshirmoqchi bo'lib yurgan rejalariningni bajarish uchun imkoniyat emasmi?

— "Men bilan bo'l va sirayam qo'rqma", — Palmer takrorladi. U biroz chayqalib ketdi va oyoqlari o'ziga unchalik bo'ysunmayotganini payqadi.

— Vuds!

Ayol to'xtadi. Palmer jim bo'ldi.

— Davom etaver, — dedi Palmer hissiz ovozda.

— Shaxsan men uchun hech narsa yo'q, azizam, — u Bernsga taqlid qilib, jilmaydi. Yo shaxsiy biror narsa bormi?

Virjiniya o'girilib, raqs maydonidan chiqib ketdi.

Ellik yettinchi bob

Palmer ellik to'qqizinchi ko'cha bo'ylab sharq tomonga ketayotganini angladi. U bu joylarga qanday kelib qolganini eslay olmasdi. Aprel oyining boshlari bo'lsa ham izg'irin shamol kiyimlarni teshib o'tayotgandek. U hatto Palmerning qalin paltosidan ham o'tib, badaniga igna sanchyapti. Palmer Medison-avenyudan o'tayotib, o'yinchoqlar do'konining oynasi yonida turib qoldi. U vitrinaga qo'yilgan "Sten" firmasi ishlab chiqqan kichkina miltiq nusxasini, "Bofors"ning o'yinchoq zenit zambaragini, Tompsonlarning pulemyotini, yarim avtomat "M—1" miltig'ini, Lyugerning oxirgi modelini, Shmeysserning to'pponcha — avtomatini va boshqa o'yinchoq qurollarni erinmasdan tomosha qildi.

U qaddini rostlab, shamolga qarshi, sharqiy yo'nalish bo'ylab yurib ketdi.

Albatta, deya mulohaza qilardi u Park-avenyuni kesib o'tarkan, Virjiniya mutlaqo haq. Uning uchun tanlashga hech qanaqa imkon yo'q edi. Har qanday imkoniyat ham unga maqbul bo'laveradi. Biroq nima uchun Virjiniya mutlaqo haq bo'lishi kerak? Nima uchun, so'radi u o'zidan, nohaq bo'lishi mumkin emas?

Palmer "Nedik" qahvaxonasining eshigini ochib, baland o'rindiqlardan biriga o'tirdi.

— Qora qahva.

Barning egasi qandaydir tushunarsiz ovozda javob berdi.

Barmen va qahvaxonadagi yagona xo'randa muloyim jilmayishdi. Palmer qahvani olib, barmoqlarini isitish uchun idishni mahkam ushladi. Keyin achchiq ichimlikni icha boshladi.

— ... eski tanish ayolimizni bir soatcha avval ko'rdim, — barmen boyagi xo'randaga hikoya qila boshladi.

— Seni yoningga qahva ichgani kirgandir-da...

Palmer ularning quvnoq suhbatlarini tinglaganicha, qahvasini ichib bo'lib, peshtaxtaga o'n tsent qo'ydi. Keyin o'rnidan turib, ko'chaga chiqdi. Yuzlariga shamol urildi. Biroq ichilgan qaynoqqina qahva ta'sirida shamol yumshab qolgandek tuyuldi. U biroz tepalikka ketgan yo'l bilan sharq tomonga yurib, Satton Pleysga yetgach, janubga burildi.

Mana senga shahar, deb o'yladi u, odamlarni qara-ya. Sovuqqon, johil odamlar.

U Ellik yettinchi ko'chaga yetgach to'xtadi va muvozanatini saqlash uchun svetoforga tirmashdi. Qahva ichganiga qaramay, boshi hamon aylanardi. Kutilmaganda uzoqdan sirena ovozi eshitildi. Uning ovozi kuchaya boshladi, keyin asta tindi.

Shuyam shaharmi-ya. Asabiy shahar.

Palmer gavdasini amallab tik tutganicha, yo'lda davom etdi.

Bernsning xonadoni bo'm-bo'sh edi. Palmer ichkari kirib, salgina turtinganicha, xonalarni aylanib chiqdi. Keyin eshikni yopib, paltosini yechdi va deraza qanotlarini ochib yubordi. Xonaga muzdek havo yopirildi.

U divanga o'tirib, oyog'ini siqib turgan tuflisini yecha boshladi. Paypoqchan mehmonxonani aylanib, radiola yoniga bordi. Birorta qurilma bormikin degan o'yda uning ichlarini paypaslab ko'rdi. Eshik qulfida Bernsning kaliti aylanganda u hech narsa bilmagandek, bo'sh xonadagi divanda kulimsirab o'tirardi. Yuzlariga urilayotgan sovuq havo tufayli u ancha o'ziga kelib qolgandi.

— Salom! Mana senga kutilmagan sovg'a, azizim, — dedi Berns.

Palmer erinibgina boshini ko'tarib, Virjiniyani ko'rdi.

Palmer ulardan yuz o'girdi. Bor kuchini yig'ib, yana miyasida charx ura boshlagan ovozlarni to'xtatishga urindi. U Bernsning jilmayishini ko'rish uchun ayni vaqtida o'girildi.

— Kulayapsizmi, janob? — so'radi Palmer.

— Tinchlan, Vudi. O'zingni qulga ol. Menga faqat sening so'zing kerak. Agar bu senga shunchalik qattiq ta'sir qilsa, men seni majburlamayman. Men faqat... hmm, sen nima deb atarding... so'zsiz hamkorlik, xolos. Boshqacha qilib aytganda, voqealar o'z yo'li bilan rivojlanishiga halaqit berma. YuBTKga prezident bo'lishga rozi bo'l. Bu shunchalik qiyinmi?

— Sizlar, haqiqatan ham juda topishibsizlar, — dedi Palmer. — Kleri xonim ham bu gapni xuddi shu tarzda ifoda etgan edi.

— Agar u ham aqlli gaplar ayta boshlagan bo'lsa, hech narsa qo'shimcha qilolmayman, — e'tiroz bildirdi Berns.

— Sening qaynoq lablaringda hamon o'sha tabassum, — Palmer Berns tomon bir qadam yurdi. Xonaning chap tomoni biroz ko'tarilib, yana joyiga tushdi.

— Xo'p, mayli, Vudi, kel, qo'l olishamiz, do'stginam!

— Nima, men kulgilimanmi? — qiziqdi Palmer. U endi Bernsdan atigi yarim qadamcha berida turardi. U hatto Berns sepgan losonning hidini ham sezdi.

— Hech kim hech narsa degani yo'q...

— Men gapiryapman, — dedi Palmer. — Aks holda sen jilmaymasding.

Berns u tomon yurib, qo'lini uzutdi:

— Vudi, o'zingni tut, kel qulingni ber.

Palmer Bernsning qimmatbaho to'g'nog'ichi sovuq yaltiraganini payqadi. U Makning murdaning rangidek oppoq yuzlarini ko'zdan kechirdi, keyin Virjiniyaga qiyshayib qaradi. Ayol unga qarab, qandaydir noxushlikni sezdi va sal nariroqqa surildi. Ehtiyotkorlik bilan goh Bernsga, goh Palmerga tikildi.

— Vuds, — gap boshladi ayol, — nima uchun sen...

— Nima uchun hamma mening ismimni aytib gap boshlaydi? — so'radi Palmer.

— Vudi, — gap qo'shdi Berns, — tinchlan, qariya. Kel, yana do'st bo'lamiz.

— Sen bilanmi? — Palmer o'zining baland chiqqan ovoizdan aftini burishtirdi. Uning savoli deyarli qichqirib bo'lib yangradi. U chuqur xo'rsinib, ich-ichidan titroq his qildi. — Sen bilan, iflos fitnachi bilan-a? — ... boshdanoq sendan latta sifatida foydalandi...

— ... bu qizni shirin luqma sifatida tiqishtirdi...

Palmer anglab bo'lmaydigan nimalarnidir aytib g'o'ldirayotganini payqadi.

— O'chiringlar! — o'shqirdi u. Qulog'iga eshitilayotgan ovozlar tindi. — Mak Berns! Sasigan ariqdagi achigan miya. O'z kasbining arzandasi va faxri. Oxirgi bosqichdagi ruhiy kasal. Qo'shmachilar qiroli. Xoinlik ritsari. — U chap qo'lini cho'zib, barmoqlari bilan Bernsning ko'ksiga nuqdi.

U o'zini chetga olib, go'yo himoyalanmoqchi bo'lgandek, qo'lini ko'tardi.

— Yo'q! — Palmer qichqirib yubordi. Vaqt go'yo keskin to'xtab qoldi. Chamasi, Bernsning qo'llari musht bo'lib tugila boshladi.

Palmer o'ng qo'li taranglashayotganini payqadi. Tirsaklari orqaga surildi. Keyin qo'li tepaga ko'tarildi, mushaklari taranglashdi. O'ng qo'li oldinda aylandi. Tanasi ham qo'li bilan birga harakat qildi. Bernsning ko'zlari kattardi. Uning o'tkir iyagi va qulog'i o'rtasiga musht tushdi.

Palmer barmoqlari tekkan joydagi suyaklarning qisirlaganini eshitdi. U Bernsning ko'kimtir oq yuzini ko'rdi. Keyin u ko'zdan yo'qoldi...

Palmer pastga qaradi. Berns oppoq gilamda chuvalchangdek buralib yotardi. Uning kipriklari biroz piriqirab, keyin qimirlamay qoldi.

Og'zining chetidan quyuq qizil qon oqib, avval iyagiga, keyin gilamga tusha boshladi.

Palmer o'zini orqaga oldi. Xonadagi muhit go'yo ikkiga bo'linib ketdi. Unga havo yetishmay qoldi. Qiynalib nafas ola boshladi.

Va nihoyat u o'pkasidagi jazava to'xtaganini va og'zi qurib, qandaydir, achchiq ta'm bilan to'lganini payqadi. O'ng qo'lining barmoqlari karaxt bo'lib qolgandi.

U quloq soldi. Xonada jimlik hukmron. Hatto xayolidagi ovozlar ham tinchib qoldi. U Virjiniyaga qaradi. Uning ko'zlari shunday katta tuyuldiki, go'yo Palmerning aksi bu ko'zlarga singib ketdi.

Palmer Bernsning yoniga cho'kkalaganicha, qo'lini bo'yni ostiga tiqib, gilamdan ko'tardi. Gilamda doira yasalgan qon yap-yangi qizil bo'yoqqa o'xshardi. U Bernsning bo'yni terlab ketganini sezdi. Barmoqlari ostidagi tomir sezilar-sezilmas urib turibdi. U o'rnidan turib, xonani yana bir marta ko'zdan kechirdi.

Uning nigohi bir necha marta Virjiniyaning yuzlariga tushdi. U ko'zlarini Bernsdan olib, Palmerga qaradi.

— Unga hech narsa qilmadimi? Ayolning ovozi qumga sanchilgan belkurak tovushiga o`xshab chiqdi.

Palmer bosh irg`adi.

Virjiniya uning yoniga keldi. O`ng qo`lini ko`tarib, barmoqlarini ko`zdan kechirdi. Palmerning barmoqlari hamon titrardi.

— Barmoqlaring qalay? — so`radi Virjiniya.

U boshini chayqadi.

— Karaxt bo`lib qoldi.

— Qimirlatishga harakat qil. — U harakat qildi. Barmoqlari qattiq og`ridi, lekin bu og`riqqa chidasa bo`lardi. Lekin titroq kuchaydi.

— Sinmagan shekilli, — dedi Virjiniya. — Ichishga biror narsa beraman.

Palmer avvaliga rad etdi, keyin stakanni chap qo`li bilan oldi. Viskiga biroz diqqat bilan qarab turib, keyin bir necha marta xo`pladi. Biroq bundan ham tinchlanmadi. Stakanni stol qirrasiga quymoqchi bo`lgandi, eplay olmadi. Stakan gilamga tik tushib, ichidagi suyuqlikning bir tomchisi ham to`kilmadi.

Bu g`ayritabiyy holat Palmerni hayratda qoldirdi. Axir, idishdagi suyuqlik to`kilishi kerak-ku, shunday emasmi? U tirsaklarini tizzalariga tiraganicha, egilib go`yo butun tanasini chayqatayotgan ichki titroqni bosishga urindi.

— Sen o`zingni jag`i singan odamday tuta olasanmi? — so`radi Virjiniya. — Ichishga tobing qalay?

— Mening jag`im singan, — tan oldi Berns. U ko`p yillar til o`rganganini unutib, o`z shevasida, qattiq iztirob ichida gapirdi. — Ularning shahar tashqarisidagi birinchi toifali klublaridan, faqat oqlarga atalgan mehmonxonalaridan, kurortlari, maktablari, yahudiylar va katoliklar uchun cheklangan kollejlardan, la`nati ijara bitimlaridan, tushlik qilinadigan va qimor o`ynaladigan klublardan ko`nglim ayniydi.

— Gapimni eshit, — Berns davom etdi. — Sen qanchalik aqilli qiz bo`lmasin, hali bularni bilib olishing kerak. Vik meni tentak, deb hisoblaydi. U haliyam biz bilan birga biror ish qilishim mumkin, deb o`ylaydi. Bekorlarni aytipti. Bizni hurmat qilishga, bizga bo`ysunishga majbur qiladigan bitta vosita bor, xolos. Bu — etigimiz bilan basharasiga tepish! — U kutilmaganda baqirib yubordi. — Va, singilginam, bunga juda oz vaqt qoldi, agar sen....

— Mak, Mak, Mak! — Virjiniya uning yelkasiga qulini quyib, orqaga, divan suyang`ichiga itardi. — Iltimos, jim bo`l.

Berns shu zahoti o`rnidan sakrab turib, ehtiyotkorlik bilan jag`ini paypasladi.

— Agar sen Nyu-Yorkdagi bizga tegishli narsalar bir tunda ixtiyorimizga o`tib qolgan deb o`ylasang, tentak bo`lasan, — u Virjiniyaga murojaat qildi. — Biz ularni qonimiz bilan qo`lga kiritganmiz. Har bir qarichini. Bizni bir-birimizga — italyanlarni irlandlarga, yahudiylarni negrlarga, puerto-rikoliklarga gijgijlamagan, deb o`ylamagin. Biroq biz endi uni qo`lga kiritdik. — Palmer Berns qo`lini yuqori ko`tarib, musht qilganini ko`rdi.

— Biz uni qulga oldik. Protestantlar bu shaharni unda yashovchi odamlardan qaytarib olisholmaydi. Vestchestrdagi olmish minglik uy-joylari, Ferfilddagi ajoyib dala hovlilari, Shimoliy qirg`oqdagi shunga o`xshash qimmatbaho qo`rg`onlarini ham qaytarib olisholmaydi. Biz o`zimizning xususiy shahrimizga egalik qilamiz, azizginam. Shuningdek, boshqa bir qancha shaharlarga ham egalik qilamiz. Chikagodagi istagan polyakdan so`ra. San-Frantsisko portidagi istagan michmandan so`ra. Jin ursin, Kaliforniyada esa biz bankka ham egalik qilamiz. — Berns go`yo endi ko`rgandek, Palmerga qiyo boqdi. — Xello, Palmer, — dedi u, — yutqizganlarga salom.

Bir soniyaga Palmer unga indamay qarab turdi. Keyin kulib yubordi. Biroq kulgisi darhol so`ndi, chunki vaziyat kuladigan darajada emasdi. Palmer o`ng qo`li kaftini pastga qaratib oldinga cho`zdi:

— Xayl Berns!

Yaqindagina bo`lib o`tgan voqeadan oppoq oqarib ketgan Bernsning yuzi bo`g`riqib, qip-qizarib ketdi. U o`rnidan turishga intildi, lekin yana divanga yiqildi. Basharasini tirishtirgancha, peshonasini ushladi.

— Yaramas, — ingradi u.

Palmer oshxonaga chiqdi. Sochiq topib, unga to'rt bo'lak muzparchasini o'radi va Bernsning yoniga qaytdi.

— Og'riyotgan joyingga qo'y, — dedi uni Bernsga uzatib. — Urib yuborganimdan afsusdaman. Ko'p yillardan buyon birinchi marta o'zimni boshqarolmay qoldim.

— Eshityapsanmi? — so'radi Berns Virjiniyaga murojaat qilib. U muzli sochiqni peshonasiga qo'yib, aftini burishtirdi. — U aynan nimadan afsuslanayotganini eshityapsanmi? O'zini la'nati protestantchasiga boshqara olmay qolganidan afsusda. O'zi aslida kimligini bizga bildirib qo'ygandan afsusda.

— Sening jag'ing tuzalgandan keyin ham uning qo'li anchagacha zirqirab yuradi, — dedi Virjiniya. — Tinchlanib, hamma narsani unutishga harakat qilsang-chi?

Bernsning aft-angori o'zgardi.

— Basharamdagi g'urraning kattaligi... — uning ko'zlari olaydi. — Basharam ko'karib yotibdi. — U inqillaganicha muzli sochiqni bo'yniga surdi.

— Shunchaki, kayfiyatimni ko'tarish uchun, — qo'shilib qo'ydi Palmer, — qara-chi, tishlaring butunmikan? Og'zingdan qonkelgandi.

— Qani? Qani?

Palmer gilamni ko'rsatdi.

— Tilingni tekizib ko'r.

Berns shoshilib yutindi. U tili bilan tishlarini tekshirib ko'rayotganini Palmer sezib turardi.

— Bugungi tunni hech qachon unutmaysan, — dedi Berns jag'ini silab. — Sen bu shaharda adoyi tamom odamsan. Endi sen bilan birga ish qilishga, agar tiz cho'kib, botinkamni yalasang ham, rozi bo'lmayman.

— Mak, iltimos, — o'tindi Virjiniya. — O'zingni qo'lga ol.

Berns burnini tortdi.

— Men o'zimni qo'lga olganman. — U o'rnidan turib, keksalarga o'xshab imillaganicha, oynavand devor yoniga bordi. Derazaga ancha vaqt tikilib turdi. Keyin muzli sochiqni ushlab turgan qo'lini pastga tushirdi. Qomatini rosladi. Derazaga ters o'girilib, deyarli tekis qadamlar bilan barning yoniga bordi va muzli sochiqni yog'och idishga tashladi. Palmerga o'girilib: — Yaxshisi, sen ket, — dedi.

Palmer o'rnidan turdi.

— Men faqat o'zimni boshqara olmay qolganim uchun afsuslanaman. Biroq seni urib rohatlandim.

— Ke, yana bir marta ur.

Palmer bosh irg'adi:

— Boshqa bir narsadan ham rohatlandim.

— Qonimga belaganingdanmi?

— Sendan to'g'ri gapni, bor haqiqatni eshitish imkoniga ega bo'lganimdan — sendan haqiqatni eshitganimdan. Va nihoyat, ayrim narsalarga munosabating qandayligini ochiq bildim.

Palmer divanga o'tirib, tuflisini kiydi. Dahlizga chiqib, ilgakdan paltosini oldi va yana mehmonxonaga mo'raladi.

— Sening o'rningda, — gap qotdi u Bernsga. — Jet-Texdagi protestantning senga o'xshagan shaxs bilan tuzgan bitimi qanday majburiyatlar yuklashiga qiziqqan bo'lardim.

— Bayrutlik makkor qasoskor bilan, — gapga qo'shildi Virjiniya. — Mak, bu hammasi bema'nilik. U hozir ketadi, keyin ikkovlarning pishirgan osh ayniy boshlaydi. Bunday qilish kerak emas.

— Shubhasiz shunday bo'lishi kerak, — dedi unga Palmer. — Bu odam endi aql bilan ish tutolmaydi.

— Eshityapsanmi? — Berns Virjiniyaga qarab gapirdi. — Men chutzbha demadimmi? Bundan ham og'irroq gap bormi? Ular bizni avvaliga jahlimizni chiqarib, jonimizni bo'g'zimizga keltirishadi, keyin ahmoqlikda ayblashadi.

— Mak, — gap boshladi Palmer. — Men oxirgi ikki yuz yilni tarixdan o'chirib yubora olmayman.

Biroq meni jinoyatga sheriklikda ayblab bo'lmaydi. Shuningdek, men o'z hiylalaringni protestantlarga ag'darib, ayyuhannos solishingga ham yo'l qo'ymayman. Sen qilmishingga yarasha musht yeding. Men faqat o'zimni idora qilolmay, seni urib yuborganimdan afsusdaman.

— Ket. Yo'qol.

— Virjiniya, uyingizga olib borib qo'yishga ruxsat bering.

— Kimni, menimi? Yo'ldan adashgan Mariya Magdalinani-ya? Uyushgan fohishabozlikka reklama bo'limi qo'shgan hissasini-ya?

Palmer bir necha soniya unga ta'naomuz boqib, keyin eshikka burildi.

— Sizlarga amerikalik fuqaro o'zining ikkita hamyurtiga murojaat qilgandek gapiryapman, — e'lon qildi u, — ikkalangni ham jin ursin!

— Vuds!

U yana bir bor qayrilib qaradi.

— Olib borib qo'yishimni xohlaysizmi yo'qmi?

— Men bu yerda biroz qolib, manavi yigitni tinchlantirishga harakat qilaman.

U yana eshik tomon o'girilib, ikkilanganicha, to'xtab qoldi. Uning ongida qandaydir uzuq-yuluq jumlar goh haqiqatga, goh ro'yoga o'xshab aylana boshladi. Haqiqatan ham u Virjiniyadan shubha qilganmidi? Qanday qilib undan shubha qilishi mumkin? U kim tomonda edi? Umuman biron-bir tomon bo'lganmidi? Yo bu odatdagi, qayta-qayta uning oyog'iga yopishayotgan, doira bo'ylab aylanayotgan balchiqmidi?

— Men yana ba'zi bir narsalardan afsusdaman, — dedi u Virjiniyaga qaramasdan. — Aytib o'tgan fikrlarimdan afsusdaman. Umuman, menimcha, men pushaymonman.

Ellik sakkizinchi bob

Taksi haydovchisi mashinani bor kuchi bilan Uchinchi avenyu bo'ylab tepaga haydadi. U qoidaga bo'ysunib yurishga toqati yetmay, mashinani katta tezlikda haydab borar, svetoforning qizil chirog'i yonganda esa keskin tormoz bosardi.

Palmer haydovchining har gal qizil chiroqqa tushib qolishiga, undan chiqib olish uchun salgina bo'lsada tezlikni o'zgartirmayotganiga hayron bo'lib borardi. U bu fikrini haydovchiga aytmoqchi bo'ldi-yu, jim ketishni ma'qul ko'rdi. Palmer taksidan tushib, old tomoniga betondan nozik ishlov berilgan uy eshigini ochdi. U eshik tutqichini shunchalik sekin bosdiki, u atigi bir necha santimetrcha ochildi, xolos.

Palmer irodasini qo'lga olishga tirishdi va kuch bilan tutqichni bosib, eshikni katta ochdi. Barmoq bo'g'inlari zirqirab, asta ichkari kirdi, sekingina eshikni yopib, sovuq havodan issiqqina uyga kirganidan sevindi...

Oshxona eshigini yopib, xona chirog'ini yoqdi va duch kelgan yog'och o'rindiqqa bemajol cho'kdi. Qimirlashga ham majoli qolmagandi. Zinadan chiqayotganda boshi aylanganini esladi.

Nihoyat u sovutqichni ochib, bir stakan sut quyishga kuch topdi. Sutni icha turib, eshik ortida nimadir harakatlanayotganini sezdi. Yuragi muzlab, Edis uyg'onganini va xalatini kiyayotganini his qildi. Va shu zahoti oshxona eshigi lang ochildi.

Edisning yuz-ko'zida pardoz izlari qolmagan edi. Feruza rangli kenggina tasma bilan sochlari yuqoriga tortib bog'langan. Buning sababi Palmerga ma'lum. Uning yuziga suriladigan, qandaydir oziqlantiruvchi kremga sochlari yopishib qolmasligi uchun shunday qilishga odatlangan.

Edis bir muddat och jigarang ko'zlarini qisib, Palmerga ifodasiz qarab turdi. Keyin stol yoniga borib, stakandagi sut yoniga qo'yilgan tuflini oldi va polga qo'ydi.

— Vudining bu odatini yo'q qilish uchun bor-yo'g'i o'n yil kerak bo'ldi, — gap boshladi u. — O'ylaymanki, sen ham o'zgarishi qiyin odamsan. — U biroz jim qoldi. — basharangga qarab bo'lmaydi.

— O'zimni yomon his qilayapman.

— Viski va shampan vinosidanmi?

— Sotqinlikdan hm.

U chimirildi:

— Sotqinlikdan?... Mak Bernsmi?

— Sen o'ta sezgirsan. Lekin bu bilan meni hayratda qoldirasan deya olmayman. — Palmer sutli stakanni oldi. — U ko'pdan beri, hatto men bu yerga kelmasimdan avval ham Jet-Textga xizmat qilgan.

— Qo'lingga nima qildi? — so'radi u.

Palmer qovog'ini soldi.

— Nima qipti?

— Vuds, nega so'rayotganimni bilib turibsan. O'ng qo'lingga nima qildi? Bo'g'inlari qizarib, shishib ketibdi.

Palmer horg'inlik bilan yelkasini qisdi:

— Men uni urib yubordim.

— Berkxardtnimi?

— Berkxardtni? — Palmer unga sinchkov tikildi: — Jin ursin, bu gapni qaerdan olding?

— Ana shu ilonning iniga seni aynan o'sha tiqishtirdi, — dedi ayol. — Ha-a, tushundim. Sen nishonni noto'g'ri olgansan. Bernsni.

U tilini aylantirishga ham holi kelmayotgandi. Shuning uchun biroz jim turdi. Keyin:

— Bo'lishi mumkin, — deb qo'ydi.

— Demak, jamg'arma banklariga qarshi vatanparvarlik ruhidagi kurash boshdanoq soxta bo'lgan.

— Unday emas. Shunchaki, Jet-Text ularga qo'shimcha kuch tashladi.

— Gapingni qara-yu! Yarim kechagacha o'tkazilgan yig'ilishlar, shtatning hamma qishloqlarida o'tkazgan ko'ngilochar sayohatlaring, kecha-yu kunduz uyda bo'lmasliklaring... hammasi bir pul bo'пти-da?

U boshini ko'tarib, Edisga qaradi.

— Edis. — U jim bo'ldi. — Eshit. — Uning qo'li qandaydir tushuniksiz harakat qilib, yana tizzasiga tushdi. — Men Nyu-Yorkka kelganimda o'yin boshlangan, kartalar tarqatilgan edi.

— Tushunaman. — Ayol uning qo'lidan bo'sh stakanni olib, stol ustiga qo'ydi. — Sen jamg'arma banklar o'yinini ko'zda tutyapsanmi? Ularning kartasini?

U jimgina bosh irg'adi.

— Biroq, chamasi, yana bitta o'yin olib borilgan, — gapda davom etdi Edis. — Sen... — U jim bo'lib qoldi.

— Ha?

— Hech narsa. — Ayol uning qarshisiga o'tirdi. — Umuman, ... ga qalaysan? — Ayol gapni keskin to'xtatdi.

— Nimani so'rayapsan?

Edis boshini silkidi.

— Ahamiyati yo'q. Boshqa paytda...

Palmer ayol o'ziga sinchkovlik bilan tikilib turganini payqadi. U go'yo tuzukroq ko'rib olsin degandek, qaddini rostladi. Biroq bunday o'tirishga qurbi yetmadi. U qimirlashga holi kelmayotgan bo'lsa ham uxlaydigan ahvolda emasligini bilib turardi. Mana shunday harakatsiz o'tirib, nimanidir kutish kerak bo'lsa, u jon deb o'tiraverardi. Lekin nimani kutayapti? Palmer tushuna olmasdi.

— Hammasiniyam ahamiyati yo'q, — Edis o'ziga-o'zi gapirayotgandek, o'ychanlik bilan sekin so'z boshladi. — Bitta narsadan tashqari. Endi nima qilmoqchisan?

Palmer yelkasini qisishga urindi. Yengib bo'lmaydigan hafsalasizlik harakat qilishga qo'ymadi.

— Ta'zim qilib, ketvoraymi? — mujmal javob berdi u. — Katta shahar meni bir chetga chiqarib majaqlab yuborganini tan olaymi?

— Agar sen bankdan ketsang, oilamiz nima qiladi? Nyu-Yorkni tashlab ketamizmi? Bu uyni tark etamizmi?

Palmer ko'zlarini yumdi.

— Hozircha o'ylaganim yo'q.

— Biroq bu aniq ravshan-ku?

Uning keskin ovozidan Palmer ko'zini ochishga majbur bo'ldi.

— Senga nima bo'ldi? Mazang qochyaptimi? — so'radi xotini.

— Shunchaki... kutilmaganda vaznsizlik holatini his qildim... — u xijolat ichida kulib yubordi va shu zahoti Geynts Gaussni esladi. — Quloq sol, — deb gap boshladi u.

— Ha?

— Gap shundaki... — U yana jim bo'lib qoldi.

— Nimada?

— Hozir mana shu tortishuvga qarshi bo'lgan do'stimni esladim.

— Vuds, jin ursin, nima haqida gapiryapsan?

— Eng yangi qonunni ochgan Gauss haqida.

Edis o'rnidan turib, sut yuqi stakanni chig'anoq tepasidagi quritgichga qo'ydi.

— Judayam kech bo'ldi, azizim. Yaxshisi, uxlagani yotishimiz kerak deb o'ylayman.

Palmer barmoqlarini shiqirlatdi.

— Yo'q hali.

Ayol o'girilib unga qaradi:

— Senga nima bo'ldi?

— Jin ursin, mana bu zo'r bo'ldi.

— Vuds!

— Ha — ha. Men senga tushuntirib beraman. Bor-yo'g'i ikkita yurish. — U kutilmaganda tanasiga quyilib kelgan kuchdan sapchib turib keldi, oyoqyalang holda oshxonaga qarab yura boshladi. — birinchisi unchalik murakkab emas. Ikkinchisi makkorona reja.

U kapalaknusxa bo'yinbog'ini yulib oldi va tugmachasini yechdi.

— Mehribon egam! — Yana kuldi. — Bu, balki, hatto ish yurishib ketar.

— Vuds, vaqt yarim tundan og'di.

U soatiga qaradi:

— Ertalabgacha hech narsa qilib bo'lmaydi.

— Unda, balkim uxlarmiz?

U boshini qattiq chayqadi.

— Reja tuzish uchun menga ko'p vaqt kerak. — U jim turib qoldi va xotinigaga o'girildi: — Edis, qahva qaynatib berolmaysanmi?

— Shu paytgacha nega aytmading?

— Mayli, — bidirladi u. — Albatta. Ishga kirish. Men tushuntirib beraman.

Butun diqqat-e'tibori Palmerda bo'lgan Edis beixtiyor qahva qaynatgichni oldi va unga suv quya boshladi.

— Eshitaman.

— Mayli. — Palmer eshik yonigacha borib, ortga qaytdi. — Qahvani mening xonamga olib kiramiz. Hamma kerakli ma'lumotlar o'sha yerda, to'g'rimi?

— Qanaqa kerakli materiallar?

— "Direktorlarning ma'lumotnomalari", "Qurolli kuchlar ta'minotiga rahbarlik qilish". Vashington ham ana shu vaqt mintaqasida... Albatta. Yaxshi. Ajoyib. Qahva nima bo'ldi?

— U senga judayam zarur deb o'ylamayman.

— Zarur. Hamma detallar Shveytsariya soatidagiga o'xshatib joyiga qo'yilishi kerak...

Ellik to'qqizinchi bob

Kech yuz ko'rsatadigan qish quyoshining dastlabki nurlari soat sakkizlarda jimjimador beton shakllar orasidan yorib o'tdi. Oradan yana bir soatlar o'tgandan keyingina yozuv stoli ustiga betartib yoyilgan kitob va qog'ozlardan bosh ko'targan Palmer yangi kun boshlanganini payqadi.

Edis eriga yana bir marta qahva tayyorlab, tungi soat uchda uyquga yotdi. Palmer sovuq va bemaza qahvani oxirigacha ichib, barmoqlari bilan sochlarini taraganicha, stul suyanchig'iga yaslandi. Ichkari xonalardan bolalarning ovozi kelardi. U stol ustidagi qog'ozlarni yig'ishtirib, ularga tikilib qoldi.

Kunduzgi sovuq tuzgan barcha rejalarini chippakka chiqaradiganga o'xshardi. Palmer bo'sh idishdan finjonga yana ozgina qahvani sirqitib quyishga urindi. Keyin ikki bosqichdan iborat rejaları tushirilgan qog'ozlarni yana qaytadan o'qib chiqdi. Shubha-gumonlar ichini kemirganicha o'rnidan turdi va qotib qolgan oyoqlari hamda belini yozish uchun turli harakatlar qilib, stol atrofida aylana boshladi. Kecha uyga qaytgandagi charchoq yana oyoqlarini sirqiratishga tushdi. Ko'ylagi tanasiga yopishib, yenglarining chetlari kirlanib ketibdi. Palmer kerishmoqchi bo'ldi va bor quvvati uni tark etayotganini angladi. U vaqtni bilish uchun qo'lidagi soatga qarab, telefonda bajariladigan ishlarni faqat bir soatdan keyin boshlash mumkinligini aniqladi. Stol yoniga o'tirib, kaftlari bilan yuzlarini ishqaladi. U Edisning:

— ... yechinib, o'ringa yot, — degan ovozini zo'rg'a eshitdi.

U sekin ingradi. Xayolida qumga ko'milganu qum ko'zlari, yoqasidan kirib, butun gavdasini to'ldirib qo'yganday tuyuldi. U qiynalib, ko'zlarini ochdi va ming'illadi:

— Soat necha bo'ldi?

— O'n bo'ldi. Vuds, iltimos...

U nihoyat butunlay uyg'onib, gavdasini ko'tardi.

— Yarim soat vaqt yo'qotibman, — deb ming'irladi. — Marhamatli xudoyim. Keyj xonimga aytinglar, yana qahva qaynatsin.

— Vuds.

O'girilib xotiniga qaradi. U ham atigi bir necha soat uxlagan bo'lsa-da, ko'rinishi qandaydir ginali, ammo yashnab turardi. Kiyinib, bo'yanib ham ulguribdi. Bularning hammasi Palmerga tanasidagi o'ta og'irlikni yana qayta his etishga majbur qildi.

— Nima deysan? — so'radi u.

— Azizim, bugun shanba. Sen...

— Hechqisi yo'q. Berns dushanbagacha kutishi mumkin. Men esa kutolmayman. Iltimos, yangi qahva ber.

— Keyinroq biroz uxlab olasanmi?

— Albatta. Iltimos, bolalarni bu yoqqa kiritma.

— Ulardan birortasi joningga tegdimi?

— Yo'q. Mayli. Iltimos, qahva.

— Bir daqiqa. — U qahva qaynatadigan idishni olib, chiqib ketdi.

Palmer sigaret chekdi. Tutun shu lahzadayoq tinkasini quritib, ko'nglini aynitdi. Biroq shu zahoti tanasiga kuch quyilayotganini his qildi." Palmer zudlik bilan ishga kirishdi. U Jet-TeXning ilmiy-tadqiqot markazi joylashgan O'rta Sharqdagi shahar bilan shaxsan telefonda gaplashish uchun buyurtma berdi. Tajribaxonada hech kim yo'q ekan. Mahalliy ma'lumot xizmatidagilar Geynts Gaussning uy telefoni raqamini tezda topa olmadilar. Keyinroq telefonchi qiz uning raqamini shahar atrofidagi nomerlar orasidan topdi. Bir ozdan keyin Geynts Gaussning o'zi go'shakni ko'tardi.

— Gap shundaki, — salom-alikdan keyin maqsadga o'tdi Palmer. — Siz sirayam xayolimdan ketmayapsiz.

— Nahotki? Men bo'lsa, allaqachon unutilib yuborgansiz, deb o'ylardim, do'stim.

— Balki, unutilib ham yuborardim, — tan oldi Palmer. — Agar bu la'nati ishkalliklarga mas'ulligim bo'lmaganda...

— Qandaydir darajada, albatta, siz ham javobgarsiz. Birinchidan, meni bu yoqqa siz olib kelgansiz, shunday emasmi?

— Hamma gap shunda-da. — Palmer jim bo'lib qoldi. U tarbiya ko'rmagan, qo'pol yigit bilan muomala qilayotganini, unga biroz yaxshilik qilib qo'ysa, kattagina foyda ko'rishi mumkinligini xayolidan o'tkazdi. Shu bilan birga Gauss uning asl istak-xohishi nimaligini sezmasligi zarur.

— Ayrim narsalar chiqib qoldi, — davom etdi Palmer. — Bankda emas. Bank doirasidan tashqaridagi odamda. U... mayli, hozir ochig'ini aytadigan payt emas. Men unga sizning boshingizga tushgan ko'ngilsizliklar va shunga o'xshash narsalar haqida biroz gapirib berdim. Ismlarni aytganim yo'q. Siz uchun ba'zi-bir ishlarni qilish imkoniyatiga ega bo'lgani uchun u gap kim haqida ketayotganini payqadi.

— Tavakkal qilmayapsizmi?

— Ehtiyot choralarini ko'rdim. U yanayam xushyor bo'ladi. Hozir ismini aytsam, darhol tushunasiz. Asosiysi, agar siz ketishni istasangiz, u kafolat beradiki... aytmoqchimanki, hozirgi bilan teng yoki undan ham mas'uliyatli, erkin faoliyat va cheksiz byudjetga esa joyni siz uchun kafolatlay oladi.

— Siz Vesting haqida gapiryapsizmi?..

— Ayni bosqichda men hech kim haqida gapirayotganim yo'q. U hozir sizga bildirganlarimni aytib qo'yishimni so'radi, xolos. Qalay? Bu sizda qanday taassurot qoldiradi?

— Biroq men boshqa kompaniyaning nomini bilmay turib, qanday javob berishim mumkin?

Toqati toq bo'lgan Palmer chuqur xo'rsindi. Suhbat juda cho'zilib ketdi, telefonni yashirincha eshitib turgan bo'lishlari mumkin. Bundan tashqari, Palmer yana bir necha joyga qo'ng'iroq qilishi lozim. Undan oldin...

— Gauss, hech kim o'zingizni ko'r-ko'rona bog'lab berishingizni so'rayotgani yo'q. Meni g'oyalarimizga bo'lgan munosabatlaringiz qiziqtiradi. Unga ijobiy yondashasizmi?

— Albatta, ijobiy.

— Ajoyib.

— Sizningcha, men tezroq, a?..

— Xabarim yo'q, — Palmer uning gapini bo'ldi. Gaussning gap ohangida qiziqish alangasi sezilishi bilan gapni tugatib, nemisning ichini qizdirib, orziqib kutishga majbur qilmoqchi edi u. — Sizning hozirjavobligingizdan juda mamnunman. Ozgina harakat qilsak, biz sizni ozod qila olamiz. — Palmer kuldi. — Shunaqa gaplar.

— Bu qachon amalga oshadi? Haftadami? Bir oydan keyinmi? Men bilishim kerak....

— Men bilgan zahotim siz ham xabardor bo'lasiz, — va'da qildi Palmer. — Endi esa, siz bilan xayrlashishim kerak, Gauss... U darhol go'shakni qo'ydi va o'chayozgan sigaretini cheka boshladi.

Vaqt o'ndan chorak daqiqa oshgandi. Palmer navbatdagi shaxsiy suhbatni buyurdi. Bu gal yangi Angliyadagi shahar bilan. Bu gal ham uy telefoni raqamini qidirish muammosi boshlandi. Telefonda ayol kishining ovozi eshitildi.

— Shaharlararo telefon general Xeygenni so'raydi, — e'lon qildi telefonchi qiz.

— U... kim uni so'rayapti, kechirasiz?

— Vuds Palmer. — javob berdi Palmer.

— Bir soniya, qarab ko'raman...

Chamasi, ayol telefondan nari ketdi.

Palmer Xeygenki uxlayotgan ekan, men ham biroz mizg'isam bo'lardi, deb o'yladi. U hozir necha yoshda, 58 yoki 59 mi? Ko'rpada ag'anab yotadigan darajada qari emas u.

— Allo? — go'shakdan uyqusiragan ovoz eshitildi.

— General Xeygen? — deb so'radi telefonchi qiz.

— Men.

— Gapiring, janob.

Palmer og'zini ochishga ulgurmedi.

— Bu qaysi Vuds Palmer? — birinchi bo'lib gap boshladi general.

— Sen nechtasini bilasan, Eddi?

— Xudoyim-e, otang vafot etganini unutibman. Qattiq achindim, Vudi.

— Bu gapga ancha bo'ldi. Men hozir Nyu-Yorkdaman.

— Bilaman. Men shaharda bir necha marta bo'ldim. Yoningga kiray dedimu, sen halol odamlarning pulini shilish bilan o'ta banddiansan, keksa omadsiz bilan uchrashishga vaqting yo'qdir deb o'yladim.

Palmer istehzoli jilmaydi. Qarshi taklif u kutganidan ham past edi.

— Bo'lmag'ur gap. Qirq ming. Hech qanaqa aktsiyasiz.

Oradan o'n daqiqa o'tgach, ellik mingga kelishilgan holda suhbat tugadi. Palmer rejasini yana bir solishtirib ko'rди va to'g'ridan-to'g'ri raqam terdi.

— Tim, bu — Vuds Palmer.

— Jin ursin, Paskoda nima qilib yuribsan?

— Men Nyu-Yorkdaman. Men...

— Sen Nyu-Yorkdan qo'ng'iroq qilyapsanmi? — hayron bo'ldi Tim.

— Uyg'otib yuborgan bo'lsam, uzr.

— Bir necha soat oldin uyg'onganman, — gapini bo'ldi Tim. — Juda bo'lmaganda, bir necha daqiqa oldin. Eshityapsanmi? Jeynga biror narsa bo'ldimi? Nima gap?

— Hech narsa bo'lgani yo'q. Men yaqinda u bilan suhbatlashdim. Seni qaerdan topishni tushuntirib berdi. Hammasi joyida. Bilasanmi, menga ba'zi bir ma'lumotlar kerak, mening tanishlarim orasida bu ishni biladigan odam faqat sensan. Bu... Nimadan boshlasam ekan? Erkak kishi, olim. Sobiq dushman taraf fuqarosi edi, hozir AQSh fuqarosi. Yirik hukumat shartnomasi bilan xususiy tartibda firmaga yollangan. U hukumat shartnomasiga ega bo'lgan boshqa bir firmaning taklifini qabul qilmoqchi. Unga o'z shartnomasi bo'yicha majburiyatlaridan boshqa biror narsa to'sqinlik qilishi mumkinmi?

Simning ikkinchi tomonida biroz jimlik cho'kdi. Keyin:

— Buni senga qanday dahli bor?

— Ikkala firma ham biz bilan ishlaydi.

— Bu sabab bo'lolmaydi, qariya.

— Tim, meni qiziqtirayotgan narsa maxfiy hisoblanadimi? — sabrsizlik bilan so'radi Palmer.

— Unday emas. Lekin men har gal tadqiqot rahbari boshqa joyga sakrab o'tganda xushyor tortaman.

— Sakrab o'tmaydi. U bitta joyda deyarli o'n besh yildan buyon ishlayapti.

— Boshqa ishga o'tishiga sabab nima?

— Puli, erkinligi ko'p.

— Men o'ylamaymanki, u...

— Tim, meni u AQSh fuqarolari kabi barcha huquqlarga ega bo'ladimi-yo'qmi — mana shu qiziqtiradi, xolos. Yoki bunday holda uni ishlab turgan joyiga mixlab qo'yuvchi bema'ni qonun moddalari ham topilib qoladimi?

— Bizning mamlakatimiz erkin mamlakat, qariya. Hatto uning uchun ham. Biroq aytib qo'yishim kerak: yuqori darajadagi har qanday harakat Pentagon va hukumat doiralarida qiziqish uyg'otadi. U qandaydir mashinachi yoki chilangar emas-ku?

Palmer salgina jilmaydi.

— Men umuman, kimningdir oyog'idan chalmoqchi emasman, — yolg'on gapirdi u, — biroq u bunchalik ahamiyatga molik odam deb ham o'ylamayman.

U soatga qaradi. Telefon raqamini qidirishga ketgan vaqtlarni ham hisoblaganda muloqot deyarli soat o'n birgacha cho'zilibdi. U go'shakni ko'tardi va Geynts Gaussning telefon raqamini terdi.

— Allo?

— Gauss, Yana Palmerman.

— Qo'ng'iroq qilganingizdan xursandman. Juda ko'p gaplar aytilmay qolib ketdi.

— Boshqa hech narsa qolmadi. Jet-TEX bilan shartnomangizni buzganingizdan keyin siz ellik ming aktsiya bilan birga besh yilga Yangi shartnoma olasiz.

— Biroq siz ... Aktsiyalar? Ellik ming? – nemis jim bo'lib qoldi. Keyin: — Qaysi firmadan? – deb so'radi.

— Hamma gapni dushanba kuni, tamaddi paytida aytaman.

— Bu yoqqa kelmoqchimisiz?

— Bunday qilolmayman, — Palmer tushuntira boshladi. — Bu o'ta bema'nilik bo'lar edi. Bundan tashqari, siz bilan birga yana bitta odam bo'ladi. Sizni tushunadigan odam. Nyu-Yorkning ishbilarmonlar dahasidagi "Klub"da tamaddi qilishga qalaysiz? Siz dushanba kuni ertalab uchib, Aydl-uaylddan Uoll-stritgacha vertolyotda kelishingiz mumkin. Men sizni o'sha yerda kutib olaman.

— Maarhamat, hammasi shunchalik tez yuz berayaptiki... Men ko'proq narsa bilishim kerak.

— Bilib olasiz. Dushanba kuni tamaddi paytida.

— Biroq men nimani bahona qilaman, o'zimning...

— Quloq soling, — uning gapini keskin bo'ldi Palmer. — Siz axir, ularga har bir daqiqa vaqtingiz haqida hisob bermaysiz, to'rimi?

— Albatta, yo'q. — Gauss kutilmaganda uning gap ohangiga o'xshash keskinlik bilan javob berib, avvalgi shubhalanuvchanligini yuvishga urindi. — Hecham hisob bermayman.

— Nima bo'lganda ham siz bilan oldindan muhokama qilinadigan boshqa narsa bor, — davom etdi Palmer. — Bu, hm, haligi, siz aytgan tadqiqotlar. Bular sizning shaxsiy ishingiz bo'lgach, ularni boshqa joyga bema'lol o'tkazishingiz mumkin, shunday emasmi?

— Biroq Palmer, siz buni yangi kompaniya bilan muhokama qilmagan bo'lsangiz kerak?

— Albatta, yo'q. Hamma tadqiqotlaringiz bitimning hal qiluvchi omillari bo'ladi.

— Men hammasini yozib qo'yganman, — dedi Gauss. — Bular mening shaxsiy jurnallarim. Ular qolib ketgan taqdirda ham begonalar hech narsani tushunmaydilar. Biroq har qanday holatda ham men hamma zarur ma'lumotlarni yoddan bilaman.

— Nyu-Yorkka uchib keladigan ertalabki samolyotlar jadvalini bilasizmi?

— Menimcha, to'qqizda va o'n birda.

— Soat to'qqizdagiga oling. Bu Nyu-York vaqti bilan o'n bo'ladi. Aydl-uayldga soat o'n biru o'ttizda, Uol-stritga esa peshinda yetib kelasiz. Meni o'sha yerdan topasiz.

— Do'stim, buni shunaqangi jadallik bilan amalga oshirishim zarurmi?

— Men o'ylaymanki, — Palmer ovozi iloji boricha dabdabali chiqmasligiga harakat qildi, — o'ylaymanki, sizning ishingizga xalaqit beradigan har bir kun, boshqa olimlar mehnatingizni inkor qiladigan sanaga aylanib qolishi mumkin.

— Juda yaxshi gap, — quruqqina qilib dedi Gauss. — Biroq men juda ham bilishni xohlar edimki, birdaniga mening ishlarim nima uchun sizni bunchalik qiziqtirib qoldi?

— Sababi ko'p. Sizning ayrim ko'ngilsizliklaringizga nisbatan o'zimda mas'uliyat his qilishimni aytib o'tdim. Biroq men —arazli sabablar borligini ham inkor etmayman.

— Shunday — g'arazli sabalar nima ekan?

— Tamaddi paytida bizni kutib oladigan odam mening eski do'stim. Uning firmasi bir qancha muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirdi. Biz ularning banki bo'lganimiz uchun kompaniya yangi yo'ldan borishi zarurligini bilaman. Kosmik asr texnikasi shunchalik rivojlanayaptiki, bugungi omad ertangi bosh og'rig'i bo'lib qolishi mumkin. Ular yaxshilab bir sakrashlari juda zarur. Men ularga siz kerak bo'lasiz deb o'yladim. Bitta o'q bilan ikkita quyinni otish yo'lini topdim. Hamma gap shu.

— Hmm. Tamaddi paytida uchratadigan sherigingiz kimligini fahmlaganday bo'layapman.

— Keling, shu yerda to'xtatamiz. Siz men uchun hamisha ziyrak odam bo'lib qolasiz.

— Faqat bir gap, — ijkiladi Gauss. — U yaqinda yaxshi bir hamkoridan ayrilib qoldimi?

— Bu — omadsizlik zanjiridagi oxirgi halqa, xolos.

— Shunday. Demak. U mening ham eski qadrdomim, nicht wahr¹ ?

— Bis Montag, mein Freund. Bis Montag², — bidirladi Palmer.

— Tushunaman. — Gauss bir necha soniya indamadi. Keyin qo'shib qo'ydi: — Juda qiziq. Haqiqatan ham shunday bo'lsa, bu menga juda yoqadi deb o'ylay boshladim...

- Keyin yana go'shakni olib, general raqamini qayta terdi. Go'shakni Xeygenning o'zi oldi.
- Endi, yana bir gap bor. Dushanba kuni men bilan Nyu-Yorkda tushlik qila olasizmi?
 - Tentak bo'ldingmi, Vudi? Bu yerda ishim qalashib yotganini bilasan-ku?
 - Men aytgan odam bilan uchrashish uchun.
 - Men uni bilaman.
 - U o'z tashabbusi bilan tajribalar o'tkazishga ruxsat berilishi haqida aniq tavsiyalar olish niyatida.
 - Hammasini o'zing tasdiqla, men seni quvvatlayman.
 - Bu toifadagi odamlarni yaxshi bilasan-ku! O'zlarini hurmat qilishadi. Senga bir marta nigohi tushsa bo'ldi...
 - Mening eski qadrdonim, menga foydam tegayapti deb o'ylayapsanmi. Aytaylik, hojatimni chiqaryapsan ham. Lekin vaqti kelib, jonga tegishing mumkinligini nega o'ylamayapsan?
 - Mayli, Eddi. Men shunchaki, bitim buzilishini xohlamagan edim.
 - Shunday xavf bormi?
 - Sen o'zingni kimoshdi savdosidagi yagona xaridor deb o'ylamasang kerak?
- Xeygen jim qoldi.
- Nima bu, yonib ketadimi?
 - To'ppa – to'g'ri. – Palmer imkon qadar kinoya ohangida gapirdi. – Pulli konvertni ochganingda u yerda qog'oz taxlamlari bo'ladi. Eddi, bosh tortmoqchi bo'lsang, rostini aytaver. Biroq, iltimos, bu gapni hoziroq ayt.
 - Xudoyim-ey, soat nechada, qaerda?
 - O'n ikki-yu o'ttiz. Ishbilarmonlar dahasidagi "Klub"da.
 - Yanayam chetroq joy bo'lishi uchun Meysi vitrinalarining yoni yaxshiroqmi?
 - Ha deysanmi-yo'qmi?
 - Jin ursin. Ko'rishguncha.
 - Hozircha. – Palmer go'shakni ilib ulgurmasdan bir finjon qahva ko'targanicha, Edis kirib keldi.
 - Bir soat qahva tayyorladingmi?
 - Shuni ham ichishingni xohlamayman, Vuds. Sen uxlab olishing kerak.
 - Hozir yotaman. – Palmer chuqur uf tortib, qahvani xo'plab icha boshladi.

Oltmishinchi bob

Palmerning xayolida keyingi qirq sakkiz soat odatdagidan ancha cho'zilib ketganga o'xshadi. Biroq uzoqdek tuyulgan bu vaqt davomida u o'ziga sirtidan qaray olmadi. Ikkinchi davr shunchalik ko'p qismlardan tashkil topgan ediki, o'ylash uchun fursat ham qolmagandi. Palmer ishni tez bitirish uchun tinimsiz olg'a intilar, naridan-beri uxlar, vaqtni o'z ish rejasiga moslashtirishga urinar edi. Keyinroq, tahlil qilish imkoni tug'ilganda u bu faollikka sabab bo'lgan yagona aniq guvohni topib oldi: bu, asosan, shaharlararo telefonda so'zlashuv uchun 300 dollardan ko'proq to'lov qog'ozi edi.

Edisning qistovi bilan shunba kuni u tushlikdan keyin soat qo'ng'irog'ini oqshomgi 19 ga qo'yib, uxlagani yotdi. Ayni shu vaqtda – o'rta G'arbda soat 18 bo'lganda uyg'onib, Chikagoga qo'ng'iroq qila boshladi.

U gaplashganlarning ko'pchiligi uyida yoki boshqa biror joyda ovqatlanishga tayyorgarlik ko'rishmoqda edi. Ularda Palmerning gaplariga qiziqish uyg'onardi-yu, muloqotga vaqtlari yo'q, ya'ni ular Palmer o'ylagidek, osoyishta ruhiy holatda edilar. Ular qayoqqadir shoshishar, muammolarni mayda-chuydasiga muhokama qilishni xohlamas edilar...

— Bill (Jek yoki Fil, birgal Jibbzi), — derdi Palmer, — esimda. Sen o'tgan yili iyun oyida Jet-Texning aktsiyalarini sotib olgan eding. Senda aktsiya ko'pmi?

Berilgan javobga qarab, gap-gapga ulanar va Palmer mohirlik bilan nishabni o'ziga zarur tomonga

burardi. Suhbatdoshida Jet-TEX aksiyalari deyarli yo'q bo'lsa, Palmer yengil nafas olib, uni tabriklar va ertaga, birja ochilgandan keyin yoki uzog'i bilan seshanba kuni katta ko'ngilsizliklar bo'lishiga shama qilib, iloji boricha gapni qisqa qilardi. Agar suhbatdoshida aytilgan aktsiya ko'p bo'lsa, Palmer fikrini ochiqroq aytardi. Ya'ni hayajonli, be'zovta ovoz bilan xizmat majburiyati bo'yicha bu gapni sir saqlash lozim bo'lsa ham do'stlikni yuqori baholashini bildirib, noaniq, g'alati shamalar bilan do'stining ko'ngliga g'ulg'ula solardi. "Men xususiy aksiyalarimni dushanba kuni, birja ochilgandan keyin sotaman" bu galgi suhbatning hal qiluvchi qismi shunday tugur, "chunki seshanba kuni tushlikdan keyin ularni eng arzon bahoga sotish ham ushalmas orzu bo'lib qoladi", deb qo'shib qo'yishni unutmasdi.

Palmer shanba kuni Chikago vaqti bilan kech soat o'nlarda telefondagi suhbatlarini yakunladi va vaqt endigina oqshomgi yetti bo'lgan G'arbiy qirg'oqqa navbat yetdi. Kechki o'n bir yarimgacha bu tomonga qo'ng'iroq qildi. Keyin yana Vashington shtatidagi Pasko mehmonxonasiga, Jeynning allaqachon birorta qiziq kitobini o'qib, dam olayotgan eriga qo'ng'iroq qildi. Biroq mehmonxona xizmatchisi nomerda hech kim yo'qligini aytgach, Palmer buyurtmani qoldirishni so'radi.

Tungi soat birlarda Edis uni uyquga yotishga ko'ndirdi. Biroq tonggi soat to'rtta telefon qo'ng'irog'i jiringlashi bilan o'rnidan sakrab turib, go'shakni oldi.

— Yo'q, Tim, hech narsa bo'lgani yo'q. Buyurtma qoldirganim uchun kechir. Bu – mening xatoim. U yoqda soat nechchi? Tungi bir?

— Vuds, bor, yotib uxla yoki jin ursin, har qancha gaping bo'lsa ham go'shakni joyiga qo'y.

Holdan toygan Palmerning hozir birorta savolga javob berishga majoli qolmagan edi. Biroq sirli "Uotan" so'zi oxir-oqibatda bir dunyo jumboqlarni keltirib chiqaradi. Palmer bu savollarning birortasiga majburan javob bermoqchi emas edi.

Biroq eng muhim ish Bernsga qo'ng'iroq qilish yakshanba kuniga qoldirilgan bo'lib, Palmer bu qo'ng'iroqni iloji boricha kechroq, tunda qilmoqchi edi. Kunning ikkinchi yarmida ancha vaqtini u suhbat o'tkazish uchun turli yo'llarni tanlash bilan o'tkazdi. Va nihoyat Palmer qo'ng'iroq qildi. U bilan suhbatdan ko'zda tutilgan qarshiliklar ancha kamligini sezib, juda mamnun bo'ldi.

— ... Jag'ingiz tuzukmi deb so'rash uchun qo'ng'iroq qilyapman.

— Zo'r. Shu xolosmi?

— Unchalikmas.

— Albatta, siz kechirim so'rash uchun qo'ng'iroq qilayotganingiz yo'q, — dedi Berns vazmin ovozda. — Sizga o'xshagan odamlar hech qachon bunday qilmaydi.

— Siz mening "toifam"ni ancha yaxshi o'rganibsiz, to'g'rimi?

— Ha, albatta, — javob berdi Berns. — Sizning alohida ismingiz ham bor. Siz – OAP siz.

— Kim?

— Oqtanli Anglosaks. Protestant.

— Jo Lumisga o'xshab-a?

— Bo'пти, Palmer. Shumi?

— OAPlar va yana OAPlar borligi to'g'ri. Siz ularning ayrimlariga ishonasiz.

— Keling, gapni tugatamiz.

— Qo'ng'iroq qilishimga sabab, siz tufayli xavotirdaman.

— Xovotiringiz ham o'rinli. Ertaga ertalab men sizni burdalab tashlayman.

— Mak, meni sizning shaxsiy ehtiyotsizligingiz xavotirga soladi. Menga bir fikr tinchlik bermayapti. Siz hammani bitta torozida o'lchayapsiz.

— Nima?

— Tushuntirish shartmi, Mak? Siz aqlli odamsiz-ku? Siz OAPlarning bir guruhi bilan yashirincha, ikkinchisi bilan – ochiqchasiga bitim tuzib ishlayapsiz. Biroq siz hammani Jet-TEXga qo'ydingiz, hammani ular hisoblashishi shart bo'lmagan maxfiy bitimga qo'shib qo'ydingiz.

— O'z g'amimni o'zim yeyishimga ruxsat bering, Palmer.

— Buni siz ko'ngildagidek qilolmaysiz. O'zingizni bir daqiqaga Lumisning o'rniga qo'yib ko'ring. U

sizda nimani ko'radi? Unga qandaydir foyda keltiruvchi epchil ishbilarmon zarur. Vakolatingiz tugagach, siz kim bo'lasiz? Uni siz bilan qanaqa rasmiy bitimlar bog'lab turadi? YuBTK esa sizni ochiqchasiga yollaydi. Bu – hammaga ma'lum narsa. Agar bizga ishingiz yoqmasa, sizdan ajralmoqchi bo'lsak, sizga shartnomada qolgan muddat uchun haq to'lashimiz kerak. Lumis-chi, u ham to'laydimi? Uning sizga, aslida, "xayr" deyishdan boshqa qarzi bormi?

Berns indamadi. Keyin:

— Tashvishlanmang. O'yindan bir qadam oldinda yurish uchun aqlim yetadi, — dedi.

— Agar birorta aqlli odam bo'lsa, u haqiqatan ham siz. Biroq, Mak, hozir aytmoqchi bo'lganim siz uchun o'ta dahshatli bo'lmasa kerak. O'yin sharti o'zgardi.

— Tushuntiribroq gapiring.

— O'yin o'zgardi. Avvalgi, hammamiz o'ynagan o'yin. Men uni o'zgartirdim.

— Nima?

— Men bilganimcha aytdim, Mak. Yana bitta maslahat berishim mumkin: ertaga kunduzi, soat uchu o'ttizlarda Lumisga qo'ng'iroq qiling.

— Nima uchun?

— Ungacha hammasi ravshan bo'ladi. Yangi o'yinni tushungan zahotingiz hech ikkilanmay, men bilan gaplashing. Agar siz oldindan mo'min bola bo'la olsangiz, men hamisha o'yinda sizning aqlingizdan foydalanaman.

— Palmer, nima deyapsiz?

— Aynan shunday, — qat'iy gapirdi Palmer. — Raqib sifatida siz o'ta qimmatli insonsiz. Ertaga, peshindan keyin nima bo'lganini ko'rganingizdan keyin, baytalingizga ham bir qarab qo'yasiz. Keyin menga qo'ng'iroq qiling.

— Uchu o'ttizda qanday voqea ro'y beradi?

— Aynan o'sha paytda emas, shu vaqt atrofida, — uning gapini to'g'riladi Palmer. Agar ko'rsatilgan paytda ham ishtiyoqingiz bo'lsa, meni burdalab tashlash uchun vaqt topa olasiz.

U go'shakni joyiga ildi.

Palmer yakshanba kuni yarim tunda yaqin uyquga yotib, erta tong – soat beshda turdi. Uyquga to'ymagani, to'xtovsiz suhbatlar, bilvosita shamalar, ish rejasini qayta-qayta o'qish, telefondagi har bir suhbatni baholash va qayta baholash, ohang va alohida urg'ularni tahlil qilish – bularning hammasi boshida to'xtovsiz g'ujg'on o'ynay boshladi. U o'rindan turib, u yoq-bu yog'ini qoqdi, kabinetiga kirib, qolgan ishlarning uzil-kesil rejasini tuzdi va ularni qog'ozlarga yozib, hamyoniga soldi. Soat oltalarda vannaga iliq suv to'ldirib, yelka va bo'ynidagi og'riqni ketkazish umidida suvga tushib, yotdi.

Soat yettida Edis uni suv ichida uxlab yotganini ko'rib, qo'rqqanidan qichqirib yubordi. Vahimali ovoz Palmerni uyg'otdi. U cho'chib tushib, osuda iliq suv bag'rida chor-nochor tipirchilay boshladi.

— Nima deysan, jin urgur?

— Vuds, aqldan ozib qolibsana. Uxlab qolibsana-ku.

U tushunmayotgandek ko'zini pirpiratdi: — Soat necha bo'ldi?

— Yetti. — Ayol uni ko'zdan kechira boshladi. — Keyingi paytlarda ozib ketding.

— Rostdanmi?

— Bemalol qovurg'alaringni sanasa bo'ladi.

— Hmm.

— Anavi nima?

Palmer qorniga qarab, sarosimaga tushib qoldi.

— Nimaykan?

— Anavi dog'. Anavi yeringdagi.

U shu zahoti Virjiniya kindigining yonini tishlab olganini esladi. Favqulodda hayratga tushgan odam kabi Palmer asta-sekin o'z qornini ko'zdan kechirdi va dog' qandaydir irkit qora-qo'ng'ir rangga kirib qolganini, tishlanganga o'xshamasligini ko'rdi.

— Palmer o'zini dog'ni ko'rmaganga soldi.

- Qanaqa dog'?
- Ana. – Edis cho'zilib, uni ushlab ko'rdi. – og'riyaptimi?
- Manavimi? – u talmovsirab dog'ga qaradi. – Kim bilsin bu nima baloligini... Kana yoki boshqa biror narsa chaqqandir-da.
- Judayam g'alati. Semiz bo'lganingda, kamaringdagi to'qaning izi deyish mumkin edi. – U vannaxonaning narigi tomonidagi devor yoniga egildi.
- Sen, aytgan jin urgur kana qani? Uni qaerda ko'rding? Bu yerda kana yo'q.
- Palmer yelkasini qisdi. Iliq suv qattiq chayqaldi.
- Chekka qishloqlardagi birorta mehmonxonadadir-da.
- U yoqlarga ancha oldin borgansan. Kana chaqsa, bu dog'ni allaqachon ko'rgan bo'larding.
- Kindigimni tomosha qilishga ko'p vaqt ajratganim yo'q.
- Edis yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, biroz o'ylanib, so'radi:
- Nima deb o'ylaysan, toza bo'ldingmi?
- Ha-ha, albatta. – U o'zini zo'rlab suvdan chiqa boshladi. Kutilmaganda muvozanatini yo'qotib, chayqalib ketdi va shoshilib, tayanch nuqta qidirdi. Edis qo'lidan mahkam ushlab, suyab qoldi.
- O'zingni yomon his qilayapsanmi?
- Yaxshiman. U vannadan chiqib, sochiqqa o'raldi.
- Sen og'ir mehnat qilding. U badanini sochiq bilan artayotib bosh irg'ab qo'ydi. Terisi o'ta yumshoq edi. Iliq suvdan keyingi salqin havodan Palmerning badanida titroq turdi.
- Ertaga o'zimni juda yaxshi his qilaman, - dedi u.
- Palmer xotiniga qaradi va Edis o'ta sinchkovlik bilan ko'zdan kechirayotganini sezdi. U "nimaga bunchalik qarayapsan?" degandek, qoshini chimirdi. Edis sekingina bosh chayqadi.
- Chamamda, — sekin, go'yo o'zi bilan gaplashayotgandek so'zladi u. — O'zing buni kim tishlaganini bilasan...

Oltmish birinchi bob

Bettern – park Manxetten buxtasidagi boshi berk yarim orolga yorib kirgan va hattoga quyosh charog'on peshin chog'ida ham qandaydir iflos tutunga burkanib olganga o'xshab ko'rinardi. Palmer Bedlouz Aylend tarafdin tinimsiz esib turgan sovuq shamoldan ko'zlarini arang ochib kulrang-yashil ustunga o'rnatilgan Ozodlik haykalini zo'rg'a ilg'adi. Haykal tutun va gaz pardasi ostida arvoqqa o'xshab goh ko'rinib, goh g'oyib bo'lib turardi. Oradan biror soniya o'tgach, Palmerning mashinasi ham umumiy oqimga qo'shilib ketdi.

Vertolyot bekatining kutish maydonida har tomondan sovuq shamol esib turardi. Palmer mashinadan tushib, sigaret tutatmoqchi bo'ldi.

Biroq kuchli shamolda yondirgich kuchli alanga olib, qo'lini kuydirdi. Uni cho'ntagiga solib, vertolyot bekatni devoriga urilib, chayqalib turgan to'lqinlarga sigaretani uloqtirdi. U mavj urayotgan suvni tomosha qilib turganda baland bir to'lqin zarb bilan kelib urildi-yu, Palmerning yuz-ko'ziga minglab suv zarralarini sochdi. To'lqin bilan birga oyog'i ostiga turli xil chiqindilar ham kelib tushdi. Palmer Nyu-Yorkning o'ziga xos bu "sovg'a"lariga biroz tikilib turgach, bekatning nariga tomoniga o'tdi. Umuman, ishlar yomon ketmayapti, deb o'yladi u kuchli shamolda turganicha. Birja ochilganda Jet-TEX aksiyasi 45 da turar edi. Birjadan ma'lumotlar juda sekin kelar, biroq u o'n bir yarimda jadvallarni ko'zdan kechirish uchun shahardagi dallollar mehmonxonalaridan birida to'xtab, bitimlar soni oddiy kunlardagiga nisbatan anchagina ko'payganligini ko'rdi: 10 000 aktsiya sotilgan, narxi esa 38 gacha tushgandi.

Palmerning jilmayishi g'olibona kulgiga aylandi. U mohirlik bilan maqsadiga erishdi. Endi ish u o'ylaganchilik to's-to'polonga yetib bormasa, ham, hatto Jo Lumis YuBTKni nazorat qilishdek be'mani fikridan qaytmasa ham, har qalay Lumis oldida ko'plab muammolar paydo bo'ladi.

Palmer vertolyotning bo'g'iq ovozini eshitdi. U o'girilib, vertolyot yonginasidan uchib o'tganini, orol qirg'og'i bo'ylab doira yasab, Gudzonning shimolrog'iga, chamasi, O'ttizinchi ko'chadagi bekat tomon yo'l olganini ko'rdi. Tezda ikkinchisi ham keladi, deb o'yladi Palmer. Jadval bo'yicha, uning uchib kelishiga ikki daqiqa qolgan edi.

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, ikkinchi vertolyotning ham o'ziga xos guldiragi eshitildi. Palmer daryo osha Bruklin tomonga ko'z tashladi va qo'nish maydoniga qarab burilayotgan vertolyotni ko'rdi.

Havo to'lqini Palmerning shlyapasini uchirib ketayozdi. U vertolyot qo'nguncha shlyapasini ikki qo'llab ushlab turdi. Bir-ikki soniya o'tmay, motor ovozi tindi. Aylanayotgan parraklar asta to'xtadi. Geynts Gauss vertolyotdan uchinchi bo'lib tushdi.

Kichkinagina bu odam atrofga olazarak ko'z yugurtirdi. Palmer Gaussni hech qachon, hatto Penemnondda asir olinganda ham bunchalik hayajonlangani, o'zini gunohkorona tutganini ko'rmagandi. Palmer qo'l silkitib, unga qarab yurdi. Sovuq shamolda turgan holda, ular jimgina qo'l qisishdi.

Bankning "Kadillak"i to'siq ortida kutib turgan edi. Palmer Gaussning yoniga o'tirdi va haydovchiga vertolyot bekatidan bir necha kvartal naridagi "Klub" manzilini berdi. Mashina joyidan qo'zg'algach, Palmer Gaussga asta bosh irg'adi.

— Yetib kelganingizdan xursandman, Garri, — dedi u. — Anavi tikkerlar bilan ishingiz qalay?

Gauss iztirob ichida chimirildi va qo'llarini ilojsiz yozdi: — Yomon emas, — dedi nihoyat nemischa lahjasini sezdirmaslikka urinib.

Palmer millati va kelib chiqishini yashirish uchun Gaussda mahorat yetishmasligini payqab, tashabbusni qo'lga oldi: Long-Aylenda bittadan oilalarga mo'ljallangan yengil uylarni qurilishi, kapitalning o'rtacha raqami, foizlar, shart-sharoitlar, yer uchastkalarini moliyalashtirish kabilar haqida tinimsiz gapirishga tushdi. Mashinalar bilan tirband ko'chalarda o'n daqiqadan ortiq yo'l yurib, ovqatlanish vaqti yetguncha "Klub"ga yetib keldilar.

— ... va uning kapitalini savdoni kengaytirish uchun ozod qiladi, — deya hamon valaqlar edi Palmer. Nihoyat u: — O, mana, yetib ham keldik. Shu yerda, to'xta, Jimmi, — deb haydovchiga murojaat qildi.

Ular roppa-rosa o'n ikkiyu o'ttizda mashinadan tushdilar, shoshilgancha, eski foyedan o'tib, jimgina kattakon shalog'i chiqqan liftga chiqdilar. Kutish zalida Palmer xizmatchiga shipshidi:

— General Xeygenning stoliga.

Xizmatkor jilmaydi va ularni boshlab kirdi. Palmer orqada kelayotgan Gaussning to'ng'illaganini eshitdi:

— Ha, men haq ekanman.

Xeygen Palmerni bosh irg'adi va Gaussga murojaat qila turib o'rnidan qo'zg'aldi.

— Doktor, sizni yana ko'rganimdan mamnunman, — dedi u o'zini katta tutib.

Ular stol atrofiga o'tirdilar. Palmer ko'nglida Xeygendan mamnun bo'ldi. Gauss ilmiy unvonini aytib murojaat qilishganda juda rohatlanardi.

— General, men ham mamnunman, — javob berdi u.

Ular o'tgan kunlarni xotirlashga berildilar: Xeygen Gaussning urushdan keyingi faoliyatini mukammal bilishi bilan hammani hayratga soldi. Palmerning e'tiborini boshqa narsa jalb etdi. U yaqin-atrofdagi stollarga razm soldi. Ikkita dallol ularni oshkora qiziqish bilan kuzatib turardi. U nigohi bilan butun xonani kezib chiqdi. Lumisning burchakdagi stoli bo'sh turar, biroq yonidagi stolda Archi Nikos xayol surib, qandaydir ichimlikni sekin ichib o'tirar, uning yonidagi stolda esa ikki bankir namoyishkorona suhbatlashishardi.

Palmer kulimsiradi. Xeygen hamisha bir yo'la kamida ikki yo'nalishda fikrlay olishi bilan ajralib turardi. Palmer ofitsiant kelayotganini ko'rib, taomnomani qo'lga oldi.

— Qovurilgan qilich baliq yeysizlarmi? — so'radi u o'tirganlardan. Ular xotiralarini so'zlashdan to'xtab, Palmerni o'girilishdi.

— Bugun dushanba, Vudi, — quruqqina javob berdi Xeygen. — O'ylaymanki, bugungi

uchrashuvimiz tansiq file minonga arziydi. Nima dedingiz, doktor?

— Albatta. Ajoyib.

— Chamasi, biz til topishyapmiz, Vudi, — dedi, keyin Gaussga qarab so'radi: — Tezroq boshlay olasizmi?

Bu paytda restoran zaliga odam to'lib ketgandi. Ertaroq kelganlar ketib, ular o'rnini boshqa dallollar va bankirlar egalladi. Eddi Xeygen va Jet-Texning ilmiy ishlari rahbari birga o'tirib uzoq suhbatlashgani va ovqatlangani haqidagi gap Uoll-stritda shov-shuv bo'ladi. Endi do'stona qo'l qisishib xayrlashayotganlarini hammaga namoyish etib, pardani yopish vaqti keldi.

Palmer soatiga ko'z tashlab, xitob qildi: — Jin ursin, general, men bu odamga o'n besh daqiqadan keyin vertolyot bekatiga qo'yib kelaman deb va'da bergandim. Iloji bo'larmikan?

Xeygen jilmayib, o'rnidan turdi. U ataylab qulochini shunday keng yozdiki, Palmer hatto qo'rqib ketdi.

— Doktor, — dedi Xeygen qo'lini nemisga uzatib, — Meni narxi qiziqitirmaydi. Biroq birinchi bo'lib qiladigan ishingiz gravitatsiyaga qarshi anavi narsangizni qurish. Men uni ko'rishim kerak.

— Albatta ko'rasiz, — va'da berdi Gauss yashnab.

— O'shanda bitim tuzamizmi?

— O, albatta! — Gauss deyarli qichqirib yubordi. — Albatta!

— Yana bir marta xayr, doktor, — baland ovozda xayrlashdi Xeygen Gauss bilan, — Siz bilan suhbatlashib, maza qildim.

Bu gal Gauss poshpalarini taqillatib, harbiychasiga chest berdi. Palmer "pochasi uzun bo'lmaganda poshnasining taqillashi olamni buzardi" deb o'yladi.

Ular liftda yana jimgina pastga tushdilar.

— Menga qarang, — Gauss lablarini yalaganicha, jim qoldi. Uning ko'zlari nam edi. — General ikkimiz haqiqatan ham bitim tuzdikmi?

— Uning qo'l qisishi shartnoma kabi majburiyat kasb etadi. Bundan tashqari, generalning fe'lini yaxshi bilaman, ertaga, pochta orqali shartnomaning bir nusxasini olasiz.

Gauss bir zumda yashnab ketdi. Keyin yana telbavash qiyofaga kirdi.

— Men bu haqda Jet-Texga xabar qilishim kerak, — g'o'ldiradi u.

— Bu masala sizni juda hayajonlantirayotgan bo'lsa, o'zingizga tegishli shartnoma nusxasiga imzo chekib, generalga jo'natib yuboring. Bir-ikki kundan keyin ro'yxatdan o'tkazilib, imzolangan nusxani sizga qaytarib yuboradi. Hammasi qonuniy va rasmiy bo'ladi. Shundan keyin Jet-Texga ma'lum qilasiz.

— Ha – a, — Gauss xotirjam bo'ldi. U ishchan qiyofada osmonga qaradi, keyin o'girilib, bir necha muddat ufqqa ko'z tikdi. So'ng qovog'ini uyib: — Tartibsizlik, — dedi. — Hech qanaqa majburiyat tuyg'usi yo'q.

Palmer yelkasini qisdi:

— Ozgina Nyu-Yorkcha maftunkorlik bor, xolos.

— Men uchun yo'q, — Gauss qaddini rostladi va jiddiy qiyofada daryo tomon bir necha qadam tashladi.

— Siz haqsiz, — ma'qulladi Palmer.

Gauss o'girilib, yana ufqqa qaradi. Bosh chayqab: — Tushunmayman, odamlar bu yerda qanday yashar ekanlar, — deb qo'ydi. Baland to'lqin uning ortidan kelib, devorga urildi. Minglab suv zarrachalari Gaussning botinkalarini xo'l qildi va suv bilan birga chiqqan turli qog'oz parchalarini yopishtirdi. Gauss qo'llarini cho'zib:

— Juda maza qildim, — deb qo'ydi.

Palmer uning qo'lini qisdi:

— Omad tilayman.

Har kim o'z baxtini o'zi yaratadi, — dedi va burilib, vertolyotga chiqib ketdi...

Oltmish ikkinchi bob

Ikkidan o'ttiz daqiqa o'tganda Palmer Beshinchi avenyudagi ishxonasiga kirdi. U kattakon xona oxiridagi stol yoniga o'tirib qo'lga telefon go'shagini olgan chog'idagina stol ustidagi bir dasta qog'ozga ko'zi tushdi. Bugun ertalab, soat sakkizu ellik beshdan boshlab har soatda Berkxardt qo'ng'iroq qilibdi. Bir gal soat o'n birda Jeynning eri Tim, o'ndan keyin Edis, soat o'n ikki-yu, o'n beshda esa chamasi Palmerning kimlar bilan ovqatlanayotganini ko'rgan "Star" hodimi Jorj Mollet yo'qlabdi. Soat birda besh daqiqalik oraliq muddat bilan Bernsning qo'ng'irog'i ro'yxatga olinibdi. Shu daqiqada esa Palmerning shaxsiy dalloli qo'ng'iroq qila boshlabdi.

Palmer shahar bilan bog'lovchi telefon tugmachasini bosdi. Dallolning telefoni raqamini terdi. Va shu yo'l bilan o'rtadagi suhbatni yashirincha eshitib, bo'lmaydigan qilib qo'ydi.

— Pit, bu menman, — dedi Palmer.

— Ayni muddao, — bo'g'iq ovozda javob berdi dallol. — O'ttiz to'qqiz.

— Ya'ni olti band pastga, seningcha, kuning oxirida nima bo'ladi?

— Katta faollik bo'lmaydi. Yirik paketlardan birontasi hozirgacha sotuvga qo'yilgani yo'q.

— Asos mustahkam bo'lmaguncha qo'yilmaydi ham, — oldindan sezdi Palmer. — Balki ertaga, peshingacha o'zgarish bo'lar.

— Yopilishiga bir necha band ko'tarilsa, hayron qolmasdim.

— Birja chayqovchilarimi?

— Ha. Past holicha tutib turishi uchun kuchli bosim bo'lishi zarur.

— Bosim berildi, — dedi Palmer.

— Qachon?

— Bir soatcha oldin.

— Birjada biror alomati sezilgan yo'q.

— Yangilik hozircha Strit bo'yicha tarqalagani yo'q, ammo tezda ko'rasan.

— Bu nima o'zi? — so'radi dallol.

— Yaxshisi, men jim turay. Sen gapir.

— Chamasi, jadal yurish qildikmi?

— Eshitganingdan keyin menga ham ma'lum qil, — dedi Palmer. — Aktsiyalarning yirik paketlari sotuvga chiqsa, shu zahoti menga habar ber.

— Nima deb o'ylaysan, ular yana qancha pasayishi mumkin, Vudi?

— Nima, men dallolmanmi?

— Ha! — U tomondagi odam jim bo'ldi.

Palmer jilmayib o'tirardi. Keyin "Berkxardt" degan tugmachani bosdi va kuta boshladi. Bir necha soniya o'tib, unda yashil chiroq yondi.

— Eshitaman?

— Leyn, menga qo'ng'iroq qildingizmi?

— Kim? Senmi, la'nati ahmoq! Jin urgur, qayda daydib yurganding!

— Ishbilarmonlar dahasida. U yerda men sal bo'lmasa sizni bosib olay dedim.

— Ish bilarmonlar dahasida bo'lganingni bilaman. Seni ovqatlanib o'tirganingni ko'rgan to'rtta odam menga qo'ng'iroq qildi. Jin urgur, sen u yerda nega o'ralashib yuribsan?

— Hech narsa. Menga yordam zarur edi.

— Tingla, mishiqli surbet, men savol berayotganimda, men...

— Qo'lingizdan biron ish keladi, deb o'ylaganimda, sizga murojaat qilgan bo'lardim. — Palmer gapini shartta kesdi. — To'g'risini aytsam, sizga ishonmayman, chunki hamma narsani barbod qilishingiz mumkin. Siz sabrsiz odamsiz.

— Nima deyayotganingni anglayapsanmi?

Tashqi aloqa tugmachasining yashil chirog'i yondi, interkom ohista guvulladi. Yorug'lik lipillab bir

maromda yonib o'cha boshladi.

— Menga yana kimdir qo'ng'iroq qilyapti, — muloyimlik bilan dedi Palmer.

— Tupurdim.

— Aytдим-ku, o'zingizni tutishni bilmaysiz deb, — gapini bo'ldi Palmer. — Bu hali yumshatib aytganim. Tinchlaning! Hammasi tugagach, men sizni uyg'otaman.

— Palmer sen kichkina...

— Leyn, keyinroq qo'ng'iroq qilaman. — Palmer Berxardt bilan gapni to'xtatib, boshqa tugmachani bosdi. — Eshitaman?

— Janob Mollet, ser.

—Ulang. Jorj?

— Mendan qochib yuribsizmi? — so'radi Mollet.

— Hozirgina kirdim. Boshlig'im qulog'imni tom bitirdi.

— Tushlik qanday o'tdi?

— Zo'r, — javob berdi Palmer. — Sizlarniki-chi?

— Judayam zo'r. Qulog'ingiz qizidimi?

— Qizishi kerakmidi?

— Aytingchi, bu eski safdosh qadrdonlarning oddiy uchrashuvimidi?

— Qandaydir ma'noda — ha.

— Nima? Gauss Xeygen uchun ishlamoqchimi?

— Yaxshisi, birortasidan so'rganingiz ma'qul.

— So'radim. Xeygen javob bermayapti. Gauss shaharda yo'q.

— Shu ishga aloqador davlat departamentidan bilib ola qolmaysizmi?

— Masalan, aynan kimdan? — so'radi reportyor.

— Janob Karvi degani bor. Tim Karvi. U biror narsa bilishi mumkin.

— Matbuot uchunmi? — so'radi Mollet. — U hech narsani aytmaydi, shunday emasmi?

— Holi-jonimga qo'ymasdan so'rayverasiz...

— Eng osoni — sizni bezovta qilish.

— Agar Timdan ma'lumot olsangiz, men barcha norasmiy narsalarni aytib beraman, — va'da berdi Palmer. — Shunda siz Xeygenga, Lumis va Gaussga qanaqa savollar berishni bilasiz.

— Boshqacha qilib aytganda, siz Karvi bezovta bo'lishini xohlaysiz. Va buni boshqalarning qo'li bilan amalga oshirmoqchisiz.

— Odatda "Star"ning muxbiri bundan boshqa savolni bilmaydi.

— Hozir hammasini tugataman, — javob berdi Mollet.

— Yaxshi. Ko'rishguncha.

Palmer yana shahar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa tugmachasini bosdi va Mak Berns telefoni raqamini terdi. Endi soat ikkidan qirq besh daqiqa o'tgandi.

— Azizim, nima uchun tomirlaringda Livan qoni oqayotganini menga aytmading?

Berns to'ng'illadi:

— Birjaning yopilishini kutib o'tirolmadim. Hammasi boshlanganda gap nimadaligini darhol fahmladim. Men faqat bunga qanday erishganingni bilmoqchi edim.

— Nimaga erishibman?

— Aqldan ozish mumkin. Eshit, men senga dastyordan bir narsa yubordim. Har daqiqada u oldinga borib qolishi mumkin.

— Nima o'zi?

— Magnitofon tasmasi. U endi seniki.

— Minnatdorman, Mak.

— Men esa hayratdaman. Menga hamma tomondan qo'ng'iroq qilishmoqda, azizim. Bugun oqshomda senga qo'ng'iroq qilishimga ruxsat ber. Yaxshisi, kel, birga ovqatlanamiz.

— Mak, agar sodiqligingga asos bo'ladigan narsani o'zgartirmoqchi bo'lsang, yaxshisi vaqtingni

yo'qotma. Men haliyam OAP man.

— Meni laqillataman deb o'ylama, azizginam. Shunday aqling bilan, a?

— Aqlim qanday bo'lsa, hozir ham shunday. Ovqatlanish masalasida biror narsa deyo olmayman. Soat beshlar atrofida qo'ng'iroq qil.

— Ajoyib. Shoshilish kerak. Hozircha.

Palmer go'shakni qo'yib, tugmacha rangi o'zgarishini kuzatib turdi. Berns birinchi qo'ng'iroq qilgan vaqtga qaraganda u hali "klub"dagi uchrashuvni bilmaganini angladi. Berns Jet-TeXning aktsiyalari narxi kutilmaganda tushib ketayotganidan xavotirga tushgan, deb o'yladi Palmer. U, chamasi, hali Gauss haqida eshitmagan.

Yana interkom guvulladi.

— Eshitaman?

— Hozirgina tuguncha keltirishdi, janob.

— Marhamat qilib, olib kiring. Palmer Virjiniya Klerining kabinetini bilan bog'lovchi telefon tugmasini bosdi.

— Shu yaqin-orada magnitofon bormi? – gapni lo'nda qildi Palmer.— Men... Menimcha, bor.

— Ayting, menga olib kelishsin. O'zingiz ham keling.

— Xonangizdamisiz?

— Iloji boricha tezroq, iltimos.

Soat uchdan o'n daqiqa o'tganda Palmer Berns yuborgan kassetani magnitofonga qo'ydi. U va Virjiniya tasmaning aylanishiga qarab turishardi. Dinamikdan sekingina shitirlash eshitildi.

— Ovozini balandlat, — taklif qildi Virjiniya.

Ko'p o'tmay ular tasmadan o'z ovozlari eshita boshladilar. Palmer tinglab turib, birdaniga qovog'ini soldi. Tasmani aylantirayotgan muruvvatni to'xtatib, tasmaga diqqat bilan tikilib qoldi. Bir necha daqiqa o'tib, tasma asosiy g'altakka o'raldi.

— Qiziq, — dedi Palmer. – Birorta ulangan joyi yo'q.

— Bo'lishi kerakmidi?

— Haqiqatan ham tasmaga bir necha kecha-kunduzlik gap-so'zlar yozilgan. Bernsning xonasidagi magnitofon tasmauning eni yetti santimertli edi. Bu esa 17 santimertli. Demak, bu uch-to'rtta kichik tasmalardan tayyorlangan. Ular bir joyda bo'lishi uchun yelimplanishi kerak. Bu tasmada esa ulangan joy yo'q. Demak...

— Demak, bu asl nusxa emas, ko'chirib yozilgani...

Yana Kleri o'ta aqlliligini ko'rsatdi.

— Mak buni asl nusxa deb berdimi? Qo'lingga qanday tushdi?

— Bunisi sir. Asosiy, asl nusxa unda qolgan. U meni oson ishontiraman deb o'ylagan.

— Bu esa...

— Demak, Mak haqidagi taxminim to'g'ri. U meni anoyi emasligimni tushunmayapti. U meni kimlar bilan, qanday maqsadda tushlik qilganimni bilganda edi, boshi berk ko'chaga kirib qolganini, bunga o'xshagan soxta choralari uni qutqara olmasligini anglab yetgan bo'lardi.

— Vuds, nimalarni gapirayotganingni sira tushunganim yo'q.

— Bilaman. – U magnitofondan ko'zini oldi. – Kechir. Men hatto o'sha juma oqshomdan keyin sen bilan gaplashmadim ham. Bu sening foydang uchun bo'ldi, to'g'rimi?

— Men uyda, telefon yonida maza qilib o'tirdim.

— Meni kechir.

Ayol uning nigohidan ko'zini olib qochdi.

— Aytgan gaplarim uchun kechirim so'rayman. O'sha kecha o'ylaganlarim uchun ham. Unday emasligini bilaman. Mast holatdagi be'mani xayollar.

Ayol yana bosh chayqadi:

— Nega shunday bo'lganimni tushunishim mumkin. Lekin bugun tushlik davomida menga nima uchun qo'ng'iroq qilmaganing va nima bo'layotganini aytmaganingni oqly olmaydi. Men uyda kutib

o'chirdim, ko'p miqdorda uyqu dorisi ichishimga sal qoldi. Sen hatto men o'zimni qanday his qilganimni tasavvur qilolmaysan. Alam qilgani shuki, birgina qo'ng'iroq dardimga davo bo'lishi mumkin edi. O'zimni mana shunday g'alata ahvolga solib qo'ydim, Vudis. Mening yoshimdagi ayol aqlli roq bo'lishi kerak.

— Astoydil kechirim so'rayman, men...

Shu zaxoti interkom guvulladi. Palmer Berkxardtga ulanadigan telefon tugmachasi yonganini ko'rdi. U bunga e'tibor bermay, magnitofondan kassetani olib cho'ntagiga soldi. Bir daqiqadan keyin shaxsiy telefonining chirog'i yondi. U go'shakni ko'tardi.

— Yarim bandgacha ko'tarildi, — xabar qildi Palmerning dalloli. — Lekin 39,5 dan keyin yana keskin tusha boshladi. Birja yopildi. Biroq so'nggi ma'lumotlarga qaraganda Jet-TEX aktsiyalarining narxi yanayam tushib bormoqda. Aytishlaricha, hozir ularning aktsiyalari kursi 34 ekan. Nima gap o'zi?

— Nima gapligini eshitganing yo'qmi?

— Nega sen yashirin ish tutuasan? Gap nemis olimidami?

— Demak, baribir eshitibsan-da, — tasdiqladi Palmer.

— Butun Stritda faqat shu haqda gapirishayapti. Lekin u shunchalik foyda keltirishi mumkinmi?

— Pit, foyda endigina sezila boshladi.

— Lekin nimaga?..

— Eh, Pit, — chuqur nafas oldi Palmer. — Seni dalollik qiladi, deb o'ylagandim. — U gapni bo'ldi va hamon chaqirayotgan Berkxardtning qo'ng'irog'iga e'tibor bermay, boshqa bir telefon go'shagini ko'tardi.

— Janob Mollet, ser.

— Ulang. — Palmer cho'ntagidan reja yozilgan qog'ozchani oldi. — Jorj, qo'ng'iroq qiloldingizmi?

— Ha, lekin oson bo'lmadi. — Bechora yigit oxiri go'shakni tashlab yubordi.

— Nima uchun "Bechora yigit?" Gauss tufayli-ya?

— Bo'lmasa nima uchun? Uning matbuotga xabar qiladigan hech narsasi qolmagan ekan. U aytdiki, bizning Vashingtondagi byuromiz bir necha soatdan keyin bu voqeaga doir tegishli ma'lumotlarni olarkan. U keyingi savolni oxirigacha eshitmasdan, go'shakni tashladi.

— Dahshat!

— Ayting-chi, yirik soliq to'lovchi sifatida siz davlat xizmatchilari orasida janjal chiqarishga haqlimisiz?

— Asabiylashgani uchun Timga haq to'lashadi. Uning agentligi bu masalada rasmiy bayonat berishidan mamnunman. Ana shunda siz ham tayyor holdagi maqolangizga ega bo'lasiz.

Palmer stul suyanchig'iga yaslandi. Bir daqiqa o'tgach, ko'zlarini yumdi va barcha mushaklariga dam berishga urindi.

Oltmish uchinchi bob

Soat beshda bank kommutatori tungi ishlarini tugatdi. Palmerning iltimosiga ko'ra kechki qo'ng'iroqlar Virjiniya Klerining raqamiga o'tkazildi. Birorta odam uning xonasi bilan bog'lana olmadi. Shunday bo'lsa-da, soat 5.30 da telefonining yashil chiroqlari yondi. Palmer dallol qo'ng'iroq qilayapti, deb o'yladi va tugmachani bosdi:

— Ha, Pit?

— Men Pitga o'xshaymanmi? — so'radi Mak Berns.

Palmer qovog'ini soldi. Undan tashqari nyu-yorklik va chikagolik dallollarning birortasi ham bu telefon raqamini bilmasdi. Bugun kunduzi u faqat Edisga Tim qo'ng'iroq qilsa, shu raqamga ulagin, deb tayinlagandi.

Mak Bernsning ovozi eshitilganda Palmer sarosima ichida stol ustida uyulib yotgan qog'ozlarga —

javob berilmagan telefon raqamlariga nigoh tashladi. Virjiniya bu telefon raqamini bilarmidi? Balki. Balki, uni Berkxardt ham bilar, YuBTKda deyarli hamma, Palmerning kabinetiga kirganlar telefon raqamini ko'rgan bo'lishi mumkin. Demak, Berns ham. Birdan Palmer sukut cho'zilib ketganini his qildi.

— Pit kimga o'xshaydi? — nihoyat so'radi u.

— Eshit, azizim uchrasha olamizmi?

— Gap nima haqida bo'lishiga qarab.

— O, mucho¹ narsalar haqida azizim.

— Xudoyim, ko'p tillarni biluvchilarga ofarin. Ayt-chi, nima uchun ovozing boshqacha?

— Ovozim boshqacha bo'lishi kerakmi? — e'tiroz bildirdi Berns. — Bunday deyishingga biror sabab bormi?

— Bir dunyosini sanab berishim mumkin.

— Chunki ichaklarim jang bo'lib o'tgan dalalarga osib qo'yilganimi? — so'radi Berns. — Meni xonavayron qilding-ku, bolaginam? Ko'richagimni kesishgandan buyon bunday jarrohlikka duch kelmagan edim.

— Iltimos, xushomad qilmasdan gapiraver.

— Hech qanday og'riq qoldiruvchi vositasiz — davom etdi Berns. — Do'stim, sen so'yganda ham astoydil, chinakamiga so'yar ekansan. Faqat soat to'rtdagina nemis xoini haqidagi yangilikdan voqif bo'ldim. Do'stlaring g'aroyib ekan.

— U — do'stim emas.

— Endi do'sting bo'lmay qoldimi? To'xta, undan foydalanganingni u qachon bila oladi?

— Nima keragi bor, Mak. Jet-Textda ahvoli yomon bo'lib qolgan ekan. Boshqa ish taklif qilgan har qanday odam unga qatta yaxshilik qilgan bo'lardi.

— Eddi Xeygen-chi? Sen uni qaerga tiqishtirganingni tushunadimi?

— General Xeygen tadqiqot ishlarida yangi rahbarga ega bo'ldi. Bu ishni kim qilsa ham generalni og'ir vaziyatdan chiqargan bo'lardi.

— Va senat komissiyasi oldiga qo'ygan bo'lardi, — qo'shimcha qildi Berns.

Palmer qaddini rosladi.

— Tushunmadim.

— Xeygen tushunadi. Gauss ham, Jet-Textdagi rahbarlar ham.

— Ular komissiya oldida turishadi demoqchimisan?

— Vashingtondagi meni odamim yaqindagina qo'ng'iroq qildi, og'ayni. Mana shunday ishlar bilan shug'ullanuvchi departamentdagilar quturib ketishibdi, dedi u. Yarim soatdan keyin matbuot konferentsiyasi bo'ladi. Ular bunday o'tishga qarshilik ko'rsatish maqsadida tekshiruv o'tkazishni talab qilishmoqchi.

— Bunday qilishga qonuniy huquqlari bor, — javob berdi Palmer.

— Ish tahlil qilinganda ismingni tilga olmaslikka kim xalaqit bera oladi?

— O'ylaymanki, hech kim.

— Bunisi qandoq bo'ldi? — so'radi Berns.

— Nima qipti? Mamlakatimiz erkin mamlakat, Mak. Agar ular meni milliy xavfsizligimiz uchun katta foyda keltirishga qodir odamni faoliyati cheklab qo'yilgan boshqa odam bilan uchrashtirib, har ikkisini yo'ldan urdi deb aytishni xohlasalar, ularni to'xtata olmayman. Harakat ham qilmayman.

— Azizim, senatorlar hamma narsaga boshqacha ko'z bilan qarashi mumkin. Ular seni o'ta zarur "Uotan" loyihasi bilan mashg'ul ishdan chalg'itishda ayblashlari mumkinligini unutma.

— Gaussni nazarda tutayapsanmi? — so'radi Palmer, chamamda u voqeani butunlay boshqacha izohlaydi. U, ehtimol, "Uotan"ning omadi yurishmayotganiga Jet-Textning xasisligi sabab, bu kompaniya uni mablag' bilan puxta ta'minlay olmayapti, deb izoh bera oladi. Dunyoda uning nohaqligini isbotlaydigan o'n nafar odam topilmaydi. Binobarin, u haq bo'lib chiqadi.

Berns anchagina jim qoldi. Keyin yengilgina kinoya bilan "ha-a" deb qo'ydi.

— Tanlash imkoni yoʻq, — Virjiniya uning gapini yakunladi. — Hozir men senga asosiysini aytaman. Juma kuni oqshomda jamgʻarma banklar menga ish taklif qilishdi. Men “yoʻq” deb javob berdim. Biroq shanba va yakshanba kunlari boshdan kechirganlarim holdan toydirdi. Dushanba kuni menga ish taklif qilgan odamga qoʻngʻiroq qilib, “xoʻp” dedim. Men xohlagan paytimda ishga tushishim mumkin. Ular uch yilga shartnoma tayyorlashyapti. Ish haqi YuBTKdagidan yuqori. Biroq puli meni qiziqitmaydi. — U choʻzilib, Palmerning qoʻliga qoʻlini qoʻydi. Ayolning qoʻli muzday edi.

Virjiniya Palmerning qoʻlini qattiq qisdi.

— Boshqa gaplar ham bor. Men, masalan, chin yurakdan tijorat banki xodimi boʻlmayman, deb ahd qildim. Erta yetilyapman. Sharqiy Garlemlik bechora qiz. YuBTK... U zabt eta olmagan dunyo. Men muxolifchilar bilan baxtliroq boʻlaman deb oʻylayman. Bunday turdagi odamlarga yaqinroqman. Ular davlat va olamga ega emaslar. YuBTK hamisha meni qoʻrqitar edi. Biroq bu ham eng yaxshi istagim emas. — U Palmerning ikkinchi qoʻlini ham oldi va ularni qattiq qisdi. — Asosiysi, azizim, men sendan uzoqda boʻlaman. — U Palmerning qoʻllarini ehtiyotkorlik bilan stolga qoʻydi, oʻrnidan turib, eshik tomon yoʻnaldi. — Koʻrdingmi, ishlar qanaqaligini?

— YuBTK bilan shartnomang yoʻqmi?

— Hech qanaqa. Oʻylaymanki, meni shartnoma bilan ishlashga munosib emas deb bilishgan.

— Jamgʻarma banklar yutib chiqishi mumkin emas, sen buni bilasan.

— Endi Mak ikkovlarning bunday boʻlmasligi uchun harakat qilinglar. U yana senga ittifoqdosh boʻldi, toʻgʻrimi? Uni hamisha kuchli tomon oʻziga tortadi. Lekin biz yutqazamizmi-yutqazmaymizmi, menga baribir. Meni YuBTKda qolishga koʻndirsang qanchalik jahling chiqishini tasavvur qilaman.

— Menimcha, bunday boʻlishiga umid juda kam, — dedi Palmer. — Kel, mavzuni oʻzgartiramiz.

— Yoʻq. Jimmi Klerining aytmoqchi boʻlgan fikrlari bor hali. Xudo haqqi, tumtayma. Sening tumtayishingga sabab juda kam, sen noshukur bandasan. — U yana Palmerning qoʻlini olib lablariga olib bordi va asta lablariga surdi.

— Kerak emas. — Palmer qoʻlini tortib oldi va bilinar-bilinmas qolgan lab boʻyogʻi iziga qaradi. — Yo sevimli boʻl, yo umuman qoʻl yetmas boʻlgin. Bir vaqtning oʻzida ikkalasi boʻlishi mumkin emas.

— Men faqat oʻz-oʻzimga oʻxshagan boʻlishim mumkin, — javob berdi Virjiniya. Bir necha muddat ular bir-birlariga ehtiyotkorlik bilan qarab qolishdi...

— Vuds, men ish haqida gapiryapman. YuBTKni nazarda tutyapman. Men... — U qoʻlini yengil silkitdi. — Men bechorahol ayolman. Bizni tirsaklari bilan turtib, oʻzi uchun yuqoriga yoʻl ochadiganlar koʻp. Bilasanmi, hamma narsa ruxsat berilgan maʼlum toifalar boʻladi. Yahudiylar ancha keng imkoniyatlarga ega. Ularning olim boʻlishlari shart emas. Ular musiqachi, masxaraboz yoki hakam boʻlishlari mumkin. Mana men ham shunday boʻldim: borligʻim bilan YuBTK nikiman. Qanday qilib bu holga tushib qolganimni bilmayman, tushunmayman, bu mashgʻulotni qadrlamayman va yoqtirmayman. Balki jamgʻarma bankni ham tashlab ketarman, shunday boʻlishi mumkin. Biroq ayni paytda, sening sharofating bilan, menimcha, bank eksperti boʻldim va u menga katta pul keltiryapti.

— Bu qanaqa qoida? — soʻradi Palmer. — Ularni kim oʻrnatadi?

— Bolaginam, doʻmbogʻim, — dedi Virjiniya Bernsning ovozigacha taqlid qilib. — Nahotki sen bilmasang? Qoidani sen oʻrnatasan.

— Men?

— Sen va senga oʻxshaganlar.

Palmer asta bosh irgʻadi:

— Umuman, OAPlar.

— Bu atamadan, xabardorligingni bilmayman.

U kinoyali jilmaydi:

— Yashirin tashkilot xushyorlikni yoʻqotibdi. Sirli raqamlar dushman qoʻliga tushibdi.

— Xoʻp, mayli. — Bir necha soniya u gangib qolganday boʻldi. Keyin boshini asta chayqadi. — Nima boʻlganda ham hammasi ayon. Hech kim meni YuBTKda tutib qololmaydi. Shuning uchun men ketaman.

— Bo'lmagan gap.

— Yo'q. To'g'ri gap.

Virjiniya o'rnidan turdi va unga yuqoridan qaradi. Qo'llari Palmerning sochlari tomon cho'zildi. Barmoqlari Palmerning chekkalariga tekkanda sovuq shamol nafasini eslatdi. — Men juda to'g'ri va qattiqqo'l bo'lishim kerak, — dedi ayol past ovozdagi. — Men sendagi tuyg'ularni — qamatilgan shaxsiyatparastlik degan bo'lardim. Lekin bu senga, baribir yordam berolmasdi. Shunday qilib, eshit: sen bilan juda tuban darajada aloqada bo'ldim, shuning uchun bitta idorada ishlab, yaqin yurishga chiday olmayman. Har kuni, har daqiqada seni ko'rish yoki tasodifan ovozingni eshitish, qog'ozga yozilgan ismingni o'qish majburiyati... Bularning hammasi menga azob beradi, o'ldiradi. Xayr, azizim.

Palmer o'rnidan turdi.

— Balki?..

— Yo'q, biz yaqin bo'lolmaymiz. Meni qanchalik kuchli deb bilishing menga noma'lum... Ovozi bo'g'ilib, darhol teskari qaradi.

— Eshit agar qo'limdan kelganda...

— Qo'lingdan kelmaydi, — ayol silliq gapirishga urindi.

U mana hozir o'kirib yig'lab yuboradiganga o'xshardi. Ko'zlari dahshatli tarzda kattalashdi. Palmer qo'llaridan ushlab qolishga ulgurmay, eshikka yugurib, ko'chaga otilib chiqdi. Iloji boricha tez yurishga harakat qilgan Palmer orqasidan yugurdi. U ko'chaga chiqqanda ayol taksiga o'tirayotgandi. Eshigi qarsillab yopilgan taksi jo'nab ketdi.

Palmer oqshomgi sovuq havoda paltosiz turardi. Balki barning o'rtasidan yugurib o'tsam yaxshi bo'larmidi, deya mulohaza qilardi u. Shu tufayli qo'lga kiritilgan bir necha soniya vaqt Virjiniyani to'xtatib qolishga yordam berarmidi?

Oltmish to'rtinchi bob

Palmer Bernsning uyi burchagiga bordi-yu, birdan to'xtab, yaltiroq oq g'ishtlarga suyandi. Ularning yonoqlariga botayotgan qirralarini his qilgan holda hayrat bilan o'ylab qoldi: navbatdagi qadamini tashlay olarmikan?

U qachondir xuddi hozirgiga o'xshash sarosimaga tushganini esladi. Lekin unda Palmerni hozirdagidek teran aql zarur bo'lmagandi. U hech qachon Berns kabi pastkash bo'lolmasligini, bu borada unga tenglasholmasligini his qildi. Bu odam ustasi farang fitnachi edi. Unda qobiliyatdan tashqari birovlariga makr-hiyla ishlatib, ular chekkan azobdan quvonish, orom olish tuyg'usi mavjud edi.

Biroq ko'pchiligimiz nafas olishni shu yerda o'rganamiz, deb o'yladi Palmer. Gullab-yashnashni ham.

U shunday xayollar bilan Bernsning uyiga kirdi. Liftida ko'tarilar ekan, Virjiniya bilan bo'lib o'tgan suhbatni xavotirlanib esladi. Xavotirlanganiga sabab, ko'nglidagi g'alayon teran fikrlashiga xalal berishi mumkin edi. Biroq u Berns yashaydigan qavatga yetguncha Virjiniya ertaga boshqacha kayfiyatda bo'lishiga, har qanday holatda ham uning qarori uzil-kesil emasligiga o'zini ishontirdi.

U Virjiniya bilan ertaga ertalab gaplashadi. Hammasi yana o'zgaradi.

Bernsning eshigi ochiq ekan. Qo'ng'iroq tugmasini bosgan Palmer uning ichkarida nimadir deb qichqirganini eshitdi. U kirib eshikni yopdi.

— Mana bu boshqa gap, bolaginam! — xitob qildi Berns. — hozirgina ovqat olib kelishdi.

Palmer paltosi va shlyapasini yechib, havoni iskadi: xona mazali hidga to'la edi...

Ular ovqatlana boshladilar.

— Senga atab, bankirlarning latifasini asrab qo'yibman, — dedi Berns qo'lidagi tuzlangan uzun bodring bo'lagini silkitib.

— Tijoratchinikimi yo jamg'arma?

— Irland banklarini bilasan-ku, — davom etdi Berns. — Ularning ko'pi haliyam inglizlarga tegishli. Shunday qilib, qozon qalpoq va hassa tutgan ingliz bankiri Dublinga, yillik tekshiruvga kelibdi. U to'g'ri bankka qarab yuribdi. Kunduzi o'n ikki. Hech kim yo'q. Eshiklar ochiq, kassalarning qutilari chiqarib qo'yilgan, hatto yerto'ladagi seyf ham lang ochiq. Hammayoqda pul. Ammo hech kim yo'q. Uning qattiq jahli chiqibdi. "Trevoga!" signalining tutqichidan tortibdi. Kuchli ovozlari yangrabdi. Qo'ng'iroqlar, Sirenalar! Quloqni qomatga keltiradi! U yugurib ko'chaga chiqibdi. Hech kim to'xtamas emish. Odamlar uning yonidan indamay o'tib ketaveribdi. Bir payt ko'chaning narigi betidagi qahvaxona eshigi ochilib, patnusda to'rt krujka pivo ko'targan ofitsiant ayol chiqibdi va bankka qarab yo'l olibdi. — Berns gapdan to'xtadi.

— Xo'sh?

— Nima xo'sh? Kulmaysanmi, surbet!

Palmer qovog'ini soldi, keyin gap mazmunini tushundi.

— Ular... ular trevoga signalidan foydalanishar ekanmi?

— Ofitsiantni chaqirish uchun, — latifasini tugatdi Berns va jon-jahdi bilan baland ovozda kulib yubordi. — Bo'пти. Yaxshi. — Berns sigaret tutatib, halqa-halqa tutun chiqardi va ularning orasidan Palmerga qiyo qaradi. — Gapimni tingla, Vudi. Men kuchim boricha keskinlikni yumshatishga harakat qilaman. Odatda bunga osongina erishaman. Bir necha kun avval yasama tishlaring uchun seni osishga qasamyod qilgan edim. Biroq sen oyog'im ostidagi barcha g'ovlarni, Jo Lumisni va butun bema'ni rejalarni olib tashlading. Endi bizning vazifamiz aqlar uchrashuvi uchun yo'l topish. Men magnitofon tasma'sini ishga solmay turib senga nemis bilan ko'zboylag'ich o'ynashingga imkon berdim. Shunday qilib, mendan voz kechma. Men bilan suhbatda bo'l. Meni qanchalik yaxshi ko'rishingni ayt.

Palmer bosh chayqadi.

— Bir-birimizni aldamasak, yanayam yaxshi ishlashimiz mumkin. Sen bilan ishlash og'ir, chunki o'rtada ishonch yo'q. Men bilan birga bo'lish senga ham qiyin, sababi bir marta bo'lsa ham laqillatib ketganlarni yoqtirmaysan.

— Yo'q, unday emas. Yutqazganlarni ko'rgani ko'zim yo'q, qariya. G'oliblarga jon deb xizmat qilaman.

Berns kinoyali jilmaydi.

— Qanaqa jang haqida gapiryapmiz? Olbanidagi Bill bo'limlari haqidami yo YuBTK ustidan nazorat uchun kurashmi?

— U haliyam davom etyaptimi? — so'radi Palmer mug'ombirlik bilan.

— Bu haqda hali hech narsa e'lon qilangani yo'q.

— Menimcha, — dedi Palmer o'ychan, — erta-indin norozi aktsiyadorlar Lumisning qo'lini bog'lab qo'ysa, Vashington so'roqqa tutishi bilan qandaydir ko'mitacha Lumisni Jet-Textdan haydash harakatiga tushib qoladi.

Berns tasdiqladi:

— Buni men ham o'ylaganman.

— Muhabbat bobida so'zlayotganimizga sabab ham shu-da.

Berns kaftlarini yuqoriga qaratdi.

— Miyam qay darajada ishlayotganini shunchalik bilar ekansan, nima uchun haligacha menga ishonmayapsan?

— Chunki men ham insonman, Mak. Kunlardan bir kun sirpanib ketishim mumkin. Shu paytda sen meni sotasan. Yana. — Bernsning sarg'amtir-qo'ng'ir ko'zlari katta ochildi. — Qarddon do'st. Meni sotmasligingni qaerdan bilaman?

— Sen sotma.

Berns o'ylanib qoldi, keyin o'rnidan turib, yotoqxonaga kirib, ketdi. Ko'p o'tmay besh quti silliq magnitofon qutichalarini ko'tarib chiqdi.

— Bu — hammasi, — dedi u. — Demoqchimanki, bu — ko'chirib yozilgani emas, asl nusxasi. Bir

santimetr ham yozuv olib qolganim yo`q. Menga ishonasanmi?

Palmer qutilarni olib, go`yo tarozida tortayotgandek, chamaladi.

— O`ta ta`sirchan harakat, Mak.

— Shunday bo`ladi deb o`ylagandim. Endi mega ishonasanmi?

— Virjiniya Kleri boshqa ishga o`tayotgani va bu tasmalar oxir-oqibatda sariq chaqaga ham arzimastligini hisobga olganda, — dedi Palmer, — ishonsam bo`ladi.

Berns bo`shashib stulga o`tirdi va Palmerga tikilib qoldi:

— Bunisi endi ortiqcha, oshna. Bu haqda qachon gapirdi? Bugun oqshomdami?

— Ha.

— Mening hamma harakatlarim puchga chiqibdi-da.

— O`ta qayg`uli. — Palmer jangari qiyofaga kirdi. — Shunday qilib, Mak, ikkimiz ham o`zaro ishonch darajasini aniqlab oldik. Bu Nyu-Yorkcha sovuq usul. Shu yerda to`xtashni xohlasang, kel, ishga kirishamiz.

Oltmish beshinchi bob

Yechilmagan jumboqlar. Palmer lablarini qiyshaytirib, ko`zlarini qisdi: chiroqning yorqin nuridan ko`zlari qamashib ketdi.

U ko`zlarini ochib, yozuv stolida yotgan qog`ozlarni oldi va bugun oqshom Berns bilan tuzgan rejalarida yana qandaydir muammolar qolmadimikin deya ko`zdan kechirdi. Soatga qaradi, tonggi to`rt bo`libdi. Boshqa masalalarga to`g`ri javob topish uchun yana biroz uxlab olish kerak deb o`yladi.

Palmer chuqur nafas olib, telefonga qo`l cho`zdi va Bernsning idora raqamini terdi. U yoqdan ayol kishi cho`ziq ovozda xohlamaygina javob qaytardi: Aterton, Kregi end Mun.

— Mak Berns shu yerdami?

Ayolning ovozi jonlandi:

— Qanday yordam kerak?

— Bu — mister Palmer. Mister Bernsni ulab bering.

— Bir daqiqa, janob Palmer, — U "Palmer" so`ziga shunday urg`u berdiki, Palmer Bernsning ayol bilan bir xonada o`tirganligini va telefon go`shagiga qo`l cho`zayotganini aniq ko`rgandek bo`ldi.

— Hali yotmadingmi, azizim?

— Sen ham xodimlaringni ushlab turganingni sezyapman. Yo bu dasturdan tashqari ko`ngil ochishmi?

— Faqat ishga doir munosabat. Karikatura tamom bo`ldi. Nusxalar tugadi. Bosh qashishga vaqt yo`q... Berns qattiq yo`taldi, — ... Linotipda chiqarishga ko`p vaqt kerak, hisoblash mashinasining yozuv uskunasi ko`paytiraymiz. San`at bo`limidagi yigit tarqatiladigan nusxani bezayapti.

— Qani, eshitib ko`raylik-chi, Mak.

— X-x-o`p, — narigi tomondan sarosimali g`uldirash eshitildi. — Bu yomon emas, — pishilladi Berns. — To`g`rilangan nusxasi, haligi... Jimmi. Yaxshi, Vudi?

— Boshla.

— Mayli, sarlavhasi, hmm, qaerdaydi... "Sotsialistik banklar oxirgi tomchi qonimizni so`rib olishmoqda". Qoyilmi?

— Xudoyim, to`ng`illadi Palmer. — E`tibor berma, davom et.

— Yaxshi. Uning ostida — kattakon hajviy rasm. Ulkan, semiz, iflos bank, "jamg`arma bank" degan yozuv, tomida o`roq-bolg`ali bayroq. Nasosdan shlang chiqarilgan. Senatorga o`xshagan odam nasosni bosyapti. U odam "Davlat qonunchiligi"ni bildiradi. Nasosning shlangi kichkina, Jon K.ning majruh qo`liga sanchilgan tibbiyot ninasiga ulangan. Umuman, xalqdan chiqqan qashshoq. Ninadan bir necha tomchi qon oqib turibdi. Rosa kaltak yeganga o`xshaydi. Cho`ntaklari ag`darilgan. Dala qo`riqchisini eslatadi. Bank atrofida esa u har soniyada yanayaam semirib borayotganini ko`rsatuvchi chiziqlar

chizilgan. Yoqdimi?

— Bu — dahshat!

— Bolakay!

— Ha, ha, — davom etdi Palmer. — Sarlavhadagi “sotsialistik” soʻzini “sotsialist” soʻziga almashtir. Shunda masʼuliyati kamroq boʻladi. Oʻroq bolgʻali bayroqni olib tashla. Yana, xudo haqqi, bir qarab koʻr, qon tomchilarisiz iloji yoʻqmikan? Baribir nishonga tegadi, tanlab oʻtirishga imkonimiz yoʻq.

— Toʻppa-toʻgʻri. Endi maqolaning nusxasini eshit.

— Oʻqi.

— Hmm. U mana bunday boshlanadi: “Xushyor boʻlinglar! Oʻrmalovchi sotsializm arvoh yoki telba odamning alahlashi emas. Sotsialistik anʼanalar davlatimizning yuragida, eng ogʻriq joyi — sizning hamyonlaringizda paydo boʻla boshladi. Soʻz boshi. Keyin Sirakuzadagi nutqingdan bir jumla olamiz, oʻzingga yoqqan edi-ku? Tra-ta-ta. Keyin: “Sotsialistik banklar qoningizni ichishiga yoʻl bermang. Nozik mijoz imtiyozli jamgʻarma banklarni tejalgan omonatlaringiz hisobiga semirishiga yoʻl qoʻymang.” Soʻz boshi. “Sizlar soliqlarni toʻlayapsizlar. Shunday ekan, nima uchun jamgʻarma banklar soliq toʻlashmaydi?” Soʻz boshi. “Sizlar pullaringizni Amerika banklariga qoʻyasizlar. Nima uchun jamgʻarma banklari oʻz pullarini Amerikaga qoʻyishni xohlamaydi?” Soʻz boshi. “Sizlar xususiy tadbirkorlikka ishonasizlar. Nima uchun jamgʻarma banklari unga ishonmasligi kerak?.. Soʻz boshi. “Boshqa davlatlardan kelgan jamgʻarma banklar davlatingiz, xalqingiz qalbini yeyishiga yoʻl qoʻymang”. Abzats. Bu mutlaqo rasvo narsa, toʻgʻrimi, Vudi? Mana, oxiri: “Xushyor boʻlinglar va atrofda nimalar boʻlayotganiga qaranglar. Senatorlaringiz va qonun chiqaruvchi majlis aʼzolarini sudraluvchi sotsializm emas, xususiy tadbirkorlik uchun ovoz berishga undanglar!” Soʻz boshi. “Ularni jamgʻarma banklar haqidagi qonun loyahasiga yoʻq deyishga daʼvat etinglar.” Eng oxiriga “Fuqarolarning xususiy tadbirkorlik boʻyicha mustaqil qoʻmitasi” degan yozuv qoʻshib qoʻyiladi.

Oltmish oltinchi bob

Seshanba kuni birja ochilganda kurs unchalik baland boʻlmasa-da, bir qadar koʻtarilgani kuzatildi. Soat oʻnga borib, Jet-Tex aksiyalari haqidagi telegraf xabarlarini ancha kechikib tusha boshladi. Soat oʻn birda Palmerning dalloli eng ishonchli manbalar orqali aktsiya 35 gacha, yaʼni oʻz tannarxidan 10 band pasayib ketganini aniqlashga ulgurdi.

Soat oʻn birda, Palmer dallol bilan gaplashayotgan paytda Virjiniya Kleri boʻlimida ishlaydigan qiz kunduzgi gazetalarning dastlabki nashrlarini olib keldi. “Jornel ameriken” va “Uorld telegram” Vashingtondan YuPIning Tim Karvi departamentida chaqirilgan matbuot anjumani haqidagi xabarni chop etgan edilar. Bayonot Palmer kutganidek, vahimali boʻlmasa ham, masala mohiyatini toʻliq qamrab olgandi. “Jornel”dagi maqola sarlavhasi bir qadar mavhum chiqqan edi.

Ertalabki oʻndan boshlab qoʻngʻiroq tinimsiz jiringlashga tushdi. Palmer kotibasiga faqat gazetachilar bilangina bogʻlashni tayinladi. Berns uning shaxsiy telefoniga uch marta qoʻngʻiroq qildi: dastlab — Fogel bilan oʻrnatilgan aloqa haqida xabar qildi, soʻng bayonotlar gazetaga yetkazilganini aytdi. Yana bir marta esa klishe tayyorlangani va bugungi birinchi son uchun koʻpaytirilayotganini bildirdi.

Soat oʻn birdan keyin Palmerning kotibasi barcha telefon qoʻngʻiroqlari yozuvini keltirib berdi. Ularning orasida Berkxardt besh marta qoʻngʻiroq qilgani ham qayd etilgan edi. U Konnektikutdagi uyidan telefon qilgandi.

Palmer ensasi qotganicha, interkomdagi “Berkxardt” deb yozilgan tugmachani bosdi. Hech kim javob bermagach, u Konnektikutdagi raqamlarni terdi. Goʻshakni xizmatkor ayollardan biri koʻtardi.

— Yoʻq, janob Palmer, u yarim soatcha oldin ketdi. — U goʻshakni qoʻyib ulgurmasdan yana qoʻngʻiroq boʻldi. U goʻshakni qayta koʻtardi: — Palmer.

— Jorj Mollett. Sizda ishim bor edi.

— Javob ijobiy bo'ladi, — dedi Palmer.

Reportyor kulib yubordi.

— Hozirgina Olbanidagi hamkasblardan biri bilan gaplashdim. Iltimosim shunday: siz Jimmi Fogel ism-sharifli odamni taniysizmi? Men bu haqda unga xabar beraman.

Palmer stul suyanchig'iga yaslandi. Yolg'on gapi rostdek chiqishi uchun asablarini bo'shashtirishi kerak. Aks holda ovozdagi taranglik ichki hissiyotlarini fosh qilib qo'yadi. — Jimmi Fogel deysanmi? — so'radi u. — Bundan osoni yo'q, Jorj. Hech gap emas.

— U haqda biron arziydigan gap eshitmaganmisiz?

— Hech qachon. U bankirmi?

— Balki. U vaqti-vaqti bilan banklarni cho'girtak supurgi bilan supurib turishi bilan mashhur.

— U janob Olbanidanmi?

Mollett yana kuldi.

— Qanchalik dahshatlisiz, — dedi u. — Bular haqida xuddi xiqichoq tutayotgandek tabiiy gapirasiz. Nahotki asablaringiz bo'lmasa?

Palmer reportyorga bor haqiqatni rosmama aytsa, nimalarga ega bo'lishini o'yladi. Va bu sirni hozircha hech kimga ishonib bo'lmaydi degan to'xtamga keldi.

— Bu yigitni bilishim zarurmi, Jorj? — so'radi u.

— Bilmadim. Bu gal men faqat o'rtadagi vositachiman. Balki, Mak Berns bilar? Ikkovlarning yana birga, bir to'shakdamisizlar?

— E'tiboringiz uchun aytamanki, biz bu to'shakni hech qachon tark etmaganmiz. Bir gal uni ishdan bo'shatmoqchi bo'ldim-u, darrov fikrimdan qaytdim, — javob berdi Palmer. — Ma'lumki, janob Berns YuBTKda hamon jamoatchilik munosabatlari bo'yicha maxsus maslahatchi bo'lib ishlaydi. — Palmer biroz jim turdi. Xo'sh, Fogelga nima bo'ldi?

— Pul bilan to'g'iraydigan darajada gap yo'q. Agar siz haqiqatdan ham hech narsa bilmasangiz, fikrimcha, men ham bu haqda gapirmaganim ma'qul. Ammo kunning oxiriga borib hamma narsa ma'lum bo'ladi.

— Birorta siyosiy voqeami?

— Ha. — Reportyor bir necha soniya jim qoldi. — Menga hozirgina kichkina xabar berishdi. Jet-TeXning aksiyalari 32 gacha tushib ketibdi. Oxirgi to'rt yilda ular biror marta ham bu darajada pasaymagan edi.

— Dahshat. Umid qilamanki, Jorj, sizda bu aksiyalardan yo'q.

— Menda? — Mollett sekingina hiringladi. — Men kecha "Klub"da stoldan sakrab turib ketdim. O'sha unutilmas tushlikni eslaysizmi? — Qo'limda borini sira qoldirmay sotib yubordim. Sizningcha, ularni qachon qayta sotib olganim ma'qul?

— Faqat ishonchli aksiyalarni sotib oling, Jorj. YuBTKni sotib oling.

Kabinet eshigi ochildi va ostonada Berkxardt paydo bo'ldi. U Palmerga qattiq tikilib turardi. Palmer Bosh irg'adi va trubkaga qarab:

— Jorj, hozirgina boss kirib keldi. Yana biror narsa kerakmi? — deb so'radi.

— Gapimni tugataman va gaplashuvlarning uchun imkoniyat yarataman, — javob berdi reportyor. — Bechora qari galvarsning aslida nimalar bo'layotganiga fahmi yetmaydi.

— Bo'lishi mumkin, Jorj. Hozircha.

Palmer go'shakni ildi.

— Kim u? — so'radi Berkxardt.

— "Star"dagi Mollett. Telefonigizni menga ulashmagani uchun uzr. Aloqa tizimi faqat gazetachilar uchun ochiq edi.

— Tizimi? — Berkxardtning ko'k ko'zlari g'azabdan katta ochildi. Uning odatdagi qizil yuzi bo'zarib ketdi. G'azab bilan eshikni qattiq yopib, Palmer o'tirgan kattakon xonaning o'rtasiga keldi. — La'nati, — dedi u vahshiyona osoyishtalik bilan o'zini qo'lga olib. — Bankning ososiy ish yurituvchisi o'ziga tobe yollanma malay bilan gaplasha olmaydi. Boshqalarning ishiga burnini suqadigan har qanday

telba senga zudlik bilan qo'ng'iroq qilaveradi. — U asta o'girildi va Palmerga qaradi. — Mayli. Gapir.

— Nima haqida? — qisqa savol berdi Palmer. — Ahamiyat berdingizmi, YuBTK aksiyalarining faolligi deyarli yo'q darajaga tushdi? Hech kutilmaganda ularni xarid qilmay qo'ydilar.

— Ularni sotib olganlar, — ming'irladi Berkxardt — mavjud Jet-Tex aksiyalaridan qutulish bilan band. Sen bizni qanaqa g'alvaga ro'para qilding?

— Biz emas, Jet-Tex g'alvada.

Berkxardt yutoqib, nafas oldi. — Bu — albatta YuBTKga ham ta'sir qiladi, yaramas telba! — bo'kirdi u. Uning ko'zlari dum-dumaloq bo'lib ketdi. — Qanday ahvolda qolishimizni hech bo'lmasa, tasavvur qilasanmi?

Palmer Berkxardt ko'zlarining burchagida pирpirayotgan kipriklariga qaradi.

— Leyn, o'tiring, — dedi Palmer. — Marhamat.

— Menga mehribonlik qilma, baxtsiz mishiqli! — Berkxardt xona to'ridagi kattakon deraza yoniga bordi. — O'zingcha nima ishlar qilayotganingni bilishim kerak. Men hayotimni baxsh etgan idoraning obro'sini xavf ostida qoldirish uchun o'taketgan darajada surbet bo'lish kerak. Bunga qanday jur'at etding?

Palmer sigaret qutisini chiqarib, stol osha Berkxardt tomonga surib qo'ydi.

— Jahlingiz chiqmasin, — dedi u xayolchanlik bilan past ovozda. — Hammasini tushuntirib o'tirishga vaqtim bo'lmadi. Nima bo'lganda ham bu ish oqibatida ikkimizning qay ahvolga tushishimiz avvaldan ma'lum edi.

— Hozirgidek, sen kichkina...

— Tinchlanib, jim o'tiring! — gapini kesdi Palmer. — So'kislaringizni eshitish majburiyatini olgan emasman.

Ikkalasi bir-biriga ehtiyotkorlik va qandaydir horg'inlik bilan tikilib qolishdi. Keyin Berkxardt o'tirib, sigaret tutatdi.

— YuBTKda uzoq qolish niyating yo'q ekan, — dedi u ataylab ta'sirsiz ohangda, — lavozimingni pasaytirish shart emas deb o'ylayman.

— Ahamiyati yo'q, — gapini bo'ldi Palmer. — O'ta kuchli kuzirlar bor. Ularning talablarini shunchaki, chetga surib qo'ysam, katta ko'ngilsizliklar kelib chiqar edi. Ularni qo'llab-quvvatlaganimda meni o'zlarining direktorlar kengashlariga qo'shib olishar, sizni esa birorta faxriy rais lavozimiga surib qo'yishib, katta miqdorda zayom yoki undan ham balandroq yuutuqni qo'lga kiritishar edi. Hozir Lumisning qo'llari o'z muammolari bilan shunchalik bog'lab qo'yildiki, aksiyadorlarimizni yig'ilishida bironta yurish qilishga ham holi qolmadi.

Bir necha muddat Berkxardt sigaretni qisqa-qisqa tortib, atrofni tutunga to'ldirganicha, jim qoldi.

— Jamg'arma banklari-chi? — nihoyat u tilga kirib bo'kirdi.

Berkxardt nimalarni bilishini aniqlay olmagan Palmer mujmal javob berdi:

— Siz, albatta, Jet-Texning Olbanida jang qilishga majoli qolmaganini tushunib olasiz.

— Anavi, ular menga tavsiya qilgan grek-chi?

Palmerning peshonasi tirishdi:

— Livanlik. Siz nima uchun u bilan ishlay olmaganingizni tushunish qiyin emas. Siz hamma chet elliklardan nafratlanasizmi yo faqat Bernsdanmi?

— Bunaqa tanishlarim to'lib yotibdi, — quruqqina javob berdi Berkxardt. — Ularning bir dunyosi bilan ish yuzasidan muloqotda bo'lganman. Biroq Bernsni ko'rgan zahotim kimga to'qnash kelganimni anglagan edim. Eshit. — U stolga yaqinroq engashdi. — Oq tanli odam shunday qila olarmidi?

Palmerning og'zi xunuk qiyshayib ketdi.

Palmer o'rnidan qanday qo'zg'alayotganini sezib turardi. Chamasi, u turmoqchi emasdi. Biroq oyoqqa turgan zahoti Berkxardtnikidan baland bo'lgan o'z ovozini eshitdi.

— Erkakchasiga gaplashib olishni xohlaysizmi?

— Sen bilan jon deb hisob-kitob qilaman.

Palmer stolga engashdi va yuzini Berkxardtning basharasiga yaqin keltirdi.

— Siz umuman haqiqatni bilasizmi o'zi? — so'radi u. — Siz qari firibgar sifatida nom qozonishdan boshqaga yaramaysiz. Qaysi biringizni bankir deb bo'ladi? Jin ursin, sizlar bu ishda nimani tushunasizlar o'zi? Siz mamlakatimizda to'lib yotgan laqma, miyasi yo'q lo'ttibozlardan birisiz. Nari borganda faqat qattiq turtib qo'yishni bilasiz, xolos. O'zingizdan dono yoki nodon odam bilan turtishib qolsangiz, tamom, sho'ringiz quriydi. Jo Lumis sizni sassiq bo'laklarga ajratib xo'rak uchun qoldirdi. Men sizni yopishtirib, yana odam tusiga kiritdim. Mishiqi go'dakka o'xshab baqirishdan boshqa narsa qo'lingizdan kelmaydi. Agar siz jimgina o'tirib, ta'mirni tugatishimga imkon bersangiz — yaxshi. Lekin yana bir marta tilingizga erk bersangiz, sizni pashshalarga yem qilib qoldiraman.

Palmer oyog'i ostidagi pol go'yo dahshatli ravishda chayqalayotganini payqadi. U o'tirdi va o'zini bosishga urindi.

Oradan bir muddat o'tib, ikkisi ham nafratlarini bosib olgach, Berkxardt qutidan yana bitta sigareta oldi va katta deraza oldiga borib, pastga, Beshinchi avenyuga uzoq tikilib turdi. Keyin o'girildi. Yorug'lik orqasidan tushayotgani uchun uning yuz ifodasini ko'ra olmadi.

Berkxardt bo'g'iq ovozda gapirar edi: — Jamg'arma banklarini nima qilmoqchisan?

Palmer yelkasini qisdi.

— Ish yurishyapti, — shoshilmay javob berdi u. — Tafsilotlarni kavlashtirishga hojat yo'q. Bank qo'mitasini shunday qo'rqitamizki, ular qaror chiqarishni kelgusi yilgacha qoldirishadi.

— Bu yordam beradimi?

Palmer ko'zlarini qisib qariyaga qaradi.

— Yordam beradi. To'g'ri, ancha qimmatga tushadi.

— Qanchaga? — savol o'ta hissiz edi.

— Hozirning o'zida yetti ming atrofida. Balki tugatishimizdan oldin o'n ming bo'lar. Bernsning xarajatlari bunga kirmaydi.

— Bernsning?

— Birorta e'tirozingiz bormi?

Berkxardt unga yarim o'girildi. Palmer uning ifodasiz, sovuq yuziga ko'z tashladi.

— Bilmayman, — javob berdi qariya.

Palmerning shaxsiy telefoni jiringladi. U stol yoniga borib, go'shakni ko'tardi.

— Rahmat, Pit, — dedi u va go'shakni ilib qo'yib, Berkxardtga qaradi. — Jet-TEX aksiyalarining bahosi 29 gacha tushibdi. Oxirgi o'n ikki yildagi eng past narx.

Berkxardtning lablari shalvirab, qimirladi. U o'zini uddalay olmayotgan odamga o'xshab qolgandi. Nihoyat u:

— Tabriklayman, — dedi.

— Leyn, sizda ularning aksiyalari bormi?

— Yo'q.

— Arzon paytida biroz sotib olmoqchi emasizmi?

— Yo'q.

— Bunisi yaxshi. Biz YuBTK vakili Jet-TEX aksiyalarini sotib olayotgan paytda qo'lga tushishiga yo'l qo'ya olmaymiz.

Berkxardt bosh irg'adi va go'yo oxirgi o'ttiz daqiqa ichida o'n besh kilogramm vazminlashgandek og'irlashib qolgan qadamini arang tashlab eshikka qarab yurdi. U eshik yonida to'xtadi.

— Yana birorta ko'rsatma bo'ladimi?

— Kayfiyatingizni o'zgartirishga harakat qiling.

— Omadi yo'q odam deb hisoblayapsanmi?

— Eshiting, — dedi Palmer. — Men sizni bilaman. Siz hech qachon, hech kimga vakolatingizni bermagansiz. Chunki o'zingizdan boshqa hech kimga ishonmaysiz. Ana shundan o'zingizni baxtli hisoblagansiz. Boshqa holatda ham baxtli bo'lishga o'rganing-da. Bu — juda oson.

— Qayta o'rganish uchun juda qarib qoldim.

Ana shu daqiqalarda Berkxardtning lablari qimirladi-yu, ovozi chiqmadi. Nihoyat, u qiynalib gapirdi:

— Xatoga yo'l qo'yganim kulgili. Seni juda yaxshi bilaman deb o'ylardim. Seni shunchaki, otasiga o'xshagan o'g'il-da, degan fikrda edim. — Berkxardt xayratda qolgandek ko'zlarini qisdi. — Sen asli kimning o'g'lisan?

— O'zirniki, o'z-o'zirniki, — dedi Palmer go'yo o'zi bilan gaplashayotgandek past ovozda.

— Kimniki?

Palmer yo'taldi.

— Faqat o'zirniki, — aniq-tiniq qilib gapirdi Palmer.

Berkxardt go'yo Palmerning javobini hazm qilayotgandek, bir muddat ostonada turib qoldi. Keyin eshikni ochdi.

— Umid qilamanki, — aynan o'zligingni topish senga yoqsa kerak, — dedi u. — Odatda u menga juda yoqar edi...

Oltmish yettinchi bob

Palmer soat olti yarimda uyg'ondi. Qo'ng'iroqli soatni o'chirib, kabinetni yig'ishtirdi. Yozuv stoli yonidagi orom kursiga cho'kib, o'tgan kunlar voqealari yozilgan qog'ozlarni o'qiy boshladi.

Aktsiyadorlar yig'ilishi bugun soat o'nda boshlanib, kunning yarmida tugashi kerak edi. Agar hamma ish joyida bo'lsa, bir necha oy avval tuzgan rejasi ro'yobga chiqadi — uni direktorlikka saylashadi. Biroq hammasi ravon ketishiga negadir ishongisi kelmasdi.

Shubhasiz, tasodifiy narsani aniq topish lozim. Oila a'zolari birin-ketin uyg'onib, odatdagi kun boshlanguncha u juda ko'p narsalarni o'yladi.

Soat sakkizda telefon jiringladi. U nonushta qilayotgan edi.

— Hozirgina yana besh ming sarfladim, — deb xabar berdi Mak Berns.

Palmer og'zidagi luqmani chala chaynab, yutdi.

— Fogelgami?

— Uni ikki oyga Yevropaga, yubordim. Yetarli muddat, a?

— Men Olbanida hamma narsa silliq kechdi deb o'ylagandim.

— Xuddi ipakdek. Lekin sen ayni damda Fogel "Panamerika" samalyotida uchib ketayotganini eshitib, o'zingni yanada baxtiyor his etmaysanmi?

— Hmm, — Palmer labidagi ushoqlarni artidi. — Bank qo'mitasidan birorta xabar bormi?

— Peshinda bilaman.

— U qanday bo'ladi?

— Chamasi, ular bo'linish haqidagi xabardan qo'rqishadi va uni chiqindi xonaga chiqarib tashlashga urinib ko'rishadi.

— Ajoyib. Keyinroq gaplashamiz, Mak.

Palmer stolga qaytdi va Edis bilan Jerrining gaplarini chala eshitdi.

— ...umuman, sening ishing emas.

— Nima uchun? — qiziqdi qizaloq.

Palmer o'ziga qarash uchun bir soniya boshini ko'targan qizining kulrang ko'zlariga tikildi. Qiz yana taom likopchaga boshini egdi.

— Nimani tushuntiryapsan? — so'radi u.

Edis unga xavotirlanib qaradi:

— Sening ishingni.

— Hmm?

— Men, shunchaki, janob Berns senga bunaqa noqulay vaqtda nega qo'ng'iroq qilayotganini bilmoqchi edim, — tushuntirdi Jerri, — onam aytdiki...

— Onang haq, — gapini bo'ldi Palmer. — Bu — sening ishing emas. — U yana bir burda nonga yog` surdi. — Bir jihatdan esa sening ishing meniki ham-da!

Yana telefon jiringladi. Ular Keyj xonim kimni chorlar ekan deb bir muddat jim o'tirdilar.

— Yana sizni so'rashyapti, janob Palmer.

— Vudi. — Odatda qattiq jaranglaydigan Berkxardtning ovozi bu gal o'ta ehtiyotkorona eshitildi. Lekin Palmer uyqusirashmi yo yana boshqa biror narsa alomatimi — aniqlay olmadim. — Yig'ilish paytigacha uchrashishimiz kerak.

— Soat to'qqiz yarimda kabinetinizda ko'rishsak bo'ladimi?

— Yo'q. U yerga ba'zi direktorlar valaqlashish uchun kirib qolishi mumkin. Soat to'qqizda xonangda uchrashsak-chi? Keyin seni ishbilarmonlar dahasidagi yig'ilishga eltib qo'yaman? Yo'lda gaplashib olamiz.

Palmer bu taklif xususida o'ylab ko'rdi va direktorlardan birortasi ham Berkxardt bilan yaqin aloqadiligimni bilishi kerak emas, degan qarorga keldi.

— Bo'lmaydi, — nihoyat javob berdi u. — Men u yerga borolmayman. Ayrim ishlarimni tugatishim kerak, — yolg'on gapirdi u. — Keyin to'g'ri yig'ilishga jo'nayman.

— Unda, jin ursin, kel, hozir gaplashamiz, — taklif qildi Berkxardt.

— Hozir nonushta qilyapman. Keyinroq qo'ng'iroqlashsak bo'ladimi?

— 15 daqiqadan keyin men ketaman.

Berkxardt anchagina jim qoldi, chamasi, qopqonga tushib qolayotganini anglagan edi.

— Ha, mayli, — deb u go'shakni qo'ydi.

— Palmer soatiga qaradi. 8.20. U o'rnidan turdi.

— Hozir kelaman. — U kabinetiga o'tib, yozuvli qog'ozlarni titkiladi, keraklisini topib, telefon raqamini terdi.

— Eshitaman? — keksa odamning horg'in past ovozi eshitildi.

— Janob Lumis? Men Vuds Palmerman.

— Bir daqiqa. Hozir qarayman, janob Lumis uydami.

Palmer yozuv stoli orqasidagi oromkursiga o'tirdi va yarimlab qolgan sigaret qutisiga qo'lini cho'zdi. Bu yoqqa qo'ng'iroq qilish haqidagi fikr xayoliga yarim tunda, qandaydir noxush tush ko'rganidan keyin kelgandi. Bu g'oya uni shunchalik o'ziga rom qilib oldiki, u o'rnidan turib, bir parcha qog'ozga mulohazalarini yozib qo'ydi, ertalab turgandan keyin ham dastlab shu haqida o'ylagan edi.

U hozir tunda uyg'onib ketgan vaqtdagidek o'ylagan rejalaridan hayajonga tushmayotgan bo'lsa-da, Lumis bilan gaplashish uchun har qanday usulni qo'llashga tayyor edi. Eng asosiysi, undan biron narsa so'rashdan naf yo'q, faqat taklif bilan murojaat qilish lozim. Shunda ham, o'z xulosasini yig'ilish tugashiga sanoqli daqiqalar qolgandagina bildirib, Lumisga o'ylab ko'rish uchun unga vaqt qoldirmagan ma'qul.

— Xayrli tong, janob Palmer, — eshitildi yana bir qariyaning ovozi, ammo u ancha bardam gapirardi.

— Telefonga kelganingiz uchun minnatdorman, janob Lumis, — gap boshladi Palmer. — Siz uchun, menimcha, foydali bir g'oya chiqib qoldi.

— G'oyat ajoyib taklif! — Lumisning ovozi kinoyadan ingichkalashib ketgandek bo'ldi. — Biroq avval ayting-chi, bugun ertalab aktsiyadorlar yig'ilishida sizni ko'ra olamanmi?

— Ko'rasiz.

— Va nihoyat, g'oyangizni eshitishimdan oldin ayting-chi, u menga qanchaga tushadi?

Palmer iloji boricha xotirjam gapirishga urinib, kulib qo'ydi.

— G'oya juda sodda. General Xeygen bilan gaplashib ko'rsangiz bo'lmaydimi?

— Nima haqida?

— Qo'shilish haqida.

Simning narigi tomonida jimlik cho'kdi. Keyin:

— Siz buni Eddi Xeygen bilan muhokama qildingizmi?

— Yo'q.

— Siz shunchaki, qalb amri bilan menga o'z g'oyangizni bildiryapsizmi? — yana maydalashtirdi

Lumis.

— Unchalik emas, — tan oldi Palmer. — Mana, bir necha kundan beri o'ringizda bo'lganimda, bu vaziyatdan qanday chiqib ketardim deb boshim qotadi. O'zinga topgan rejam ishonchliga o'xshab tuyulyapti.

— Xeygen — bilan do'stsiz. Sizningcha, uning munosabati qanday bo'ladi?

— Tasavvur qila olmayman. Siz bilan buni yig'ilishdan keyin, ovqatlanayotib, muhokama qilganimiz ma'qulmikin?

— Ha-a juda qiziq, — dedi Lumis ko'proq Palmerga emas, o'ziga gapirayotgandek. — Agar biz qo'shilsak, Gauss Jet-TEX uchun ishlay boshlaydi va tekshirish olib borayotgan kichik qo'mitaga arziydigan ish qolmaydi. — Lumis uzoq jim qoldi. — Fikrlaringizni har doim quvvatlaganman deya olmayman, janob Palmer, biroq ba'zan ularning natijasiga qoyil qolganman.

— Sizga nisbatan men ham shunday fikrdaman, janob Lumis, — javob berdi Palmer. — Aytingchi, janob, bugungi yig'ilishda aktsiyadorlarning kayfiyatini o'zgartirishga imkoniyatingiz bormi?

— Ha-ha. Men ikkilanayotganimni bildirishim va shovqin-suron ko'tarishim mumkin. — Meni qo'llaydiganlar bor.

— G'oyamning muvaffaqiyat qozonishi qanchalik shovqin ko'tarilishiga bog'liq — dedi Palmer. — Tashqarida to'palon qilish uchun uydagi ishlarni pishitib qo'yish kerak. Siz ham shunday hisoblaysizmi, janob Lumis?

— Keling, boshimizni qotirmasdan gaplashaylik, — taklif qildi Lumis. — Agar siz Xeygen qo'shiladi deb jiddiy so'z bersangiz, men xam yig'ilish tinchgina o'tadi deb va'da beraman.

— Nimayam derdim, xizmatga xizmat-da. Mayli, shunga kelishamiz.

— Bitta tuzatish bilan, — qo'shimcha qildi Lumis. — YuBTK Jet-TEXning zayom haqidagi iltimosini bajarishi kerak.

— O'sha summa va o'sha shart bilanmi?

— Buni ixtiyoringizga havola etaman.

— Unda summa va shart boshqacha bo'ladi.

— Janob Palmer, hammasi qo'lingizda.

— Rahmat, janob Lumis.

— Marhamat, janob Palmer.

— Biz bu haqda keyin yana gaplashamiz, janob Lumis.

— Sabrsizlik bilan kutaman, janob Palmer.

— Xayr, janob.

— Ko'rishguncha.

Palmer sigaretni o'chirib, oromkursidan sakrab turdi. Miyig'ida kulib, oshxonaga yo'l oldi.

Derazadan tashqariga qarab, bankning "Kadillak"i kelib, kutib turganini ko'rdi. Haydovchi odatdagidan o'n daqiqa oldin kelibdi, deya xayolidan o'tkazdi Palmer.

"Kadillak" sharq tomonga burilib, Ist-river-drayvning tor ko'chalarida g'izillab ketar ekan, Palmer orqa o'rindiqda hordiq chiqarib borardi. Palmer "Tayms"ni varaqlab, Jet-TEXdagi tekshiruvga doir xabar gazetasining ishchi bo'limiga, sahifaning eng pastiga kichkinagina qilib berilganini ko'rib, qoniqish hosil qildi. U birjalar jadvaliga bag'ishlangan sahifani ochib, Jet-TEX aktsiyalari 31 ga tenglashganini, YuBTKniki esa yarim bandga pasayganini ko'rdi. Ularni hozir hech kim sotib olmayotganiga asoslanib, bu aktsiyalar keyingi bir necha hafta ichida olti oy oldingi holatga qaytishi mumkinligiga ishonadi.

Palmer YuBTKga yetmasdan shaharning ishbilarmonlar dahasida mashinani to'xtatib, haydovchiga javob berib yubordi. U tamaki sotiladigan do'konchaga kirib bir quti sigaret xarid qilib, qaytimiga ikki dollar oldi. So'ng do'kondagi yagona telefon budkasidan Nyu-Ingledga, Eddi Xeygenning idorasiga qo'ng'iroq qildi.

— Avtomatdan qo'ng'iroq qilyapman, — dedi u Xeygenga. — Meni hozirgina Jet-TEXdan o'smoqchilab, tekshirib ko'rishdi.

- Nima gap, og'ayni? — so'radi Xeygen. — Oshqozoning og'riyaptimi?
— Diqqat bilan eshit, — dedi Palmer. — Ular sizlar bilan qo'shilish haqida gaplashmoqchi.
— Men nima deyishim mumkin, jin urgur? — asabiylashdi Xeygen. — Men maslahatlashishim zarur bo'lgan jiddiy mahkama bor.
— Jet-TeXga bu taklifni idorang bilan muhokama qilib ko'rishingni aytsam bo'ladimi?
— Jin ursin, aytsang aytaver. Biroq, Vudi.
— Ha?
— Armiyadosh eski qadrdonim, oxirgi xizimating tufayli ta'zirimni yedim. Bu gal ishonchli himoya zarur.
— Qanaqa ximoya?
— Agar Jet-TeX bilan qo'shilsak, ular YuBTKdagi zayomlarining taqdiri yaxshi munosabat o'rnatilishiga bog'liqligini tushunishlari kerak.
— Voy xudoyim-ey! Eddi! Haddan oshib ketma...
— Rozimisan yo yo'qmi? — takrorladi Xeygen.
— Albatta, ha deyman-da. Biroq mendan tashqari direktorlar kengashi ham bor.
— Yaxshi. Jet-TeXga ayt, menga qo'ng'iroq qilishsin. Kim edi, Lumismi?
— Xuddi o'zi.
— Bu uchrashuvga temir sovut kiyib kelishimni eslatib qo'ygin. Ko'rishguncha eski armiyadosh do'stim.
— Ko'rishguncha, qari qurumsoq.

Palmer Broud-strit bo'ylab xotirjam keta boshladi.

Havo toza ammo sovuq edi. Baland binolar orasidan osmon go'yo bir bo'lak muz parchasiga o'xshab ko'rinardi. Palmer qandaydir ulkan qanotlarning pirillab aylanishidan chiqayotgan ovozni tinglab burchakda biroz qarab turdi. Ko'zlarini qisib, musaffo osmonga ko'tarilib borayotgan vertolyotni ko'rди. U aylanayotgan qanotlariga osilgan holda go'yo o'ljasini kuzatayotgan qarchig'aydek, havoda bir muddat charx urib to'xtab turdi. Keyin bir silkinib olib, yuqoriga ko'tarildi va shu zahotiyoq ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bir lahza o'tmay uning ovozi avtomobillarning shovqinida yo'qolib ketdi.

U YuBTKning bosh boshqarmasi tomon asta ketib borar ekan, begona bu muhitda o'zi yoki boshqa birorta sofdil odam yashay olarmikin, deya xayol sura boshladi. Kutilmaganda, qandaydir murakkab tuyg'ular bilan birga xayolida Virjiniyaning siymosi paydo bo'ldi.

U telefon budkasiga kirib, idorasiga qo'ng'iroq qildi, biroq shu zahoti go'shakni tutqichga qayta ilib qo'ydi. Yig'ilishdan keyin, yo'q, yaxshisi, bankdan qaytayotib, qo'ng'iroq qilaman-da, biror yerda o'tirishga taklif etaman, deb o'yladi. U ikkalasi nimalar haqida gaplashishini aniq tasavvur qilolmasdi. Hammasi tamom bo'lganga o'xshardi. Biroq uni biron joyga chorlab, gaplashib olsa, o'ziga yaxshi bo'lishi aniq. Hatto rad etgan taqdirda ham, o'zini qo'lga olishi oson kechadi.

U bir soniyagina xona devoriga suyanib turdi. YuBTK eshigi yoniga yana bitta mashina kelib to'xtadi va undan uchta kekxa direktor tushdi.

Qiziq, deb o'yladi Palmer, bu kekxa jentlmenlar bugungi yig'ilishning asl sababini bilarmikin? Keladiganlarning ayrimlaridan boshqa birortasi Palmer qilishga majbur bo'lgan xiyonat, yolg'on, tovlamachilik, pora vositasida o'ziga og'dirish va tazyiq o'tkazish turlarini va tazyiqqa qarshi uyushtirilgan hiyla-nayranglar, ustamonliklar borasida shubha qilarmikan, bularni sezarmikan?

Ular o'z vitse-prezidentlarining yosh muloyim chehrasida haddan tashqari aqlli, yetuk, ma'lumotli oq tanli protestantni, manfaat unadigan ishda har qanday xizmatga shay insonni ko'ra olganmikanlar? Yo ularning tasavvurida fitnachi, yolg'onchi va xoin siymosi gavdalandimikin? U majburan bajargan boshqa rollarni ko'rish uchun loaqal birontasi artistlarga xos sahna orqasidagi hayotga ko'z qirini tashlay oldimikin?

Palmer telefon xonasidan qarab turar ekan, ularning birortasi ham o'ziga bog'liq biron-bir jihatni payqamaganligini sezdi. Hatto Berkxardt yoki Lumis ham mahorat bilan uyushtirilgan nayrangning

mayda-chuyda tafsilotlari, yolg'on-yashiq iplardan to'qilgan to'rini ko'rishdan ojiz edilar. Ular o'z tasavvurlariga mos keladigan odamdan boshqasini ko'rishga qobil emas edilar.

Kutilmaganda Palmer ular o'zlaricha haq ekanligini his qildi. O'zi ham ana shu odamlardan biriga aylanib qolgan edi. Va nihoyat...

U telefon xonasidan chiqib, asta-sekin bank tomonga qarab yura boshladi.

Chorrahaga kelganda Palmer hech kutilmaganda ko'cha o'rtasiga o'zini urdi. Quloqlari ostida avtomobilning vahimali chinqirig'i yangradi. Palmer hech narsaga e'tibor bermay yurib boraverdi. Qo'lansa daryo hidi dimog'iga to'lib ketdi.

Palmer gavanga orqa o'girdi va ufqning notekis chizig'iga tikilganча bunday serg'alva hayotga yana qancha chiday olarkinman, deb xayolan o'zidan so'radi. Edis bilan birga bu dahshatli shaharda shod-xurram yashay olamizmi, deb ham o'yladi. U Michiganning sokin ko'llarini, qalin o'rmonzor tepaliklarini eslar ekan, yozni qanday o'tkazamiz, degan o'y xayolidan o'tdi. Ammo bironta savolga javob topa olmadi.

Moliya binolari joylashgan xududdagi qoyadek tikkaygan silliq oq marmarli baland binolar ustida yana bitta qoya paydo bo'ldi: havo harorati va vaqtni bildiruvchi jadval miltillay boshladi.

U qo'llariga ko'z yugurtirdi: kichkinagina o'tkir, qoramtir zang bo'lakchalari kaftlariga yopishib qolibdi. U kaftlarini bir-biriga ishqalab, tozaladi.

Biroq, janoblar, mening yoshimda hech kim iste'foga chiqmaydi-ku, deb o'yladi u shu asnoda. Men pianino chalmayman, marka yig'mayman, suratlar chizmayman-ku.

Palmer nihoyat bankka kirdi, eshik og'asi ta'zim qilib, salom berdi. Palmer jilmayib, bosh irg'adi va tilla suvi hamda yashil ranglar qarishib ketgan bu baland ulug'vor koshona ostonasida bir lahza turib qoldi. U tinimsiz chiqillayotgan hisoblash mashinalarining g'uvuriga quloq soldi. Bir tekis chiqayotgan ovozlardan mashina jamg'arma hisoblarining bir choraklik kartochkalarini sanayotgani va chop etayotganini angladi.

Uning yuzidagi tabassum sekin-asta yo'qolib bordi. Ko'pchilik xizmatchilar uni nimalarga qodirligini anglagan holda ehtiromla kuzatib turishganini his qilgan ko'yi lift tomon yo'l oldi. U, ayni zamonda, hozirgi ko'rinishi hammada ishonch uyg'otadigan darajada ekanligini ham bilib turardi. U bank bilan birga yuksalib borayotganga o'xshardi.

Va nihoyat, uning ne chog'li ishlarga qodir bo'lgan aqli, kuch-qudrati faqat mana shu dovonda to'xtab, toliqib qolmasa bo'lgani...

Roman juz'iy qisqartishlar bilan bosildi.

*Ruschadan
Fayzi SHOHISMOIL,
Amir FAYZULLA,
Shahzoda XUDOYBERDIEVA,
Jahongir ABDULLAEV
tarjimasi.*

R u m p y e l — kemanding rul pishangi.

Y a r d — 0,91 metr.

P r i c h a l — qayiqqlar to'xtagach, qoziq-ustunlarga bog'lab qo'yiladigan maxsus joy.

Birja aksiyalari narxi ko'rsatkichi.

K l i m a k s — jinsiy bezlar faoliyatidagi o'zgarish.

YuBTK — «Yunayted benk end trast kompani».

B a n k n o t — bank tomonidan chiqariladigan va pul o'rnida yuradigan foizsiz kredit chiptasi.

K l y e r k — yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi xizmatchi.

F u t — 30,48 sm.

M i l — 7420 metr.

A k t i v — balansning kirim, daromad va moddiy boyliklar qismi.

I y e r a r x i y a — quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi.

W i e g e t h ' s — Ahvollar qalay? (*nemischa*).

S e i d g e s u n d — Salomat bo'linglar (*nemischa*).

“W h o ' s w h o” — so'zma-so'z “kim aslida kim” bo'lib, taniqli arboblarning tarjimai holiga oid ma'lumotlardan iborat kitob.

R o t a t o r — qo'lyozma va hujjatlarni ko'paytiradigan maxsus apparat.

I p o t y e k a — ko'chmas mulkni garovga olib beriladigan qarz.

T i j o r a t k r y e d i t i — savdo-sotiq uchun nasiya, qarzga pul berish.

M y e t r d o t y e l — bosh oshpaz.

A n g l i k a n — protestant dinining Angliyada tarqalgan mazhabi.

* Ko'zingga qara!

* Lotin Amerikasida SHimoliy amerikaliklarni shunday atashadi.

* Brextning “Uch liralik opera” pesasi qahramoni.

* Siz xafamisiz?

* Nemischa gaplashayapsanmi?

* Eski urush.

* Ikkinchi.

* Frantsuzchada sportga oid so'z bo'lib, “Taslim bo'ldim”, “shahar berdim” kabi ma'nolarni anglatadi.

* Markiz Kvinzberri XVIII asrda havaskor bokschilar jamiyatiga asos solgan va sportning bu turiga qat'iy qoidalar ishlab chiqqandi.

T a m m a n i — Nyu-Yorkdagi demokratik partiya tashkiloti. “Yo'lbars” — shu tashkilot laqabi.

* Ofitsiantlarning ovqat va idish-tovoq tashiydigan qutisimon aravachasi. (*Tarj.*)

* Isbottalab narsa (*lot.*).

* Stoun og'irlik o'lchovi (*ingl.*) — 14 funt-64,4 kg. Funt — 453,6 g.

* Tavba-tazarruga ikkinchi darajali narsa deb qaraydigan diniy o'ynash.

* Vaqtinchalik qo'nalg'a (*frants.*).

* Bu yerda! Shunday (*nem.*).

* Eski do'st (*nem.*).

* Bilasanmi? (*nem.*).

* So'nib bo'lgan (*nem.*).

* Spidometrda raqamlar milni ko'rsatadi; bir mil 1603 m. ga teng.

* Ishlar qalay? (*Nem*).

* Shunday emasmi? (*nem*).

* Dushanbagacha, eski qadrdonim, dushanbagacha (*nem*).

* Ko'p (*isp*).